



QANDOV BAHODIR MIRZAYEVICH

FALSAFA



2/14
941.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

- 13969/57 -

QANDOV BAHODIR MIRZAYEVICH

FALSAFA

O'QUV QO'LLANMA



TOSHKENT 2022

“YANGI CHIRCHIQ BOOK” nashriyoti



1-FILIALI

UO'K: 1/14
KBR: 87

Q-17

Mas'ul muharrir:

Q.N.Nazarov – "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti, "Gumanitar fanlar" kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori.

Taqrizchilar:

B.T.To'ychiev – O'zbekiston Milliy universiteti, «Falsafa tarixi va mantiq» kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori;

G.G'.G'aflova – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi, falsafa fanlari doktori.

Ushbu o'quv qo'llanmada falsafa fanining predmeti va obekti ga tegishli masalalar ilmiy-uslubiy tizimlashtirilgan holda yangi dastur asosida tayyorlangan. Mazkur o'quv qo'llanmada falsafaning umumnazariy masalalari, uning mantiq, etika va estetikaga, dinshunoslikka doir yo'nalishlari bo'yicha umumiy ma'lumotlar, ushbu sohadaqi qonunlar va kategoriyalar, asosiy tushunchalar va tamoyillar haqidagi bilimlar, shuningdek, falsafiy dunyodag' falsafiy fikrlarning rivojlanish tarixi, borliq hamda o'lamni falsafiy anglash va bilish muammolari, o'lam va odam, inson va jamiyat aloqadorlik munosabatlari, qonuniyalari tahlil etilib, muxtasar tarzda bayon qilingan.

Mazkur o'quv qo'llanma ijtimoiy fan sohalari uchun mutaxassis tayyorlamaydigan oliy o'quv yurtlari bakalavr talabalariga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentabridagi 302-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9238-1-2

B.M. Qandov / Falsafa / O'quv qo'llanma. – Toshkent: CHDPU, 2022. – 420 bet.

© Yangi chirchiq book 2022 yil

KIRISH

Mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo'li Respublikamizda fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Fanning barcha sohalaridagi kabi falsafada tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zero, eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishni shakllantiradi.

Falsafa fani hamisha odamlarni o'yash va fikrlashga, mustaqil dunyodag' egasi bo'lishga, o'lamning, tiriklikning mohiyatini, inson xayotining ma'no-mazmunini anglashga o'rgatib kelgan.

Bugungi globalashgan XXI asrda yoshlarni axloqimizga zid bo'lgan illatlardan himoya qilish dolzarb vazifadir. Go'zal axloq va odob bilan belgilangan ma'naviy fazilatlar insonlar o'rtasidagi barcha munosabatlarga singib ketganidan keyingina chinakam axloqiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham axloqiy qadriyatlar barcha davrlarda insonning ma'naviy kamoloti, jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni hal etish imkoniyati inson shaxsini tartyalash orqali yaratilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Yoshlarimiz haqi ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi".

Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosisining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir. Falsafani bilmaydigan odam – meditsina yoki ta'lim, san'at yoki madaniyat sohasi vakili bo'ladimi, bundan qat'iy nazar – hayotning, o'z kasbining ma'no mazmunini yaxshi tushunmaydi. Falsafaning asosiy vazifasi inson ongida ezgu intilishlar, yuksak ma'naviy qadriyatlarga mos dunyodag' shakllantirishdan iborat. Bunday dunyodag' biron-bir g'oyani zo'rlab singdirish yoki quruq yod oldirish orqali emas, balki

ishonitirish, xilma-xil fikrlarni o'raga tashlash, muhokama qilish, zarur tushuncha, tamoyillarni aniqlash jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Falsafani yaxshi o'zlashtirgan insongina buyuk allomalar orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantirish va takomillashtirishga munosib hissa qo'sha oladi.

Ana shularni hisobga olgan holda, mazkur kitobda quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi:

- falsafani jahon madaniyati va sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish;
- falsafiy g'oyalar, muammolar, oqim va yo'nalishlarni tavsiflashda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning uyg'unligi tamoyiliga amal qilish;
- har bir mavzuni istiqbol va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda tushuntirish.

Biz bu jarayonda biror-bir g'oya, oqim, yo'nalish yoki falsafiy ta'limotni mutlaqlashtirib, boshqalarining ahamiyatini kamitish fikridan yiroqniqiz. Aksincha, maqsadimiz ularning barchasini xolis talqin etish, talabalarda falsafa fani, xilma-xil falsafiy oqimlar, atiqi faylasuflar va ularning ta'limotlari haqida to'g'ri va xolisona tasavvurni rivojlantirishdan iboradiri.

Ushbu kitobni nashrga tayyorlashda «Falsafa», «Falsafa asoslari», «Mantiq», «Etika», «Estetika», «Dinshunoslik» fanlari, falsafa tarixi va taraqqiyoti, mantiqshunoslik, axloqshunoslik hamda nafosatshunoslik kabi yo'nalishlarda chop etilgan kitob, qo'llanma va darsliklardan ijodiy foydalanildi.

Falsafa fani barcha zamonlarda va mamlakatlarda hamma universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida o'rganish uchun majburiy sanalgan fundamental fanlardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Mazkur o'quv qo'llamada falsafiy muammolarga yangicha falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondoshilgan, nazariya va amaliyot uyg'unligiga e'tibor qaratilgan.

I-mavzu. Falsafa: uning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli

Maqsad va vazifalar:

Talabalarda falsafa fani haqida, uning ijtimoiy gumanitar fanlar tizimida turgan o'rni haqida, tanning asosiy vazifalari haqida, mustaqillikka erishganimizdan keyingi davrda yangicha milliy tafakkurga ega bo'lgan barkamol avlodni shakllantirishda falsafa fanining o'rini ochib berish. O'quvchi va talabalar o'zaro munozara jarayonida falsafa fani rivojlanishining beshigi bo'lgan Qadimgi Sharq, Antik dunyo va Markaziy Osiyo uyg'unish davri faylasuf olimlari ta'limotlarining mazmuni bilan tanishish va o'zlashtirish orqali hozirgi zamon milliy falsafamiz rivojiga ularning bevosita ta'sirini chuqur anglab yetmoqlari lozim.

REJA:

1. Falsafiy bilimlar tizimi va uning g'oyaviy ildizlari.
2. Ijtimoiy gumanitar fanlar tizimida falsafaning o'rni.
3. Falsafaning asosiy funksiyalari.
4. "O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" va falsafiy bilimlar rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini o'rganish va o'rgatish vazifalari.
5. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq va G'arb falsafasi.

Tayanch tushunchalar: Falsafa, faylasuf, falsafiy muammolar, falsafaning milliyligi, falsafaning umuminsoniyligi, falsafiy nazariyalar, falsafiy fanlar, falsafaning asosiy vazifalari. Asotir tafakkur, Qadimgi Misr, Bobil, Tavorl, Uyg'unish davri, Sharq renessansi, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, tasavvuf falsafasi, temuriylar davri, gumanizm, Alisher Navoiy, Jomiy, jadidchilik. Qadimgi Yunon, Qadimgi Rim, Suqrot, Milet maktabi, Eley falsafasi, Demokrit, Afloctun, Arastu, g'oyalar va soylalar dunyosi, sxolastika, patristika, dualizm, realizm, Avgustin Avroliy, Ioma Akvinskiy, uyg'unish davri, Renesans, Gegel, Bekon, Dekard, Yum.

Mavzuning qisqacha bayoni:

1-savol. Falsafiy bilimlar tizimi va uning g'oyaviy iildizlari.


Birinchi masala mazmuni yoritishda bizning nazarimizda ustoz va talabalar shu narsaga diqqatlarini qaratishlari lozimki, mustaqillik bizga nafaqat siyosiy erkinlikni, balki, millatimizga millatdek, xalqimizga xalqdek yashash, mustaqil fikrlash erkinligini ham berganligini, shu tufayli biz falsafani, uning tarixini, dunyoviylik, insonparvarlik nuqtayi-nazaridan o'rganish imkoniyatiga ega bo'lganligimizni e'tirof etmoqlari lozim. Mamlakat hayotini demokratlashtirish jarayoni qanchalik kengaysa va chuqurlashsa, fuqarolarimiz falsafiy iqtidoriga bo'lgan talab shuncha oshib boradi. Bundan tashqari falsafa ilmining yana bir muhim jihati shundaki, u qanchalik o'zlashtirilsa, o'zlashtiruvchi o'z oldiga yana yangi-yangi muammolarni qo'yaveradi, qo'yilgan har bir muammoning yechimi yangi bir muammoning debochasi hisoblanadi.

Insoniyat bugungi kunga kelib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdi. Fan va texnika, madaniyat va maorif beqiyos rivojlandi. Odamzod o'zining aql-zakovati va mehnati bilan juda ko'p yangiliklar yaratdi. Dunyoning ko'plab sir-asrori kashf etildi, buyuk ixtidorlar qilindi.

Ma'naviy boyliklar orasida falsafa ilmidagi to'plangan hikmatlar xazinasini eng muhim o'rin tutadi. Har bir davrning buyuk donishmandlari bo'ladilar. Ular o'z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu-intilishlarini falsafiy ta'limotlarida, muayyan darajada, ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnagi uchun xizmat qiladigan yuksak g'oyalarni o'rta tashlaganlar. Xalqni buyuk maqsadlar sari etaklovchi bayroq sifatida namoyon bo'ladigan bu g'oyalarning muayyan davr mafkurasi aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, falsafa o'zi nima, degan masalaga to'xtalib o'taylik. U insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardandir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak, uning o'zi kabi qadimiydir. U olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, ummning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida bahs yuritadigan fandir.

Falsafa fan sifatida borliqni, ya'ni tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy muammolarini o'rganadi. Bundan kelib chiqqan holda falsafiy bilimlar doirasi ham juda keng bo'lib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:



Falsafa fanini o'rganish jarayonida talabalar falsafiy atamalar bilan ishlash ko'nikmasini hosil qilishlari lozim. Shu nuqtayi nazardan avvalo, **falsafa o'zi nima**, degan masalaga to'xtalib o'taylik. Falsafa asoslari bayon qilingan aksariyat darsliklarda ushbu atama qadimgi yunon tilidagi «philosophia» so'zidan olingani va «donishmandlikni sevish» («filo» – sevanan, «sofiya» – donolik) degan ma'noni anglatishi ta'kidlanadi. Bu - ushbu so'zning, atamaning lug'aviy ma'nosi bo'lib hisoblanadi. Asrlar davomida filosofo'ya so'zining ma'no-mazmuniga xilma-xil qarashlar, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi o'rniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar bo'lgan, bu atamaning mohiyat-mazmuni ham o'zgarib borgan.

Falsafa tabiat, jamiyat va insonning mohiyati haqidagi eng umumiy bilimlarni

o'zida ifodalab, insonni borliqqa bo'lgan munosabatining metodologik asoslarini belgilab beradi, tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining eng umumiy muammolarini o'rganadi va falsafiy dunyog'arashni shakllantiradi. Falsafiy bilimlar

tizimi va uning g'oyaviy ildizlari haqida talabalarda to'liq tasavvur hosil bo'lishi uchun, falsafa bundan 3 ming yil ilgari fan sifatida paydo bo'lganligini fanning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini ikkinchi mavzudagi materiallar asosida olish mumkin.

Insoniyat tarixining turli davrlarida falsafa nima va u nimani o'rganadi degan savollarga turli mutafakkirlar turlicha javob berib kelganlar. Falsafa fanining taraqqiyotida muayyan umumiy nazariy qarashlarni tushunish uchun talabalar quyidagi mutafakkirlarning asarlariga murojaat qilishlari maqsadga muvofiq.

1. Lukreiy Karning «Narsalarning tabiati to'g'risida», 2. Ahmad al-Farg'oniyning «Astronomik risolalar», 3. al-Xorazmiyning «Vasaya: az – Zijji mumtaxana», 4. J.Brunonning «Dunyoning ikki sistemasi to'g'risida suhbat», 5. Didroning «Tabiatni bayon qilish haqida fikrlar», 6. P.Golbaxning «Tabiat sistemasi», 7. Gegelning «Tabiat falsafasi», 8. A.Gersenning «Tabiatni o'rganish haqidagi xatlar», 9. F.Engelsning «Tabiat dialektikasi» asarlari, mustaqillik va milliy falsafa mohiyatini tushunish uchun birinchi prezidentimiz I.A.Karimov va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev asarlarining ahamiyati kattadir.

Ular inson hayotining ma'nosi va mazmuni nima belgilaydi, insonning dunyodagi o'rni qanday, inson dunyoni bila oladimi, falsafa insonni qaysi jihatdan o'rganadi?, kabi savollarga javob izlaganlar. Bu muammolar haqida turli davrlarda yashagan mutafakkirlar turli xil fikrlar yuritganlar va ko'plab asarlar yozganlar. Jumladan: bunga Arastuning «Etikasi», Ibn Sinoning «at-Tadabaru monazili» (Davlatni boshqarish), Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilik», Ahmad Yassaviyning «Xikmatlari, Amir Temurning «Temur tuzuklari», Erazm Rotterdamskiyning «Xristian jangchisi quroli», T.Gobbsning «Inson tabiati», B.Spinozaning «Ilohiy-siyosiy traktat» va «Aql kamoloti haqida traktat», A.Gelvetziyning «Inson haqida», I.Kantning «Osmon umumiy tarixi va nazariyasi», «Sof aqlni tanqidi», Gegelning «Ruh falsafasi», L.Feyetbaxning «Xristianlikning mohiyati» asarlari misol bo'la oladi. Bu asarlarning mualliflari o'z davrdagi ilm-fan asosida insonning boshqa mavjudotlardan tub farqlari,

mohiyati, hayotining ma'nosi va mazmuni, bu yorug' olamdagi o'rni, o'limi va abadiyligi kabi muammolarni yoritganlar.

Yuqorida avtirlanganlardan ma'lumki, falsafaning bahs mavzusi har doim o'zgarib kelgan. Lekin shu narsa ko'zga tashlanadiki, insonning mohiyati va borliqqa munosabatini o'rganish falsafiy tafakkurning negizini tashkil etadi.

2-savol. Ijtimoiy gumanitar fanlar tizimida falsafaning o'rni.

Ikkinchi masalani o'rganishda talabalar falsafa fani boshqa ijtimoiy fanlar huquqshunoslik, iqtisodiyot fani, siyosatshunoslik va boshqa shu singari fanlar ma'lumotlarini muayyan bir nuqtayi nazar ostida falsafiy jihatdan umumlashtirib berishiga diqqatlarini qaratmoqlari lozim. Falsafa va ijtimoiy fanlarning predmet-mazmun jihatidan o'zaro bir-birining tarkibiga singib ketishi falsafani jamiyatshunoslik bilimlari qatoriga kiritish imkonini beradi.

Falsafa fani xuddi ijtimoiy, tabiiy fanlar singari mustaqil fandir. U o'zining mustaqil obyekti va predmetiga ega. Falsafaning predmetini «olam-odam-inson» tizimi tashkil etadi.

Bir-biriga nisbatan qarama-qarshi bo'lgan olam va inson dunyosi ayni vaqtda bir-biri bilan uzviy aloqadagi dunyolar hamdir. Shuni alohida qayd etish lozimki, umuman olinganda moddiy olam va uning mavjudligiga xos bo'lgan qonuniyatlار falsafaning predmeti tarkibiga kirmaydi, balki, uning insonga aloqador bo'lgan eng umumiy jihatlariгина Falsafa fani predmetining tarkibiga kiradi xolos. Moddiy olam uning mavjudligi to'g'risidagi qarashlar, g'oyalar va nazariyalar aniq fanlar tomonidan o'rganiladi. Inson tomonidan haqiqat, go'zallik, yaxshilik, adolat nuqtayi-nazari orqali yaratilgan olamning universal suvrati Falsafada dunyogarashni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Talabalar falsafiy bilimlar tizimi ilmiy bilimlar sohasiga mansub ekanligini falsafaning ilmiylik mezonlari quyidagi tamoyillardan iboratligini bilishlari lozim.

1) **Obyektivlik tamoyili.** Ilmiy bilimlar tabiiy obyektlar mazmunini u qanday bo'lsa shundayligicha ochib berishi bilan bog'liqdir. Bunda individ manfaatlaridan hamda barcha tabiatdan tashqari kuchlardan begonalashish hodisasi sodir bo'ladi. Tabiatni uning o'zidan kelib chiqqan holda o'rganish talab qilinadi.

2) **Ratsionallik, aqliy tarzda asoslanganlik, isbot qilinganlik.** Ilmiy bilimlarda biror narsa haqida shunchaki xabar berilmaydi, keltirilgan fikrning ma'nosi, mazmunini tasdiqlaydigan zarur negiz, asoslar keltiriladi. Bu yerda etarli asos keltirish tamoyili amal qiladi.

3) **Bilimning obyekt mohiyati,** uning qonuniyatlarini qavra tiklashga qaratilganligi.

4) **Bilimning o'ziga xos hodisa sifatida, tizimlilikgi:** bu yerda gap kundalik oddiy bilimlarni shunchaki tartibga solish to'g'risida emas, balki chuqur anglab etilgan tamoyillarga ko'ra tartibga solish haqida; nazariy tizim haqida boribmoqda.

5) **Sinab ko'rish, tekshirib borish:** bu yerda gap ilmiy kuzatuv, amaliyotda manitq orqali sinab ko'rish to'g'risida boradi. Ilmiy haqiqat amalda tekshiruvdan o'tgach va tasdiqlini topgach hamma tomonidan e'tirof etiladi.

Ilmiy falsafaning genetik jihati tizimiy jihat bilan to'ldirildi. Falsafa bilishga oid turli sohalar jumladan, tabiat to'g'risida mavjud bo'lgan axborotlarni muttasil olib ularni qayta ishlab bordi. Mana shu asosda olamning universal manzarasi shakllandi va u o'zgarib, takomillashib boradi. Borliq, fazo, umumiy aloqadorlik bilish, subyek-obyekt munosabatlari, bilishning umumiy tamoyillari, usullari va boshqa shunga o'xshash falsafiy tushunchalar ishlab chiqildi. Ayrim tabiiy fanlardagi asosiy tushunchalar ("atom", "modda" va boshqa shunga o'xshashlar) tabiatshunoslik fanlarining ba'zi bir umumiy qonunlari va tamoyillari (masalan, "energiyaning saqlanish va o'zgarishi qonuni") falsafiy bilimlar mazmuniga kiradi. Falsafaning tarkibida tabiiy-ilmiy bilimlarning mavjudligi va faoliyat ko'rsatishi uning ilmiyligini ko'rsatuvchi belgilardan biridir.

Bundan tashqari falsafada moddiy borliq va insonni o'rganuvchi boshqa fanlardagidan yana shu bilan farq qiladiki, bunda insonning olamga, olamning

insonga munosabatining eng umumiy jihatlari o'rganiladi. Insonning olamga, borliqqa bilishga ko'ra munosabati ko'pgina fanlar tomonidan o'rganiladi. Bilishning empirik va nazariy darajasi, hissiy va ratsional bilish nisbati, haqiqat va adashish va boshqalar bir qator fanlar tomonidan ham tadqiq etiladi. Bularidan farqli o'laroq bilish jarayonining eng umumiy tomonlarinigina o'rganish falsafaning predmet doirasiga kiradi. Bu jarayonning xususiy tomonlarini o'rganish esa aniq fanlarning vazifasi hisoblanadi.

Hayotda oliy darajadagi dunyogorashdan - falsafiy dunyogorashdan bebhara qolish, hayot ma'nosini tushunmaslik natijasida odam o'zini-o'zi halok etishi, g'iyohvand bo'lib qolishi, ichkilikbozlikka berilishi, jinoyat yo'lga kirib ketishi mumkin.

Bugungi kunimizda uchrab turgan terrorchilar, hizbut-tahrirchilar ta'siriga tushib qolganlar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi falsafiy masala mohiyatining talabalar tomonidan yetarli darajada anglanishi insoniyatni to'g'ri yo'ldan adashishga olib keladigan salbiy tendentsiyalarga qarshi kurasha oladigan inson bo'lib shakllanishlari uchun g'oya kuchli vostiadir.


3 - savol. Falsafaning asosiy funksiyalari.

Bu masala mohiyatini talabalar yetarli darajada tushunib olishlari uchun falsafa fanining jamiyat hayotida katta va betakror rolini, ahamiyati va bajaradigan asosiy vazifalari (funksiyalari) juda ham keng qamrovli ekanligini ular ichidan eng muhimlarini tanlab olish ko'nikmasini hosil qilish lozim. Falsafa dunyoni bir butun holda, unda insonning dunyoga munosabati haqidagi barcha bilimlarni nazariy jihatdan umumlashtirib, o'zlashtirish asosida biz bir butun dunyo, borliq, materiya, tabiat, jamiyat, inson, inson ongi va tafakkuri, insonning dunyoni bilishi to'g'risidagi eng umumiy qarashlari bilan qurollantiradi.

Talabalar falsafiy dunyogorash mazmunini anglashlari uchun avvalo dunyogorash tushunchasining mohiyatini bilishlari lozim. **Dunyogorash** – insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqealik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar


tizimidir. **Dunyovqarash** - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.

Falsafa fanining ko'plab vazifalari ichida quyidagilari eng muhimlarini tashkil qiladi:



Dunyovqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli **individual dunyovqarash** deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyovqarashlar majmuasi esa, **ijtimoiy dunyovqarash** deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyovqarash individual dunyovqarashlar yig'indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyovqarashning umumiy va xususiy shakllarini hisobga olish lozim.

Falsafiy dunyovqarash, mohiyat-mazmuniga ko'ra, ma'naviy faoliyat bo'lgani bois, u borliqqa bo'lgan ongli, insoniy munosabatning muayyan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. Masalan, kishilarning jamiyatdagi axloqiy munosabatlari - axloqiy dunyovqarashlarida, huquqiy munosabatlari - huquqiy, siyosiy munosabatlari - siyosiy diniy munosabatlari - diniy, ekologik munosabatlari - ekologik dunyovqarash shakllarida o'z ifodasini topgan. Buni tizim tarzida izohlaydigan bo'lsak, quyidagicha ko'rinish kasb etadi:



Bu tizimni tashkil qilgan nisbatan mustaqil dunyovqarash shakllari o'zaro bog'liqlikda, aloqadorlikda harakat qiladi.

Dunyovqarash muayyan davrda shakllanadi. Shu ma'noda, har qanday dunyovqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega bo'lib, kishilarning umri, amaliy faoliyati, hayoti, tabiatga ta'siri va mehnati jarayonida vujudga keladi. Har bir davrda ijtimoiy guruh, jamiyat va avlodning o'z dunyovqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. **Falsafiy dunyovqarash** insonning olamga, voqea va hodisalarga, o'zgaralarga va ularning faoliyatiga, o'z umri va uning mazmuni kabi ko'pdan-ko'p tushunchalarga munosabati, ularni anglashi, tushunishi, qadrlashida namoyon bo'ladi.

Falsafaning dunyovqarash vazifasi uning boshqa vazifalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Falsafaning metodologik vazifasi. Yuqorida sanab o'tgan falsafaning kategoriyalari dunyodagi narsa va hodisalarning mohiyatini, eng umumiy tomonlarini, bog'lanish va aloqadorligini inikos ettiradi. Borliqning turli tomonlarini o'rganuvchi alohida fanlar o'zlarini yaratgan yutuqlarni izohlashda, ulardan umumiy xulosalar chiqarishda falsafiy metodologik umumlashmalardan foydalanishga muhtoj bo'ladi. Aniq fanlar rivojlangan sari falsafiy metodologik umumlashmalarning ahamiyati ham ortib boradi.

Falsafaning gnoseologik vazifasi quyidagicha. Falsafa dunyoni bilish muammosini o'rganar ekan, uning umumiy metodlarini ishlab chiqib, inson

bilishning bir butun umumiy nazariyasini yaratadi. Shu asosda inson bilish, uning rivojlanish tendensiyalari va eng umumiy qonunlarini ochib beradi. Falsafa inson amaliy tajribasida hosil bo'lgan bilimlarning haqiqatligini tekshiruvchi mezonlarni ham tadqiq etadi. Falsafa inson oldiga avvalo, o'zini anglash va so'ngira borilgani o'rganish masalasini ham qo'yadi. Dunyoni bilish asosida insonning o'zgarib, so'ng dunyoni oqilona anglab, amaliy faoliyatida falsafiy umumlashmalarga tayyanadi.

Umuman falsafa alohida fanlar uchun, ularning tabiat va jamiyatning borligi va ongning konkret tomonlarini o'rganishda, tadqiq qilishda eng umumiy metod rolini o'ynaydi. Bunday hollarning barchasida falsafaning gnoseologik vazifasi namoyon bo'ladi. Jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribasini hozirgi kundagi inkoniyatlari, zaruriyatlarini bilish asosida uning istiqbolini aniqlash - falsafaning ijtimoiy vazifasidir.

Jamiyat hayotining hozirgi zamon sharoitida falsafaning aksiologik vazifasi ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifaning mohiyati shundaki, falsafa inson hayotining mohiyatini uning yashashining asosiy mazmunini, insonning turmushdagi qadr-qimmatini, jamiyatda tug'gan o'rni, uning axloqiy, gumanistik prinsiplar va g'oyalarni baholash asosida tushuntiradi.

4-savol "O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" va falsafiy bilimlar rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini o'rganish va o'rgatish vazifalari.

Yuqorida keltirilganidek, XX asrning ijtimoiy hayoti qanchalik takrorlanmas voqealarga to'la bo'lgan bo'lsa, uning falsafasi esa undanda sezilmaz, undanda xilma-xillikka ega bo'ldi. Mazkur to'la va xilma-xillik o'zbek xalqining ajralmas huquqi - o'z taqdirini o'zi belgilash huquqining 1991 yil 31 avgusti to'yobga chiqishi bilan yanada to'ldirildi. O'zbek xalqining muqaddas orzusi ushaldi - O'zbekiston tinch, parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy davlatchiligiga erishdi. Respublikada demokratik huquqiy jamiyat asoslarini vujudga keltirishning real asosi vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi o'ziga xos ijtimoiy olam hisoblanadi. Mazkur borligi ijtimoiy ongda o'ziga xos tarzda aks ham etadi. Shu asosda falsafaning olam - odam tizimi va uning falsafasi ifodalangani.

Bu masalani o'rganish jarayonida talabalar mustaqillik hayotiy faoliyat falsafasi, millonlab kishilarning moddiy va ma'naviy faoliyatining ibtidoi ekanligini chuqur anglamoqlari lozim. Mustaqillik falsafasi haqida gap ketganda birinchi galda biz mustaqilligimizning va o'z taraqqiyotimizning shart-sharoitlari va zaminlarini muhokama qilmoqimiz lozim. Mazkur holat aholining milliy tarixiy turmush va tafakkur tarzi, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. O'zbek xalqi azaldan uyg'un jamoa bo'lib yashagan, kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, millatidan, dimidan qat'iy nazar odamlarga xayrihlik bilan munosabatda bo'lish, Vatanga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, ma'rifatparvarlikka nisbatan alohida hurmat-ehtram bilan qarash bu xalqning tabiatini belgilab kelgan. Bu sifat mustaqilligimizning betakror ekanligini va uning o'ziga xos tarzda mavjudligi va taraqqiyotini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Mazkur omil asosida mustaqillik borligi o'ziga xos mohiyatga ega bo'ladi. Chunki, ijtimoiy jihatdan bir butunlikka ega bo'lgan mamlakatning umumiy maqsadi yo'rida ichki mayda-chuyda ikir-chikirlarni chekkaga surib qo'yib birlashtirish, hamda ruhiy bir butunlikni qudratli kuchga aylantirish oladigan xalq uchun hal qilinishi mumkin bo'lmagan muammoning o'zi bo'lmaydi.

O'zbekiston nafaqat o'z xalqi, millati birligi, axloqiy komilligi, imon butunligi uchun xizmat qiluvchi nodir ta'limotlar, falsafiy tizimlar yurti, balki u butun insoniyatni insofga, soflikka, inoqlikka da'vat etguchi munavvar ta'limotlarni yaratgan Imom Al-Buxoriy, Imom At-Termiziy kabi buyuk allomalar yurti hamdir. Shuning uchun ham mustaqillikni bilish, tushunish va uni qadrlash tuyg'usi xalqimizda avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan merosdir.

Ayni vaqtda mustaqillik teran tushunilishi kerak bo'lgan ijtimoiy reallik hamdir. Bunda biz millatimiz va davlatchiligimiz tarixini izchillik bilan bilishimiz, o'rganishimiz, undan falsafiy xulosalar chiqara olishimiz va xulosalarni

mustaqillikni mulohaza qilishda, uni mustahkamlashda keng qo'llanilishiga jiddiy ahamiyat bermog'imiz lozim. Ayni paytda milliy tariximiz so'zsiz o'zining mohiyatiga ko'ra mustaqillik uchun kurash tarixining ma'naviy birligi bo'lgan buyuk allomalarimizning falsafiy qarashlari hamdir. Mazkur falsafiy qarashlarni tiklash, ularni o'rganish va baholash madaniyati mustaqillik falsafasining muhim jihatini tashkil qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston demokratik tamoyillarni ijtimoiy hayotning hamma jabhalariga izchillik bilan nafaqat tatbiq qilayotgan, balki uni ijodiy rivojlantirayotgan davlat hamdir. Albatta demokratiya hamma joyda demokratiyadir. Lekin u har bir milliy davlat hayotida uning tarixiy taraqqiyotidan, milliy mentalitetidan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitidan, ana'ana va urf-odatidan kelib chiqqan holda o'ziga xos tarzda ishlaydi va yashaydi. Demokratiya tashqaridan keltiriladigan yoki boshqa bir davlat hayotining ikkinchi bir davlat hayotiga ko'chiriladigan hodisa emas. U shu xalqning hayoti, intilishi, maqsadidan kelib chiqadigan va shu xalqning hohishi va irodasiga mos bo'lgan hodisadir. Shuning uchun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarni qayta bichishga va qayta tikishga urinayotganlarning faoliyati nafaqat XXI asr falsafasidagi, balki undan oldingi davrdagi falsafiy tizimlarning birortasiga mos kelmaydi.

Demokratiya sharoitida albatta davlat va uning tarkibiy qismi bo'lgan hokimiyatga munosabat o'zgaradi. Chunki, hokimiyat jamiyat nazorat ostida bo'ladi. Saylash va saylanish mexanizmining amal qilishi, davlat rahbarlarining hisob berib turishi matbuot erkinligi, jamoat tashkilotlarining faolligi - bularning hammasi davlatning muldarg'oyalarga erishishiga yo'l qo'ymaydi. Ya'ni shaxs va jamiyat, davlat o'zaro yaqinlashib boradi. Bir-biriga hisob berish kuchayadi. Natijada shaxs va davlat manfaatlari uyg'unlashib boradi, so'zsiz mazkur jarayonlarning negizida xalqimizga xos bo'lgan davlat rahbariga qat'iy ishonch, o'zaro hurmat-e'tibor, ma'naviy uyg'unlik yotadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov o'zlarining "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" nomli kitoblariida mamlatkat jadal

rivojlanishining asosiy manbai mustaqillik falsafasi bilan sug'orilgan yuksak bilimiga ega bo'lgan barkamol avlodni tartiblashni muhim ustivor vazifa sifatida ko'rsatganlar.

5-savol. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq va G'arb

falsafasi.

Sharq qadimiy madaniyat o'chog'i va jahon sivilizatsiyasining beshigi deya bejiz ta'riflanmagan. Farb madaniyati tarixini o'rganish jarayonida Ovrupsentritizm nazariyasiga og'ib ketish g'ayrilimiy bo'lgani kabi, masalaning Sharq bilan bog'liq jihatini tahlil etganda ham Osiyosentritizm g'oyalari ta'siriga tushmaslik lozim.

Shu bilan birga, Sharqning o'ziga xosligi, unga mansub bo'lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizatsiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo'shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Qolaversa, Vatanimiz sivilizatsiyasining Sharq sivilizatsiyasi quehog'ida voyaga yetgani va uning qadriyatlarini o'zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta'sir ko'rsatganini doimo esda tutish dakor.

Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda, ko'pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o'tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizatsiyalaridan biri bo'lgan Shumer davrlarini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimining o'ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jarayonlarning muayyan tarzda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu madaniyat o'choqlari haqida maktab ta'limi jarayonida «Eng qadimgi tarix» darsliklari orqali ma'lumot berilgan. Zukko talabalar o'sha davrlarda qanday siyosiy jarayonlar kechgani, qanday podsholik va imperiyalar bo'lganini yaxshi biladi. Biz bugun o'sha davrlardagi falsafiy dunyoqarash, qadimgi ajdodlarimizning fikr-mulohazalari, o'ziga xos ta'limotlarining asosiy tamoyillari bilan yaqinroq tanishmoqchimiz. Ko'pincha Sharq sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lgan Misr qadimgi zamonda ilk o'troq hayot va o'ziga xos

dehqonchilik anʼanalari boshlangan Nil daryosi boʻylaridagi madaniyat dunyo olimlari diqqatini tortib keladi.

Qadimgi Misr va Bobil falsafasi. Eramizdan avvalgi toʻrtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, yaʼni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar birmuncha rivoj topgan. Tabiiy-ilmiy, diniy-falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi ikki yoʻnalishda borgan. Birinchi yoʻnalish olam haqidagi tasavvurlarning astronomiya, kosmologiya, rivoziyot fanlari rivoji bilan bogʻliq ekanini, ikkinchi yoʻnalish esa, bu tasavvurlarning mifologiya bilan bogʻliq boʻlganini koʻrsatadi.

Birinchi holda, asosan, tabiiy bilimlarga tayanilgan, kundalik hayotda duch kelinadigan voqea-hodisalar aniq dalillar asosida tahlil etilgan, oʻrganilgan, ulardan tegishli xulosalar chiqarilgan. Bu - oʻsha davr uchun tabiiy hol edi, yaʼni u - davrning inson ongida aks etishi, kundalik turmush hodisalarining oddiy bir tarzda ifodalinishi edi. Aynan ana shu hol tabiiy bilimlar rivojiga, garchand sodda tarzda boʻlsa-da, aksariyat hodisalarining falsafiy asosda izohlanishiga sabab boʻlgan.

Ikkinchi holarda esa, hali tabiat kuchlarining qarshisida nihoyatda oʻjiz boʻlgan odamzod, albatta, tevarak atrofdagi voqea-hodisalarni mitologik izohlashi tabiiy bir hol edi. Shu bilan birga, odamning mavjudlik xossalarini va olam qonuniyatlarini ilmiy tushunish koʻnikmasi hali shakllanib ulgurmagan oʻsha qadim zamonlarda, afsona hamda rivojatlarga asoslanib fikr yuritmaslikning imkoni ham yoʻq edi. Bu - oʻsha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, «Xoʻjayinning oʻz quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbat», «Arifist qoʻshigʻi», «Oʻz hayotidan haʼsasasi pir boʻlgan kishining oʻz joni bilan suhbat» kabi bitiklarda yaqqol namoyon boʻlgan. Ularda hayotning, ummning mazmuni, oʻsha davrdagi odamlarga xos tuygʻular bayon qilingan.

Qadimgi Misr va Bobilda shakllangan falsafaning eng asosiy xususiyati shundan iborat edi, ularda, bir tomondan, xudolarga ishonch, ilohiy kuchlarning tabiat va jamiyatga koʻrsatadigan taʼsirini mulqolashirish xususiyati ustuvor boʻlgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, afsona va rivojlatlar tarzida boʻlsa-da,

dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan. umuman, bunday xususiyatni, qadim zamondagi barcha sivilizatsiyalarga xos deyish mumkin.

Oʻsha davrda eng qadimgi Sharq xalqlaridan biri yahudiylarning milliy mafkurasi – iudaviylik shakllana boshlagan. Bu din, asosan, ana shu millatga mansub kishilar oʻrtasida yoyilgan boʻlib, eramizdan avvalgi ikki minginchi yillar boshida Falastinda vujudga kelgan. «Zabur» va «Tavro» kabi muqaddas kitoblar bu dinning asosiy manbalaridan hisoblanadi.

Yahudiylar yahudiy va Falastin xalqlarining baʼzi eʼtiqodlarini oʻzida aks ettirgan dindir. Eramizdan avvalgi X-VI asrlarda yahudiylar monoteistik (yakka xudolikka ishonish) dinga aylanib, olamni yaratuvchi Yahve xudosaiga eʼtiqod qilish uning asosiy tamoyili hisoblangan. Bu dinda Muso alayhissalom – paygʻambar, «Tavro» xudo tomonidan unga yuborilgan ilohiy kitob ekani, qiyomat kunda barcha birdek tirilishi, jannat va doʻzaxning mavjudligi, gunohkorlar jazosiz qolmasligi, savobli ishlarni qilganlar u dunyoda ragʻbatlantirilishlari haqidagi qarashlar ilgari surilgan.

Koʻp yillik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, yahudiylar Sharq xalqlaridan biri – yahudiylarning milliy dini boʻlgani bois, ana shu qitʼada yashovchi boshqa xalqlarga xos boʻlgan koʻpgina diniy qarashlari bilan ham bir qadar mustarakliklarga ega. Chunonchi, uning zardoʻshuylar bilan oʻxshash jihatlari ham yoʻq emas. Masalan, «Tavro» va «Avesto»dagi aksariyat qonunlar, diniy-falsafiy kategoriyalar oʻrtasida yaqinlik koʻzga tashlanadi. Umuman olganda esa, barcha dinlar orasida ilohiy qadriyatlarini mulqolashirish, xudo gʻoyasini muqaddaslashtirish, bu dunyo va u dunyo bilan bogʻliq qarashlarga koʻproq eʼtibor berish kabi oʻxshash jihatlari uchraydi.

Hindiston falsafasi. Qadimgi Hindiston ham insoniyat madaniyatining beshiklaridan biridir. Unga xos dastlabki taʼlimotlar yozma manba – «Veda»larda oʻz aksini topgan. «Veda»lar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan boʻlib, mutlaassib dindor hindu uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindular «Veda»ni oliy tangri Braxma tomonidan aytilgan soʻzlar deb biladi. «Veda»da

hindularning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, axloq va nafosatiga oid fikrlari aks etgan. «Veda»lar bizgacha to'rtta to'plan (samxittar) shaklida yetib kelgan. Bular – «Rigveda», «Samaveda», «Yajurveda», «Axdaraveda»dir.

Hind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashhur bo'lgan manbalarda ham o'z aksini topgan. «Upanishadalar» sirlari bilim degan ma'noni anglatib, «Veda»larning falsafiy qismini tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob yoki falsafiy risola bo'lmay, balki turli vaqtda turli mavzuda ijod etgan nomalim mualliflarning mahtalidan iboratdir. Ularning mazmuni va uslubiy har xil va turlicha falsafiy qarashlar mahsulidir. «Upanishadalar»dagi falsafiy mavzular, asosan, insonni o'rab turgan borliq, uning hayotdagi o'rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiati, uning hayoti va ruhiniyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari, axloq me'yorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy-mifologik nuqtai nazardan bayon etilgan.

Qadimgi hind falsafiy maktablari ikki guruhga bo'linadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarni astika va nastika deb ataydi. Vedanta, sankhya, yoga, vaysheshika, n'yaya va mimansa – astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablari. Ushbu maktablarning tarafdorlari «Veda»ning muqaddasligini tan olib, birdan-bir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. Chorvaka-lokayata, buddizm va jayinizm – nastika guruhiga kiradi.

Chorvaka-lokayata tarafdorlari materialistik ta'limotni ilgari surganlari uchun «Veda»ning muqaddasligini tan olishmaydi hamda olam ilohiy kuch tomonidan yaratilmagan, «Veda» haqiqiy bilim bermaydi, deb ta'kidlashadi. Buddizm va jayinizm diniy-falsafiy maktablari bo'lishiga qaramay, ular ham «Veda»ning muqaddasligini tan olmagan. Sankhya qadimgi Hindistondagi dualistik falsafiy maktab bo'lib, olam asosida moddiy unsur (prakriti) modda va ruh (purusha) yotadi, deb hisoblaydi. Bu yo'nalishga, asosan, olamdagi barcha narsalar ikki unsurning turli teng miqdorda (proporsiyada) birlashishidan yuzaga keladi, olam sababiyat orqali rivojlanadi, olamda uchta sabab mavjud, deyiladi. Ular quyidagilardir: moddiy sabab, yaratuvchi sabab, aloqador bo'lmagan sabab. Bu

falsafiy maktab haqida buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» asarida atroflicha fikr yuritgan.

Qadimgi Xitoy falsafasi. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa, urushlar natijasida davlat Chjou qabillasining qo'liga o'tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy g'oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy (551-479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya'ni alifbomalari juda mashhur. Konfutsiy ta'limotida umuminsoniy qadriyatlarining xitoy xalqi turmush tarzida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, bu xalqqa xos ma'naviy mezonlar aks etgan. Bu ta'limot bir nechta asrlar davomida ushbu hududda milliy g'oyalar majmui, millatning makrurasi sifatida odamlarning ma'naviy ongi va qiyofasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. u hozirgi Xitoyda ham o'zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan.

Konfutsiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi – taqdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qat'iy amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtai nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi. u, ya'ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib – insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfutsiy ta'limotida insonning hayotdagi ijtimoiy o'rni nihoyatda ulug', u o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqarlarga ham ravo ko'rmaligi, o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqarlarga ham ravo ko'rishi lozim.

Konfutsiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlilik, erkliklik g'oyalari takomilida muhim o'rin tutgan. Bu

ta'limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko'tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasufaridan biri Lao-Szidir (VI-V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'yusmug'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni – tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiyligining e'tirofi e'tilishidir. Bu qonunga ko'ra, olamning asosini tashkil etuvchi «Si», ya'ni beshta unsur – olov, suv, havo, yer va yog'och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Lao-Szining ta'kidlashicha, olamda hech bir narsa doimiy va o'zgarmas, harakatsiz holda bo'lishi mumkin emas.

Daosizmga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash, ya'ni in va Yan' orasidagi munosabat – bizni o'rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaidir. In va Yan o'rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim. Bo'lmasa, Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. Lao-Szi bu o'rinda ekologik falokatni nazarda tutgan. «Kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan albatda o'ch oladi», degan edi Lao-Szi. Buni ekologik falokatlar avj olib borayotgan bugungi kun voqe'lari ham tasdiqlaydi.

Umuman, tabiat, jamiyat va insonga nisbatan ehtiyokkor munosabatta bo'lish, Ona zamin va Vatanni asrab-avaylash, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda yaxshilik tomonida turish – qadimgi xalqlarga xos bo'lgan falsafaning bosh g'oyalari. O'sha, hamma narsa oddiy tushunilgan qadim zamonlardayod buyuk aql egalari odamlarni tabiatni asrashga, insonni qadrlashga chaqirgani bejiz emas. Ular insoniyat hayotiga xavf soladigan darajaga yetmay turib, u boradagi muammolarning oldini olish to'g'risida juda ibratli o'qitlar bergan. Qadimgi dunyo falsafasini chuqurroq o'rganagan odam o'sha davr mutafakkirlari hozirgi zamon sivilizatsiyasi qarshisida turgan barcha umumbashariy muammolardan odamlarni ogohlantirganligining guvohi bo'lishi

mumkin. Gap bu ogohlantirishni eshitish, ularni o'zlashtirish va hayotning qonuniga oylanirishda edi, xolos. Afsuski, odamzod nasi o'zi yaratgan buyuk daholarning barcha o'qitlariga hamma vaqt ham quloq solavermagan. Ilm va fanda necha-necha kashfiyotlar qilingan, ammo ulardan o'z vaqitda kerakli tarzda foydalanilmaganiga ko'lina tarix guvoh. Bugun ham ajdodlarimizning Vatan, tabiat, jamiyatni asrash, undagi tartib va qoidalarini buzmaslik to'g'risidagi da'vatlari eskingani yo'q. Yillar, asrlar o'tishi ularning qadrlari tushimaydi. Zero, bu ta'limotlar insoniyatning o'tda yommas va suvda cho'kmas umuminsoniy qadriyatlarini to'g'risidadir.

Zardo'shtiylik ta'limoti. Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davr mahsuli bo'lgan diniy-falsafiy ta'limotlardan biri zardo'shtiylikdir.

Bu ta'limotga Zardo'sht asos solgan bo'lib, Sharq va Farbd Zaratustra, Zarostr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko'ra, Zardo'sht eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida yashagan. Lekin uning tarixiy yoki afsonaviy shaxs ekanli haqida aniq bir to'xtangacha kelingani yo'q. U o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. Lekin uning payg'ambarligi ilohiy asosga ega emas. Ya'ni bu haqiqat ilohiy kitoblarda o'z tasdig'ini topmagan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu ta'limot Vatanimiz hududida, xususan, Xorazm zaminida paydo bo'lgan. U o'z davrida xalqni e'zgulik va adolat g'oyalari da'vat etish, hayotbaxsh an'analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, uning g'oyalari bilan bog'liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kelmoqda va kalgimiz turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda ulkan qimmat kasb etmoqda.

Zardo'shtiylikning bosh kitobi «Avesto»dir. unda qadimgi xalqlarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, o'ziga xos qadriyat va urf-odatlar aks etgan. Unda olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari- yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim borasidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. «Avesto»da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid mu'ammolar ham berilgan.

Falsafa tarixida makedoniyalik Aleksandr (eskı o'zbek tilida Iskandar deyilgan) istilosi va Grek-Baqtriya davri falsafasi ham xalqimizning taraqqiyot tarixida muhim o'rin tutgan. Manbalarda Aleksandr qo'shini mahalliy xalqlarning qattiq qarshiligiga uchrangani, u «Avesto»ning ko'pgina qismini yondirib yuborgani haqida ma'lumotlar bor. Bugungi kungacha ham ayrim tarixchilar Aleksandr «Avesto»ning tilini bilmagani, uni o'qiy olmagani sababli bu kitobning qad-qimmatini tushumagan va uni yoqish to'g'risida ko'rsatma bergan, degan fikrlarni bayon etadilar. Aslida unday emas. Bu – tarixiy haqiqatni, garchand u kimlar uchundir achchiq va kimlar uchundir ibratli bo'lsa-da, xaspo'shlashga urinishdan boshqa narsa emas. Negaki, Aleksandr o'z zamonida fanlarning otasi deb nom olgan falsafani fan darajasiga ko'targan, buyuk donishmand sifatida yetti iqlimda tan olingan Arastudan 20 yil mobaynida muttasil ta'lim olgan edi. Binobarin, Shoh Filippning o'g'li Aleksandrnı savodsiz, kitobning qadimini tushumaydigan bir kimsa deb ta'riflash tarix haqiqatiga to'g'ri kelmaydi.

To'g'ri, u «Avesto»ni o'qida kuydirgan bo'lishi mumkin. Lekin buni kitobning qadimini tushumaganı uchumas, balki yerli xalqlarni birlashishga da'vat etib turuvchi, ular e'tiqod qo'ygan milliy g'oyalar im soli bo'lgan va o'z saltanatiga qarshi muttasil kurash olib boruvchi vatandarlarni tarbiyalaydigan manba ekanini nazarda tutib, shu ishni amalga oshirgan. Qolaversa, o'zini dunyodagi eng rivojlangan hudud madaniyatini jahonga yoyish uchun mas'ul deb bilgan, to'g'rirog'i, o'sha madaniyaddan boshqasini tan olmagan mashhur jahongir uchun zabt etilgan xalqning «Avesto»dek buyuk kitobi bo'lishi kutilmagan hol edi. U, yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur kitob omon tursa, u usbu zamin farzandlari uchun o'zlikni anglash, binobarin, kuch-qudrat manbai bo'lib qolaverishini nihoyatda yaxshi tushungan. Aleksandrdan keyin yashagan Rim imperatorlari ham Misr va Vizantiyaga qarshi urush qilib, yahudiylarning yerini bosib olganida tub aholining madaniy boyliklarini yo'q qilgani, «Zabur» va «Tavrov»ning qadimgi nusxalarini kuydirib yuborgani yuqoridagi misolning tasodifiy emasligidan dalolat beradi.

Ummuman, har qanday sharoitda ham istilochilarning birinchi ishi xalq va millatlarni zo'rlik bilan bosib olish, boyliklarini talash bo'lsa, keyingi asosiy ma'loyati – millatni o'z tarixi va an'analardan uzib qo'yish, madaniy merosini talon-taraj qilish, uning ma'naviyatini yo'qotishdan iborat bo'ladi. Tarixning bu achchiq sabog'i mustamlakadan ozod bo'lgan, o'z mustaqilligini saqlab qolish va mustamlakalashga intiladigan har qanday xalq taraqqiyoti uchun eng muhim xulosa bo'lib xizmat qiladi.

Iskandarga qarshi kurashda xalqimizning milliy qahramoni Spektamen beqiyos mardlik va jasorat ko'rsatadi. U Iskandarga qarshi ayovsiz qarshilik ko'rsatgan vatandparvar lashkarboshilardan biridir. Aslida, uning qahramonligi millatimizning o'sha davrdagi o'z davlatchiligini, o'zi yashaydigan hudud dahlisizligini saqlab qolish uchun olib borilgan kurashning yaqqol im solidir. Albatta, bu lashkarboshi ortidan xalq ergashsa, elining ozodlik va mustaqillikka intilish tuyg'usi kuchli bo'lmasa, Spektamenning nomi bu qadar mashhur bo'lib ketmas edi. Negaki, inson naqadar kuchli, tadbirkor va omadi bo'lmasin, agar xalq bilan birga bo'lib, uning dardlariga dardmon izlamasa, hurriyat g'oyalarini bayroq qilib ko'tarmasa, haqiqiy milliy qahramon bo'lolmaydi. Spektamen esa o'sha xalqimizning ruhi, orzu-umidlari, mustamlakachilarga qarshi ma'onati ramzi sifatida tariximiz qatiga mangu muhtirani b qolgan.

Markaziy Osiyoda buddaviylik ham o'z o'rniga ega. U diniy-falsafiy ta'limot sifatida qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va V asr boshlarida vujudga kelgan. U jahonda keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu ta'limotga asos solgan donishmand Siddarta urug'idan chiqqan Gautama hisoblanadi. Keyinchalik u «Budda», ya'ni nurlangan degan laqabga ega bo'lgan. Buddaviylik islomga qadar O'rta Osiyoda tarqalgan qadimgi dinlar orasida mavqe jihatidan juda katta o'rin tutadi. Bu ta'limot O'rta Osiyoga eramizdan avvalgi II-I asrlarda kirib kelgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, uni Toxaristonga baxxlik mavdodog'lar olib kelishgan. Kushonlar davrida buddaviylik dini hukmron dinga aylangan edi. «Xalqchil bo'lganligi uchun O'rta Osiyoga keng yoyilgan. Buddaviylikning O'rta Osiyoga yoyilishi quyidagi to'rt bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich. Kushonlardan oldingi davr. Bu eramizdan avvalgi I asrga to'g'ri keladi. Bu davrga oid yozma manbalar bizgacha yetib kelmagan.

Ikkinchi bosqich. Kushonlar davri (eramizning II-IV asrlari) Bu davrda buddaviylik O'rta Osiyoga keng tarqalgan edi. Ayniqsa, uning axloqqa oid masalalar, haliq ommasini sabr-qanoat va bardoshga da'vat etuvchi g'oyalarni ilgari surganligi muhim ahamiyat kasb etgan.

Uchinchi bosqich. Bu davrda O'rta Osiyoda buddaviylik ta'limotining manbalari yoyilgan.

To'rtinchi bosqich. (IX-XIV asrlar) islom O'rta Osiyoda hukmron dinga aylanishi bilan bu din siqib chiqarilgan va juda zaiflashib ketgan.

Buddaviylikning O'zbekiston va Hindiston xalqi o'rtasida o'z davrida ma'naviy ko'prik bo'lib xizmat qilganligi aniq. Xalqlarimiz orasidagi do'stlik va birodarlarning ildizlari ham o'sha davrga borib taqaladi va bugungi kunda aksariyat kishilar, ayniqsa, yoshlarimizning hind xalqi, uning madaniyati va san'atiga qiziqishi tasodifiy emas.

Moniy ta'limoti yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. u zardo'shtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moniy fors va arab tillarida bir nechta risolalar yozgan. Lekin ular bizgacha yetib kelmagan. Moniy hatto «Moniylik yozuvi» nomli alifbo ham tuzgan. uning ta'limoticha, hayotda dastavval nur dunyosi - yaxshilik va zulmat dunyosi-yovuzlik bo'lgan. Ular o'rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsurdan (ruh – nur farzandi, jism – zulmat mahsuli) iborat. Moniylik xalq ommasi manfaatlarini himoya qiluvchi ta'limot bo'lgani sababli hukmron mafkura qashilgiga duch kelgan.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan qadimgi falsafiy ta'limotlar, ular ilgari surgan g'oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatiga ega. Sanab o'tilgan qadimgi diniy-falsafiy ta'limotlar, ya'ni zardo'shtiylik, uning bosh kitobi – «Avesto», Moniy ta'limoti, «Moniy yozuvi», mazdakiylik harakati jamiyatda adolat, erkinlik, teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishiga da'vat etgan. Vatan ozodligi yo'lida jon fido etgan Muganna boshchiligidagi harakat nafaqat O'rta

Osiyoda, balki jahonning boshqa o'lkalari ham aks-sado bergan. Vatanimizning o'sha davrda shakllangan va rivojlangan boy madaniyati, milliy ma'naviyatimiz, falsafamiz, jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Sirasini aytganda, mamlakatimiz tarixi islom dini yurtimizga kiritib kelgan davrdan boshlanmaydi. U islomga qadar ham ming yillar mobaynida rivojlanib kelgan shonli tarixiga ega. Lekin, afsuski, Vatanimizning ana shu davr tarixi nihoyatda kam o'rganilgan. Bu davrga oid manbalarning aksariyati esa yo'q qilib yuborilgan. Bu vayronkorlikning boshida miloddan avval makedoniyalik Aleksandr turgan bo'lsa, mamlakatimizni zabt etgan keyingi bosqinchilar ham ana shu yo'ldan borgan. Ular xalq ongidan mustaqillik va erkin hayot to'g'risidagi maqsad-muddaolarni butunlay yo'qotib yuborishga urinishgan. Buning natijasida ma'naviy qashshoq va tarixiy xotirasiz kishilar tarbiyalanishi lozim edi. Bosqinchilar Movarounnahrda nihoyatda boy madaniyat shakllanganini e'tirof etgan. Ammo uning bosqinchilik g'oyalariga mos kelmaydigan juda ko'p namunalarni ayovsiz yo'q qilishgan. Ayniqsa, ma'naviy qadriyat va madaniy boyliklarni shafqatsizlaricha g'orat qilish asosiy o'rinda turgan. Yurtimizda arablar istilosiga qadar ustuvor bo'lgan ma'naviy va madaniy durdonalar qadriini yaxshi anglaydigan va ularning ahamiyatini to'g'ri tushunadigan kishilar birinchi navbatda yo'q qilib yuborilgan. Bu to'g'rida Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida quyidagilarni yozgan: «Qutayba Xorazm katini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivojlarini o'rgangan va bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib va butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi». Ushbu asarning boshqa sahifasida ulug' vatandparvar olim yuqoridagiga o'xshash yana bir fikrni quyidagicha ifoda etgan: «Qutayba xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daf'alarini kuydirgani sababli ular savodsiz bo'lib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar».

Beruniy zamonida islom yagona hukmron diniy mafkura bo'lib turganini o'tiboriga olsak, zikr etilgan asar va undagi teran fikrlarni bunday o'tkamlilik bilan

aytish g'oyat ulkan jasoratni talab etgani ayon bo'ladi. Istilochlarning bunday vayronkor siyosati keyin ham davom etgan. Xususan, mustabid sho'rolar mafkura siyosatini olib borgan paytlarda elning ruhini ko'tarib, ilhomlantiruvchi ezgu g'oyalar shakllangan davr falsafasidir.

Bu Amu va Sirdaryo bo'ylarida yashagan xalqning dahosi eng yuksak darajaga ko'tarilgan, uning atoqli namoyandalari jahon madaniyati sahifalariga o'zlarining o'chmas nomlarini muhrlab ketgan davr falsafasidir. Bu falsafaning xususiyatlari o'sha davrda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Mazkur mavzuni o'rganishdan maqsad, Prezidentimiz Islom Karimov ta'viri bilan aytganda, yosh avlod qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, «Yoshlarimizning imon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash.

Istiqol tufayli ajdodlarimiz yaratgan boy va o'lmas madaniy merosni o'rganish imkonini tug'ildi. Tarixiy xotirani tiklash, xalqimiz qalbida milliy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish hozirgi kunda ma'naviy hayotning ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Mazkur mavzuga asos bo'lgan davr falsafasi arab istilosi va mamlakatimizda islom dinining taraqqiy etishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu falsafa, ba'zi chet ellik mutaxassislar aytgani kabi, faqat arablar madaniyatining bir qismi emas. Balki bizning Vatanimiz farzandlari ulug' bobokalonlarimizning islom diniga, islom falsafasiga, butun arab dunyosi va jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan ta'limotlari dunyoga kelgan davr falsafasi hamdir.

Shu bilan birga, bu ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashini aks ettirgan, xalqimiz madaniyati va ma'naviyati nihoyat darajada rivojlanganini butun jahonga yaqqol namoyon qilgan davr falsafasidir.

Bu Muqanna kabi milliy qahramonlarimiz keng xalq ommasiga bosh bo'lib ozodlik kurashi olib borgan paytlarda elning ruhini ko'tarib, ilhomlantiruvchi ezgu g'oyalar shakllangan davr falsafasidir.

Bu Amu va Sirdaryo bo'ylarida yashagan xalqning dahosi eng yuksak darajaga ko'tarilgan, uning atoqli namoyandalari jahon madaniyati sahifalariga o'zlarining o'chmas nomlarini muhrlab ketgan davr falsafasidir. Bu falsafaning xususiyatlari o'sha davrda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Mazkur mavzuni o'rganishdan maqsad, Prezidentimiz Islom Karimov ta'viri bilan aytganda, yosh avlod qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, «Yoshlarimizning imon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash.

Ullarning talakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-ayaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirishdan iborat. Arab bosqini va islom dini. Movarounnahr arablar tomonidan zabt etilishi arafasida Turk qog'onoiti tizimiga kirar edi. U mayda amirliklardan iborat bo'lib, ular o'rta asrda tinimsiz to'qnashuvlar ro'y berib turar edi. Ayniqsa, Turk qog'onoiti bilan soseniyalar Eroni o'rta asrdagi to'qnashuvlar o'ta shiddatli tusda yuz berar edi. XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida bu hudud arab xalifaligi tomonidan bosib olindi. Bunga Movarounnahr hududida yashovchi halqlar, ijtimoiy kuchlar orasida siyosiy hamjihatlikning yo'qligi, o'zaro qirg'in-barotlarning avj olishi sabab bo'ldi.

Movarounnahrda arablar bosqini bilan birga islom dini ham kirib keldi. Islom so'zi arabcha tangriga o'zini topshirish, itoat, bo'yusinish, tinchlik kabi ma'nolarni anglatadi. Islom dini bayrog'i ostida keng hududda arab qabilalari birlashgan, mavjud tarqoqlikka chek qo'yilgan, yaqona markazlashgan arab xalifaligi tashkil topgan.

Qur'on va hadislar islomiy ta'limotning asosi bayon qilingan. Qur'on – muqaddas kitob. Unda islom qonun-qoidalar, imon-e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlar o'z ifodasini topgan. U 114 sura va ular tarkibidagi oyatlardan tashkil topgan.

«Summa» esa hadislar majmui bo'lib, Qur'ondan keyin turadi va uni to'ldiradi. Unda Muhammad payg'ambarning so'zlari, xatti-harakatlari naqlar va hadis shaklida jamlangan.

Qur'on va sunnadan keyingi muhim manba – shariatdir. Shariat (to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l demakdir) – islomda huquqiy, axloqiy me'yor va amaliy talablar tizimidir. Islomdagi asosiy yo'nalishlar – sunniylik, shialik va xorijiylik. Ular diniy ta'limot, marosimchilik, axloqiy-huquqiy me'yorlarga oid masalalarda o'zaro farqlanib turadi.

Xorijiyar yo'nalishi o'rta asrlar davrida ko'pgina oqimlarga bo'linib, keyinchalik yo'qolib ketgan. Faqat ibodiyar (abodiyar) oqimi saqlanib qolgan.

Sunniylik va shialik hokimiyat masalasida (sunniylik xalifalik hokimiyati, shialik esa imomat hokimiyati tarafdori), ayrim diniy marosim va anʼanalarda bir-biridan farq qiladi.

Islomdagi oqimlar aqidaviy taʼlimot va marosimchilik masalalarida bir-biridan ajralib turadigan diniy guruhlardir. Shialikdan qarmalar, ismoliyalar, zaydiyalar, nusayriylar, alilohiyalar va boshqalar ajralib chiqqan.

Sunnilikdan ravshanilyar, ahmadiya, jangari vahhobiylar, mahdiyalar ajralib chiqqan. Mazhabchilik ilohiyot masalalari boʻyicha yuzaga kelgan oʻzaro kelishmovchiliklar natijasidir.

Islomda hanafiylik, ashʼariylar, jabariylar, qadariylar, sifatilyar, murjiyalar, muʼtaziliylar kabi mazhablar mavjud. Qadariylar inson iroda erkinligini yoqlab chiqib, uni tan olmagan jabariylarga qarshi chiqqan. Mutakallimlar aristotelchilik falsafasi usul va vositalaridan foydalanib, islomning diniy-aqidaviy taʼlimotini asoslab berishga uringan.

Abu Mansur Moturidiy (melodiy 944 yilda vafot etgan) kalom ilmining aql maqomiga alohida eʼtibor qaratgan Samarqandda Moturidiya maktabini yaratgan. Muʼtaziliylar (ajralib chiqqanlar) yakka xudollikning adolatli ekanini, Qurʼonning tangri tomonidan yaratilganligini, iroda erkinligini yoqlab chiqqan. Uning asoschisi Vosil ibn Atodir (699-748 yillar). Uning oxirgi vakillaridan biri Zamahshariydir.

Kalom islom ilohiyotining oʻziga xos falsafiy taʼlimotidir. U diniy aqidalarni asoslab berishga uringan. U Qurʼonga tayanib, jannat va doʻzaxning azaliy ekanligini, insonda iroda erkinligining yoʻqligini, lekin insonning Oloh oldida oʻz qilmishlari uchun masʼul ekanligini asoslab berishga xarakat qilgan.

Bunday maʼnaviy jarayonlar bilan yonna-yon islomda mashshoiyular va tabiiyularning (Avestu falsafasi va tabiatni oʻrganishga ahd qilganlarning) falsafiy qarashlari shakllana borgan. Bu islomiy maʼnaviyatning dunyoviy va diniy masalalarda, jahon falsafiy tafakkurida roʻy berayotgan jarayonlarga nisbatan tashabbuskor bir kuch ekanini koʻrsatib turibdi.

Qadimgi Yunon falsafasi anʼanalarda siyosiy faoliyat va donishmandlik koʻp hollarda bir-biriga qarama-qarshi qoʻyilgan boʻlsa, islom falsafasida siyosatga, aksincha, inson faoliyatining yuksak bir shakli sifatida qaratiladi. Islomda davlarni boshqarish – bu sanʼat, ammo u ijtimoiy adolat taomiliga amal qilmogʻi zarur, ijtimoiy adolat esa teng huquqlikka amal qilish tufayli barqaror boʻla oladi, deb hisoblanadi.

Islom falsafasiga koʻra, insoniyat istiqboli komil insonni shakllantirish orqali yuzaga keladi, axloq-odob esa inson tafakkurining ajralmas tarkibiy qismidir. Musulmon Sharq mutafakkirlarini aql maqomi, mantiq ilmi avvaldan qiziqitirib keladi, chunki mantiqqa tayammagan xar qanday bilim ishonchli va samarali boʻla olmaydi. Bu masala ham islom falsafasida oʻz oʻrniga ega.

Tasavvuf va uning tariqatlari. Tasavvuf falsafiy oqim va diniy-maʼnaviy hodisa sifatida islom dini doirasida (koʻpgina ichki sabablar va baʼzi tashqi unsurlar – buddaviylik va hindiylikning ilk diniy tasavvurlari, sharqiy xristian tarkidunyochiligi, neoplatonizm kabilarining taʼsiri ostida) paydo boʻldi. Tasavvuf uchun vahdoniyat – Olohning birligi, Oloh va olamning porlab turishi, fano boʻlish, orif shaxsining tangri taolo bilan ruhan birlashib ketishi kabi mushohadalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oqim namoyandalari va tarafdorlarini soʻfiylar, deb ataganlar va «soʻfizm» atamasi shundan paydo boʻlgan. Ilk soʻfiylar aholining kambagʻal toifasi orasida shakllangan. Ularning qarashlari istilochilar zulmi, adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida ham yuzaga kelgan.

Tasavvufning muhim jihatlari yirik musulmon ilohiyotchisi Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-Fazzoliyning (1059-1111) «Diniy ilmlarning tirlitirilishi» asarida bayon etilgan. U zot dunyo qonuniyatlarini aql orqali bilishni eʼtirof etgan, lekin Olohni aql bilan anglash mumkin emasligini taʼkidlaganlar. U faqat qalb, maxsus ruhiy harakatlar – iljiyo-ibodatlar koʻmagida bilib boriyadi. Mantiq, tabiatni bilish Olohni tanishga xalal bermasa, ular ahamiyatlidir, agar aksincha boʻlsa, ularning maqomi chegaralanadi.

Rasmiyatchilik, aqidachilikni tasavvuf ahli qabul qilmagan. Ularning fikricha, iymon-e'tiqodning mohiyati Oллоhdan boshqa narsaga muhtoj bo'lmasilik, hech qanday mulkning quliga aylamaslik, boriga sabr-qanoat qilib yashashdir. Oллоhga yetishish uchun qalbni poklash, na'fs balosidan ozod bo'lish dardkor. Ana shundagina inson dili nur bilan to'radi, nuqsonlarni boshqalardan emas, o'zidan izlaydigan darajaga ko'tariladi, Haq sari yaqinlashadi, bema'ni qarash va tushunchalarning qullik kishanidan o'zini ozod qiladi, chunki inson qalbi hurdir.

Tasavvufda kubraviya, yassaviya, naqshbandiya tariqat-suluklari keng tarqalgan.

Kubraviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubrodir (1154-1226). Xevada tug'ilgan, yozgan asarlari orasida «Sharhus-sunna val-masolih», «Usuli ashar», «Favoihul-jamol» kabilar mashhurdir. Kubraviya tariqatining mohiyati o'rta usulda mujassamlashgan. Bular – tangriga o'z xohishi bilan yuzlashish, zuhd fi dunyo – har qanday lazzatdan o'zini tiyish, tavakkul – Oллоhga e'tiqodi pokligi uchun barcha narsalardan voz kechish, qanoat, uzlat – xilvani ixtiyor qilish, mulozamat az-zikr – uzluksiz zikr, tavajjuh – Haqqa muhabbat qo'yish, sabr – na'fs balosidan ozod bo'lish, muroqaba – tafakkurga g'arq bo'lish, rizo – tangri xushnudligini qozonishdan iborat.

Kubro mo'g'ullar bilan bo'lgan janglarda jasorat ko'rsatgan va shahid bo'lgan. Mo'g'ullar Kubroning nomi ulug'ligi, obro'si balandligini hisobga olib, unga ozod bo'lishi, omon qolishi mumkinligini, buning uchun esa qamal qilingan qal'adan chiqib ketishi kifo'ya ekanini bildirgan. Ammo Kubro bunday jon saqlagandan ko'ra, o'z xalqi bilan birga yurt himoyasi yo'lida jon berishni afzal ko'rgan. Rivoyat qilishlaricha, ul zot qartayib qolganiga qaramay, jangchilarga faol ko'mak bergan. Buni ko'rgan shogirdlaridan biri «Ustoz, anchadan beri bayroq ko'tarib charchadingiz, uni menga bering», deganida, u «Agar kuchim bo'lganida qilich yoki kamon olgan bo'lar edim. Bayroqni bizga qo'yingda, siz yo qilich yoki nayza bilan yog'iyga qarshi kurashing», degan ekan. U bayroqni shunchalik mahkam ushlagan ekan, xalok bo'lganidan keyin qo'lidan bayroqni olishning iloji bo'lmaganidan, bir mo'g'ul Kubroning qo'lini kesib olgan ekan.

Yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviydir (1166 yilda vafot etgan). U Turkistonning Sayram muzofotida tug'ilgan, mashhur mutasavvif Yusuf Hamadomiyning (1140 yilda vafot etgan) ta'lim-tarbiyasi bilan voyaga yetgan, orif maqomiga erishgan. Yassaviy ustozining vafotidan keyin muayyan bir muddat uning maqomida turgan, so'ng esa bu maqomni Abduxoliq Fijduvoniyga qoldirib, Yassi – Turkiston shahriga qaytadi va o'z tariqati, yo'l-yo'riqlarini tashviq etish bilan mashg'ul bo'ladi.

Yassaviyning oddiy xalq tushunadigan uslubda yozilgan, tasavvufiy qarashlarini aks ettirgan hikmatlari devonida o'z aksini topgan. Unda ilohiy ishq, Haq vasliga yetishish, uning ishqida parvona bo'lish, undan boshqa narsaga ko'ngil qo'ymaslik haqida fikr yuritilgan. Yassaviy riyozat, chilla, zikrga alohida ahamiyat berib, hayotining aksariyatini chillaxonada o'tkazgan. Yassaviy tariqati Turkiston o'lkasi, Ozarbo'yon, Turkiya, Shimolda – Qozongacha, Farbda – Bolqongacha keng tarqalgan.

Bahouddin Naqshband (1318-1389 yillar) naqshbandiya tariqatining asoschisidir. Bu ta'limotning mohiyati «Dil – ba yoru dast – ba kor» shiorida yaqqol ifodasini topgan. Inson Oллоh inoyati natijasi bo'lib, bu dunyoni unutilib qo'ymasligi lozim, uning qalbi doimo Oллоhda, qo'li esa mehmatda bo'lmog'i lozim. U tasavvufning barcha tariqatlari singari shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlarini e'tirof etadi.

Naqshbandning ta'kidlashicha, shariat – ahdga vafo, islomning beshta asosiy talabiga rioya qilish, dil va til birligi. Tariqat esa, o'zidan kechish, fano bo'lishdir. Haqiqat – behuda ishlardan uzoglashish, haq ishlarga bog'lanish. Demak, shariat – qonun, tariqat – yo'l. Qonun vujud va qalbni tartiblaydi. Yo'l esa ko'ngilni poklab, ruhni ilohiy quvvatdan bahramand qiladi.

Kubraviya, yassaviya va naqshbandiya ta'limotlari ma'naviyatimiz tarixida juda katta o'rin tutgan. Ular ma'naviy taraqqiyotda muhim ahamiyatga molik bo'lib, o'z ta'sirini haligacha yo'qotmagan.

Valatinimiz sivilizatsiyasining sharq xalqlari, arab madaniyati va islom falsafasi rivojiga ta'siri nihoyatda katta bo'lgan. Uning hududida arab xalifatligidan

nisbiy mustaqillikka erishgan davlatlarning tashkil topishi, xalqimizning bag'rikengligi tufayli yangi marralarga erishildi. Dunyoviy va diniy sohalaridagi madaniy-ma'naviy yuksalish mazkur uyg'unlash davrining yorqin timsolidir. «Avesto» an'analari, tabiatni o'rganishdagi yutuqlar, gumanitar sohadagi ijodiy siljishlar, Sharq xalqlari, arab madaniyati va islom falsafasi rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. O'sha davrda jahon miqyosida Vatanimizning ma'naviy-intellektual nuftuzi ortib bordi. U jahondagi yirik madaniyat va ilm-fan markaziga aylandi.

Muhammad al-Xorazmiy (783-850) va Ahmad al-Farg'oni (taxm. 797-865) butun musulmon Sharqi va jahonda tabiiy va aniq fanlar rivojiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allomalardir. Muhammad al-Xorazmiy arab xalifatligining poytaxti Bag'dodda «Donishmandlik maskani» («Bayt ul-hikma») ga rahbarlik qilgan. Uning «Astronomiya jadvali», «Hind hisobi to'g'risida risola», «Quyosh soati to'g'risida risola», «Musiqqa haqida risola», «Tiklash va qarshi qo'yish hisobiga oid muxtasar kitob» kabi asarlarida algebra sohasiga asos solindi.

Sharq xalqlari orasida «Buyuk matematik» unvoniga sazovor bo'lgan Ahmad al-Farg'oni (taxm. 798 y. da Quvada tug'ilgan) astronomiya va matematika sohalarida nom taratdi. Uning «Samoviy jismlar harakati va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob», «Astronomiya asoslari», asarlarida koinot xaritasi tuzildi. Yer va fazoviy sayyoralar hajmi, iqlimlar, jo'g'rofiy kengliklar to'g'risida kuzatuvchilar orqali asoslangan yangi ma'lumotlar berilgan, ilm-fanning yangi yo'nalishlariga asos solingan. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni umumlashtirish, tadqiqotda hissiy va aqliy mushohada musharakligi allomaga xos xususiyatlar sifatida dunyogarashni shakllantirishning muhim omillari bo'lib keldi va undan keyin yashagan ilm ahliga ta'siri sezilib turdi.

Falsafa, tabiatshunoslik va tibbiyot tarixini Forobiy, Beruniy va Ibn Sinosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Abu Nasr Forobiy (873-950) - musulmon Sharqida Arastudan keyin «ikkinchi ustoz» unvoniga muvassar bo'lgan yirik mutafakkir va alloma. Uning qalamiga 160 dan ziyod asar mansub bo'lib, ular asosan qadimgi yunon olimlari asarlaridagi tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolar sharhlash hamda bu sohalarining dolzarb masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mutafakkir

olamni ikki ko'rinishda: «Vujudu vojib» (ollot) va «Vujudi mumkin» (barcha moddiy va ruhiy narsalar) misolida talqin qiladi, barcha narsalar «Vujudi vojib» tufayli yashash huquqiga ega bo'ladi. Ular o'zaro bir-biri bilan sababiy tarzda bog'lanadi. Sababsiz oqibat bo'lmaganidek, oqibatiz sabab ham bo'lmaydi, deydi Forobiy.

Olam sifat, miqdor, javhar, aksidensiya (muhim bo'lmagan xossa), imkoniyat, zaruriyat va tasodifiyat, makon va zamon, harakat va rivojlanish kabi tushunchalarda ifodalangani. Ular fazoviy jismlar, aqli mahluq (inson), aqlsiz jonivorlar, o'simliklar, mineralar va to'rtta unsur-suv, olov, havo va tuproq kabi olitta ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Bilish jarayoni aql va sezgilar orqali yuzaga keladi. Bilishda aql va mantiq ilmining maqomi beqiyosdir. Aql vositasida inson ilm-fanni yaratadi. Fan tufayli hodisalar mohiyati ochib beriladi. Har bir fan insonning muayyan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Mutafakkir o'z asarlarida komil inson, fozil fuqaro, odil hukmdor, baxt-saodat, unga erishish yo'llari, davlatning xususiyatlari, ahloqiy va aqliy tarbiya, ijtimoiy istiqbol to'g'risida ilg'or g'oyalarni ilgari surgan. Forobiyning Sharq xalqlari falsafiy tafakkuri rivojiga bo'lgan ta'siri sezilarli bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048) deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkirdir. U yaratgan 152 ta asardan 28 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning tabiatni o'rganishdagi xizmati kattadir. Alloma jismlarning o'zaro tortishuv, Quyosh va Oyning tutilishi, zarrat, inersiya va sun'iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi, Yer qat'ida ro'y beradigan geotektonik siljishlar, Yer qiyofasining tadqiqiy tarzda o'zgarib turishi, xilma – xil olamlar to'g'risida ilmiy bashoratlarni ilgari surgan. Uning falsafiy qarashlari tabiiy-ilmiy qarashlari ta'sirida shakllandi. U modda va zamon, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat, sabab va oqibat kabi falsafiy muammolarga katta e'tibor bergan.

Beruniyning asarlarida bilish masalalari muhim maqomga egadir. Bilishga bo'lgan qiziqishning iktita sababi bor. Birinchidan, bu o'ziga xos lazzatdir. Ikkinchidan, bilishdan maqsad odamlar ehtiyojlarini qondirishdir. Bilish sezgilar yetkazib bergan ma'lumotlardan boshlanadi. Ular bilishning yuqori bosqichi aqliy bilish uchun o'ziga xos ko'makchi va asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimning chinligi kuzatuv va sinov – tajriba orqali belgilanadi. Ular tufayli ashyolarning muhim jihatlari o'rganiladi, ularning miqdoriy tomonlari aniqlanadi, bilish jarayonining samaradorligi oshib boradi.

Beruniyga ko'ra, inson qiyofasi tabiat ta'sirining natijasidir. Uning ichki qiyofasiga kelsak, uni inson cheksiz sa'y-harakatlar oqibatida tubdan o'zgartirishi mumkin. Har bir kishi o'z xulq-atvorining sohibidir. Jamiyat tadrijiy o'zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Adolat, fuqaro uchun g'amxo'rlik, zulmni bartaraf etish, jamiyatni aql va adolat tug'i ostida boshqarish mutafakkirning idealidir.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) buyuk alloma va mutafakkir. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, Hamadon shahrida vafot etgan. Ibn Sinodan qolgan ma'naviy me'ros taxminan 280 nomdan ziyodroqdir. Ular tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq, musiqa, farmakologiya va boshqa sohalariga bag'ishlangan. Olimning «Shifo kitobi» «Tib qonunlari», «Bilimlar kitobi», «Tabiat durdonasi» kabi asarlari mashhurdir. Borliqni talqin etishda Ibn Sino Forobiy izidan borib, uni «Vujud vajib» va «Vujudi mumkin»dan iborat, deb e'tirof etadi. «Vujud vajib» birinchi sabab vazifasini bajaradi. «Vujudi mumkin» esa uning oqibatidir. Yaratilishi doimiy bo'lganligi uchun yaratilgan «Vujudi mumkin» ham abadiydir. Olimning sababiyatga oid mulohazalari e'tiborga molikdir. Unga ko'ra, sabablar moddiy (muayyan holatni keltirib chiqaruvchi sabab), faol (muayyan holatni o'zgartiruvchi sabab), shakliy (turi xil quvvatlar bilan bog'langan sabab) va tugallovchi (barcha sabablarning pirovard magsadi) sabablardan iboratdir.

Ibn Sino Zakariyo ar-Roziy va Beruniy kabi jahon falsafiy tafakkuri tarixida birinchilardan bo'lib kuzatuv va tajribaga muhim e'tibor qaratdi. Masalan, alloma ular ko'magida xastaning holati, kelajakda kutilayotgan kayfiyati, dori-darmonlar tarkibi, inson va atrof-muhit o'zaro munosabati muammolarini hal etishga urinadi.

Mutafakkir o'z asarlarida ilm va axloq-odob uyg'unligi, inson kamoloti, baxt-saodat, ijtimoiy adolat, kishilarning o'zaro hamkorligi, hukmdorning burchi to'g'risida qiziqarli g'oyalarni ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha, barchani bir xil ijtimoiy mavqega erishtirib bo'lmaydi. Aslida ular uchun muayyan sharoit yaratib bermoq lozim. Barchaning boy va mansabdor bo'lishi yoki hammaning gashshoq bo'lishi jamiyatning tanazzuli va inqirozidir. Lekin inson o'zgalarga mehr-oqibati, g'amxo'r bo'lmog'i, kerak vaqtda saxovat va muruvvat qo'lini nochorlarga uzatishi zarurdir.

Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida keng tarqalgan tasavvuf ta'limotidagi komil inson maqomi, nafsni tiyish, bag'rikenglik, diniy donishmandlik, Muso al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg'oniy tadqiqotlarida ilgari surilgan tabiiy-ilmiy g'oyalar, Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari, fandagi yangi yo'nalishlar birinchi g'alda musulmon Sharqi, qolaversa, butun jahon tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnagiga hayotbaxsh ta'sir o'tkazib ketdi.

XIV asrning oxiri-XV asrning boshlarida Amir Temur amalga oshirgan harbiy yurishlar natijasida o'lka mustaqilligi qo'lga kiritildi. Temur va temuriylar davrida uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi boshlandi. Bu ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnash bosqichi bo'ldi. Ma'naviyatga homiylik harakati avj oldi. Bunga Samarqandda Ulug'bek astronomiya maktabining vujudga kelishi, rasadxonaning qurilishi, mashhur olimlar Qozizoda Rumiy, al-Koshiy, Ali Qushchi va boshqalarning fandagi jonbozligi yaqqol misoldir.

Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasi. Qadimgi davr falsafasining yana bir sisilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar – antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Miliet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Suprot, Pitagor, Aftolun, Arastu va boshqalarning falsafiy, tabiiy – ilmiy, ijtimoiy – ahloqiy ta'limotlari o'rganiladi.

Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlar o'rtasida Miliet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. Miliet maktabi vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimendardir. Uning asoschisi Fales (eramizdan avvalgi 624 – 547 yillarda yashagan). U Yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z

davrining yetuk siyosiy arbobi, jo'g'rofi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido – suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI o'rtalarida yashab ijod etgan. U «Tabiat haqida» asarini yozgan, biroq asar bizgacha yetib kelmagan. Fales olamning asosiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dunyo – cheksiz, gazsimon apeyrondan iborat, issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik apeyrondan ajralib chiqib, moddani bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini zamondoshi, shogirdi Anaksimend davom ettirdi. Anaksimend (eramizdan avvalgi 588-525 yillar) havo – olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning quyuglashishidan suv, yer, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa olov paydo bo'lgan.

Yana bir yunon faylasufi Geraklit (eramizdan avvalgi 520-460 yillar) Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idagi Efes shahrida zargar oilasida dunyoga kelgan. U shixiyati dialektikaga asos solgan, olov – olamning asosi, deb bilgan. uning fikricha, olamda hamma narsa harakalda. «Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi». Olamda turg'unlik yo'q. Harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga xosdir. Abadiy harakat – abadiy o'zgarishdir. Harakat qarama-qarshilik asosida sodir bo'ladi. «Kurash hamma narsaning otasi, hamma narsaning podshosidir», degan ekan Geraklit. Bundan Geraklit kishilar o'rtasida urushlarni targ'ib qilgan ekan-da, deya xulosa chiqarish noto'g'ri. Geraklitning fikricha, doimiy o'zgarish, harakat va o'zaro qarama-qarshi tomonlarga o'tish – jismlar sifatining nisbiyligi bilan bog'liq. Masalan, dengiz suvi inson iste'moli uchun yaroqsiz bo'lsa, baliqlar uchun ayni muddaodir. Geraklitning qarashlari falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Pifagor (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan. u qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha yerda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish

jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki idealashgan raqamlar yotadi; narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi. Pifagor zodagonlar oilasiga mansub bo'lgani bois aristokratiyani himoya qilgan. U «tartib» to'g'risidagi ta'limotini yaratib, faqat aristokratlar o'rnatgan tartib ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi, degan. Uning fikricha, demokratiya bu tartibotning buzilishidir.

Eley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenofan (eramizdan avvalgi VI – V asr) shoir va faylasuf bo'lgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayohat qilib, umrining so'ngi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Tarixchi Diogen Laertskiyning yozishicha, Ksenofant «Tabiat haqida» asarining muallifidir. Afsuski, ushbu asarning yarmigina omon qolgan, xolos. u ko'pxudolikka hamda insonlarga xos sifatlarini hayvonlarga, o'simlik dunyosiga daxldor deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib, mifologiyani rad etishga harakat qilgan. uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat - o'zgarmas va harakatsizdir, «Hamma narsa yerdan unib chiqadi va pirovardida yana yerga qaytadi». Biz hammamiz yerdan tug'ilganimiz va yerga aylanamiz». Ksenofan qadimgi yunon faylasuflardan birinchi bo'lib, bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan. Bu qadimgi yunon gnoseologiyasining rivojiga turtki bo'ldi.

Ksenofant ilgari surgan g'oyalar uning shogirdi Eley falsafiy maktabining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri, eramizdan avvalgi 504 yili tug'ilgan Parmenid tomonidan rivojlantirilgan. Eley falsafiy maktabining namoyandalaridan biri Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (490-430 yillar) o'z ustozining ta'limotini himoya qildi va uni rivojlantirdi.

Qadimgi Yunon madaniyatida sofistlar falsafasi katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan. Sofistlar yangi kasblarning mohir ustalari, ya'ni o'quvchilar, diplomatlard, notiqlar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislardan

iborat bo'lib, haqiqat, osoyishalik, adolat o'rnatishga xizmat qilgan. ularning ta'limoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Suqrot (ceramizdan oldingi 469-399 yillar.) (asli – Sokrat) – qadimgi Yunon faylasufi. «Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, hurfiylik inson, kambag'alardan chiqqan, tosh yo'nuvchining o'g'li, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'lgan.

Uning hayoti fojiali tugagan to'g'risidagi misol falsafiy afsonaga aylanib ketgan. O'z davrida Afinadagi hukmron tuzum tartib-qoidalariga qarshi chiqib, yangi fikrlarni ilgari surgani uchun ruhoniylar uni dahriylikda hamda yoshlarni axloqdan buzishda ayblaganlar. Unga shunchaki ayb emas, siyosiy ayb qo'yilgan. Garchand qutilish imkonini bo'lsa-da, qonun va jamiyat tartiblarini nihoyatda qat'iy hurmat qilganligi bois, u jazodan qochishni istamagan va bir qadah zahar ichib o'lgan. Suqrot va uning tarafdorlari jamiyat qonunlariga, ular qanday bo'lishidan qat'i nazar, so'zsiz itoat etishni targ'ib etganlari g'oyatda ibtirilidir. Holbuki, Suqrot va uning shogirdlari Afinada amal qilgan qonunlarni noto'g'ri va adolatsiz deb hisoblagan hamda ularni qat'iy tanqid qilgan, ammo, shunday bo'lsa-da, ularga bo'ysungan. Shu ma'noda, Suqrot o'zini aybdor deb topgan sud hukmiga itoat etgan va o'zini uning ixtiyoriga topshirgan. «Alfotun mening do'stim, ammo qonun do'slikdan ustun turadi» degan hikmatli ibora o'sha davr ma'naviyatining yaqqol ifodasidir.

Suqrot o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha-ko'ya, maydonlarda, xiyobonlarda shogirdlari va izdoshlari bilan birga shakllantirgan va xalq ongiga singdirishga harakat qilgan, lekin bironla ham asar yozmagan. Uning falsafiy, axloqiy ta'limotlari mohiyatini shogirdlari Ksenofant, Aristofan va Alfotunlarning asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Ksenofant «Suqrot haqida esdalklar» asarida o'z ustoz haqida iliq so'zlar aytib, uni olijanob, axloq-odob borasida haqqoniy fikr yuritgan inson sifatida ta'riflagan. Yoshlarning axloqini buzgan deb unga siyosiy ayb qo'yish – tuhmat ekanini alohida ta'kidlagan. Alfotun esa uni chuqur mulohazali, insonni ulug'lovchi donishmand, deya ta'riflagan, uning falsafiy qarashlarini o'z asarlarida Suqrot nomidan bayon etgan. Suqrotning fikricha,

falsafaning markazida axloq masalalari turmog'i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishligi, farovon hayoti axloq va odobning ahvoriga bog'liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o'rin tutganli bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Suqrot nomini benihoya hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob haqidagi pand-nasihatlariga amal qilgan.

Suqrotning shogirdi **Alfotun** (asli – Platon) jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san'atkor, sho'ir va dramaturg bo'lgan, o'z g'oyalarini dialoglar tarzida bayon qilgan. Alfotun 428 yil 21 mayda Delos orolida tug'ilgan. O'zidan keyin 35 dan ziyod dialog shaklidagi asarlar yozib qoldirgan. Arastuning u haqdagi ma'lumotlarini birdan-bir to'g'ri dalil deb qarash mumkin. Chunki Arastu Alfotunning eng yaqin do'sti va shogirdi bo'lgan.

Alfotun «Foyalar dunyosi va soylar dunyosi» ta'limotining asoschisidir. Uningcha, g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo esa uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot g'oyalar dunyosiga xos, soylar dunyosidagi harakat esa uning aksidir. Foyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bilolmaydi. Ularni biladigan zotlar nihoyatda kam uchraydi, ular ulkan aql egasi bo'ladi va tarixda chuqur nom qoldiradi. Aksariyat kishilar esa, soylar dunyosi bilan kifoyalanadi.

Alfotunning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti uning dunyogorashida markaziy o'rinlardan birini tashkil etadi. U faqat antik davr falsafasi – ontologiya va gnosologiyaning klassigi bo'lib qolmay, mumtoz antik siyosiy nazariya va pedagogikaning bilimdoni ham bo'lgan. Alfotun ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir «Davlat», «Qonunlar», «Siyosat» va «Kritik» nomli asarlar yozib qoldirgan. «Davlat» asarida jamiyat haqida, uning ideal siyosiy tuzumi to'g'risidagi qarashlarini markaziy ta'limoti – g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, davlatning o'rta shakli mavjud: teokratiya; oligarkiya; demokratiya; tiraniya. Alfotun ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Alfotun aytganidek, jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'yusinishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.

Aflotuning shogirdi va safdoshi **Arastu** (384 – 322 yillar) (asli – Aristotel) qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan ilmiy merosi bilan mashhurdir. O'n yetti yoshida o'z ilmini oshirish maqsadida Afinaga kelib, Aflotun asos solgan akademiyaga o'qishga kirgan va 20 yil davomida (Aflotuning o'limiga qadar) shu yerda tahsil olgan. Keyinchalik Makedoniya podshosi Filippning II taklifiga binoan, uning o'g'li Aleksandrga 3 yil muntazam ustozlik qilgan. Binobarin, keyinchalik dunyoni zabt etib, jahongirlik maqomiga ko'tarilgan iskandarning kamolotida Arastuning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Filippning o'limidan keyin Aleksandr taxtga o'tirgach, Arastu Afinaga qaytib kelib, 50 yoshlarida «Likkey» nomli maktab ochgan. Ilmiy faoliyatining samarali bo'lishida, umuman, Yunonistondagi ilm-fan rivojida Aleksandr tomonidan ko'rsatilgan himmat va rag'batlar muhim ahamiyat kasb etgan. Iskandar valofidan keyin unga qarshi kuchlar bosh ko'tarib, Arastuni dahriylikda ayblashgan va sudga tortishgan. Suddan oldin Evbey oroliga ko'chib ketgan Arastu ko'p o'tmay o'sha yerda vafot etgan.

Arastu zabardast olim bo'lib, mantiq, psixologiya, falsafa, axloq, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas, bebaho asarlar yozib qoldirgan. Uning barcha asarlari borligini o'rganishga qaratilgan. Mantiqqa oid asarlarining barchasini «Organon» («Qurob») nomli asariga jamlagan. Faylasuf barcha fanlarni ikki turga – nazariy va amaliy fanlarga bo'lgan. Amaliy fanlar shogirdlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga, biror bir foydali ishni amalga oshirishga yo'naltirilgan. U nazariy fanlarni uch qismga – falsafa (metafizika), matematika va fizikaga ajratgan.

Faylasuf olamdagi narsa va hodisalar to'rtta sababga ega. Bular – moddiy sabab, ya'ni modda (materiya); shakliy sabab yoki shakl; yaratuvchi sabab; pirovard sabab yoki maqsad sabablardir. Yaratuvchi sabab, Arastu talqinicha, harakat manbaidir. Masalan, ota va ona bolaning ulg'ayishi sababchisidir. Arastu pirovard sabab (maqsad sabab) vositasida insonga xos bo'lgan maqsadni tabiat hodisalariga ham tatbiq etmoqchi bo'lgan. Harakat olam singari abadiydir. Ayuni paytda, olam o'zining abadiy sababi, ya'ni harakatlantiruvchi kuchiga ega.

Arastuning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti «Davlat», «Siyosat» kabi asarlarida bayon etilgan. Uning fikricha, davlat boshqaruvi jamiyatning erkin va farovon hayoti uchun xizmat qilishi lozim. Baxli hayot mazmuni faqat moddiy mo'vilo'chilik bilan belgilanmaydi, balki seroblik ma'naviy boylik bilan uyg'un bo'lgandagina, jamiyat baxli hayot kechiradi. Davlatning boyligi, asosan, o'rtacha mulkka ega bo'lgan fuqarolarning mehnati bilan ta'minlanadi. Arastuning bu boradagi qarashlari bugungi kunda Vatanimizda kichik va o'rta biznes sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar mohiyatiga juda hamohangdir.

Yunon falsafasida **Demokrit**ning qarashlari ham muhim o'rin tutadi. U haqiqiy borliq – moddiy dunyo, abadiy va poyonsiz, cheksiz-chegarasiz reallikdir, olam mayda moddiy zarrachalardan, ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deya ta'lim beradi. Atomlar va bo'shliq o'zaro yaxlit abadiy ittidadir. Atomlar – bo'linmas va o'zgarmas, sifat jihatdan bir xil, uning miqdori shakli singari behisobdir. Harakat, degan edi Demokrit, atomlardan iborat moddaning abadiy, tabiiy holatidir. Demokrit tasodifiyanni inkor etgan. U «na tabiada na jamiyada hech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi», deb yozgan. Demokritning falsafiy qarashlarida axloqiy ta'limot muhim o'rin tutadi. Uning bu boradagi qarashlari alyosiy qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. Yaxshi boshqarilayotgan davlat – buyuk qo'rg'onidir. Davlat manfaatlari qolgan barcha narsalardan ustun turmog'i lozim.

Me'yor, deydi faylasuf, axloqning tabiat insonlarga in'om etgan kuch va qobiliyatga mos kelishadidir. Donolik uchta hosil keltiradi: yaxshi fikrlash; yaxshi bo'zlash; yaxshi harakat qilish. Demokritning axloqiy qarashlari o'z davridagi amaliy ma'naviy munosabatlarning umumlashmasidir. Uning ta'limoti bugungi kunda insonlarni axloq-odobga, diyonatga da'vat etadi.

Epikur (341-270 yillar) – qadimgi Yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashirib, uni yuqori pog'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam – moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar – bo'linmas, olam – jisim va bo'shliqdan iborat, deb yozgan edi u. Barcha jismlarni Epikur ikki guruhga bo'lgan. Birinchi guruhga jismlarni tashkil etuvchi atomlarni kiritgan bo'lsa, ikkinchi guruhga

atomlarning birlashishidan tashkil topgan jismlarni kiritgan. Epikur ichki harakat qonuniyatini kashf etib, Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotiga ulkan hissa qo'shgan. Epikurning falsafiy-aхлоqiy ta'limoti o'z zamonasida ilg'or ahamiyatga ega bo'lgan. Rohat-farog'at, xursandchilik deganda, kayf-safo, maishat, shohona hayotni emas, balki jismoniy ezilish hamda ruhiy tashvishlardan xalos bo'lishni, ozodlikni tushunamiz, deydi Epikur. uning fikricha, davlat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida tuzilishi lozim. Epikur ilgari surgan ijtimoiy kelishuv g'oyasi keyinchalik XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari hamda XX asr faylasuflari tomonidan davom ettirilgan.

Epikur ta'limotini rimlik **Lukresiy Kar** (eramizdan avvalgi 99-55 yillar) davom ettirgan. U «Narsalarning tabiati to'g'risida» nomli asari bilan mashhur bo'lgan. Yashashdan maqsad, deb yozgan Lukresiy, baxti hayot kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, xuddi tabiat singari, o'z qonunlariga ega hamda tabiat qonuniyatlariga tayangan holda rivoj topadi, deydi u. Uning falsafiy qarashlari o'z davri va o'rta asr falsafasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Uning fikricha, modda (materiya) – abadiy, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib, shaklini o'zgartirib yashash – uning xossasi. O'lamdagi barcha narsalar ikkiga – oddiy va murakkab turga bo'linadi. Lukresiy Kar atom harakatining uchta turini sanab o'tgan. Bular – narsaning og'irlikka ega bo'lgani uchun to'g'ri chiziqli harakati, narsaning o'zicha og'irish harakati, narsaga turtki bo'lgan asosga qaratilgan harakat. Lukresiyning nazariyasi mohiyatan sodd bo'lsa-da, tabiatshunoslikka ulkan ta'sir ko'rsatgan.

1. Yevropada Qadimgi Yunon va Rimdan o'rta asrlar falsafasigacha, ya'ni miloddan ilgari I asrdan milodning XIV asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo'ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish mumkin: 1. Xristianlikning shakllanib davlat dini va matkurasiga aylanishi; 2. O'rta asrlarga kelib inkvizitsiyaning ustivor yo'nalishga aylanishi. Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'sha davr falsafasining qiyofasini belgilaydi.

Gnostiklar. Bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan gnostisizm eramizning 150 yillarida o'zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta'limot yaratdilar, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda muallimo sof, inson esa o'z tabiatining ruhiy jihati bilan xudoga moslashgan. Bu muamla gnostisizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. Agar bu urinishda gnostisizm g'alaba qilsa, xristianlik qadimgi dunyoning navbatdagi falsafiy dini bo'lib qolar edi va shunday bo'ldi ham. 354 yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e'lon qildi.

Dualizm – gnostisizmining asosiy yo'nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta'kidlaydilar. Ular ta'limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular xudo hech muhal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Gnostiklar tomonidan e'lon qilingan darveshlik (asketizm) o'rta asrlarda monaxchilikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Apologetlar xristianlik tarixida I va III asrlarda vujudga keldi. Apologetika bo'zining lug'aviy ma'nosi «himoya qilish», – demakdir. Apologetlar hukumatning xristianlikka bo'lgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni ta'qib qilishi hech qanday oqlashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qilganlar, o'z asarlarida mushriklik (ko'p xudolik) adabiyotlaridan olingan bahslashish (dilog) shaklidan, yoki apologetikaning mumtoz shaklidan foydalanganlar.

Apologetlar asarlarida ikki an'ana yaqqol sezilib turadi. Ya'ni inkor qilish va tasdiqlash. Ular eng avval mushriklar tomonidan xristianlikka qo'yilgan ayblar – g'iyrodaliy harakatlardir, dabbabozlik kabi larini inkor qilganlar. Xristianlikning noilligini esa tasdiqlaganlar. Bu sohada Yustinning «Birinci apologetay», «Ikkinchi apologetay» asarlarini, Tulean va Anaksagor kabi faylasuflar faoliyatini ta'kidlash lozim.

«Patristika»- so'zi «otaa» («padre») so'zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda Firda yepiskoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Sharqda mashhur bo'lgan chekov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347-407) edi. Uning 640ta da'vatlaridan

ko'pchiligi avliyo Pavel nomlarining sharhi edi. Uning asarlarida injilni amaliy qo'llash sof ahloqiy masalalar bilan qorishib ketgan.

Farbda eng yirik cherkov otalaridan biri «Pok» degan unvonga sazovor bo'lgan Avreliy Avgustin (354-430) bo'lib hisoblanadi. U faylasuf va isloliyotchi bo'lgan. Avgustin o'z hayotini yepiskoplikka, tadqiqotchilikka, adabiyotga bag'ishlaydi. U 100 ga yaqin kitob, 500 ta da'vat va 200 ga yaqin nomlar yozadi. Uning o'sha davrdagi eng mashhur asarlaridan biri «Sig'imish» 401 yilda yozilgan. Bu asarda u o'zining xristianlikka bo'lgan hayotini yozadi. Muqaddas kitob «Bibliya» o'ylari ramziy – imsoliy bayon qilinadi. U mushriklik falsafasini qoralaydi. Uningcha, bu falsafa insonni xristian dinichalik hech mahal haqiqatga olib kelmaydi. Avgustin baho shaklida boshqa (dialog) falsafiy asarlar yozgan.

«Sxolastika»- so'zi yunoncha «shkola»dan («shola») olingan bo'lib, «o'qish joyi», «maktab» ma'nolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida o'qituvchilik qilganlarni, yoki umuman saroy maktabidagi o'qituvchilarni sxolastlar deb ataganlar. Shuningdek, dini o'rganishda falsafani tatbiq qilgan o'rta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar. Sxolastikani ma'lum darajada ilohiyotni aqlga moslashtirish, dini tafakkur yordamida quvvatlashga bo'lgan intilish deb ham baholash mumkin. O'sha davrda ilohiyotni muqaddas kitoblar aqidolari asosida emas, balki falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish toqozo qilinardi. Sxolastlarning maqsadi e'tiqod aqlga muvofiqmi degan savolga javob berish bo'lgan.

Realizm. Uning yirik vakillaridan biri Angelin Ketterberyskiy (1038-1109) dir. U Shimoliy Italiyada tug'ilgan, 1093 yilda Ketterberysk shahrining arxiepiskopi etib tayinlanadi. Angelin o'zining ikki asari bilan mashhur.

Birinchi «Monopoliya» – xudoning borligini sabab oqibat munosabatlari tizimida isbot qilish. Bu isbot – kosmologik isbotning shakli sifatida shunday talqin qilinadi: inson hayotda ko'p ne'matlardan foydalanadi. Bu ne'matlar esa eng oliy ilohiy ne'matlarning aksidir. Ular orqali hamma narsalar mavjuddir. Uzlaksiz tanazzulni tasavvur qilib bo'lmagani sababli, hamma narsaning bir sababchisi bo'lishi kerakki, biz uni xudo deb ataymiz.

Angelinning ikkinchi asari «Prologion» xudo borligining deduktiv isbotidir. Uning ta'kidlashicha, har bir odam uchun oliy va komil mohiyat haqida g'oya mavjuddir. Bu g'oya esa ob'ektiv mavjudlikka ega bo'lgan reallikka mos keladi. Chunki agar borliq mavjud bo'lmaganda edi, narsa komil bo'lmaz edi. Agar xudodan yuqoriroq oliy narsani tasavvur qilish mumkin emas ekan, demak, xudo reallikda mavjuddir.

Arastu ta'limotining ko'p tomonlarini qabul qilgan o'rta asr sxolastlari mo'tadil realistlar deb atalganlar. Ularning yirik vakillari Per Abelyar va Foma Akvinskiylar bo'lgan.

Britaniyada tug'ilgan P. Abelyar (1079-1142) juda yoshligidan o'z bilimni bilan mashhur edi. Abelyar – mo'tadil realistsidir. Uning ta'kidlashicha, reallik yoki universal dastlab xudo aqlida mavjuddir, undan keyin narsalarning o'zida mavjuddir va nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir. Abelyar «Men e'tiqod qilish uchun bilimam» degan g'oyani ilgari surgan. Ya'ni bilmaydigan, bilmisiz kishidan ko'ra, din va uning asosiy tamoyillarini yaxshi o'rganagan kishi abzal. Bunday kishi aqidaparasht emas, balki o'zi bilgan narsaning qadrini biladigan insondir.

Abelyar haqiqatni topishda tafakkurning xizmatini ta'kidlab, unga hamma vaqt murojaat qiladi. Uning ta'kidlashicha, shubha hamma vaqt tadqiqotga yo'llaydi, tadqiqot esa haqiqatni topadi. Uning fikricha, insonning o'limi xudoni rozi qilish uchun emas, balki odamlarni xudoga bo'lgan muhabbat bilan taajjubga solish va odamlarga ahloqiy ta'sir ko'rsatish maqsadida sodir bo'ladi. Bu bilan odamlar o'z hayotini xudoga bo'yso'ndiradilar. Bu qarash ahloqiy ta'sir qilish nazariyasi deb atiladi.

Foma Akvinskiy (1224-1292) mo'tadil realizmning yana bir yirik vakili bo'lib hisoblanadi. Foma o'sha davr uchun Arastu natur falsafasini ilohiyot bilan birlashtirishga harakat qilgan. Bunda u mo'tadil realizm pozitsiyasida turgan va sxolastikaning eng yirik namoyandasi bo'lgan. Uning fikricha, natural falsafada tafakkur va Arastu mantiqiy ta'limoti yordamida xudo mavjudligi haqidagi haqiqatga erishishi mumkin.

Fomaning «ilohiy summalari» asari 3000 maqoladan iborat bo'lib, 600 masalani yoritishga bag'ishlangan. U ilohiyotning sistemali bayon qilinishi vazifasini bajaradi. «Ilohiy summalari»ning birinchi qismi xudoning mavjudligi va borligi masalasida bahs yuritadi. Ikkinchi qismi «xudoga qarab harakat» haqida hikoya qiladi.

Akvinskiy ta'limoticha, dunyo ierarxik narvondan iboratdir. Uning eng quyi qismida yer va 4 elementdan iborat bo'lgan hamma nasalar mavjuddir. Odam ruhi xudo va moddiy dunyo o'rtasidagi joyni egallaydi. Dunyoviy jamiyat tepasida esa, papa boshchiligidagi ilohiy davlat turadi. Yerdan uzoqlashgan sari u ilohiy lashib boradi. Sayyoramiz dunyosining tepasida farishtalar dunyosi mavjuddir. Butun ko'not tuzilishi uch shaxsni birlashtirgan yagona xudo tomonidan boshqarilib turadi. Akvinskiy ta'limotidan keyinchalik «tomizm» oqimi shakllandi va u «neotomizm» tarzida g'arbda hozir ham saqlanib qolgan.

O'sha davrning mashhur faylasufaridan biri Vilyam Okkamdir (1309-1349). Uning fikricha, ilohiyot aqidalari rasional (aq) yo'l bilan isbotlanishi mumkin emas. Ular faqat Muqaddas kitob nufuzi tufayligina qabul qilinishi mumkin. Bu qarash e'tiqod va tafakkurni bir-biridan ajratardi, ularni omuxta qilishni qoralardi. Okkam, shuningdek, universalialarning ob'ektiv mavjudligini inkor qiladi. Uningcha, universalialar tafakkur tushunchalari uchun faqat ismidirlar. Bu tushunchalarni odam o'z ongida yaratgan. Uningcha, alohida odam insonga nisbatan realroq va muhimroqdir.

Rodjer Bekon (1214-1292) ham Okkam mansub bo'lgan oqim vakillaridandir. U o'z hayotini ilmiy tajribalarga bag'ishlagan. Ular yordamida u tajribaviy fanga asos soldi. Bunday metodni XYII asrda Frensis Bekon ishlab chiqdi. Haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash nominalistlar qarashlariga to'liq mos keldi. Nominalistlar va realistlar o'rtasidagi qarama-qarshilik o'rta asr sxolastikasining muhim muammolaridan biri edi. Butun o'rta asrlarda sxolastikaning bu ikki oqimini o'rtasida kurash ketgan. Sxolastikaning avyiga chiqqan davri – 1150 va 1300 yillarda – Foma Akvinskiyning mo'tadil realizmi nominalizm ustidan g'alaba qozondi. Lekin 1300 yildan keyin cherkov

ilohiyotchilari tafakkurida nominalizm yuqori mavqeni egallay boshladi. Bu ko'p jihatdan uyg'onish davri falsafasiga ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, haqiqatga erishishning tajribaviy metodini (rasionalizm) vujudga kelishida katta xizmat qildi. Yevropa falsafasining rivojida universitetlar muhim o'rin tutadi. Ular bilim va ma'rifaning o'chog'i sifatida 1200 yillarda vujudga keldi. 1400 yillarga kelib, Yevropada 23 ta universitet mavjud bo'lgan. Universitet dasturining juda katta qismini sxolastika bilan shug'ullanish tashkil etar edi.

Universitetlarning vujudga kelishining sababi mashhur olimlarning faoliyatidir. XII asrda Ierriy Rim huquqining buyuk tadqiqotchisi sifatida mashhur bo'ldi va talabalar uni eshitish uchun Bolonya shahriga oqib kela boshladilar. Natijada Bolonya shahri universiteti muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata boshlaydi. Abelyarning o'qituvchi sifatidagi shuhrati ko'p jihatdan Parij universitetining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Universitetlar, shuningdek, talabalarining chiqishlari natijasida ham vujudga kelgan. Masalan, XII asrda Angliya va Fransiya qirollari orasidagi nizo oqibatida, Angliya talabalariga yaxshi munosabat bildirilmaganligi ularning Parijdan Angliyaning Oksford shahriga ko'chib o'tishlariga sabab bo'ldi. Buning natijasida mashhur Oksford universiteti tashkil topdi. Kembrij universiteti esa Oksford universiteti talabalarining qo'zg'olon ko'tarishi va 1209 yilda ularning Oksforddan Kembrijga ko'chib o'tishlari natijasida vujudga keldi.

Universitetlar Qadimgi Yunoniston va Rimda, shu bilan birga bizning mamalakatimizda ham mashhur bo'lgan ustoz va shogirdlar to'planib ilm o'rganadigan, o'rgatladigan va ilmiy bahslar olib borladigan maktablar tarzida shakllangan bo'lsalar-da, ammo fan sohaslarining ko'pligi tufayli alohida ilm o'chog'iga aylanib qoldilar. Ularning tajribasi keyinroq butun dunyoga tarqalib ketdi.

Uyg'onish davri falsafasi. Bu insoniyat tarixida yuz bergan eng buyuk ilg'or taraqqiyot davrlaridan biri edi. Uyg'onish davrida hayotning hamma tarmog'ida muhim, ilg'or, hatto aytilish mumkinki, inqilobiy o'zgarishlar yuz berayotgan edi.

Uygʻonish davrida Yevropada falsafaning rivojlanishiga katta hissa qoʻshganlardan biri nemis Nikolay Kuzanskiydir (1401-1464). Kuzanskiy taʼlimoticha, xudo hamma narsalarda mavjud, shuningdek, hamma narsalar xudoda mavjud. Eng oliy haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki tajriba asosida amalga oshadi.

U xudoni borligining oliy va yagona asosi deb hisoblaydi. Bu masalada Kuzanskiy shunday muhim kosmologik fikrlarni bayon qiladiki, hatto maʼlum darajada uni Kopernik va Brunolarning oʻtmishdoshi deb hisoblash mumkin. Ikkinchi masala esa bilish nazariyasiga nisbatan uning butunlay yangicha yondoshishidir. Ushbu masalalar boʻyicha Kuzanskiy tomonidan ilgari surilgan gʻoyalar ayrim hollarda XVIII asr oxiri va XIX asr boshidagi nemis filsoflari tomonidan bayon qilingan fikrlarning debochasi edi.

Filosofiya va fan rivojlanishiga eng katta hissa qoʻshgan uygʻonish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimi Nikolay Kopernikdir (1473-1543). Maʼlumki, fan tarixida Kopernik oʻzining fanda tub oʻzgarish yasagan geliotsentrik taʼlimoti bilan mashhur boʻlgan. Uning taʼlimoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida Yerning oʻz oʻqi atrofida kundalik aylanishidan va quyosh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi Yer emas, quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfiyoti dunyoga teologik qarashga zarba berib, tabiatshunoslikda toʻntarish yasadi. Bu kashfiyot Bibliyaning dunyo tuzilishi haqidagi va oʻzgarmas deb tanilgan taʼlimotiga zarba berdi. Agar yer olamning markazi emas, balki Quyosh atrofida aylanuvchi planetalarning biri boʻlsa, unda dunyoni, koinotni maqsadga muvofiq xudo tomonidan odamlar uchun yaratilganligi haqidagi taʼlimot asossiz boʻlib qolardi.

Kopernikning geliotsentrik nazariyasidan chugur ilmiy xulosalar chiqargan mutafakkirlardan biri italiyalik Jordano Brunodir (1548-1600). U Neapol yaqinida tugʻilgan. Oʻzining ilgʻor fikrlari uchun Bruno dahriylikda ayblanadi va cherkovdan haydaladi. Italiyadan qochishga majbur boʻladi. Uzoq vaqt Shvesariya, Fransiya, Angliya va Germaniyada quvgʻinda yuradi. 1592 yilda Bruno Italiyaga qaytib keladi, lekin cherkov inkvizitsiyasi tomonidan ushlab

turnaga solinadi. Qiynoqlarga qaramasdan, u oʻzining taʼlimotidan voz kechmaydi, natijada qatl etishga hukm qilinadi, 1600 yil 17 fevralda Rimda Gullar maydonida yoqib oʻldiriladi.

Bruno geliotsentrik nazariyani himoya qilish va targʻib qilish bilan cheklanib qolmaydi. U tabiatshunoslik tajribalarini hisobga olib, bir necha muhim nazariy xulosalar qiladiki, ular filsofiyani yana ham boyitdilar. Bruno taʼlimoticha, haqiqiy filsofiya ilmiy tajribaga suyanishi kerak, sxolastikani tugatish kerak. uning taʼlimoticha, koinot yagona, moddiy, cheksiz va abadiy. Juda koʻp dunyolar bizning quyosh sistemasidan tashqarida mavjuddir. Biz koʻrib turgan narsalar koinotning eng kichik bir qismidir. Yulduzlar — bu boshqa planeta sistemalarining quyoshi. Yer — cheksiz dunyoning kichik bir zarrasi. Demak, Bruno tabiiy — ilmiy qarashlarida Kopernikdan ilgariib ketib, koinotning cheksizligi haqidagi fikrni aytdi. Kopernik esa koinotni chekli deb hisoblagan edi. Bruno Kopernik taʼlimotini quyosh sistemasining tuzilishi haqidagi yangi qarashlar bilan boyitdi.

Uygʻonish davrining natijasi sifatida namoyon boʻlgan Farbiy Yevropa mamlakatlaridagi tub ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar Niderlandiyada XVI asrning 60-70 yillarida, Angliyada XVII asrning 40-50 - yillarida boʻlib oʻtdi. Bu davrga kelib, Yevropada alohida millatlarning shakllanishi yuz berdi, milliy davlatlar paydo boʻldi. Endi monarxiya tuzumi jamiyatning ilgʻor tabaqalari nazarida faqat tarixan oʻz umrini oʻtab qolmasdan, balki gʻayritabiiy, gʻayriqatʼiy boʻlib koʻrina boshladi. Oʻsha davrning ideologlari ilgari tan olinmagan insonning tabiiy huquqlari masalasini oʻraga qoʻydilar. Ular ijtimoiy tartiblar inson tabiatiga mos kelishini talab qila boshladilar. Bor-yoʻgʻi 50-60 yil ilgari inkvizitorlar Jordano Brunoni yoqib yuborganlarida lom-min demagan Yevropa, endi oʻzining hayotida markaziy oʻrinni inson huquqlari egallashi kerakligini his eta boshladi. Hatto xudoning nomidan boʻlsa-da, inson umriga zomin boʻlishga hech kimning haqqi yoʻqligi, odamzodning yashash, fikr yuritish erkinligining tabiiyligi anglab olina boshladi. Albatta, bungaicha ikvizisiya bir necha asrlar bu hududni aqidaparstlik changalida ushlab turgan, ne-ne aqlli kishilarni oʻz domiga tortib ulguragan edi.

Ma'naviy uyg'onayotgan millat va hududda hech qachon aqidaparasitlik o'z ta'sirini to'la – to'kis saqlab qola olmaydi. Yevropada ham xuddi shunday bo'ldi. Ma'nau kanolga yetgan, milliy davlatchiligi ega bo'lgan va endi ana shu mustaqil davlatlarini kanolga yetishi uchun qarzdor ekanligini anglab olgan Yevropa millatlari o'zlarining komil insonlarini endi inkvizitsiyaning, aqidaparasitlarning hukmiga topshirishga sira ham haqlari yo'q ekanligini angladilar.

Yevropada Rim imperiyasidan keyin bir necha asrlar o'tib, aynan ana shu davrda ilgari, butun mintaqa hayoti uchun xristianlik va uning xilma-xil oqimlari umumiy mafkura rolini o'tab kelgan davr tugadi. Endi diniy oqimlararo kurash, xristianlikning softligini saqlashga urinishning mutlaqlashtirishi natijasida vujudga kelgan inkvizitsiya ham o'z davrini o'tab bo'ldi. Butun Yevropani boshqarib kelgan qon-qardosh va bir-biriga dushman qirollar davri ham o'timishga aylanib boshladi. Yevropa uyg'ondi. Ilm-fan sohasida chuqur o'zgarishlar ro'y berdi. Odamlarning dunyoqarashi keskin o'zgara boshladi. Endilikda milliy davrlarning har biri uchun muhim bo'lgan mafkuraning shakllanishi zaruriyatga aylanib qoldi. Albatta bunda biz sanab o'tgan omillar, ya'ni qirolik an'analari, xristianlik va uning oqimlari ta'siri, umumevropaga xos xususiyatlar, Rim imperiyasi davrida bir oila bo'lib yashagan xalqlar o'rtasidagi hududiy va ma'naviy yaqinlik o'z ta'sirini o'tkazdi. Ammo, asosiy, bu davrda milliy g'oyalar to'la-to'kis amalga oshishi uchun ijtimoiy sharoit yetildi, italiya, ingliz, fransuz va boshqa xalqlar o'z davlatchilik an'analarini to'la-to'kis tikladilar. Bu davrlarda shakllangan falsafiy maktablar faqat milliy qobiqa o'raltib qolmadilar, balki umumevropa va butun jahon taraqqiyotining umumbashariy muammolarini falsafiy jihatdan izohlash, ilmiy o'rganish va asoslashga harakat qila boshladilar. Ushbu davr falsafasi ham oldingiga nisbatan katta qadam tashladi. Fanda qo'liga kiritilgan yutuqlarning falsafiy izohlanishi, kashf etilayotgan ilmiy usul va usulbarning falsafaga tadbiiq etilishi, falsafiy qonunlarni fanning turli sohalarida sinab ko'rinishi o'sha davr faylasuflari uchun odatiy holga aylandi. Bu tamoyillar esa milliy chegaralarni bilmaydigan, umuminsoniy qadriyatlar xususiyatiga egadir.

Uyg'onish davri Yevropa fani va falsafasi ham insoniyat tarixida eng buyuk ko'tarilish davrlaridan biri bo'lib qoldi.

Ingliz falsafasi. O'sha davr falsafasining asosiy vakillaridan biri F. Bekon (1561-1626) yuqoridagi masala haqida shunday degan edi: «Moddiy dunyo, mamalakalar, dengizlar, planeta juda keng bo'lgani holda insonlarning ma'naviy dunyosini eski chegaralar bilan o'rab qo'yilishi sharmandalikdan boshqa narsa emas» («Yangi Organom» kitobi). Bekon ingliz falsafasining o'rta asrlardagi taraqqiyotiga eng katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning ta'limoticha, fanning yangi binosini ko'rish uchun, to'g'ri fikrlashga o'rganish kerak. Bekon ta'limoticha, tabiatni bilishda bir necha «idollar» insonga halaqit beradi. Ular inson aqlini o'rab tashlaydi. Ular asosan to'rta. Birinchisi urug' idollari, bular inson zo'liga, butun odamlarga xosdir. Masalan, Bekon shunday deydi: «Insonning aqli qiyshiq ko'zguga o'xshaydi. U narsalarning tabiati bilan o'z tabiatini aralashtirib yuborib narsalarni qiyshiq, buzuk ko'rsatadi. Ikkinchisi, g'or idollari. Bu har bir odamning o'z spesifik xususiyatlari natijasida yangilashishi. Ular fikrlash ufqining cheklanishidan tug'iladi. Bu narsa hamma narsani o'z nuqtai-nazari bilan ifodalash, o'zining tor doirasi bilan o'lcash natijasida vujudga keladi. Uchinchisi, maydon idollari, bo'lib, u ma'lum bo'lgan tasavvurlarga tayanish odati, noto'g'ri yoki noaniq termonologiyalarga tanqidiy yondoshmaslik oqibatida vujudga keladi. Bu masalaga Bekon juda ham katta ahamiyat beradi. Masalan, u shuni ta'kidlaydiki, real borligini ifodalamaydigan yoki uni noaniq, mavhum ifodalaydigan so'zlar soxta tushunchalarni tug'diradiki, ular tafakkurga teskari ta'sir qiladi. To'rtinchisi, teatr idollari: ular avtoritetlar fikriga ko'r-ko'rona ergashib qadimgilarning falsafiy sistemalarini davom ettiraveradilar.

Bekon tomonidan sxolastikaga qarshi qaratilgan idollarning tanqidi katta metodologik ahamiyatga egadir. Bekon bilish nazariyasining birinchi bosqichi esa tajribadir, ikkinchi bosqichi aqlidir. U tajriba ma'lumotlarini rasional qayta ishlaydi va umumlashtiradi. Bekon ta'limoticha, olim chumoliga o'xshab faqat yig'ish va yig'ilganlar bilan kifoyalarnasligi kerak, o'rginmachakka o'xshab hayotdan ajrab, faqat o'zining shaxsiy aqli bilan o'zining makri falsafasini to'qimasligi kerak.

Bekon ta'limoticha, olim asalariga o'xshab gullardan olib keyin ularni asalga aylantirishi lozim.

Bekon o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari bo'yicha kuchli markazlashgan davlat tarafdori bo'lgan. Jamiyat hayotida asosiy rolni Bekon fikricha san'at va savdo rivojlanishi o'ynaydi.

Uning ta'limotini **Tomas Gobbs** (1588-1679) takomillashtirgan va rivojlashtirgan. Gobbs moddiylikni asosiy substansiya deb hisoblagan, materiyaning abadiyligi, harakatning esa mexanistik tarzda amalga oshirishining tarafdori bo'lgan olimdir. U matematik sifatida borliqning namoyon bo'lishini geometriya fani nuqtai nazaridan tushuntirgan. Bilish nazariyasida Gobbs ko'proq empirik jihatlariga o'z e'tiborini qaratgan, sezgilarning bilimlar hosil qilish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Jamiyat taraqqiyoti va unda davlatning o'rni hamda kelib chiqishi masalasida Gobbs ko'proq xususiy mulkchilikka asoslanadi. Shu bilan birga uning fikricha davlatning monarxiya shakli maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Ingliz falsafasida **Jon Lokk** (1632-1704) qarashlari alohida o'rin tutadi. U tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydi. Bunda ichki va tashqi tajriba ajratib ko'rsatiladi. 1690 yilda Lokk tomonidan yozilgan «Inson aqli haqida tajriba» nomi asarida R. Dekartning «tug'ma g'oyalalar» to'g'risidagi qarashlariga qarshi chiqadi. Lokkning fikricha bilish tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jarayonda hosil qilgan tushunchalari, g'oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ko'ra Lokk davlatning o'ziga xos quyidagi tamoyillarini ta'riflaydi: 1. Hokimiyatni qonun chiqaruvchi tizimi; 2. Hokimiyatning ijtiro etuvchi organlari; 3. Ittifoq federativ hokimiyati. Ana shu tamoyillar uyg'un bo'lganida davlatning faoliyati samarali amalga oshadi.

Fransuz falsafasi. O'rta asrlardagi Yevropa falsafasi taraqqiyotida Fransiyada shakllangan milliy falsafa maktabi nihoyada katta o'rin tutadi. Bu borada R. Dekart, Lametri, Gelvesiy, Didro, Goltbax va Russolarning qarashlari nihoyada muhim.

R. Dekart (1596-1650) falsafasida dualizm asosiy o'rin tutadi. Uning fikricha materiya va ruh borliqning asosida yotadi va xudoga bo'ysunadi. Olam, Dekart fikricha cheksiz va abadiy, u inson tafakkuriga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanadi va takomillashadi. R. Dekartning «Men fikr qilayapman, demak men mavjudman» degan fikri faylasuflar orasida mashhur bo'lib hisoblanadi. Bilishda fikr va sezgilarning ahamiyatini nihoyada ortiqcha deb bilgan R. Dekart rasionalizm ta'limotining asoschisi bo'lib hisoblanadi. Uningcha insonning fikrlashi va mulohaza qilishi shubha ostiga olib bo'lmaydigan jarayondir, undan boshqa hamma narsani tekshirish shubha ostiga olish mumkin. Dekart o'sha zamoning eng buyuk matematiklaridan biri bo'lib, o'z davrida aniq fanlar sohasida katta ahamiyat kasb etgan deduktiv usulni falsafaga kiritgan olim bo'lib hisoblanadi.

Lametri va Gelvesiy, Didro va Goltbax o'z davrida fransuz hayotida nihoyada katta ahamiyatga ega bo'lgan milliy davlatchilik, inson erkinligi va haq-huquqlari muammolariga alohida e'tibor qaratganlar. Fransuz millatini ma'naviy jihatdan yuksaklikka ko'tarish va ma'rifati xalqqa aylantirish uchun o'z asarlarida ana shu qadriyatlarga erishishning yo'llari va usullarini ko'rsatib berganlar.

Ular tomonidan yaratilgan ko'p tomlik «Ensiklopediya» o'sha zamoning ma'naviy muammolarini ma'rifati yo'l bilan hal qilish usullari va imkoniyatlari ko'rsatib berilgan «Yevropa qonuni» darajasiga ko'tarilgan edi. Bu kitobni yaratishda boshqa ko'pgina ma'rifatparvar fransuz olim va mutaxassislari ham qatnashgan bo'lib, o'zining ahamiyati, muammolarining umuminsoniy nuqtai nazaridan yechilishi, xalqchilligi va tilining fransuz millati hayot tarziga yaqinligi bilan ensiklopediya XVIII asr Yevropasining tengi yo'q kitobi edi. Aynan ana shu kitob mualliflari o'zlarining boshqa asarlari va faoliyatlari bilan 1789-1884 yillardagi Fransuz inqilobi qabul qilgan «Inson va g'rajdalar huquqlar deklaratsiyasi»da ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlarni jamiyat taraqqiyotining eng ustivor ma'naviy mezonlariga aylantirdilar.

Nemis falsafasi. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Germaniya boshqa Farbiy Yevropa mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy va siyosiy jihatdan qolqoq edi. Ammo fransuz inqilobining kuchli ta'siri ostida shunday falsafiy

ta'limot vujudga keldiki, uning shakllanishida tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning rivoji asosiy o'rinni egalladi. Fizika va ximiya fanlari yutuqlarga erishdi, tabiatni o'rganishga katta e'tibor berila boshlandi. Matematika fanida yangi ixtirolar qilindi. Bu ixtiro va yutuqlar hamda insoniyat jamiyatining rivoji haqidagi nazariyalar borligini o'rganishning uslubiy va nazariyasi bo'lib xizmat qiladigan rivojlanish haqidagi g'oyalarni ishlab chiqishni tarixiy bir zaruriyat qilib qo'ydi. Mana shunday tarixiy sharoitlar taqazosini bilan XVIII asrning II yarmi va XIX asr boshlarida nemis falsafasi vujudga keldi.

Nemis falsafasining asoschilaridan biri **Immanuel Kant** (1724-1804) faqat mashhur faylasufgina bo'lib qolmasdan, yirik tabiatshunos olim hamdir. Kant tomonidan yaratilgan gaz holatidagi ulkan tumanlikdan quyosh sistemasi kelib chiqishi haqidagi nazariya hozirgi davrda ham astronomiya sohasidagi eng muhim ta'limotlardan biridir. Kantning tabiiy-ilmiy qarashlari tabiat hodisalarini metafizik ruhda tushuntiruvchi ta'limotlarga zarba berdi. Kant o'z davri tabiatshunosligi erishgan yutuqlarni faqat Koinot tuzilishi masalasiga emas, shu bilan birga Koinot genezisi va rivojlanishi masalalariga ham tatbiq qildi. Kantning inson irqlarining tabiiy kelib chiqishi haqidagi nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Kant ta'limoti bo'yicha, falsafaning eng muhim muammolari bo'lmish – borliq, axloq, degan masalalarini tahlil qilish uchun eng avvalo, inson bilimining imkoniyatlari va chegaralarini aniqlamoq kerak. Bizning bilimlarimiz narsaning hodisasini, ya'ni bizga qanday holatda namoyon bo'la olishini (fenomen) bila oladi. Ular bizning tajribamiz mazmunini tashkil qiladi. «Narsa o'zida»ning bizning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasida sezgilar xaos vujudga keladi. Bu xaos bizning aqlimiz quvvati bilan tartibga solinadi va bir butunga aylantiriladi. Biz tabiat qonunlari deb bilgan narsalar aslida aql tomonidan hodisalar dunyosiga kiritilgan aloqadir. Boshqacha qilib aytganda, bizning aqlimiz tabiatga qonunlar kiritadi. Lekin hodisalar dunyosiga inson ongiga bog'liq bo'lmagan narsalarning mohiyati, ya'ni «narsa o'zida» mos keladi. Ularni mutlaq bilish mumkin emas. «Narsa o'zida» biz uchun faqat aql bilan bilish mumkin bo'lgan, lekin tajribadan kelib chiqmaydigan mohiyatdir. Kant inson aqlining cheksiz qudratiga ishonchsiz

qaraydi. Inson bilimining nisbatan cheklanganligiga u ma'lum axloqiy ma'no beradi. Uningcha, agar inson mutlaq bilimga ega bo'lsa, unda axloqiy burchni bajarishi uchun kurash ham, inilish ham bo'lmaydi.

Kant ta'limoti bo'yicha, makon va zamon g'oyalari insonga uning tasavvurlaridan oldin ma'lumdur. Makon va zamon real emas, balki faqat tushunchada, g'oyalardadir.

Bilish nazariyasida Kant dialektikaga katta o'rin beradi. Qarama-qarshilikni bilishning zaruriy omili sifatida qaraydi.

Kant falsafada katta o'rin qoldirdi. Uning vafotidan keyin nemis falsafasining rivoji **Hegel** (1770-1831) ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga erishadi. Hegel dialektikaning qonunlari va kategoriyalari haqidagi ta'limotni rivojlantirdi. Falsafa tarixida birinchi marta bir tizimga solgan holda dialektik logikaning asosiy qoidalarini ishlab chiqdi. O'sha davrlarda hukmron bo'lgan metafizik fikrlash uslubini tanqid qildi. Kantning «narsa o'zida» haqidagi ta'limotiga qarama-qarshi qilib, shunday ta'limotni ilgari surdi: «Mohiyat namoyon bo'ladir, hodisa mohiyatdan ajralmasdir». Hegelning ta'kidlashicha, kategoriyalar borliqning ob'ektiv shakllaridir. Borliqning asosida esa, «dunyoviy aql», «mutlaq g'oya» yoki «dunyo ruhi» yotadi. O'z-o'zini anglash jarayonida dunyoviy aql uch bosqichni bosib o'tadi:

1. O'z-o'zini anglovchi mutlaq g'oyaning o'z xususiy qobig'ida bo'lish bosqichi; tafakkur jarayonida, ya'ni bu holarda g'oya dialektika kategoriyalari va qonunlari tizimida o'z mazmunini, mohiyatini namoyon qiladi. Bu bosqich Hegel falsafasining mantiq bosqichidir;

2. Foyanning o'zidan «begonalashuvi» ya'ni tabiat hodisalari shaklida namoyon bo'lish bosqichi, ya'ni bu bosqichda tabiatning o'zi rivojlanmaydi, faqat kategoriyalar sifatida rivojlanadi. Bu bosqich Hegelida tabiat falsafa bosqichidir;

3. Foyaning tafakkurda va insoniyat tarixida rivojlanish bosqichi. Bu bosqich Hegel falsafasida ruh falsafasi bosqichidir. Mana shu yakuniy bosqichda mutlaq g'oya o'ziga qaytadi va o'zining inson ongi va o'z-o'zini anglash shaklida o'z mohiyatiga qaytadi.

Rivojlanish g'oyasi Hegel falsafasini qamrab olgan. Uning ta'kidlashicha, rivojlanish tor doira ichida emas, doimiy, quyidan yuqoriga qarab boradi. Mana shu jarayonda miqdor o'zgarishlarining tub sifat o'zgarishlariga o'tishi yuz beradi. Rivojlanishning manbai esa har qanday o'z-o'zidan harakatning sababi bo'lgan qarama-qarshilikdir. Hegel falsafasida borliq dialektik o'tishlar zanjiri sifatida bayon qilingan.

Hegel fikricha, tarix dunyoviy ruhning yoki mutlaq g'oyaning rivoji sifatida namoyon bo'ladi. Umuman tarix bu mohiyatan fikrning, aqlning o'z-o'zidan rivoji tarixidir. Hegel ta'limoticha, aql tarixda shunday namoyon bo'ladiki, unda har bir xalq ruh o'z-o'zini anglab, tobora yuqorilab borishiga o'z hissasini qo'shish huquqini oladi. Lekin bu jarayon qandaydir tartibsiz (xaotik) amalga oshmaydi. Hegel umumjahon tarixini to'rt bosqichga bo'ladi: 1. Sharq dunyosi; 2. Yunon dunyosi; 3. Rumo dunyosi; 4. German dunyosi:

Insoniyat tarixini mana shunday bosqichlarga bo'lib, ularga baho berishda Hegel ochiqdan-ochiq irqchilik ruhidagi ta'limotga yuz tutadi. Uningcha, sharq xalqlarida erkinlik bo'lgan, faqat yagona zo'ravon hukmronning erkinligi tan olingan. Shuning uchun bu xalqlardagi erkinlik – bir tomondan hukmronning zulmi, hirsrlarning keng quloqch yoyishi, ikkinchi tomondan ko'r-ko'rona, so'zsiz bo'yusinish xalq ruhiga xos bo'lgan bir xususiyat bo'lgan. U yunon-rumo dunyosida esa, erkinlik bo'lgan, lekin ular juda cheklangan, faqat ayrim kishilar uchun amal qilgan. Shuning uchun yunon-rumo dunyosining davlatchiligi qullikni inkor qilmagan. Lekin yunon va rumo dunyosi xalq ruhi har xil yo'nalishda bo'lgan. Agar yunon dunyosiga xos bo'lgan narsa «go'zal shaxslilik» prinsipi bo'lsa, rumo dunyosiga xos bo'lgan prinsip mavhum umumiylikdir. Hegelning da'vosicha, faqat german xalqlarida to'liq erkinlik bo'lgan. Bu xalqlar o'z tarixiy rivojlanishlarida islohotchilik (reformatsiya), 1789 yil Fransuz inqilobi mevalaridan bahramand bo'lganlar. Faqat ulargina umumiy fuqarolik va siyosiy erkinlikka erishganlar. Hegelning ta'kidlashicha, aqlga muvofiq davlatchilikni o'rnatgan faqat german xalqigina umumjahon – tarixiy jarayonning haqiqiy timsolidir.

Hegel umumiy falsafiy sistemasi ham, uning yaratgan metodi ham boshqa kamchiliklardan, ichki qarama-qarshiliklardan holi emas edi. Chunki uning falsafiy ta'limotida bilimning ob'ektiv asosi mutlaq ruhdir, maqsadi esa shu mutlaq ruhning o'z-o'zini anglashidir, oxirgi bosqich o'z-o'zini anglash bilan yakunlanadi. Hegel falsafasi mana shu masalani amalga oshirishga qaratilgan. Shunday qilib Hegelning sistemasi va metodi o'rtasidagi qarama-qarshilik cheklanganlik va cheksizlik o'rtasidagi qarama-qarshilikdir.

XIX asrning oxiridan boshlab g'arb mamlakatlarida Hegel falsafasi atrofida turli falsafiy maktablar va oqimlar vujudga keladi. Bu falsafiy maktablar ichida ma'lum nuftuz va ta'sirga ega bo'lgan oqim «yosh hegelchilar» oqimi edi. Bu oqimning o'sha davrdagi asosiy namoyandalari orasida aka-uka Bruno va Edgar Bauerlar alohida ajralib turar edi.

Dastlab mana shu oqimga mansub bo'lgan K. Marks (1818-1883) va F. Engels (1820-1895) keyinchalik materialistik jihat va ateistik tamoyillar ustuvor bo'lgan, qarama-qarshiliklarning kurashi tamoyili mutlaqlashtirilgan o'z ta'limotini ishlab chiqdilar. Uning asosiy nazariyalarini hayotga tatbiq qilishga da'vat qildilar. Ularning ta'limoti marksizm falsafasi degan nom oldi. Keyinchalik bu falsafa sotsialistik lager deb atalgan mamlakatlarda davlatning mafkuraviy doktrinasiga aylandi, «ilmiy kommunizm» g'oyalari asosida insoniyat tarixining tabiiy jarayonini proletariat diktaturasi deb atalgan davlat va hokimiyat yuritish usuli orqali zo'rlik bilan o'zgartirish ta'limotini ko'pchilik ommaga, siyosiy partiyalarga, mafkuraga singdirishga harakat qildi.

XX asrning boshlaridan 80 – yillarning oxirigacha dunyoning juda katta hududida hukmronlik qilgan bu mafkura sobiq Ittifoq targ'alishi bilan uning hududida o'z ustuvorligini yo'qotdi. Uning katta salbiy oqibati ayniqsa o'tmish madaniy va falsafiy merosiga bo'lgan munosabada yaqqol namoyon bo'ldi. Bu falsafaning metodologik prinsiplari – sinfiylik va partiyaviylik xolis xulosalar chiqarishga imkon qoldirmas edi, ularga mos kelmaydigan har qanday ta'limot qoralanar, hatto butunlay inkor qilinardi. O'tmish merosining qay darajada umumbashariy, umumjahon ahamiyatiga ega ekanligi e'tibordan chetda qolardi.

Bu nafaqat umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyatini mensimaslikka olib kelardi, shu bilan birga, ma'lum darajada xalqlarda milliylik ruhini, milliy merosdan g'ururlanish ruhini tugatishga qarshi harakat edi. O'tmish merosiga bunday yondoshishning zararli tomonlaridan yana biri shunda ediki, oxir-oqibatda o'tmish merosi bir yoqlama talqin qilinardi, ko'pincha esa ochiqdan-ochiq soxtalashtirilardi. Ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, ma'naviy, mafkuraviy sharoitlarni hisobga olmagan holda, o'tmish merosini yuqorida eslatib o'tgan prinsiplar qolipiga solib talqin qilinardi.

O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:

1. Falsafa tushunchasi qanday ma'holarni ifodalaydi?
2. Falsafaning predmeti nimadan iborat?
3. Mutaqillik tafakkuri va tafakkur mustaqilligi haqida gapirib bering.
4. "Dunyog'arash" tushunchasi nimani ifodalaydi?
5. Dunyog'arashning qanday tarixiy turlari bor?
6. Falsafiy dunyog'arash va uning vazifalari nimalardan iborat?
7. O'zbekistonda yangicha dunyog'arashni shakllantirish haqida gapirib bering.
8. "O'zbekistonni 2017-2021 yillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" va falsafiy bilimlar rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini o'rganishni qay darajada tushunasiz?
9. Qadimgi Bobil va Misrda paydo bo'lgan ilk falsafiy qarashlar haqida gapirib bering.
10. Qadimgi Turonda qanday diniy-falsafiy ta'limotlar vujudga kelgan?
11. Qadimgi Hindistonda qanday falsafiy yo'nalishlar va falsafiy maktablalar paydo bo'lgan?
12. Qadimgi Xitoyda qanday falsafiy oqimlar paydo bo'lgan? Ularning mohiyati haqida nimalarni bilasiz?
13. XX asr falsafasidagi neotomizm falsafiy oqimining falsafiy qarashlarining mohiyati nimalardan iborat?

14. XX asr falsafasida ruhiy tahlil falsafasining o'rni va uning ilgari surgan asosiy g'oyasi haqida nimalarni bilasiz?

15. Mustaqillik falsafasining ahamiyati nimalarda ko'rinadi?

16. Qadimgi Yunonistondagi Milet maktabi faylasuflari haqida nimalarni bilasiz?

17. Geraklit va Demokritning falsafiy qarashlari haqida gapirib bering.

18. Pitagor va Suqrotlar qanday faylasuflar bo'lishgan?

19. Platonning "g'oyalar dunyosi" haqidagi ta'limotining mohiyatini tushuntirib bering.

20. Aristotelning falsafiy qarashlari nimalardan iborat?

21. Qadimgi Rim falsafasida Lukretsiy Kar va Plotinning falsafiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?

22. XX asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, va madaniy-ma'naviy hayotda qanday o'zgarishlar yuz berdi? Ular falsafiy tafakkurda qanday aks etdi?

23. XX asr falsafasiga xos qanday falsafiy oqimlar va falsafiy maktablarni bilasiz?

2-Mavzu: Borliq falsafasi va uning mavjudlik shakllari

Maqsad va vazifalar:


Bu masalani o'rganishdan asosiy maqsad borliq tushunchasi, uning turlari va mavjudlik shakllari, materiya, harakat, makon va vaqt singari falsafaning asosiy ontologik kategoriyalarining mohiyatini tinglovchilar ongiga singdirish. Biz borliqning inson va insonlar hayoti bilan bog'liq real iddizlarini yoritish vazifasini bajarishdir.

Reja

1. Borliq va uning mavjudlik shakllari.
2. Borliq va yo'qlik, mavjudlik va reallik.
3. Harakat, fazo va vaqt, makon va zamon.
4. Borliq falsafasini o'rganishning ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: Borliq, yo'qlik, mavjudlik, reallik, materiya, harakat, rivojlanish, fazo, vaqt.


Borliq tushunchasi. Faylasuflar qadim zamonlardan buyon «borliq» va «yo'qlik» haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko'plab asarlar yozishgan. Xo'sh, borliq nima? Bu savol bir qarashda juda oddiy ko'riningi bilan unga shu choqqacha barcha kishilarni birday qanoatlaniradigan javob topilgani yo'q. Bu holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, ayrim faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan bog'lab tushuntirishadi. Ularning nuqtai nazarlaricha, borliq – ob'ektiv reallikningina qamrab oluvchi tushunchadir. U holda fikr, inson tafakkuri, o'y-xayollarimiz borliq tushunchasidan chetda qolar ekanda, degan savolga ular, bunday tushunchalar ob'ektiv reallikning hosilasidir, deb javob berishadi.



Falsafaning borliq haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismi – ontologiya deb ataladi. (Bu tushunchani falsafada birinchi bor X. Volf qo'llagan). Olam va borliq muamalarini falsafaning ana shu sohasi o'rganadi.

Yo'qlik hech nima demakdir. Hamma narsani hech narsaga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo'qlikdir. Bu ma'noda yo'qlik cheksizlik, nihoyasizlik va mangulik bilan birdir. Yo'qlik chekingan joyda borliq paydo bo'ladi. Demak, borliqning bunyodkori ham, kushandasi ham yo'qlikdir. Borliq yo'qlikdan yo'qlikka bo'lgan mavjudlikdir. Yo'qlikni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Fanda yo'qlik nima, degan savolga javob yo'q.

Borliq haqidagi kontsepsiyalar. Tarixdan ma'lumki, faylasuflar borliq haqida turlicha g'oyalarni ilgari surishgan. Markaziy Osiyo tuprog'ida vujudga kelgan zarbo'shtiylik ta'limotida borliq quyosh va olovning hosilasidir, alanganib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil etadi, deb hisoblangan. Chunki bu g'oya bo'yicha, har qanday o'zgarish va harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik baxsh etadi.



Qadimgi yunon faylasufi Sugrot borliqni bilim bilan qiyoslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilisakkin bor bo'lad, insonning bilimi qancha keng bo'lsa, u shuncha keng borliqni qamrab oladi, deb hisoblaydi.

Qadimgi dunyoning atomist olimi Demokrit borliq atomlar majmuasidan iborat deb tushuntirgan. Uning fikricha, borliqning mohiyati uning mavjudligidadir. Mavjud bo'lmagan narsa yo'qligidir.

Islom ta'limotida esa borliq bu ilohiy voqelikdir. Ya'ni u Oltin yaratgan mavjudlikdir. Bu borada vahdati vujud va vahdati mavjud ta'limotlari bo'lgan.

Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta'limotni har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, Forobiy fikricha, ilk borliq azaliy Oltinning o'zidir. Beruniy fikricha, borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi, demak, borliq hamma narsaning asosidir. Evropada o'lgan olimlar David Yum va Jorj Berkli borliqni sezgilatirish majmuasi deb talqin etishgan.

Hegel esa borliqni mavhumlik, mutlaq ruhning namoyon bo'lishi, deb ta'riflaydi. Ko'pgina naturfalsafiy qarashlarda borliqni hozirgi zamon bilan, ya'ni shu aktual olamga bog'lab tushuntiradilar.


Aslida, borliq keng falsafiy tushuncha bo'lib o'ziga butun mavjudlikni, uning o'tmishi, hozir va kelajagini ham qamrab oladi. Faylasuflar borliqni tushuntirish uchun yo'qlik tushunchasini unga antipod qilib olishgan va shu asosda borliqning zaruriy mohiyatini ochishga intilganlar. Materialistik adabiyotlarda borliqni ob'ektiv reallik bilan, materiya bilan aynanlashtirib tushuntirishadi.

Borliq o'ziga ob'ektiv va sub'ektiv reallikni, mavjud bo'lgan va mavjud bo'ladigan olamlarni, moddiylik va ma'naviylikni, o'tmish va kelajakni, o'limni va hayotni, ruh va jismni qamrab oluvchi umumiy tushunchadir.

Borliq va mavjudlik. Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g'oyalar, o'y-xayollarimiz barchasi birday mavjudlik, ular turli tarzda va shakllarda namoyon bo'lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umunlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Materialistik mazmundagi borliq tushunchasi ta'rifga faqat ob'ektiv real olam, ongdan tashqaridagi, unga bog'liq bo'lmagan jismoniy mohiyatga ega bo'lgan narsalargina kiritiladi. Borliqning ideal, virtual, potensial, abstrakt, ma'naviy shakllari bu ta'rifdan tashqarida qoladi. Aslida esa, borliq kategoriyasi umumiy abstraksiya bo'lib, mavjudlik belgisi bilan barcha narsa va hodisalarni o'ziga qamrab oluvchi o'ta keng tushunchadir. U o'ziga nafaqat ob'ektiv reallikni, balki sub'ektiv reallikni ham qamrab oladi.

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. Mavjudlik — borliqning hozirgi payida namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'lgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Realistik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o'ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi. An'anaviy falsafiy qarashlarda borliqning uchta sohasi ajratib ko'rsatiladi. Ularga: tabiat borlig'i, jamiyat borlig'i, ong borlig'i kiradi. Bular uchun eng umumiy belgi, ularning mavjudligidir.



Shuningdek, falsafiy adabiyotlarda tabiat borlig'i va jamiyat borlig'ining quyidagi shakllari ham farqlanadi. Tabiat borlig'i odada tabiatdagi narsalar (Himmlar), jaryonlar, holalar borlig'i sifatida tushuniladi. U ikkiga bo'linadi: azaliy tabiat borlig'i (yoki tabiiy tabiat borlig'i, u insondan ilgari va uning ixtiroktsiz ham mavjud bo'lgan) va odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borlig'i («ikkinchi tabiat» borlig'i, ya'ni madaniyat). Ikkinchi tabiat borlig'i esa, o'z navbatida, quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

- inson borlig'i (insonning narsalar olamidagi borlig'i va odamning o'ziga xos bo'lgan insoniy borlig'i);

- ma'naviy borliq (individuallashgan va ob'ektivlashgan ma'naviy borliq);

- sotsial borliq (ayrim odamning tarixiy jarayondagi borlig'i va jamiyat borlig'i), u ijtimoiy borliq ham deb ataladi.

Borliqning moddiy shakli materiya o'ziga barcha jismlarni, hodisalarni, jarayonlarni va ularning xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan tashqari u tafakkurni ham, olanda mavjud bo'lgan barcha aloqadorliklarni va munosabatlarni ham qamrab oluvchi umumiy falsafiy tushunchadir. Borliqning moddiy shakliga xos umumiylikni axtarishning bir yo'nalishi moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish yo'li bo'lib, yuqorida qayd etganimizdek, substantsiyani aniqlash yo'lidir. Ikkinchi yo'l esa – moddiy olamning asosiy tarkibiga kiruvchi «qurilish elementlarini»- substratni axtarish yo'li. Uchinchi yo'l – hamma narsaning vujudga kelitiruvchi bosh sababchisini, ota moddani, ya'ni pramateriyani axtarish yo'li. Mana shu yo'l haqida maxsus to'xtab o'taylik.

Olamning substantsiyasini axtarishning bu usuli go'yoki meva iste'mol qilayotgan kishi, uning kelib chiqishini axtarib, dastlab daraxtga, so'ngra uning guliga, bargiga, ko'chaiga va urug'iga nazar solganidek, atrofimizdagi moddiy olamning o'zagida dastlabki yaratuvchi modda sifatida nima yotishini, ya'ni ilk materiyani, azaliy materiyaning «bobokolonini», «pramateriyani» axtarish usulidir.

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavvurlarning maydonga kelishiga va rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Materiya tushunchasi moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyaga nisbatan ham umumiyroq bo'lgan tushunchadir. Materiya olamdagi barcha moddiy ob'ektlarni, butun ob'ektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiy tushunchadir. Faylasuflar «Tom ma'nodagi materiya faqat fikrning maxsuli va abstraksiyasidir» deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy ob'ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha materiya

deb ataladi. Demak, materiya moddiy ob'ektlarga xos eng umumiy tushuncha, falsafiy kategoriyadir.

Albatta bu ta'riflarni bir yoqlama mutlaqlashtirib tushunmaslik lozim. Bu ta'riflarda ko'proq sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi mumkin bo'lgan reallik nazarda tutilgan.

XX asrning o'rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va hozirgi zamon kosmologiyasi sohalaridagi ilmiy yutuqlar kishilarning ob'ektiv olam haqidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada, tabiatshunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta'sir etishining imkoni bo'lmaydigan realliklar haqida ham tadqiqotlar olib bora boshladi.

Olamning klassik mexanika nuqtai nazaridan kelib chiqib, nisbatan kichik tezlikda harakatlانuvchi sistemalar haqidagi ilmiy manzarasi o'rmini yangicha ilmiy manzaralar egallay boshladi. Bu esa materiya haqidagi tasavvurlarning yanada rivojlanishiga sharoit tug'dirdi. Bu o'zgarishlarni hisobga olib, marksist-faylasuflar bu ta'rifga sezgilarimizga bevosita yoki bilvosita (ya'ni turli asboblار, qurilmalar vositasida) ta'sir etuvchi, degan qo'shimcha kiritishdi. Shunday qilib, bu ta'rif go'yo materiyaning moddaviy va nomoddaviy shakllarini, ya'ni modda va antimodda ko'rinishlarini qamrab oluvchi ta'rifga aylandi.

Materialistlar materiyani ob'ektiv reallik, deb ta'riflashadi. Ob'ektiv reallik inson sezgilariga bog'liq bo'lmagan holda, undan tashqari mavjud bo'lgan voqealardir. Bu butun mavjudlikning sub'ektiv reallikdan tashqaridagi qismi hisoblanadi. Ob'ektiv reallikning mavjudligi qanday namoyon bo'ladi? Bu savolga javob topishda, borliqning ajralmas xususiyatlarini o'rganishga to'g'ri keladi. Har qanday jismining ajralmas xususiyati lotincha «attribut» so'zi bilan ataladi.

Borliqning atributlari. Muayyan jismining aynan shu jisim ekanligini belgilovchi xususiyatlari uning atributlari bo'ladi. Borliqning ham bir qancha atributlari mavjuddir. «lar: harakat, fazo, vaqt, in'ikos, ong va boshqalar. Borliq o'zining xossalari, xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Endi borliqning atributlari, ya'ni ajralmas tub xususiyatlari haqida to'xtab o'taylik.

Harakat. Boriqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyati harakat hisoblanadi. Chunki borliq harakatsiz o'zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi. Buni moddiy borliq misolida qarab chiqaylik. Faraz qiling, qarshimizda biror jism turibdi. Agar harakat bo'lmaganida edi, yorug'lik nurlari shu jismga urilib bizga qaytmagan bo'lar edi, ya'ni biz uni ko'rmagan bo'lar edik. Shuningdek, bu jismning yaxlitligini saqlab turgan molekullalar, atomlar, elementar zarrachalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar ham bo'lmadi. Natijada bu jismning strukturaviy birligiga putur elgan bo'lar edi. Tevarak-atrofimizdagi predmetlar va hodisalar harakat tufayli o'zining muayyan tartibini va birligini saqlab turadi, shu tufayli, o'sish, ulg'ayish, ravnaq topish, rivojlanish mavjuddir.

Harakat, bir tomondan, moddiy jismlar o'rtasidagi va ularni tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi aloqadorliklarning natijasi, boshqa tomondan esa, ulardagi o'zgarishlar sifatida sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ham falsafaning harakat bu umuman har qanday o'zgarishdir, deyilgan ta'rifi juda o'rindi. Harakatning manbai haqida gap ketganda, ana shu o'zgarishlarning asosida yotuvchi o'zaro ta'sirlar va ular orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi.

Demak, har qanday harakatning manbai shu sistemadagi ichki o'zaro ta'sirlar ekan, har qanday jismning mavjudligini, eng avvalo, uning ichki aloqadorliklari ta'minlaydi.

Harakatning turlari haqidagi mulohaza, asosan, o'zgarishlarning xususiyatiga asoslangan. O'zgarishlar oddiy fazoviy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy o'zgarishlarga takomillashib borgan. Shu tufayli harakatga faqatgina fazoviy siljish, deb qaramaslik lozim. Bunday qarash olamdagi barcha jarayonlarga mexanik harakat nuqtai nazaridan yondashishni vujudga keltiradi. Aslida olamda o'zgarishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular bir-biridan sifatiy farq qiladi.

Mexanik, kimyaviy, biologik, fizik o'zgarishlar bilan ijtimoiy o'zgarishlarni aslo taqqoslab bo'lmaydi. To'g'ri, bu o'zgarishlar uchun umumiy bo'lgan fazoviy siljishlar harakat shakllarining hammasida ham, u yoki bu ko'rinishda namoyon

bo'lishi mumkin. Lekin hamma o'zgarishni ham, faqatgina fazoviy siljishdan iborat, deb bo'lmaydi. Masalan, Erning Quyosh atrofidagi, Oyning Er atrofidagi harakatini fazoviy siljishning yaqqol ko'rinishi deysimiz mumkin. Lekin Er bog'rida ro'y berayotgan murakkab geologik jarayonlarni, Er sirtidagi biosferaning yashash usulini birgina mexanik siljish bilan izohlab bo'lmaydi. Harakatning shakli qanchalik murakkab bo'lsa, u bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar ham shu qadar murakkab bo'ladi. Materialning tashkiliy struktura darajasi qanchalik yuqori darajada bo'lsa, unda fazoviy siljish ham shu qadar kam seziladi.

O'zgarishlarning shunday bir shakli borki, uni falsafada rivojlanish deb ataladi. Rivojlanish bu – muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgariolma yo'nalishga ega bo'lgan, miqdoriy va sifatiy o'zgarishidir.

Shu jihatdan harakatning ikki xil turi bir-biridan farq qilinadi. Harakatning birinchi turi jismda uning sifati va turg'unligini saqlagan holda ro'y beradigan ichki o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni har qanday jismda beto'xtov ichki o'zgarishlar ro'y berib turadi, lekin bu o'zgarishlar shu jismning tashqi sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Atrofimizni qurshab turgan har bir jism molekullardan, molekullar esa atomlar va elementar zarrachalardan tashkil topgan ekan, bu jismlarning molekulyar va atom tuzilish darajasida ham beto'xtov o'zgarishlar ro'y berib turadi. Shuningdek, har bir jism o'zining atrofidagi boshqa jismlarning va ulardan turgalayotgan nurlanishlarning ta'siriga ham uchrab turadi. Bunday tashqi ta'sirlarni o'zida in'ikos etirish jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlar ham bu jismning sifatiy o'zgarib ketishiga olib kelmasligi, uning turg'unligi va asosiy sifati saqlanib qolishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Biz yuqorida qayd etgan ichki va tashqi ta'sirlar oqibatida ro'y beruvchi o'zgarishlar asta-sekin to'planib, keyinchalik jismda keskin sifatiy o'zgarishning vujudga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Mana shunday o'zgarish, ya'ni jismning sifatini

o'zgartiruvchi harakat ikkinchi turdagi harakatlarga kiradi va u rivojlanish deb ataladi.

Rivojlanish jarayoni ham ikki turda bo'ladi. Birinchi turdagi rivojlanish bo'yicha, jismda har qanday sifat y o'zgarish ro'y berishiga qaramasdan, uni tashkil etgan materiyaning sifat y tuzilish darajasi o'zgarishdan qolaveradi.

Masalan, notirik tabiatga mansub bo'lgan Quyoshdagi rivojlanishni o'lib qaraylik. Olimlarning taxminlariga ko'ra, hozir sirtida 6 ming, ichida esa bir necha mln. darajali haroratga ega bo'lgan Quyosh borib-borib soviydi va qizil gigantga aylanadi, ya'ni Quyoshning markazidagi termoyadro energiyasi so'ngach, ichki zichligi pasayadi va markazdagi tortishish quvvati susayadi. Oqibatda Quyosh shisha boshlaydi va Er orbitasini ham o'z ichiga olgan ulkan qizil yulduz vujudga keladi, u asta-sekin soviy, qizil karlikka, so'ngra esa «qora karlikka», keyin bo'lsa neytron yulduzga aylanadi. Bunday o'zgarishlar natijasida borilqning tashkiliy struktura darajasi o'zgaribmaydi, ya'ni jonsiz tabiat shaklidagi darajasi saqlanadi.

Jonli tabiatning vujudga kelishi, o'simliklar va hayvonot olamining paydo bo'lishi, odamning shakllanishi, jamiyatning vujudga kelishi singari sifat y o'zgarishlar esa, rivojlanishning ikkinchi turiga kiradi.

Falsafa fanida harakatning bir-biridan sifat y farq qiluvchi bir qancha boshqa shakllari ham o'rganiladi.

Materialist bo'lgan faylasuflar harakat shakllarini turkumlaganida, quyidagi mulohazalarga tayanib ish yuritadilar:

1) harakat shakllari bir-birlari bilan sifat jihatidan farq qilib, ularning har biri materiyaning tashkiliy tuzilishi darajalarining muayyan bosqichida namoyon bo'ladi;

2) materiyaning harakat shakllari bir-biri bilan genetik jihatidan, kelib chiqishi jihatidan ketma-ket bog'langan, ya'ni harakatning murakkabroq shakllari uning nisbatan soddaroq shakllaridan kelib chiqqandir;

3) harakatning yuqori shakllari tarkibidagi quyi shakllari uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli o'zidan quyi shakldagi harakatlarga mansub emasdir. Shu mulohazalarga tayanigan holda,

harakatning beshta shaklini ajratib olish mumkin. Ular — mexanik, fizik, ximiyaviy, biologik va ijtimoiy harakatlardir.

Falsafada harakat shakllarini turkumlashning bir qancha boshqa ko'rinishlari ham bor. Ayrim olimlar harakat shakllarini har bir faning nomi bilan bog'lash kerak, deb hisoblashadi. Bunday qarashning xatoligi shundaki, fanlarning ko'pchiligi harakat shaklini emas, balki miqdoriy munosabatlar va holatlarni aks ettiradi. Masalan geodeziya yoki geometriya, trigonometriya yoki topografiya, chiziqli algebra qanday harakat shaklini o'rganadi? Kibernetika esa ham tabiatda, ham jamiyatda amal qiluvchi boshqarish jarayonlarini o'rganadi, ya'ni bu fan bitta emas, balki bir qancha harakat shakllarini qamrab oladi.

Harakat shakllarini turlash bo'yicha quyidagi tabiiy-ilmiy kontsepsiya ham diqqatga sazovordir. Mazkur kontsepsiya bo'yicha harakat shakllari quyidagicha turlanadi: fizik harakat (elementar zarrachalar, maydon va atomlarning harakati), ximiyaviy harakat (atomlar va molekulalarning harakati) va bunda harakatning rivojlanishi ikki yo'nalishga ajraladi, 1) harakat rivojlanishining yuqori yo'nalishida biologik harakat shakllanadi; 2) harakat rivojlanishining quyi yo'nalishida esa geologik harakat shakllanadi, biologik harakatning taraqqiyoti ijtimoiy harakatlarga olib boradi.

Yana bir boshqa kontsepsiyada esa harakat borilqning tashkiliy tuzilish darajalariga mos ravishda turlangan. Bu kontsepsiyada harakat shakllari uchta sinfga ajratiladi: notirik tabiatda — elementar zarrachalar va maydon harakati, tirik tabiatda — hayotning namoyon bo'lishi, jamiyatda — odamning faoliyati.

Ijtimoiy harakat bizga ma'lum bo'lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo'lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarning faoliyati, o'zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatlarga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartib harakatlilar bilan mulqo taqqoslab bo'lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o'ta murakkabdirdir.

Borilqning asosiy yashash shakllariga fazo va vaqt kiradi. Fazo narsalarning ko'lamini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzukli yoki uzuksizligini

ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

Ma'lumki, har qanday moddiy jisim joyga, ko'langa, hajmga ega. Fazo — vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko'p hollarda, forsiy til ta'sirida yozilgan adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma'nosida, vaqt esa hodisalar bo'lib o'tadigan muddat ma'nosida ishlatiladi.

Fazo va vaqtni tushunish bo'yicha substantzial va relyatsion yondashishlar mavjud. Substantzial kontsepsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo'shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o'ziga narsalarni sig'diruvchi substantsiya. Hech narsasi yo'q, ya'ni narsalar solimnagan fazo ham bo'lishi mumkin, deyiladi. Relyatsion kontsepsiya tarafdorlari esa, narsalar fazoviy o'lanamga ega, deyishadi.

Hech narsasiz fazoning bo'lishi mumkin emas. Bu farqni relyativistik fizika asoschisi Albert Eynshteyn shunday tushuntirgan edi. Faraz qilib, bir kazarma soldatlarni ko'z oldingizga keltiring. Ilgarigi, Nyuton fizikasiga ko'ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma bo'sh qoladi, ana shu substantzial kontsepsiyadagi fazodir. Yangi fizikaga ko'ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma ham yo'qoladi. Bu relyatsion kontsepsiyadagi fazodir.

Fazo va vaqtning xususiyatlari. Fazo va vaqt borliq miqdoriy va sifatiy jihatlarini ifodalashiga qarab, metrik va topologik xususiyatlarga ega. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o'lanadigan, ko'zga tashlanadigan va nisbiy tabiiati xususiyatlaridir. Ularga ko'lam, bir jinslilik, izotroplik (anizotroplik) kabi xususiyatlar kiradi.

Fazo va vaqtning topologik xususiyatlari esa, borliqning tub sifatli jihatlarini ifodalaydi. Bunday xususiyatlarga uzaksizlik, bog'langanlik, o'lanamlilik,

kompaktlik, tartiblanganlik singari xususiyatlar kiradi. Vaqtning topologik xususiyatlariga orqaga qaytmasslik, bir o'lanamlilik kabi xususiyatlar qo'shildi.

Fazo (vaqt) ning metrik o'zgarishlari borliq strukturasi jiddiy o'zgartira olmaydi, topologik o'zgarishlar esa borliqning sifatli o'zgarishiga sababchi bo'ladi. Masalan, bir bog'langan sistemaning ko'p bog'langan sistemaga o'tishi fazo topologiyasini tubdan o'zgartiradi, ya'ni fazoning ikki nuqtasini ulashituvchi turlicha yo'llar paydo bo'ladi. Bunday fazoda katta idishning ichiga kichik idishni sig'dirish mumkin bo'ladi. O'lanam darajasi ko'p bo'lgan sistema o'lehov darajasi kam bo'lgan sistemaga nisbatan ko'rinnas va murakkab bo'ladi. Shuningdek, fazo va vaqtning metrik xususiyatlarini kuchli o'zgarishi topologik xususiyatlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, fazoning egriilik darajasi kuchli o'zgarsa, bir bog'langan fazo ko'p bog'langan fazoga aylanishi mumkin.

O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:

1. Falsafada borliq va substansiya masalasi qanday ahamiyatga ega?
2. Materiya va uning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Falsafada harakat va materiyaning bir-biriga bog'liqligi qanday?
4. Borliqning mavjudlik shakllari haqida nimalarni bilasiz?
5. Hozirgi zamon fan borliqning bir butunligi to'g'risida qanday fikrda?
6. Markaziy Osiyoda umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirishning qanday muammolari mavjud?

7. Ontologiya nimani o'rganadi?
8. Nima uchun «borliq» falsafaning asosiy kategoriyasi hisoblanadi?
9. Falsafa tarixida borliq muammosiga munosabatlar xilma-xilligini muhosang?

10. Borliqning asosiy shakllari qaysilar?
11. Borliqning turli shakllari o'zaro bog'lanadimi?
12. Virtual borliq nima?

3-mavzu. Jamiyat falsafasi va inson borlig'i

Maqсад va vazifalar:

Talabalarda falsafa fani o'zlashtirishlarida albatta, jamiyada o'zlarining o'mini bilishi, qadriyatlarimizni falsafiy tahlil qila bilishlari lozim.

Reja

1. Jamiyat haqidagi falsafiy ta'limotlar tarixi.
2. Jamiyat paydo bo'lishining ilmiy, iqtisodiy asoslari.
3. Sivilizatsiyalar tasnifi
4. Madaniyat uning tuzilish va ijtimoiy funksiyalari
5. Falsafa tarixida inson mohiyatiga oid qarashlar tasnifi.

Tayanch so'zlar: Jamiyat, ijtimoiy falsafa, madaniy-tarixiy tiplar, ijtimoiy-madaniy tizimlar, mehnat, iqtisodiy kichik tizim, ijtimoiy ishlab chiqarish, moddiy ishlab chiqarish, mulk, ma'naviy kichik tizim, axborot va kommunikatsiya, individual va ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya, mafkura, ijtimoiy kichik tizim, katta ijtimoiy guruhlar, etnik birliklar, institutlar, hududiy guruhlar, ijtimoiy makon, siyosat, sivilizatsiya, madaniyat, madaniy universalialar.

Jamiyat haqidagi falsafiy ta'limotlar tarixi. Jamiyat fanga ma'lum tizimlar orasida eng murakkabi bo'lib, uni o'rganish jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Jamiyat hayoti juda faol bo'lib, har bir xalq o'zining alohida, betakror tarixiga ega. Jamiyat hayotining barcha jarayonlari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqki, ba'zan turli vaziyatlarda belgilovchi va belgilanuvchi jarayonlar o'rin almashadi. Tarixiy jarayonda tasodiflar va sub'ektiv omil ayniqsa muhim rol o'ynaydi.

Jamiyat hayoti asrlar osha olimlar va faylasufarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda. U turli fanlar, chunonchi: sotsiologiya, tarix, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, etnografiya, iqtisodiy nazariya va hokazolar doirasida o'rganiladi. Fanning vazifasi — jamiyat tuzilishini o'rganish, tarixiy jarayonda takrorlanuvchi, umumiy xossalalar, jihatlar, omillar va qonuniyalarni aniqlashdan

iborat. Ilmiy bilim tarixiy jarayondan taqqoslab bo'lmaydigan darajada qashshoqroq bo'lsa-da, u jamiyatga zarur, chunki uning haqiqiy tarixini o'rganish, uning o'tmishda va hozirgi davrda rivojlanishining muqobil imkoniyatlarini aniqlash, bugungi kunning muhim vazifalarini hamda hozirgi zamon va kelajakka ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash imkonini beradi.

Muayyan fanlardan farqli o'laroq, falsafaning vazifasi tarixiy jarayonning umumiy jihatlarini o'rganishdan iborat. Falsafa muayyan hodisalarning sabablari nimada degan savolga javob topish vazifasini o'z oldiga qo'ymasada, tarix fanining metodologik asoslarini yaratadi, mazkur sabablarni aniqlashga nisbatan qanday yondashish kerak, degan savolga javob beradi. U dunyoqarashga doir o'z mo'ljallariga tayanadi, ijtimoiy va gumanitar fanlarning kategoriyalar apparatini ishlab chiqishda ishtirok etadi. O'z kategoriyalarining ijtimoiy mazmunini yoritlar ekan, falsafa shunga asoslanib muayyan-tarixiy jarayonlarni tahlil qilishni amalga oshiradi. Tarix falsafasining muammolaridan biri bu tarixiy jarayonning birligi muammosi va tarixni davriylashtirish tamoyillarini belgilashdir. Falsafaning vazifasi jamiyat hayotining asosiy negizlarini, uning tizim tashkil etadigan omillarini aniqlashdan iborat. Tarix falsafasida dunyoqarashga doir mo'ljallarining rang-barangligi bilan ajralib turadigan ko'plab oqimlar va yo'nalishlar mavjud bo'lgan. Shu sababli har bir faylasuf, odatda, o'z mo'ljallariga amal qiladi, natqat dunyoni, balki jamiyatni ham o'ziga xos tarzda tushuntiradi.

Madaniy-tarixiy tiplar nazariyasi XIX asrda vujudga kelgan bo'lsa-da, aslida bu haqidagi dastlabki qarashlar Forobiy ijodiga mansub. Forobiy insonlar jamiyatini ikki madaniy-tarixiy tiplarga ajratadi. Birinchisi to'liq jamiyat bo'lib, u o'zida a) er yuzidagi jami insonlarni qamrab oluvchi yirik jamiyat, b) Erning muayyan qismida yashovchi bir millat yoki bir dinga mansub kishilarning o'rtasida jamiyat v) muayyan g'aym yoki dinga mansub bir shahar jamiyatini qamrab oladi. Ikkinchisi bir qishloq, ovul, yoki bir oiladan iborat bo'lgan to'liqsiz jamiyat. Forobiy fikricha "Eng yaxshi fazilat va oliy darajadagi komillikni kichik birligi shahar hisoblanadigan madaniy jamiyat ichidagina qo'lga kiritish mumkin.

¹Forobiy Forobiy shahar aholisi. - T.: Sharq, 1999. - B. 82-83

To'liqsiz jamiyatlar insonni takomillashtirishga qobil emaslar². Forobiyning bu fikrlari Platon va Aristotelning jamiyatga oid qarashlaridan farq qiladi, chunki u jamiyatdagi o'zgarishlarni inobaga olgan. Jamiyatni to'liq va to'liqsizga ajratish ekan, Forobiy shahar to'liq jamiyatning birinchi bosqichidir deb e'tirof etadi. Platon va Aristotel esa to'liq jamiyatni shahar bilan chegaralaganlar va shahar insoniyat jamiyati takomilining oxirgi darajasi, jamoaviy baxt saodating bosh markazi deb ta'kidlaganlar. Forobiy esa, butun dunyodagi jamiyat haqida fikr yuritib, uning xukmdori qandaydir alohida olingan xalq, qavm yoki jamoa boshlig'i emas, balki butun madaniy dunyodir deb ta'kidlaydi va bu fikri bilan yunon faylasuflaridan ilgariab ketadi.

N.Y.A.Danilevskiy sotsiologiyaga madaniy-tarixiy tiplar tushunchasini kiritgan va tarixni «o'ziga xos sivilizatsiyalar»ning o'zaro munosabatlari sifatida tasavvur qilgan. Bu sivilizatsiyalarning rivojlanishi etnik guruhlarning til jihatidan birligi va sivilizatsiyani tashkil etadigan xalqlarning siyosiy mustaqilligi; (ular bir tipning asoslarini boshqa tipga o'tkazmaydilar, lekin boshqa o'tmishdagi va hozirgi sivilizatsiyalar ta'sirini his qiladilar); barcha sivilizatsiyalarning etnik jihatdan rang-barangligi va rivojlanish jarayonining birligi (ular o'sish, qisqa muddat ravnaq topish va tanazzul bosqichlarini boshdan kechiradi) kabi qonunlar bilan belgilanadi. N.Danilevskiyning g'oyalari keyinchalik SHpengeler va Toy'nbi konsepsiyalarida rivojlantirildi, lekin ularning ilmiy asoslarini P.A.Sorokin taklif qildi.

P.A.Sorokin (1889-1968) jamiyatga individlar va ijtimoiy guruhlarining o'z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati bilan belgilanadigan bir-biri va jamiyat bilan o'zaro munosabatlari natijasida vujudga keladigan integral yaxlitlik sifatida qaragan. P.A.Sorokin jamiyatni gorizontal, vertikal yo'nalishlarda va fluktuatsiya (tebranish) tarzida murakkab harakatlarda bo'lgan ijtimoiy-madaniy tizimlarning rang-barangligini tan olish nuqtai nazaridan tavsiflagan. P.A.Sorokin sotsiologiyasida o'tmish va hozirgi sotsiologiya fanining muhim g'oyalari uyg'un birlikda jamlangan va ifodalangan.

² Forobiy Fozil shahar aholisi - T.: Sharq, 1999. - B.69

Jamiyatning vujudga kelishiga doir qarashlar. Jamiyatning vujudga kelishi haqida ajdodlarimiz hayotining arxeologlar topgan va odamlarning ko'plab avlodlari bosib o'tgan murakkab va fojialarga to'la tarixiy yo'ldan dalolat beradigan izlarga qarab xulosa chiqarish mumkin. Shunga qaramay inson va jamiyat kelib chiqishining to'liq manzarasi fanda hanzugacha yaratilmagan. Jamiyat kelib chiqishining diniy talqini ham (u o'z mitologiyasini haqiqat deb tan olishni talab qiladi), idealistik konsepsiya (o'zining spekulyativligi tufayli) va materializm (ilmiy dalillar etarli emasligi bois) ham asosli e'tirozlar uyg'otadi. Kant materializmdan inson ruhining tabiatini tushuntiruvchi tamoyil sifatida foydalanish hech qachon mumkin emas, deganida, ma'lum ma'noda haq edi. Ammo, daliliy ma'lumotlar ozligiga qaramay, biz jamiyatning vujudga kelish manzarasini ancha aniq yaratish imkonini beradigan ilmiy dalillarga ishonch bilan qarash lozim, deb hisoblaymiz.

Jamiyatning kelib chiqishini ilmiy tavsiflash borasidagi qarashlar mehnat va mehnat qurollari nazariyasi doirasida amalga oshirilgan. Bu nazariyaga ko'ra mehnat, so'ngira burro nutq inson jamiyatini yaratgan. Inson hayotida mehnat qurollarining ahamiyatini rad etmagan holda, bu farazni tasdiqlovchi aniq ilmiy dalillarga duch kelmadi. Z.Freyd inson vijdonini uning kelib chiqish manbai deb hisoblagan. Etnografik tadqiqotlar bu farazni umuman tasdiqlamaydi. Y.Xeyzinga o'yin va o'yin faoliyatiga madaniyatning insonni shakllantiruvchi asosiy tamoyil sifatida qaraydi. Ernst Kassarir (1875-1945) ilgari surgan farazga ko'ra, simvolik shakllar, ya'ni inson va uning ongi paydo bo'lishini belgilagan ramzlar va belgilar madaniyatning turli shakllarini birlashtiruvchi oliy va universal tamoyil hisoblanadi. Kassarir fikriga ko'ra, qadimgi ajdodlarimiz ularning yashab qolishini ta'minlovchi etarli tabiiy kuchga ega bo'lmagan. Inson o'zining hayvonlar xulq-atvorini kuzatish va ularga taqlid qilish qobiliyati bilan yashab qolish imkoniyatini qo'lga kiritgan. O'z navbatida taqlidga asoslangan xulq-atvor ramziy belgilar, keyinchalik esa nutq vujudga kelishiga asos bo'lgan.

To'plangan tajribani belgilar tizimida qayd etish va avlodlardan-avlodga o'tkazish qobiliyatining shakllanishi hayvonlar to'dasi kishilik hamjamiyatiga


aylanishining muhim omili bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Bunday qobiliyatga hayvonlarning biron-bir turi ega emas. Namoyish etish, o'rnatish, taqirlar va cheklashlar tizimi mulqotning nafaqat noverbal, balki asta-sekin shakllangan verbal vositalarida ham o'z ifodasini topgan. Mulqot mehnat ko'nikmalarini mustahkamlash, ovqat topish va unga ishlov berishni tartibga keltirish, o'z jamoa harakatlarini muvofiqdoshlash imkonini bergan. Etnografik ma'lumotlar tajribani avloddan-avlodga o'tkazish va jamoa faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish shakli sifatida o'yin ulkan ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi.

Ma'lum taqirlar orasida ovqatga doir xulq-atvor bilan bog'liq taqirlar, shuningdek seksual cheklashlar, avvalo yaqin qarindoshlar jinsiy aloqaga kirishishi — insonning taqirlanishi ayniqsa ajralib turadi. Ular insoniyat kelajagi uchun olamshumul ahamiyat kasb etgan. Zero tartibsiz jinsiy aloqalar naslning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan. Aslida, olingan tajriba yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohning taqirlanishiga sabab bo'lgan. Bu nikoh aloqalari tizimini tartibga solish, ularni qat'iy qayd etish, ayollar, qizlar, singillarini ayirboshlash, so'ngira bu bilan o'xshashlik bo'yicha — oziq-ovqat, buyumlar, so'z-belgilar ayirboshlashni yo'lga qo'yish imkonini bergan. Mazkur jarayonlar odamlar o'rtasida mulqot, munosabatlar va xulq-atvor me'yorlari o'rnatilishi va ularga rioya etish zarurligi anglab etilishiga turtki bo'lgan. Me'yorlarning mustahkamlanishiga mifologik va ilk diniy tasavvurlar hamda taqirlar tizimi ko'maklashgan. Jamoadan tashqarida yashab qolish inkoniyati mavjud emasligini anglagan jamoaning har bir a'zosi unda o'rnatilgan kundalik xulq-atvor me'yorlariga rioya qilgan. Shunday qilib, jamiyat ishlab chiqarish va ko'payish chiyoylari bilan belgilangan odatlar, me'yorlar va qadriyatlar bilan tartibga solinadigan odamlarning birgalikdagi faoliyati va ularning o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida vujudga kelgan. Me'yorlar inson hayot faoliyatining barcha sohalariga nisbatan ta'biq etiladi, hamda madaniyat va sivilizatsiya vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Jamiyatda qanday o'zgarishlar yuz bermasin, u

odamzot bilan birga vujudga kelgan mazkur muhim tarkibiy elementlarni saqlab qoladi.

Iqtisodiy kichik tizim. Ijtimoiy ishlab chiqarish tushunchasi. Hozirgi ko'rinishda jamiyat takror ishlab chiqarish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi tashkil etish ichki mexanizmlariga ega bo'lgan tarixan muayyan, yaxlit va barqaror tizim sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyat — bu odamlarning shunday bir birlashmasi, uning yaxlitligi ijtimoiy ishlab chiqarish, ya'ni odamlarning umumian ishlab chiqarish, o'z hayotini quvvatlash va takror ishlab chiqarishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish — vaqtda davom etadigan va vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan jarayon (takroriy ishlab chiqarish). Ayni vaqtda u o'zgaruvchanlikni, muayyan ijtimoiy dinamikani (ya'ni sof ishlab chiqarishni) o'z ichiga oladi. Ko'rsatilgan omillarning birligi, bir tomondan, an'ana, ijtimoiy merosga, boshqa tomondan esa, amaliy va ma'naviy tajribaning oshishi va to'planishiga asoslanadi. Ijtimoiy dinamika, jamiyatning rivojlanishi ishlab chiqarishda va odamlar xulq-atvorini boshqarishda to'plangan tajribani saqlash va kelgusi avlodlarga qoldirish usullarini takomillashtirish bilan ta'minlanadi. Tajribani baham ko'rishning muhim vositalari — til, namoyish etish, o'rnatish va eng muhimi — tajribani o'zlashtirayotgan odam qaysi xalq vorisi bo'lsa, shu xalqning ijtimoiy boyligi va madaniy mulki hisoblanadi.



Keng ma'noda ijtimoiy ishlab chiqarish — ijtimoiy hayotning barcha elementlarini o'z ichiga oluvchi serqirra jarayon. Unga odamlarning ko'payishi; moddiy ishlab chiqarish, ya'ni odamlar hayotini saqlash va quvvatlashning

moddiy omillarni yaratish; ma'naviy ishlab chiqarish, ya'ni bilim, tajriba, qadriyatlarini yaratish; odamlarni boshqarish, ular faoliyatining muvofiqligini, jamiyatning yaxlitligi va uyushqoqligini ta'minlash kabilar kiradi. Ijtimoiy ishlab chiqarish — jamoaning ishi. Ayni shu sababli u ijtimoiy hayotning har bir elementiga xos bo'lgan munosabatlar tizimini o'z ichiga oladi. Ularning asosiy — oila-ro'zg'or, ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy, ma'naviy (mafkuraviy), siyosiy munosabatlardir. Ijtimoiy hayot murakkablashuviga qarab jamiyada tabaqalanish va mehnat taqsimoti kuchayib boradi. Natijada jamiyatning nisbatan mustaqil bo'lgan alohida muhim kichik tizimlari vujudga keladi. Bu kichik tizimlarning har biri butun ijtimoiy organizm uchun muhim bo'lgan funksiyalarni bajaradi. Jamiyatning muhim kichik tizimlari: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy kichik tizimlardir.

Moddiy ishlab chiqarish iqtisodiy kichik tizim ishlab chiqarish faoliyati va kishilarning bu jarayondagi munosabatlari shakllarining muqimlidir. Har bir jamiyat o'z mavjudligi va rivojlanishi uchun zarur tabiiy boyliklarga ega. Ammo ijtimoiy boylik inson mehnati bilan yaratiladi. Ajdodlar yaratib qoldirgan boyliklarni saqlash va ulardan foydalanish hamda jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish ijtimoiy boylikning o'sishiga olib keladi. Buning natijasida mulk instituti ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim vositasi va rag'batlantiruvchi omili sifatida vujudga keladi. Dastavval kuch huquqi, obro' va odatga tayangan mulkiy munosabatlar keyinchalik yuridik shakl-shamoyil kasb etadi. Rivojlangan ko'rinishda mulk ijtimoiy boylikning ma'lum ulushiga egalik qilish, uni tasarruf etish va undan foydalanish huquqini anglatadi. U turli shakllarda mavjud bo'lgan va hozir ham mavjud bo'lib, bu ijtimoiy ishlab chiqarishning shaklini ham belgilaydi.

Iqtisodiy tizim moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni hamda moddiy va ma'naviy xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. *Xodimlar, ularning mehnati va ishlab chiqarish vositalari — mehnat qurollari va vositalari ishlab chiqarishning muhim omillari hisoblanadi.* Ishlab chiqarish moddiy-texnika


vositlari va ularni ishga solishga qodir bo'lgan odamlar majmui jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida odamlar o'rtasida turli-tuman munosabatlar yuzaga keladi. Ularning orasida tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish-texnologik munosabatlar texnika va ishlab chiqarish texnologiyasining xususiyati rivojlanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lsa, tashkiliy-iqtisodiy va ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar odatan ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulk shakllari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarish natijasida yaratiladigan me'morlar va xizmatlarni ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur munosabatlar tizimi ijtimoiy normalar va huquq normalari bilan tartibga solinadi va ijtimoiy ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulk huquqining xususiyati bilan belgilanadi.

Mulk — xo'jalik jabhasi, iqtisodiy jabhada vujudga keladigan institut. U natijalar ishlab chiqarish vositalari, balki iste'mol predmetlari va ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ham tabiiq etiladi. Ijtimoiy boylikning barcha elementlari — ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, er va er osti boyliklari, moddiy ishlab chiqarish, ma'naviy ijodiy va o'zga aqliy faoliyat mahsulatlari va hokozolar mulk bo'lishi mumkin. Mulk iqtisodiy hokimiyatga kim ega bo'lishini, xo'jalik faoliyatidan olingan foyda kimga tegishini va u qanday moddiy mulkiy manfaatlarini yuzaga keltirishini belgilaydi. Mulk shakllari ishlab chiqarish ijtimoiylashuvining amaldagi darajasi bilan belgilanadi, unga esa, o'z navbatida, umumiy texnologik taraqqiyot ta'sir ko'rsatadi. Mulkning davlat mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk jamoa mulki kabi shakllari mavjud.

Ma'naviy kichik tizim. Odamlarning ma'naviy faoliyati jamiyat mavjudligining zaruriy shartidir. Odamlar ongli mavjudotlar bo'lib, ular o'z tafakkuri bilan ijtimoiylikning barcha ko'rinishlarini anglab etadi. Bu jarayonda olimlar, rassomlar, jumalistlar, turli partiyalar va harakatlarning mafkurachilari va shu kablarning ixtisoslashgan kasbiy ma'naviy faoliyati muhim rol o'ynaydi. Ularning nisbatan mustaqil kasbiy faoliyati ijtimoiy hayotning turli jabhalariga

xizmat ko'rsatadi. Ma'naviy ishlab chiqarishda iqtisodiy kichik tizim qonuniyatlari, ya'ni jamiyatning xo'jalik jarayonlari o'tasidagi takrorlanuvchi muhim-zaruriy bog'lanishlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ularning qatoriga ehtiyojlarning yuksalish qonuni, ijtimoiy takror ishlab chiqarish qonunlari, qiymat qonunini kiritish mumkin.



Jamiyat ma'naviy kichik tizimining vujudga kelishi rang-barang ijtimoiy va shaxsiy ma'naviy ehtiyojlar bilan belgilanadi. Ularning eng muhimlari – ma'rifiy, axloqiy, estetik, diniy ehtiyojlardir. Ularni qondirish axborot va kommunikatsiya turli vositalarining mavjudligini nazarda tutadi. Axborot va kommunikatsiya ham shaxs va jamiyatning muhim ma'naviy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Ma'naviy mulqotga bo'lgan ehtiyoj ma'naviy ehtiyojlar orasida alohida o'rin egallaydi. Jamiyatda ma'naviy ishlab chiqarishning alohida tarmoqlari va institutlari asla-sekin vujudga keladi. Ular turli ma'naviy ehtiyojlarni qondirishni nazarda tutadi. Masalan, ilmiy institutlar va olimlarning turli-tuman birlashmalari tabiat, jamiyat va insonni o'rganish bilan shug'ullanadi va shu tariqa odamlar faoliyatini ilmiy jihatdan ta'minlaydi. Fanda ham ijtimoiy amaliyotga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan o'z muammolari yuzaga keladi. Mazkur muammolarni echish fan rivojlanishining sharti, uning ichki ehtiyoji hisoblanadi.

Axborot va kommunikatsiya ma'naviy ishlab chiqarishning axborot almashinuviga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan sohalari bo'lib, bu avvalo aholiga to'g'ridan-to'g'ri axborot berish vositalaridir. Qadimda bular podsholarning farmonlarini maydonlarda o'qib eshitilgan jarchilar, voizlar, shoirlar va baxshilar, masxarabozlar, teatr, shuningdek yozma adabiyot bo'lgan. Keyinchalik, axborot texnika vositalari rivojlanishi bilan ma'naviy mulqotga

bo'lgan ehtiyojlar bosma nashrlar (kitoblar, gazetalar, jurnallar) bilan qondirilgan, so'ng radio, kino, televidenie, ya'ni hozirgi ko'rinishdagi ommaviy axborot vositalari (OAV) paydo bo'lgan. Hozirgi sharoitda ommaviy axborot vositalari o'z mahsulotini ishlab chiqaradigan va uni bozorda sotadigan sanoatning alohida turlidir.

Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi odamlarning bevosita shaxsiy va kollektiv mulqotiga bo'lgan ehtiyojga chek qo'ymaydi. Mazkur ehtiyoj butunlay boshqa vositalar bilan va o'zga sharoitda (uyda yoki teatrd, o'quv auditoriyasida yoki yozishmalar orqali va h.k.) qondiriladi. Shunga qaramay ommaviy axborot vositalari hozirgi jamiyatda ma'naviy mulqotning muhim elementi hisoblanadi.

Ijtimoiy adabiyotlarda va kundalik nutqda «axborot» va «kommunikatsiya» tushunchalari ko'pincha sinonimlar sifatida ishlatiladi. Ammo ma'naviy mulqotning mazkur hodisalari amalda har xil ma'noni anglatadi. *Axborot deganda yangi bilimni aks ettiradigan va mazkur axborotni idrok etuvchi shaxs yoki guruh xulq-atvorini o'zgaritiradigan xabar tushuniladi. Kommunikatsiya – ilovalar, qarashlar, baholar almashinuvini nazarda tutadigan ma'naviy mulqot turli odamlar o'rtasida hamjihatlikning mavjudligi bilan belgilanadi.*

Imonga ta'lim va tarbiya berish ma'naviy ishlab chiqarishning alohida sohasi hisoblanadi. Jamiyatda ta'lim va tarbiya muassasalarining tarmoqlangan tizimi; bozalar maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab ta'limining turli-tuman alohida: kollejlar, pansionatlar, internatlar oliy o'quv yurtlari tashkil etiladi. Axloqiy va estetik tarbiya berish, dunyogarasini shakllantirish o'quvchilar ongida dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirish yo'li bilan, shuningdek san'at, falsafa va diniy muassasalar yordamida amalga oshiriladi. Tarbiyalash funksiyasini oila, do'stlar va tanish-bilishlar davrasi, davlat muassasalari, huquqiy tartibot organlari, shuningdek ommaviy axborot vositalari bajaradi.

Maklura. Ong doim hayotning mazmuni muammolarini u yoki bu tarzda hal qiladi, ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari va istiqbollari bilan bog'liq bo'lgan hayotiy

muhim savollarga javob beradi. Mazkur savollar mafkura doirasida qo'yiladi va hal qilinadi.

Mafkura ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarining tizimga solingan, nazariy ko'rinishda aks ettiradigan va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash yoki o'zgartirishga xizmat qiladigan g'oyalar, qarashlar majmuidan iborat. Mafkura mazmunini ijtimoiy rivojlanishning etilgan, muhim, dolzarb va echishni talab qiladigan ziddiyatlari tashkil etadi. Shunga muvofiq yuz berayotgan jarayonlar mazmuniga va ijtimoiy muammolarni echish yo'llariga nisbatan alohida yondashuvni aks ettiruvchi ayrim nazariy mulohazalar yuzaga keladi. Bu mafkuraning shakli hisoblanadi. Uning mazmuni esa muayyan ijtimoiy guruh – sinf, etnik guruh, hukmron elita yoki uning muxolifati va hokazolarning manfaatlarini ifoda etishdan iborat. Mafkura shaklan ob'ektiv, lekin mazmun jihatidan sub'ektivdir. U nazariy jihatdan tizimga solingan ko'rinishda ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga bo'lgan munosabatini aks ettiradi va ularning ijtimoiy-siyosiy natijalarini nazariy jihatdan asoslash va oqlashga harakat qiladi.

A.Ochilidiev istibdod mafkurasini, istiqol mafkurasini, va jamiyat mafkurasini kabiylarni farqlaydi. Istibdod mafkurasidan farqli o'laroq "istiqol mafkurasini millat, jamiyat, davlatni mustaqil taraqqiyot yo'liga boshlaydigan, uni belgilab beradigan, ekin va ozod rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan g'oyalar, qarashlar tizimidir".¹ Uning fikricha, har qanday davlat o'z faoliyatida yagona etnosotsial birlik sifatida chiqadigan millat manfaatini himoya qilishga qaratilishi, uning jipsligi, tiraqqiyotini ta'minlaydigan milliy mafkuraga tayannog'i lozim. Zero milliy mafkura davlat organlari, ijtimoiy institutlar faoliyatini tashkil qiluvchi, yo'naltiruvchi quril vazifasini o'taydi.

Ijtimoiy ong shakli va mazmun jihatidan rang-barangdir. Ijtimoiy ongning ilmiy, diniy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, falsafiy turlari farqlanadi. Ular o'zi aks ettiruvchi hodisalar mazmuni, moddiylashuv shakli va ijtimoiy funksiyalariga ko'ra farq qiladi. Ijtimoiy ong turlari yoki shakllari ko'p darajali tuzilmalar bo'lib,

o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan oddiy va nazariy darajalarni, ijtimoiy holatlarini va mafkurani o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ong holatlari. Ijtimoiy ongning yaxlit tavsifi ijtimoiy ong holati, umumiy ong, jamoatchilik fikri kabi tushunchalarda ifodalanadi. Ijtimoiy ong holati mafkur tarixiy davrda qaysi g'oyalar va qarashlar etakchilik qilayotgani, ijtimoiy ongning qaysi shakllari jamoatchilik fikri va kayfiyatiga ayniqsa samarali ta'sir ko'rsatayotgani, jamoatchilik fikrini shakllantirishning qaysi mexanizmlari muvofiq ahmilyatga ega ekanligi (u mafkuraviy majburlor mahsulini yoki etakchilik tarzida shakllanadimi), jamoatchilik fikrini shakllantirish vositalari orasida fikr, din, siyosat va huquq qanday o'rin egallashi bilan belgilanadi. Ijtimoiy ong holatlarini tavsiflashda ilmiy va noilmiy tasavvurlarning o'zaro nisbatini aniqlash muhim ahmilyat kasb etadi. Masalan, ijtimoiy bo'ronlar va tangliklar davrida o'zaro munofiq aqidalar tiklanadi, sarosimalik kayfiyatlar, ijtimoiy ongning beqarorligi kuchayadi. Ijtimoiy ong madaniyatda o'zining amaliy ifodasini topadi.

Ijtimoiy kichik tizim ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti va taqsimlashish nuqtalar tarzida ijtimoiy tabaqalanishga turki beradi, o'ziga xos taqsimlashish nuqtalar tarzida bo'lgan, jamiyatda ma'lum mavqega ega bo'lgan va o'z manfaatlarini ilgari suradigan nisbatan mustaqil ijtimoiy birliklar va guruhlar shakllanishiga sabab bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy tabaqalanish va odamlar o'rtasidagi tengsizlik jamiyatning tabiiy holatidir. «Oltin asr», umumiy va to'la tenglik haqidagi orzu mutlaqo noilmiy bo'lgani bois uni ro'yobga chiqarish mumkin emas. Shuningdek, u zararlidir, chunki odamlarni to'g'ri yo'lidan o'zlatadi, ijtimoiy munosabatlarga keskin tus beradi. Tarixdan ma'lumki, umumiylar tenglik haqidagi shiorlar hech qachon ro'yobga chiqmagan: bir tengsizlik o'rtasida boshqa tengsizlik paydo bo'lgan. Otilada, urug' yoki qabila ustun mavqega erishish uchun, o'z shaxsiy obro'si – kuch, mardligi yoki mahorati tan olinishi uchun kurash ijtimoiy hayotning dastlabki bosqichlaridayoq yuzaga kelgan. Ta'bir joiz bo'lsa, tengsizlik shaxs va pirovard natijada – jamiyat rivojlanishining muhim omilidir.

¹ Ochilidiev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. –T.: O'zbekiston, 2004. –B.28

Ijtimoiy tengsizlik vujudga kelishi va jamiyatning rivojlanishida mulk instituti alohida rol o'ynagan. Mazkur institut vujudga kelishi bilan odamlarning mulkiy tengsizlik bilan bog'liq tabaqalanishi kuchaygan. Alohida kasbiy faoliyat sifatida aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan kishilar paydo bo'lgan. Mazkur jarayonlar mehnat taqsimotini faollashtirgan. Ayrim guruhlarining alohida ajralib chiqishiga, boshqalarining turi hamjamiyatlarga birlashishiga turtki bergan. Har qanday jamiyatning ijtimoiy tuzilishi mazkur jamiyat tarixining ma'lum davridagi muayyan-tarixiy ijtimoiy birliklar va guruhlarining o'zaro munosabatlari, hamda mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus institutlar va muassasalar majmui bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy birliklar va guruhlar. *Ijtimoiy birliklar va guruhlar ijtimoiy tuzilmaning muhim elementi hisoblanadi. Ular kishilarning umumiy ijtimoiy belgilari mavjudligi bilan ajralib turadigan birlashmalardir.* Mazkur belgilar qatoriga guruh uchun umumiy sanalgan ehtiyojlar va manfaatlar, qadriyatlar va me'yorlar, turmush tarzi, ijtimoiy mehnat taqsimotidagi o'rin va ular bilan bog'liq ijtimoiy rollar kiradi. Ijtimoiy guruh xususiyati va tipi uning xulq-atvorini va jamiyatning ijtimoiy kichik tizimidagi o'rnini ham belgilaydi. Ehtiyojlar va manfaatlarning birligi ijtimoiy birliklar va guruhlarini birlashtiruvchi asosiy belgi hisoblanadi. Mazkur ehtiyojlar va manfaatlar ijtimoiy birliklar va guruhlarining jamiyatdagi mavqei bilan belgilanadi. Ijtimoiy birliklar va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy bir jinslilik va barqarorlik darajasiga ko'ra farq qiladi. Ijtimoiy guruhlar taqdoslaganda ijtimoiy birliklar ijtimoiy jihatdan turli jinsliliigi va tashkiliy jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy birliklarga jumladan etnik va konfessional birliklar, ekologik, siyosiy harakatlilar, sport yoki havaskorlarning uyushmalari kabi jamoat birlashmalari misol bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy birliklar va guruhlar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi. Jumladan, katta va kichik ijtimoiy guruhlar farqlanadi. Kichik guruh a'zolarining yaqinligi, aloqalarining mustahkamligi, munosabatlarning notasmiyligi, bevosita shaxsiy aloqalar o'rnatilgani, umumiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari amal qilishi bilan tavsiflanadi. Kichik guruhga korxona, muassasaning mehnat jamoasi, oila misol

bo'lishi mumkin. *Jamoa – umumiy faoliyat, manfaatlar va xulq-atvor qoidalarining birligi belgisiga ko'ra uyushgan kichik ijtimoiy guruh (masalan, mehnat, o'quv, harbiy, sport jamoalari).* Oila – jamiyatning nikohga yoki qon-qarindoshlikka asoslanadigan muhim instituti. Oilaviy munosabatlar nasl qoldirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadigan va bolalarni tarbiyalash, ularga jamiyatning madaniy an'analarini singdirishga qulay zamin hozirlaydigan sharoitlarni o'zaro aloqalarining notasmiyligi bilan ajralib turadi. Oilaviy munosabatlar qarindoshlik aloqalari bilanгина cheklanmaydi: ular oila a'zolarining tur-turi oldida o'zaro ma'naviy javobgarligi, birlilikdagi mehnat va turish-turmush hamda ular bilan bog'liq bo'lgan va huquq bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlar bilan mustahkamlanadi.

Katta ijtimoiy guruhlar – tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga keladigan *shahar, etnik, hududiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa guruhlardir.* Ular shaxs va jamiyat hayotida juda muhim rol o'ynaydi.

Etnik birliklar. *Etnik birliklar ijtimoiy hayot xo'jalik, hudud, til, odatlar, an'analar, rasmlar-rusumlar, e'tiqodlarning birligi belgisiga ko'ra tarkib topadigan va etnik birliklarning har xil turlarini tashkil etadigan kishilarning ayrim muayyan-tarixiy jamoalari doirasida kechadi.* Urug' mazkur birliklarning ilk shakli. U qon-qarindoshlik belgisiga ko'ra uyushgan odamlar birlashmasi bo'lib, ibtidoiy jamoaning asosiy, ishlab chiqaruvchi va etnik bo'g'ini hisoblangan. Qabilla ikki yoki undan ortiq urug'ning bir necha yuzdan bir necha minggacha bo'lgan odamlardan iborat birlashmasidir. Qabila umumiy mulk, umumiy boqlig'uv, turish-turmushning umumiy jihatlari va ayrim umumiy xo'jalik faoliyatiga ega bo'lgan.

Bir hududda yashaydigan, umumiy xo'jalik faoliyati, til, ruhiyat tarzining xususiyatlari, turish-turmush, madaniyat va hayot tarzining odatlar va an'analarida mustahkamlangan ba'zi bir jihatlari elat va millatni tavsiflaydi. Ammo ularning o'rtasida jiddiy farqlar ham mavjud. Qabillalarning uyushmalari, aholi migratsiyasi, tilning yaqinligi elat vujudga kelishining omillari hisoblanadi. Ular qon-qarindoshlik, urug'doshlik aloqalarini buzuvchi omillardir. Ammo elatni

birlashtiruvchi aloqalar ham ancha shartlidir. Elatni tashkil etadigan qabilalar yashaydigan hudud muhim birlashtiruvchi asos hisoblanadi.

Millatning asosiy o'ziga xos xususiyati – *muayyan yaxlit tuzilishga birlashgan va assimilyatsiyalashgan elatlarning faol iqtisodiy aloqalari negizida shakllanadigan moddiy va ma'naviy madaniyatning o'ziga xosligi*. Millatga uni tashkil etadigan elatlar uchun umumiy sanalgan til; ruhiyat tarzining umumiyligi; madaniyatning o'ziga xos jihatlari; shakllangan barqaror hayot tarzi; an'analar; tarixiy taqdirning birligi va rivojlangan etnik o'zlikni anglash tuyg'usi meros bo'lib o'tadi. Madaniy rivojlanish, til, umuman milliy o'ziga xoslik muammolariga millatning ta'sirchanligi ayni shu omillar bilan belgilanadi.

Tabaqalar va sinflar. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishida tabaqalar va sinflar salmoqli o'rin egallaydi. *Tabaqalar* – *sanoatlashish bosqichidan oldingi jamiyatlarda vujudga kelgan, yuridik yoki odatga asoslangan va avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan huquqlar va burchlarga ko'ra farq qiladigan ijtimoiy guruhlar*. Tabaqaviy bo'linish jamiyatning murakkab ierarxiyaviy tuzilishining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Yirik guruhlar orasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-psixologik maqomiga ko'ra farqlanadigan sinflar alohida o'rin egallaydi. Iqtisodiy belgi sinfning bosh belgisi hisoblanadi, zero sinfiy bo'linish shakllari ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabat hamda mulk shakllari bilan belgilanadi. Hozirgi zamon sotsiologiyasida sinflarni farqlashning boshqa asoslari ham mavjud. Masalan, ijtimoiy guruhlar ega bo'lgan ijtimoiy boylik ulushiga ko'ra ular oliy, o'rta va quyi sinflarga bo'linadi. Bunda daromad manbai hisobga olinmaydi, shu bois oliy sinf vakillari orasidan mashhur kinoaktyorlar, estrada yulduzlari va bankirlar ham o'rin olishlari mumkin. Bu hol o'rta va hatto quyi sinflarda ham kuzatiladi. Shuningdek ijtimoiy mehnatni tashkil etishdagi roliga ko'ra boshqaruvchilar sinfi farqlanadi.

Hozirgi zamon jamiyatida yuqori malakali aqliy mehnat bilan professional tarzda shug'ullanadigan kishilarning katta ijtimoiy guruhi – *ziyolilar alohida rol o'ynaydi. Ziyolilar soni tinimsiz ko'payib, ularning jamiyat hayotidagi roli ortib bormoqda. Bu avvalo fan-texnika taraqqiyoti, shuningdek hozirgi jamiyatda*

ma'naviy nizmatlarga bo'lgan ehtiyojning o'rtishi bilan bog'liq. Ziyolilar guruhi o'ziga kelib chiqishiga ko'ra ham, ijtimoiy maqomiga ko'ra ham turli jinslidir. Tenglishtirishda uning siyosiy mo'ljallari ham har xildir.

Instituttar. Jamiyatning rivojlanish jarayoni alohida muhim vazifalarni bajaradigan va aniq tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan ijtimoiy va siyosiy tashkilotlar bo'lib, ularning tarmoqlangan tizimi yaratilishi bilan tavsiflanadi. *Instituttar jamiyat normal faoliyatining zaruriy omili sanalgan ijtimoiy muhim faoliyatni amalga oshiradi*. Bunday instituttar qatoriga davlat va uning institutlari, partiyalar va harakatlari, ommaviy axborot vositalari, diniy muassasalar, ta'lim va madaniyat muassasalari, sog'liqni saqlash va sanitariya xizmati tizimlari, bozor, banklar va hokuzolar kiradi. Ijtimoiy instituttar faoliyati ijtimoiy hayotning barcha jabhalari: oila va ishlab chiqarish, tovarlar va pullar harakati, ishlab chiqarish, iste'mol va hokuzolarga nisbatan tatbiq etiladi. Instituttar turli birliklar va guruhlarning muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, ularning samarali o'zaro aloqasini ta'minlaydi, vujudga kelgan ijtimoiy qadriyatlarini mustahkamlaydi va yangilarni yaratadi.

Hududiy guruhlar. Aksariyat mamlakatlarda hududiy guruhlarning o'zaro munosabatlari jiddiy muammolar yuzaga keladi. Bu ma'naviy hayot an'analari va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra farq qiladigan viloyat va markaz, poytaxt va chekka o'lka hamda yirik mintaqalarning munosabatlari bo'lishi mumkin (masalan, AQSH yoki Italiyada Shimol va Janub munosabatlari). Etnik yoki diniy farqlar, bir ma'muriy birlikning boshqa ma'muriy birliklarga hududiy e'tirozlari hududiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirishi mumkin.

Jamiyat rivojlanishiga qarab uning ijtimoiy tuzilmasi murakkablashib boradi. Bu miqdor va sifat jihatidan har xil ijtimoiy guruhlarning o'zaro aloqasi va munosabatlari muvofiqlashtirishni talab etadi. Ijtimoiy birliklar va guruhlarning turlari ularning o'rtasidagi munosabatlari va ijtimoiy aloqalar xususiyatini ham belgilaydi. Aloqalar uzoq yoki qisqa muddatli, mustahkam yoki bo'sh va zaif, bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Aloqalar xususiyatining shakllanishida

manfaatlar muhim rol o'ynaydi, ularni muvofiqlashtirish vazifasini esa jamiyatning maxsus institutlari, avvalo siyosiy tizim hal qiladi.

Jitimoiy makon. Moddiy boriq makoni kabi, jitimoiy makon ham moddiy ob'ektning tuzilishi bilan belgilanadi. Tegishli ravishda jitimoiy tuzilma va jitimoiy o'zaro aloqalar jitimoiy makon xususiyatini belgilaydi. Makondagi aloqalar o'zaro aloqaga kirishayotgan sub'ektlar o'rtasida ma'lum masofa mavjudligi bilan ajralib turishi mumkin. Biz mazkur masofa xususiyatini o'zimiz uchun boshqari tarzda aniqlaymiz va yo uni saqlab qolishga, yo o'zgartirishga harakat qilamiz. Odamlar o'rtasidagi aloqalar ham makon mezonini bilan o'lanadi. Ular vizual, yo bevosita, yo bilvosita, yo doimiy, yo nomuntazam bo'lishi mumkin.

Jitimoiy makon o'zining sardarajaligi bilan ajralib turadi. Bu ayni bir inson turli birliklarda har xil maqomga ega bo'lishida namoyon bo'ladi (masalan, o'zi mehnat qiladigan ishxonada u xizmat pillapoyasida eng past o'rinni egallaydi, oilada esa boshliq hisoblanadi).

Insonning jitimoiy makondagi o'rni uning butun umri mobaynida o'zgarib turadi. Bu hol «jitimoiy mobillik» kategoriyasi bilan tavsiflanadi.

Siyosiy kichik tizim. Rivojlangan jitimoiy tizimga ega bo'lgan jamiyatlarda jitimoiy, etnik va diniy tabaqalanishning kuchayishi muqarrardir. Mavjud mavqeidagi tub o'zgarishlardan kelib chiqadigan qarana-qarshi manfaatlarini ko'zlovchi jitimoiy birliklar va guruhlar mavjudligi ularning o'rtasida siyosiy munosabatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu manfaatlarini muvofiqlashtirish zaruriyati jamiyat siyosiy tizimining tuzilishi va funksiyalarini belgilaydi. *Siyosiy tizim jamiyatda siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi davlat va siyosiy tashkilotlar, institutlar va muassasalar majmuidir.* Siyosiy tizim murakkab tuzilishga ega. Jamiyatda fuqarolarga nisbatan qonuniylashtirilgan majburlor choralarini qo'llash yo'li bilan o'zining siyosiy munosabatlarni tartibga solish borasidagi funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat siyosiy tizimning bosh elementi hisoblanadi. Davlat jamiyatning muhim jitimoiy-siyosiy instituti bo'lib, muayyan hududda unga oliy hokimiyat vakolatlari beriladi. Bu vakolatlardan

davlat odamlar, ularning guruhlari va birlashmalari xulq-atvorini boshqarish uchun foydalanadi. Davlatning asosiy belgilari:

1. Jamiyatdan ajratilgan xalq hokimiyati. Hokimiyat – bir sub'ekt (hokimiyat boshlig'i)ning o'z hukmi ostidagi fuqarolarga buyruqlar berish, ularning bajarilishi ustidan nazorat olib borish va ularni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarga nisbatan sanksiyalar qo'llash imkoniyati.

2. Suverenitet, ya'ni o'z mamlakati hududida oliy hokimiyatga to'liq egalik qilish va tashqi siyosatda mustaqillik.

3. Hokimiyat chiqargan qonunlar va uning vakolatlari amal qilinadigan hudud.

4. Butun aholi uchun majburiy sanalgan qonunlar va normalar qabul qilish mutlaq huquqi.

5. Davlat xizmati xodimlari, qur'olli kuchlar, majburlor organlari va hokazolarni ta'minlash uchun aholidan soliqlar undirish huquqi.

Davlatning boshqaruv shakli (ya'ni hokimiyatni tashkil etish usuli) va davlat qur'olishi shakllari mavjud. Boshqaruv shakllariga ko'ra monarxiya va respublika farqlanadi. Monarxiya quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: birinchidan – hokimiyat bir shaxsga qarashli bo'ladi; ikkinchidan – davlat boshlig'iga hokimiyat meros bo'lib o'ladi. Davlat boshlig'ining vakolatlari hech qanday konstitutsiyaviy normalar bilan cheklanmaydigan mutlaq monarxiyalar va monarx vakolatlari konstitutsiya bilan cheklanadigan konstitutsiyaviy monarxiyalar farqlanadi. Respublikaning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda hokimiyat manbai xalq hisoblanadi, zero davlatning oliy organlarini xalq saylaydi. Parlament, prezidentlik respublikalari va aralash respublikalar farqlanadi.

Parlament respublikasi *hukumatni parlament ko'pchiligi tamoyiliga ko'ra shakllantirishni nazarda tutadi*: qaysi partiya parlamentda ko'pchilikni tashkil qilgan, shu partiya parlamentga hisobdor bo'lgan o'z hukumatini shakllantiradi.

Prezidentlik respublikasi *davlat boshlig'i va hukumat boshlig'i vazifalarini prezidentni bajarishi bilan tavsiflanadi*.

Aralash respublika (yarim prezidentlik respublikasi)da kuchli prezidentlik hokimiyati hukumat faoliyati ustidan parlamentning samarali nazorati bilan uyg'unlikda amal qiladi.

Davlat qurilishi shakliga ko'ra unitar, federativ va konfederativ davlatlar farqlanadi. Ma'muriy birliklari o'z davlatchiligiga ega bo'lmagan yagona, siyosiy jihatdan bir jinsli davlat unitar davlat hisoblanadi.

Federatsiya – siyosiy sub'ektlar (shaharlar, erlar, federatsiya sub'ektlari va sh.k.), o'z konstitutsiyalari, qonunchilik, ijro va sud organlariga ega davlatlar uyushmasi. Ularning mustaqilligi markaz bilan federatsiya tarkibiga kiruvchi sub'ektlar o'rtasida vakolatlarning taqsimlanishi bilan belgilangan chegaralarga muvofiq cheklanadi. *Davlatlararo birlashmaning alohida shakli konfederatsiya bo'lib, u mustaqil davlatlar muayyan o'zaro maqsadlarga erishish uchun tuzgan doimiy uyushmadir.*

Forobiy fikricha, davlat jamiyatning tayanchidir. U jamiyatning mukammalligi va mukammal emasligi haqidagi g'oyaga tayanadi. mukammallik "...shunday davlat vositasida qo'lga kiritiladiki, u ezu an'analari, odamlar va yaxshi axloqni targ'atga olin" va jamiyatda bu xislatlarni barqaror etga olin. Bunday davlat bo'lmasa forzila, ezu xislatlar odamlarda uzoq saqlanmaydi va barqaror bo'lmaydi. Forobiy nazarda tungan davlat, mustabidlikka emas, balki tiklanish va faoliyatida xalqning istak va irodasi bevosita rol o'ynaydigan davlatdir. Xalq irodasiga asoslanmagan davlat ideal davlat emas. Demak, davlat – jamiyatning tayanchi, xalqning irodasi va xohishi uning shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Hozirgi davlatlarning aksariyati o'z faoliyatini konstitutsiyaga muvofiq amalga oshiradi. *Konstitutsiya – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum asoslarini, fuqarolarning huquqlari va burchlarini, asosiy davlat organlarini tartib topirish mexanizmini va ularning faoliyat tamoyillarini, saylov tizimini asoslari va hokazolarni mustahkamlovchi davlatning asosiy qonuni.* Konstitutsiya boshqaruv va davlat qurilishi shaklini belgilaydi.

Huquqiy davlatda konstitutsiya nafaqat fuqarolar va davlatning o'zaro munosabatlari tartibga soluvchi normalarni, shaxs huquqlari va erkinliklarini belgilaydi, balki hokimiyatni cheklaydi. Konstitutsiyada inson huquqlarining davlat qonunlaridan ustunligi mustahkamlanadi. Huquqiy davlat rivojlangan fuqarolik jamiyati mavjudligi bilan tavsiflanadi. Har bir individning ekinligi huquq odamlarining ekinligi va huquqlari bilan cheklanadi. Qonunning ustunligi va huquqning umumiyligi, hokimiyat, qonunchilik, ijro va sud tarmoqlariga bo'linishi huquqiy davlatning muhim belgilari hisoblanadi.

Siyosiy tizim mamlakatning siyosiy hayotida ishtirok etuvchi turli-tuman partiyalar, harakatlar, tashkilotlar, institutlar, diniy muassasalar va ta'sir guruhlari majmuni ham o'z ichiga oladi. Siyosiy tashkilotlar davlat tuzilmalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'z faoliyati dasturlarini belgilaydi, ijtimoiy birliklar va guruhlarining manfaatlarini tegishli shiorlar, ijtimoiy loyihalarda ifoda etadi va ularni amalga oshirishda qonuniy vositalar bilan ishtirok etadi. Ularning faoliyati o'z guruhlarining o'zgalarning manfaatlariga zid bo'lgan yoki ularni kamshiladigan manfaatlarini ro'yobga chiqarish zaruriyati bilan belgilanadi. Shu sababli partiyalar va harakatlar hokimiyat obro'siga tayanadi. Hokimiyatning aralashuvi ziddiyatlarni tartibga solish, manfaatlarni muvofiqqlashtirishga ko'muklashadi.

Siyosat. Jamiyatni boshqarishni amalga oshiruvchi davlat faoliyati va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va muassasalarning o'z ijtimoiy muhim manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun xalq hokimiyati institutlaridan foydalanish borasidagi faoliyatni siyosat sohasini tashkil qiladi. Davlat siyosatining asosiy vazifasi – jamiyatning yaxitligini ta'minlash, aholini jipslashtirish, qarama-qarshi manfaatlarni ilgari suruvchi ijtimoiy birliklar va guruhlarining munosabatlariini oqionalashtirish, mazkur vazifalarni hal qilish uchun huquqdan foydalanishdir. Davlat jamiyatning xo'jalik, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jabhalarini mazkur jamiyat normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan darajada tartibga soladi.

Partiyalar va harakatlar siyosatining asosiy vazifasi – xalq hokimiyati institutlariga izchil ta'sir ko'rsatishdir. O'z siyosati bilan ular hokimiyat tuzilmasini yaratishda ishtirok etadilar, ularni qo'llab-quvvatlaydilar yoki vayron qiladilar. Jamiyat rivojlanishining inqirozli davrlarida siyosatning asosiy vazifasi – hokimiyat uchun kurashish va uni turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida taqsimlashdan iborat. Shunday qilib, siyosat boshqaruvchilar va boshqariluvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqa shakli sifatida amal qiladi. Davlat va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyati huquq bilan, shuningdek jamiyada hukm suruvchi odatlar va an'analar bilan tartibga solinadi.

Siyosat – ongli yoki stixiyali harakatlar sohasi. U ijtimoiy guruhlar o'z manfaatlarini, hokimiyat esa – o'z siyosiy vazifasini anglab etishini nazarda tutadi. Siyosiy jarayon mazmuni va yo'nalishi asosan fuqarolarning siyosiy mentaliteti bilan belgilanadi. Shu sababli siyosiy ong siyosiy tizimning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U fuqarolarning hokimiyat institutlari bir-biri bilan jamiyat va davlatni boshqarishda o'z ishtirokiga doir aloqalari haqidagi hissiy va oqilona, qadriyatlarga doir va normativ, oqilona va intuitiv tasavvurlarini qamrab oladi. U fuqaro o'zining muayyan guruhga mansubligini va bundan kelib chiqadigan manfaatlarini anglab etishini, hokimiyatga, o'z fuqarolik maqomiga, o'z huquqlari, erkinliklari va burchlariga nisbatan siyosiy nuqtai nazarini anglab etishini nazarda tutadi. *Siyosiy ong ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini va ularning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari tizimidagi ahamiyatini anglash sifatida maqfurani o'z ichiga oladi.* Siyosiy malkura nazariy, dasturiy-siyosiy va empirik darajalardan tarkib topadi. Xususan, empirik daraja jamiyatning ayrim guruhlari siyosiy dasturlarni qay darajada o'zlashtirganini tavsiflaydi. *Siyosiy psixologiya siyosiy ong elementi sifatida ommaning siyosiy xulq-atvorini, ularning kayfiyati, mo'ljallari va odatlarini tavsiflaydi.* Ijtimoiy guruhlarining siyosiy psixologiyasi ommaning siyosiy xulq-atvorida onglik va stixiyalikning, oqilona va nooqilona harakatlarning o'zaro nisbati bilan ajralib turadi.

Siyosiy ong ommaning siyosiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U stixiyali tarzda shakllanishi ham, izchil shakllanishi ham mumkin. Shu sababli

davlat o'z vazifalariga mos keladigan siyosiy ong shakllanishidan manfaatdor. Siyosiy onging shakllanishida ommaviy axborot vositalari ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Ular «to'rtinchi hokimiyat» deb nomlanishi bejiz emas.

Kommunikatsiya – siyosiy tizimning zaruriy elementi. U, birinchidan, siyosiy tizim institutlari o'rtasidagi aloqa vositalarini, ikkinchidan, hukumatga axborot uzatish yo'llarini, uchinchidan, ommaviy axborot vositalarini o'z ichiga oladi. Mazkur axborot tizimlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Ommaviy axborot vositalari nafaqat aholiga axborot beradi, balki hokimiyat vakillari, partiyalar va harakatlarning u yoki bu siyosiy bayonotlarini sharhlaydi, ularga baho beradi, informatsion materiallarni tegishli tarzda saralaydi, fuqarolarning kayfiyati va siyosiy mo'ljallarini shakllantiradi. Umuman olganda siyosiy tizim ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. U o'z vazifalarini bajarish uchun nafaqat o'zining huquq va davlat majburiyati institutlaridan foydalanadi, balki jamiyatda vujudga kelgan qadriyatlar va me'yorlar tizimiga tayana-digan va o'z fuqarolarining siyosiy va huquqiy ongini shakllantiradigan ishonitish vositalarini ham ishga soladi.

Ijtimoiy hayotning asoslari. Jamiyatning yuqorida sanab o'tilgan kichik tizimlari o'ziga xos vazifalarni bajaradi va bir-biri bilan aloqa qiladi. Shu o'rinda mavol tug'iladi: ularning o'rtasida belgilovchi va belgilanuvchi muayyan ierarxiya mavjudmi? Axir jamiyat – yaxlit tuzilma va har bir mamlakat betakror tarzda o'ziga xos, o'zining betakror tarixi va madaniyatiga ega. Bu tarqoq ijtimoiy kichik tizimlarni muayyan birlikka birlashtiradigan omillar mavjudligini nazarda tutadi. Markscha falsafa nuqtai nazaridan moddiy ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkdorlik shakllariga asoslanadigan ishlab chiqarish munosabatlari tizim tashkil etuvchi omil sifatida qaraladi. Hozirgi vaqtda o'zbekdagi texnokratik oqim faylasuflari jamiyatning rivojlanish darajasini belgilovchi asos sifatida texnikaning rolini mulqashladi. Hozirgi zamon falsafasida etakchilik qiladigan qarashga muvofiq jamiyatning yaxlit tavsifi mavulizatsiya va madaniyat tushunchalarida beriladi.

Fuqarolik jamiyati, davlat, demokratiya. Hozirgi zamon jamiyati o'la murakkab va faol ijtimoiy tizimdir. Umuman olganda, uni quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan jamiyat sifatida tavsiflash mumkin:

- u spontan tarzda vujudga keladi va biron-bir boshlang'ich g'oyani o'zida mujassamlashtirmaydi, jamiyatning barcha a'zolari uchun muqarrar bo'lgan olamshumul maqsadga ega bo'lmaydi;
 - u o'z hayotining barcha tomonlarini yagona markazdan nazorat qilmaydi;
 - unda muvofiqlashtirishga muayyan umumiy maqsad va yagona markazga bo'ysunish hisobiga emas, balki xulq-atvor umumiy qoidalariga rioya etish hisobiga erishiladi;
 - mazkur jamiyatning iqtisodiy asosi xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik, markazlashtirishdan chiqarilgan bozor tizimi va raqobatdir;
 - uning individlari erkin va mustaqil bo'lib, qonun bilan muhofaza etiladigan shaxsiy hayot sohasiga egadirlar, bu hayot doirasida ular o'zlari istagan har qanday qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilishga haqlidirlar;
 - individlilar shak-shubhasiz va uzviy fundamental huquqlar va erkinliklarga, shu jumladan fikrlash va so'z erkinligi, uyushmalar va tashkilotlar tuzish erkinligi, vijdon erkinligi, bir joydan boshqa joyga ko'chib yurish erkinligi, o'zi istiqomat qiladigan mamlakatni tanlash erkinligiga egadirlar;
 - bu ko'ppartiyaviy jamiyat bo'lib, unda siyosiy partiyalar hech qanday bevosita ommaviy-hokimiyat vakolatlariga ega emaslar;
 - davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakillik organlari aholi tomonidan saylanadi;
 - hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari bir-biridan ajratilgan.
- Zamonaviy jamiyatning umumiy tavsifida quyidagi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi: fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, ko'ppartiyavilik, demokratiya, hokimiyatning bo'linishi, xususiy mulk, bozor, shaxs erkinligi va suvereniteti.

Fuqarolik jamiyati – davlat hokimiyati organlarining to'g'ridan-to'g'ri orolashuvidan qonunlar bilan muhofaza etilgan ixtiyoriy uyushmalar va tashkilotlar majmui.

Zamonaviy jamiyada davlat odamlarning shaxsiy hayotiga aralashmaydi, ularni yagona matkura va qadriyatlar yagona tizimini qabul qilishga majburlamaydi. Kishilarning rang-barang manfaatlari ularning hamkorlikdagi harakatlari orqali to'yobga chiqariladi, bunga erishish uchun ular davlat oldida hisobdor bo'lmagan ixtiyoriy birlashmalar va uyushmalarga birlashadilar. Odamlarning manfaatlarini aks ettiradigan nodavlat, nohukumat tashkilotlari fuqarolik jamiyatini tashkil etadi. Ular rasmiy statistikaga kirmaydi va ularning faoliyati yuritish ancha qiyin ish. Chunonchi, ayrim mamlukatlarga ko'ra, AQSHda yuz minglab bunday tashkilotlar faoliyati 25 mingdan ortiq xayriya fondlaridan mablag' bilan ta'minlanadi. Norvegiyada bu mamlakat fuqarosi hisoblangan har olti kishidan biriga bitta nohukumat tashkiloti to'g'ri keladi.

XIX asr fransuz sosiologi A.de Tokvil Amerikada demokratiyani qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy sharoitlar to'g'risida mulohaza yuritlar ekan, amerikaliklarning fuqarolik va siyosiy tashkilotlar tuzishga bo'lgan moyilligiga alohida e'tiborni qaratgan: «Turli yosh, mavqe va qiziqishlarga ega bo'lgan amerikaliklar turli xil uyushmalarga ixtiyoriy ravishda birlashadilar. Bular tijorat yoki ishlash chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan, amerikaliklarning barchasi ishtirok etadigan birlashmalargina emas, balki boshqa xil turdagi minglab birlashmalar: diniy-ma'naviy uyushmalar, jiddiy va ahamiyatsiz, ochiq va berk, ko'p kishilik va atigi bir nechta a'zodan iborat birlashmalardir... Shunday qilib, odamlar o'zlarining umumiy xohish-istaklariga muvofiq bo'lgan maqsadga bahamjihat erishish san'atida oliy barkamollikka erishdilar va jamoa harakatining mazkur usulini boshqalarga qaraganda ko'proq qo'llay boshladilar».¹

Fuqarolarning birlashmalari o'z a'zolarida hamkorlik, hamjihatlik va jamiyatga sadoqat tuyg'ulari rivojlanishiga ko'maklashadi. Keng maqsadli faoliyatga ixtiyoriy qo'shiladigan individlilar nafaqat hamjihatlik ko'nikmalarini va

¹ A.de Tokvil. *L'homme et le citoyen*. – M.: 2003. – S.45.

kollektiv harakatlar uchun fuqarolik mas'uliyati hissiini kash etadilar, balki o'zini o'zi boshqarish, sabr-toqatlilikni va boshqalar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar.

Davlat doim fuqarolar hayotining barcha tomonlarini o'z nazorati ostiga olishga, ularning tartibga solinmagan faoliyati doirasini toraytirishga, ularni bir-biridan ajratish va tarqatishga harakat qiladi. Fuqarolik jamiyati davlatga o'z faoliyat sohasini kengaytirish va uni kishilarning axloqiy, ma'naviy, diniy, milliy va boshqa munosabatlariga tatbiq etishga yo'l qo'ymaydi. Davlat fuqarolik jamiyatini «yutib yuborishi» totalitarizmga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir.

Fuqarolik jamiyati davlatga muhtasir ta'sir ko'rsatadi. Bu shunday bir ta'sirki, usiz davlat o'z vakolatlari doirasini toraytirishga hech qachon bormagan bo'lar edi. Davlatga fuqarolik jamiyati ta'sirining bosh mexanizmi demokratiya (yunon. «demos» - xalq va «kratos» - hokimiyat) – vaqti-vaqti bilan boshqariluvchilar boshqaruvchilarga o'z hukmini o'tkazishidir. Davlat va fuqarolik jamiyatining bu qarama-qarshiligi va ayni vaqtda o'zaro bog'liqligi erkinlikning muhim shartidir.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining shakllanishi demokratik o'zgarishlarning negizidir. Kishilarni ijtimoiy tartibni ixtiyoriy ravishda, cho'chimasdan qabul qilishga majbur etadigan sharoitlar faqat fuqarolik jamiyatida mavjuddir.

Siyosiy erkinlik – fuqaroning davlatni boshqarishda ishtirok etish huquqi. Bu erkinlik faqat demokratiya sharoitida, ya'ni hamma o'z xohish-irodasini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lgan sharoitlarda ro'yobga chiqarilishi mumkin. «Formal demokratiya, ya'ni erkin, teng huquqli va yashirin ovoz berish huquqi erkinlikning kafolati emas, balki aksincha, unga tahdididir»¹, deb yozadi K. Yaspers.

Demokratiya mexanizmi samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy shartlaridan biri qonunga zid aralashuvlardan muhofaza etilgan barqaror fuqarolik jamiyatining mavjudligidir. Shunday shartlardan yana biri huquqiy davlat – qonunlar faqat huquqiy yo'l bilan qabul qilinadigan va hammaga teng tatbiq etiladigan davlatdir.

Hunday davlat insonni zo'ravonlikdan himoya qilish orqali unga o'z qarashlari va xohish-irodasini ifoda etish yoki demokratiya uchun imkoniyat yaratadi.

Demokratiya ochiq va hech narsa bilan cheklangan bahs-munozara imkoniyatini nazarda tutadi. Bunga erishish uchun matbuot, yig'ilishlar, so'z erkinligi talab etiladi. Demokratiya siyosiy partiyalar mavjudligini ham talab qiladi.

Demokratiyaning samardorligini ta'minlashning yana bir muhim sharti jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yuksak darajasiga erishishdir. So'nggi ikki yuz yillik mobaynida sanoat inqilobi g'arb jamiyati hayotining muhim omiliga aylandi. U shahar aholisi sezilarli darajada o'sishiga, sinfiy tuzilishning o'zgarishiga, hayot andozalari, ta'lim va sog'liqni saqlash sezilarli darajada yuksalishiga olib keldi.

Demokratiya siyosatni iqtisoddan va dunyoqarashga oid muammolardan ajratilini, hokimiyatning bo'linishini, samarali faoliyat olib boradigan sud tizimini talab qiladi.

Demokratiya erkin jamiyat qo'lida samarali qurol bo'lib qolishini belgilaydigan omillar ro'yxati u doim muayyan ijtimoiy kontekstida amalga oshirilishini va hokimiyatni saylovda g'alaba qozongan ko'pchilikka beradigan umumiy saylov huquqidangina iborat emasligini ko'rsatadi.

Sivilizatsiya. Sivilizatsiya (lot. civilis – fuqarolik, davlatga doir) atamasi har qanday ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, *sivilizatsiya* – insoniyat rivojlanishida *varvarlikdan keyin boshlangan va sinflar, davlat vujudga kelishi, urbanizatsiya va yozuv paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan tarixiy bosqich.* Mazkur talqinda «sivilizatsiya» atamasi «jamiyad» tushunchasi bilan qisman mos keladi va jamiyat hayotini tashkil etishning ijtimoiy shaklini tabiiy vujudga kelgan urug'doshlik shakllariga qarama-qarshi qo'yishga xizmat qiladi. Hozirgi adabiyotlarda «sivilizatsiya» atamasi o'zining varvarlikka qarama-qarshi sifatidagi dastlabki ma'nosini saqlab qolmoqda.

¹ Yaspers K. Smgsl i naznacheniye istorii. – M.: 1991. – S. 124.

Ikinchidan, *sivilizatsiya* – barcha madaniyatlار yaxlitligining tavsifi, ularning umuminsoniy birligi sifatida («jahon sivilizatsiyasi», «ma'rifatli hayot tarzi» va sh.k.) hamoyon bo'lad.

Uchinchidan, sivilizatsiya – «moddiy madaniyat» atamasining sinonimi sifatida: qulay narsa, texnika yaratadigan qulaylik (turar joy, ro'zg'or texnikasi, transport va aloqa, xizmatlar ko'rsatish va sh.k.)ni ifodalaydi.

To'rtinchidan, sivilizatsiya – tarixiy jarayon birligining tavsifi sifatida xarakterlanadi. Bu tushuncha ijtimoiy boylik rivojlanishi munosabati bilan tarixning muayyan bosqichlariga qiyosiy baho berish mezonini bo'lib xizmat qiladi. Ayni holda jamiyatning rivojlanishi «ma'rifatlilik», «sivilizatsiya rivojlanishining quyi bosqichi», «sivilizatsiyaning umumiy darajasi», «sivilizatsiyaning oraliq bosqichlari» tushunchalari bilan tavsiflanadi. Ammo sivilizatsiyaning mazkur talqini to'liq emas, chunki uning rivojlanish darajasi yoki bosqichini aniqlash imkonini beradigan mezon yo'q.

Ibn Xaldun (1332-1406) o'z davrida birinchi bo'lib, sivilizatsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va tanazzuli haqida ilmiy asossizlangan g'oyalarni ilgari suradi. Jumladan madaniyatlار va davlatlarning paydo bo'lishi, yashashi va inqirozi muayyan tarixiy qonuniyat ekanligini, unga tabiiy geografik va iqtisodiy omillar, turmush tarzi va dunyoqarashlar jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aytadi.

XVIII asr o'rtalarida sivilizatsiya tushunchasidan inson «tabiiy» holatining ziddi sifatida foydalanilgan, sivilizatsiya taraqqiyotining mezonini sifatida esa ijtimoiy farovonlik g'oyasi turli ko'rinishlarda ilgari surilgan. Kant sivilizatsiya va madaniyat o'rtasida farq mavjudligini qayd etgan. SHpengler sivilizatsiyaning madaniyatning rivojlanishidagi bir bosqich sifatida tavsiflab, bu farqni mulqashirgan. Uning (keyinchalik P.Sorokin, A.Toyrbi va boshqa mutafakkirlarning) konsepsiyasida sivilizatsiya madaniyatning zavol topish bosqichi sifatida, madaniyatda mujassamlashgan tabiiy-hayotiy asosni siqib chiqaradigan texnik-mexanik elementlar saltanati sifatida tavsiflanadi.

XIX-XX asrlarda amalga oshirilgan etnografik tadqiqotlar sivilizatsiyaning mazmunini tushunishga muhim hissa qo'shdi. Ular turli xalqlar ma'naviy dunyosi, hayoti, odatlari, iqtisodiyoti va madaniyatining ulkan boyligi va rang-barangligini yoritib berdi. XIX asrning mashhur etnograflaridan biri CH.Teylor madaniyat va sivilizatsiya odamlar tarixi jarayonida o'zlashtiradigan bilimlar, e'tiqodlar, ma'naviy-atloqiy konsepsiyalar, yuridik qoidalar, odatlar va amaliy ko'nikmalar muqimotini ifodalaydi deb hisoblab, bu tushunchalar ayniydir degan xulosaga keldi.

I.A. Karimov "Har qanday sivilizatsiya ko'pdan ko'p xalqlar, millatlar, elmlar faoliyatining va samarali tarqirining mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda ko'chmonchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi"¹ deb ta'kidlaydi.

Sivilizatsiya odamlar mavjudligi va ijtimoiyligining xususiyati va yo'nalishini belgilaydi. Ijtimoiy normalarning muhimligi ularni uzatishning tegishli usullari (kommunikatsiya vositalari)ni va ularni mustahkamlovchi institutlarni shakllantirishni taqozo etgan. Har bir sivilizatsiya ijtimoiy normalarda o'ziga xos ifodasini topgan ijtimoiy tajribani aniqlash, saqlash va avlodlardan avlodga qoldirish alohida tizimini yaratgan. Jazolar tizimi, shuningdek jamoa, ommaviy ong shakli sifatida din va uning nomidan ish ko'ruvchi ijtimoiy institutlar ijtimoiy normalarni saqlash va ijro etish kaffi hisoblangan. Din va ehtokov ta'sirida sivilizatsiya qiyofa kasb etgan. Huquqiy normalarning tarmoqlangan tizimini o'z ichiga olgan davlatdan iborat oliy hokimiyat sivilizatsiyaning uni saqlashni kafolatlaydigan oliy birlashtiruvchi asos sifatida amal qilgan. Turli sivilizatsiyalar davlat hokimiyatining turli: teokratik, tabaqaviy, huquqiy, siyosiy tizimlarini yaratgan.

Markaziy Osiyoda sivilizatsiya axloq shaklida yuzaga kelgan. U o'zida yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat o'rtasidagi kurashda yaxshilik va muhabbat g'alabasi bilan bog'liq ma'naviy axloqiy me'yorlarni mujassamlashtirgan. Inson mohiyatida aks etuvchi bu me'yorlar sharq sivilizatsiyasining asosini tashkil qilgan.

¹ Karimov I.A. Turmush ko'tirish kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998. -B.21.

Ijtimoiy munosabatlar, odamlar faoliyati va xulq-atvorini tartibga soluvchi normalar universal tizimining ta'sirini o'rganish sivilizatsiyalarning rang-barangligini tushuntirish imkonini beradi. Ular, birinchidan, hukmron diniy va dunyovqarashga doir mo'ljallarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayondagi o'rni bilan; ikkinchidan, ularning texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan; uchinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar sur'ati, shuningdek ularning manbalari, mexanizmlari xususiyati va uyg'unlik darajasi bilan farq qiladi. Sivilizatsiyaning har bir tipi siyosiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari va o'z huquqiy qoidalarining xususiyati bilan tavsiflanadi. Sivilizatsiyalar axborotni kodlashirish, saqlash va avloddan-avlodga qoldirish usullari bilan ham bir-biridan farq qiladi.

Jamiyatning sivilizatsion asoslari sivilizatsiyalar tipologiyasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Bunda sivilizatsiyalarning evropacha va noevropacha tiplarini farqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu farqlar shu darajada kattiki, evropacha sivilizatsiya qadriyatlari uzoq vaqt oliy qadriyatlar sifatida tavsiflangan. Xo'sh, evropacha va noevropacha sivilizatsiyalar o'rtasidagi farq nimada?

Sivilizatsiyalarning tiplari. Noevropacha sivilizatsiyalar ancha katta guruhni tashkil etadi (A.Toytni tasnifiga ko'ra, bunday sivilizatsiyalar 21 ta). Bu sivilizatsiyalarning aksariyati betakror tarzda o'ziga xos va ayni vaqtda umumiy tipologik jihatlarga ega. Bular evropacha sivilizatsiyadan ancha oldin vujudga kelgan an'anaviy sivilizatsiyalardir. An'anaviy jamiyat juda sust rivojlanadi va mavjud hayot tarzini asrlar va hatto ming yilliklar osha saqlashga qodir. Noevropacha sivilizatsiyalarning xo'jalik faoliyati qishloq xo'jalik-hunarmandchilik ishlab chiqarishi va texnologiyasining hukmronligiga asoslanadi. An'anaviy sivilizatsiyaning ma'naviy sohasida diniy-mifologik tasavvurlar hukm suradi, ilmiy bilimlarning dastlabki shakllari asosan mavjud faoliyat turlari uchun reseptura vazifasini bajaradi. Noevropacha sivilizatsiyalar evolyusiyasi siklliligi va o'ziga xos institutlar va normalarga ega bo'lgan davlat vaqti-vaqti bilan dam kuchayib, dam zaiflashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunday jamiyat halokati

shakllanishga tiptan o'zgartirmaydi, u ijtimoiy vorisiylik mexanizmlari yordamida avloddan-avlodga o'tadi.

Evropacha sivilizatsiya ijtimoiy va madaniy rivojlanishning alohida tipi bo'lib, u Evropada taxminan XV-XVII asrlarda shakllangan. Uning o'ziga xos xususiyatlari antik dunyo madaniyatlari va Evropa xristiancha an'anasidir. Iqtisodiy va uning texnika va texnologiya jadal sur'atlarda rivojlanishini, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar tubdan o'zgarishini ta'minlagan madaniyatini shakllantirdi. Uning zamirida huquqiy davlatning vujudga kelishi, shaxs o'z iqtisodiy faolligi va mustaqilligi bilan oliy qadriyat sifatida ijtimoiy hayot muqaddasligi, faolligi va mustaqilligi bilan oliy qadriyat sifatida ijtimoiy hayot muqaddasligi o'rin olishi yotadi. Odamlar o'rtasida muloqotning faollashuvi va samarali kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi texnologen sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Madaniyatda ilmiy oqionalik alohida o'ziga xos qadriyat sifatida hukm suradi. Inson tabiatini faol va oqilona tarzda o'zgartirishga imkoniyat yaratgan qonunlarning kashf etilishi fanining ustunligini ta'kidlovchi. Unda yangilik va unumdorlik, biluvchi sub'ektning bilimi, erkinligi va mustaqilligini tinimsiz oshirish talablari shakllanadi.

Sivilizatsiyaning «evropacha» va «noevropacha» tiplari tushunchalari umumiy, muhim, jins bildiruvchi belgilarni qamrab oladi. Mazkur tiplar doirasida mavjud turga oid farqlar pirovard natijada jahon tarixida evropacha sivilizatsiyaning betakrorligini e'tirof etish bilan bog'liq. Ayrim mutaxassislar ularni ko'ra, u an'anaviy jamiyat madaniyatining mutatsiyasi natijasida vujudga kelgan va insoniyat tarixida uning o'xshashi mavjud emas. Shunga qaramay sivilizatsiyalar tipologiyasi evropacha va noevropacha rivojlanish xususiyatlari bilan cheklangmadi, chunki insoniyat tarixida ozmi-ko'pmi o'xshash bo'lgan ko'p an'anaviy sivilizatsiyalar mavjud.

Jumladan, madaniy-tarixiy birlik belgisiga ko'ra G'arbiy, Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Evropa mamlakatlarini, shuningdek evropacha sivilizatsiyaga mansub bo'lgan, lekin o'z madaniyatining xususiyatiga ko'ra farq qiladigan AQSH va Kambodja farqlash mumkin.

Vujudga kelish va halok bo'lish davriga ko'ra hozirgi zamon sivilizatsiyalari va o'lk sivilizatsiyalar (masalan, meksika, xaldeylar yoki qadimgi somiyalar sivilizatsiyasi) farqlanadi.

Sivilizatsiyalar tipologiyasida madaniy-diniy birlik belgisi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. A.Toyrbi, S.Xanington va boshqa olimlar taklif qilgan sivilizatsiyalar tasnifida diniy omil muhim rol o'ynaydi. A.Toyrbi tasnifga ko'ra hozirgi vaqtda G'arb-xristian, pravoslav-xristian, islom, hind, Uzoq Sharq sivilizatsiyalari mavjud.

O.Toffler, D.Bell, K.Pekka ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini tasniflash uchun asos qilib olib, quyidagi sivilizatsiyalarni farqlaydilar:

- ilk sivilizatsiya (arxalk, an'anaviy yoki ibtidoiy jamoa);
- qishloq xo'jalik-hunarmandchilik sivilizatsiyasi;
- industrial (sanoalashtgan) sivilizatsiya;
- hozirgi postindustrial yoki informatsion sivilizatsiya.

Ijtimoiy-siyosiy hayot xususiyatiga ko'ra an'anaviy, liberal va oraliq sivilizatsiyalar farqlanadi.

Liberal sivilizatsiya yoki G'arb sivilizatsiyasi madaniy va siyosiy pluralizm hamda jamiyatning asosiy qadriyati – huquq tizimining vujudga kelishi bilan bog'liq. Uning iqtisodiy xususiy mulk va erkin bozor hukm surgan davrda vujudga kelgan antik sivilizatsiyaga borib taqaladi. O'z navbatida, bozor va xususiy mulk individ uchun kafolatlarni, mulkdor imtiyozlarini, mulkdorlar guruhining ma'muriyatan ustunligini, shaxs erkinligi va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish tamoyillarini o'z ichiga olgan huquqiy tamoyillar va institutlar tizimi vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

An'anaviy sivilizatsiyalar ijtimoiy hayotining varvarlikka chek qo'yish bilan bog'liq dastlabki shakllardan iborat. Bular barcha a'zolari bevosita emosional mulqot jarayonida bo'lgan nisbatan kichkina lokal hamjamiyatlardir. Ular jamoa qadriyatlarining ustunligi, qabila oqsoqollariga nisbatan hurmat, o'tmishga qarab mo'ljall olishga asoslangan. An'anaviy sivilizatsiyaning o'ziga xos jihatlari – past malakali, lekin ancha keng byurokratiyaga tayanuvchi jabr-zulmga asoslangan

hukmroniyat, tabiqaqatlamning huquqsizligi, jamoaviy tuzilma, huquqning notarasligi, iqtisodiy kamaltilishi kabiylardir.

Oraliq sivilizatsiya yoki o'tish davri sivilizatsiyasi ulkan inshootlar (pyramidalar, konalar va sh.k.) barpo etish, yangi hududlarni bosib olish yoki o'z hududlari tashqi dushmanlardan himoya qilish (masalan, Buyuk Xitoy devori) tamoyillarini tugayli vujudga keladi. Natijada an'analari va qadriyatlariga ko'ra har bir lokal hamjamiyatlarining mexanik birlashuvi yuz beradi. Mazkur birlashuv faqatgina ma'muriyat kasb etadi va idrok etish ancha qiyin bo'lgan normativ-huquqiy qatlamga muvofiq va jamiyatni tashkil etishning lokal hamjamiyatlar ko'nikkan hayot tarziga zid bo'lgan shakllarida amalga oshiriladi. Aksariyat hollarda jamiyatni birlashtirish vazifasi davlat tomonidan va asosan kuch ishlatish yo'li bilan hal qilinadi. Ayni shu sababli normalar tizimi asosan birlashtiruvchi normalarni o'z ichiga oladi. Davlat ehtiyojlarini aks ettiradi. Bundan o'tish davri sivilizatsiyalariga xos bo'lgan huquqiy nigilizm kelib chiqadi. Davlat qadriyatlarini va lokal hamjamiyatlarining qadriyatlarini asosan bir-biriga zid bo'lgani bois ularning o'rtasida to'qnashuv yuz berishi mumkin. Qat'iy davlat intizomi, ko'p sonli qo'llar to'lash, amaldorlarning o'zbo'shimchaligi, rekrut majburiyati, aholilarda ixtirok etish zaruriyati kabi davlatning bu talablari aholining aksariyat qisminida notozilik uyg'oladi.

Shunday qilib, jamiyatning muhim xususiyatlari ijtimoiy hayotni tashkil etishning keng ko'lamli shakli sanalgan sivilizatsiyaga asoslanadi. Sivilizatsiyalar vaqtda va makonda o'ta barqaror bo'ladi, individlar va ijtimoiy guruhlarining aloqalarini tartibga soladigan va jamiyatning moddiy asoslarini ham, ma'naviy asoslarini ham belgilaydigan umumiy normalarga asoslanadi. Ular madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning umumiy shakllarini yaratib, jamiyat hayotining tizim tashkil etadigan muhim asosi sifatida amal qiladi. Sivilizatsiya – aholilarda yaratilgan ta'minlovchi tarixiy tajriba manbadir.

Sivilizatsiya ijtimoiy hayotning barcha omillarini: madaniyat va ma'muriyatlashkoni, yutuqlar va kamchiliklarni o'zida birlashtiradi. Ma'lumki, jamiyat rivojlanishiga qarab uning normalari eskirib boradi. Ular mazkur

sotsiuning o'zgargan yashash sharoitlari bilan to'qnashib, uning mavjudligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid soladi. Ammo muhim shundaki, normalar o'z holidan jamiyatning saqlanishini kafolatlamaydi, ular mazkur normalarga amal qilishga, ulardan o'z faoliyatida foydalanishga, ularni o'ziga xos tarzda talqin qilishga qodir bo'lgan odamlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu sababli madaniyat sivilizatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Madaniyat, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari. Madaniyat tushunchasiga turli lug'atlarda, faylasuflar va olimlarning asarlarida berilgan ta'riflarni taqqoslasak, ularning o'rtasida jiddiy farq mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bu tasodifiy bir hol emas. Madaniyat – shaxs va jamiyat hayotining barcha jahlalarini qamrab oluvchi o'ta serqirra hodisa. Madaniyat nima, degan savolga javob topish u qay tarzda vujudga kelgan va turli, ayrim jihatlarga ko'ra esa bir-biriga zid madaniyatlarning mavjudlik sababi nimada, degan savollarga javobni ham nazarda tutadi.

«Madaniyat» atamasi arabcha «madina» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «shahar» degan ma'noni anglatadi. Arablar kishilar hayotini ikki turga ajratib, birini badaviy yoki sahroyi tumush, ikkinchisini madaniy tumush deb ataganlar. Tugab borayotgan Rim imperiyasida, keyinchalik esa O'rta asrlarda ham madaniyat tushunchasi shahardagi tumush tarzi va sivilizatsiya ne'matlari bilan bog'langan.

Markaziy Osiyoda madaniyat axloq ko'rinishida shakllangan. Shu bois, eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha ham yurtimizda ma'naviy madaniyat, go'zallikka intilish, san'atni qadrlash kabilar ustuvorlik qiladi. Uyg'onish davrida madaniyat shaxsiy barkamollik belgisi sifatida qaralgan. Shu davrda madaniyatni ma'naviy faoliyatning turli sohalarini vujudga kelayotgan fan, axloq, san'at, falsafa, din bilan bog'lash odati paydo bo'lgan. Madaniyat xulq-atvor andozalari majmui sifatida, ma'naviy faoliyat antik an'anasining davomi sifatida e'tirof etilgan. Shu ma'noda madaniyat tushunchasi ijtimoiy-ilmiy muomaladan o'rin olgan XVIII asrgacha amal qilgan.

Ma'rifat davri faylasuflari madaniyatga inson faoliyatining alohida mustaqil va o'ziga xos jahlasi sifatida qaraydilar. Ularning talqinida jamiyat va shaxs faoliyatining barcha sohalarida aql, oqilonalik tamoyillarining qaror topishi madaniyatning eng muhim jihati. Aqlning vazifasi insoniyat oldiga umumiy shahsiyatga ega bo'lgan maqsadlarni qo'yish va ijtimoiy o'zgarishlarni o'ziga ko'rsatishdan iborat. Ma'rifat davrida madaniyat deb hisoblash mumkin bo'lgan narsalarni saralash mezonlari yaratildi. Madaniy faoliyat intellektual, ijodiy, san'at, novatorlik ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi, ya'ni nafaqat yaratishi, balki inson imkoniyatlari sohasini unimsiz kengaytirishi lozim edi. Ammo madaniyatning asl mohiyati, uning o'ziga xosligi inson aqlining mutlaq erkinligi atfildagi ma'naviy faoliyat doirasi bilangina cheklanardi.

Kant ko'nikma madaniyatini va intzom madaniyatini farqlaydi. Ko'nikma maqsadlarga erishish qobiliyatini, intzom esa – oqilona maqsadlar qo'yish va inson inodasini oqilona yo'l tanlash imkoniyatidan mahrum qiladigan mayllar to'qnashidan xalos etishni nazarda tutadi. Kant madaniyat tushunchasini fan va san'at doirasi bilan cheklaydi. Fanda aql-idrokning qonunchilik kuchi, san'atda – insonning mahsuldor kuchi jamlanadi. Ular ob'ektiv bilim va sub'ektiv sezgi kabi bir-biriga ziddir. Shunga qaramay Kant fan va san'at munosabatlariga bir-birini to'ldiruvchi munosabatlar sifatida qaraydi.

XIX asrda madaniyatga avvalo u yoki bu tipdagi jamiyat hayoti va uning o'z-o'zini ta'kidlovchi e'tishidagi rolga ko'ra farqlanadigan qadriyatlar va g'oyalar tizimi sifatida yondashila boshlandi. Gegel madaniyatga mutlaq g'oya o'z-o'zini anglab e'tishning boshlang'ich va yakunlovchi (falsafa) bo'g'ini sifatida qaraydi. Gegelning bu nazariyasi XIX-XX asrlarning madaniyatga doir bir qator konsepsiyalarida tanqid qilinadi. Jumladan, «lokal sivilizatsiyalar» konsepsiyasida shpenglert xalqlar madaniyatiga o'z rivojlanish jarayonida vujudga kelish, ravnaq topish, tuzatishga uchrash va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadigan berik, bekor organizmlar sifatida qaraydi. Shpenglert tarixiy jarayonning o'ziga xos o'zgarishlari dastlabdan madaniyatlarining ko'p sonligi g'oyasini keltirib chiqardi.

XX asrda madaniyatni o'rganish asosan etnografiya va ijtimoiy antropologiya doirasida amalga oshirildi. XX asrning ikkinchi yarmida madaniyatning kommunikativ xossalari haqidagi tasavvurlar rivojlanadi, uning germanevik talqini keng tarqaladi. Bu esa madaniyatning tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish uchun asos sifatida tilga qiziqish kuchayishiga sabab bo'ladi.

Jumladan I. Karimov madaniyatni ma'naviyat bilan uzviy aloqadorligini asoslaydi. Uning fikricha "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baqaruvat, iymon e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir".¹

Shunday qilib, tarixiy jarayonda shakllangan madaniyatga doir rang-barang konsepsiyalarda mazkur hodisaning muhim xususiyatlariga tavsif beriladi. Madaniyatning hozirgi talqini mazkur tavsiflarni o'z ichiga oladi. Madaniyat tushunchasining mazmuni moddiy va ma'naviy qadriyatlar, ularni yaratish, ajdodlar tajribasini o'zlashtirib, undan yangi qadriyatlar yaratish uchun foydalanishga qodir bo'lgan insonni shakllantirish usullari tizimidan iborat. Madaniyat yaxlit bo'lib, ancha murakkab tuzilishga ega. Uning elementlari turli asoslarga ko'ra farqlanadi. *Har qanday madaniyat:*

- *barqaror elementlar, ya'ni madaniy universalialarni;*
- *muayyan tarixiy sharoitda vujudga keladigan va yo'q bo'lib ketadigan o'kinchi elementlarni o'z ichiga oladi.*

Madaniyat o'z tarkibiy elementlarining yaxlitligi bilan ajralib turadi. Bu yaxlitlik uning tizimliliigi, qadriyatlar ierarxiyasi, darajalari va subordinatsiyasi mavjudligi bilan ta'minlanadi. An'ana madaniyatning muhim birlashtiruvchi mexanizmi hisoblanadi. Madaniyat tushunchasining o'zi «xotira» kabi an'ananing mavjudligini nazarda tutadiki, uni yo'qotish jamiyat halokati bilan barbardir. An'ana tushunchasi madaniyatning madaniy o'zak, endogenlik, o'ziga xoslik, madaniy meros, madaniy dinamika kabi omillarini o'z ichiga oladi.

Madaniyat o'zagi – madaniyatning nisbatan barqarorligini va yashovchanligini kafolatlovchi tamoyillar tizimi. U asrlar mobaynida shakllanadi va jamiyat borligining o'zgaruvchi sharoitlariga moslashish mexanizmlarini ta'minlaydi.

Endogenlik madaniyatning mohiyati, uning tizimli birligi ichki tamoyillarning musharakligi bilan belgilanganini anglatadi.

O'ziga xoslik – madaniy rivojlanishning nisbatan mustaqilligi va e'tkinligi bilan belgilanadigan betakrorlik.

Madaniy meros – ajdodlar tomonidan yaratilgan va har bir jamiyatning ijtimoiy-madaniy jarayoniga kiritilgan qadriyatlar majmui. Madaniyat masalalari bo'yicha Mexikoda o'tkazilgan jahon konferensiyasida (1983 yil) an'ana tarixining harakatlantiruvchi tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Madaniyat funksiyalari. Ijtimoiy hodisa sifatida madaniyat ko'p sonli funksiyalarni bajaradi. U insonning bilish faoliyatini o'z ichiga oladi, ijtimoiy tajribani avlodlarga qoldirish va boshqa xalqlar madaniyatini o'zlashtirish vositasi sifatida informativ funksiyani bajaradi. Madaniyatning rivojlanishi u boshqa madaniyatlar bilan aloqa qilishini taqozo etadi. *Madaniyat normativ funksiyani ham bajaradi: u muayyan sivilizatsiyada shakllangan me'yorlarni amalda joriy etadi, shuningdek o'z me'yorlari va qadriyatlarini yaratib, ularni inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga tatbiq etadi.* Ijtimoiy-madaniy jamiyonda davlat hayoti qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etadi: ideokratik, teokratik yoki siyosiy davlat boshqa-boshqa madaniy mo'ljallarga tayanadi. Davlat o'z negizini mustahkamlaydigan me'yorlarning ustunligini ta'minlaydi va o'ziga ta'bid solishi mumkin bo'lgan me'yorlarni siqib chiqaradi. O'z navbatida, madaniyat ham ijtimoiy tajribani saralash, uni ramziy tizimlarda mustahkamlashni amalga oshiradi.

Madaniyatning yana bir muhim funksiyasi insonni kamol topirish hisoblanadi: individ madaniyatni o'zlashtirish jarayonida shaxsga aylanadi. Madaniyat normativ tartibga solinadigan faoliyat sanalgani bois, u qadriyatlarini yaratish sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Madaniyat hodisalari ijtimoiy

¹ Karimov I. Yul'sak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2015. - B. 19.

o'zgarishlarni boshqaradi, ularni ijtimoiy muhim maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiradi. *Madaniyat qadriyatlari mazkur hamjamiyatda ijtimoiy mo'ljal berish va tartibga solish funksiyasini bajaradi.* Madaniyat ijtimoiy munosabalar tizimiga xizmatlar ko'rsatadi, bu erda yuz beruvchi o'zgarishlar va siljishlarni belgilaydi va tayyorlaydi, inson xulq-atvorini tartibga solishni ta'minlovchi maxsus mexanizmlarni yaratadi. Bu to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tartibga solish bo'lishi mumkin (huquq, axloq, taqiq). Bu jamiyatning u yoki bu qadriyatlari va talablarini aks ettiruvchi ba'zi bir harakatlarni bajarishni buyurish orqali amalga oshiriladigan bivosita tartibga solish bo'lishi ham mumkin.

Madaniyat insonning jamiyatdagi o'rtidan, uning diniy mansubligi yoki siyosiy qarashlaridan dalolat beruvchi ramzlarning keng tizimini yaratadi. Ba'zan mazkur guruhlar yoki qadriyatlarga bevosita mansublik ramziy xususiyat kasb etadi: individ diniy rasm-rusumlarda ma'naviy taskin topish vositasini izlamaydi, lekin o'zining dindorligini namoyish etadi; u muayyan siyosiy maqsadlarga erishishga harakat qilmaydi, lekin o'z niyatlarini e'lon qiladi va h.k. Shunga qaramay rasm-rusumlarni ado etish amaliyoti ham, jamiyat talablarini to'g'ridan-to'g'ri bajarish ham etnosning, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining yaxlitligini ta'minlaydi.

Madaniyat vayronkor jarayonlarga qarshilik ko'rsatadi, chunki u qadriyatlarni saralash mexanizmlariga ega. Natijada sivilizatsiyaning tor tarixiy ahamiyat kasb etuvchi hodisalari yo'qlikka chekinadi, tarix uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy hodisalar esa umuminsoniy madaniyat xazinasidan o'tin oladi. Buryonkor hodisalarni ham, vayronkor hodisalarni ham o'z ichiga oluvchi sivilizatsiyadan farqli o'laroq, madaniyat o'zining insoniyligi, ijobiyligi bilan tavsiflanadi. U inson faoliyati ijodiy asosining manbai hisoblanadi. Inson yaratgan har qanday predmet madaniyat hodisasi hisoblanavermaydi, xuddi shuningdek har qanday inson ham madaniyat bo'lavermaydi.

Madaniyatsizlik yoki madaniyat darajasining pastligi aholining bir qismi o'z madaniyatidan ajralib qolganini anglatadi. Savodsizlik, axloqsizlik, madaniy me'yorlarga muvofiq bo'lgan xulq-atvor, mulqot, mehnat ko'nikmalari mavjud

emasligi, tabiatga nooqilona munosabat va madaniyatsizlikning boshqa shunga o'xshash ko'rinishlari oqilona bo'lmagan madaniy siyosat yoki uning umuman mavjud emasligi natijasidir. Ayni vaqtda madaniyatsizlik ongli siyosat natijasi bo'lishi ham mumkin.

Madaniyat inson faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy kichik tizimlarini birlashtiradi. Ammo madaniy jarayon chegarasi sivilizatsiya, uning me'yorlari bilan belgilanadi. Madaniyat sivilizatsiyada chuqur ildiz oigan bo'lib, u bilan bir jon va bir tan hisoblanadi. Madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro aloqasi shu darajada kuchliki, aksariyat faylasuflar va olimlar bu tushunchalarni ayniy deb hisoblaydilar. Bu bo'lsiz emas: jamiyatning normal holatida ularni deyarli farqlab bo'lmaydi. Sivilizatsiya va madaniyat birdir: o'z madaniyatsiz sivilizatsiya bo'lmagandek, sivilizatsiyasiz madaniyat ham bo'lmaydi. Madaniyat ham, sivilizatsiya ham normaliv tabiatga ega. Ularning o'rtasidagi farq shundaki, sivilizatsiya madaniy jarayonga shart-sharoit yaratadi, uni tartibga soladi. O'z navbatida, madaniyat yangilik ijodkori sifatida sivilizatsiyaning rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Ammo madaniyat sivilizatsiya bilan ayniy emas. U sivilizatsiya belgilagan ijtimoiy me'yorlarni amalda mujassamlashtirishni nazarda tutuvchi erkin faoliyatdir. Madaniyat jamiyat qadriyatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari majmuidir.

Sivilizatsiya elementlaridan biri sifatida madaniyat unga muvofiq bo'ladiki, lekin mustaqil rivojlanishga qodir element sifatida u sivilizatsiya bilan ziddiyatga kirishishi mumkin. Mazkur ziddiyatning mavjudligi madaniyatning ham, sivilizatsiyaning ham rivojlanish manbaidir. Ularning o'rtasida ayniylik nazariy jihatdan faqat sivilizatsiya madaniyatga o'z hukmini to'la o'kazishi sifatida mavjud bo'lishi mumkin. Bu hayot faoliyatining texnik-mexanik, ma'naviyatsiz shakllari hukm surishini, shaxsning ijodiy tashabbusi bo'lg'itilishini anglatgan bo'lsiz edi. Inson hayotining barcha jabhalarida uning xulq-atvorini qat'iy tartibga solish jamiyatni turg'unlik saltanatiga aylantiradi. U o'zgarayotgan sharoitlarga moslashish qobiliyatini yo'qotadi. Shu sababli madaniyatning o'limi muqarrar tarzda butun solistumni halokatga eltadi. Bu o'z halokatidan keyin bir vaqlar

gullab-yashnagan madaniyat xarobalarini qoldingan sivilizatsiyalar tarixida ko'p karra kuzatilgan.

Ammo madaniyat va sivilizatsiya o'rtasida tub tafovut mavjudligi ham sivilizatsiyaning halokatiga sabab bo'ladi. Shu sababli sivilizatsiya madaniyatni ijtimoiy nazorat qilish mexanizmlariga ega bo'ladi. Sivilizatsiya madaniyatning rivojlanishini belgilash va rag'batlantirish yo'li bilan uni cheklaydi, o'z manfaatlariga bo'ysundiradi. Sivilizatsiyaning yashovchanligi va faolligi sivilizatsiya mexanizmlarining madaniy shakllar rang-barangligini o'z idallari va andozalariga bo'ysundirish qobiliyati bilan belgilanadi. Zero madaniyat vositalari bilan sivilizatsiyaning rivojlanishi, uning yangi sharoitlarga moslashishi muammolari hal qilinadi. Ayni vaqtda sivilizatsiyaning mavjudligi madaniyat vujudga kelgan andozalar, me'yorlar va qoidalariga rioya qilishga o'zini majburlovchi cheklashlar konservativizmga chek qo'yishga qay darajada qodirligi bilan belgilanadi. Madaniyat o'z tabiatiga ko'ra qolip va andozalarga toqatsiz bo'lgan ijod sohasidir. Agar u qat'iy normativ cheklashlarga barham bera olmasa, sivilizatsiya, aytaylik, ekologik halokatsidan yoki aholi sonining o'sishi va uni ommaviy halokat, ochlik va kasalliklardan himoya qilish qobiliyati o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi natijasida halok bo'lishi mumkin. Shu sababli madaniyat va sivilizatsiya o'rtasidagi ziddiyatlar ularning rivojlanish manbai hisoblanadi, ularning ayniyligi esa turg'unlik va haloketni anglatadi.

Sivilizatsiya madaniy jarayonga umumiy shart-sharoit yaratadi, u ulkan mintaqalar va qit'alarini qamrab oladigan olamshumul hodisadir. Madaniyat sivilizatsiya yaratgan zaminida vujudga keladi, individual, betakror, etnik xususiyat kasb etadi. Har bir sotsium individual asosining ifodasi sifatida madaniyat bir sivilizatsiyaga mansub xalqlar o'rtasidagi farqlarni belgilaydi. U mazkur xalqqa xos bo'lgan, uning etnik-ijtimoiy individualligini tashkil etadigan omillar: til, tarixiy taqdir, din, boshqa xalqlar bilan aloqalar va hokazolarni xulq-atvor qoidalari, odatlar, ma'naviy hayotda aks ettiradi. Ayni bir sivilizatsiya ko'p sonli madaniyatlarni yaratadi. Masalan, Evropa sivilizatsiyasi fransuz, nemis, ingliz va hokazo madaniyatlarni o'z ichiga oladi.

Me'yorlar, qoidalar, taqiqlar va amr-farmoyishlar majmui sifatida sivilizatsiya odamlar faoliyatini o'ziga bo'ysundiradi, uni tartibga soladi. Madaniyat – mazkur normalarga muvofiq amalga oshiriladigan erkin ma'naviy va moddiy faoliyat. Ammo normativ jihatdan maqbul bo'lgan har qanday harakat madaniy bo'lmaydi. Masalan, tosh quril teng darajada madaniyat predmeti deb nomlanishi, ayni vaqtda yashab qolish vositasi ham bo'lishi mumkin. Erkin yunon dehqoni erga ishlov berishi madaniy faoliyat bo'lishi mumkin, ayni shu ish qul tomonidan nazoratchining g'amchisi ostida bajarilishini esa, garchi qul erkin odam bilan ayni bir dehqonchilik amaliini bajarayotgan bo'lsa-da, madaniy deb nomlash mumkin emas. XX asr sivilizatsiyasi o'zidan keyin inson tomonidan muhandislik hisob-kitoblarga ko'ra, qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq yaratilgan chiriyotgan sun'iy dengizlarni qoldirdi. U Orol dengizini quritdi, lekin Kaspий dengizida suvni toshirib yubordi, natijada madaniyat ob'ektlarini suv bosmoqda.

Xulosalar. Madaniyat inson faoliyati bilan uzviydir. Uning taraqqiyoti madaniy-tarixiy ijodda individual va ijtimoiy guruhlar ishtiroki bilan belgilanadi. Sivilizatsiya – o'z-o'zini quvvatlovchi o'zgarmas jamiyat, ijtimoiy statika manbai. Madaniyat – ijtimoiy dinamika manbai, u tarix talabiga javob berish va ijtimoiy o'zgarishlarga zamin yaratishga qodir shaxslarni shakllantiradi va ayni vaqtda o'zi ham mazkur shaxslar tomonidan shakllantiriladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:

1. Jamiyat nima?
2. Ijtimoiy ishlab chiqarish nima?
3. Jamiyat kichik tizimlari nima bilan tavsiflanadi? Ularning birligi nimada?
4. Sivilizatsiya nima?
5. Evropa sivilizatsiyasi chindan ham sivilizatsiyaning oliy shakli hisoblanadimi va u butun insoniyat rivojlanishiga yo'l ko'rsatishga qodirmi?
6. Madaniyat nima? Uning sivilizatsiya bilan aloqasiga tavsif bering.
7. Tabiat va jamiyat qonunlarining qanday xususiyatlari bor.

8. Jamiyatda insonning o'rnini qanday bo'lishi kerak?
9. Individa, kishi, shaxs, inson, odam - farqlab bering?
10. Odaming olamdagi o'rnini qanday bo'lishi kerak?
11. Insonning kelib chiqishi haqida nimalar deya olasiz?
12. Falsafa tarixida qadriyatlarga munosabat qanday bo'lgan?

4-mavzu: Rivojlanish nazariyasi, falsafaning qonun va kategoriyalari. Olamning universal aloqalari va rivojlanish.

Maqсад va vazifalar:

Bizni o'rab turgan dunyodagi barcha narsa va hodisalar o'rtasidagi shunday dialektik bog'liqlik mavjudki, bu bog'liqlik bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda qonun va kategoriyalar shaklida ongimizda aks etadi. Asosiy vazifa talabarlarda mana shu qonun va kategoriyalar haqida mustahkam bilimga ega bo'lish va amaliy faoliyatda ulardan foydalanish va tadbir etish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Reja

1. O'zgarish va taraqqiyot jarayonida takrorlanish tamoyili. Qonun tushunchasi, uning mohiyati va falsafiy talqini.
2. Voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyat dialektikasi. Uning tabiiat va jamiyadagi xususiyatlari.
3. Olamning mavjudligi – miqdor va sifat voqeligi tarzida. Taraqqiyotda tadriijiylik tamoyili.
4. O'zgarish va rivojlanish jarayonida o'z-o'zini inkor etish tamoyili. Vorislik va yangilanish.
5. Falsafaning asosiy kategoriyalari.

Tayanch so'zlar: Bog'lanish, aloqadorlik, takrorlanish, qonun, qonuniyat, ayniyat, talfovut, qarama-qarshilik, ziddiyat, miqdor, sifat, inkor, inkorni inkor, vorislik, yangilanish, Kategoriyalar, alohidalik, umumiylik, sabab va oqibat, mazmun va shakl, sistema va element, butun va bo'lak, mohiyat va hodisa, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik.

Qonun tushunchasi. Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohtiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o'z

mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortishish qonunini o'rganганиmizda ana shunday holni idrok etganimiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagi narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyilining doimiy takrorlanishi, har soniya va har daqiqada bu holatning sodir bo'lib turishini isbotlaydi. Xo'sh, qonun o'zi nima? U kishi va unuman, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega? Qonunni bilmasdan, o'rganmasdan turib yashash mumkinmi? Qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo qonunlari deyimiz, tabiat qonuni yoki bo'lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h. k. Bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarining uchinchisi ham qonun to'g'risida bo'lib, unda barcha sohada qonunning ustuvorligi ta'minlanishi ta'kidlanadi. Yuqoridagilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bo'lgan xossa, xususiyatlar bormi?

Eng avvalo, shuni aytish kerakki, olamdagi barcha narsa – tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma'lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va h. k.) asosiy vazifasi har bir soha bo'yicha tadqiqot o'tkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini o'rganish va ochib berishdan iborat.

Qancha ko'p qonun kashf qilinsa, taraqqiyot shuncha tez bo'ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin. Yaqin o'tmishda iqtisodiyotning o'ziga xos qonunlarini pisand qilmay, turli xil s'ezd, plenum, konferentsiya qarorlari asosida eksperimentlar o'tkazib, barcha uchun farovon hayot – kommunizm jamiyatini barpo qilmog'chi bo'lishganini va bunday siyosat qanday oqibatlarga olib kelgani barchaga ma'lum.

Hozir mustaqil O'zbekiston barcha rivojlangan mamlakatlar singari ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo qilish yo'lidani bormoqda. Bunda umumshariy qonunlar va mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan.

Endi shunday savol: Nima uchun inson qonunni bilishi kerak? Bunda oddiy misollarga murojaat qilamiz: yoz oylarida barcha odamlar issiq kiyimlar (etik, palto, qo'lqop va h. k.) sochib olishadi, o'tin yoki ko'mir g'amlab qo'yishadi va h. k. Nima uchun? Chunki ular tabiatning bitta qonunini, ya'ni fasllarning o'zgarishi, yozdan keyin kuz, undan keyin qish kelishini juda yaxshi bilishadi.

Yoki yana bir, jo'nroq bo'lsa-da, misol: sizga biron uyning 5-qavatidan tushlasang, falon pul beraman desa, rozi bo'lmaysiz. Nima uchun? Chunki siz I. Nyuton kashf qilgan «Butun olam tortishish qonuni»ni yaxshi bilasiz. Balki bilmassiz ham, havoning o'z jismingizdan zichligi kamligiga e'tibor qilmassiz ham, deylik. Ammo siz bu holda omon qolishingiz qiyinligini, mayib bo'lishingizni yaqqol tasavvur qilasiz.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkindir. Erkinlik nima? Erkinlik anglab olingan zaruriyatlardir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriylik, ya'ni ob'ektiv tarzda amalga oshish, o'z-o'zidan namoyon bo'lishidir. Erkinlik esa ana shu zaruriylikni anglab olish va unga amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

Yuristlarda shunday ibora bor: «Qonunni bilmaslik javobgarlikdan xolos qilmaydi». Ana shu tufayli siz yuridik qonunlarni gancha yaxshi bilsangiz, o'zingizning faoliyatingizni shunga moslab olib borasiz. Demak, shuncha erkin bo'lasiz. Bu holda siz nima qonunni, nima esa qonunni emasligini yaxshi bilasiz, qonunga xilof qadamlar qo'ymayasiz.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilib, qonunga qo'yidagicha ta'rif berish mumkin: Qonun olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarning namoyon bo'lishidir. Endi qonunning belgilariga to'xtalamiz:

- qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog'lanishlardan faqat muhimlarini, ya'ni «bunday bog'lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o'zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo'ladi;

- qonun zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydi, ya'ni tasodifiy bog'lanishlar, goh paydo bo'lib, goh yo'qolib ketadigan bog'lanishlarga asoslanmaydi.

- qonun narsa va hodisalarning umumiy bog'lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog'lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, ya'ni bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog'lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2001 yili qishdan keyin bahor kelib, 2002 yilda qishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, bu tabiat qonuni – fasllar o'zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi.

Tabiat qonunlarining yana bir eng muhim xususiyati – u ob'ektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o'zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo'q qilish mumkin emas. Chunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog'lanishlar, munosabatlar ob'ektiv xususiyatga ega. Olamdagi har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo'lishi ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora, kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaryadlari, yaxshilik va yomonlik, adolat va jaholat va h. k. Qarama-qarshi tomonlar bir-birini inkor etadi va shu bilan birga biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Faraz qilaylik, magnitning manfiy zaryadi bo'lmasa, u holda ushbu narsa magnit bo'lolmaydi.

Borliq narsa, voqea-hodisalarning turli-tumanligidan iborat. Lekin narsalar qanchalik xilma-xil, turli-tuman bo'lmasin, ular o'rtasida yaqinlik, aynanlik mavjuddir. Masalan, stol va stul sifat jihatidan turli narsalardir. Lekin ba'rib ular o'rtasida o'xshash tomonlar, belgilar bor. Aytaylik, ularning yo' rangi yoki bir xil materialdan yasalganligi yoki bo'lmasa, vazni o'xshash bo'lishi mumkin va h. k.

Ayniyat tushunchasi narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshash tomonlarni ifodalaydi. Shu bilan birga narsa-hodisalar bir-biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlar, belgilarga ham egadir. Aynan bir xil bo'lgan narsaning o'zi yo'q. Hatto daraxtning bir shoxida yonma-yon turgan 2 barg xam bir-biridan farq

qiluvchi ba'zi jihatlariga ega. Hech bo'lmaganda, ular bir-biridan makondagi o'rmi bilan farq qiladi.

Hayotdan misol keltiradigan bo'lsak, bir-biriga tashqi tomondan tamomila o'xshash bo'lgan Hasan va Husanlarda ham juda ko'p farq qiluvchi xususiyatlar bor. Masalan, ularda fe'l-atvor, qiziqish turi, dunyog'arashlar har xil bo'lishi, ya'ni ularning ichki dunyolari farq qilishi mumkin. Demak, tafovut narsa – hodisalarning farq qiluvchi tomonlarini ifodalovchi tushunchadir.

Qarama-qarshilik deb esa, narsa, voqea-hodisalarning bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining o'zaro munosabatiga aytiladi.

Qarama-qarshiliklar o'rtasidagi munosabatlarni ziddiyat degan tushuncha ifodalaydi. Ko'p hollarda ayniyat va tafovutning ziddiigi va ularning bir maxrajga kelishi, me'yoriy o'zgarishlar tufayli rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraqqiyot shu ma'noda ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal qilinishidan iborat bo'lgan abadiy va azaliy muakkab jarayondir.

Sobiq Ittifoqning mafkurasida darajasiga ko'tarilgan marksizm asosan ziddiyatga ko'proq e'tibor berilar edi. U mutlaqlashtirilar va jamiyatga ko'chirilib, asosan, antagonistik ziddiyatlar to'g'risida gapirilar va ularning echilishi insoniyatni baxli hayotga olib boradi, deya xayol qilinar edi. Holbuki, insoniyat paydo bo'libdiki, uning hayotida ayniyat va tafovut ham, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'lib kelmogda. Odamzod ziddiyatlar kamroq bo'lgan, kelishlarning xilma-xil intilish va maqsadlari, bir-biridan farq qiladigan g'oyalari uyg'unlashgan, barqarorlik ustuvor bo'lgan jamiyatni qurish uchun bosh qotirib kelmogda.

Ana shunday intilishlar fanda «Konfliktologiya» (konflikt – ziddiyat, logos – ilmoq) deb ataladigan falsafiy yo'nalish paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu soha bilan shug'ullanadigan olim va mutaxassislar konfliktologlar deb ataladi. Ular konfliktlarni keltirib chiqarish emas, balki ularning oldini olish va jamiyat uchun foydali tarzda hal qilish yo'llari va usullari ustida bosh qotirishadi.

Har bir ziddiyatning aniqlanishi, hal qilinishi o'zgarishga, yangilanishga, bir sifatdan ikkinchi sifatga, eskidan yangiga o'tishga sabab bo'ladi. Olam turli-tuman bo'lganligi uchun ziddiyatlar ham xilma-xildir. Masalan, ichki va tashqi ziddiyatlar, asosiy va asosiy bo'lmagan ziddiyatlar mavjud. Ular o'rtasida farq bo'lgani bilan birga, mutlaq chegara ham yo'q. Chunki amalda, hayotda ular bir-biriga o'tishi, birgalashib ketishi va taraqqiyotda turli xil o'rin tutishlari mumkin.

Olamning mavjudligi – miqdor va sifat voqeligi tarzida ham namoyon bo'ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalaridagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida me'yorni buzadi va sakrash yo'li bilan tub sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o'z sifati bilan ajralib turadi. Sifat – narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo'lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalaydi. Sifat narsa qanday bo'lsa, uni shundayligicha ko'rsatib beradi, jismning barcha tashqi xossalari bog'liqlikda namoyon qiladi.

Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o'xshashligi yoki o'xshamashligini ifodalaydi. U keng ma'noda narsalarning turli-tuman xossalari yig'indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma'nodagi tushunchalar emas. Sifatning o'zgarishi, muqarrar sur'atda, xossaning o'zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o'zgarishi har doim sifatning o'zgarishiga ta'sir etavermaydi, ayrim xossalalar narsalarning sifatiga ta'sir etmasdan yo'q bo'lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Narsalar sifat muayyanligidan tashqari, bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. Miqdor predmetning hajmi, o'lchovi, og'irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o'z solishtirma og'irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidangina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdorligi,

muamiyati va hokazolar bilan ham farq qiladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo'lgan, ya'ni sifati bo'lib miqdori, miqdori bo'lib aksincha, sifati bo'lmagan narsaning o'zi yo'q.

Miqdor va sifatning birligi, o'zaro bog'liqligi me'yori tushunchasida ifodalanadi. Me'yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo'lmagan holatga olib keladi.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o'zgarishlari xosdir. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'rtasida qat'iy qonuniyat mavjud bo'lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan tub sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi sodir bo'ladi. Olamdagi barcha o'zgarishlar asta-sekin sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlardan boshlanadi. Miqdor o'zgarishlari muayyan chegarada sifatning barqarorligiga ta'sir etmaydi. Miqdoriy o'zgarishlar chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi. Natijada sifat yo'qolib, yangi sifat yuzaga keladi. Taraqqiyot jarayonida miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga o'tishi bilan birga sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga ham o'tadi. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lishiga qaramay, ular ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Chunonchi:

- birinchidan, miqdor o'zgarishlari doimo yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o'zgarishlariga o'tish faqat ma'lum bir davrda boshlanadi;

- ikkinchidan, miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha narsalarga muhim ta'sir ko'rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100° gacha suyuqlik holatini yo'qotmaydi, keyin esa bug'ga aylanadi, sifatini o'zgartiradi. Demak, sifat o'zgarishlari hodisalarni tubdan o'zgartirib, uning boshqa hodisaga aylanishini taqozo qiladi;

- uchinchidan, miqdor o'zgarishlari asta-sekin amalga oshadi va ko'p hollarda sezilmasdan o'tadi. Sifat o'zgarishlari esa ancha tez, ayrim holatda to'sidan sodir bo'ladi;

- to'rtinchidan, sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga qaraganda tub o'zgarish bo'lib hisoblanadi.

Sakrash nima? Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo'lib, taraqqiyotning uzluksiz ko'rinishiga qaraganda ancha tez o'tadigan jarayondir.

Sakrash miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrash narsa va hodisalarning uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo'lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Sakrash birdaniga, to'satdan bo'ladigan holatgina emas, balki yangi sifat elementlari ko'payishi orqali yuz beradigan tadrifiy jarayon hamdir.

Sakrashning turlari o'z harakteriga ko'ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo'lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o'ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo'q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o'rnatadigan ijtimoiy jarayonlar, tadrifiy rivojlanish orqali amalga oshadi. Bunday sakrashlarni ikki turga bo'lish mumkin: birinchisi – portlash yo'li bilan bo'ladigan sakrashlar, ikkinchisi sekin-asta, tadrifiy yo'li bilan bo'ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboraki, bunda narsa va hodisalarning yangi sifatga o'tishi nihoyatda tezlik bilan yuz beradi va kutilmagan natijalarni, tasodifiy jarayonlarni boshlab yuborishi, hatto salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Sakrashning ikkinchi turida esa, eski sifat elementlarining asta-sekin yo'qolib borishi va yangi sifat elementlarining asta-sekin to'planishi natijasida yangi sifat paydo bo'ladi.

Shunday qilib sakrash quyidagi jihatlarga ega:

- birinchidan, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan ob'ektiv va qonuniy jarayondir;
- ikkinchidan, sakrash tadrifiylikning uzilib, miqdor o'zgarishlaridan tub sifat o'zgarishlariga o'tishidir;

- uchinchidan, sakrash eskini tugatish va yangi sifatga mos keladigan holatlarning vujudga kelishi tufayli paydo bo'ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;

- to'rtinchidan, sakrash olamning rivojlanib, ilgariylab borishidir.

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog'liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o'tish turi shakllarda sodir bo'ladi. Har bir narsa, hodisa o'zining aniq inkor qilish usuliga, o'z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Demak, har qanday o'zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bir-biriga o'tishi orqali sodir bo'ladigan jarayonlardan iborat. Bortlarning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo'lib turadi. Bunday eski yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

O'zgarish va rivojlanish jarayonida o'z-o'zini inkor etish tamoyili nihoyatda muhim. Bunda vorislik – eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida insoniyon bo'ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi inkorni inkor qonunining mohiyatini bildiradi.

Mazkur qonunga muvofiq ob'ektiv voqealardagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq, aksariyat hollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi.

Inkor tushunchasi kundalik ongda «yo'q», so'zi bilan qo'shilib ketadi, inkor qilmoq – «yo'q» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan-to'g'ri «yo'q» degani emas, ya'ni narsani mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo'lmasdan, balki eskining bag'rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror toplanib tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo'lganligi uchun

taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorislik bog'liq ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor qonunini tushunish uchun uni nega shunday deb atalishini izohlamog' lozim. Falsafaning bu ta'limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalaniishi olamdagi narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir holidan ikkinchi holatga o'tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga ko'ra, har bir mavjud bo'lgan narsa va hodisa o'ziga xos bo'lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o'zi ham sharoitning o'zgarishi, vaqtning o'tishi bilan inkor etilishga mahkumdur. Demak, har bir narsa va hodisa o'zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko'proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Insoniyat tarixi – avlodlar almashinuvi tarixidir, deyilganida ham ana shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylarning muayyan haqiqatida, ya'ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba'zi belgilar takrorlanadi. Masalan, don o'simlikdan yana donlarga aylanadi, keyinroq yana o'simlikka va hokazo.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to'g'ri chiziqli shaklida emas, doira shaklida bo'ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang'ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo'lmastan, balki yuqori bosqichda sodir bo'lishi sababli taraqqiyot spiral shakliga ega bo'ladi. Bu spiralning har bir yangi o'rani oldingi o'ranga nisbatan yuqoriroq bosqichda yuzaga keladi.

Dialektik inkor yangi bilan eski o'rtasidagi bog'lanishni butkul rad qiladi, deb tushunmaslik kerak. Yangi qanchalik ilg'or bo'lmasin, u yo'q joydan paydo bo'lmaydi, balki eskining qobig'ida asta-sekin shakllanadi. Shuning uchun ham ko'p hollarda eskidan yangiga o'tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom ettiriladi. Demak, yangi bilan eski o'rtasida vorislik mavjuddir. Inkorni inkor qonunini

taraqqiyotda vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana shundan iborat.

Inkorni inkor qonunini mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida ro'y berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi jamiyatni barpo etishga qaratilgan o'zgarishlar hamma narsani butunlay yo'q qilishni bildirmaydi. Aksincha, bu – xalqimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ilmiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yutuqlarni saqlab qolib, ularni yanada boyitib, rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur jarayonning asosiy tamoyili Islom Karimovning yangisini qurmasdan, eskini buzmaslik lozimligi to'g'risidagi xulosasida yaqqol o'z asosini topgan

Har qanday faning o'ziga xos qonunlari va asosiy tushunchalari bo'ladi. Masalan, fizikada fizik qonunlar, og'irlik, tezlik, kuch kabi tushunchalarga juda ko'p duch kelish mumkin. Ularning aksariyati bu fan tarixida chuqur iz qoldirgan muhim olimlarning nomi bilan bog'langan. Masalan, fizikada Nyuton, Faradey, Avagadro va hokazo. Matematikani esa Pitagor, al-Xorazmiy, Karl Gaussning qonunlarisiz tasavvur qilish qiyin. Xuddi shunday falsafaning fanlik maqomini belgilaydigan asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi ham bor. Ularni o'rganishdan avval, qonun va kategoriya tushunchalarining mazmunini aniqlab olish zarur. An'anaviy tavsiflarga ko'ra, «Qonun» falsafiy kategoriya sifatida narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, doimiy takrorlanib turuvchi, ichki o'zaro bog'lanishlar, aloqalar, munosabatlarning mantiqiy ifodasi ekanligini ko'rib o'tdik. Endi kategoriyalarning mohiyati va mazmuni bilan qisqa tanishaylik.

Kategoriya o'zi nima? Bu so'z qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko'rsatish», degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardan ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan.

Falsafa tarixida ularni birinchi bo'lib, Arastu ta'riflab bergan. U o'zining «Kategoriyalar» degan asarida ularni ob'ektiv voqelikning umumlashgan in'kosi sifatida qaratib, turkumlashirishga harakat qilgan. Xususan, uningcha quyidagi

kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substantsiya), «miqdor», «sifat», «munosabat», «o'rin», «vaqt», «holat», «mavqe», «harakat», «azob-uqubat». Bu turlarni ajratish, o'z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik Arastu «Metafizika» asarida «mohiyat», «holat» va «munosabat» kategoriyalarini ham izohlagan.

Umuman, kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida o'rganishni aynan Arastu boshlab berganligi e'tirof qilinadi. Ma'lumki, ungacha Yunonistonda ko'proq politika va ritorika (notqilik san'ati) fanlari sistemalashtirilgan, ya'ni fan sifatida tizimga tushirilgan edi. Chunki o'sha davrda qo'shimmi, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirini bilish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ammo o'sha davrlarda falsafaning qonunlari, kategoriyalari va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga tushirilmagan, izohi boyon qilingan bilimlar sistemasi sifatida shakllantirilmagan edi. Hatto Yunonistonning mashhur olimi va mutafakkiri Sugrotni ham ana shunday, hali go'yoki shakllanmagan fan bilan shug'ullangani va yoshlarni bu ilm yo'lga boshlab, ularning noto'g'ri tarbiyasiga sabab bo'lganlikda ayblagan ham edilar. Bu hol Sugrotning buyuk shogirdi Arastuning mazkur fanni aniq sistema tarzida ifodalashga kirishishi uchun turkib bo'lgan. Olim falsafaning qonun va kategoriyalarini birinchi marta sistemalashtirgan, ta'riflagan va falsafani fan darajasiga ko'targan. O'sha davrdan boshlab falsafa o'z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega bo'lgan fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va Ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar.

XVII-XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Xususan, I. Kant qarashlarida kategoriyalar «sifat» (reallik, inkor, chegaralash), «miqdor» (birlik, ko'plik, yaxlitlik), «munosabat» (substantsiya va xususiyat, sabab va harakat, o'zaro ta'sir), «modallik» (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqelik va novogelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli o'laroq, Hegel esa mantiqiy kategoriyalarni: «borlik» (sifat, miqdor, me'yor), «mohiyat» (asos, hodisa, mavjudlik), «tushuncha» (ob'ektiv, sub'ektiv, absolyut g'oya) tarzida izohlagan.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflari bor: 1) ob'ektiv voqelikning in'ikosi; 2) narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli; 3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha; 4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy – mantiqiy bilish darajalaridan biri. Ko'pchilik mutaxassislar kategoriyalar olam, undagi narsa va voqealar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qo'shiladilar. Bu ma'noda borliq, voqelik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning ana shunday kategoriyalaridir.

Falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra, «juft kategoriyalar» deb ataladigan; umumiy bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar ham bor. Ular narsa va hodisalarning muayyan yo'nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan. Alohidalik, xususiylik, umumiylik. Ular narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon-zamon munosabatlarini konkret tarzda namoyon qiladi. Umumiylik – olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo'layotgan narsa – hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashuvchi xossa hamda xususiyatlarining muhtaraklashgan holda namoyon bo'lishidir. Alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabat «xususiylik» kategoriyasi orqali ifodalanadi. Birinchidan, bu kategoriyalarning mazmuni olamning birligi, ularning mantiqiy ifodasi konkretlik bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan, «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalarning makon-zamon konkretligini ifodalaydigan, nisbatan mustaqil mantiqiy tushunchalar tarzidagina namoyon bo'lishi mumkin. Zero, ularning nisbatan mustaqilligi, ichki birligining namoyon bo'lish shaklidir.

Falsafiy adabiyotlarda, bilishning umumiy tendentsiyasini alohidalikdan xususiylikka va shu bosqich orqali umumiylikka o'tish tarzida yoki aksincha, izohlash keng tarqalgan. Vaholanki, falsafiy bilishning asosiy xususiyati va maqsadi har qanday alohidalikning individual xususiyatlarini umumiylikdan farqlashdan iboratdir. Masalan, bozor iqtisodiyoti munosabatlarga o'tish jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyati bo'lsa ham, bu jarayon turli ijtimoiy-tarixiy makon va zamonda har bir davlat uchun o'ziga xos bo'lgan modelni taqozo qiladi. Alohidalikning umumiylikdan farqini aniqlash asosida, maxsus usul va vositalarini qo'llash bozor strategiyasi va taktikasining milliy xususiyatlarini belgilashga yordam beradi.

Alohidalik yoki, ba'zi falsafiy adabiyotlarda ko'rsatilganidek, yakkalikni muayyan xossa hamda xususiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha kilib aytganda, har qanday hodisa va narsaning ichki sifat muayyanligi, individualligi deyish mumkin.

Antik falsafada alohidalik kategoriyasining mazmuni muayyan turg'unlikka ega bo'lgan birlik sifatida qaralgan (A'fлотun, Arastu). Hegel, alohidalikni voqealarning zaruriy shakli, makon va zamondagi tafovutlarning namoyon bo'lish momenti sifatida qaraydi.

Falsafada milliylik va umuminsoniylik masalasida alohidalikning umumiylikdan farqini mutlaqlashtirish natijasida muayyan qarashlar vujudga kelishi mumkin (Bu haqda «Osiyotsentrizm» va «Evropatsentrizm» to'g'risida eslash kifoya).

Vaholanki, umuminsoniyat sivilizatsiyasining tadrifiy rivojlanishida muayyan ichki birlik mavjud bo'lib, madaniyat tarixida har bir xalq, millat o'z o'rnini va ahamiyatini namoyon qiladi. Shuning uchun umuminsoniyat sivilizatsiyasi tarkibidagi milliy madaniyatni mutlaqlashtirish, muayyan siyosiy manfaatlarga asoslangan bo'lib, buyuk davlatchilik, shovinistik qarashlardan boshqa narsa emas. Bu XX asrning 30-yillarida fashizm mafkurasini shakllantirgan asosiy sabablardan biri edi.

Alohidalikni, umumiy qonuniyatlar tarkibidagi, elementlarning individual rivojlanish jarayoni sifatida olib qarash kerak. Chunki har qanday umumiylik, davlat voqealarning alohidaligi tarzida vujudga keladi. Shunga ko'ra, har qanday sistema o'z tarkibidagi nisbatan yangi, alohida hodisalarning individual rivojlanishsiz sodir bo'la olmaydi. Shunday qilib, alohidalik voqelik rivojlanishining xilma-xil shakllarini vujudga keltiradi.

Narsa va hodisalarda alohidaliklarning konkret xususiyatlari o'rtasidagi bog'lanishlar, bir tomondan, umumiylikni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa, umumiylikning konkretligi alohidaliklar sistemasi tarzida namoyon bo'ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning nisbatan to'laqonli bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, muayyan jamiyadagi kishilarning ijtimoiy munosabatlari o'ziga xos bo'lgan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. Ya'ni, iqtisodiy, huquqiy, diniy, diniy ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy munosabatlar umumiy madaniyat tarkibida «iqtisodiy madaniyat», «huquqiy madaniyat», «siyosiy madaniyat», «ekologik madaniyat» va boshqa nisbatan mustaqil yo'nalishlarga mos bo'lgan. Bu madaniyat yo'nalishlari nisbatan mustaqil bo'lsa ham, bir-birini taqozo qiladi. Ularning ichki birligi va rivojlanish tendentsiyasi umuminsoniyat sivilizatsiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan bo'lib, umumiy taraqqiyot darajasiga mos keladi.

Falsafaning bu kategoriyasi bilan «butun», «qism» «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari o'rtasida uzviy bog'liqlik va muayyan farqlar mavjud. Ya'ni «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalar rivojlanish jarayonidagi bog'lanish, aloqadorlik munosabatlarining yaxlitligini nisbatan mustaqil ifodalash bo'lsa, «butun», «qism», «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari esa, ularning makon va zamondagi bog'lanish munosabatlarini jarayon tarzida ifodalashdir. Shu nuqtai nazardan, butunni – umumiylik, qismini yoki elementni – alohidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi. Shuningdek, muayyan o'xshashlik bo'lishiga qaramasdan, sistemani umumiylik tarzida qabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiyliklarning majmui

ham bo'lishi mumkin. Umuman, narsa va hodisalarni tarkibiy jihatdan «butun», «qism», «element»larga ajratish bilishga xos nisbiy hodisa bo'lib, uning samadorligini ta'minlaydigan zaruriy shartdir. Shunga ko'ra, yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki usuli sifatida olib qaralishi kerak.

Sistema, struktura, element falsafaning muhim kategoriyalaridan bo'lib hisoblanadi. Sistema – grekcha so'z bo'lib, mantiqiy ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birlikma, degan ma'nolarni anglatadi.

Sistema kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilgan elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi. Shu nuqta nazardan, bilish jarayonidagi sistemalashtirish, nazariy faoliyat sifatida, ularning tashkil qilingan tarkibiy elementlarini tarixiy-mantiqiy izchil tartibga keltirish bilan izohlanadi. Xususan, bu elementlarning funksional faoliyatini, ahamiyatiga ko'ra turkumlashtirish, muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki insonning borilqini bilish faoliyati sistema strukturasidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish asosida, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan. Ya'ni, insonning ob'ektiv reallikni nazariy bilishga asoslangan: tashkillashirish, boshqarish, nazorat qilish faoliyatlari samadorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan umumli foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Sistema – narsa va hodisalarning bog'lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa hodisalar bog'lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lotin tilida tuzilish, tartib degan ma'noni anglatib), sistemani tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg'un bog'lanish, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi mavjud falsafiy qarashlarda strukturaning sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy tuzilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollari belgilab turadi. Masalan, tabiatdagi atomlarning tarkibiy tuzilishlari xususiyatlariga qarab, moddiy olamning xilma-xil ko'rinishlari, DNK yoki RNK larning o'zaro ichki

munosabatlari, xromosomalar xilma-xilligi, tirik organizmlar turi-tumanligi aniqlangan. Ular umumlashgan xolda, moddiy olamning ob'ektiv realligi tarzida mavjud bo'lsa ham, moddiylikning konkret strukturasiga ega bo'lgan sistemalaridir. Borilqini tashkil qilgan elementlarning munosabatlariga, makon va zamon xususiyatlariga qarab, ularni «ichki struktura» va «tashqi struktura» ga ajratish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash keraki, insonlarning narsa hamda hodisalarga muayyan manfaatlari va ehtiyojlariga ko'ra yondashishiga qarab, har bir elementni alohidan mustaqil sistema sifatida olib qarash mumkin. Masalan, ma'naviyat jamiyat strukturasida, uni tashkil qiluvchi muhim elementlarning biri hisoblanadi, lekin ma'naviyatni, maxsus ijtimoiy hodisa sifatida alohida olib tahlil qiladigan bo'lsak, uning ichki elementlardan iborat mustaqil sistemaligini ko'ramiz. Shunga ko'ra, sistema, struktura va element nisbiy tushunchalar bo'lib, kategoriyalar sifatida, unga bo'lgan munosabat doirasida konkretlashadi.

Shuning uchun «sistema», «struktura», «element» kabi falsafiy kategoriyalar narsa va hodisalarni bilishga sistemali yondashish, strukturaviy tahlil usullarining umummetodologik asosi bo'lib hisoblanadi.

Elementlarni sistemani tashkil qilishdagi strukturaviy ahamiyatiga ko'ra: muhim va muhim bo'lmagan, asosiy va asosiy bo'lmagan elementlarga ajratib o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki har qanday konkret element, muayyan sistemada makon-zamon xususiyatlariga ko'ra, o'z ahamiyatiga ega bo'ladi. Biroq, ularning ahamiyatini, yuqorida ko'rsatilganidek, turkumlashirish mulqo olibiy hamda shartli xarakterga ega bo'lib, muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishdan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, konkret makon va zamonda sistemani tashkil qilishdagi elementlarning ahamiyati strukturaviy funksiyasida muqobilliklar vujudga kelib turishi bilan izohlanadi. Ya'ni, sistemadagi uning xarakterini belgilab turgan muhim element, ma'lum vaqtga kelib muhim bo'lmagan elementga aylanishi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Umuman, falsafaning sistema, struktura, element kategoriyalari narsa va hodisalarning mazmunini, shaklini ochib berishda metodologik asos bo'ladi.

Falsafa fanidagi an'anaviy tarzda yozilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalaridan farqli o'laroq, bu kategoriyalarni qiyosiy tahlil qilishimizdan maqsad, boshqa jult kategoriyalarning mazmunini ochib berish imkoniyatini yaratishdir. Chunki, «mohiyat va hodisa», «mazmun va shakl», «sabab» va oqibat», «zaruriyat va tasodifi», «imkoniyat va voqelik» kategoriyalarining mazmuni, yuqorida ko'rsatilgan «alohidlik», «xususiylik» «umumiylik», «butun», «qism», «struktura», «element», kategoriyalari mazmuni bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun biz falsafa kategoriyalarini bir-birini taqozo qiluvchi, nisbatan mustaqil bilish usullarining yaxlit sistemasi tarzida olib qarashni lozim topdik. Lekin, buning uchun har bir kategoriyaning mazmunini alohida tahlil qilish zarur.

«Mohiyat va hodisa» kategoriyasini olib ko'raylik. Mohiyat-o'zida alohidalik, maxsuslik, umumiylikning mazmunini, sababini, zaruriyatini, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura, element tarzida namoyon qiladi. Hodisa esa, ularning bog'lanishi, aloqadorlik va munosabatlarining namoyon bo'lishidir. Mohiyatni alohidalik, maxsuslik, umumiylik, butun, qismga mos kelishiga qarab, turkumlashirib o'rganish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, sub'ekt nazarida ahamiyatiga va funktsiyasiga ko'ra, asosiy va asosiy bo'lmagan, nisbatan barqaror yoki o'zgaruvchan mohiyatlarga ajratib, ularning rivojlanishi jarayonida o'rinni almashirib turishlarini e'tiborga olish zarur.

Narsa va hodisalarning mohiyatini bilish ularning inson ehtiyojlarini qondirish vazifasi va maqsadlarini konkretlashirishdan iborat. Masalan, jamiyat ustqurmasining siyosiy elementi bo'lgan davlatning maqsadi va vazifasi, ularni amalga oshirish usul hamda vositalari mamlatkat hududida yashayotgan kishilarning muayyan hayot sharoitlarini ta'minlashdan iborat bo'lib, uning mohiyatini tashkil qiladi. Shunga ko'ra, har qanday mohiyatni odamlarning manfaatlari va ehtiyojlariga, isviilzatsiya kelajagiga bog'lab tahlil qilgandagina, u ahamiyatga ega bo'ladi.

Narsa va hodisalarni bilish hamda o'zgartirishga inson muayyan ehtiyojlar asosida yondoshadi. Bu yondoshish sub'ektiv harakterga ega bo'lib, uning konkret ehtiyojleri va manfaatleri nuqtai nazaridan baholanadi. Masalan, changqagan kishi

uchun suv uning changqog'ini qondirish, fizik uchun-agregat holati, elektr tokini o'tkazishi yoki optik xususiyatlari, ximik uchun, uning N2O kimyoviy birkima afiati, tegimonchi uchun-tegimon parragini aylantirish xususiyatlari asosiy mohiyat hisoblanadi.

Narsa va hodisalar doimiy rivojlanib turishi jarayonida, ularning mohiyati ham, shunga mos tarzda hodisa ham o'zgarib turadi. Mohiyatdagi har qanday juz'iy o'zgarish ham, uning muqarrar o'zgaragan hodissasida ifodalarnadi. Masalan, muvning elektr tokini o'tkazish xususiyati, uning temperaturasiga bog'liqligi muqulgangan. Agar biz suvning temperaturasini ma'lum darajada ko'tarsak, uning elektr tokini o'tkazish xususiyatini o'ichaydigan asboblar bu o'zgarishlarni qayd qilmasligi mumkin. Lekin, bundan suvning mohiyatini ifodalaydigan elektr tokini o'tkazuvchanlik xususiyati yo'qolgan, degan xulosa kelib chiqmaydi.

Narsa va hodisalarning mohiyat va hodisa tarzida bog'lanishlari makon va zamondagi muayyan konkretligi bilan ajralib turadi. Mohiyat va hodisa o'z xususiyatlariga ko'ra sistema, struktura va elementlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shuning uchun har qanday hodisani va mohiyatni tahlil qilishda muq tamoyillarga asoslanish lozim.

Mazmun va shakl. Falsafada mazmun va shakl kategoriyasi narsa, hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazmun - narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishi bo'lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.

Shakl esa - sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishlari, aloqadorliklari, munosabatlarining ifodalanishidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va shakl o'rtasidagi bog'lanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish an'anaviy xarakterga ega. Ya'ni, mazmunning o'zgarishi shaklning o'zgarishiga olib keladi, degan xulosa ustvor bo'lgan. Vaholanki, sistemaning elementlari strukturaviy bog'lanishlarsiz, aloqadorliklarsiz mavjud bo'lab mumkin bo'lmaganligidek mazmun va shakl ham bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Biz faqat nisbatan mustaqil bo'lgan mazmun va shaklni bilish

xususiyatiga qarab, shunday mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakldagi har qanday juziy o'zgarish ham bir-biridagi o'zgarishlarni taqozo qiladi, faqatgina biz ularni bilib olgan yoki bilmagan bo'lishimiz mumkin. Masalan, suvning agregat holati, shakli o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi. Ya'ni, suv bug' holatida chanoqni qondirmaydi, o'simliklarni sug'orish uchun yaramaydi. Bundan tashqari, elementlarning strukturaviy bog'lanishlari sistemaning xarakterini belgilashidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, strukturaviy bog'lanishlar shakl sifatida sistemaning mazmunini ham belgilab turadi. Shunga ko'ra, shaklni mazmunga nisbatan «ikkilamchi» deyish noo'rindir. Bunga ijtimoiy hayotdan misol keltiradigan bo'lsak, demokratiya boshqarishning shakli sifatida jamiyatning mazmunini belgilab turadi.

Falsafada mazmun va shakl kategoriyasini boshqa kategoriyalar tizimidan ajratib olib, nisbatan mustaqil tahlil qilganda, unga insonlarning muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishlarini alohida e'tiborga olish kerak. Bu umuman mazmun va shaklning ob'ektiv xarakteriga putur etkaza olmasa ham, ularni baholashdagi sub'ektiv, muqobol qarashlarda o'z ifodasini topadi.

Sabab va oqibat. Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadqiqiy rivojlanish tamoyiliga ko'ra, ularning mazmuni va shakli o'zgarib turadi. O'z navbatida, har qanday sistemaning elementlari o'rtasidagi strukturaviy bog'lanish konkret mazmunga ega bo'lib, unga mos mazmunlarda o'z ifodasini topadi. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakl o'rtasidagi aloqadorlik, bog'lanish, munosabatlarning xarakteri muayyan sababga asoslanadi. Ya'ni, narsa va hodisalarning sistema shaklida namoyon bo'lishi, muayyan sabab oqibatidir. Demak, narsa va hodisalarning tadqiqiy rivojlanishi sabab-oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, sabab – biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonidagi sabab va oqibat munosabatlarini bilishda, ularning makon va zamondagi tarixiy va mantiqiy izchilligi muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, har qanday sabab

avvalgi hodisalar yoki ularning rivojlanish oqibati tarzida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, bu oqibat keyingi rivojlanishning sababi bo'lib hisoblanadi.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi asos bo'lgan sabablar tizimi mavjud. Ularni shartli ravishda: asosiy va asosiy bo'lmagan, muhim va muhim bo'lmagan sabablarga ajratish mumkin.

Sababning mohiyati avvalgi hodisalarning oqibati sifatida vujudga kelayotgan hodisalar uchun sababligidadir. Shunga ko'ra, sababni bir vaqtning o'zida oqibat tarzida qarash mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, har qanday oqibat sabab tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sababni narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon va zamondagi davriy takrorlanishdan farqlash kerak. Chunki, sabab mavjudlikning genetik bog'lanishlarini, aloqadorliklarini ifodalashi bilan birgalikda, ularning isloqpollarini ham belgilab beradi. Hegel tili bilan aytganda, sabab-mohiyatning harakatidagi mavjudlik holatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) uning ob'ektiv xarakteri narsa va hodisalarning ichki, tarkibiy elementlari munosabatlariga xos bo'lib, mohiyatning real mavjudlik holatini ifodalaydi;
- 2) sababning konkretligi narsa-hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqadi, hamda uning individualligini ta'minlaydi;
- 3) sabab umumiy xarakterga ega bo'lib, hech qanday narsa va hodisaning rivojlanishi sababsiz sodir bo'lmaydi;
- 4) sabab zaruriy bo'lib, muqarrar ravishda, muayyan oqibatlarni kelinib chiqaradi;
- 5) sababning uzluksizligi, bir tomondan, turli sabablarning izchil bog'lanishlarini, munosabatlarini, ikkinchi tomondan, har bir sababning oqibat tarzida oldingi sabab bilan bog'liqligini xarakterlaydi.

Zaruriyat va tasodif. Ob'ektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. Zaruriyat – narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-

sharoitlar, munosabatlار majmuasidir. Tasodif esa – zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir.

Zaruriyat va tasodif kategoriyasi olamni falsafiy bilishning mustarakligini va samaradorligini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, zaruriyatni turkumlashiriganda, uning makon va zamondagi strukturaviy tuzilishini tashkil qilgan elementlarini sistemali-strukturali tahlil qilish lozim. Shuningdek, zaruriyatni sabab-oqibat munosabatlari tarzida tushinish lozim. Zaruriyat narsa va hodisalarning muqarrar rivojlanish qonuniyidan kelib chiqadi hamda ob'ektiv sabablar tizimiga asoslanadi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishigandan keyin, bozor iqtisodiyoti munosabatlariiga o'tishi tarixiy obektiv zaruriyatdir, uning «o'zbek modeli» asosida amalga oshirilishi zaruriyatning konkret namoyon bo'lishidir. Bunda tasodif «sub'ektivlashtirilgan» jarayon sifatida ko'zga tashlansa ham, ob'ektiv hodisadir. Chunki, O'zbekistonning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishining milliy xususiyatlari, bozor munosabatlariiga o'tishning xarakterini belgilab beradi.

Zaruriyatlar tabiiy-tarixiy rivojlanishning ob'ektiv qonuniyatlaridan kelib chiqib, doimiy o'zgarib turadi. Zaruriyatlarining tasodiflar tarzida namoyon bo'lishi, o'z navbatida, boshqa hodisalar uchun zaruriyat maqomiga ega bo'ladi. Bundan ko'rinish turibdiki, zaruriyat va tasodif o'rtasidagi bog'lanishlar sabab-oqibat munosabatlari xarakteriga mos keladi.

Zaruriyat va tasodif. kategoriyasiga boshqa kategoriyalar kabi, uni aniqlash va baholashga muayyan sub'ekt ehtiyojlari, manfaatlari nuqtai nazardan yondashladigan bo'lsa, muqobil qarashlar vujudga keladi. Masalan, sobiq Ittifoqning parchalanib, mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, ayrim nazariyotchilar tomonidan tasodifiy hodisa deb baholanib, uning zaruriy, ob'ektiv qonuniy xarakteri inkor etilmogda. Vaholanki, jamiyat taraqqiyotida hech qanday imperiyaning abadiy bo'lmashligini tarixiy tajribalar doimiy isbotlab kelgan. Demak, bunda biz zaruriyatni ko'rib turibmiz.

Zaruriyat va tasodifning aloqadorligi, bog'lanishi shundaki, ular bir-birizga mavjud bo'la olmaydi, ya'ni zaruriyatning muqarrarlari tasodifga ham xosdir. Shuning uchun falsafiy adabiyotlarda tasodiflarning muqarrarlari, tarixiyliigi, sababiyliigini, qonuniyliigini inkor qiluvchi qarashlar g'ayritilimiydir.

Imkoniyat va voqelik – falsafaning muhim kategoriyalaridir. Imkoniyat narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish tendentsiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Voqelik esa, shu qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bo'lishidir. Imkoniyat va voqelik kategoriyasini ham, bilishning umumiy mantiqiy tamoyillariga ko'ra, boshqa kategoriyalar bilan bog'liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyat narsa va hodisalar rivojlanish jarayonining ichki birligini ifodalaydi va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, sabablarini, zaruriy qonuniyatlarini, mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan. Imkoniyat kategoriyasini, uning shart-sharoiti bilan aralashtirmaslik kerak. Shart-sharoitlar oqibat, tasodif, hodisa sifatidagina imkoniyatga ta'sir qiladigan omillar majmuasidan iborat. Mayjud voqelik tarixiy genezisiga ko'ra, o'zida boshqa voqelikning imkoniyatlarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichi real voqelik sifatida, uning keyingi rivojlanish imkoniyatlarini namoyon qiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:

1. Qonun nima? Tabiat va jamiyat qonunlarining qanday xususiyatlari bor?
2. Olamdagi ayniyat va ziddiyat holatlariga misollar keltira olasizmi?
3. Juft kategoriyalar mazmunidagi ichki birlikning asosi nimada?
4. Miqdor va sifat nima? Me'yor-ehi?
5. Inkor nima? Inkorni inkor-ehi?
6. Kategoriyalar tushunchasini qanday izohlaysiz?

5-mavzu: Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari

Maqsad va vazifalar:

Ongning tabiatini anglash inson bilishining mohiyati masalalari barcha insoniyatni doimo qiziqitirib kelgan. Shu nuqdayi nazardan bu mavzuning talabalar tomonidan o'zlashtirilishidan asosiy maqsad kundalik va ilmiy faoliyatda ong va ilmiy bilishni o'rganish asosida amaliyotda foydalanish asosiy vazifamizdir.

Reja

1. Bilish va bilim – falsafiy tahlil mavzui.
2. Bilishning ob'ekti va sub'ekti. Inson bilishining asosiy bosqichlari.
3. Ilmiy bilishning mohiyati va usullari. Metod, nazariya va metodologiya.

Tayanch so'zlar: Bilish, gnoseologiya, bilim, kundalik (empirik) bilim, nazariy bilim, bilish ob'ekti, bilish sub'ekti, hissiy bilish, mantiqiy bilish, ilmiy bilish metodlari, nazariya, haqiqat, nisbiy haqiqat, mutlaq haqiqat

Bilish va bilim. Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o'rganish falsafa tarixida muhim o'rin egallab kelmogda. Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nihoyat, o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi – gnoseologiya vujudga keldi.

Inson bilishi nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Gnoseologiya asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqib, gnoseologiya oldiga yangi vazifalar qo'yadi. Xususan, XVII asr o'rtalarida evropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, haqiqiy ilmiy bilishlar hosil qilishning usullarini o'rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan shug'ullandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy bilimdir, degan g'oyani olg'a surdilar.

XVIII asr mutafakkirlari ilmiy bilishda inson aqli imkoniyatlariga, ratsional bilishning hissiy bilishga nisbatan ustunligiga alohida urg'u berdilar. Buyuk nemis faylasufi I. Kant bilish natijalarining haqiqiyiligi xususida emas, balki insonning bilish qobiliyatlarini haqida bahs yuritdi. Gnoseologiya oldida inson olamni bila oladimi, degan masala keskin qo'yildi. Insonning bilish imkoniyatlariga shubha bilan qaraydigan faylasuflar agnostiklar deb ataldilar.

Bilish nima? Bilish insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatining biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo'lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro'y beradi. Shuningdek, bilish insongagina xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir.

Insoniyat ko'p asrlar davomida o'rtirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o'zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyatining har qanday turi muayyan ilimga tayanadi va faoliyat jarayonida yangi bilimlar hosil qilinadi.

Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilish butun insoniyatga xos bo'lgan bilish usulidir. Bilimlar bevosita hayotiy ehtiyojdan, inson hayot kechirish zaruratidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyatning ancha keyingi tarqiqyoti davomida ilmiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanadigan va ilmiy nazariyalar yaratuvchi alohida sotsial guruh vujudga keldi. Bular – ilmlar kishilari bo'lib, ilmiy nazariyalar yaratish bilan shug'ullanadilar.

Bilishning ikki shakli: kundalik (empirik) bilish va nazariy (ilmiy) bilish bir-birdan farqlanadi.

Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o'ziga xos bo'lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldur. Hozirgi zamon g'arb sotsiologiyasida xalqlarning kundalik bilimlar hosil qilish usullarini o'rganuvchi maxsus soha – etnometodologiya fani vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish

xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Nazariy bilishning ob'ekti, sub'ekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim.

Bilish ob'ekti. Tadqiqotchi-olim, faylasuf, san'atkor va boshqalarining, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish ob'ektlari hisoblanadi. Bilish ob'ektlari moddiy, ma'naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Bilish ob'ektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo'lgan borliqni qamrab oladi. Bilish ob'ektlariga asosan, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

Bilish sub'ekti. Bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish sub'ekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish sub'ektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o'ziga ham qaratilishi mumkin. Inson va butun insoniyat ayni bir vaqtda ham bilish ob'ekti, ham bilish sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

Bilishning maqsadi ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniyashtirish, tabiiy va ijtimoiy gannonyaga erishishdir. Fan – fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma'naviy barkamollikka erisha borgan sari ilm-fan qadriyat sifatida e'zozlana boshlaydi. Fanning har tomonlama rivojlanishi bilan turli ilm sohalarning hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish sub'ekti, yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

Bilish predmeti sub'ektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish ob'ektning ayrim sohalari va tomonlaridir. Fanning o'rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografya, ixtiologiya va boshqa sohalari vujudga kелgandır. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir.

Bilish darajalarini shartli ravishda: quyi, yuqori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, hissiy bilish deyiladi. Hissiy bilish sezgiar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo'lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalaniishi uchun yordam beradi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol tashqi olam to'g'risida muayyan bilimlar hosil qilishga yordam beradi.

Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo'lib, aqliy bilish (rational bilish) deyiladi. Agar inson o'z sezgiari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u daloimo hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham hodisa aldamchi va ehang'ituvchidir. Binobarin, inson sezgiarining biron bir narsa yoki hodisa to'g'risida bergan ma'lumotlari hech qachon uning butun mohiyatini ochib bera olmaydi.

Tushuncha. Aqliy bilish yoki tafakkur vositasida bilish hissiy bilishni inkor etmaydi, balki sezgiar vositasida olingan bilimlarni umumlashtirish, tahlil qilish, sintezlash, mavhumlashtirish orqali yangi hosil qilingan bilimlardan tushunchalar yaratiladi.

Tushunchada insonning hissiy bilish jarayonida ortirgan barcha bilimlari umijassamlashadi. Tushuncha aqliy faoliyat mahsuli sifatida vujudga keladi. Narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib borishda tushuncha muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Aqliy bilish hissiy bilishga nisbatan ancha murakkab va ziddiyatli jarayondir. Aqliy bilishda narsa va hodisalarning tub mohiyatini bilish uchun ulardan fikran uzoqlashish talab etiladi. Masalan, insonning mohiyati uning sezgi a'zolarimiz qayd etadigan kelishgan qaddi-qomati, chiroyli qoshu ko'zi, ijodkor qo'lli, oyoqlari bilan belgilanmaydi. Insonning mohiyati avvalo, uning aql va tafakkurga, yaratish

qudratiga, mehr-shafqat hissig'a, mehnat qilish, so'zlash qobiliyatiga ega ekanligida namoyon bo'ladi.

Inson tushunchasi o'zida insoniyatning ko'p asrlar davomida o'tirgan bilimlarining mahsuli sifatida shakllandi.

Har bir fan o'ziga xos tushunchalar apparatini yaratadi va ular vositasida mohiyatni bilishga intiladi. 1. Kanitning fikricha, narsalarning mohiyati so'z va tushunchalarda mujassamlashadi. Ya'ni biz so'z va tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida biron bir bilimga ega bo'lamiz. Har bir inson dunyoga kelar ekan, tayyor narsalar, munosabatlar bilan bir qatorda tayyor bilimlar olamiga ham kirib boradi.

Hukm. Aqliy bilish narsa va hodisalarga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni tasdiqlash yoki inkor etishni taqozo etadi. Tafakkurga xos bo'lgan ana shu tasdiqlash yoki inkor etish qobiliyatiga hukm deyiladi. Hukmlar tushunchalar vositasida shakllanadi. Hukmlar yangi bilimlar hosil qilishga imkoniyat yaratadi, ular vositasida narsa va hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirib boriladi. Shunday qilib, hukm narsa va hodisalarning tub mohiyatini ifodalovchi eng muhim belgi va xususiyatlar mavjudligini yo tasdiqlaydi yoki inkor etadi. Masalan, «inson aqli mavjuddir», degan hukmda insonga xos eng asosiy belgi - aqlning mavjudligi tasdiqlanayapti. Biroq inson shunday murakkab mavjudodiki, uning mohiyati faqat aqli mavjudot ekanligi bilan cheklanmaydi. Chunki qirg'inbarot urushlar, ekologik inqirozlar aqli mavjudot bo'lgan inson tomonidan amalga oshirildi. «Inson axloqli mavjudodir». Inson to'g'risidagi hozirgi zamon fanining muhim xulosasi ana shu.

Xulosa — aqliy bilishning muhim vositalaridan biri, yangi bilimlar hosil qilish usulidir. Xulosa chiqarish induktiv va deduktiv bo'lishi, ya'ni ayrim olingan narsalarni bilishdan umumiy xulosalar chiqarishga yoki umumiylikdan alohidalikka borish orqali bo'lishi ham mumkin.

Binobarin, tushuncha, hukm va xulosalar chiqarish ilmiy bilishning muhim vositalaridir. Bunday bilish insondan alohida qobiliyat, kuchli irodani

talab qilishni, narsa va hodisalardan fikran uzoqlashishni, diqqatni bir joyga to'plashni, ijodiy xayolni talab etadi.

Bilishning oliy darajasi intuitiv bilish, qalban bilish, g'oyibona bilishdir. O'zining butun borlig'ini fan, din, siyosat va san'at sohasiga bag'ishlagan buyuk kashfiyotkorlar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayyamdur. Buyuk shaxslarning g'oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, echimini kutayotgan umumshaxsiy muammolar bilan bog'liqdir. Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiya muhim o'rin egallab keldi. Har bir fan o'ziga xos bilish usullaridan foydalanadi.

Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar to'plashning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilish metodlarini o'rganadigan maxsus soha — metodologiya deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o'z xarakteriga ko'ra: 1) eng umumiy ilmiy metodlar; 2) umumiy ilmiy metodlar; 3) xususiy ilmiy metodlarga bo'linadi.

Eng umumiy ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo'lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashirish kabi bilim ko'rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish, eksperiment, taqqoslash umumilimiy metodlar bo'lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilimiy metodlar hisoblanadi.

Xususiy ilmiy metodlar har bir faning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, suhbatlashish, anketa so'rovi, hujjatlarni o'rganish sosiologiya faniga xos bo'lgan xususiy ilmiy metodlardir. Bir fanda yaxshi samara beradigan ilmiy bilish metodi boshqa fanda shunday samara bermasligi mumkin. Ilmiy bilishda to'g'ri metodni tanlash bilishda muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Hozirgacha qilib aytganda, ilmiy tadqiqotda nimani o'rganish kerak, degan masala fan predmetini aniqlashga imkon bersa, qanday o'rganish kerak, degan masala esa ilmiy bilish metodini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ilg'or ilmiy nazariya fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo'lib, u ilgari ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o'sha yutuqlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o'zi erishgan yutuqlarga shubha bilan qarashni taqozo qiladi.

Fan, falsafa sohasida erishilgan yutuqlarni mutlaqlashtirish, ularga ko'ra to'g'ri yolg'iz yolg'iz muqarrar ravishda dogmatizmni keltirib chiqaradi. Fan erishgan yutuqlar hamisha nisbiydir. Lekin bunday nisbiyligni mutlaqlashtirish relyativizmi, fan yutuqlariga ishonchsizlik bilan qarash esa, skeptitsizmni vujudga keltiradi. Fan taraqqiyoti uchun dogmatizm, relyativizm va skeptitsizm jiddiy xalaqi beradi.

Ilg'or ilmiy nazariyalar ma'lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yo'nalishini o'zgartirishi, ilmiylikning o'ziga xos mezon bo'lishi ham mumkin. Masalan, Charlz Darvinning evolyutsion nazariyasi, A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Gnosologiyada haqiqat tushunchasi muhim o'rin tutadi. Haqiqat inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni ochish yoki ilmiy haqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o'zining mazmuniga ko'ra mutlaq va nisbiy bo'lishi mumkin. Fan haqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo'lib, ularning majmuisidan mutlaq haqiqat vujudga keladi.

Haqiqat o'z mazmuniga ko'ra hamisha ob'ektivdir. Ya'ni uning mavjudligi ayrim kishilarning xohish-irodasiga bog'liq emasdir. Masalan, O'zbekistonning milliy mustaqilligi ob'ektiv haqiqatdir. Ayrim kishilarning bu mustaqillikni tan olish yoki olmasligidan qat'i nazar, bu haqiqat o'z mazmunini saqlab qolaveradi. Haqiqatni atayin buzish yoki soxtalashtirish oxir-oqibatda fosh bo'ladi va o'z qadriini yo'qotadi. Shuningdek, haqiqat hech qachon mavhum emasdir. U hamisha konkretidir. Hegel so'zlari bilan aytganda, nimaiki voqe bo'lsa, u haqiqatdir, haqiqat — voqelikdir. Haqiqat mazmunining konkret xarakteri joy, vaqt va sharoitni e'tiborga olishni talab etadi.

Gnosologiyada tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Uzoq yillar davomida tabiiy-shunoslik fanlariga nisbatan muhim ob'ektivlik, xolislik ilmiylikning muhim mezon deb hisoblab kelindi. Biroq XX asr o'rtalarida fan-texnika inqilobi insoniyat oldida paydo bo'lgan muammolar tabiiy-shunoslik fanlari oldiga qadriyatli yondashuv vazifasini qo'yga boshladi. Aqli mavjudot bo'lgan inson har qachon tabiatni o'rganishda hamisha o'z manfaatlarini ko'zlaydi. Tabiat resurslari cheksiz va bimas-tuganmasdir, degan bir yoqlama qarash oxir-oqibatda inson tomonidan tabiatga nisbatan shartshart munosabatni vujudga keltirdi. XX asr oxirlariga kelib tabiatga nisbatan insonlar, qadriyatli munosabatda bo'lish zaruriyati chuqurroq anglana boshladi.

Ijtimoiy fanlar hamisha mavjud siyosiy tuzum, davrning talab va ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanadi. Ijtimoiy bilishda jamiyat ham bilish ob'ekti, ham bilish sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi: insoniyat o'z tarixini yaratuvchi va o'z-o'zini biluvchidir.

Tabiiy-shunoslikda nisbatan barqaror sistemalar bilish ob'ekti hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalar tadqiqotchiga hech qanday qarshilik ko'rsatmaydilar. Ijtimoiy bilishda esa, nisbatan tez o'zgaruvchi sistemalar bilish ob'ekti hisoblanadi. Ijtimoiy bilishga xos bo'lgan muhim xususiyat shundaki, u moddiy ishlab chiqarish sohasiningiga emas, balki jamiyatning ancha murakkab mu'ayyan hayotini, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, qarashlar va g'oyalarni ham o'rganadi. Ijtimoiy fanlar milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasiini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Gnosologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning mohiyati va mazmuni to'g'risida zarur bilimlarga ega bo'lish ma'makatimizda bilimdon, har jihatdan erik barkamol inson shaxsini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Bilish nazariyasi bo'lajak mutaxassis-kadrlarda muayyan ilmiy layoqat va qobiliyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Milliy mustaqillik yillarida gnosologiya oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri, ilmiy bilimlarning jamiyatimiz taraqqiyoti, inochligi va farovonligi uchun xizmat qilishini ta'minlaydigan omil va

mexanizmlarni o'rganish, ulug' ajdodlarimizning ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida o'tirgan tajribalarini keng ommalashtirishdir.

O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:

1. Ong nima? Nega u ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega deyiladi?
2. Ong va tilning birligi deganda nimani tushunasiz?
3. O'z – o'zini anglash nima?
4. Gnoscologiya nimani o'rganadi?
5. Bilish nima?
6. Hissiy va ratsional bilishning o'ziga xosligi nimada?
7. Ilmiy bilishning asosiy usul (metod)larini ko'rsating.
8. Bilishning yoshlarni tarbiyalash va kamol topitirishdagi ahamiyat nimada?

6-mavzu: Globallashuv va bargaror taraqqiyot falsafasi

Reja

1. Insoniyat istiqbolini belgilovchi omillar va ilmiy bashorat qilish usullari.
2. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi davri va umumbashariy muammolar.
3. Jahon XXI asrda: kelajak va inson taqdiri.
4. O'zbekistonda tabiat, jamiyat va insonni asrash yo'llari.

Tayanch so'zlar: Umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy muammolar tushunchalari; demografiya; ekologiya; ekologik tanazzul; ekosistema; demografik portlash; demografik siyosat; futurologiya.

Odamlar nasli XX asrning ikkinchi yarmida shunday muammolar domiga tortildi-ki, endilikda ularning iskanjasidan qutulib ketish yoki ketmaslik bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. Agar XX asrning birinchi yarmi oxirlarida insoniyat qarshisida asosan bitta umumbashariy muammo – yadro holokatining oldini olish ko'ndalang bo'lib turgan bo'lsa, II jahon urushidan keyin ahvol o'zgardi. Aholi tabiiy o'sishining yuqori darajasi saqlanib qolishi, fan va texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydalanishga ro'ju qilinishi va bir qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatning vujudga kelishi masalani chiqarib tashlab yubordi. Oqibatda insoniyatning kelajagi to'g'risida turli tipdagi bashoralar kelib chiqdi. Ana shunday sharoitda har bir aql zakovatli odam «bunday yo'lida qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini etarli darajada aniq tasavvur qilmayapmizmi?» – degan savolni o'z oldiga ko'ndalang qo'yishi va unga javob topishi zarur bo'lib qoldi. Bu savollarni butun jahon xalqlarining ishtirokisiz xal etib bo'lmaydi.

Tabiatga kishilarning zug'umi kuchaya borgan sari tabiiy muvozananing buzilishi oqibatida kishilarning yashash tarzi, sog'lig'i, ijtimoiy muhitga bo'lgan ehtiyoj ta'siri tobora halokatli tus ola boshladi. Insoniyat bunday tahlikali holatdan fuqulgina, har qanday siyosiy, mintaqaviy, irqiy, milliy, diniy va boshqa muvofiqlarini keyinga surib, musharak umuminsoniy manfaatlar tovaragida

jipslashish, zudlik bilan ta'siri choralar qo'llash orqaligina qutulishi mumkin. «Butun dunyo yagona va o'zaro bog'liqdir. Bizning mustarak burchimiz er yuzini bolalarimiz va nabiralarimizga obod va baxtiyor yashashlari uchun munosib qilib qoldirishdir».

Hozirgi paytda insoniyatga xafv solib turgan umumbashariy muammolar deganda butun dunyo, barcha davlatlar va xalqlarning ishtiroksiz echish mumkin bo'lmagan muammolarga aytiladi.

Bunday muammolar quyidagilardir:

- termoyadro urushi xavfining oldini olish va qurollanishni bartaraf etish;
 - jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotning o'sishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
 - iqtisodiy qoloqlikni tugatish; er yuzida qashshoqlik va ochlikka barham berish;
 - tabiiy boyliklardan ogilona va kompleks yondashgan holda foydalanish;
 - insoniyatning baxt-saodati yo'lida fan-texnika yutuqlaridan foydalanish uchun xalqaro hamkorlikni yanada faollashtirish; (eng xavfli kasalliklarga qarshi kurash, kosmosni o'zlashtirish;
 - dunyo okean boyliklari va imkoniyatlaridan unumliroq foydalanish; ozon qatlamining yo'qolish xavfining oldini olish va h.k.);
 - insoniyat va uning kelajagi to'g'risidagi o'zaro hamkorlikda jiddiy tadqiqotlar olib borish; kishi organizmining tobora tez sur'atlari bilan o'zgarayotgan sun'iy va tabiiy muhitga moslashish jarayonini ilmiy tahlil qilish.
- Insoniyat oldida ana shu xildagi muammolarning ko'ndalang turib qolishining o'zaro kishilik tsivilizatsiyasi o'ta murakkab, o'ta qat'is bir jarayonni boshidan kechirayotganligidan darak beradi. Umumbashariy muammolarning ba'zi bir guruhlari mavjudki, ularni hal qilishning o'zidayoq butun planetamizdagi ijtimoiy hayotning keyingi ming yillikdagi aniq manzarasini chizib berish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunday muammolar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

Birinchidan, hozirgi paytdagi mavjud ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlardan (ijtimoiy-iqtisodiy sistemalar o'rtasidagi, mintaqaviy ziddiyatlar, davlatlar, milliy va diniy nizolar va h.k.) bo'lib, bular shartli ravishda «interosial» muammolar deb hisoblanadi. Ular urush va tinchlik, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va shu kabilar ham qamrab oladi.

Ikkinchidan, «inson va jamiyat» o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq muammolar bo'lib, bularga ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT); maorif va madaniyat; aholi ko'payishining tez sur'atlar bilan ketishi («Demografik portlash»), kishilar salomatligini saqlash, kishi organizmining nihoyada tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy muhitga moslashishi) shuningdek, insoniyatning kelajagi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Uchinchidan, «inson – tabiat» munosabatlariga esa xom-ashyo resurslarini qishash, aholini oziq – ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish kabi muammolar kiradi. Bu guruh muammolar ijtimoiy omillar tasirida vujudga keladi, ularni hal qilishda esa ijtimoiy omillarning o'rni va ahamiyatini to'g'ri anglagan holdagina masalaning tub mohiyatini tushunish mumkin.

Xuddi shuningdek, sof ijtimoiy global muammolarning echimida tabiiy omillarning bu jarayonga bevosita ulanib ketishini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Ham ijtimoiy, ham tabiiy omillar asosida yuzaga chiqadigan umumbashariy (global) muammolar bir butunlikni tashkil etib, ularga har tomondama (kompleks) yondashish kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, faqatda fani zimmasiga katta mas'uliyatlar yuklaydi.

Insoniyatning kelajagi to'g'risida tarixda turli-tuman bashorotlar mavjud, ular bir necha xillarga bo'linadi. Masalan, xalqimizning ilk tarixiy qadriyatlaridan bo'lgan muqaddas «Avesto» yozma yodgorligi ham umumiy bir tarzda insoniyatning kelgusi istiqbolini bashorat qilib, kishilarni mustarak maqsadlar tomon yo'naltirishga harakat qilgan. Bunday bashorotlar diniy mazmunga moslangan bo'lib, o'z davri uchun katta ahamiyat kasb etgan edi. «Avesto»da Zardosht o'limidan so'ng 3000 yil o'tigandan keyin, erkin farovonlik zamonini

keladi, Axura Mazda qudrati Axriman yovuzligi usidan to'la g'alab qozonadi, deya ishonch bildirilgan edi.

Ikkinchi xil bashoratlari o'rta asrlarda keng tarqalgan, hozirda ham G'arb mamlakatlarida keng shuhrat qozonayotgan bir qator G'arb futurologiyasi mazmuniga ega. G'arb futurologiyasining mashhur namoyandalardan fon Karmen, E. Shervin, G. Kan va boshqalar insoniyatning kelgusi istiqbolini, asosan, yadro halokati yoki boshqa bir umumshariy global muammolar bilan bog'lab pessimistik manzaralarni chizib ko'rsatishga urindilar.

Kishiilik jamiyatining kelgusi istiqboli to'g'risida jiddiy ilmiy bashoratlari orasida 1968 yilda A. Pechetel tomonidan asos solingan «Rim klubi» a'zolari bo'lgan J. Forrester, D. Medouz, Ya. Timbergan, A. King va boshqalar tomonidan tayyorlangan hisobotlarning ilmiy ahamiyati nihoyatda katta. Ularda insoniyatning kelgusi istiqbolini shubha ostida qoldirayotgan umumshariy muammolar ko'lamining kengayib borishi, kishilar tomonidan tabiatga qilinayotgan zugi'umning mudhish oqibatlarini qanday bo'lishi to'g'risida jiddiy mulohazalar yuritiladi. «Rim klubi» a'zolari tomonidan qilingan bashoratlari ilmiy-falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda asosan tajriba sinovidan o'tgan bilimlar va mantiq qonunlari va kategoriyalariga suyang'an holda insoniyatning kelajagi to'g'risida muhim ilmiy xulosalar bayon qilingan.

Demak, insoniyat taraqqiyotining kelgusi istiqbolini belgilashdagi eng muhim belgilar strasiga umumshariy muammolar tabiatini chuqur anglash, bu muammolarning echimi umuminsoniy musharak manfaatlari yo'lida hamjihatlikda qilingan sa'y-harakatlar ekanini alohida ta'kidlash lozim. Ana shunday misollar anchagina. Masalan, 1955 yil 31 yanvarda Frederiko Julio Kyuri (u shu paytda jahon ilmiy xodimlari federatsiyasi tashkilotining prezidenti edi) Nobel mukofoti sovrindori Betran Rasselga xat orqali murojaat qilib, yadro qurolining juda xavfli tus olayotganligini, bu falokatning oldini olish uchun fan arboblari birgalikda harakat qilishi lozimligini bildiradi. B. Rassel F. Kyuri taklifini qo'llab-quvvatlab, bu murojaatga imzo chekuvchi vakillar bir xil siyosiy oqim tarafdorlari bo'lib qolmasligi, bunda jahondagi barcha kuchlar, har bir xalq,

jamiyat vakillari ishtiroki zarurligini ta'kidlaydi. Masalaga bunday yondashish falsafiy tafakkur taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan edi. Bu esa ilmiy-siyosiy adabiyotlarda «yangicha tafakkur uslubi» deb atalgan va jahonning eng atoqli olimlari A. Eynshteyn, F. Julio-Kyuri, M. Born, L. Poling va boshqalar tomonidan imzo qo'yilgan manifestga asos qilib olingan edi. Natijada 1955 yil 9 iyul kuni B. Rassel tomonidan o'kazilgan press-konferentsiyada «Rassel-Eynshteyn manifesti» nomi bilan shuhrat qozongan, butun er yuzi aholisiga, siyosiy va davlat arboblari qaratilgan mashhur chaqiriq e'lon qilingan. U hozirgi paytda tinchlik va qurolsizlanish uchun kurashuvchi Pagnosh harakatini boshlab bergan edi. Manifestda «Biz yangicha fikr qilishga odatlanishimiz kerak. Biz o'z-o'zimizdan u yoki bu guruh mamlakatlarning harbiy g'alabasini ta'minlash uchun oltinlar qilish zarur deb emas, balki yadro halokati va uning dahshatli oqibatlarini qanday bo'lishi mumkinligi to'g'risida insoniyatni ogohlantirish uchun nimalar qilingan deb so'rashimiz kerak», — degan so'zlar bor edi.

«Rassel-Eynshteyn manifesti» chop etilganiga ham mana 45 yil o'tdi. Bu vaqt mobaynida yadro qurollarini ishlab chiqish va sinab ko'rish ko'lamlari bir necha barobar ko'paydi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'tgan yarim asr mobaynida qurollanishga 16-18 trl. dollar mablag' sarflandi. Hozirgi kunda harbiy sohalar uchun har yiliga 1 trl. dollar miqdorida mablag' ajratilmoqda. Bir kunda qurol-yaroqqa ajratiladigan mablag' 3,4-3,5 mlrd. dollarni tashkil etmoqda. Taqqoslash uchun quyidagi raqamlarga murojaat qilamiz. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining bezzakka qarshi kurash tadbirlari uchun bir yilda 28-30 mln. dollar ajratishini, Xalqaro nufuzli tashkilot YUNESKOning bir yillik byudjeti 950-980 mln. dollar miqdorida ekanligini hisobga olsak, masala oydinlashadi.

Harbiy-sanoat o'z domiga tabiatning shunday noyob boyliklarini tortayptiki, bu sarf-harajatlari o'sish sur'atining tezligiga qarab beixiyor o'z kelajagimiz to'g'risida xomush xayollar og'ushida qolmasdan iloj yo'q. Bu soha faqat tabiiy resurslar bilan cheklanib qolmasdan, balki, o'la karyob aql egalari, talantli kishilarning aqliy faoliyatini ham o'z izmiga solib, oqibatda, ilmiy-texnika

taraqqiyotining insoniyat manfaatiga qaratilgan yo'nalishiga asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Energiya va yoqilg'i resurslaridan tejimli foydalanish muammosi. Davrimizning yana bir muhim belgilaridan biri jahon iqtisodiyotining sur'atini belgilaydigan energiyani iste'mol qilish ko'lami muttasil kengayib borayotganligidir. Agar hozirgi sur'atda jahon iqtisodiyoti davom etadigan bo'lsa, u vaqtda sanoat va xalq xo'jaligining energiyaga bo'lgan ehtiyoji uchun yaqin yillar ichida yiliga 20 mlrd. tonna yoqilg'i talab qilinadi. Bu ko'rsatkich 2025 yilda 35-40 mlrd., XXI oxiriga borib, 80-85 mlrd. tonnani tashkil etishi taxmin etilmoqda.

Vujudga kelayotgan bu holardan chiqib ketishning yo'li esa bitta, u ham bo'lsa, yoqilg'ining organik moddalar (neft, ko'mir, gaz va x. k.) dan olinadigan energiya salmog'ini kamaytirib, noorganik yoqilg'i manbalar (GESlar, ALES, shamol elektrostansiyalar, quyosh energiyasidan foydalanish, vodorod, geliy va x. k.) dan olinadigan energiya miqdorini muttasil oshirib borish. Quyosh energiyasi, GES va shamol elektrostansiyalar 2025 yilda bu ehtiyojning 60%ini qondirishi mumkin.

Yaqin kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlarda elektr energiyasi ishlab chiqarishni tez sur'atlar bilan ko'paytirib borish ko'zda tutilmoqda. Butun jahonda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining qariyb 34% ana shu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Elektr energiyasining shu qadar tez sur'atlar bilan ishlab chiqarilayotganligi yon atrofdagi tabiiy va ijtimoiy muhitga ta'sir etmasdan iloji yo'q. Masalan, gigant GESlarning qurilishi o'z navbatida ana shu regionning iqlim sharoitiga, yon atrofdagi shahar va qishloqlarda xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlariga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin (masalan, ekin maydonlarining qisqarishi, mavjud maydonlarning sho'rlanishi va ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin). Atom elektrostansiyalarining chiqindilarini bartaraf etishning ekologik xavfsizlik masalalari hozirgi davrning echlilishi murakkab muammolarga aylandi. Ayniqsa, 1986 yil 26 aprel kuni Chernobil AES IV blokining ishdan chiqishi

natijasida juda katta miqdordagi radiatsiyaning xavoga tarqalishi mazkur regionning yashashga mulqo yaroqsiz bo'lib qolishiga sababchi bo'ldi.

Insoniyat oldida jahon iqtisodini o'stirish uchun energiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirishdan o'zga chora yo'q. Biroq, bugungi kunda elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonida mavjud tabiiy muhitga ta'sir darajasini kamaytirgan holda energiyani ko'proq ishlab chiqarish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Shuning uchun ham bu muammoni ijtimoiy taraqqiyotning kelajagini belgilab beradigan eng muhim omillardan biri sifatida jahonshumul ahamiyatga molik muammolar o'lasiga kiritilishini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Xom-ashyo resurslaridan foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash muammosi. Jahon statistik axborot markazlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, XX asrning boshidan to hozirgi kungacha ishlab chiqarilgan ko'mirning 45%, temir rudasining 57%, neftning 76%, tabiiy gazning 80% keyingi 25 yilga to'g'ri kelar ekan. Ana shunday holani xom-ashyoning boshqa turlari to'g'risida ham qaytarish mumkin. Tahlillarga qaraganda, 90-yillarda ishlab chiqarilgan xom-ashyo miqdori 60-70-yillardagiga qaraganda 1,5-2 barobar ko'paygan.

Yer yuzida vujudga kelgan bunday holat, bir tomondan, insoniyatni xom-ashyo resurslari bilan ta'minlash imkoniyatlari, hosildor etlar va ichimlik suvi manbalarining kamayib borishi, shuningdek boshqa xom-ashyo zaxiralariining kamayib ketishi kabi boshqa bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Vujudga kelgan ekologik vaziyat, tabiiy muhitning inson organizmiga va uning ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Boshqa tomondan esa, fan-texnika taraqqiyotining ko'lami asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini xom-ashyo resurslari, foydali qazilmalari bilan etarli miqdorda ta'minlash muammosini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Mazkur muammoni ilohiy hal qilish uchun, iqtisodchilarning tahlillariga ko'ra, jahon mamlakatlarining har biri o'zi ishlab chiqargan yalpi milliy maxsulotning 3-5% miqdorida mablag' ajratishi zarur. Demak, xar yili o'rtacha hisob bilan 650-850 mlrd. dollar hajmida mablag' ajratilishi talab etiladi.

Juda ko'p rivojlangan mamlakatlarda ichimlik suvining tanqisligidan kiynichiliklar yuzaga chiqmoqda. Ayni shu mamlakatlardan 42-45% km³ hajmida sanoatdan chiqqan iflos oqava suvlar suv havzalari, ko'l, dengiz, okean suvlarini o'zining zaharli tarkibi bilan bul'g'amolqda. XXI asr boshlariga kelib, toza ichimlik suvlariga bo'lgan ehtiyoj dunyo miqyosida asrimizning 90-yillariga nisbatan yana 2,3-2,5 barobar oshdi.

Dunyo okeaning ifloslanishi, jonli tabiatning yo'qotilishi yanada xavfli tus olmoqda. Har yili okenlarga 12-15 mln. tonnaga yaqin neft va neft mahsulotlari to'kilmolqda, shaharlarning kengayishi, sanoat korxonalarini qurish uchun ming-minglab gektar er maydonlari ajratib berilmolqda, o'rmonlar kesilib yashil eirlar kamaymolqda. Bu tendentsiya, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda xavfli tus olmolqda. Dunyoda har yili 0,8% tropik o'rmonlar yo'qolib bormolqda, 200 ming km² territoriyadagi tropik o'rmonlar kesilib qayta tiklanmay qolmolqda. Hozirgi paytda yiliga 8,3 mln. gektar, yoki minutiga 16 gektar o'rmon yo'qotilmolqda. Tabiiy muvozanatning dunyo miqyosida tez o'zgarishining oqibati hozirning o'zidayoq insonning yashashi va faoliyati uchun o'ta zarur bo'lgan mo'tadil muhitning buzilishiga olib kelmolqda.

Davrimizning yana salbiy belgilaridan biri shundaki, inson faoliyati ko'lining miqyosi tobora biosferani to'la egallab, endilikda kosmosga ham ta'sir eta boshladi.

Oziq-ovqat muammosi va biosfera. Nihoyatda tez o'sib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi keyingi paytlarda jahonning bir qancha mintaqalarida ancha keskinlashdi. Mayjud ma'lumotlarga asosan, dunyo xalqlarining 2/3 qismi doim oziq-ovqat taqchiligi hukm surayotgan mamlakat xalqlari hissasiga to'g'ri kelmolqda. Bu mintaqalarda ekitadigan er maydonlari aholi jon boshiga nisbatan kamayib, 0,2 ga. ni tashkil etmolqda. Holbuki, 1950 yilda bu ko'rsatkich 0,5ga. ni tashkil etgan edi.

Oziq-ovqat zaxiralariining o'sishini, bir tomondan, ishlanaigan er maydonlarini kengaytirish hisobiga, ikkinchi tomondan ekitayotgan maydonlarning hosildorligini oshirish hisobiga ta'minlash mumkin. Keyingi

paytlarda hosildorlikni ko'paytirish ustida juda ko'p ishlar qilinib, 80 - yillarning oxirlariga kelib dunyo miqyosida etishtirilgan mahsulot o'sishining 90% hosildorlikni ko'tarish hisobiga to'g'ri keldi. Ammo, bizga ma'lumki, bunday muvaffaqiyatlarga tabiatga haddan ziyod qilingan qatitq zugi'um qilish natijasida erishiladi. Juda ko'p eirlar bunday tazyiqqa dosh bera olmasdan ishdan chiqa boshladi. Bu eirlarni tabiiy holatiga qaytarish uchun imkoniyat qolmadi.

Bunday tahlikali holatning sabablarini aholining tabiiy o'sishi nihoyatda tez sur'atlar bilan ko'paygani, ularning ish va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi bilan tabiiy muhitning ekologik muvozanatini saqlash uchun etarli mablag'ni topa olmayotganligidan izlash kerak.

Rivojlangan va kam taraqqiy etgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni yo'qotish ham davrimizning eng chigal jahonshumul muammolari qatoridan o'rin oladi. Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy texnologiya, ilg'or ishlab chiqarish mahkasi va insoniyatning ilmiy-texnika yutuqlari sistemalashtirilgan bilimlar maxrasi to'planib, shu bilan birga aholining tabiiy o'sish darajasining pastligi boshqa mamlakatlarga nisbatan o'z mamlakati aholisining iqtisodiy yashash tarziining beqiyos darajada yaxshilanishiga olib keldi. Bu mamlakatlarda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning o'ziga xos tomonlari shundaki, mazkur mamlakatlarda industrlashirish jarayoni asrimizning 70-yillari boshidayoq tugallanib, eng avval AQSh va keyinchalik Germaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarish taraqqiyotining yanada yuqoriroq bosqichiga o'ta boshladi. Bunda ilmiy-texnika yutuqlari ko'proq talabga mos va yuqori texnologiyani rivojlantirishga ko'p e'tibor berdi, tabiiyki, oqibatda juda katta foyda olina boshlandi. Bunday ishlab chiqarish jarayonida malakasiz yoki kam malaka va bilimiga ega bo'lgan ishchi kuchlariga ehtiyoj keskin kamayib ketadi.

Bunda iqtisodiy taraqqiyot darajasi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan emas, balki ilmiy-bilim, texnologiya, murakkab mashina va uskunalar bilan o'lcchanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bu darajaga etishish uchun bir qator jarayonlardan o'tgan.

Birinchiidan, bu mamlakatlar tabiiy boyliklari hisobiga o'tirtilgan milliy daromad miqdorining mamlakat aholisi jon boshiga tushadigan salmog'i keskin darajada ko'paydi.

Ikkinchidan, mamlakat aholisining tug'ilishini chegaralash, ularga sarflanadigan mablag'ni yuqori texnologiyani egallashda zarur bo'lgan mutaxassislar etkazish uchun sarflash ko'zda tutiladi.

Uchinchiidan, ilmiy-tadqiqot, oliy o'quv yurtlari va maorifga taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy manba sifatida qarab, birinchi darajali ahamiyat berildi. Chunki yuqori texnologiyani egallash yuqori malakali ilm egalari talab qiladi. Jamiyiy taraqqiyot darajasini belgilovchi eng asosiy omil ilmiy tafakkur esa jamiyat a'zolarining ma'rifatlilik darajasini belgilab beradi. Bu sohada, butun jahon miqyosida fan va ta'limga 3-4% yalpi milliy mahsulotning miqdorida mablag' ajratilayotgan bir paytda, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 8,3% miqdorda ekanligi kelajakka katta umid bilan qarashga imkon tug'diradi.

XX asrning so'nggi o'n yilligida ba'zi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy ko'rsatkich orasidagi tafovut tobora kuchayib borayotganligini kuzatish mumkin. Agar XX asrning 60-yillarida Hindistonda ishlab chiqariladigan yalpi ijtimoiy mahsulot jon boshiga 50-70 dollarni tashkil etgan bo'lsa, Afg'onistonda 60-70 dollar, Turkiyada 243 dollar, Yaponiyada 1400 dollar, AQShda 3600-3800 dollar bo'lgan. 1994 yilgi ma'lumotlarga muvofiq, yalpi milliy mahsulot jon boshiga: Hindistonda 370 dollar, Afg'onistonda 80 dollar, Turkiyada 3900 dollar, Bangladeshdan 125 dollar, Germaniyada 22 ming dollar, Italiyada 14,8 ming dollar, AQShda 26 ming dollar, Janubiy Koreyada 8,7 ming dollar, Yaponiyada 37000 dollar bo'lgan.

Demak, kambag'al davlatlarning kambag'allashishi yanada kuchayib bormoqda. Buning bosh sababchisi, shu mamlakatlardagi demografik jarayon ekanligi ta'kidlanmoqda. Aholining faqat miqdoriy o'sishining o'zi ko'r-ko'rona yaxshi yashash tarziga olib kelavermaydi. Buning uchun mamlakat aholisining e'tiqodi, milliy psixologiyasi, qadriyat va an'alarini hisobga olgan holda faol demografik siyosat olib borish zarur.

Demografik muammolar va uning falsafiy tahlili. XX asr o'zining bir qator belgilari bilan oldingi barcha davrlardan keskin farq qiladi. Xususan, XX asrni yana «demografik portlash» davridir, degan qarashlar ham keng tarqalgan. Bunda qolgan barcha jahonshumul muammolarni keltirib chiqaruvchi bosh sabablardan biri ham aynan er yuzida aholining tez sur'atlar bilan ko'payishi bilan bevosita bog'liq ekanligi nazarda tutiladi. «Demografik portlash» tushunchasi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning qisqa bir davrida, muayyan mintaqaga yoki mamlakatda va shuningdek, butun er yuzida tabiiy tug'ilish hisobiga aholi miqdorining nihoyatda tez ko'payishini anglatadi.

Insomiyatning oldida ana shunday xavf borligi to'g'risida dastlab ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus (1766-1834 yy.) o'gohlantirgan edi. U o'zining «Aholishunoslikning qonuniyati to'g'risida tajribalar» nomli kitobida aholining geometrik progressiya bo'yicha ko'payishini, uning xayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarning ko'payishi arifmetik progressiya bo'yicha ro'y berishini aytgan edi. Maltus bu jarayonning oldi olinmasa, yaqin kelajakda, planetalar masshtabida, tabiiy muhit berishi mumkin bo'lgan moddiy ne'matlar miqdori bilan juda tez sur'atlarda ko'payayotgan dunyo aholisi ehtiyoji o'rtasida ziddiyat vujudga kelishini bashorat qilgan edi.

Darhaqiqat, bundan 6-8 ming yillar oldin er yuzida 5 mln. atrofiida odamlar istiqomat qilishgan, deb taxmin qilinadi. Bu ko'rsatkich eramizning boshlarida 230 mln., 1-ming yillikning oxiri 2-ming yillik boshlarida, ya'ni Beruniy zamonida 305 mln; 1500 yilda 440 mln; 1800 yilda 952 mln; 1900 yilda 1656 millionni tashkil etgan. XVI asr boshidan XIX asr boshigacha, ya'ni uch asr mobaynida bu ko'rsatkich 174 foizga oshganligini; 1900 yildan to 1999 yilgacha esa bu nisbat sal kam 4 barobar oshganligini kuzatamiz.

XX asrning ikkinchi yarmida er yuzi mintaqalarida aholining tabiiy ko'payish sur'atlari turlicha bo'lib, bu o'z navbatida, Er yuzida mintaqalar, mamlakatlar, xalqlar salmog'ining keskin o'zgarishiga olib kelmoqda. Masalan, 1800 yilda (Napoleon zamonida) Frantsiya aholisi 27 mln. kishini, Er yuzi aholisining 3 foizini tashkil etgan bo'lsa, Filippin orollarida yashayotgan aholi 1,6

mln. kishi miqdorida bo'lib, planeta aholisining umumiy salmog'iga nisbatan 0,16 foizni tashkil etardi. 1999 yil 13 oktyabr kuni Er yuzi aholisi olti milliardlik dovoni bosib o'tdi. Frantsiya aholisi 56,2 mln. ni, Er yuzi aholisi salmog'ining 0,94 foizni, Filippin aholisi ham 65 mln. kishini tashkil etib, jahon aholisidagi salmog'i (1,05%) bo'yicha Frantsiyadan o'zib ketdi. Bu borada milliarddan ko'p aholi yashaydigan Xitoy va shu ko'rsatkich tomon borayotgan Hindiston alohida o'rin tutadi. Xullas, bu masala bir mamlakat doirasidan chiqib jahon muammosiga aylanadi. U bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun harn butun jahonda musharak faoliyat olib borish zarur.

O'zbekiston va global muammolar. Mamlakatimizning kelajagi to'g'risidagi ilmiy-falsafiy bashorat Prezidentimiz I. Karimov tomonidan «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot katoatlari», «O'zbekiston XXI asrga intilmog'da» va boshqa bir qator asarlarida asosi ravishda hayon qilib berilgan. Bu asarlarda O'zbekistonning mintaqamizdagi o'ziga xos o'rni, ulkan tabiiy resurslari, demografik omil va inson salohiyatini inobatga olib, boy ma'naviy merosimiz, tarixiy tajriba, milliy qadriyatlarimizga asoslanib, yaqin kelajakda mamlakatimiz, shubhasiz rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'ringa ega bo'lishi kerakligi bashorat qilingan. Islom Karimov to'g'ri ta'kidlagani kabi: «Jahon tsivilizatsiyasi xazinasiga ulkan hissa qo'shgan boy tariximiz, buyuk madaniyatimiz, ko'p avlodlar hayoti davomida vujudga kelgan beqiyos tabiiy va aqliy imkoniyatlarimiz, xalqimizning yuksak madaniyati va axloqiy qadriyatlarimiz, zaminimizda yashayotgan odamlarning mehnatsevarligi, saxovatligi, bag'rikengligi va jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga bo'lgan istagi buning garovidir».

Albatta, mamlakatimizda sobiq Ittifoqdan meros qolgan eng global muammo – Orol fojiasi ekanligini bilamiz. Bu borada respublikamiz mintaqadagi davlatlar orasida ko'pdan-ko'p tashabbuslarni o'rta qashlab kelmog'da. Shu bilan birga mamlakatimiz aholisi ham muttasil o'sib bormog'da.

Respublikamizda «demografik portlash» asosan, XX asrning ikkinchi yarmida ro'y berib, bu jarayon (boshqa bitor jiddiy omillar ta'sir etmаса) XXI asrning dastlabki o'n yilliklari oxirigacha davom etishi bashorat qilingmog'da. Respublikamizda hozirgi vaziyatda vujudga kelgan o'ziga xos «demografik vaziyat» g'oyat muhim xususiyatlardan biridir, – deb qayd qilgan edi Prezident I.A. Karimov, – Jumhuriyatimizda aholi va mehnat resurslari har yili yuksak sur'atlar bilan ortib bormog'da». Jumladan, 1980 yilda aholining bir yillik tabiiy o'sishi 421161 kishini tashkil etdi, bu ko'rsatkich 1989 yilda 480621 kishini, 1997 yilda 580673 kishini tashkil etdi.

O'zbekiston o'z aholisi o'sish bilan bog'liq masalarni, aytilish mumkinki, muvaffaqiyatli hal qilishga kirishdi. Prezidentimizning bozor munosabatlarga o'tishda aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish siyosati, respublikamizda bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy tengsizlikning oldini olishga xizmat qildi.

Keyingi paytlarda respublika hukumati onalarning sog'lig'ini muhofaza qilish, tug'ilgan xar bir chaqaloq oldida ota va onaning, qolaversa, jamiyatning javobgarlik hissin oshirish borasida, shuningdek farzandning ota-ona va Vatani hamda xalqi oldidagi burchlarini chuqur anglashlari uchun juda katta ma'naviy rag'batlantiruvchi iadbirlar ishlab chiqqanligi o'ta muhim ahamiyat kasb etdi. Shu muqasadda «Sog'lom avlod» jamg'armasining tuzilishi, «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi fikrimizning dalili bo'latdi.

Bugungi kunda o'zbek xalqining qadriyatlari asosida yosh avlod dunyoqarashi shakllantirilganda, shubhasiz ajdodlarimizning o'z Vatani, tabiiy muhitiga bo'lgan mehr-muhabbati bo'lish kabi muqaddas tug'usining avlodlardan-avlodga meros bo'lib o'tayotganligini va bu meros oldida chuqur mas'uliyat hissi bo'lishi zarur ekanligini hisobga olish lozim.

O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:

1. Global muammolar – globallashuvning oqibati sifatida.
2. Global jarayonlarning kurtaklari.
3. Fundamental globallashuv.

4. Global muammolarni hal qilishda falsafaning roli.
5. Global muammolarning mohiyati.
6. Globallashuv – yangi falsafiy mavzu.
7. Global muammolarni hal qilishda xalqaro kuchlar birlashuvining ahamiyati.
8. Ijtimoiy rivojlanishning jadalashuvida global tendensiyalarni anglashning ahamiyati.

7-mavzu: Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida. Mulohaza. Xulosa chiqarish

Maqsad va vazifalari:

Talabalarni to'g'ri fikrlashning mantiqiy shakllari va qonun-qoidalar bilan tanishtirish va shu asosida ularni murakkab mantiqiy masalalar va mashqlarni yechish malakasini mustahkamlash, umuman, mustaqil va e'tkin tarzda fikr yuritish

qobiliyatini takomillashtirishdan iborat. Talabalar tafakkur shakli sifatida tushunchaning mohiyatini anglab olishlari, tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni shartlashni va tushunchalar ustida bajariladigan mantiqiy amallardan o'rinni foydalanishni bilishlari zarurdir. Tafakkur shakli sifatidagi hukm, uning turlari va ular o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarni yetarlicha mantiqiy tahlil qila olishlari lozim. Talabalar xulosaning tarkibini va turlarini bilib olishlari, xulosaning asosiy muhim belgilari haqida tasavvurga ega bo'lishlari, qishloq va suv xo'jaligi xodimlari amaliy faoliyatida xulosa qilishning usullaridan to'g'ri foydalanishning ahamiyatini tushunishlari kerak.

Reja

1. Tafakkur - mantiq ilmining o'rganish ob'ekti.
2. Mantiqning asosiy qonunlari
3. Tushunchaning mohiyati va uning ifodalanishi. Mulohaza va uning turlari.
4. Xulosa chiqarishning mohiyati va turlari, analogiya va uning turlari
5. Mantiq ilmining nazariy va amaliy ahamiyati.

Tayanch so'zlar: Mantiq, bilish, hissiy bilish, aqliy bilish, tafakkur, tafakkur shakllari, tafakkur qonunlari; formal, dialektik va matematik mantiq. Predmet belgisi, termin, tushuncha, tushuncha mazmuni, tushuncha hajmi, tushunchalarni umumlashtirish, tushunchalarni chegaralash, tushunchani bo'lish, klassifikatsiya, sub'ekt (S), predikat (P). Isbotlash, rad etish, tezis, argument, isbotlash usuli, antitezis, isbotlash va rad etish qoidalarini, isbotlash va rad etishda

uchraydigan mantiqiy xatolar, sofizm, parodoks, paralogizim, muammo, savol, javob, muammoli vaziyat, muammoni qo'yish, muammoni hal etish, gipoteza, ishihi gipoteza, nazariya, aksiomatik nazariyalar, formal sistemalar.

Tafakkur - mantiq ilmining o'rganish ob'ekti

«Mantiq» («Logika») eng qadimgi fanlardan biri bo'lib, uning asoschisi Yunon faylasufi Aristoteldir. Logos atamasi grek tilida «fikr», «so'z», «aq», «qonuniyat» kabi ma'nolarni ifodalaydi. «Mantiq» atamasi logika terminiga ekvivalent xisoblanadi. Mantiq (logika) atamasi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi: birinchidan, ob'ektiv olam qonuniyatlarini ifodalashda (masalan, «ob'ektiv mantiq», «narsalar mantiqi» kabi iboralarda); ikkinchidan, har bir insonning o'ziga xos tafakkurlash usulini, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni anglatishda (masalan, «sub'ektiv mantiq» iborasida) va uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan ma'nosida.

Mantiq ilmining o'rganish ob'ekti tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur» ham arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilidagi «fikrlash», «aqliyl bilish» so'zlariga teng ma'noli tushuncha sifatida qo'llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Bilish voqealarning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida sub'ektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi. Bilish murakkab, ziddiyati, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Bu jarayonni shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin: hissiy bilish va aqliy bilish. Hissiy bilish (sezgi organlari vositasida bilish) uning dastlabki bosqichi bo'lib, unda inson sezgi organlari yordamida predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari haqida ma'lumotlarni oladi. Sezgi, idrok va tasavvur hissiy bilish shakllari xisoblanadi.

Hissiy bilishga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Hissiy bilishda ob'ekt (voqealik) sub'ektga (insonning sezgi organlariga) bevosita ta'sir etadi.
2. Hissiy bilish shakllari: sezgi, idrok va tasavvur predmetning tashqi

munosabatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

3. Hissiy bilish shakli predmetning yaqol obrazini xosil qiladi.

4. Hissiy bilish xar bir konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog'liq tarzda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

5. Hissiy bilish bilishning dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi, usiz bilish mavjud bo'la olmaydi. Chunki, inson tashqi olam bilan sezgi organlari orqali bog'langan bo'lib, bilishning keyingi bosqichida sezgilari bergan ma'lumotlarga tayanadi.

Hissiy bilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, unda mavjud predmetlar o'rtasidagi aloqadorlik o'rganilmaydi, predmetlarning umumiy va yakka, muhim va muhim, zaruriy va tasodifiy xususiyatlari farq qilinmaydi, mohiyati aniqlanmaydi. Hissiy bilish tafakkur (aqliyl bilish) bilan uzviy bog'liq.

Tafakkur shakli va tafakkur qonuni tushunchalari

Tafakkur tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud bo'ladi. Inson bilish jarayonida buyum va hodisalar, ularning sifat, xususiyatlari haqida tushunchalar xosil qiladi, fikr-mulohaza yuritadi, ularni mantiqiy bog'lab, axdollar xosil qiladi. Bu jarayonni tushunish uchun tafakkur shakli va tafakkur qonuni nima ekanligini bilib olish zarur.

Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi)dir. Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifodalangan belgilari haqidagi axborotlar tushuniladi. Masalan, «mening onam» tushunchasida bizni dunyoga keltirgan, boqib katta qilgan, tarbiyalagan ayol aks etadi. Agar tushuncha (mening onam) aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, ya'ni fikrlash elementlarini a, v, s, ..., n bilan belglasak, tushunchaning mantiqiy strukturasi A (a, v, s, ..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Hukm (mulohaza)larda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o'rtasidagi munosabotlar, predmetning mavjudligi haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklida ifoda etiladi. Masalan, «Humari kishi — xor bo'lmas» degan hukmda predmet (humari kishi) bilan uning xossasi (xor bo'lmas) o'rtasidagi munosabat qayd

etilgan. "Adxam Karimning ukasi" degan hukmda ikkita predmet (Adxam va Karim) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo'lgan bu hukmlar tuzilishiga ko'ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya'ni R ning S ga xosligi tasdiqlangan. Umumiy holda hukmning mantiqiy tuzilishini $S \rightarrow R$ formulasi yordamida ifoda etish mumkin. Tushuncha va hukmi farqlashda ularning shakli e'tiborga olinadi. Masalan: a'lloch o'quvchi(tushuncha) va o'quvchi a'llochdir (hukm).

Yuqoridagi misollar tafakkur shakli fikrning konkret mazmuniga nisbatan mustaqil holda mavjud bo'lishini va o'ziga xos qonuniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham mantiq ilmi ta'fakkur shakli alohida olib o'rganiladi.

Fikrning chin bo'lishi va shakl jihatdan to'g'ri qurilishi ishonchli bilimga erishishning zaruriy shartlaridan biridir. O'zi ifoda qilyotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr chin hisoblanadi (masalan, paxta-yumshoq). Predmetga mos kelmaydigan fikr xato fikrdir (masalan, suv - suyuqlik emas). Fikrning to'g'ri yoki xato bo'lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatidir.

Fikrning chin bo'lishi formal jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishiga ham bog'liq. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo'lib, ta'fakkurda hosil bo'ladigan turli xildagi mantiqiy amallarda o'z aksini topadi. Fikr chin bo'lib, shakliga ko'ra xato bo'lishi, va aksincha, fikr xato bo'lishi, lekin shakliga ko'ra to'g'ri tuzilgan bo'lishi mumkin.

Tafakkur qonuni muhokama yuritish jarayonida qatnashayotgan fikrlash elementlari o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Fikrni to'g'ri qurishga ta'fakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin.

Bu talablarga birinchi navbatda, ularning muayyan prinsiplar, qoidalar tarzida, ya'ni to'g'ri ta'fakkur prinsiplari sifatida amal qilinishi kiradi. To'g'ri ta'fakkur prinsiplarining buzilishi muhokamaning noto'g'ri qurilishiga sabab bo'ladi. Bunda, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, "Do'konga mol keldi. Mol - uy xayvoni. Demak, do'konga uy xayvoni keldi.") yoki xato qurilgan

muhokamadan chin xulosa chiqishi mumkin. Ta'fakkur shakli va qonunlarini bilish va ularidan to'g'ri foydalanish bilish jarayonining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Formal mantiqning predmeti

Har bir fan kabi mantiq ham o'zining o'rganadigan ob'ekti va predmetiga ega. Ta'fakkur mantiq fanining o'rganish ob'ekti. Ta'fakkurni mantiq fanidan tashqari falsafa, fiziologiya, psixologiya, dialektika, kibernetika kabi fanlar ham o'rganadi. Grammatika mantiq faniga yaqin bo'lib, fikrni aniq va bexato ifodalashga yordam beradi. Tushuncha va hukmlarning ifodalash strukturasi aniqlashda ham grammatikaning roli katta. Falsafa ta'fakkurni moddiylik va ideallikning o'zaro aloqadorligi nuqtai nazaridan o'rganadi. Psixologiya ta'fakkurni ruhiy jarayonlar bilan bog'liq xolda tadqiq etadi. Yuqorida tilga olingan fanlarning har biri ta'fakkurga o'z nuqtai nazaridan yondashadi, uning turli qirralarini ochib beradi. Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni yechish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariyaning strukturasi o'rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo'lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Mantiqning asosiy qonunlari

Ma'lumki, har bir dunyoviy fanlarning o'ziga xos qonunlari bo'lib, ular voqelikni o'rganishda katta yordam beradi. Masalan, tabiat sohasiga oid qonunlar tabiiyatsunoslik fanlari - fizika, ximiya, biologiyaga tegishli bilimlarni, jamiyatga oid qonunlarga esa, jamiyatsunoslik fanlari - tarix, siyosatshunoslik, falsafaga oid bilimlarni keltirib chiqaradi.

Qonun tushunchasi, jumladan, mantiqiy qonun tushunchasi nimanidir? Qonun narsa va hodisalar o'rtasidagi ob'ektiv, takrorlanib turuvchi mulhim, zaruriy, umumiy, qat'iy va barqaror munosabatlarni va bog'lanishlarni ifodalaydi.

Tafakkur qonunlari esa, fikrlar o'rtasidagi eng umumiy, zaruriy, barqaror takrorlanuvchi bog'lanishlarni ifodalaydi. Ta'fakkur qonunlaridagi o'ziga xos

xususiyat nimada? Tafakkur qonunlari ham kishilarning fikrlarida mavjud bo'lgan zaruriy, ob'ektiv bog'lanishlardan bahs yuritadi. Mazkur qonunlarning zaruriy va ob'ektivligi shundaki, kishilar ularni chuqur bilib olib o'z ommaviy faoliyatlarida foydalanmasalar, ularning hayotidagi o'rinlari nomukammal bo'ladi.

Mantiq mazkur zaruriy bog'lanishlarni qonun darajasida o'rganar ekan, ularni ob'ektiv borligining emas, balki sub'ektiv mavjudodlikning asosiy jihatlari kabi izohlaydi. Fikrlar o'rtasidagi eng oddiy va zaruriy bog'lanishlar mantiqning to'rt asosiy qonunlari orqali ifodalangani. Bular ayniyat qonuni, ziddiyat qonuni, uchinchi istisno qonuni va yetarli asos qonunidir.

Bu qonunlar asosiy qonunlar bo'lib mantiqda alohida muhim va eng umumiy hisoblanadi. Mantiq ilmi ham insonga xos bo'lgan tafakkurning ob'ektiv reallikdagi munosabatlarini to'g'ri aks ettiruvchi fikrlash jarayonining ichki o'ziga xos tomonlarini, qonun qoidalarini o'rganishga intilishi jarayonida vujudga keldi va shakllandi. Fan, shu jumladan, mantiq fani ham, insonning ilmiy-ijodiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, uning ob'ektiv reallikdagi jarayonlar, sababiy bog'lanishlar, tashqarida va yuzada ko'rinuvchi voqea-hodisalarning mohiyatlari, qonun va qonuniyatlarni aniqlaydi. Ob'ektiv qonunlarni bilish, ularni to'g'ri aks ettirish fanlarning rivojlanishiga olib keladi. Fanlarning rivoji bu insonga tabiiat sirilarini ochish, uning kuchlariga ta'sir etish, bu kuchlardan amaliy faoliyat uchun foydalanish imkonini beradi. Mantiqiy qonunlar inson tafakkuriga xos bo'lgan, inson tafakkurida turli fikr mulohaza, muhokamalar munosabatidagina amal qiladigan qonuniyatlardir.

Fizik yoki kimyoviy hodisalar va jarayonlarning o'z ichki qonuniyatlari kimyoviy qonunlar hamda fizik qonunlar asosida amalga oshishi bilan bir qatorda, umumiy dialektik qonunlarga ham bo'ysunadi.

Shuningdek, mantiqiy qonunlar dialektik qonunlarga nisbatan xususiy qonunlar, bu tafakkurning maxsus qonunlari bo'lib, u tafakkur tuzilishining elementlari o'rtasidagi fikrlashning shakllari tushunchalar, hukmlar o'rtasidagi to'g'ri bog'lanishning ajralmas zaruriy xislatiningina ifodalaydi. Ular orasida umumiylik va xususiylikning uzviy bog'lanishi munosabati mavjuddir. Albatga,

mantiqiy qonunlarni mutloqlashtirish, ularning amal qilish doirasini kengaytirib yuborish g'ayri ilmiy xulosalarga olib keladi. Fanda falsafa tarixida mantiqiy qonunlarning amal qilish doirasini kengaytirib, ularni tafakkurninggina emas, hatto tabiiat, jamiyatning ham mutloq qonunlari deb da'vo etishlari ko'p bo'lgan. Bu da'volar ilmiy taraqqiyot jarayonida o'z-o'zidan tushib qoldi.

Ayniyat qonuni

Ayniyat qonuni mantiqiy tafakkurning eng muhim hislatlaridan bo'lgan har bir fikr, muhokama aniq, ravshan bo'lishni o'zida ifodalaydi. Shuning uchun ham fikrlar hamma vaqt to'g'ri bo'lishi, barcha kishilarga tushunarli darajada ifoda etilishi zarur. Chunki, muayyan buyumlar haqidagi fikrlar ayni shu muayyan fikrlar to'g'risida bo'lishlari, boshqa buyumlar haqidagi fikrlar ham o'zga fikrlar kabi qabul qilinishi tafakkurga qo'yiladigan talablardan biridir. Ayniyat qonuni ayni shu mezoniylikni ta'minlaydi.

Ayniyat qonuni talablari - aynanlik, muayyanlik prinsipi cheksiz mazmunini kengaytirib yuborish, uni real predmet, hodisalarga ko'chirish, mulqo noto'g'ri, g'ayriilmiy xulosalarga olib keladi.

Ayniyat qonunining talablari har bir tafakkur shaklining o'ziga xos bo'lgan konkret qoidalariga, konkret holda o'z ifodasini topadi.

Ziddiyatsizlik qonuni

Ayrim hollarda fikrlarimizning buzilishi mumkin. Chunki, muhokama yuritilganimizda hohlaymizmi, yo'qmi ziddiyatli vaziyatga duch kelamiz. Darhaqiqat, mavjudlikning o'zi ziddiyatlidir. Fikrimiz esa, mazkur mavjudlik o'zgarib, rivojlanishi bilan o'zgarib, rivojlanib, boyib, chuqurlashib, teranlashib boradi.

To'g'ri fikrlar esa, doimo o'zgarmas, muayyan mavjudodlik maromining olibatan ustivor, sobit jihatlarining ifodasi bo'lishi zarur. Rivojlanayotgan voqealarning har labzida boshqa - boshqa ta'rif va tavsiflarga ega bo'lishi, mazkur munosabatlarni fikrlarimizga nisbatan ham tadbir etishini, ya'ni fikrlarimizning ham o'ziga muvofiq o'zgarib turishi lozimligini tan olishini taqozo qiladi.

Ziddiyatsizlik qonuni ziddiyatga yo'l qo'yamlikni talab qiluvchi, fikrning ziddiyatining oldini olishga qaratilgan qonundir.

Mantiqiy tafakkurda ziddiyatning bo'lmagligini noto'g'ri talqin qilish, metafizik tushinish ob'ektiv reallikning muhim hislati bo'lishi dialektik qarama-qarshilikning inkor etishga olib keldi.

Real hayot ziddiyatlari, ya'ni dialektik ziddiyat bilan mantiqiy tafakkurda ziddiyatlarni bir-biridan keskin farq qilish, ularni almashitirib yubormaslik kerak.

Hayot ziddiyati bu ob'ektiv reallikda, tabiat va jamiyada mavjud bo'lgan predmet, hodisalarga oid ichki ziddiyatni, ya'ni dialektik ziddiyatni ifodalaydi. Bu ob'ektiv ziddiyat shundan iboratki, predmetlar va hodisalar har doim rivojlanish va o'zgarishda, bir predmet vaqt o'tishi bilan o'zgarib, o'zining ma'lum holatini, hislatlarini yo'qotadi, boshqa narsalarga aylanib ketishi ham mumkin. Demak, dialektik ziddiyat butun borliqning va hatto insoniyatning ham o'zgarish va rivojlanishni ifodalaydi. Dialektik ziddiyat rivojlanish manbaidir.

Inson bilimlari va fanning rivojlanishi ham shu ziddiyat asosida yuzaga chiqadi. Dialektik ziddiyat demak, bu reallikning, moddiy olamning ob'ektiv ziddiyatidir.

Dialektik ziddiyat ham inson fikridagi mantiqiy qonun - ziddiyatsizlikni nazarda tutadi. Ya'ni, hayot ziddiyatini tartibli, izchil, pala-partish bo'lmagan, bir-biriga zid bo'lmagan fikrlarda, muhokama, xulosalardagina to'g'ri aks etirish mumkin emas.

Aks holda esa, ob'ektiv hayotni unga xos bo'lgan real xususiyatlarini, jumladan, ziddiyatni ham to'g'ri aks ettirish, demak, haqiqatni bilib olish mumkin emas.

To'g'ri fikrlarning ziddiyatsiz bo'lishi ma'lum shart-sharoitni taqozo qiladi. Bir vaqtning o'zida bir masalaga nisbatan bir ma'noda ikki zid fikrning to'g'ri bo'lishi mumkin emas. Lekin turli ma'noda yoki turli vaqtda turli nisbatda ishga zid fikrning mavjud bo'lishi hamda to'g'ri bo'lishi mumkin. Chunki, yuqorida aytganimizdek, predmet, hodisa vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, hatto u qarama - qarshi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Masalan: Orol ko'li - katta ko'l (ssiq ko'lga nisbatan)

Orol ko'li - kichik ko'l (Boygalgaga nisbatan). Orolning suvi ko'p (40 yil davval) Orolning suvi oz (hozirgi kunda).

Bu hukmlar ham to'g'ri, haqiqatdir, chunki ular turli nisbatda, turli vaqtda nisbatan kelayotir.

Hakimov yosh odam.

Hakimov qari odam.

Bu hukmlar ham bir vaqtning o'zida to'g'ri bo'lishi mumkin, agarda Hakimov nomi bilan ikki shaxs tushunilsa, yoki Hakimovning 20 yoshlik chog'i va 70 yoshlik chog'lik haqida gap borsa. Bunday holda ikki hukm o'rtasida ziddiyat yo'q.

Vaqt fikr, munosabat, nisbat birlejinining saqlanishi ziddiyat qonunining amal qilishi uchun zarur shart - sharoitdir.

Ya'ni, ziddiyat qonuni ayni bir vaqtda ayni bir nisbatda, ayni bir predmet haqida aytilgan ikki qarama-qarshi fikrning chin bo'lishi mumkin emasligini ko'rsataydi. Lekin, bundan bu ikki fikrning biri yolg'on bo'lsa, ikkinchisining albatta chinligi kelib chiqadi, degan gap emas, masalan:

«Bizning ikkinchi kursda hamma a'lloch». «Bizning ikkinchi kursda hech kim a'lloch emas» bu hukmlarning har ikkisi ham noto'g'ridir. Ziddiyat qonuni zaruriy shart-sharoitlar mavjud bo'lsa, ikki zid hukmdan birining chinligidan ikkinchisining yolg'onligi namoyon bo'lishiga qayd qiladi. Tafakkur rivojlanishida inson bilimining o'sib borishida turli sharoit, turli nisbatda qarama-qarshi, ob'ektiv reallikni aks ettirishi tabiiydir.

Yomg'inni, umuman zaruriy yoki foydali deb bo'lmaydi. Masalan, ma'lum qurug'ochlikdan so'ng yoqqan yomg'ir bug'doy uchun nihoyatda foydalidir.

Lekin bug'doyni yig'ib-terib olish davrida yoqqan yomg'ir, shubhasiz zararli.

Mantiqiy ziddiyatsizlik qonuni, u amal qiluvchi sharoitni yaxshi bilishlik, taqqiylarning, subbatdoshning fikrlaridagi mantiqsizlikni tezda ochib tashlash, ilmiy tahlilni izchil va chuqur mantiqiy asosda olib borish imkonini beradi.

Manitq qonunlarini, jumladan, aniqrog'i ziddiyatsizlik qonunlari talablarini ko'rib, bilib turib, ataylab buzish - bu insonda ma'lum g'araz maqsadlarning mavjudligidan yoki haqiqatni e'tirof etishdan qochishga bo'lgan urinishdan dalolat beradi, lekin, ayrim hollarda fikrdagi ziddiyatlar ochiqdan - oydin ko'zga ko'rinish turmay uni aniqlab olish ancha mahorat va o'tkir mantiqiy zehn talab qiladi. Chunki, bu ziddiyat boshqacha so'z va fikrlar orasida yashirin bo'ladi. Ziddiyatsizlik qonuni A va A.

Uchinchi istisno qonuni.

Uchinchi istisno qonuni mantiqiy ziddiyat qonuni bilan uzviy bog'liq. Aristotel o'zining «Metafizika» asarida uchinchi istisno qonunini quyidagicha ifodalagan: «Teng ravishda ikki ziddiyati fikr orasida hech qanday oraliq bo'lishi mumkin emas, nimagadir nisbatan esa nima bo'lganda ham uni tasdiq yoki inkor etishi zarur».

Bu qonun asosida ob'ektiv reallikdagi predmet, hodisalar o'rtasidagi farq va tafovut, predmetlarning bir-biridan mustaqil holda mavjudligi yotadi. Bu tafovut reallikda turli shaklda uchraydi, bir-biriga zid ikki holat, ya'ni bir-birini inkor qiluvchi ikki imkoniyat shaklida mavjud bo'lsa, bunday holat talakkurda uchinchi istisno qonuni shaklida ifodalanadi.

Masalan, qo'limizda qog'oz hozirda yoki oq yoki oq emas, uchinchi holatning mavjudligi mumkin emas. Uyimizning oldidagi daraxt yoki qarag'ay, yoki qarag'ay emas, o'racha imkoniyat mavjud emas. Shuningdek, bugun yong'ir yog'adi yoki yog'maydi. Eshikdan kirib kelgan odam yoki ayol, yoki ayol emas, erkak.

Uchinchi istisno qonunining ifodasining quyidagicha: bir-biriga zid bo'lgan hukmdan biri hamisha chin bo'lib, ikkinchisi xatodir, uchinchisining bo'lishi mumkin emas. Bu formula aniqroq va to'laroq qilib ifodalanganda u quyidagicha shaklga kiradi:

Bir predmet haqidagi ikki fikr bir vaqtning o'zida va bir nisbada birdaniga chin ham, xato ham bo'la olmaydi, biri chin bo'lsa, ikkinchisi yolg'on bo'ladi, uchinchi imkoniyat mavjud emas.

Yuqorida ko'rganimizdek, ziddiyat qonuni ikki zid fikrning xatoligi haqida hech qanday xulosa bermaydi.

Tushunchalarning turlari

Uchinchiidan savolni yoritishda talabalar e'tiborini tushunchaning bir necha turlarga bo'linishiga qaratib, fikrni aniq misollar yordamida bayon qilish maqsadga muvofiq.

Tushuncha muayyan mezonlarga, eng avvalo hajmi va mazmuniga ko'ra, undan so'ng esa tafakkurdagi boshqa vazifalariga ko'ra turlarga bo'linadi. Tushuncha hajmiga ko'ra yakka ju'ziy, umumiy va nol turdagi ko'rinishlarga bo'linadi.

Yakka tushunchalar alohida olingan buyumlarning muhim, belgilaridir masalan, II kurs talabasi Ahmedov, «Toshkent», «Oy» boshqalar.

Ju'ziy tushuncha esa, muayyan ko'plikdagi buyumlarning ayrim qismini ifodalaydi. Chunonchi, «ba'zi tinglovchilar», «ba'zi a'lochilar» degan tushunchalarda tinglovchilarning va a'lochilarning ayrim qismini nazarda tutiladi. Ju'ziy tushuncha «ba'zi», «anchagina», «aksariyat», kabi so'zlar bilan tushlanadigan narsalarni bildiradi.

Umumiy tushuncha esa Muayyan sinf, guruh, ko'plikka taaluqli barcha buyumlarning yig'indisidir. Masalan «stol», «kitob», «davlat», «soat», «samolyot» kabi tushunchalarda ifoda etilgan barcha narsalarning yig'indisi fikrlanadi. Ba'zi hollarda umumiylik o'zbek tilida «lar» qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Yakka, ju'ziy, umumiy tushunchalardan tashqari nol hajmdagi tushunchalar ham mavjud. Nol hajmi tushunchaga insoniyat tajribasida uchramagan, shuningdek fanda qayd etilmagan buyumlar aks etadi. Masalan, «jin-ajina» «alhayton», «pari» kabi nol hajmli tushunchalardir.

Tushuncha mazmuniga ko'ra mavhum va aniq turlarga bo'linadi. Mavhum tushuncha buyumlarning belgilarini ifodalaydi. Masalan, oq sut, qora qalam, qizil gul, ko'm-ko'k osmon kabi narsalarning belgilarida «oqlik», «qoralik», «qizillik» «ko'klik» kabi hayotdagi buyumlardan alohida mavjudlik mavqeciga ega bo'lmaydigan sifatlardan mavhum: tushunchalar paydo bo'ladi.

Aniq tushuncha esa, buyumlarning mustaqil mavjudligini ifodalaydi. Chunonchi, «Konstitutsiya», «huquq - targ'ibot idoralari» kabilar mavjud narsalarning ko'pligini aks ettiradi. Bundan tashqari, ijobiy va salbiy sanaladigan va sanalmaydigan, isbatan va nisbatsiz taqqoslanadigan va takkoslamaydigan sig'ishadigan va sig'ishmaydigan turlarga ham bo'linadi.

Ijoiy tushunchalar buyumlarga xos - sifatlarining mavjudligini bildiradi. Masalan, «qizil qalam». Salbiy tushunchada esa, buyumlarga muayyan sifatlarining mansub emasligi qayd egiladi. Masalan «insonsiz kishi», «moinsof sotuvchi», «intizomsiz talaba», «tartibsiz bola».

Sanaladigan va sanalmaydigan tushunchalar. Sanaladigan tushunchada qayd etilishi lozim bo'lgan buyumlarning yig'indisi ifodalaniadi. Masalan, «2-45-guruh tinglovchilari», «a'llochi talabalar» kabilar. Sanalmaydigan tushunchaga hajmdagi buyumlarni sanab bo'lmaydigan ko'plikdagi fikrlar kiradi. Masalan, «yulduz», «jinoyat», «inson» kabilar.

Mazkur tushunchalar ifodalangan buyumlar sanoqsiz va noaniq bo'lib, ularni qayd etishning iloji yo'q. Ularning son-sanog'i mavhumdir.

Tushunchada ifodalangan buyumlarning mustaqil yohud bir - biri bilan aloqadorlikda mavjud bo'lganligiga qarab ular nisbatan va nisbatsiz bo'ladilar.

Nisbatli tushuncha buyumlarning o'ziga buyumlar muayyan aloqadorlikda mavjud ekanligini ifodalaydi. Masalan, ota-bola, shimol - janub, ostun-usin, og'ir - yengil kabilar. Mazkur tushunchalarda in'ikos etilgan buyumlar yakka yashamaydilar va albatta nisbatli bo'ladilar.

Nisbatsiz tushuncha esa buyumlarning mustaqil yashashini ifoda etadi.

Masalan, «oy», "yulduz", «qonun» «konstitutsiya» kabi tushunchalar mustaqil, nisbatsiz tushunchalar bo'lib, ularda mavjudligi o'ziga buyumlarga bevosita bog'lanmagan narsa aks etgandir.

Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar

Tushunchalar o'rtasida biror - bir munosabat ularning o'zaro muayyan belgilarga ega bo'lishi yoki o'zaro muayyan belgilarga ega bo'lishi yoki bo'lmashligiga ko'ra o'rnatilishi mumkin.

Ana shu mezoniga ko'ra tushuncha qiyoslanadigan va qiyoslanmaydigan bo'ladilar. Qiyoslanadigan tushuncha o'zaro biror - bir umumiy belgalari mavjud bo'lgan buyumlarda in'ikos etadi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» tushunchasini olib tahlil qilganda mazkur tushuncha barcha mamlakatlarda qo'llanilayotgan umumiy asosiy qonunlarga egaligi bilan boshqa davlatlar konstitutsiyalariga bog'lanib turadi. Shuning bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos, uning o'z tarixiy o'tmish an'alariga mos keladigan, aynan o'ziga taalluqli jihatlari konstitutsiyamizda aks etgandir. Zotdan, har bir mamlakatda shu mamlakatning xalqlari manfaatlaridan kelib chiqib konstitutsiya qabul qilingan bo'lib, odamlar shu asosda yashaydilar.

Qiyoslanmaydigan tushuncha o'zaro umumiy jihatlari bo'lmagan buyumlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Masalan, «musiqqa» va «tarvuz», «yurak» va «qonun», «traktor» va «yosh go'dak» tushunchalari orasida bog'liqlik yo'q, ammo bo'lganda ham juda - juda uzog'dir. Shu bois, ularni taqqoslab bo'lmaydi.

Mantiq faqat umumiy jihatlari mavjud bo'lgan tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi, munosabatlar sig'ishadigan va sig'ishmaydigan turlarga bo'linadi.

Tushunchalarni umumlashtirish va chegaralash

Hajmi kichikroq tushunchalarni hajmi kattaroq tushunchalarga kelishini mantiqda umumiylash deyiladi. Tushunchalarni umumiydashirish fanda katta ahamiyatga ega bo'lib, eng umumiy tushunchalar kategoriyalar deb ataladi. Kategoriyalar ob'ektiv borliqdagi predmet va hodisalarning eng umumiy muvofiqlarini, aloqa va munosabatlarni aks ettiruvchi eng umumiy tushunchalardir.

Hajmi kattaroq tushunchalarni hajmi kichikroq tushunchalarga keltirish mantiqda chegaralash deyiladi. Tushunchalarni chegaralash orqali yakka

tushunchalarga, predmetlarga boramiz. Masalan: Abzor - o'zbek - odam - tirik organizm

ToshDAU - agrar ilimgohi - ilimgohi - oliy o'quv yurti

Tushunchalar umumlashtirilayotganda tushuncha hajmi ortadi, ularni chegaralaganda esa, hajm kichrayadi, mazmun esa boyib boradi.

Mulohaza (Hukm)

Birinchi savolni yoritishda talabalar e'tiborini hukm – tafakkurning mantiqiy shakli sifatida predmetga ma'lum bir belgining xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shakli ekanligiga qaratish lozim.

Insonning olamni in'ikos etish jarayoni faqat olam voqea-hodisalari to'g'risida tushuncha hosil qilib, tushunchalarning mohiyatini anglab olish bilan chegaralanmaydi. U mazkur jarayonda tushunchaning boshqa tushuncha bilan muayyan munosabatini ham o'rnatib, olam haqida yangi bilim olishga intiladi.

Tushunchalarda ifoda etilgan bilimlar, binobarin, buyumlar yanada yangi jihatlari bilan tafakkurda ishtirok etib, uning imkoniyatlarini chuqurlashtiradi. Masalan, «O'zbekiston» va «Respublika» degan muhokamani tahlil etsak, bunda ikkita «O'zbekiston» va «Respublika» tushunchalari mavjudligini uchratamiz. Mazkur tushunchalar oddiy gramatik qurilmada gap o'rniida kelsa-da, ammo tafakkurda ularning biri ikkinchisi bilan muayyan belgilarni izohlash orqali bog'langan.

Tushunchalar orasidagi munosabatlar ob'ektiv mavjudlikka muvofiq kelishi yoki kelmasligi mumkin. Masalan, «N. jinoyat sodir etdi» hukmining ob'ektiv mavjudlikka muvofiq kelish - kelmasligini tekshirib ko'rish yoxud chiniqligiga ishonish mumkin. Ammo «NUJ larning parvozi kuzatildi» deyilsa, biz mazkur tushunchani shakliy tomondan tahlil qilib, uning mantiqiy to'g'ri ifodalanganligini qayd etamiz.

Lekin, rasman mantiqda mavjudlikka muvofiq kelish hukmlar tarkibidagi tushunchalarning asosiy vazifasi emas. Unda hukmlardagi tushunchalar asosan mazmunan emas, balki shaklan tafakkur qoidalariga ko'ra muvofiq bo'lishi mohiyatidir.

Shunday qilib, maboda tushunchalar o'zaro mantiqiy talablarga ko'ra to'g'ri bog'lanisa, u holda ular chin bo'ladi, agar ular noto'g'ri bog'lanisa, yolg'on hukm bo'ladi. Bu o'rinda yana shuni qayd etish lozimki, tushunchalarning, fikrlarning mazmuniga ko'ra bir - biriga muvofiqlanishi ham, mantiqning bahs mavzuga kirishi mumkin. Bunday hollarda mantiqiy tahlil mazmuniy tahlil kabi bo'ladi. Mazkur zaruriy bog'lanishlar aksariyat hollarda rasman mantiq doirasidan chiqib, dialektik mantiq bahs mavzuga aylanadi.

Tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish mazmunan chin va yolg'on bo'lishidan qat'iy nazar, tasdiq yohud inkor ma'nolarida ifodalanadi. Albatta, tasdiq yoki inkorni ifodalagan fikr amaliyotdan olingan bo'lishi, natijada, voqelikka muvofiq kelishi zarur. Zotan, fanning eng muhim vazifasi haqiqatni izlab topishdir. Masalan, «Hayot - DNK va RNK kabi moddalarning harakat usulidir», desak, u holda chin muhokama yuritgan, binobarin, muhokamamizni fan yutuqlariga asoslagan bo'lamiz. Mabodo, «Hayot g'ayritabiiy kuch ehsondir», deganimizda yolg'on muhokama yuritgan bo'lamiz. Chunki, tabiatdagi biror narsa, jumladan, hayot ham g'ayritabiiy kuch i'nomi bo'lmaydi.

Ba'zan muhokamani tashkil etuvchi tushunchalar haqidagi bilimlar fanda o'rganilgan bo'ladi. Masalan, «Toshmatov abadiy dvigatelinig asoschisi» deyilsa, u holda bu muhokama yolg'onidir. Chunki, Toshmatov ham Eshmatov ham yoki boshqa biror jahonning mashhur tadqiqotchisi ham mazkur kashfiyotni huniyod etnaganligi, qolaversa, uni ixiro qilib ham bo'lmastigi tabiiy - ilmiy fanlarning rivojlanishida dalillar asosida isbotlangan. Ammo, «Jinoyatni nomalun uchuvchi jismlar (NUJ) sodir etdi» deyilsa, bunday muhokamada ifodalangan fikr muammolidir. Chunki, fan hali NUJ larni o'rganib, ular sodir etadigan jinoyatlarni e'tirof etganicha yo'q. So'nggi paytlarda NUJlarning ba'zi hududlarda tez-tez paydo bo'lishi to'g'risida ommaviy axborot vositalarida xabar berilmoqda, lekin mazkur hodisani tekshirib ko'rishning iloji yo'qligidan, ularni haqiqiy isbotlangan hodisalar sirasiga qo'shib bo'lmaydi.

Demak, hukmda in'ikos etadigan buyumlar to'g'risidagi bilimlar fanda aniqlangan bulishi zarur. Shundaygina muayyan bilimlardan oldin fan va amaliyotda ma'lum bo'lmagan xulosalar kelib chiqishi mumkin.

Hukm o'zbek mantiqiy adabiyotida ba'zan muhokama deb ham yuritiladi. Hukm va muhokamani biz ham muqobil tushunchalar kabi qo'llaymiz.

Hukm - tushunchalar orasidagi belgiga, munosabatga, mavjudlikka oid jihatlarining chin yoki yolg'onligini tasdiq yohud inkor shaklida ifoda etadigan tafakkur shaklidir.

Hukm tafakkur shakli bo'lsa-da, uni so'z birliklari orqaligina ifodalash mumkin. Shu bois hukm va gap bir - biri bilan bog'liqdir. Hukm - grammatik qurilma hisoblangan gapda namoyon bo'lsa, gap esa mazmuniga ko'ra muayyan fikrlardan iboratdir.

Ma'lumki, gaplar darak, so'roq, buyruq, va undov gaplarga bo'linadi. Mazkur gaplarning atigi bitasi - darak gapgina tugal fikrni ifodalab, hukmga muvofiq keladigan fikrni anglatadi.

So'roq buyruq va undov gaplarda mukammal bog'lanishli tugal fikrlar ifoda etilmaganligi uchun ular hukm ma'nosini namoyon eta olmaydi. Chunonchi, darak gapdagi «O'zbekiston Respublikasi - kelajagi buyuk davlat» fikri mukammaldir. Ammo «Kim bor», «Onani seving»! «Kun naqadar sovuq». kabi so'roq va undov gaplarda tugal fikrni ifodalamaydi. Ammo barcha tushunchalarda bo'lganidek, ana shu gaplarda ham muayyan mazmun, fikr bo'ladi. Lekin, mazkur fikrlar hukm ko'rinishida bo'lmaydi. Chunki ulardagi gap atigi bir tushuncha orqali ifodalanadi. Hukm bo'lishi uchun gapda, hech bo'lmaganda ikkita bir - biri bilan tasdiq yoki inkor ma'nolarida munosabada bo'luvchi tushunchalar mavjud bo'lishi zarur.

Hukm tafakkur shakllari orasida muhim o'rin tutadi. Hukm narsa va hodisalar, ularning turi belgilari, xususiyati va munosabatlari haqidagi bilimlarning tasdiq yoki inkor shaklidagi fikrdir. Hukm ham tafakkurning boshqa shakllari singari ob'ektiv-vogelik in'ikosi natijasidir.

Tasdiq yoki inkor shaklida bo'lishi va bir hukmning xarakterli belgisi. Hukmning asosiy vazifasi narsa va hodisalarning xususiyat va munosabatlari ko'rsatish hamda ularga xususiyatning xosligini ta'kidlashdir. Shuning uchun hukm o'ziga xos bo'lgan tasdiq o'rtaidagi ma'lum munosabatlarni ifodalaydi. Shuning uchun ular chin yoki xato bo'ladi. Ob'ektiv vogelikka mos kelgan, uni to'g'ri ifodalagan hukm chin bo'ladi. Chunki, bu hukmda aks ettirilgan sifatlar (belgi va alomatlar) bu narsalarga muvofiq kelmaydi. Masalan, «Atom - moddaning bo'linmas zarrachasidir» deksak noto'g'ri hukmdir. Atom murakkab moddiy sistemaga ega bo'lib u yadro va elektronlarga bo'linadi. Atomning yadrosi ham bo'linadi, bu yadro protonlardan va neytronlardan iborat. «Yer quyosh atrofidan aylanmaydi» desak, bu ham hukm darajasiga kiradi. Chunonchi, geotsentrik nazariyaga ko'ra, yer o'z o'qi atrofidan aylanadi degan qonun hukmdordir.

Hukm tushuncha bilan yaqin munosabatdadir, chunki ular bir - biritdan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi. Tushuncha va uning belgilari hukm asosida mavjud bo'la olmaydi. Tushuncha va uning belgilari hukm asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Tushunchaning hukmdan farqi, unda tasdiq xolati yo'qligidir. Masalan, metal, paxta, o'simlik, yumshoq kabi tushunchalarni olaylik. Ular kutgan fikrni bermaydi, ya'ni ular o'rtaidagi munosabat, biror buyumga, biror belgi bor yo'qligi haqida fikr bermaydi. Agar «Paxta yumshoq o'simlikdir» desak bu fikrdir, chunki paxtada yumshoqlik belgisi borligi tasdiqlab aytilmoqda.

Hukmni tahlil etish orqali buyum va buyum belgisini aks ettiruvchi xislatga ega ekanligini bilib olirik. Hukmlarni o'rtaidashda ularning tuzilishidan hosilnamoq zarur. Bunda hukm terminlariga e'tibor bermoq lozim. Odatda, har bir hukmning uch asosiy elementi bo'ladi. Hukmning birinchi elementi mantiq ilmiida sub'ekt, ikkinchisi predikt (logikada mantiqiy ega sub'ekt, mantiqiy kesim predikat deb ataladi), uchinchi elementi bog'lovchi deb ataladi.

Agar «Bug'doy g'alla ekinlarining bir turidir» desak, bu mulohazada hukm sub'ekti yoki egasi «Bug'doy» tushunchasi, hukm predikati yoki kesimi esa «G'alla ekinlarining bir turi» bo'ladi. Hukmning sub'ekt va predikati uning terminlari deb ataladi. Logikada hukmning umumiy tizimi quyidagicha

ifodalanadi: S-r, bunda S subekt (ega), R-predikat (kesim) simvoli bo'lib «-> esa sub'ektni predikat bilan bo'lgan munosabatni ifodalovchi bog'lovchidir.

Ega va kesim egalari bir buyumga taalluqli bo'lib, uning turli belgilarini aks ettiradi. Odarda, sub'ekt oldingi hukmlardan aniq bo'lgan belgilarni, predikat esa yangi belgilarni ifodalaydi. Har bir hukm uchun ega va kesimning zarur bo'lishi ularning alohida - alohida bo'lgan ahamiyatini inkor etmaydi. Ularning hukmdagi vazifalari turlichadir.

Har bir hukm asosiy vazifa hukmning kesim elementlarida bo'lmog'i lozim, chunki kesim hukmda asosiy mantiqiy maqsadni ifodalash vazifasini bajaradi.

Hukmning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy bog'lovchidir. U sub'ekt va predikatni bir biri bilan bog'laydi hamda hukmning shakllanishiga yordam beradi. Demak, bog'lovchi hukmning tarkibiy qismidir. Boshqacha aytganda, bog'lovchi yordamida buyumdagi belgi buyumning ob'ektiv xislati ekanligini bilib olamiz. Masalan, «G'ayrat- odamdir» degan hukmdan bog'lovchi «dir» «emas», ya'ni tasdiq yoki inkor ma'nosidagi so'zlar bilan ifodalanadi.

Demak, fikrni to'g'ri yoki xatoligi har bir kishining o'z mulohazasiga qarab emas, balki ob'ektiv birlikka mos kelishiga qarab belgilanadi va shundagini biror fikr to'g'risida aytilgan tasdiq yoki inkor to'g'ri bo'ladir.

Agar fikr birgina hukmdan iborat bo'lsa, soddada, aksincha, bir necha soddada hukmlardan tashkil topgan bo'lsa, murakkab hukm bo'ladir. Sodda va murakkab hukmlar o'zaro munosabatda bo'ladir. Murakkab hukmlar hukm turli mantiqiy bog'lovchilar «yoki», «agarda», «unda», «va», «kamm», «faqat», «bundan» va boshqa shunga o'xshash so'zlar yordami bilan soddada hukmlardan tuziladi. Masalan, «Toshkent - O'zbekiston poytaxti», «Kiyo bizning do'stimiz» kabilar soddada hukmga misol oladi.

Murakkab hukmlar bir necha soddada hukmlardan tashkil topib, qat'iy yoki shartli shakllarda ifodalanadi. Masalan, «Bu odam» desak murakkab hukm bo'ladir.

Predikatni mazmuniga ko'ra - hukmlar mavjudlik, atributiv (aniqlovchi) va munosabat hukmlarga bo'linadi.

Atributiv hukmlarda predikat biror xususiyatning buyumga yoki xos ekanligini aniq ifodalaydigan va ba'zan u qat'iy hukm deb ham yuritiladi. Masalan, olma daraxti mevali o'simlikdir. «O'tgan kunlar» romanining muallifi otloqli o'zbek xalq yozuvchisi Abdulla Qodiriy.

Munosabat hukmlarda buyumlar biror jihatidan munosabatini ko'rsatadi. Ya'ni, buyumlarning fazoga, vaqgga, jinsga ketma-ketlikka, tenglanishga nisbatan bo'lgan munosabatlarini aks ettiradi. Masalan «Behruz Alisherdan kattaa», «Tilning lug'at tarkibiga qaraganda uning grammatika tuzilishi sek in o'zgaradi».

Agar atributiv hukm formulasi yuqorida ko'rsatilgandek (S-r dir, S-R emas), munosabat hukmlari «ARV» formulasi bilan ifodalanadi. Bunda «A» va «V» belgilari buyumlar haqidagi tushuncha: «R» belgisi ular o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi.

Masalan 5>4 dan katta. Bunda 5 bilan 4 o'rtasida «katta» munosabat bor.

Hukmlar faqat sifat jihatlarini bilangina ajralmasdan, u miqdoriy jihatlarini bilan ham ajraladi. Hukmlar son va sifat jihatiga, o'zaro munosabatlarga qarab yakka, tasdiq, juz'iy inkor, umumiy tasdiq va umumiy inkor hukmlarga bo'linadi.

Hukmlar aks etgan predmet har xil bo'lishi mumkin. Ba'zan hukmda bir guruh predmetlar va ularning xususiyatlarining bir qismigina aks ettiriladi, yana boshqa bir xil hukmlar esa, alohida, yakka predmetlar va ularning xususiyatlarini aks ettiradi.

Agar bayon etilgan fikr predmeti (kesim) shaklida hamma aytilgan buyumlar sinfini o'z ichiga oladigan bo'lsa, u chog'da hukm umumiy bo'ladir. Umumiy hukm egasi (sub'ekt) tasdiqlovchi bo'lsa, «har bir», «inkor etuvchi bo'lsaa», «dech bir», «dech qanday» va boshqa tushunchalar orqali ifodalanadi. Masalan, «Materialy aks ettirish xususiyatiga ega» deyilgan bo'lsak, bu yerda barcha moddiy predmetlarga xos bo'lgan xususiyat aks etmoqda, bunday hukm umumiy hukm deyiladi. Uning formulasi: hamma S-R dir.

Juz'iy hukmlar deb buyumlar sinfining ma'lum qismi ifodalgan hukmlarga aytiladi. Bunga misol qilib «Ba'zi hashoratlar zararkunandadir» haqida

soʻz ketmoqda, yaʼni ularning maʼlum bir zararkunandaligi taʼkidlanmoqda. Bunday hukmlar juzʼiy hukmlar deb ataladi, formulasi esa: baʼzi S-R dir.

Yakka hukm buyumga xos boʻlgan xususiyatni aks ettiradi yoki ayrim buyumlarga xos belgilari bilan birga unga xos boʻlmagan belgilari tasdiqlashi va inkor etishi mumkin. Masalan, «Islom Karimov Oʻzbekiston Prezidenti», «Samangand Oʻrta Osiyodagi eng katta shaharlardan biridir» kabi ayrim yakka predmetlar, hodisalar va ularning xususiyatlari aks etmoqda, bunday hukmlar yakka (yoki individual) hukmlar deb ataladi. Hukmlarning modallik boʻyicha boʻlinishi, Oddiy hukmlar modalligiga qarab voqelik, ehtimollik va zarurlik hukmlariga va mantiqiy modalligiga qarab problematik va ishonchli hukmlariga boʻlinadi.

Hukmlarning modalligi deganimizda ularda fikrni ifodalash shakliningina tushinish kerak. Hukmning obʼektiv modalligi inson ongidan tashqarida boʻlganligi.

1. Ehtimollik hukmlar narsalar, hodisalar va ularning belgilari oʻrtasidagi bogʻlanishning tasdiq va yoki inkor shakli ehtimollik boʻlishi yoki boʻlmashligini koʻrsatadi. Logikada ehtimollik hukm S-R emas, ehtimol R (a-b), masalan, ehtimol sizning rafiqangiz ertaga kelib qolar. Ehtimollik hukmlarda biror buyum va hodisa xaqida hali tekshirilmagan, ehtimollik fikri aytiladi. Demak, ehtimollik hukmlarning chiniqligi va ularning voqelik hukmlarga aylanishi aytilgan hodisalarning qanday darajada sodir boʻlishi bilan bogʻliq. Ehtimollik hukmlar haqiqatga zid boʻlmasa chin voqelik hukmlariga aylanadi.

2. Aniqlik hukmi. Aniqlik hukmidan predikat subʼektdagi belgining mavjudligini tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Masalan, Oʻzbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga aʼzo davlat. Oʻzbekiston mustaqil davlat, uning formulasi S-Millatlar Tashkilotiga aʼzo davlat. Aniqlik hukmi voqelik va zaruriy hukmlarga boʻlinadi. R dir: S-R emas yoki aRv. Aniqlik hukmi voqelik va zaruriy hukmlarga boʻlinadi. A. voqelik hukmi. Voqelik hukmlarida birorta fakt qayd qilinadi, S za R orasidagi bogʻlanish aniq, yaʼni boʻlgan voqeaning haqiqat ekanligi yoki emasligi haqida fikrni ifodalaydi.

Bu hukmda fikrimizning toʻgʻriligiga yetarli asos mavjud boʻladi va u ayrim faktlar bilan isbotlangan boʻladi. Masalan, Amir Temur oʻzbek xalqining atqoli hukmdasidir. Abu Nosir Farobiy Sharq Aristoteli.

Bunday hukmlar zaruriy faktlarga asoslangan, biroq u zaruriy qonuniyatga olib kelmaydi.

B. Zaruriy hukmlar predikat subʼektdagi belgini tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Zaruriy hukmlar tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ifodalaydi. Yaʼni, bunday hukmda narsalar, hodisalar bilan belgilar oʻrtasidagi bogʻlanishni muqarrar ekanligini anglaydi. Masalan, «Poydevorsiz uy boʻlmas» Bunda «zarur», «shart» soʻzlar ishlatilmasa ham gap tarkibida bor ekanligi gap mazmunidan anglashilib turibdi.

Oddiy hukmlar

Hukmlar tuzilishiga koʻra oddiy va murakkab boʻladi. Oddiy hukm, deb tarkibidan yana bir hukmni ajratib boʻlmaydigan mulohazaga aytiladi. Tarkibidan ikki yoki undan ortiq hukmni ajratish mumkin boʻlgan mulohazalarga murakkab hukm deyiladi. Masalan, «Mantiq ilmini oʻrganish toʻgʻri fikrlash madaniyatini shakllantiradi», degan mulohaza oddiy hukmni ifodalaydi. «Mantiq ilmi tafakkur mulohazasi va qonunlarini oʻrganadi», degan mulohaza murakkab hukmdir. Bu mulohazaning tarkibi ikki qismdan: «Mantiq ilmi tafakkur shakllarini oʻrganadi» va «Mantiq ilmi tafakkur qonunlarini oʻrganadi», degan ikki oddiy hukmdan iborat.

Mulohaza (hukm) tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib koʻrsatish mumkin. Mantiqiy ega – subʼekt (S) fikr qilayotgan predmet va hodisani bildiradi. Mantiqiy kesim – predikat (P) predmetga xos xususiyatni, munosabatni bildiradi. Predikatda ifodalangan bilimlar hisobiga subʼekt haqidagi maʼlumot beriladi. Hukmning subʼekt va predikatining terminlari deb ataladi.

Hukmning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy bogʻlanmadir. U subʼekt va predikatni bir-biri bilan bogʻlaydi, natijada hukm hosil boʻladi. Oddiy qatʼiy hukmning formulasi quyidagicha yoziladi: S-P.

Oddiy hukmlar sifati va miqdoriga ko'ra, turlarga bo'linadi. Sifatiga ko'ra, tasdiq va inkor hukmlar farqlanadi. Hukmlarning sifati mantiqiy bog'lanma belgilaydi. Tasdiq hukmlarda belgining predmetga xosligi, inkor hukmlarda, aksincha, xos emasligi ko'rsatiladi. Masalan, «A. Oripov O'zbekiston Respublikasi Madhiyasining muallifidir» - tasdiq hukm, «Matematika ijtimoiy fan emas» - inkor hukm. Miqdoriga ko'ra oddiy hukmlar yakka, umumiy va juz'iy hukmlarga bo'linadi. Bunda sub'ektda ifodalangan predmetlarning sonidan, ya'ni uning hajmidan kelib chiqiladi.

Yakka hukmlarda birorta belgining bir predmetga xosligi yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan: «O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlatdir», «Ahmedov tarixchi emas».

Umumiy hukmlarda birorta belgining yakka predmetlar sinfining hammasiga yoki undagi har bir predmetga taalluqli yoki taalluqli emasligi haqida fikr bayon qilinadi. Masalan, «Har bir inson baxti bo'lishni xohlaydi» va «Hech bir aqlli odam vaqtini behuda sarflamaydi».

Juz'iy hukmlarda birorta belgining predmetlar to'plamining bir qismiga xos yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan, «Ba'zi faylasuflar notiqdir», «Ko'pchilik talabalar dangasa emas». Juz'iy hukmlarda «ba'zi» so'zi «hech bo'lmasa bittasi, balki hammasi», degan ma'noda qo'llaniladi. Shunga ko'ra, «Ba'zi toshlar tirik mavjudot emas», degan hukm chin bo'ladi, chunki hech bir tosh tirik mavjudot emas.

Ma'lum ma'noda yakka hukmlarni umumiy hukmlar bilan tenglashtirish mumkin. Chunki har ikki hukmda ham to'plamdagi predmetlarning har biriga nimadir taalluqli yoki taalluqli emas, deb ko'rsatiladi. Yakka hukmlarda esa bu to'plam birgina predmetdan iborat bo'ladi.

Mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'rligini aniqlashda va ba'zi boshqa holatlarda oddiy hukmlarning miqdor va sifati bo'yicha birlashgan klassifikatsiyasi (asosiy turlar)dan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Umumiy tasdiq hukmlar. Ular bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hamma talabalar mantiq ilmini o'rganadilar».

2. Umumiy inkor hukmlar bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hech bir ishbilamon rejasiz ish yuritmaydi». Bu hukm «Hech bir S-P emas» formulasi orqali ifodalanadi va lotincha Ye harfi bilan belgilanadi.

3. Juz'iy tasdiq hukmlar bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba'zi talabalar mas'uliyatli». U lotincha I harfi bilan belgilanadi va «Ba'zi S-Pdir» formulasi orqali ifodalanadi.

4. Juz'iy inkor hukm bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «ba'zi talabalar sport bilan shug'ullanmaydilar». Uning formulasi «ba'zi S-P emas» bo'lib, lotincha O harfi bilan belgilanadi.

Oddiy hukmlarda terminlar hajmi. Oddiy hukmlardagi terminlar (S va P) tushunchalar orqali ifodalanганligi tufayli ularning hajmiga ko'ra, o'zaro munosabatlari aniqlash mumkin. Hukmlarda terminlar (S va P) to'liq yoki to'liqliz hajmda olingan bo'ladi. Termin to'liq hajmda olinganda uning hajmi to'liqliz hajmining hajmiga to'liq mos bo'ladi yoki mutlaqo mos bo'lmaydi (olarning hajmi bir-birini istisno qiladi). Termin to'liq hajmda olingan bo'lsa, unda uning hajmi boshqasining hajmiga qisman mos keladi yoki undan qisman jallano qilinadi. Oddiy hukmlarda terminlar hajmi quyidagicha bo'ladi:

1. A – Umumiy tasdiq hukmlarning sub'ekti hammasi vaqt to'liq hajmda olingan bo'ladi. Predikati esa ba'zan to'liq, ba'zan to'liqsiz hajmda bo'ladi. Masalan, «hamma insonlar tirik mavjudotdir».

Bu hukmlarning sub'ekti – «inson», predikati – «tirik mavjudot» tushunchasidir, «hamma» - umumiylik kvantori. Bu hukmlarning sub'ekti to'liq hajmda olingan, chunki unda hamma insonlar to'g'risida fikr bildirilgan va bu tushuncha «tirik mavjudot» tushunchasining hajmiga to'liq kirishadi. Uning predikati to'liq hajmda olinmagan, chunki unda tirik mavjudotlarning bir qismi – insonlar haqida fikr yuritiladi.

Hukmlarda terminlarning bo'linishi

Hukmlarda tushunchalarning hajmi deganda sub'ekt bilan predikating qancha qismini hamda predikat sub'ekting qancha qismini hajm jihatdan tashkillanishini tushunamiz.

Hukmda sub'ekt va predikat o'zlarini ifodalagan predikalar yoki hodisalarning hammasi kirsa, ya'ni tushuncha yoki termin o'zining to'liq hajmi bilan fikrlansa bo'lingan deyiladi. Aksincha, hukm sub'ekti va predikati o'zaro ifodalangan predmet va hodisaning bir qismini aks ettirsa, bunday hukmda hukm terminlari bo'linmagan deyiladi.

Biz A, E, J, O hukmlardagi sub'ekt bilan predikat o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi tuzilishni tahlil qilganimizda ulardagi terminlarning hajmini bilib olamiz.

1. A. Umumiy tasdiq hukm «hamma S-R dir» degan tuzilishga ega. Shuning uchun sub'ekt hajmi predikating hajmiga to'laigicha kiradi (demak bo'lingan) S va R ning hajmiga to'laigicha emas, balki qisman kiradi.

(Ta'rif: shaklidagi hukmlardagina R hajmi S hajmiga mos keladi. Bunda R bo'lingan). Demak, umumiy hukmda sub'ekt bo'lingan, predikat esa bo'linmagan. Masalan, bu hukmda «hamma ilonlar», «sudralib yuruvchilar» hajmiga to'laigicha kiradi. Biroq, hamma sudralib yuruvchilar «ilonlar» hajmiga kimaydi, balki bir qismi «sudralib yuruvchilar», «ilonlar» kiradi. Demak, agar umumiy tasdiq hukmlardagi sub'ekt va predikat bir xil hajmiga ega bo'lsa, unda sub'ekt va predikat terminlari bo'lingan bo'ladi.

2. E. Umumiy inkor hukmda sub'ekt va predikat bo'lingan, ya'ni tasdiqlanmagan bo'ladi. Masalan, Hech bir o'g'ri mehribon emas. «Hech bir S-R emas» degan tuzilishga ega. Shuning uchun bunday S ham, R ham bo'lingan. Hukm S-R ning hajmidan, R esa S ning hajmidan to'liq isitino bo'ladi.

3. J. Juz'iy tasdiq hukmlarda sub'ekt hamma vaqt bo'linmagan predikat bo'lingan yoki bo'linmagan bo'ladi. Ya'ni, «ba'zi S-R dir» tuzilishga ega. Bunda S bo'linmagan to'liq hajmda olinmagan. R esa bo'lingan ham, bo'linmagan ham bo'linishi mumkin. Masalan, ba'zi o'simliklar popuki ildizidir».

4. O. Juz'iy inkor hukmda sub'ekt bo'linmagan, tasdiqlanmagan, predikat esa bo'lingan, tasdiqlanmagan bo'ladi S-R emas tuzilishiga ega. S ning bir qismi R ni butunlay inkor qiladi.

Demak, bu hukmda S bo'linmagan, R esa hamma vaqt bo'lingan. Masalan: Hozir talabalar sprotni emas. Bunda sub'ekt (talaba) taqsimlanmagan, chunki Oltin sub'ekting to'la hajmiga taalluqli bo'lmay, faqat bir qismi sprotni bo'linmaganlar haqida borayotganidan darak berayotir.

A, Ye, J, O hukmlarida tushunchalarning bo'lingan bo'linmaganligini quyidagi sxemada ko'rish mumkin. Bunda bo'lingan bo'lsa Q (musbat) bo'linmagan (manfiy) belgisi qo'yamiz.

Hukm xillari	S	R
A	Q	-
E	Q	Q
J	-	-
O	-	Q

Modalilik tushunchasi. Hukmlarda ifodalangan fikrlar buyumning belgisi to'g'ra taalluqliligi to'g'risidagi haqiqatni bayon etish darajasiga ko'ra farqlanadi, ya'ni hukm buyum bilan uning predikati orasidagi bog'lanish aniqligining tabiatini bilib, ya'ni uning zaruriy yoki ehtimoliyligi bilan farqlanadi. Bu esa hukm modalitigidir. Modalilik (lotincha «modus» - mezon, o'g'ish ma'nosida) dagi zaruriy bog'lanish buyum va uning belgilari to'g'risida aniq bilimlarni beradi. Ehtimoliy bog'lanish esa muammoli bilimlarni keltirib chiqaradi.

Boshqacha aytganda, hukm buyumi bilan uning predikati orasidagi zaruriy va ehtimoliy bog'lanish hukmda ifodalangan fikrlar to'g'risida qo'shimcha axtorotni, bilimlarni beradi. Shunga ko'ra, hukm buyumi va uning belgilari o'rtasidagi bog'lanish zaruriy yoki tasodifiylik, aniqlik yoki muammoviylik, qiyomatdorlik, maromiylikka oid va boshqa xususiyatlarga ega.

Bu muammolar mantiqda qadindan o'rganiladi. Har bir hukmda ifodalangan fikrlar u yoki bu tarzda haqiqiylikka nechog'lik muvofiq kelish kelmaslik darajasi ikki xil, ya'ni kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Kuchli darajaga ijobiy va salbiy tavsiflar, kuchsiz darajaga o'ra tavsif tegishli bo'ladi. Masalan, kishini u yoki bu vazifani ado etishga burchli etadigan deontik (buyurish) mantiqdagi «majbur qilinadi», «taqbiqlanadi», «man etiladi» fe'llari bilan keladigan hukmlar kuchlga, «yo'l qo'yiladi», «ruxsat beriladi» kabi fe'llar bilan keladigan hukmlar kuchsizga tasnif etiladi.

Qiyamatdoriik mantiq'ida buyumlar haqidagi tasdiq va inkor bog'lanishlardagi "yaxshi" va «yomon» belgilari kuchli, «loqayd», «o'rtaoh», baholari esa kuchsiz tavsiflardir.

Mantiqda hukmlar modalilikka ko'ra uch guruhga bo'linadi. Bular: imkoniy (problematik - muammoli), hukmlar vogelik, (assetorik) hukmlari va zaruriy (apodiktik) hukmlar.

Imkoniy hukmlarda ifodalangan buyum belgilarning unga mansub yohud mansub emasligi to'g'risidagi ehtimoliyliliklar. Mazkur hukmda hali sodir bo'lmagan vogea to'g'risida taxminiy fikr bayon etiladi.

Vogelik hukmlarida buyumda u yoki bu belgi xususiyatining taalluqliiligi yoki taalluqli emasligi ifodalanaadi.

Masalan, «O'zbekiston IIV Akademiyasi - jurnhuriyat markazida joylashgan» deyilganda, mazkur hukm buyumi «O'zbekiston IIV-Akademiyasi»ga muayyan belgi (jurnhuriyat markazida joylashganlik)ning taalluqliiligi qayd etiladi.

Zaruriy hukmlarda hukm buyumiga mansub belgi barcha sharoitlarda ham uning o'ziga mansub bo'lib qolishi ta'kidlanadi. Masalan, «Demokratik davlat huquqiy qonunlarsiz yashay olmaydi». Bu o'rinda ham hukm sub'ekti (demokratik davlat)ga ma'lum belgi (huquqiy qonunlarsiz yashay olmaslik) barcha shart - sharoitlarda ham taalluqli bo'lib qolishi ifodalanaadi.

Murakkab hukmlar va ularning turlari

Hukm terminlari birdan ortiq bo'lsa ularni murakkab hukmlar deyiladi. Masalan: Toshkent O'zbekiston poytaxti va O'ra Osiyodagi eng katta shahar. Bu

hukmda «va» bog'lovchisi orqali ikkita hukm bir - biri bilan bog'lanmoqda. Odatda logik bog'lovchi sifatida «agar», «yoki», «va», «ham» kabi so'zlar qo'llaniladi. Murakkab hukmlarni turlarga ajratganda ularning tarkibidagi mantiqiy bog'lovchining mazmuniga alohida ahamiyat berish kerak. Shunga ko'ra murakkab hukmlar birlashtiruvchi, ayiruvchi va shartli hukmlarga bo'linadi.

Birlashtiruvchi (kon'yuktiv) hukm. Birlashtiruvchi hukmlar «va» (L) logik bog'lovchi orqali ikki va undan ortiq sodda hukmlardan murakkab hukm hosil qilinadi. Masalan, Erkin Vohidov o'zbek xalqining atog'li shoiri va dramaturgidir. Bu hukmlarni bog'lash mumkin, bunday payida uning formulasi quyidagicha bo'ladi S-R1 va R2 bo'ladi yoki A1 A2-A2. birlashtiruvchi hukmlar chin bo'lishi uchun tarkibidagi sodda hukmlarning har biri chin bo'lishi kerak. Agar ulardan birontasi xato bo'lsa, boshqalari ham xato bo'ladi. Masalan, quyidagi jadvalga qarang.

A	V	AUV
To'g'ri	To'g'ri	To'g'ri
To'g'ri	Xato	Xato
Xato	To'g'ri	Xato
Xato	Xato	Xato

Bu jadvaldan ko'rinish turibdiki, agar birlashtiruvchi hukmda birota hukm xato bo'lsa, boshqalari ham xato bo'ladi. Shuning uchun kon'yuktiv fikr barcha qiymatining to'g'ri bo'lishini talab qiladi.

Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukmlar tarkibida «yoki» mantiqiy bog'lovchi bo'lib, bir qancha predikatlarni bir - birdan ajratib turadi. Masalan, talabalardan Botir yoki Yusuf yoki Sharif yoki Salim musobaqada birinchi o'rinni egalladi. Ayiruvchi o'rinda ikki xil ma'noga ega. «S yoki S1, yoki S2- R dir» Mantiqiy bog'lovchi «yoki» bu birlashtiruvchi, ayiruvchi ma'nosida ishlatiladi. Bog'lovchi «yoki» qa'tiy ayiruvchi ma'nosida ishlatilganda, hukmlarning biri albatta to'g'ri bo'lsa, ikkinchisi xato bo'ladi. Ikkalasi birdaniga to'g'ri bo'lsa, ikkalasi birdaniga

xato bo'lsa ham katta ayiruvchi hukm xato bo'ladi. Institutga kirish uchun xujjat topshirgan abituriyentlar konkursdan o'tib talaba bo'ladi yoki talaba bo'la olmaydi.

1. Abiturient albatta ikkalasidan biri bo'ladi.

2. Abiturient ham talaba bo'lib, ham talaba bo'la olmay qolishi mumkin emas. Bu shuni ko'rsatadiki, ikki oddiy hukmning biri to'g'ri (chin) bo'lsa, ikkinchisi xato bo'ladi. Agar abituriyent talaba bo'lsa, uning konkursdan o'tmay qolishi xato bo'ladi. Agar u konkursdan o'taolmaydigan bo'lsa, demak talaba bo'lgani xato bo'ladi.

Qat'iy ayiruvchi «yoki» «V» bilan belgilanadi. Uning xato yoki to'g'riligini quyidagi jadvaldan ko'rsatish mumkin.

A	V	AVV
To'g'ri	To'g'ri	To'g'ri
To'g'ri	Xato	Xato
Xato	To'g'ri	Xato
Xato	Xato	Xato

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, qat'iy ayiruvchi hukmda agar A to'g'ri bo'lsa V xato bo'lsa (ikkinchi qatorda) va A xato bo'lsa V to'g'ri bo'lsa (uchinchi qatorda) AVV xato bo'ladi

Bog'lovchi «yo», «yoki» birlashtiruvchi - ayiruvchi hukmda biri xato bo'lib, qolgan ikkalasi xato bo'lsagina xato (Murakkab) hukm hosil bo'lishi mumkin.

Masalan: Yuqori hosil olgan dehqonning yeri yoki unumdor, yoki u astoydil mehnat qilgan.

A	V	AVV
To'g'ri	To'g'ri	To'g'ri
To'g'ri	Xato	Xato
Xato	To'g'ri	Xato
Xato	Xato	Xato

Bundan ko'rinadiki, dehqon yeri unumdor bo'lsa ham, astoydil mehnat qilgan ham mo'lt hosil oladi.

Birlashtiruvchi - ayiruvchi hukmning formulasi esa quyidagicha:

S yoki R yoki R1 yoki R2

A ham R ham R1 ham R2 dir.

Shartli hukmlar asos va natija bog'lanishini shartli ravishda ifodalaydi, bunday hukmlar o'z tarkibida bir necha sub'ekt va predikatga ega bo'lib, ma'lum bir buyumni tasdiq yoki inkor etadi. Shartli hukm tasdiqlovchi bo'lsa, unda Masalan, agar talaba yaxshi o'qisa, u imtihonda qiyinalmaydi. Agar S-R bo'lsa R1-R1 bo'ladi shartli hukmlar ham chin ham xato bo'lishi mumkin. Agar shartli hukmda bir hodisa ikkinchi hodisa bilan shartli munosabatta bo'lsa xato bo'ladi.

Hukmlar o'rtasidagi munosabat (mantiqiy kvadrat)

Tushunchalar o'rtasidagi bo'lgani singari, hukmlar o'rtasida ham o'zaro turlicha munosabat mavjud. Chunki, hukmlar ham ob'ektiv borliqning aloqa, munosabatlari aks etiradi.

Hukm munosabatlari chin va xato hukmlar holatini belgilaydi. Hukmlar taqqoslanadigan yoki taqqoslanmaydiganlariga bo'linadi. Agar hukmlar sub'ekti yoki predikat jihatidan har xil bo'lsa, taqqoslanmaydigan hukmlar deb ataladi. Masalan, «falsafa fandir» degan hukmlarning predikatlari munosabarga kiritib bo'linmaydi va ularni o'zaro taqqoslash mumkin emas.

Agar hukmlar har xil miqdorga ega bo'lsa ham bir xil terminga (sub'ekt va predikatga) ega bo'lsa, taqqoslanadigan hukmlar deb ataladi. Masalan, «Alisher Navoiy O'rta asr Sharq mutafakkiri», «Alisher Navoiy O'rta asr Sharq mutafakkiri», «Alisher Navoiy O'rta asr Sharq mutafakkiri» taqqoslanadigan fikrlar o'rtasida sig'ishadigan va sig'ishmaydigan aloqalar mavjud. Sig'ishadigan aloqalar uch turdan iborat. To'liq mos kelishi (ekvivalent) munosabati, qisman mos kelish munosabati va bo'yusinish munosabatlari.

1. To'liq mos kelishi (ekvivalent) munosabati. Bunda ikki hukmning sub'ekti yoki predikati har xil so'zlarda ifodalansada, bir xil predikatni ifodalaydi. Masalan, Dalida ma'ruzani yaxshi o'qidi, Dalida ma'ruzani yomon o'qigani yo'q.

2. Buysunish munosabati. Umumiy hukmlar (A,E) bilan ju'ziy (J) va (O) hukmlar o'rtasida buy-sunish munosabati bor. Agar umumiy hukmlar to'g'ri bo'lsa unga bo'y-sunuvchi ju'ziy hukmlar ham to'g'ri bo'ladi. Masalan, «Hamma o'zbek oilalarida bir - birini hurmat qilish bolalar tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilish lozim».

Agar umumiy hukm xato bo'lsa, qisman (ju'ziy) hukm ham xato bo'ladi. Masalan, bizning hamma rahbarlar byurokrat emas. Ba'zi rahbarlar byurokrat emas.

3. Qisman mos kelishi munosabati. Sifat jihatidan farq qiluvchi ju'ziy hukmlar (J) va (O) o'rtasida qisman mos kelishi munosabati bor. Bunda fikrlar birdaniga to'g'ri bo'lishi mumkin, biroq birdaniga xato bo'lishi mumkin emas. Masalan, «ba'zi o'simliklar suvda o'sadi» (J) va «Ba'zilar esa suvda o'smaydi» (O). Bu fikrlarning har ikkalasi ham to'g'ri, biroq birdaniga xato emas.

Sig'ishmaydigan munosabatlar

1. Qarama - qarshi hukmlar. Bunday munosabatlar umumiy tasdiq (A) va umumiy inkor (Ye) hukmlar orasida bo'lib, ular o'zlariga xos sub'ekt va predikatga ega bo'ladi. Bunday munosabatga muvofiq agar bir hukm chin bo'lsa, unga qarshi bo'lgan hukm xatodir, ikki qarama - qarshi hukm bir vaqtda chin bo'la olmaydi, ammo bir vaqtda xato bo'la oladi, lekin ikkalasi birdaniga to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, «Bu talaba jamoatchi, doim darslarga qatnashmaydi» (A) «Bu talaba jamoat ishlarida qatnashmaydi, davomati pasidir» (Ye). Bularning biri to'g'ri bo'lsa, ikkinchisi noto'g'ri, Yoki aksincha: «Hamma o'simliklar xonakidir» (A), «Hech bir o'simlik xonaki emas» (Ye) «Bu hukmlarning har ikkalasi ham xato.

2. Bir - biriga zid munosabatlar. Bunda birinchi hukm to'g'ri bo'lsa, ikkinchi xato bo'ladi va aksincha ammo birdaniga xato bo'lishi mumkin emas. Umumiy tasdiq hukmi (A) bilan ju'ziy inkor (O) o'rtasidagi, umumiy inkor hukmi (Ye) bilan, ju'ziy tasdiq hukmi (J) o'rtasida zid munosabatlar mavjuddir. Masalan: Universitetdagi talabalar a'lochilari (A) (to'g'ri), Universitetdagi ba'zi talabalar a'lochilari emas (A) (xato).

1. Hamma qushlar issiq o'lkalarda yashamaydilar (Ye)
Ba'zi qushlar issiq o'lkalarda yashaydilar (J) 2. Hamma moddalar qattiq holda uchraydi (A). Ba'zi moddalar qattiq holda uchramaydi. (O) (tur). Oddiy hukmlar o'rtasidagi munosabatni quyidagi sxemada ko'rish mumkin.

Shunday qilib, mantiqiy kvadrat hukmlarining chin, xatoligini aniqlash mezonlari bo'la olmaydi. Undan hukmning son va sifat birlashuvi munosabatlarni bilishda oson bo'lish uchun foydalanish mumkin, ya'ni hukmlarning sifatini va miqdorini bildiradi. Demak, moddiy jihatdan bir xil hukmlarning munosabatini aniqlash orqali nisbatan yangi bilim olinadi. Bunda berilgan hukmning chinligidan ikkinchi hukmning chinligi yoki xatoligi haqida xulosa chiqarildi.

Xulosa chiqarishning mohiyati va turlari

Vogelikni bilish jarayonida inson yangi bilimlarga ega bo'ladi. Bu bilimlar abstrakt tafakkur yordamida, mavjud bilimlarga asoslangan holda vujudga keladi. Bunday bilimlarni hosil qilish mantiq ilmida xulosa chiqarish, deb ataladi.

Xulosa chiqarish – bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma'lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqaruvchi shaklidir.

Xulosa chiqarish asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o'tish jarayonidan tashkil topadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalambor, asoslar chin mulohazalardan iborat bo'lishi, o'zaro mantiqan bog'lanishi kerak.

Masalan, Aristotel – mantiq fanining asoschisi va Platon yunon faylasufidir degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki bu mulohazalar o'rtasida mantiqiy aloqadorlik yo'q.

Xulosa asoslari va xulosa ham o'zaro mantiqan bog'langan bo'lishi shart. Bunday aloqadorlikning zarurligi xulosa chiqarish qoidalarida qayd qilingan bo'ladi. Bu qoidalar buzilsa, to'g'ri xulosa kelib chiqmaydi. Masalan, «Talaba A – a'lochilari» degan mulohazadan «Talaba A – odobli», deb xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko'ra, aniqrog'i, xulosa chiqarish qoidalarining qat'iyiligi ko'ra hamda xulosa asoslarining soni va fikrlarning harakat yo'nalishiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.

Mazkur tasnifda xulosa chiqarishni fikrning harakat yo'nalishi bo'yicha turlarga ajratish nisbatan mukammalroq bo'lib, u xulosa chiqarishning boshqa turlari haqida ham ma'lumot berish imkonini yaratadi. Xususan, deduktiv xulosa chiqarish zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish (to'liq induksiya) hisobga olinmaganda) va analogiya ehtimoliy xulosa chiqarish deb olib qaralishi, bevosita xulosa chiqarish esa deduktiv xulosa chiqarishning bir turi sifatida o'rganilishi mumkin.

Murakkab hukmlarga asoslangan deduktiv xulosa chiqarishda xulosa asoslariga mantiqiy bog'lovchilar orqali bog'langan oddiy hukmlar deb qaraladi. Xulosa asoslari yo shartli, yoki ayiruvchi, yoki ham shartli, ham ayiruvchi hukm ko'rinishida bo'lishi mumkin. Asoslardagi hukmlarning turiga ko'ra bunday xulosa chiqarishning quyidagi shakllari mavjud:

Deduktiv xulosa chiqarish

Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati - unda umumiy bilimdan juz'iy bilimga o'tishning mantiqan zaruriy xususiyatga ega bo'lganidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir.

Faqat birgina mulohazaga asoslangan holda yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish, deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish simvolik mantiqda quyidagicha ifodalanaadi: XY_{SP} , bunda X va Y oddiy qat'iy mulohazalarni (A, E, I, O), S va P lar esa mulohazalarning sub'ekti va predikativini ifodalaydi. XSP — xulosa asosi yoki antecedent, YSP — xulosa yoki konsekvant, deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish jarayonida mulohazalarning shaklini o'zgartirish orqali yangi bilim hosil qilinadi. Bunda asos mulohazaning tarkibi, ya'ni sub'ekt va predikat munosabatlarining miqdor va sifat tavsiflari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bevosita xulosa chiqarishning quyidagi mantiqiy usullari mavjud:

1. Aylantirish (tot.—obversio) shunday mantiqiy usulki, unda berilgan mulohazaning miqdorini saqlagan holda, sifatini o'zgartirish bilan yangi mulohaza hosil qilinadi. Bu usul bilan xulosa chiqarilganda qo'sh inkor sodir bo'ladi, ya'ni

invol asosning predikati, keyin bog'lovchisi inkor etiladi. Buni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\begin{array}{c} S - P \\ \equiv \\ S - P \end{array}$$

Inkor qilish jarayonida (-ma; -siz; -mas) kabi qo'shimchalar yoki inkor qilingan tushunchaga zid bo'lgan tushunchalardan foydalaniladi. Oddiy qat'iy mulohazalarning hammasidan aylantirish usuli bilan xulosa chiqariladi. Xulosa mosi bo'lgan mulohaza xulosada quyidagicha ifodalanaadi:

Aylantirish usuli bilan xulosa chiqarilganda "bitor nimaning qo'shinkori uning tasdig'i bilan tengdir" degan qoida amal qiladi.

Masalan:

1. A. Hamma ilmiy qonunlar ob'ektiv xarakterga ega.

Ye. Hech bir ilmiy qonun sub'ektiv xarakterga ega emas.

Analogiya va uning turlari

Analogiya (grek. — moslik, o'xshashlik) bevosita xulosa chiqarishning bir turidir. Deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiylikdan juz'iylikka qarab, induksiya juz'iylikdan umumiylikka qarab harakatlansa, analogiyada bir juz'iy holatdan boshqa juz'iy holatga qarab harakatlanaadi.

Analogiyada predmetlarning o'xshash xossalari asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyada ob'ektiv turli-tumanlik bilan bir qatorda, ob'ektiv o'xshashlik ham mavjud. Ular inson ongida o'z ifodasini topadi. Ob'ektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalar tuzilishi jihatidan o'xshash bo'lsa, ular aks etingan voqealikdagi turli narsa va hodisalar ham ma'lum ma'noda o'xshash bo'ladi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish ob'ektiv reallikning cheksiz ko'rinishlari hamda unda mavjud bo'lgan turli sistemalarning xossalari, munosabatlari, tarkibidagi o'xshashliklarga asoslanadi. Masalan, sayyoralar, davrlar, ilmiy tuzumlar mohiyatida o'xshashlik bor. Bilishda muhim va qonunli xossalari o'xshashligi asosida analogiya bo'yicha xulosa chiqariladi.

Analogiya vositasida bir predmetdan (modeldan) boshqa predmetga (prototipga) axborot o'tkaziladi. Xulosa asoslari modelga, xulosa prototipga taalluqli bo'ladi. Masalan, qadimgi greklarning «Dedal va Ikar» afsonasida aytilishicha, ota va bola quillikdan ozod bo'lish uchun o'zlariga qanot yasashadi va uchib ketishadi. Bunda xulosa chiqarish quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Qush tirik mavjudot, uning qanoti bor, u uchadi.

Inson ham tirik mavjudot, uning qanoti yo'q, u uchmaydi.

Insonning ham qanoti bo'lsa, u, ehtimol, uchadi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish boshqa xulosa chiqarishlar kabi asos, xulosa va asos bilan hamda xulosa o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iboratdir. Uning xulosasi ehtimoliy shaklda bo'lib, keyingi tekshirishlarni talab qiladi. Aniq asoslardan ba'zan aniq, ba'zan ehtimoliy xulosa chiqadi.

Analogiya o'zining ob'ektiv asosiga ega. Bular predmetlar, ularning xossalari o'rtasidagi aloqa va munosabatlardir.

Analogiyani turlarga ajratganda xulosaning aniqlik darajasiga ham e'tibor beriladi. Shu jihatdan analogiyani qat'iy (aniq), qat'iy bo'lmagan, noaniq va xato analogiyaga ajratamiz. Qat'iy analogiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, ko'chirilyotgan va o'xshatilyotgan belgilar o'rtasidagi aloqa zaruriy bo'ladi. Aniq fanlardagi modellashirishda fikr qat'iy analogiya shaklida yuritiladi.

Qat'iy bo'lmagan analogiyada o'xshash bo'lgan va ko'chirilyotgan belgi o'rtasidagi zaruriy aloqa ehtimollik darajasiga ega bo'ladi. Ijtimoiy, tarixiy voqealarni o'rganishda va aniq, tabiiy fanlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganda fikr yuritish qat'iy bo'lmagan analogiya tarzida bo'ladi. Masalan, nemis olimi Shpengelning ta'kidlashicha, jamiyat ham tirik organizmlar kabi to'rtta rivojlanish bosqichini bosib o'tadi. Bular: paydo bo'lish, rivojlanish, yetuklik davri va yemirilish davri.

Agar yolg'on hukmi 0 bilan, chin hukmi 1 bilan, xulosaning ehtimollik darajasini $R(a)$ bilan belgilasak, qat'iy analogiyada $R(a)=1$; qat'iy bo'lmagan analogiyada $1>R(a)>0$ bo'ladi.

Analogiya bo'yicha chiqariladigan xulosaning aniqlik darajasini oshirish uchun, ya'ni xulosaning chin bo'lish ehtimolini oshirish uchun ma'lum shartlarga rioya qilish zarur. Bular quyidagilardan iborat:

1. Taqqoslanayotgan predmetlarning o'xshash belgilari imkoni boricha ko'proq aniqlanishi lozim. Shunda xulosaning chinlik darajasi, chin xulosa chiqarish imkoni ortadi.

2. Taqqoslanayotgan predmetlarning o'xshash belgilari predmetlar uchun muhim belgilar bo'lishi kerak. Shunda xulosa chin fikrga yaqinlashadi.

3. Taqqoslanayotgan predmetlarning ko'chirilyotgan belgisi bilan boshqa belgilari zaruriy aloqada bo'lishi kerak. Shunda xulosaning ishonarli, aniq bo'lish shartlari bajarilgan bo'ladi.

4. Taqqoslanayotgan predmetlarning ko'chirilyotgan belgisi bilan o'xshash belgilari bir turda bo'lishi kerak.

5. Taqqoslanayotgan predmetlarning farq qiluvchi belgilari miqdori kam bo'lishi va bu belgilar zaruriy, muhim bo'lmastligi shart. Agar predmetlar muhim, zaruriy belgilari bilan bir-biridan farq qilsa, analogiyaning xulosasi xato bo'ladi.

Yuqoridagi qoidalarining buzilishi yolg'on analogiyaga, ya'ni xulosaning xato bo'lishiga sabab bo'ladi.

Analogiya modellashirish metodining mantiqiy asosini tashkil etadi. Modellashirishda (konkret yoki abstrakt) ob'ektlar modellarda, ya'ni shartli obrazlar, shakllar, ob'ektning kichraytirilgan nusxalarida tadqiq etiladi.

Ma'lum sabablarga ko'ra tekshirilyotgan ob'ektni tabiiy sharoitlarda o'rganish qiyin bo'lganda yoki mumkin bo'lmaganda modellashirishdan foydalaniladi. Bu o'z navbatida bilish jarayonini yengillashiradi.

Modellarni uch turga bo'lish mumkin:

1. Tabiiy modellar – o'rganilyotgan ob'ekt bilan bir turda bo'ladi va undan faqat o'rganilari, jarayonlarining tezligi va ba'zi hollarda yasalgan material bilan farq qiladi.

2. Matematik modellar – prototip (asl nusxa)dan jismoniy tuzilishi bilan farq qiladi, lekin prototip bilan bir xil matematik tasvirga ega bo'ladi.

3. Mantiqiy matematik model – belgilardan iborat bo'lib, abstrakt model hisoblanadi va tafakkur jarayonini o'rganishda qo'llanadi.

Modellarning bu turlaridan alohida-alohida va birgalikda foydalaniladi.

So'nggi vaqtlarda modeldashirish ko'pincha kompyuter vositasida amalga oshirilmoqda. Masalan, yangi avtomobilning modeli kompyuterda yasaliib, uning o'lchamlari, turi afzalliklari matematik modeldashirish vositasida aniqlanadi.

Dalilash va ishonch-e'tiqodning shakllanishi

Kishilarning amaliy faoliyatidagi muvaffaqiyatlari ular qo'llayotgan bilimlarning qay darajada chin bo'lishiga, ya'ni bu bilimlarning voqelikni qanchalik to'g'ri aks ettirishiga bog'liq. Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib ko'rsatadi, bilishda ko'p chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun ham bilish jarayonida har bir fikrni to'g'ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan ko'rsata olish, xato fikrlarni esa rad qila bilish muhim ahamiyatga ega.

Fikrning chin yoki xatoligini ko'rsatish uchun uni hodisaning (faktning) o'zi bilan solishtirish mumkin. Lekin ko'p hollarda bilish jarayonida natijalarning chin yoki xatoligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog'lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli asoslashdir.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan, chinligi asoslangan fikr yuksak ishonitirish kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-e'tiqodni shakllantiradi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Asoslash ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir.

Ishonch-e'tiqod bu - kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Isbotlash va uning turkibi. Isbotlash turlari.

Isbotlash bir hukmning chinligini u bilan bog'liq boshqa chin hukmlar yordamida asoslashdan iborat bo'lgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli – demonstratsiya.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo'lgan hukm, u isbotlashning markaziy figurasini hisoblanadi; butun diqqat-e'tibor uning chinligini ko'rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o'zidan, yoki mulohazalar tizimi, yoki teoremlar, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalari, yoki hodisalarning sababini ko'rsatuvchi mulohazalardan iborat bo'ladi.

Argumentlar – tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar. Argumentlar sifatida faktlarni qayd qiluvchi hukmlar, ta'riflar, aksiomalar, teoremlar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o'zaro bog'langan va tezisning mohiyatiga aloqador bo'lishi lozim.

Ta'riflar ham chin hukmlar bo'lib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, «Harakat – bu har qanday o'zgarishdan iborat», degan ta'rif chin hukmdir.

Aksiomalar chinligi o'z-o'zidan ravshan bo'lgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida ko'p marta takrorlanganligi uchun ham ularni isbotlash zarur emas.

Teoremlar va qonunlarning chinligi isbotlangan bo'ladi, ularni hech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin.

Isbotlash usuli – demonstratsiya tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo'ladi, ya'ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bavoisita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi to'g'ridan-to'g'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo'lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko'p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma'lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, «O'zbekiston – mustaqil davlatdir», degan hukm (tezis)ning chinligi «O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan hukmning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farqi qilinadi. Apagogik isbotlash tezis (a) va antitezis ($\bar{a}$) o'rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo'lgan «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma'lum bir natija keltirib chiqariladi (2-bosqich), so'ngra bu natijalarning xatoligi ko'rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm chin bo'lsa, «Moddiy predmetlar strukturasis mavjud», degan fikr (antitezisidan kelib chiqqan natija) ham chin bo'ladi. Bizga ma'lumki, moddiy predmetlar tarkibisiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o'zaro aloqasisiz) mavjud emas. Demak, «Materiya harakatsiz mavjud», degan fikr xato, shu tariqa «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan fikrning chinligi asoslanadi.

Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi hukmning (kuchli diz'yunksiyaning) bir a'zosi bo'lib, uning chinligi boshqa a'zolarining (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Masalan, "jinoyni yo A, yo V, yo S shaxslar sodir etgan", degan fikr tekshirilib, «jinoyni V shaxs ham, S shaxs ham sodir etmagan»ligi aniqlanadi va shu tariqa «jinoyni A shaxs sodir qilgan», degan hukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi – qat'iy sillogizmini inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo'yicha qurilgan. Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to'liq olingandagina xulosa chin bo'ladi, ya'ni tezis isbotlanadi.

Raddiya. Rad etish usullari.

Raddiya – isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amal. Biriorta fikrning chinligini rad etish ayri paytda unga zid bo'lgan fikrning xatoligini ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo'lgan hukm),

argumentlar (tezisni rad qiluvchi hukmlar) va demonstratsiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo'ladi. Raddiya biriorta masalani muvokama qilish, ya'ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma'lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilmagan, munozarali masalalar bo'yicha olib boriladigan bahslar **polemika** hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Savol va javob, ularning turlari

Inson dunyovqarashini kengaytiruvchi va chuqurlashtiruvchi eng asosiy vositalardan biri - savol-javob (dialog)dir. Savol-javobni tashkil eta bilish insonda voqeilikka mos (adekvat) tushunchalarning shakllanishiga, mulohazalarini to'g'ri qurishga va xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Savol-javob, dialog erotematik (grek. Erotematikos – savol shaklida) mantiqda o'rganiladi. Savol mantiqiy reallikning o'ziga xos alohida ko'rinishidir. Savol berish ya'ni fikrni to'g'ri javobga yo'naltirish san'ati - tafakkurlash madaniyatining zaruriy elementidir. Mantiqan to'g'ri savollarni qo'ya bilish aqlliqlik, farosatlilikning muhim belgisidir.

Inson bilimi predmet va hodisalar haqida avvalgi hosil qilingan hukmlardan yongil, ularni to'ldiradigan, kengaytiradigan hukmlarni yaratishga qarab tarqiqiy etib boradi. Bu jarayon ma'lum bir savollarni qo'yish va ularga javob qidirish tarzida sodir bo'ladi. Savol so'roq gap yordamida ifoda qilingani uchun hukmni ifoda qila olmaydi. Ular bilishda turlicha vazifalarni bajaradi. Hukmning vazifasi predmet haqidagi mavjud bilimlarni qayd qilishdan iborat bo'lsa, savol uning yangi xususiyatlari, aloqalarini qidirib topishga, aniqlashga, o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Savol bir qancha muhim mantiqiy hususiyatlarga ega:

1. Savolda ma'lum bir boshlang'ich bilim mujassamlangan bo'ladi.
2. Savolda mavjud bo'lgan bilim noaniq bo'ladi.
3. Savolda predmet haqida to'laroq bilimga ega bo'lish ehtiyoji o'z ifodasini topadi.

Ana shundan kelib chiqib, savol bilimlarimizdagi noaniqliklarni, shubhalarni yo'qotish hamda aniqroq va to'laroq bilimlar hosil qilishga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan fikrlash vositasidir deb aytishimiz mumkin.

Savol o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U o'zining asosiga, (datum questions)

bazasiga ega. Savolning asosini unda mujassamlangan bilim, axborot tashkil etadi.

Savol va javob insonlarning dialog ko'rinishidagi mulohat shaklidir. Uning muhim funksiyalaridan biri kommunikativlikdir. Axborotni qidirish vositasi sifatida ham savolning ahamiyati beqiyosdir. Savol bo'lmasa bilish ham bo'lmaydi.

Savollarni har xil asoslarga ko'ra bir qancha turlarga bo'lish mumkin.

Noma'lum narsani aniqlash usuliga ko'ra **aniqlovchi va to'ldiruvchi savollar** farqlanadi. Masalan, "Sen o'qishni bilasanmi?"-degan savol aniqlovchi, "Sen qaysi qo'shiqni kuylamoqchisan?"-degan savol to'ldiruvchi savoldir.

Savol o'zining asosiga ko'ra **to'g'ri (o'rinni) va noto'g'ri (o'rinsiz)**

qo'yilgan savollarga bo'linadi. Asosi chin va ziddiyatsiz bilimdan iborat bo'lgan savol to'g'ri bo'ladi. Noto'g'ri (o'rinsiz) savolning asosi yolg'on, ziddiyatli yoki ma'nosiz hukmdan iborat bo'ladi. Bunday savollarga javob berib bo'lmaydi.

Strukturasiga ko'ra **oddiy va murakkab savollar** mavjud. Agar tarkibida

boshqa savol bo'lmasa, oddiy savol, bo'lsa – murakkab savol deb yuritiladi.

Masala – savolning alohida bir turi bo'lib, uni hal qilish savolning asosini mantiqan o'zgartirishni, yetishmayotgan ma'lumotlar bilan to'ldirishni muhim tomonlarini ajratishni, muhim bo'lmaganlarini chiqarib tashlashni taqozo etadi.

Savolni to'g'ri qo'yish uchun ma'lum bir qoidalarga rioya etish zarur:

1. Savol o'rinni bo'lishi va til talablariga javob berishi kerak.
2. Savol qisqa va ravshan holda ifoda qilingan bo'lishi kerak. Uzun va chalkash savollar tushunish va javob berishda qiyinchilik tug'diradi.
3. Savol aniq bo'lishi, ya'ni unda javob berish uchun zarur bo'lgan vaqt, xolat va kontekst ko'rsatilgan bo'lishi kerak.
4. Savol imkon darajada oddiy tuzilishga ega bo'lishi, murakkab tuzilgan savollar bir nechta oddiy savollarga ajratilishi zarur.

5. Murakkab ayiruvchi savollarda muqobil xolatlarda to'liq ko'rsatilishi javobning aniq bo'lishi uchun muhimdir.

6. Savolning asosi (bazisi) chin hukmlardan iborat bo'lishi kerak.

Javob – predmet haqidagi avvalgi bilimni qo'yilgan savolga muvofiq holda aniqlashitiradigan, to'ldiradigan yangi hukmdan iborat. U savolning asosini tashkil etuvchi bilimga tayinlangan holda yangi bilim olishga imkon beradi. Javobning mohiyatini savolda mavjud bo'lgan noaniqlikni kamaytirish tashkil etadi. Savolga javob qidirish davomida, odatda bilimlarning konkret sohalariga murojaat qilinadi. Ular javobni qidirish sohasi, deb ataladi.

Mantiqda javobning bir qancha turlari: bevosita (to'g'ri) va bilvosita javoblar, to'liq va to'liqsiz javoblar, chin va xato javoblar, qisqa va batafsil javoblar, aniq va noaniq javoblar ajratiladi.

Bevosita (to'g'ri) javob - savolda ko'rsatilgan noma'lum sohaga taalluqli mulohazalar to'planidan iborat.

Bilvosita javob-javobni qidirish sohasidan chetga chikib, qo'shimcha ma'lumotlarga murojaat qilish asosida hosil qilinadigan mulohazalar to'planidan iborat bo'lib, bevosita (to'g'ri) javob ulardan hulosa chiqarish yo'li bilan hosil ilinadi.

To'liq va to'liqsiz javoblar javobda beriladigan ma'lumotlar miqdori bo'yicha farq qilinadi. To'liq javob - o'zida savolning barcha elementlari (qismlari) haqida ma'lumotlarni mujassamlashtirgan mulohazalar to'planidir. To'liqligiz javob-savolni tashkil etuvchi elementlarning bir qismi haqidagina ma'lumotni ifoda etgan mulohazalardan iborat.

Mantiqiy qiymati bo'yicha, ya'ni boriqqa munosabatiga ko'ra **chin va xato javoblar** farq qilinishi mumkin. Agar javobda ifodalangan fikr-mulohazalar boriqqa muvofiq kelsa, uni adekvat xolda aks ettirsa, u chin javob, va aksincha, boriqqa muvofiq kelmasa, adekvat tarzda aks ettirmasa, bu xato javob bo'ladi.

Grammatik shakliga ko'ra **javoblar qisqa yoki batafsil bo'ladi**. Qisqa javob "xa" yoki "yo'q" tarzida beriladigan tasdik yoki inkor shaklidagi bitta

soʻzdan iborat. Batafsil javob savolning har bir elementi takrorlanadigan muloxazadir.

Javobning aniq yoki noaniq boʻlishi savolning sifatiga, uning mantiqiy strukturasi bogʻliq. Maʼlumki, savol va javob mantiqan bogʻlangan boʻladi, yaʼni javobning mazmuni koʻyilgan savolning sifatiga bogʻliq. Ana shuning uchun ham mulohazada "savolga yarasha javob" degan qoida amal qiladi. Noaniq, koʻp maʼnoli savollarga aniq javob olish kiyin.

Aniq javob - mantiqan toʻgʻri qoʻyilgan savolga bildiriladigan mulohazadan iborat boʻlib, unda ishlatilayotgan tushunchalar, soʻzlarning mazmuni va maʼnosi konkret va ravshan boʻladi. **Noaniq javob**ni ifoda etuvchi mulohazalar ikki xil maʼnoli tushunchalar, soʻzlarni ishlatish natijasida hosil boʻladi. Javob toʻgʻri boʻlishi uchun maʼlum bir metodologik talablarga rioya qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1. Javob aniq, ravshan va iloji boricha ixcham boʻlishi shart.
2. Javob mantiqan ziddiyatsiz boʻlishi zarur.
3. Javob yetarli darajada asoslangan boʻlishi kerak.
4. Javob savoldagi noaniqlikni kamaytirishi, iloji boricha toʻliqroq maʼlumotlarni berishi zarur.
5. Nooʻrin qoʻyilgan savolga berilgan javobda shu nooʻrinlik koʻrsatilishi zarur.

6. Murakkab ayiruvchi savolga javob berganda tarkibidagi faqat bir savolga javob berish yetarli boʻlsa, qoʻshuvchi savolga javob berganda tarkibidagi hamma savollarga javob berish zarur.

Yuqoridagi koʻrsatmalar bilim olish, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni toʻgʻri tashkil qilish uchun mulqot olib borishda nihoyatda ahamiyatlidir.

Gipoteza - bilimlarning mavjud boʻlish va tarqalish shakli

Muammoni hal etish jarayonida maʼlum bir gipotezalar ilgari suriladi va asoslanadi.

Gipoteza - oʻrganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiruvchi asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir. Gipotezani, avvalambor,

bilimlarning mavjud boʻlish shakli sifatida olib qarash zarur. Chin, ishonchli bilimlar hosil boʻlgunga qadar qoʻyilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-mulohazalar kuzatish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan boʻlib, ular turli xil taxminlar, farazlar shaklida mavjud boʻladi. Ilgari ishlatilayotgan gipotezalar turli xil darajada umumlashtirilgan boʻlishi mumkin. Ana shunga muvofiq holda umumiy va juzʼiy gipotezalarni ajratish mumkin.

Umumiy gipoteza deb tabiat, jamiyat, bilish hodisalarining qonuniylari haqida bildirilgan asosli taxminga aytiladi. Umumiy gipotezalar borligining muhim qonuniyatlarini ochildishga imkon bergani uchun ilmiy nazariyani qurish uchun hisoblanadi. Isbotlangach, bunday gipotezalar nazariyalarga aylanadi va ilmiy tadqiqotlarning maqsadli yoʻnalishlarini belgilab beradilar.

Juzʼiy (xususiy) gipoteza ayrim faktlar, konkret predmet va hodisalarning kelib chiqishi, xususiyatlari haqidagi bildirilgan asosli taxminiy fikrdan iborat. Mantiqda ishchi gipotezalar ham farq qilinadi.

Ishechi gipoteza tadqiqotning dastlabki bosqichida ilgari suriladigan taxmin boʻlib, oʻz oldiga oʻrganilayotgan hodisaning sababini aniqlashni maqsad qilib qoʻymaydi; u faqat kuzatish va eksperiment natijalarini tasvirlashga, tartibga solishga yordam beradi.

Shunday qilib, gipoteza fikrlarimizning qurilishi, bilimlarimizning mavjud boʻlish va rivojlanish shaklidir.

Mantiq ilmini oʻrganishning ahamiyati

Mantiq ilmini oʻrganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Mantiqni bilish, ayniqsa, ilm-fan bilan shugʻullanish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, koʻpayib borayotgan ilmiy axborotlarni tartibli ravishda oʻzlashtirish, ilmiy masalalarning tuzilishini tez bilib olish uchun ham muhim rol oʻynaydi.

Mantiq inson tafakkuri madaniyatini koʻtarish va insoniyatning uzoq umrining natijasida takomillashgan tafakkur shakllari, qonun va qoidalarini bilish uchun xizmat qiladi. U inson fikrining ketma-ket, ziddiyatsiz va asosli boʻlishini taʼminlaydi. Mantiq fani mazmunini chuqurroq oʻrganish kishilarning oʻz tafakkuri va oʻzgarlar tafakkuri natijalariga tanqidiy qarash xislatlarini

rivojlaniradi. Tafakkurning bu sifatlari esa insonning turli ilmiy va amaliy faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Mantiqiy usullardan to'g'ri foydalana olish, ta'lim-tarbiya jarayonida isbot va raddiyaning mantiqiy tomonlarini bilish inson nutqining asosi bo'lishini ta'minlab, fikrdagi ziddiyatlarni ochishga yordam beradi.

Mantiq ishonch-e'tiqodning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Faktlar va boshqa dalillarga tayyanuvchi fikr yuksak ishonitirish kuchiga ega bo'ladik, kishilarda ishonch-e'tiqodni mustahkamlaydi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Ana shuning uchun ham yoshlarda ilmiy asosga ega ishonch-e'tiqodni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqan asoslangan to'g'ri fikr ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-e'tiqod esa, insonning kamillik mezonlaridan biri hisoblanadi. Chuqur tahlilga, mantiqqa asoslangan bir yoqlama fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to'g'ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo'l ochadi.

Mantiq insonlar o'rtasidagi turli daraja va mazmundagi munosabatlarni uyg'unlashtirishda, o'zaro mulohazaning samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:

1. Tushuncha nima? Unga ta'rif va misollar keltiring?
2. Belgilar, umuman muhim va nomuham belgilarni misollar bilan tushuntiring?
3. Analiz va sintezni misollar bilan tushuntirib bering?
4. Abstraksiyalash nima?
5. Tushunchaning mazmuni va hajmi.
6. Tushunchalarning turlari va ular o'rtasidagi munosabatlar nimalardan iborat.
7. Hukm nima?
8. Oddiy hukmlarning turlari.
9. Murakkab hukmlarning asosiy turlari haqida gapirib bering?

10. Hukmlar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar nimalardan iborat?

11. Tafakkur va mantiqning o'zaro aloqadorligini aniqlang?

12. Mantiqning o'rganish predmetini nima tashkil etadi?

13. Mantiqiy shakl va mantiqiy qonunlarning xususiyatlari nimalarda?

14. Formal mantiqning xususiyatini va uni dialektik va matematik mantiqdan farqlab aytib bering?

15. Mantiqiy fikrlar paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlarini aniqlang.

16. Sharq va Qadimgi Yunon mantiq maktablarning farqini aniqlang?

17. Mantiqning rivojlanishida Arastu va Forobiyning xizmatlarini ko'rsating.

18. Hozirgi zamon mantiq ilmining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib bering?

19. Tilning mohiyati va uning tafakkur shakllari haqida nimalar deya olasiz.

20. Sun'iy til, uning fikrni formalashirishdagi ahamiyati nimalarda?

21. Qonunlarning amal qilish doirasiga ko'ra guruhga bo'linishini tushuntirib bering?

22. Mantiq fanining asosiy qonunlaridan ayrimiyat qonuniga misollar keltiring?

23. Mantiq fanining asosiy qonunlaridan nozidlik (ziddiyatsizlik) qonuniga misollar keltiring?

24. Mantiq fanining asosiy qonunlaridan uchinchisi istisno qonuniga misollar keltiring?

25. Mantiq fanining asosiy qonunlaridan yetarlicha asos qonuniga misollar keltiring?

26. Xulosa chiqarish deganda nimani tushunasiz? Ta'rifni bering.

27. Bevosita va bilvosita xulosa chiqarish deganda nimani tushunasiz?

28. Deduktiv xulosa chiqarish nima? Misollar keltiring.

29. Induktiv xulosa chiqarish nima? Misollar keltiring.

30. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish nima? Misollar keltiring.

31. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish nima? Misollar keltiring.

32. Deduktiv xulosa chiqarish nima? Misollar keltiring.

33. Induktiv xulosa chiqarish nima? Misollar keltiring.

34. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish nima? Misollar keltiring.

35. Mantiq fanining asosiy qonunlaridan uchinchisi istisno qonuniga misollar keltiring?

36. Xulosa chiqarish deganda nimani tushunasiz? Ta'rifni bering.

37. Bevosita va bilvosita xulosa chiqarish deganda nimani tushunasiz?

38. Deduktiv xulosa chiqarish nima? Misollar keltiring.

39. Induktiv xulosa chiqarish nima? Misollar keltiring.

40. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish nima? Misollar keltiring.

**8-mavzu: "Etika" fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati.
Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni. Etika
fanining asosiy kategoriyalari.**

Maqсад va vazifalar:

Talabalarda axloq haqidagi qarashlar tarixini va boy ma'naviy merosini o'rganish asosida zamonaviy odob - axloq qoidalari va ularga amal qilishning ijtimoiy ma'naviy ahamiyatini o'rganishdan iborat. Talabalarda axloqning faqat insonagina aloq qilgan ma'naviy ne'mat ekani, axloq va shaxs kamoloti borasida diniylik va dunyoviylikning o'zaro dialektik bog'liqligini bilishi, ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari, axloqiy tarbiya borasidagi umumiy qonuniyalarni shakllantirish.

Reja

1. "Etika" fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. Etika fanining ahamiyati va vazifalari
2. Nikoh va muhabbat, Oilaviy mulk, farzand tarbiyasi va oilaning tarqalishi.
3. Erkinlik - fuqarolik jamiyatining yashash sharti sifatida.
4. Muomala odobi va uning shaxs ichki madaniyati bilan bog'liqligi. Etikening axloqiy munosabat sifatidagi mohiyati.
5. Kasbiy odob va uning Axloqiy madaniyat tuzilmasidagi o'rni.
6. Axloqiy tarbiya va uning asosiy vositalari, yo'llari.

Tayanch so'zlar: Axloq, odob, xulq, etika, estetika, axloqiy tafakkur, axloqsizlik, etosfera, biologik olam, noosfera, texnokratiya, axloqshunoslik. Fuqarolik jamiyati, inson manfaatlari, shaxs erkinligi, fuqarolik uyushmalari, jamoat tashkilotlari, tizimli boshqaruv, axloqiy g'oya, siyosiy tuzum, axloqiy vazifa, davlat suvereniteti, inson huquqlari, demokratik tamoyillar, oila, nikoh, muhabbat, oilaviy muhit, oilaviy mulk, farzand tarbiyasi, oilaning tarqalishi. Axloqiy madaniyat, axloqiy tajriba, muomila odobi, Demokratik tamoyillarni, noverbal harakatlari, axloqiy korillik, etiket, kasbiy odob, axloqiy tarbiya.

Etika bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy fan. U bizda «Ilmi ravish», «Ilmi axloq», «Axloq ilmi», «Odobnoma» singari nomlar bilan atab kelingan. Ovro'pada esa «Etika» nomi bilan mashhur, biz ham yaqin-yaqingacha shu atamani qo'llar edik. U dastlab manzildoshlik, yashash joyi, keyinchalik esa odob, fe'l, fikrlash tarzi singari ma'holarni anglatgan, yunoncha «ethos» so'zidan olingan.

Uni birinchi bo'lib yunon faylasufi Arastu muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilarkan, ularni uch guruhga bo'ladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga falsafa, matematika va fizika; ikkinchi guruhga etika va siyosat; uchinchi guruhga esa san'at, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta'limotni fan darajasiga ko'targanlar va «Etika» (ta'etika) deb ataganlar.

Biroq bizda milliy-mintaqaviy axloqiy qadriyatlarimizning, dastlabki axloqiy g'oyalarning vujudga kelishi qadimgi yunonlar yashagan davrdan o'nlab asrlar avval ro'y bergan. Ajdodlarimizning eng ko'hna e'tiqodiy kitobi - «Avesto» huning yorqin dalilidir. Shu sababli endilikda bu fanni ham ilmiy-tarixiy, ham zamonaviy-hayotiy talablar nuqtai nazaridan «Axloqshunoslik» deb atashni muvofiq deb bildik.

Etikaning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi. «Axloq» so'zi arabchadan olingan bo'lib, «xulq» so'zining ko'plik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha sifatida u fanning tadqiqot ob'ekti anglatga, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovi qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini - xulq, eng qamrovi qismini axloq egallaydi.

Odob - inson haqida yuqorimi taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega

bo'lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq - oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyati bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yuqumli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq - jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa.

Bu fikrlarimizni misollar orqali tushuntirishga harakat qilamiz. Deylik, metroda yoshgina yigit, talaba hamma qatori o'tiribdi. Navbatdagi bekindan bir keksa kishi chiqib, uning ro'parasida tik turib qoldi. Agar talaba darhol: «O'tiring, otaxoni!» deb joy bo'shatsa, u chiroyli a'mol qilgan bo'ladi va bu a'mol bilan atrofdagilarda yaxshi kayfiyat uyg'otadi; chetidan qarab turganlar unga ich-ichidan minnatdorchilik bildirib: «Baraka topgur, odobli yigitcha ekan», deb qo'yadilar. Aksincha, talaba yo teskari qarab olsa, yoki o'zini mudraganga solib, qariyaga joy bo'shatmasa, g'ashimiz keladi, ko'nglimizdan: «Buncha beodob, surbet ekan!» degan fikr o'tadi, xullas, u bizda yoqimsiz taassurot uyg'otadi. Lekin, ayni paytda, talabaning qariyaga joy bo'shlagani yoki bo'shatmagani oqibatida vagondagi yo'lovchilar hayotida darhol biror-bir ijobiy, salbiy - muhim o'zgarish ro'y bermaydi.

Xulqqa quyidagicha misol keltirish mumkin: mahallamizdagi oila boshliqlaridan biri imkon boricha qo'ni-qo'shnilarning barcha ma'rakalarida xizmatda turadi, qo'lidan kelgan yordamini hech kimdan ayamaydi, ochiqko'ngil, ochiqqo'l, doimo o'z bilimini oshirib borishga intiladi, tirishqoq, oila a'zolariga mehribon va h.k. Unday odamni biz xushxulq inson deyimiz va unga mahallamizning namunasi sifatida qaraymiz. Bordi-yu, aksincha bo'lsa, u qo'ni-qo'shnilar bilan qo'pol muomala qilsa, to'y-ma'rakalarda janjal ko'tarsa, sal gapga o'dag'aylab, mushk o'qtalsa, ichib kelib, oilada xotin-bolalarini urib, haqoratlasa, uni baxxulq deyimiz. Uning baxxulqiligidan oilasi, tevarak-atrofdagi ba'zi shaxslar jabr ko'radi, mahalladagilarning tinchi buziladi, lekin xatti-harakatlari

jamiyat ijtimoiy hayotiga yoki insoniyat tarixiga biror-bir ko'zga tashlanadigan ta'sir o'tkazmaydi.

Biroq bu fikrlardan odob va xulqning jamiyatdagi roli u qadar ahamiyatli emas ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak; fuqarolar orasida odoblilik va xushxulqilikning keng yoyilishi jamiyat axloqiy hayotiga emas, balki butunicha ijtimoiy taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir tufayli parchand jamiyat birdaniga yuksalib ketmasa-da, asta-sekinlik bilan, muntazam ravishda yaxshilanib, ravnaq topib boradi.

Axloqqa kelsak, masala o'ta jiddiy mohiyat kasb etadi: deylik, bir tuman yonud viloyat prokurori o'zi mas'ul hududda doimo qonun ustuvorligini ta'minlash uchun intiladi, adolat qaror topishini ko'zlab ish yuritadi, lozim bo'lsa, hokimning noqonuniy farmoyishlariga qarshi chiqib, ularning bekor qilinishiga erishiladi; oddiy fuqaro nazdida nafaqat o'z kasbini e'zozlovchi shaxs, balki haqiqiy huquq posboni, adolati tuzum timsoli tarzida gavdalanadi; u - umrini millat, Vatani va inson manfaatiga bag'ishlagan yuksak axloq egasi; u, o'zi yashayotgan jamiyat uchun namuna bo'laroq, o'sha jamiyatning yanada taraqqiy topishiga xizmat qiladi. Agar mazkur prokuror, aksincha, qonun himoyachisi degan nomi bo'latilib, o'zi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yo'lidagi qora, qorani oq deb tutib, u axloqsizlik qilgan bo'ladi: oddiy fuqaro nazdida birgina kishi - prokuror-omiddor emas, balki butun jamiyat adolatsiz ekan, degan tasavvur uyg'otadi. Hunday tasavvurlarning muntazam kuchayib borishi esa oxir-oqibat o'sha jamiyat yoki tuzumni tanazzulga olib keladi.

Albatta, har uchala axloqiy hodisa va ularning ziddi nisbiylikka ega. Huminonchi, hozirgina misol keltirganimiz prokurorning axloqsizligi darajasi bilan o'z yukka hukmronligi yo'lidagi millionlab begunoh insonlarni o'limga mahkum qilgan Lenin, Hitler, Pol Pot singari shaxslar axloqsizligi orasida farq bor: agar prokurorning axloqsizligi bir millat yoki mamlakat uchun zarar qilsa, totalitar tuzum hukmdorlari xatti-harakatlari umumshaxsiy miqyosdagi fojialarga olib keladi.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, axloqiy tarbiya natijasida odoblilik - xushxulqilikka, xushxulq-lilik - yuksak axloqiylikka aylangani kabi, axloqiy tarbiya yo'lga qo'yilmagan joyda muayyan shaxs, vaqi kelib, odobsizlikdan - badxulqilikka, badxulqilikdan - axloqsizlikka o'tishi mumkin.

Shunday qilib, axloqshunoslik mazkur uch axloqiy hodisani bir-biri bilan uzviylikda va nisbiylikda o'rganadi. Ana shu uch axloqiy hodisani umumlashmasini, ya'ni mazkur fanimizning predmeti bo'lgan umumiy tushuncha sifatida axloqni quyidagicha ta'riflash mumkin:

Axloq - barcha odamlar uchun birdek taalluqli hisoblangan, shaxs hayotidagi hamma sohalarida o'ziga va o'zgalarga nisbatan qo'yiladigan ma'naviy-ijtimoiy talablar hamda ehtiyojlarining munosabatlar shaklidagi ko'rinishidan iborat bo'lgan, insonga berilgan ixtiyor erkinligining xatti-harakatlar jarayonida ichki iroda kuchi tomonidan oqilona cheklanishini taqozo etuvchi ma'naviy hodisa.

Shuningdek, atloqi faylasuf Erkin Yusupovning: «Umunan, axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro mulqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir» - degan ta'rif ham diqqatga sazovordir.

Axloqshunoslik qadimda fizika va metafizika bilan birgalikda falsafaning uzviy (uchinchi) qismi hisoblanar edi. Keyinchalik (Arastudan so'ng) alohida falsafiy yo'nalishdagi fan maqomini oldi. Bu fikrni quyidagicha kengaytiribrog talqin etish mumkin. Ma'lumki, falsafaning fanlar podshosi sifatidagi vazifasi barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, insoniyatni xaqiqatga olib borishdir. Shundan kelib chiqqan holda, falsafaning predmetini tafakkur deb belgilash maqsadga muvofiq. Axloqshunoslik axloqiy tafakkur taraqqi-yotini tadqiq etadi va amaliyotida insonni ezigulik orqali haqiqatga olib borishga xizmat qiladi. Shu bois uni axloq falsafasi yoxud ezigulik falsafasi deb atash mumkin.

Hozir u falsafiy fan sifatida uch yo'nalishda ish olib boradi, ya'ni axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etar ekan, u axloqni: 1) bayon qiladi; 2) tushuntiradi; 3) o'rgatadi. Shunga ko'ra, u tajribaviy-bayoniy, falsafiy-nazariy va rusmiy-me'yoriy tabiatga ega. Qadimgilar uni amaliy falsafa deb ataganlar. Zero, sof nazariy axloqshunoslikning bo'lishi mumkin emas. U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikmatlar, naqlar, matal-maqollar tarzida bayon etadi, kishilarni axloqiy qonun-qoidalariga o'rgatadi, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradi va falsafiy xulosalar chiqaradi. Ya'ni axloqshunoslik fanida Aflotun, Arastu, Epikur, Siseron, Seneka, Avgustin, Forobiy, Ibn Sino, O'azzoliy, Nasafiy, Spinoza, Kant, Hegel, Shopenhauer, Foyerbax, Kirkegaard, Nietzsche, Vl. Solovoyov, Losskiy singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyasiga doir ta'limotlar bilan birgalikda «Patanjali», «Qutadg'u bilik», «Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mabub ul-qulub», Montening «Tajribanoma», Laroshfikoning «Hikmatlar», Gulakmurning «Zarbulmasal» kabi amaliy axloqqa bag'ishlangan asarlari ham o'z mustakkam o'rni ega. Axloqshunoslikning boshqa falsafiy fanlardan farqi ham, o'ziga xosligi ham undagi nazariya bilan amaliyotning ana shunday ommatligidadir.

2. Etikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi

Axloqshunoslik va estetika. Axloqshunoslik boshqa ijtimoiy va falsafiy fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib kelmogda. Ayniqsa, uning estetika bilan aloqasi qadimiy va o'ziga xos.

Avvalo, insonning har bir xatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishi bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezigulik (ichki go'zallik), ham nafosat (tashqi go'zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi. Shu holda Siqurot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ko'p hollarda axloqiylikni ichki go'zallik, nafosatni tash-q'i go'zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ma'lumki, san'at nafosatshunoslikning asosiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Har bir san'at asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko'tariladi hamda san'atkor doimo o'zi yashayotgan zamonda erishilgan eng yuksak axloqiy

daraja va unga munosabati badiiy qiyofalar orqali bevosita yoxud bilvosita aks ettiradi. Demak, estetika o'rganayotgan har bir badiiy asar ayni paytda, ma'lum ma'noda, axloqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo'ladi.

Axloqshunoslik va dinshunoslik. Axloqshunoslikning dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, har ikkala fan ham bir xil muammo - axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. Chunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadar mavjud bo'lgan ma'lum urf-odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun-qoidalariga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayni paytda, dinlar ham axloqqa ana shunday ta'sir o'tkazganlar.

Chunonchi, islom dinini oladigan bo'lsak, Qur'oni karim, Hadisi sharif, Ijmo' va muayyan fatvolaridagi mezonlar hamda talablar musulmon Sharqi millatlari axloqiy darajasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, komil inson muammosi har ikkala fan uchun umumiy hisoblanadi. Farq shundaki, axloqshunoslik bu muammoga zamonaviy tarbiya nuqtai nazaridan yondashadi.

Axloqshunoslik va huquqshunoslik. Axloqshunoslikning huquqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma'lumki, juda ko'p hollarda axloq me'yorlari bilan huquq me'yorlari mohiyatan va mazmunan bir xil bo'ladi. Shunga ko'ra, axloqni jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin. Zero, axloqshunoslik bilan huquqshunoslikning tadqiqot ob'ektlari ko'p jihatdan o'xshash, ular faqat yondashuv usuli nuqtai nazaridan farq qiladi, ya'ni huquq me'yorlarining bajarilishi, odatda, maxsus adliya idoralaridagi lavozimli kishilar orqali, majburiy sanksiyalar vositasida yo'lga qo'yiladi; axloq me'yorlari esa umumiy qabul qilingan milliy urf-odatlar, jamoatchilik fikri yordamida, alohida belgilangan kishilar tomonidan emas, balki muayyan ijtimoiy guruh, jamiyat tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, huquqshunoslik kasbi uchun muhim bo'lgan amaliy axloq jihatlari axloqshunoslikning huquqshunos o'dobi deb ataladigan maxsus sohasi tadqiq qiladi va tavsiya etadi.

Axloqshunoslik va pedagogika. Axloqshunoslik pedagogika bilan ham olinmabarchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini pand-nasihatlarisiz, odobnoma darslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois axloqshunoslik o'zining nazariy va, ayniqsa, amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi. Zero, maorif tizimidagi ta'lim-tarbiya o'zini har bir qadamda axloqiy tarbiya sifatida namoyon qiladi.

Axloqshunoslik va ruhshunoslik. Qadimda yoq axloqshunoslikning ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asos (motiv)larning ruhiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.

Axloqshunoslik va sosiologiya. Axloqshunoslikning ijtimoiyshunoslik (sotsiologiya) bilan aloqasi o'ziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini bozqarishning ijtimoiy murvatlaridan bo'lmish axloqni o'rganadi. Lekin axloqshunoslikning miyosi bu borada keng. Ma'lumki, sosiologiya insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi. Axloqshunoslik esa, o'z mohiyatiga ko'ra, lozim bo'lganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqining yotibak yutug'i sifatida kelgusi davrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoiy xatti-harakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini o'rganadi.

Axloqshunoslik va siyosatshunoslik. Axloqshunoslikning siyosatshunoslik bilan aloqasi, ayniqsa, o'ziga xos va murakkab. Chunki siyosiy kurash qarama-qarshi axloqiy qoidalar va talablar kurashini taqozo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maqsadlar va vositalarning pok yoki nopokligi muammolari o'raga chiqadi. Lekin, aslida siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u ogilona bo'ladi. Bu hozirgi kunda axloqshunoslik ham, siyosatshunoslik ham jiddiy tadqiq etadigan eng muhim

umumiy muammolardan biridir. Shuningdek, rahbarlik odobi, partiyaviy odob, etiket singari axloqshunoslikning muomala madaniyati doirasiga kiruvchi maxsus sohalar ham siyosatshunoslik bilan chambarchas bog'liq.

Axloqshunoslik va ekologiya. Keyingi paytlarda axloqshunoslikning ekologiya bilan aloqasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Tarixan axloqshunoslik ko'proq insonning o'zi, o'zgarlar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini tahlil etish bilan shug'ullangan, uning tabiatga bo'lgan munosabati diqqat markazidan chetda qolib kelgan. Lekin keyingi davrlarda, ayniqsa, XX asrda tabiatga nisbatan to'rt manfaat-parastlik doirasidagi yondashuvlar oqibatida paydo bo'lgan ekologik buhron manzarani o'zgartirdi. Endilikda global ekologik muammolar ko'proq odamlarning ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazarlariga bog'liq ekani ma'lum bo'lib qoldi.

Shunday qilib, hozirgi kundagi ekologik muammolarni hal etishning ko'p jihatlari axloqshunoslik ko'magiga borib taqalmoqda. XX asrda ekologik axloqshunoslik degan maxsus soha ham yuzaga keldi. Lekin, bu - axloqshunoslik ekologiyani to'liq o'z ichiga oladi, degan so'z emas. Chunki axloqshunoslikda axloqiy baholash va boshqarish ob'ekti sifatida tabiatning o'zi emas, balki odamning tabiatga bo'lgan munosabati maydonga chiqadi.

Axloqshunoslik va milliy istiqlol g'oyasi. Garchand fan sifatida milliy istiqlol g'oyasi oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida yaqinda joriy etilgan bo'lsa-da, uning ildizlari qadimiy ma'naviyat tariximizga borib taqaladi. Zero, milliy mafkura tizimida axloqiy g'oyalar albatta o'z o'rniga ega bo'ladi, ko'pgina axloqiy g'oyalar zaminida esa milliy mafkura unsurlari yotadi. Shu sababli, axloqshunoslik tarixini milliy g'oya, mafkura tushunchalarisiz va tarixiy davrlarning axloqiy-falsafiy tadqiqini ularning tahliliy in'ikosisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Axloqshunoslik fani jamiyat a'zolari va har bir fuqaroga milliy istiqlol g'oyasini singdirish vositasi sifatida ham diqqatga sazovor. Chunki milliy istiqlol g'oyasi ezigulikka muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat-e'tibor, vatandparvarlik, millatparvarlik, fidoyilik, ziyolilik tamoyillarini siyosiy ong ishtirokida talqin

etilgan tushunchalar tizimi tarzida taqdim qilsa, axloqshunoslik ularni axloqiy muqolash vositasida ro'yobga chiqadigan tamoyillar sifatida olib qaraydi. Xullas, axloqshunoslik bilan milliy istiqlol g'oyasi o'rtasida, xalqona til bilan aytiladigan bo'lsak, et bilan tirnoq darajasidagi yaqinlik mavjud.

Etika fanining ahamiyati va vazifalari

Jamiyatimizdagi hozirgi yangilanish jarayonida axloqshunoslikning o'z o'rnini bor. Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga muvofiq va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy muvofiq ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshira bo'ladi.

Yangicha yondashuvlardan biri - axloqshunoslikda milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga e'tiborni kuchaytirish bilan bog'liq. Chunki zamonaviy kamil inson an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan yangicha mafkuramizni o'zida mujassam etgan, milliy g'oyani o'z ruhini olamiga singdirgan yetuk shaxs bo'lmog'i lozim. Uning qalbida axloq mafkuraviylikni va mafkura asloqlikni uyg'unlashtirgan ma'naviy hodisalariga aylanmog'i kerak. Chunki mafkura bir yoqlama, mahdud, o'ta siyosiy lashtirilgan g'oyalar tizimi emas, u ham muvofiq axloq kabi, axloq bilan yonma-yon turib, insonni yuksak ma'naviy muvofiq darajaga da'vat etuvchi botiniy kuchdir. Prezident Islom Karimov buni teran muvofiqlik bilan shunday ifodalaydi: «U (milliy mafkura - A.Sh.) insonga faqat moddiy boyliklar va moddiy ne'matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan muvofiq, imon-e'tiqod tufayli yuksak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlil kati dunyoda uning muvofiq yo'lini yoritadigan mayuqdir».

Zero, milliy g'oya bilan umumdashariy qadriyatlar muvofiqatini bargaror muvofiq yashash sharti deb bilgan mustaqillik mafkurasini axloqni to'ldiruvchi va muvofiq hodisa sifatida o'zining bosh maqsadini axloqiy vazifalarga hamohang tarzda amalga oshiradi. Shu bois Prezident Islom Karimov: «Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili

va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatani baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilati va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvcilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqbol ma'krasining bosh maqsadidir», - deganida mutlaqo haqiqatdir.

Bundan tashqari, axloqshunoslikning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, u haqda alohida to'xtalmaslikning iloji yo'q. Bu muammolardan biri, eng muhimi, sayyoramizda «etosfera» - axloqiy muhit davrini yaratish bilan bog'liq.

Ma'lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarag, ertalabdan kechgacha biz o'z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz - yeymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, poezd, teploxod, gaz pitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefonida gaplashar ekamiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko'rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo'lsak, necha kunlab yo'l bosishimiz kerakligi haqida o'ylab o'timaymiz, to'g'rirog'i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o'zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta'sir ko'rsata boshladi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo'lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o'zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta'limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I. Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta'siri ostida biosfera yangi holat bo'lmish noo-sferaga o'tayotganligini, butun geologik davr

mobaynida yaratilgan, o'z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o'zgarishga kirishganini ta'kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz mavjudatda keskin kimyoviy o'zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. - Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig'ini, uning barcha tabiiy suvlarini o'zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyusion o'zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz».

Ammo noosfera faqat ijobiy emas, balki salbiy hodisa sifatida ham namoyon bo'lmog'da. Chunki noosferada, yuqorida aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o'z intellektimiz narsalarga aylanib, bizni o'rab oladi. Insonning ixbki tabiiy muhit mavqei egallab, tashqi tabiatga ta'sir ko'rsata boshlaydi va ko'p hollarda bundan eng avvalo insonning o'zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo'lmagani uchun biologik muhitning o'rmini egallashga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat ma'lum nuqtadan o'tganidan ko'ng esa o'z ijobiy xususiyatini yo'qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylanib boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakti ballistik raketalarining yaratilishi ana shunday salbiy hodisalarandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo'lishi atmosferani, o'lamiy okeanni, yer osti va yer usti suvlarini, nabo'otni, hayvonotni, hatto insonni ixb-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmog'da. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o'simliklarning, hayvonlarning ko'pgina turlari jisman yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo'ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz go'zal orollarga ko'mib tashlanishi, kislota yomg'irlarining ko'payib borishi singari hodisalar bag'oyat natijali. Afsuski, inson ko'ra-bila turib, o'zi o'tirgan shoxga bolta urishni to'xtatmayotir.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashtirgina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan foydalanishni taqozo etadi. Ya'ni ular insoniyat o'ladida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar

sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorensming: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'psoqlik aybdordir», - degan so'zlari shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokardan qutqaraman desa - XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda axloqshunoslik fanining o'rni nihoyatda beqiyos.

Shuningdek, yana bir muhim muammo, bu - biologik axloqshunoslik. Mazkur hodisa so'nggi bir necha o'n yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, bironing muayyan a'zosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yo'li bilan o'tkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtai nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida dolzarb bo'lib turibdi.

Chunki tabobat borasidagi so'nggi tadqiqotlar inson o'limi bir lahzada ro'y bermasligini, yurak urishi va nafas olish to'xtaganda ham, miya o'limasa insonni o'ldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Dastlab miya qobi'gi, undan keyin miya tanasi halok bo'ladi. Shundan keyingina insonni o'lgan deb hisoblash mumkin. Zero, hozirgi kunda toki miya o'limas ekan, ko'pgina ichki a'zolarining yangi tabobat texnikasi vositasida ishlashda davom etishini ta'minlash va shu orqali ancha muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin. Demak, yurak yoki buyrakning ko'chirib o'tkazilishi hali o'lmagan odamning minimal tiriklikka bo'lgan huquqini poymol qilishdir. Buning ustiga, amerikalik neyroxirurg Pol Pison o'z tajribalariga asoslanib, yurak ko'chirib o'tkazilganda ruh ham ko'chib o'tadi, degan fikrni bildiradi. Chunonchi, 19 yashar qizning yuragi 40 yashar erkakka o'tkazilganida, yigining fe'l-atvorida juda katta o'zgarishlar ro'y bergan. Yoki 20 yashar qizning yuragi va o'pkasi 36 yashar ayolga o'tkazilganda ham shunga o'xshash o'zgarishlar yuzaga kelgan: ayolning

kulishigacha o'zgarib ketgan. Axloqiy nuqtai nazardan buni qanday izohlash mumkin?

Biologik axloqshunoslikning anchadan buyon ko'pchilikka ma'lum muammosi, bu - abort. Ma'lumki, to'rtinchi haftaning oxirida esa miya tanasining yurak urishi paydo bo'ladi. Sakkizinchi haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofizilogik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq ta'bi bilan aytganda, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bo'lgan huquqdan mahrum etishdir. Xo'sh, abortni axloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo'yo'qmi? Yoki AQSh olimlari tomonidan «inson zo'lini yaxshilashga» qaratilgan tadqiqotlarni olib ko'raylik. Ularda «yaxshilangan» - sog'lom, kuchli intellekt ega bo'lgan odamlar hujayrasini ayol organizmidagi endi rivojlanishga kirishgan nisbatan «oddiy odam» hujayrasi o'rniga ko'chirib o'tkazish tajribalarini olib borish mo'ljallangan. Ular amalda tabiiq etilsa, asta-sekinlik bilan insoniyat insiyat jamo'g'arnasining (genofondining) bir yoqlama o'zgarishiga olib kelishi ilubhasiz. Runo papasi buni inson zo'liga, insoniy tabiatga aralashuv, uni zo'rlilik yo'li bilan o'zgartirish, nafaqat katta gunoh, balki o'ta axloqsizlik deb aladi. Xo'sh, bunday tajribalarni qanday baholash kerak? Bu savollarga ham axloqshunoslik javob topmog'i lozim.

O'lim, ma'lumki, axloqiy nuqtai nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Shunga ko'ra, o'lim jazosining huquqiy jihatdan qo'llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir. O'lim jazosini kimlar qanchalik oqlashga harakat qilmasin, u - jino'yatchini jazolashdan ko'ra, undan o'tch olishga qaratilgan, qadim-qadimlardan kelayotgan xun olish tamoyilining «demokratlashgan», yangilangan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni shundaki, nodemokratik tuzumlarda belgilangan o'lim jazosi kamdan-kam hollarda adolati hukm bo'lib chiqadi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Hitler, Pol Potlar hukmronligida millionlab odamlarning qatl etilishi yoki shu yaqin-yaqinlarda, sho'rolar tuzumi davrida O'zbekistonda o'tkazilgan «Paxta ishi» deb nomlangan qatag'on paytida o'tishga hukm qilinganlarning taqdiri bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ana shu davrlarda o'limga hukm qilinganlarning juda

ko'pchiligi ke-yinchalik oqlandi, ular gunohsiz deb topildi. Lekin hukm ijro qilib bo'lingan: nohaq jazolangan - qatl etilgan insonlar adolat tantanasini ko'rolmaydilar. Uchinchi, hatto demokratik jamiyatlarda sudlarning hamma vaqt ham yuz foiz to'g'ri va adolati hukm chiqarishiga kim kafolat beradi - hakamlar ham inson, hamma qatori xato qilishi mumkin. Jamiyatning keyingi pushaymonidan qatl etilgan odamga nima foyda? Bu misollarning hammasida o'lim - tor huquqiy jazo doirasidan chiqib ketadi hamda tarixda aldanagan, adashgan insoniyatning, jamiyatning va shaxsning axloqsizligi sifatida baholalanadi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi paytdagi ko'pgina demokratik mamlakatlarda o'lim jazosining bekor qilinishini o'sha jamiyatlar axloqiy darajasi bilan bog'liq ijobiy hodisa deyish mumkin. Bizning mamlakatimizda ham bu borada dastlabki qadam qo'yilganligi - yosh nuqta nazaridan o'lim jazosini qo'llashning chegaralanganligi (60 yoshgacha) quvonarli voqea. Endigi vazifa - uni butunlay man qilish. Bu nafaqat bizga, balki Yer yuzidagi barcha mamlakatlarga taalluqli muhim, umumjahoniy muammo. Bizning fanimiz oldida ana shunday global vazifalar turibdi. Mazkur vazifalarni bugungi kunda axloqshunoslikning ahamiyatini belgilab beruvchi barometrlar, deyishimiz mumkin.

Oilani fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muham xujayrasi deyishadi. Chunki xar bir jamiyat a'zosi, bo'lajak fuqaroning tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila uch jixatni: o'zining bevosita ko'rinishi bo'limish nikoxni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni; bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi.

Nikoh va muhabbat. Avvalo, nikoh, xaqida to'xtalib o'taylik. Qonunga binoan nikoh, tuzish shartlaridan eng muhimlari - nikohga kiruvchilarning o'zaro roziligi va ularning nikoh, yoshiga yetganliklari. Bizda yigitlar uchun - 18, qizlar uchun - 17 nikoh, yoshlari qilib belgilangan. Bu - masalaning xuquqiy tomoni. Uning ikkinchi - Axloqiy tomoni ham borki, u muhabbat bilan bog'liq. Nikoh, tuzishdan avval ikki yosh orasida gox, ochiq sevgi - muntazam uchrashuvlar, ahdu paymonlar qilish yoki orgavorotdan bir-birini yoqtirish xollari bo'lishi mumkin. Har ikkala xolda ham rozilik o'zgarmas shart hisoblanadi.

Bu'zan qadimda Sharq xalqlarida, shu jumladan, o'zbeklarda qizning yoki yigitning rozilgisiz to'y qilib yubora berishgan, ota-onalar kelishishsa - bas, degan fikrlarni uchratadi kishi. Ayniqsa, bunday gaplar shurolar davrida tinimsiz takrorlanar edi. Vaholanki, bunday xol kam bo'lgan, uni musulmonchilik inkor etadi. Rivoyat qilisharicha, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom uyarlarga sovg'i kelganida, qizlari Fotimadan doimo rozilik so'raganlar va rad javobi olganlar. Faqat Xizrat Ali sovg'i qo'yganlarida, Bibi Fotima rozilik berganlar. Demak, farzandning roziligini olish bizga Payg'ambarimizdan qolgan sunnat.

Hozirgi kunda ham ko'pgina yoshlarimiz sovg'i orqali turmush quradilar. Odanda sovg'i kelib ketgach, yigit bilan qiz uchrastiriladi, ikkalasi bir-birini mu'qul ko'rsagina fotixa qilib, to'y taraddudi ko'riladi. Juda ko'p xollarda bunday yoshlar o'rtasida keyinchalik haqiqiy muhabbat shakllanadi. Abdulla Qodiriy «O'tgan kunlar» romanida tasvirlagan Otabek bilan Kumush o'rtasidagi sovg'ini buning mumtoz namunasi desa bo'ladi. Ochig'ini ayish kerakki, muhabbatning xam o'z darajasi bor: Layli bilan Majnunning muhabbati hamma sovg'ilariga ham nasib etavermaydi. Bunday romantik-sururiy sevgi real hayotda kamdan-kam uchraydi. Buning ustiga, oilaviy muhabbat ma'lum mu'noda salobatli, ko'proq yashirin tarzda namoyon bo'ladi.

Oilaning asosi bo'limish nikoh, - ezgu maqsadga yo'naltirilgan, zimmasiga zaruriyot qoldirishdek yuksak mas'uliyat yuklangan sevgi, sevrishning ijtimoiylashgan kurinishi. Biroq sevgi-muhabbat faqat erkinlikda namoyon bo'ladi. Shu jixatni nazarda tutadigan bo'lsak, nikohni, ma'lum mu'noda, an'analar, urf-odatlar va e'tiqodlarga moslashtirilgan sevrining yashash sharti deyish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, nikox, zaruriyatga aylangan erkinlikdir. Shu bois nikohga kirayotgan xar bir kimsa bundan buyon o'z erkinligi haqqida bir erk bilan kelishib yashashni, ixtiyoriy tarzda cheklanib, nisbiylashgan holda mavjud bo'lishni anglab etmog'i lozim. Bundan tashqari nikoh, o'z moxlyatiga ko'ra Axloqiy hodisa. Unda ehurosalar Axloqqa bo'yusundiriladi. Oddiy bilga yashashda esa tabiiy ehtiyojni qondirish birinchi o'rinda turadi, nikohda u ikkinchi darajali mavqe egallaydi.

Keyingi paytlarda nikoh, bilan muhabbatning o'zaro chiqishmasligi haqida G'arb mutafakkirlari tez-tez yozadigan bo'lib qolganlar. Chhunonchi, Erix Fromm, industrial jamiyatta muhabbat kandan-kam uchraydigan xodisa ekanini, nikohning asosida boshqa - moliyaviy, siyosiy, iqtisodiy sabablar yotishini ta'kidlaydi. Umuman, G'arb olamida bunday xodisa anchadan buyon mavjud.

Agar muhabbat har ikki tomondan e'zozlab, avaylab-asralmasa, undagi jannatiy bo'yini yo'qotib qo'yish xech gap emas. Eng muhimi shuki, nikohdagi huquqiy xolatning asosida muhabbat yotmog'i lozim, o'shanda bunday xollar ro'y bernasligi shubhasiz. Ayni paytda dunyodagi hamma narsa-xodisalar kabi muxabbat ham parvarishga muxtoj ekanini unutmashlik kerak.

O'limning mustaxkam bo'lishi, o'ila a'zolarining Axloqiylik darajasi undagi muhitga bog'liq. Qaysi oilada sog'lom muxit, hukm sursa, uning ravnaqi, baxtligi ta'minlangan bo'ladi. Sog'lom muxit deganda biz faqat oiladagi insonparvarlik, vatandparvarlik, ziyolilik, halollik, rostgo'ylik kabi tamoyillar va me'yorlarga amal qilinishiga emas, balki uning eskicha an'anaviylik yoki yangicha zamonaviylikni ham tushunishimiz lozim. Zero aynan ana shu ikki xil turmush tarzi o'ila kelajagi bilan bog'liq.

Eskicha an'anaviy o'ila kiyinishda, yeb-ichishda kasb u korda zamonaviy oiladan farq qilmaydi. U ham halol, hamma qatori zamonaviy sharoitda yashaydi. Faqat u o'zining «o'zbekchiligi, ajdodlarining an'anaviy ma'naviy qadriyatlarini «unutmagan» bilan faxrlanadi. Hamma gap shundaki, bunday o'ila uchun asosiy kuchi va imkoniyatlarida ana shu faxrlanish xissiga erishish uchun foydalanadi: an'anaviy o'zbekona to'y kechasida nikoh, bazmida artistlarga «gaplashilgan» va «qistirilgan» millionlar hisobiga bemaol bitira bolalar bog'chasi qursa bo'ladi. Ayniqsa og'zini qimirlatib turish bilan (fonogramma orqali) xarom pul topayotgan «arstislarning qudagaylari (ayol qudalarni) raqsga tushishiga da'vat qilishini borib turgan odobsizlik: ortiqcha pul yig'ib berish uchun bechora qaynonalar yangi kekin va kuyov oldida o'yinga tushadilar. An'anaviy to'y yillar isrofgarchilik namunasini, muayyan ma'noda Axloqsizlikning bir ko'rinishiga aylanib ketganini tan olish kerak. «Eshak eshaktan qolsa qulog'ini kesadi» qabildagi to'y uchun

ko'p xollarda necha yillar davomida yaxshi emay, kiymay, quruq non - choy bilan kun o'tkazib yashash kerak bo'ladi. Bunday «orzu - xavaslarning tagida yo odamlar nima der ekan degan quruq yoki maqtanish, kibr, birovlariga o'zini ko'z-ko'z qilish kabi illatlar yotadi. Eng yomoni shundaki, bunday oilada sog'lom muxit qaror topmaydi, dasturxon ustida, bo'sh vaqtlarda bolalardan «qutilib olish» uchun ko'proq pul topish xaqida tinmay so'zlanadigan, falonchining to'yini monodog' o'tibdi, u unday qilibdi, bu bunday qilibdi, degan mayda gaplardan nari o'tilmaydigan bo'lib qoladi, Axloqiy idealalar xiralashadi, estetik did o'tmaslashadi, ijtimoiy ma'naviy intilishlar nixoyat darajada suslashadi. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni ham bundan yaxshi emas: oilada totuvlik yo'qoladi, er va xotin o'rtasida moddiy yetishmovchiliklar, «sandiq to'lanayotgan» va x. Borasida tez-tez aytilishlar, ta'na - dashnomlar, janjallar bo'lib turadi, ba'zan ular katta oilaviy mojaro'larga ham aylanib ketadi. Bunday eskicha - «an'anaviy oiladagi muxit atrofdagi boshqa oilalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, jamiyatning zaif, ma'naviy saviyasi past xalqasi sifatida millat ta'biyasini ma'lum ma'noda buzadi. Ayni paytda o'z a'zolarining ham «gap-bo'zdan» qo'rqadigan, maqtanchoq ijtimoiy-siyosiy «savodsiz», umrini kundalik mayda tashvishlar bilan o'tkazadigan odamlar bo'lib qolishlariga olib keladi.

Yangicha zamonaviy oiladagi muxit esa buning aksi: to'y - ma'rakalarda eng yomon illat bo'lmish isrofgarchilikka yo'l qo'yilmaydi. Ularga ketadigan ortiqcha sarf-xarajalar imkoni boricha qisqartirilib, asosiy mablag' oilaning faravonligini, intellektual va maishiy darajasini yuksaltirishga yo'naltiriladi. Bunday oilada totuvlik, xotirjamlik qaror topadi, dasturxon ustidagi suxbatlar yangi kitoblar, filmlar, ijtimoiy-siyosiy yangiliklar, internet xabarlarini ustida boradi, dam olish maskanlariga borish rejalari tuziladi; asosiy xatti-xarakat farzandlarning oliy ma'lumotli bo'lishiga, zamonaviy kasbiy maxoratini egallashiga, ularni xalq va Vatan faxrlanadigan shaxslar bo'lib etishishlariga qaratiladi.

Agar eskitcha-an'anaviy oilaviy muxiti o'zbekistonda erkin demokratiik fuqarolik jamiyati qurilishiga to'sqinlik qilsa, yangi zamonaviy oila muxiti uning tezroq ro'yobga chiqishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib fuqarolik jamiyati muayyan xalq uchun jam bo'lib, jamoat tarzida yashashning eng oliy shakli hisoblanadi va nosiyosiy bo'lgan barcha munosabatlarni o'z ichiga oladi. Unda shaxs erkinligi, individning «ochilishi» ixtiyoriy tarzda tuzilgan fuqarolar uyushmalari tashkilotlari va birlashmalari doirasida o'zini namoyon qiladi. Iqtisodiy, diniy, ma'naviy, Axloqiy estetik milliy oilaviy va boshqa munosabatlar davlat idoralariining aralashuvisiz o'z o'zini boshqarish asosida amalga oshiriladi.

Oilaning yana bir jixati - uning o'z mulkiga egaligi. Agar nikoh, oilaning botiniy ko'rinishi bo'lsa, oilaviy mulkni uning tashqi ko'rinishi deyish mumkin. Oilaning mavjud bo'lishi uchun ishlab topiladigan mablag' ham zarur. Oila uchun topiladigan ana shu mablag', shubhasiz Axloqiy tabiatga ega: oila boshlig'i oila a'zolarini halol yedirib-ichirishi, kiydirishi lozim. Oilani odatda erkak kishi boshqaradi. U nafaqat «topib keladi», balki oilaviy mulkka xo'jayinlik qilish, uni taqsimlash huquqiga ham ega.

Yuqorida aytganimizdek, nikoh, ezgu maqsadga yo'naltirilgan, zimmasiga zuriyot qoldirishdek yuksak mas'uliyat yuklangan, Axloq bilan chegaralangan qo'shiluv, birlashuv; bu birlashuvdan maqsad - hayotda o'zlaridan yaxshiroq, mukammalroq bo'lgan, o'zlari erisholmagan orzularni ro'yobga chiqaradigan odam nusxalarini yaratish. Bunday odamlar farzandlardir. Shu munosabat bilan mashhur olmon islomshunosi va sharshunosi Annemarie Shimmel xonim ba'zi mutasavviflar uchun umumiylik tabiatiga ega bo'lgan qiziq bir fikrni keltiradi: «Ba'zi sufiy-teosofik okimlarning tarafdorlarida maxsulot beradigan xdr bir xatixarakatni «nikox» deb atashga moyillik bor. Ularning fikricha, pulat bilan chakmaktosh birlashea, bu nikox, dan yanada etukroq farzand, ya'ni olov dunyoga keladi. Erkaklik va ayollik unsurlarining birlashuvi hayotni yanada yukorirok pogonaga chikaruvchi omildir».

Shu bois oilada bolaning ahamiyati nixoyatda katta. Oila bolada uz jufti kelibhni, ona esa sevimli erini kuradi: bolada er-xotinning muxobbatii pordomechashadi, jonlanadi. Bola - oilani tutib turuvchi jonli muxdbbat. Bolalar oilada umumiy oilaviy mulk xdeobiga eb-ichadilar, tartbiya oladilar.

Oilada bolalar intizomli bo'lib usmoklari, ota-onaga buyusunishlari lozim. Lekin bu intizom erkin usib kelayotgan gudakni kulikka urgatish emas, balki bolalarga xos erka-tantiklik, uzbohimchalik singari salbiy xususiyatlarni yukotishga xizmat qilishi kerak. Ota-onaga buyusunishdan bosh tortishga yul boyish bolaning kelajakda ko'pol, badxulk, nokamtarin bo'lib etishuviga olib keladi. Shu bois oila ilk Axloqiy tartbiya uchogii sifatida katta ahamiyatga ega.

Oila targalishiham mumkin. Buning turli sabablari bor. Biri - oilaning Axloqiylik nuqtai nazaridan targalishi.. Bunda bolalar halog'atga yetgach, erkin shaxs sifatida yangi oilaga asos bo'lishlari - o'g'il bolalarning uylantirilishi, qizlarning yerga berilishi nazarda tutiladi. Uylantirilgan o'g'illarga ham, erga berilgan qizlarga ham yangi oila qurish va uni moddiy jixardan dastlabki paytdarda muxtojlikdan saqlab turish uchun yetarli bo'lgan uy-ruzg'or ashyolari ajratiladi.

Shuningdek, oilaning tabiiy targalishi ham mavjud. Unda ota-onaning yoki otaning vafoti tufayli oila mulkining meros tarzida bir yoki bir nechta farzandga o'tishi munosabati bilan oila targalishi mumkin.

Bundan tashqari, nikoh, bekor qilinishi munosabati bilan oila targaladi. Avvalda nikoh, ham diniy, ham dunyoviy nuqtai nazardan buzilmasligi kerak. Lekin o'rtada xiyonat sodir bo'lishi yoki yana boshqa bir xil sabablar tufayli nikohnii faqat Axloqiy obro'ga ega, qonun bilan tan olingan idoralar, masalan, sud, vafodalii rukxoniy bekor qilishi mumkin, zero u, aytganimizdek, Axloqiy xodisa. Xar bir jamiyat mana shu so'ngei turdagi oila targalishiga qarshi kurashadi. Bunday oila buzilishi qancha kamaysa, u o'sha jamiyatining Axloqiy jixardan talomlashib borayotganini anglatadi.

Dastlabki axloq maskani bo'lmish oilalar yig'indisi fuqarolik jamiyatini, millatni tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati moxiyatan oila bilan davlat o'rtasidagi farqla. Garchand, uning taragqiyoti davlat taragqiyotidan keyinroq ro'y bersa

ham, u albatta davlatni taqozo etadi, ya'ni fuqarolik jamiyatining yashashi uchun uning oldida mustaqil nimadir - rasmiy, tizimli boshqaruv bo'lishi kerak.

Fuqarolik jamiyati zamonaviy dunyomizda vujudga keladi, zero, hozirgi paytdagina fuqarolar xuquqi xqigatan ham inobatga olinadi. Fuqarolik jamiyatida xar bir odam o'zi uchun maqsad. Biroq, U boshqalar bilan munosabatlarga kiritmasdan turib, o'z maqsadiga to'la erisha olmaydi: boshqalar uning maqsadiga etishishi yo'ldagi vositadir. Natijada xar bir aloxida maqsad boshqalar bilan o'zaro munosabatlar vositasida, ularning farovonlikka intilishini qanoatlantirgani holda, o'zi ham qanoatlanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, fuqarolik jamiyatida yaxshi, badavlat, baxtli, xuquqiy yashash uchun bo'lgan xar bir fuqaroning intilishi pirovard natijada butun jamiyatning o'shanday yashashiga olib keladi.

Fuqarolik jamiyati, shunday qilib, bir kishining ehtiyojini uning mehnati vositasida qondirishi barobarida, shu mehnat vositasida barcha qolganlarning ham ehtiyojini qondiradi. U o'z a'zolarining shaxsiy erkinliklari va xuquqlarini himoya qiladi, oddi sud vositasida ular mulkiga daxl qilinishiga yo'l qo'ymaydi. Fuqarolik jamiyati turli tabaqalardan tashkil topadi. Ular orasida tabaqaviy yoki sinfiy ziddiyat singari hodisalar ro'y berishi mumkin emas. Chunki bunda shaxs - davlat fuqarosi, muayyan inson manfaatlari birinchi o'rinda turadi va bu manfaatlar, aytganimizdek, ham Axloqiy, ham qonuniy jihatdan himoya qilinadi. Zolan, «Biz uchun fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam deradi. Shaxsiy manfaatlari, uning xuquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi».

Fuqarolik jamiyatining yashash sharti - erkinlik. Shaxsning qonun doirasidagi so'z erkinligi, fikr erkinligi va faoliyat erkinligiga tula yo'l qo'yilmas ekan, fuqarolik jamiyati amalda mavjud bo'la olmaydi. Bu jamiyatning yana bir muhim tomoni shundaki, unda qarindoshlik, urug'doshlik, elardoshlik singari hissiyotlardan kasbdoshlik, mahalladoshlik hissiyotlari ustun maqomga ega bo'ladi; yonma-yon ishlayotgan va yashayotgan jamiyat a'zolari, «begonalar» -

umumiy maqsad uchun kurashayotgan hamma yelkadoshlar o'zlarining uzoq qarindoshlaridan ko'ra bir-birlariga yaqinroq ekanliklarini anglab yetadilar. Undagi boshqaruv esa erkin tanlov va erkin saylov asosida, hokimiyat idoralari to'rtiyqildan qonun bilan himoyalangan ixtiyoriy tuzilmalar ko'magida ish olib boradi. Shu bois davlatimiz rahbari Islom Karimov fuqarolik jamiyatini mamlakatimiz siyosiy va davlat qurilishining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ta'kidlaydi va bu xususiyatning mohiyatini «mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vazifalarini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'tkazib berish, nodavlat va jamoat tuzilmalari xuquqi va mavqini oshirishni ko'zda tutadigan «Kuchli davlardan - kuchli jamiyat sari» konsepsiyasini amalga oshirishdan iborat deb ta'riflaydi.

Mamlakatimizda hozir erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini tuzishga kirishganmiz. Bu jamiyat, ma'lum ma'noda, g'arbliklar tasavvuridagi fuqarolik jamiyatlaridan farq qiladi. G'arbda bu borada e'tibor asosan huquqiy yo'nalishning ustuvorligiga qaratilsa, bizda Axloqiy-ma'naviy yo'nalishning ustuvorligini ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan olib Qaraganda, biz ko'rayotgan fuqarolik jamiyati g'arb dunyosi uchun o'rnak bo'lishi mumkin. Bu faxrlanish hissidan kelib chiqqan balandparvoz gap emas. Masala shundaki, g'arb jamiyatlari hozirgi paytda Axloqiylikni xuquqiylikning yuqori bosqichi sifatida qabul qilmogdalar. Lekin ular uchun «Axloqiy o'rin bo'shatishdan» ko'ra «xuquqiy o'rinni egallab turish» nafaqat qonuniy, balki zavqliroq tuyuladi. Bizning mentalitetimizda esa buning aksi - har bir «Axloqiy o'rin bo'shatish» o'zbek qalbiga quvonch, o'z insonlik burchini bajarganlik hissi to'ldiradi.

Bundan tashqari, bizda fuqarolik jamiyati qurishni ma'lum ma'noda ta'kidlanadigan, g'arb mentalitetiga xos bo'lmagan makon borki, bu mahalladir. O'zbek mahallalari tom ma'noda Axloqiy tarbiyaning maskani; oila kattalari bolaga qanchalik tarbiya bera olsa, o'sha oila yashayotgan mahallaning tarbiya korxonaligini xissasi ham shuncha bo'ladi, desak xato qilmaymiz. Buning ustiga, mahallada xalqimizning qadimiy demokratik an'analari hozir ham o'z kuchini yo'qotgan emas. Mahallada yashayotgan hukumat a'zosi ham, millioner tijoratchi

ham, farrosh ham, oddiy o'qituvchi ham bir xildagi mahalladoshlik huquqiga ega. Chunonchi, mahallaning oqsoqoli oddiy o'qituvchi bo'lishi mumkin va ko'p hollarda shunday ham. hukumat a'zosi yoki millioner esa, mahallada faqat mahalladoshlik «lavozimi»da bo'ladi. Ularning farqlanishi faqat Axloqiy jihatli bo'lganiga belgilanadi. Ana shu xususiyatlari bilan mahalla o'z-o'zini boshqarish tuzilmasi sifatida oliidan fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun Axloqiy ko'pri bo'lib xizmat qiladi. Bunday oraliq bog'lovchi tuzilma, yuqorida aytganimizdek, g'arb olamida yo'q. Demak, shunga ko'ra ham, bizda fuqarolik jamiyatiga o'tish nisbatan osonroq kechadi, degan fikrni bildirish mumkin. Bu borada Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning: «Shu ma'noda mahallani o'z-o'zini boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi, deb atashi mumkin», - degan so'zlari ayni xaqiqatdir.

Shunday qilib fuqarolik jamiyati muayyan xalq uchun jam bo'lib, jamot tarzda yashashning eng oliy shaxsi hisoblanadi va nosiyosiy bo'lgan barcha munosabatlarni o'z ichiga oladi. Unda shaxsiy erkinligini, «individding ochilishi» ixtiyoriy tarzda tuzilgan fuqarolar uyushmalari, tashkilotlari va birlashmalari doirasida o'zini namoyon qiladi; iqtisodiy, diniy, ma'naviy, axloqiy-estetik milliy, oilaviy v.b. munosabatlar davlat idoralarining aralashuvizisiz, o'z-o'zini boshqarish asosida amalga oshiriladi.

Buyuk olimon faylasufi Xegel davlatni Axloqiy g'oyaning voqe bo'lishi deb ta'riflaydi va tabiiy munosabatlarni ma'naviy munosabatlar bilan muqoyasa qilib, oliani - xissiyotga, fuqarolik jamiyatini - asabning ta'sirlanish qobiliyatiga, davlatni esa o'zi uchun asab tizimiga o'xshatadi; u o'z ichida botinlan tashkil topgan, biroq uning yashashi o'zida ikki holatning taraqqiy topishiga bog'liq, bular - oila va fuqarolik jamiyati. Davlat aqlning ro'yobga chiqishi sifatida har bir shahs ixtiyoriga mosdir. Odatda, davlatning maqsadi o'z fuqarolarini baxtli qilish deb hisoblanadi. Agar fuqarolar qiyinalsa, ularning subyektiv ehtiyoj-maqsadlari qondirilmasa, davlatning mustahkamligi shubha ostida qoladi. Davlatning asosiy - siyosiy tuzum. Uning taqdiri ham ana shu siyosiy tuzumga bog'liq.

Ko'pdan-ko'p turli-tuman boshqaruv va tashkiliy institutlardan iborat bo'lgan davlatning eng muhim Axloqiy vazifalaridan biri - tartib. Agar mazkur tartibda ommabop usullarning toshi bosib ketsa, u hol maqbari emas; yoshlarning o'zligini anglagan shaxs bo'lib yetilishi mushkullashadi. Shu bois, inson boricha, tartibda individual yondashuvga intilish maqsadga muvofiq.

Demokratik tamoyillarni amalga oshirish jarayonlarida davlat, hamma huquq baravariga teng, degan usulda ish ko'masligi lozim, hammaning xuquqiy tengligini tan olgan holda, ijtimoiy tenglashirish tamoyiliga yo'l qo'ymaslik kerak. Davlatning mavjud bo'lish sharti, eng avvalo, uning suverenitetida. Bunda xalq tashqi olamga nisbatan mustaqil bo'ladi va o'z davlatini shu mustaqillik asosida tuzadi. Shu bois suverenitet to'g'risida alohida to'xtalib o'tish joiz. Davlat suvereniteti eng avvalo millat suvereniteti demakdir. U shaxs mustaqilligini, huquqlarini kafolatlaydigan va millat hukmronligini to'liq ta'minlaydigan ijtimoiy-siyosiy hodisalar. Millat suvereniteti birinchi navbatda ularning siyosiy jihatdan o'z-o'zini boshqarishda qadindan egallab kelgan hudud va undagi foydali qazilmalarga egalik qilishda, o'zi tanlagan davlat hokimiyatida hamda milliy fuqarolikda namoyon bo'ladi. Shuningdek, inson suvereniteti ham davlat suverenitetining muhim qismi hisoblanadi. U fuqaroning yashashga, mustaqil dunyoqarashga bo'lgan xuquqi bilan belgilanadi va zulmga, adolatsizlikka, o'chlikka, shaxs erkinligining buzilishiga qarshi kafolalar majmuini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib suveren davlat inson xuquqlarini, shaxs nomusi va qadr - qimmatini himoya qilishni o'zining asosiy vazifasi, deb biladi. Uning yuksak Axloqiy mohiyati ham ana shunda. Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin o'z davlatimizni qadimiy davlatchilgimizning eng yaxshi an'analari bilan birga zamonaviy demokratik tamoyillar asosida qurishga kirishdik. Davlatimiz ham ma'naviy-axloqiy, ham jismoniy tartibga katta ahamiyat berib kelmoqda. 2000 yilning «Sog'lom avlod yili», 2001 yilning «Onalar va bolalar yili» deb atalgani bejiz emas, yosh avlod tartibyasi bizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mana, ko'rinibidan juda oddiy bir misol. O'zini eng insonparvar davlat deb e'lon qilgan

Sho'rolar Ittifoqi bunyodga kelganidan boshlab, deyarli yarim asr mobaynida bola tug'ilgach, onani uch oy ishdan ozod qilardi; ona uch oylik chaqaloqni bo'g'chaga tashlab, ishga chiqishga majbur bo'lardi, aks holda u buyruq bilan ishdan bo'shatilardi. Keyinchalik bu tarbiya ta'tili 1 yil qilib belgilandi. Bizning davlatimiz esa tashkili bo'lgani barobaridayoq bola tarbiyasini yuksak ijtimoiy-axloqiy hodisa sifatida e'tirof etib, yangi tug'ilgan bola tarbiyasi uchun onaga 3 yilgacha muddat berdi. Uch yilgacha onaning ish joyi saqlanib turadi. Shu birgina misolning o'ziyoq totalitar tuzum davlati bilan demokratik davlat naqadar katta farq qilishini ko'rsatib turadi.

Davlat va fuqarolik jamiyatidagi Axloqiy yuksaklik darajasini uning fuqarolari Axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o'zgarar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri - muomala odo'i. U mohiyatan, o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta'sir ko'rsatmasdan rosmnana yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinzon Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'ziyoq kifoya: Jumaboyri topib olgan Robinzonning naqadar kuvonishiga ham sabab ana shunda.

Muomala odo'i boshqa kishilar qad-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodalil namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati

muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Shu bois muomala odo'i o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushet'ililik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi.

Darhaqiqat, muomala odo'bida mulqotning asosi bo'lmish til katta ahamiyatga ega. Zero odamlar bir-birlarini til orqali tushunadilar. Til vositasida o'z fikrini o'ziga yetkazish ma'lum ma'noda san'atdir. Zarur so'zni topishi, muayyan holatga mos keladigan ifodaviy vositalarni qo'llash, fikrni jumlaviy jihatdan to'g'ri ifodalash, uni bosiq, salobat bilan so'zlash hamsuhbatningiz yoki tinglovchining diqqatini tortishda muhim ro'l o'ynaydi, so'zlovchining nutq madaniyati darajasini ko'rsatadi. Muomala odo'bida tilning so'zligi masalasi ham muhim. Til so'zligi buzilishining asosan uch xil ko'rinishi mavjud. Birinchisi - bir tilda so'zlashayotib ikkinchi tilga o'tib ketish, to'g'rirog'i birvarakay «ikki tilda» so'zlashish. Bunga ikki talabning so'zlashayotganda uzbek tilidan rus tiliga, rus tilidan uzbekchaga muntazam o'tib turishini misol qilib keltirish mumkin. Bu ha'zlari uchun odatiy hol bo'lib qolgan. Ikkinchisi - bir tilda so'zlashayotib ikkinchi tildagi so'zlarni ayniqsa jargonlarni ishlatish. Masalan, «danningni ol», «karochen», «quri», «xarip», «voobshim» v.x. Til so'zligining uchinchi buzilishi esa bir tilda so'zlashgan holda o'sha tildagi «parazit» so'zlarni qo'llashda ko'rinadi. M, «anaqa» «holiginday» v.x. Muomaladagi bunday til so'zligining buzilishlari hamsuhbatlarga bilimnasa ham, chetdan kuzatgan odamga nihoyatda xunuk ko'rinadi.

Muomala odo'biga «siz» va «sen»ning uz urnida qo'llanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, uchinchi shaxs ota-ona, aka-opa yoki boshqa yoshi katta odamlar bo'lganida ularga nisban birlikdagi u olmoshini emas, xurnatni anglatuvchi «ular» yoki «u kishi» shaklini ko'llash odo'biddan xisoblanadi. Masalan, «Otam shunday dedi» emas, «Otam shunday dedilar», «U kishi shuni so'zlayaptilar» v.x.

Suhbat paytida tinimsiz xarakatda bo'lib turish, qo'lni paxsa qilib gapirish yoki suxbatdoshning yoshini nazarga ilmay, uni oyoqni chalkashirib o'tingan

xolda tinglash, biron jon kuydirib so'zlayotganda eshish va boshqa shunga o'xshash xolalar ham muomaladagi odobsizlikni bildiradi.

Muomala odobining yana bir «kuzgusi», bu - insoniy qarash, nigoh, so'zsiz - nonverbal harakatlari. Ma'lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo'l harakatlari uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so'zga aylanmagan xissiyoti, talablari o'z aksini topadi. Chunonchi, suxbatdoshning gapini oxirigacha eshitmay, ko'l sillab ketish muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba'zan qarab qo'yishning o'zi so'zdan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Deylik, bir kuruvchi usta o'z shogirdining xatti-harakatlaridan noroziligini bildirish uchun bosh chayqab, jilmayib qo'yishi mumkin. Ikkinchi usta esa, bir laxza o'qrayib qarash bilan munosabatini ifodalaydi. Birinchi usta yuz ifodasi va xatti-harakati bilan: «Obbo shovvoz-ey, sal shoshilbsan-da, xa mayli, zarari yuk, shunaqasi xam bo'ladi», degan ma'noni anglatasa, ikkinchi ustaning qarashidan: «Yana ishini rasvo qilbsan-ku, padarla'nat qachon odam bo'lasan?», degan so'zlarni uqish mumkin. Shubhasiz, birinchi usta muomalada odobga rioya qilgan bo'lsa, ikkinchisi uning aksi - shogirdining emas, uzining odobsizligini ko'rsatmokeda.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasixat qilmasdan va odob o'rgatmasdan bir-biriga ta'siri, tarbiya va o'z-o'zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish xozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda ota-onaning, mahalla-kuyning ta'siri katta. Undan foydalana bilish kerak. Zero, axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

Axloqiy madaniyatda yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlari ko'rinishidan biri, bu - etiket. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi uzini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agur muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya'ni bir xolada bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan xolat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo'yilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

Etiketning qamrovi keng, u ma'lum ma'noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arhol

etiketi, mexmondorchilik etiketi va x.k. Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasini biz tez-tez televizor ekrani orqali ko'rib turamiz. Bu jarayon ayniqsa, davlat rahbarlariga xorijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Unda fakat bir xil xolat, xalqaro miqyosda o'rnatilgan qoida xukmron. Uni Prezidentning ham, elchilarning ham buzishga xaqi yo'q, yoki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturxonda tanovul payti, pichogni o'ng qo'lda ushlash zamonaviy mexmondorchilik etiketining qat'iy qoidalaridan biri sanaladi - uni buzish atrofdagilarda xayrat va laxazo uyg'otadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, qat'iyashirilgan muomala odobi deyish ham mumkin.

Etiketning bunday zamonaviy ko'rinishlari bilan birga, shunday milliy-madaniy shakllari ham borki, ularsiz millat madaniy hayotining tasavvur qilish qiyin. Masalan, salomlashish odobini olib ko'raylik. Etiketning bu turiga ko'ra, ko'chadan o'tib ketayotgan odam, ko'cha bo'yida o'tirganlar yoki turganlarga salom berishi kerak, salom berganda o'ng qo'l chap ko'krakda, yurakning ustida turishi, bosh esa yengil ta'zinga egilishi lozim. Ko'rinish etiketida esa qo'lning uchini berib salomlashish ko'rishayotgan odamga nisbatan gimaxonlik, xalqaroqchilikni bildiradi - odobdan emas. Ko'rishganda yosh yoki martaba nuktai nazaridan katta kishi birinchi bo'lib qo'l uzatishi lozim, ayollar bilan ko'rishganda ham erkak kishi tomondan shunday etiket qoidasi bajarilmog'i talab qilinadi.

Milliy mentalitetda marosimlar etiketi, ayniqsa katta ahamiyatga ega. To'y marosimida, xususan, qiz bilan ota-onaning xayrlashuvi, nikoh, kechasiga kirib kelilada kuyovning kelinni chap tomonda tutib, to'yxonaga boshlab kirishi v.x., etiket qonun-qoidalari to'liq bajarilishi lozim. Yoki aza marosimida fotixaga kelgan odamlarni milliy to'n va do'ppi kiygan, belbog' bog'lagan xolda, ko'l qovlatirib, boshni bir bu quyi tutgan tarzda kutib olish qat'iy qoidaga asoslanadi. Bular, bir qarashda, etiketning milliy yoki kaspriy udum, odat, rasn-rusumlardan farqli yo'q ekan degan taassurot qoldirishi mumkin. Bu yuzaki, yolg'on taassurot. Chunki udum, odat, rasn-rusumlar muayyan darajada erkinlikka ega, ba'zan

ularni bajarmaslik ham mumkin. Lekin etiketda buning imkonini yo'q. Etiketi qonun-qoidalarini majburiylik tabiatiga ega.

Etiketning yana bir alohida jihati bor: unda odob bilan go'zallikning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. Qat'iy odob qonun-qoidalarini chiroqli xatti-xarakatlar vositasida amalga oshiriladi. Demak, etiket estetik bilan bog'liq, aniqrog'i, o'zini tutish estetikasi talablariga javob beradi.

Shunday qilib, etiket - takallufning mayda-chuyda jihatlari uchun ishlatilgan odob qoidalarini sifatida foydalanish, kishining ko'zini quvontiradigan muomala xodisasi. Lekin, ayni paytda, u asl axloqiy asosini yo'qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo'ladi: etiket qoidalarini bajarayotgan kishi aslida o'z xohish-ixtiyoriga qarshi ish ko'rayotgan bo'lishi ham mumkin. Bu jihatdan u munofiqlikning bir ko'rinishiga aylanadi. Masalan, siz biror yerga shoshilib, darvozadan chiqdingiz, deylik. Ro'parangizda tanishingiz yoki qo'shingiz uchraydi. Siz ko'rishib, xol-ahvol so'rashib, so'ng sharqona etiketga rioya qilib uni: «Qo'shni uyg'a kiramiz, choy qilamiz, bir xangomalashamiz», deb ichkariga taklif qilasisiz. Lekin, aslida, siz uning uyg'a kirishini aslo istamasiz, vaqingiz yo'q, xatto, shu uchrashganda kelgan vaqingizni o'ylab, pitirib turibsiz. Demak, siz o'z istagingizga qarshi, etiket-mulozamat yuzasidan yo'l-g'aplarini aylatisiz, xunuk eshitilisa ham nachora - munofiqlik qilasisiz. Shunga qaramay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib-qoidaga, qanday ichki ruхday sharoitda bo'lmasin, bosiqlikka, muloyimlikka va sabr-toqatga o'rgatishi bilan ahamiyatlidir.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasb doirasida odamlar bilan munozam munosabatlarda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasblar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o'rni yuksak. Shu bois kasbiy odobga bafurja to'xtalish joiz.

Xar bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatlardoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko'pchilik jamiyat a'zolarining hayot-mamotlari, sog'lig'i, ma'naviy sog'liqligi, xuquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar o'shanday imtiyozli kasb egalarining o'z kasbiy burch mas'uliyatini qay darajada xis etishlariga, xalollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liqligi hamмага ma'lum. Chunonchi, tabobat xodimini, jarroxnini olaylik. Deylik, u xar bir operatsiya kunida bir necha kishini hayotga qaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muxtoj, unga umid va ishonch, ilinj bilan qaraydilar. Bordini, shaxsiy manfaat yo'lida jarroх, o'z bemoriga xiyonat qilsa-chi, ya'ni, uni qasddan xalok etsa-chi? Kim uni shunday qilmasligini kafolatlaydi? Yoki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo'lida, kashibning kamuyobligidan foydalanib, begunox, kishilarni ma'naviy azobga ko'yishi, a'ayim jamiyat oldida sharmanda qilishi va shuning xisobiga o'zining but'zi bir muammolarini xal qilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to naqilqat yuzaga chiqquncha noxaq tanqidga uchragan shaxsning adoyi tamom bo'lishi xech gap emas. Xo'sh, jurnalstning shunday qilmasligini kim kafolatlaydi?

Su bois boshqalarning ko'ligdan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faollig'ida o'z boshimchalik, manfaatparastlik, xudbinlik va kasbni suiste'mol qilish singari illatlarga yo'l kuyimaslik uchun, shuningdek, ular axloqiy darajasini yuksak bosqichda turishini ta'minlash maqsadida ko'p xollarda o'zaro qoidalar majmuyi yaratilgan. Bu qoidalar majmuyi, odatda, qasamyod yoki me'yorlar ko'rinishini olgan. Uni buzish o'ta odobsizlik va axloqsizlik, xatto jamiyatga shynonat tarzida baholalanadi. Bunday qasamyodlar juda uzoq tarixga ega. Misol tariqasida xozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan qadimgi yunon xokimi (Gippokrat (milogachga V-IV asrlar) tomonidan qisqa va lo'nda shaklda tuzilgan, tabobat xodimlari kasbiy odobi qonun-qoidalarini jamlangan mashhur «Gippokrat qasami»ni keltirish mumkin.

Tarixda o'z dushmanini davolagan tabiblar ham ko'p uchraydi. Chunonchi, qadimgi xind eposi «Ramayana»da (II asr) beхush yotgan Lakshman boshida

turgan devlar shoxning xos tabii kechimalari shu jihatdan muhim. Tabii oldida ikki yo'l bor edi: biri - salanat dushmanini muxtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo'l davolashdan bosh tortish bilan uni o'linga mahkum etish. Tabii uzoq muloxazadan so'ng tabiiik odobi koidalari bo'yusunishi - Lakshmanini davolashni afzal ko'radi. Zero, kasbiy odob qonun-qoidalari talabiga ko'ra, bemor to'shagi ustidagi tabii uchun do'st yoki dushman degan tushunchalar o'z ma'nosini yo'qotadi, uning qoshida faqat tibbiy yordamga intizor, shafqatga muxtoj, zaif inson yotadi. Davolanib hayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk jangchisi va salanat valiaxdi Indiridni jangda xalok etadi hamda tabii fukaro bo'lgan Lanka davlatining tanazzuliga yo'l ochadi. Lekin, kitobxon tabii xiyonatkor yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma'naviy jasoratiga, xaloliligiga, kasbiy burchiga sodiqligiga xayrat bilan tasannolar o'qiydi.

Yoki mashhur rus olimi akademik Andrey Saxarovning taqdirini olaylik. Buyuk nazariyotchi, fizik, termoyadro soxasida tengi yo'q mutaxassis, vodorod bombasining asosiy kashfiyotchisi, Vatan mudofaasini mustaxkamlashdagi xizmatlari uchun o'nlab orden va medallar soxibi, ikki mara Sotsialistik Mehnat Kaxramoni, obro'li, badavlat bu insonga nima yetishmasdi? Nega u hammasidan kechishga - ommaviy qirg'in qurollari, jumladan, o'zi yaratgan vodorod bombasi sinovlariga ochiq bayonotlar bilan qarshi chiqishga axd qildi? Natijada qatag'onlarga asoslangan sho'rolar tuzumi uni ilmiy jamoatchilikdan ajratib, poytaxtdan olisdagi Rossiya shaharlaridan biriga badarg'a qildi, uning nomini matbuotda yoki kitoblarda qayd etilishini ta'qiqadi. Vaholanki, u hammadan izzatliroq yashay olishi mumkin edi. Saxarov yuksak axloq yo'lini tanladi - olimlik burchi, odobi talablarini bajarishni xar qanday boylik, izzat-ikromdan baland qo'ydi. Buyuk olim o'z kashfiyoti insonning eng oliy xuquqi bo'lmish - yashash xuquqiga rahna solishi mumkinligi va qisman solayotgani uchun uni amalda qo'llanilishiga qarshi kurash di. U sho'rolar xukumati va mafkurachilari tomonidan o'zining Vatan mudofaasi quvvatini susaytirishga xarakat qilgan salkam xiyonatkor fukaro deb e'lon etilishiga, boshiga bexisob tuxmatlar, ta'na-

dashnomlar yog'dirilishiga sabot bilan chidadi, axdidan qaytmadi, yovuzlik salnati qo'lida o'z olimlik iste'dodining qo'g'irchoq bo'lishiga, xarbiy muruvvalga aylanishiga yo'l qo'ymadi. Oxir-oqibatda u inson xuquqlarining jahon tan olgan eng buyuk himoyachilaridan biri sifatida butun insoniyat taxsiniga mazovor bo'ldi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Rahbarlikning axloqiy jihatlari, rahbar borasida Islom Karimovning mana bu fikrlari bag'oyat ibratlidir: «Oddiy odamlarning rahbarlarga munosabati ikki luqaro o'tasidagi munosabatgina emas. Ayni paytda u jamiyadda qaror topadigan ma'naviy-ruxiy, siyosiy-axloqiy muxitni ham yaratadi... Xaqiqiy rahbar odamlarning ko'ngliga yo'l topib, ularni ezgulikka, yaxshilikka, yaratishga da'vat etadi».

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinish turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba'zilar o'ylaganidek, axloq falsafasining mayda masalalaridan emas. Uni xar tomonlama o'rganish, kaspiy erkimlik va kaspiy burch munosabatini tadqiq etish XXI asr axloqshunosligida muhim o'rin egallajak. Zero, kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o'zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma'naviy kodlisa sifatida baholanishi lozim.

O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:

1. Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning tarbiya, axloq haqidagi qarashlari.
2. Eitkaning fan sifatida vujudga kelishi haqida tushuntirib bering?
3. Odob, xulq va axloq tushunchalariga ta'riflar bering?
4. Inson shaxs bo'lib kamolga yetishida eitkaning o'rni qanday?
5. Eitka fan sifatida boshqa fanlar bilan munosabati.
6. Eitka kategoriyalari nimalardan iborat.
7. Millatparvarlik tushunchasining mazmun mohiyatini aytib bering.
8. Axloqiy tamoyillarga nimalar kiradi va nima uchun?
9. Axloqiy me'yorlarga nimalar kiradi va nima uchun?
10. Axloqiy tamoyillar va me'yorlar haqida buyuk mutafakkirlarning fikrlaridan misollar keltiring?

9-mavzu: Estetikaning predmeti, maqsadi, vazifalari va uning asosiy kategoriyalari. Estetikaning zamonaviy muammolari

Maqsad va vazifalari:

Estetika faqat san'atdagi go'zallikni emas, balki insondagi, jamiyat va tabiatdagi go'zallikni ham o'rganishini talabalarimiz anglab olmoqlari lozim.

Reja

1. Estetika fanining predmeti, tadqiqot doirasi va maqsadi.
2. Estetikaning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabati.
3. Estetikaning asosiy kategoriyalari.
4. Estetikaning zamonaviy muammolari.

Tayanch so'zlar: Estetika, nafosat, estetik did, go'zallik, san'at, go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, estetik tarbiya, Go'zallik, Xunuklik, Tabiat go'zalligi, inson go'zalligi, san'at go'zalligi, ulug'vorlik va tubanlik, tabiat ulug'vorligi, fojicaviylik, fojicaviy to'qnashuv, fojicaviylik va estetik ideal, forig'lanish, fojicaviy qahramon, kulg'ili holat, hazil, mutoyiba, kinoya, istehzo. Tabiat estetikasi, tabiatni asrash, tabiat go'zallik manbai sifatida, ona tabiat, olamiy kubro, olamni sug'ro, Biologik muhit, Texnika estetikasi, texnologiya asri, dizayn san'ati, texnik insoniy lashtirish, modernizatsiya, xalq amaliy san'ati, texnikaviy olam.

Estetika yoxud nafosatshunoslik eng qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yilni o'z ichiga oladi. Biroq u o'zining hozirgi nomini XYIII asrda olgan. Ungacha bu faning asosiy muammosi bo'lmish go'zallik va san'at haqidagi mulohazalar har xil san'at turlariga bag'ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o'z aksini topgan edi. «Estetika» atamasini birinchi bo'lib buyuk olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714-1762) ilmiy muomalaga kiritgan. U boshqa bir ulug' olmon faylasufi Laybnits (1646-1716) ta'limotidan kelib chiqqan holda xulosaga kelgan edi. Laybnits inson ma'naviy olamini uch sohaga - aql-idrok, ixtiyor-iroda, his-tuyg'u ga bo'lad i va ularning har

birini alohida falsafiy jihatdan o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. Baumgartengacha aqlni o'rganadigan fan-manitiq, ixtiyorni o'rganuvchi fan esa axloqshunoslikning (etikaning) falsafada ko'pdan buyon o'z o'rni bor edi. Biroq hissiyotni o'rganadigan fan falsafiy maqomdagi o'z nomiga ega emasdi. Baumgartenning bu boradagi xizmati shundaki, u «his qilish», «sezish», «his etiladigan» singari ma'holarni anglatuvchi yunoncha aisthetikos-«oyestetikos» so'zidan «estetika» (olmoncha «yestetik»-«eshetiko») iborasini olib, ana shu bo'shliqni to'ldirdi.

Baumgarten estetikani hissiy idrok etish nazariyasi sifatida olib qaradi. Lekin, Baumgartendan so'ng ko'p o'lmay, u goh «go'zallik falsafasi», goh «san'at falsafasi» sifatida talqin etila boshlandi. Estetika fanining eng buyuk nazariyotchilaridan biri Hegel esa o'z ma'ruzalarining kirish qismida shunday deb yozadi: «Estetika» degan nom muvaffaqiyatsiz chiqqani va yuzaki ekani sababli boshqa atama qo'llashga urinishlar bo'lgan. So'zning o'z-o'zicha bizni qiziqtirmasligini nazarda tutib, biz «estetika» nomini saqlab qolishga tayyormiz, buning ustiga, u odatiy nutqqa singishib ketgan. Shunga qaramay, bizning fanimiz mazmuniga javob beradigan ibora, bu - «san'at falsafasi» yoki yana ham aniqroq qilib aytganda, «badiiy ijod falsafasi».

Hegelning «estetika» atamasidan ko'ngli to'lmaganligiga muayyan sabablar bor. Bulardan biri-yuqorida uning o'zi aytib o'tgan fikrlari bo'lsa, ikkinchisi-mazkur so'zning barcha his-tuyg'ularga taalluqliligi. Vaholanki, estetika faqat estetik his tuyg'ular va ularning ziddini nazarda tutadi. Ayniqsa, mana shu ikkinchi sababga ko'ra, «estetika» atamasining talabga javob berishi shubhali. Buning ustiga allaqachon fanimizning tadqiqot doirasi san'at hududidan chiqib, inson hayotining deyarli barcha sohalariga yoyilib ketgan. Shu bois biz bundan avval «nafosatshunoslik» atamasini ilmiy muomalaga kiritishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. O'quv dasturini ham shu nom ostida tuzdik. Lekin, vaqt o'tishi bilan yana Hegelning fikriga qo'shilishni ma'qul ko'rdik.

Endi fanimizning mohiyatini anglatadigan «san'at falsafasi» va «go'zallik falsafasi» iboralariga to'xtalamiz. Estetika tarixida birinchi ibora tarafdorlari ko'pchilikni tashkil etadi. Lekin, yuqorida aytib o'tganimizdek, san'at estetikaning

yagona tadqiqot ob'ekti emas. Hozirgi paytda texnika estetikasi va uning amaliyotidagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go'zallashtirish, tabiat estetikasi borasidagi muammolar bilan ham bizning fanimiz shug'ullanadi. Shu bois uning qamrovini san'atning o'zi bilangina chegaralab qo'yishga haqqimiz yo'q. Zero bugungi kunda inson o'zini o'rab turgan barcha narsa-hodisalarning go'zal bo'lishini, har qadanda nafosatni his etishni istaydi: biz taqib yurgan soat, biz kiygan kiyim, biz haydayotgan mashina, biz uchadigan havo kemasi, biz yashayotgan uy, biz mehnat qiladigan ishxona, biz yurgizayotgan dastgoh, biz yozayotgan qalam, biz dam oladigan tomshabog'lar-hammasidan nafs bir ruh ufurib turishi lozim.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqsak, demak, «go'zallik falsafasi» degan ibora estetikaga ko'proq mos keladi. Negaki, fanimiz faqat san'atdagi go'zallikni emas, balki insondagi, jamiyat va tabiatdagi go'zallikni ham o'rganadi. Shuningdek, go'zallikdan boshqa ulug'vorlik, fojaviylik, kulgiilik, mo'jizaviylik, xayoliylik, uyg'unlik, noziklik singari ko'pdan-ko'p tushunchalar mavjudki, ularni tadqiq etish ham estetika fanining zimmasida. Lekin, bu o'rinda, shuni unutmashlik kerakki, mazkur tushunchalarning har birida go'zallik, bir tomondan, unsur sifatida ishtirok etsa, ikkinchi tomondan, ularning o'zi go'zallikka nisbatan unsur vazifasini o'taydi. Ana shu xususiyatlarning voqelikda namoyon bo'lishini biz estetikadeb ataymiz.

Go'zallik, ko'rganimizdek, nafosatning bosh, yetakchi xususiyati hisoblanadi. Shu bois u estetikaning asosiy mezoniy tushunchalaridan biri sifatida tadqiq va talqin etiladi. Zero go'zallikning ishtirokisiz yuqoridagi xususiyatlarning birotasi estetik tabiatiga ega bo'lolmaydi. Masalan, ulug'vorlikni olaylik. U asosan hajmga, miqdorga asoslanadi. Buxorodagi Arslonxon minorasi yoxud Minorai kalon ulug'vorligi bilan kishini hayratga soladi, unga tikilar ekansiz, qabingizni estetika zavqi qamrab oladi. Lekin xuddi shunday balandlikdagi kimyoviy korxona mo'risidan zavqlanilmaysiz. Yoki yonbag'irdan turib, toqqa tikilsangiz estetikazavqini tuyasiz, ammo xuddi shunday balandlikdagi shahar chetida o'sib chiqqan axlat «tog'i»dan zavq olmaysiz. Chunki Arslonxon minorasi

mo'rorlik san'ati asari sifatida go'zallik qonuniyatlari asosida bunyod etilgan; tog' esa tabiat yaratgan ulug'vor go'zallik. Zavod mo'risida ham, axlat «tog'i»da ham hajm, miqdor boru, lekin bir narsa-go'zallik yetishmaydi. Minora bilan tog'dagi hajmni mahobatga aylantiruvchi unsur, bu-go'zallik. Fojaviylik xususiyatida ham go'zallikning ishtirokini ko'rish mumkin. Misol sifatida Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» romanidagi Avstrliada bo'lib o'tgan rus va fransuz qo'shinlari to'qnashuvidan so'ng, jang maydonida yarador bo'lib yotgan konyaz Andrey Bolkonskiyni eslaylik: bir qo'lida bayroq dastasini ushlagancha ko'm-ko'k maysada moviy osmonga qarab yotgan, oppoq mundirli botir yigit-bayroqdor zobitning tepasiga kelgan Napoleon uni o'lgan deb o'ylab, bu manzaradan hayratlanadi. «Mana bu-go'zal o'lim!» deydi u. Bu o'rinda asar qahramonining o'limi-fojaviylik, o'limning qahramonlikka aylanishi-ulg'vorlik; fojaviylik bilan ulug'vorlik xususiyatlarining omuxtalashuvi natijasida esa go'zal manzara, qayg'uli va ulug'vor go'zallik vujudga kelgan. Shuning uchun ham Napoleonning hayratomuz xitobi bejiz emas. Demak, estetikaning muhim tadqiqot ob'ekti-go'zallik, biroq, san'at ham o'z navbatida uning go'zallik kabi keng qamrovli tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

San'at estetikaning ob'ekti sifatida o'ziga xos olam. Unda nafosatning xususiyatlari bo'rtib ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra uni nafosatga burkangan ijtimoiy hodisa deyish mumkin. San'at hayotni in'ikos ettirar ekan, insonning o'zini o'ziga ko'rsatuvchi ulkan ko'zgu vazifasini o'taydi. U insonni o'rgatadi, davlat etadi, go'zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda estetika san'atining ko'makchisi, yetakchisi hisoblanadi. Estetika bir tomondan, san'atning paydo bo'lishidan tortib, uning turlariyu janrlarigacha, san'at asarining ichki murvatlaridan tortib, san'atkorning ijodkorlik tabiatigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'rganadi. Ikkinchi tomondan, san'at uchun umumiy qonun-qoidalarini ishlab chiqadi va tadbiq etadi. Uchinchi tomondan esa, san'at asarini idrok etayotgan kishi ruhidagi o'zgarishlarni estetikanuqta nazaridan tadqiq qiladi.

Shunday qilib, estetika san'atni to'la qamrab oladi va uning ich-ichiga kirib boradi: badiiy asarning yaratilish arafasidagi shart-sharoitlardan tortib, to'la bunyodga kelib, asl egasi-idrok etuvchiga yetib borungacha bo'lgan va undan keyingi jarayonlarni tadqiq etadi hamda ulardan nazariy xulosalar chiqaradi. Zotun «san'at falsafasi» iborasining siri ana shunda.

2. Estetika-falsafiy fanlar tarkibiga kiruvchi mahsus soha. Falsafani esa, o'zingizga ma'lumki, fanlar podshosi deb atashadi. Darhaqiqat, u fanlar podshosi sifatida barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlarni o'z qamroviga olib, ulardan umumiy xulosalar chiqarib, shular asosida insoniyatni haqiqat tomon yetaklaydi. Shu bois tafakkurni falsafaning tadqiqot ob'ekti deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi. Estetika-falsafiy fan sifatida, barcha san'atshunoslik fanlari erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, shu xulosalar asosida insonni go'zallik orqali haqiqatga yetishtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari estetika ishlab chiqqan qonun-qoidalar barcha san'atshunoslik fanlari uchun umumiylik xususiyatiga ega. Masalan, uslub, ritm, kompozitsiya v. h. borasidagi qonuniyatlار barcha san'at turlariga taalluqli. Hech bir alohida san'at turi haqidagi fan bunday imtiyozga ega emas. Masalan, adabiyotshunoslik ishlab chiqqan qo'lyozma nazariyasini musiqa yoki me'morlik san'atiga tadqiq etib bo'lmaydi.

Estetikaning falsafiy mohiyatini yana uning san'at asariga yondoshuvida ko'rish mumkin. Ma'lumki har bir san'atshunoslik ilmi o'z tadqiqot ob'ektiga uch tomonlama - nazariy, tarixiy, tanqidiy jihatdan yondoshadi. Masalan, adabiyotshunoslikni olaylik. Adabiyot nazariyasi faqat adabiyotgagina xos bo'lgan badiiy qonuniyalarni, badiiy qiyofa yaratish usuli va vositalarini o'rganadi. Adabiyot tarixi muayyan tarixiy-badiiy jarayonlar orqali badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Adabiy tanqid esa adabiy-badiiy ijodning zamonaviy jarayonlarini tadqiq etadi va har bir yangi asarni baholaydi, asar ijodkorining ijodiy rivojlanishini kuzatib boradi. Musiqada ham, tasviriy san'atda ham va boshqa san'at turlarida shunday. Estetikada esa tadqiqot ob'ektiga yondoshuv uch emas, birgina-nazariy jihatdan amalga oshiriladi: tarix ham, tanqid ham nazariyaga bo'yundiriladi. To'g'ri, estetika tarixi degan ibora va shu nomda

hukmlar o'qitiladi. Lekin bu nom, ibora-shartli tarzda qo'llaniladi. Vaholanki, u faqat tarixi emas, balki tarixan davrlarga bo'lingan estetik nazariyalarning ta'limidir.

Ma'lumki, san'at asarining mavjud bo'lishi uchun to'rt shart-unsur albatta zarur. Ular quyidagi tadrifiy «zanjir»ni tashkil etadi: ijodkor-badiiy asar-badiiy asarni idrok etuvchi-vosilachi. Yuqoridagi misol nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak: yozuvchi-roman-kitobxon-tanqidchi. Adabiyotshunoslik bularning har birini o'zida alohida-alohida o'rganadi. Deylik, yozuvchi Odil Yodubov ijodiy faoliyatini haqida adabiy portret-alohida, uning «Ulug'bek xazinasi» romani to'g'risida tadqiqiy maqola alohida, zamonaviy kitobxonning didi, saviyasi va talablariga bag'ishlangan mulohaza-maqola alohida, «Ulug'bek xazinasi» romaniga taqriz esa alohida yozilishi mumkin. Estetika fani hammasini bir yo'la, muayyan tizim sifatida tadqiq etadi va bu tadqiqot umumlashtiruvchilik, nazariylik xususiyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, estetikaning falsafiy mohiyatini qisqacha ko'rib o'tdik. Endi uning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatlariga to'xtalamiz.

3. Estetika qadim-qadimlardan ko'pgina fanlar bilan mustahkam aloqada rivojlanib kelgan. Shulardan biri bo'lgan falsafa haqida, ular orasidagi bog'liqlik to'g'risida yuqorida aytib o'tdik. Estetika uchun yana bir aloqador, «qadrdon» fan axloqshunoslikdir. Bu ikkala fan shu qadar bir-biriga yaqinki, hatto ba'zi davrlarda ular yetarli darajada o'zaro chegaralanmagan. Chunki insonning madaniyati va niyati ko'pincha ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijodiy faoliyat o'zida birvaqtay ham ezgulik, ham estetik xususiyatlarini mujassam qilishi mumkin. Shu sababli «Avesto», «Bibliya» va «Qur'on» kabi muqaddas kitoblarda, Sugrot, A'frotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ta'limotlarida axloqiylikni - ichki go'zallik, estetikani - tashqi go'zallik tarzida talqin etganlar.

Bundan tashqari, ko'rib o'tganimizdek, san'at estetikaning asosiy tadqiqot ob'ektlaridan hisoblanadi. Har bir san'at asarida esa axloqning dolzarb munomolari ko'zga tashlanadi va ijodkor eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar

orgali in'ikos etiradi. Bu in'ikos bevosita ijobiy qahramonlar qiyofasida analoga o'shisa, bivosita salbiy voqea-hodisalarga muallif nuqtai nazarini orgali ro'y berishi mumkin. Ya'ni ba'zi bir badiiy asarda ijobiy qahramonlar umuman bo'lmaydi, lekin undagi voqea-hodisalarga ijodkor o'z zamonasi erishgan axloqiy yuksaklikdan turib baho beradi. Shu bois axloqsizlikni targ'ib etuvchi badiiy asarning bo'lishi mumkin emas. Demak, estetika o'rganayotgan har bir badiiy asar ma'lum ma'noda axloqshunoslik nuqtai nazaridan ham ko'zdan o'tkazilmay iloji yo'q. Biroq, bunday yaqinlik, yuqorida aytganimizdek, aslo aynanlikni anglatmaydi.

Bu ikkala fanning tadqiqot ob'ektlari orasidagi farqni birinchi bo'lib buyuk Arastu nazariy jihatdan isbotlab bergan edi; u, ezigulik faqat harakada, go'zallik esa, harakatsiz ham namoyon bo'ladi, degan fikrni bildiradi. Dartaqiqat, axloqiylik faqat insonning xati-harakati, qilmishi orgali yuzaga keladi; odam toki harakatsiz ekan, biz uning na yaxshiligini, na yomonligini bilamiz; muayyn xati-harakat sodir qilinganidan keyingina biz uni yo ezgulik, yo yovuzlik, yo yaxshilik, yo yomonlik sifatida baholaymiz. Go'zallik esa, o'zini harakatsiz ham namoyon etaveradi. Olaylik, Ko'kaldosh madrasasi. U hech qachon harakat qilmaydi, lekin go'zallik sifatida mavjud, harakatsizligidan uning go'zalligiga putur yetmaydi. Bundan tashqari, axloqning qonun-qoidalarini, nasihatlar, hikmatlar umumiylikka, barchaga bir xilda taalluqlik xususiyatiga ega. Estetika esa muayyanlikni, aniqlikni yoqtiradi. Masalan, axloqshunoslikdagi «yaxshi odam» tushunchasi hammaga ayolga ham, erkakka ham, yoshu-qariga ham tegishli bo'lishi mumkin. Estetikada esa, «go'zal odam» tushunchasi yo'q; yo «go'zal yigit», yo «go'zal qiz» degan tushunchalargina mavjud. Chunki, erkak kishidagi chiroyni mo'ylov faqat erkakning yuzida, ayol kishidagi husnlardan biri-ko'krak faqat ayol kishi vujudida go'zallikka ega. Endi mo'ylov burab so'zlayotgan ayolni-yu, siynaband taqib yurgan erkakni tasavvur qiling! Boyagi go'zalliklar xunuklikka aylanadi-qoladi. Shuningdek, go'zallik bir vujudda ham faqat o'z o'rnini talab qiladigan «o'ta inijilik» xususiyatiga ega. Shu joyda olmon nafosatshunosi Fexner go'llagan misolni keltirish o'riniidir. Uning fikricha qiz bolaning yuzidagi qizillik uning

go'zalligidan dalolat beradi. Biroq, qizillik uning burun ustiga ko'chsa-xunuklikka aylanadi. Demak, axloq uchun-umumiylik, estetikachun esa-muayyanlik muvjudlik sharti hisoblanadi.

Estetika ruhshunoslik (psixologiya) bilan ham mustahkam aloqada. Ma'lumki, insonning ruhiy hayotini o'rganar ekan, ruhshunoslik, hissiyotlar mualliflarga katta o'rin beradi. Go'zallikni, san'at asarini yaratish va idrok etish ham, ma'lum ma'noda hissiyotlar bilan bog'liq. Masalan, oddiy harsang tosh kishida favqulodda kuchli forig'lanish tuyg'usini, hissiy taassurot uyg'otmaydi. Lekin toshga haykaltarosh qo'l urganidan so'ng, undagi hayot nafasi, insoniy hissiyotlar favquloddalik tabiatiga ega bo'ladi. Gap bunda toshga odam qiyofasi berilganida emas, balki shu qiyofaga bir lahzaalik insoniy tuyg'ularning jamlanganidir; boshqacharoq qilib aytganda, ijodkor toshga o'zi tomoshabingga yetkazishni maqsad qilib qo'ygan hissiyotlarning suratini chizadi va oddiy toshni haqiqiy san'at asariga aylantiradi. Agar ijodkor-haykaltarosh ana shu hissiyotlarni o'zi mo'ljallagan darajada tomoshabingga yetkaza olsa va tomoshabingda o'sha hissiyotlarga yo aynan, yo monand tuyg'ular uyg'ota olsa, mazkur haykal haqiqiy san'at asari hisoblanadi. Estetika haykaltaroshdan haykalga, haykalidan tomoshabingga o'sha hissiyotlarning qay darajada o'tgan-o'tmaganligini, ya'ni, badiiy qiyofa qanchalik puxta yaratilganligini o'rganadi va shu asosda asarni baholaydi. Ruhshunoslik esa ana shu xissiyotlarning o'zini o'rganadi. Bundan tashqari ruhshunoslik asar g'oyasidan tortib, to badiiy asar-estetik qadriyat vujudga kelgunga qadar bo'lgan ijodkorning hissiyotlar olamini o'rganadi. Albatta, bu o'rganishlar alohida-alohida, muxtor holda emas, balki ikkala fanning bir-biri bilan hamkorligi, birining ikkinchisi hududiga o'tib turishi vositasida ro'y beradi. Shu bois ruhshunoslikka ham, estetikaga ham teng aloqador bo'lgan san'at ruhshunosligi va badiiy ijod ruhshunosligi deb atalgan yo'nalishtar mavjud.

Estetikaning sosiologiya (jamiyatshunoslik) bilan aloqadorligi ham muhim. Ma'lumki, har bir san'at asari alohida inson shaxsiga e'tibor qilgani holda, jamiyatni ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida badiiy tadqiq qiladi. Hatto inson va jamiyat bevosita aks etmagan manzara janridagi asarda ham, ijtimoiylik jamiyat

a'zosi-muallif qarashlarining birlashtirish uslubida o'zini ko'rsatadi. Zero asar muallifi hech qachon o'zi mansub jamiyatdan chetda «tomoshabin» bo'lib turlolmaydi. Chunonchi, yirik asarlar sotsiologik tadqiqotlar uchun o'ziga xos material bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, sotsiologiya jamiyat bilan san'atning o'zaro aloqalarini, san'atning ijtimoiy vazifalarini o'rganadi; san'atkorning jamiyatdagi o'rni, mavqei, o'quvchi va tomoshabinlarning ijtimoiy-demografik holatlarini tadqiq etadi; shaxs ijtimoiylashuvida san'atkor va san'at asarining ahamiyatini tahlil qiladi. Bu muammolarni atroflicha o'rganish uchun mahsus san'at sotsiologiyasi sohasi ham mavjud. U-ham ijtimoiyshunoslikka, ham estetikaga birday tegishli. Ayni zamonda, muayyan san'at asarlari, janrlari va turlarining jamiyatdagi mavqei aniqroq beruvchi maxsus sotsiologik so'rov usullari ham mavjudki, ular shubhasiz, san'at taraqqiyotiga, estetikaning san'at sohasida to'g'ri yo'nalish tanlashiga ko'maklashadi.

Estetikaning dinshunoslik bilan aloqasi alohida diqqatga sazovor. Chunki din va san'at doimo bir-birini to'ldirib keladi va ko'p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo'lib maydonga chiqadi. Buning ustiga, har bir umumijahoniy dinning «o'z tasarrufidagi» san'at turlari bor: buddhachilik uchun-haykaltaroshlik, nasroniylik uchun-tasviriy san'at, musulmonchilik uchun-badiiy adabiyot. Shuningdek, barcha umumijahoniy dinlar o'z ibodatxonalarini taqozo etadi. Ibodatxonalarining esa me'morlik san'ati bilan bog'liqligi hammanizga ma'lum. Umuman olganda, dinlar deyari barcha san'at turlari bilan aloqadorlikda ish ko'radi. Asrlar mobaynida, ana shu aloqalar natijasi o'laroq, san'at asarining o'ziga xos ko'rinishi-diniy-badiiy asar vujudga keldi. «Abu Muslim jangnomasi», Shohizinda me'morlik majmuidagi inshootlar, Kyohn jomesi, Rembrandtning «Muqaddas oila» asari, hindi-Xitoy mintaqasidagi Buddha ibodatxonalari ana shunday diniy-badiiy asarlardir. Ularda diniy g'oyalar badiiyat orqali ifoda topgan. Estetika bunday asarlarni tadqiq etar ekan, albatta, dinshunoslik bilan hamkorlik qilmay iloji yo'q: u o'sha diniy g'oyalarning mohiyatini, har bir umumijahoniy dinning san'at oldiga qo'ygan talablarini yaxshi bilmog'i va hisobga olmog'i lozim.

Estetikaning pedagogika bilan aloqasini biz tarbiya muammolarining hal qilinishida ko'ramiz. Chunki pedagogika ham ma'lum ma'noda estetik tarbiyabylan shug'ullanadi. Lekin bu tarbiya alohida-alohida, mustaqil qismlarga bo'lingan holda, turli yosh va sohalar uchun maxsus belgilangan tarbiya tarzida, ya'ni muayyan, aniq chegaralarda olib boriladi. Masalan, maktabgacha tarbiya, o'quvchilar tarbiyasi, sportchilar tarbiyasi v. h. Pedagogika ana shu soha va yoshlar bo'yicha olib borilayotgan estetik tarbiya muammolarini o'rganadi. Estetika esa estetik tarbiyaning umumiy qonun-qoidalarini ishlab chiqadi, ya'ni, inson tug'ilganidan boshlab, to o'lgunigacha bosh o'rnatgan bosqichlar uchun umumiy bo'lgan tarbiya falsafasi sifatida ish ko'radi. Demak, rus nafosatshunosi M.Kagan aytganidek, pedagogika tarbiya borasida taktik tabiatga ega bo'lsa, estetika uning strategiyasidir.

Shuningdek, estetika semiotika-belgilar va belgilar tizimi haqidagi fan bilan ham aloqador. Chunki san'at asari belgilar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, harflar, notalar v.h. Boshqacharoq qilib aytganda, bilish va baholash faoliyati natijalarini, ya'ni se'Maniq va pragmatik axborotni o'zida mujassam qilgan san'at asari ayni paytda o'sha axborotni yetkazib berishga ham mo'ljallangan. Ana shu - san'atning belgi bilan bog'liq tomonini, kommunikativ-vositachilik jihatini semiotika o'rganadi. Ayni paytda, fanimizda tuzilmali-semiotik estetika deb atalgan nazariya ham mavjud. Unda san'at maxsus til yoki belgilar tizimi, alohida san'at asari esa ana shu tizim belgisi yoki o'sha tizim belgilarining izchilligi ifodida olib qaraladi. Zero bunda belgi san'at asarini idrok etuvchiga yetkazib beruvchi hodisa tarzida o'rganiladi.

Bundan tashqari, estetika kibernetika, ekologiya va yuqorida aytilgan tuzilmalardan, barcha san'atshunoslik fanlari bilan ham yaqin aloqadorlikda ish olib boradi.

4. Har bir faning inson va jamiyat hayotida o'ziga xos amaliy ahamiyati bor. Estetika ham bundan mustasno emas. Fanimiz, avvalo, kundalik hayotimizda estetikatarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish borasida katta ahamiyatga ega. Lekin, demokratik jamiyatimizning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his

etadigan, uni asraydigan estetik did egalari bo'lishlari lozim; haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, «omnaviychilik san'ati»ni rad qila olishlari lozim. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, estetik jamiyatning barcha a'zolari uchun muhim ahamiyatga ega.

Estetikaning, ayniqsa, badiiy asar ijodkorlari uchun amaliy ahamiyati katta. Chunonchi, biror bir san'at turida ijod qilayotgan san'atkor birinchi galda, ma'lum ma'noda, o'z sohasining bilimdoni bo'lishi kerak. Deylik, bastakor notani bilmasdan, musiqali asar yaratish qonun-qoidalaridan, shu jumladan, musiqaga ham taalluqli bo'lgan estetikaning umumiy qonuniyatlardan bexabar holda tuzukroq asar yaratishi dargumon. Ba'zilar dahlo san'atkorlar qonun-qoidalarisiz ham ijod qilaveradilar, degan noto'g'ri tasavvurga egalilar. Vaholanki, daholarning o'zlari ko'p hollarda estetika nazariyasi bilan shug'ullanmaganlar. Misol tariqasida, Jomiy, Navoiy, Leonardo da Vinchi, Shiller, Vagner, Shopen kabi buyuklarning nomlarini eslashning o'zi kifoya qiladi.

Badiiy asarni tadqiq etuvchi olimlar, tanqidchilar-san'atshunoslar va adabiyotshunoslar uchun ham estetikani bilish zarur. Deylik, «sof teatr» - faqat sahna san'atining yaxshi bilgan san'atshunos u qanchalik iste'dodli bo'lmasin, yuksak talab darajasida tadqiqot olib borolmaydi, hatto e'tiborga molik maqola ham yoza olmaydi. Chunonchi, u dramaturgiyadan, musiqadan, uslub va kompozitsiya qonun-qoidalaridan, bir so'z bilan aytganda, estetik qonuniyatlardan xabardor emas. Natijada uning tadqiqoti, maqolasi yoki taqrizi biryovqalama, falsafiy umumlashmalardan xoli, jo'n va sayoz jumalar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi.

Estetikaning san'atni xalq orasida yoyadigan, targ'ib etadigan tashkilotlar rahbarlari uchun ahamiyati, ayniqsa, muhim. Bordiyo ma'naviyat va matkura sohalariga matasaddi rahbarlar estetikadan bexabar bo'lsalar, Xudo urdi deyavering. O'sha viloyat, tuman, shahar yoki tashkilotlarda yuzaki qaraganda kulgili, latifanamo, aslida esa san'at uchun fojiali holatlar yuzaga keladi. Diqqatlingizni totalitar tuzum davrida bo'lib o'tgan kulgili bir voqegaga qaratmoqchimiz.

Vogeaning ta'siloti qo'yidagicha: viloyat teatrlaridan birida yosh iste'dodli rejissyor ishlay boshlaydi. Dastlab hamma ish yaxshi boradi. Lekin nima bo'ladi-yu, viloyat ichki ishlar boshqarmasining boshlig'i ishdan bo'shatiladi. Sho'rolar tuzumi odatiga ko'ra, nomenklatura odami ishsiz qolishi mumkin emas, kichik bo'lsa ham rahbarlik lavozimiga o'tkazilishi kerak. Oqibatda uni teatrga direktor qilib yuborishadi. Yangi rahbarga teatrdagi o'rnatilgan ish tartibi yoqmaydi - bunday holat unga intizomsizlik bo'lib tuyuladi: qarasa, aktyorlar pesingga yaqin goh pehinidan keyin repetsiyaga kelishar ekan. U rejissyordan hamma yo soat to'qqizdan oltigacha, yoki o'ndan yettigacha ishlashini, sho'rolar davlatida hamma uchun ish soatlari bir xil ekanini uqtirmoqchi bo'ladi. Rejissyor esa, aktyorlar etralabdan uyda, toshoyna qarshisida o'z rollarida mashq qilishlarini, bu yerga faqat repetsiya va spektakl uchun kelishlarini tushuntirishga harakat qiladi. Lekin yangi direktor bu hatti-harakat va gaplarni o'ziga qarshi atayin uyushtirilgan isyon deb tushunadi: teatrdagi, san'at dargohida, ijodiy jamoada o'ziga xos, istisnoli qonun-qoidalar borligini xayoliga ham keltirmaydi. Natijada ikki oydan ortiq vaqt mobaynida aktyorlar «intizomsizligi» uchun maosh olmaydi, ish orqaga qarab ketadi. Nilhojat, yuqoridagilarga bu gap yetib borgach direktor almashiriladi. Ayur sobiq militsiya rahbari o'zgina estetikadan xabardor bo'lganida, teatrdagi hamma asab buzatirlar ro'y bermagan, o'zi ham hammaga kulgi bo'lmas edi. Bunday misollar, afsuski, boshqacharoq shakllarda hozir ham jamiyatimizda uchrayotiradi.

Dizaynerchi-injenerlar, atrof-muhitni obodonlashtirish bilan shug'ullanadigan mutaxassislar faoliyatida ham estetika muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, korxona rahbarlari, sex boshliqlari mazkur korxona yoki sexda dasgohlar dizaynidan tortib, devorlar ranglari-yu, «ichki gulzor»larning joylashtirilishigacha estetik qonun-qoidalari asosida bo'lishini ta'minlashlari lozim. Zero o'shandagina ular joyida mehnat unumdorligining oshishi tabiiy. Buning uchun esa mazkur rahbarlar estetikadan albatda xabardor bo'lishlari shart.

Ummuman olganda, estetika hamma uchun ham zarur. Chunki inson zoti bari-bari, hayotda tez-tez san'at asarini idrok etuvchi sifatida maydonga chiqadi. Deylik,

siz Samarqandga «sayohat qilib kelgan» bordingiz. Agar estetikadan bexabar bo'lsangiz, Go'ri Mir maqbarasining gumbaziga, Registonidagi madrasalar yonida qad ko'targan minoralarga, peshloqlardagi ko'lma arabiy yozuvlarga qiziqib qaraymiz, chiroyli ekan deb mamnuniyat hosil qilasiz. Bordi-yu, aksincha, estetika ilmidan xabardor bo'lsangiz, u holda na faqat ularning chiroyliligini, balki gumbaz shunchaki gumbaz emas, Xudo go'zalligining ramzi ekanini, «jamo» deb atalishini, minoralar-Tangri qudratining timoli o'laroq «jalol» deyilishini, ulug'vorlik ramzi ekanini peshloqlardagi go'zal yozuvlar - oyalar, Xudoning belgisi «sifat» deb nomlanishini eslaysiz va olayotgan taassurotingiz bir necha barobar kuchayadi, falsafiylashadi. Zero estetika orqali biz faqatgina ko'rganlarimizning shakliy go'zalligini emas, balki ayri paytda shakl bilan birga uning falsafiy mohiyatini ham idrok etamiz. Shu sababli fermerga yoki temir yo'l ishchisiga, yoki tijoratchi-tadbirkorga estetika haqida bosh qotirib o'tirish zarur kelbdimi, degan gaplar xato va zararlidir.

Yuqorida ko'rib o'tganlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ladi, bugungi kun estetika fani oldida ulkan vazifalar turibdi. Zotan biz qurayotgan fuqarolik jamiyati a'zosi har jihatdan kamol topgan, yuksak estetik did egasi bo'lmog'i lozim. Qolaversa, hozirgi mashinasozlikni, aviasozlikni, unuman, sanoatni zamonaviy dizaynsiz tasavvur etish mutlaqo mumkin emas. Bunda bevosita texnika estetikasining ahamiyati katta. Bulardan tashqari, ayniqsa yoshlarning estetik tarbiyasiga alohida e'tibor berish-zamonning dolzarb talabi bo'lib bormoqda. Shu bois «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillaridan biri: «Ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish», deb aniq belgilab qo'yilgani bejiz emas.

Estetikaning asosiy kategoriyalari

Zero, go'zallik-estetikaolamining mag'zi, bosh xossasi, mohiyati, asosini tashkil qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, estetika, estetika, go'zallik falsafasi tarzida ham talqin etib kelinadi.

Go'zallik muammosiga murojaat etgan barcha mutafakkirlar go'zallik haqida fikr yuritib va uni tadqiq qilish nihoyat darajada mashqatli masala ekanligini doimo ta'kidlaydi. Mazkur qiyinchilik, birinchi navbatda, go'zallik tushunchasining o'zaro hech bir umumiyligi bo'lmagan turli-tuman hodisalarning keng doirasiga taalluqliligi bilan bog'liqdir.

Go'zal bo'lgan, ya'ni bizda ijobiy tuyg'u qo'zg'atgan narsani ko'rsatib berish nisbatan ancha oson. Lekin nima uchun mazkur narsa go'zal ekanligini tushuntirib berish ancha mushkul. Xuddi shu tarzda go'zallik muammosiga falsafiy yondoshish tarixan shakllangan.

Go'zallik bu voqe'lik (tabiat, jamiyat, san'at) hodisasi bo'lib, aniq hissiy ta'sir o'tkazish orqali insonda jismoniy va ma'naviy kuchlar oqimining ko'payishiga, ahvoldik, zavqlanish, to'la ma'naviy qoniqish holati vujudga kelishiga imkon yaratadi. Go'zallik doimo foydalidir, lekin bu foydalilik jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga mo'ljallangan bo'ladi. Va nihoyat, go'zallik, Shillerning o'rindi iborasi bilan aytganda, inson ozodligining ramzi sifatida ifoda topadi. Mustaqil Respublikamizda erkin ma'naviyati shaxs tarbiyasi muhim vazifaga aylangan (buxiy bir sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi. Go'zallik cheksiz xilma-xillikka ega bo'ladi. Tabiatdagi go'zallik ijtimoiy hayot go'zalligidan, foydali amaliy (ho'lyatidagi go'zallik badiiy ijodidagi go'zallikdan farq qiladi. Lekin go'zallik qonchalik o'zining rang-rangligi bilan ajralib turtmasin, ularning barchasi qandaydir umumiy tub belgilarga ega bo'lib, mana shu umumiy tub belgilar tufayli ularning barchasini maxsus ilmiy-falsafiy istiloh-go'zallik tushunchasi orqali talqin etish imkoniyati mavjud.

Inson hamma yerda va har qanday darajada mavjud tabiiy hamohanglik bilan to'qnashar ekan, u albatta tabiatning go'zalligidan zavq-shavq oladi, ongli yoki anglanmagan holda sevinadi, ma'naviy boylik orttiradi. Inson tabiatdagi u yoki bu davr, u yoki bu ijtimoiy guruh ijtimoiy orzusiga muvofiq keladigan hodisalarni go'zallik sifatida baholaydi. Hamma vaqt tabiatga estetik munosabat va tabiatni estetik o'zlashtirish uni «insoniyashtirish», tabiat hodisalariga inson talab-ohiyotlarini, maqsad-orzularini tadbiq etish bilan bog'lanib ketgan. Shu

munosabat bilan bu yerda aloqili yozuvchilarni tabiat manzaralari tasvirini rangorang bo'yoqlarda inson qiyofasi, orzu-umidlari, intilishlari bilan uzviy-badiiy bog'lab ifodalashlarini eslatib o'tish o'rindir. (Oybekning «Navoiy» romani boshlanishi, qodiriyning «Higan kunlar» romanidagi Otabekning Marg'ilonga borib kelishi badiiy tasvir shular jumlasidandir).

Insonda tabiatga qanday munosabatta bo'lish tuyg'usi birdaniga paydo bo'lmagan, albatta, u sekin-asta, inson zoti va tabiati rivojlanib borgan sari shakllanib borgan, ibtidoiy san'at manzarali tasvirlarni bilmagan, tabiat hodisalarining go'zal yoki hunuk ekanligini baholamagan, qadimgi ovchi-musavvir o'z diqqat e'tiborini asosan tirikchilik manbai bo'lgan narsalar, voqea hodisalariga qaratgan edi. (Omon-qo'ton, Zarautsoy, Xojikent, Panjikent va boshqa qo'ya rasmlarni eslang). Hsha paytlarda inson faoliyatining asosiy turi bo'lgan ovchilik o'miga u yoki u bilan yonma-yon dehqonchilikning paydo bo'lishi bilan, ya'ni inson atrofidagi tabiatni o'zlashtira boshlashi bilan tabiat boshqacha jittimiy orzu mezonlari bilan baholanadi, o'lganadi, inson uchun tabiatning go'zallik va xunuk tomonlari ayon bo'la boshlaydi. Inson kuch-qudratiga nisbatan tabiat kuchlarining qudratligi tabiatni estetik o'zlashtirishning dastlabki bosqichini belgilab berdi. Birinchi paytlarda u o'zida go'zallik va foydalilik tomonlarining teng-barobar bo'lishini o'zida ifodaladi. Odamlar qurg'ogchilikka qarshi mashaqqatli kurash olib borgan davrlarda yer yuzida suv bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa go'zallik kasb etadi. Yil davomida ko'pchilik kunlar yog'ingarchilik bilan o'tgan yerlarda quyosh eng go'zal hodisa sifatida qabul qilindi. Tabiatdagi go'zallikka manfaat nuqtai nazaridan yondoshish, odamlarning hozirgi kunda ham asarlari va oddiy ariklarga berayotgan bahosidan qarama-qarshi his-tuyg'ularga ko'rinadi. Bir vaqtning o'zida ular ikkalasi ham jon og'ritib chiqishlariga qaramay, odamlar uchun asarlari go'zallik, oddiy ariklari hunuklik tasavvurlari bilan bog'langandir.

Go'zallikni yuksak darajadagi foydalilik tarzida idrok etish tushunarli, albatta. Lekin bunday qarash go'zallikning ko'rinishlaridan faqat bittasini o'z ichiga oladi. Biz yashab turgan asrda insoniyat ulkan vayron qilish qudratiga ega

bo'lgan ishlab chiqarish kuchlariga ham ega bo'lib qoldi. Shu narsa aniq-ravshan bo'lib bormoqdiki, tabiatga faqat moddiy manfaatdorlik nuqtai nazaridan munosabatta bo'lish butunlay istiqbolsizdir. Insoniyat hozir tabiatni, atrof-muhitni himoya qilib, undan ogil tarzda foydalanib, ayni vaqtda, tabiiy hamohanglik sirilari ichiga yanada chuqur kirib borib, o'ziga uning yangidan-yangi mo'jizalarini ochmoqda, undan ta'lim-saboqlari olmoqda. Insoniyat tabiat ustidan qozongan g'alabalarini mutlaqlashtirib maqtanish o'miga endilikda tabiat bilan o'zaro aloqadorlikda, ittifoqda bo'lish tomon intilmoqda. Bu holatni Chingiz Aytmatov o'zining mashhur «Kunda» «Plaxa» romanida juda ishonchli tarzda badiiy bo'yoqlarda ifodalay olgan.

San'atdagi go'zallik hayotdagi go'zallik in'ikosi bo'lib, uning bitmas-tugamas manbai-voqelikdir. Go'zallik yaratuvchi ijodkorlardan biri aytganidek, ijodkorning boshqa odamlardan farqi shundaki, u boshqalar fahmay olmagan go'zallikni hamma yerda ko'ra bilish qobiliyatiga egadir.

Tabiatga, insonga, insoniy munosabatlarga ko'pincha biz san'atning buyuk ijodkorlari ko'zi bilan qarashga o'rganib qolganmiz. Bizni hayratga soladigan, qizaytab tabiat hodisalari bilan to'qnashganimizda beixtior: «Qanday go'zal, Xuddi Van Gogdagidek-a, (Levitandagidek, Rembrandtagidek, Goyyadagidek va h.)» deb xilob qilamiz. Bunday hayratli holatga kelish tasodifiy emas.

San'at hayotning beqiyos boyligini va xilma-xilligini, go'zallik va hunuklikni, yuksaklik va pastkashlikni aks ettirishi hamda bu vazifasini aniq estetik orzu mavqeida turgan holda amalga oshirishi lozimdir.

San'atdagi go'zallik ko'p qirrali, ko'p o'lgan tomonlarga ega bo'lib, ular orasida estetik orzu belgilovchi ahamiyat kasb etadi. San'at go'zal va hunuk hodisalarni aks ettirishi mumkin. Lekin uning o'zi hamma vaqt ham go'zaldir, chunki u o'z tarkibiga ajralmas qism sifatida estetik orzu, ya'ni go'zallikning zaruriy hossasini singdirgan tasavvurni anglatadi.

San'at o'zining barcha taraqqiyot bosqichlarida estetik orzu o'lganuvchanligini, uning ijtimoiy va milliy jihatlaridan bog'liqligini nozik va nozik ifodalab bergan. San'atda qaror topgan estetik orzuning asosiy mazmunini

inson go'zalligi haqidagi turti davr odamlari, millatlar, ijtimoiy guruhlar tushunchalari bo'yicha uni qanday qiyofada ko'rish istaklari mavjudligi to'g'risidagi tasavvurlar tashkil etadi.

Ko'p asrlar davomida san'at estetik orzuni ro'yobga chiqarishning ikki asosiy yo'nalishini ishlab chiqqan. Uning birinchisi-estetik orzuni ijobiy qahramon timsolini yaratish orqali ro'yobga chiqarish yo'li yo'li tashkil etadi. Ijobiy qahramon-ijodkor estetik orzusining, u orqali jamiyatning namoyandasi.

Ilg'or orzu-ideallarni ularga qarama-qarshi hayot hodisalarini tasvirlash orqali qaror topirishning ikkinchi yo'li ham birinchisidan samarali va estetik ahamiyatidir. Buyuk so'z ustalaridan biri san'at orzu (ideal)dagi odamlarni emas, balki ijodkorning o'zida orzu bo'lishini taqozo etadi, deb haq gapni aytgan edi. Shunday orzu bo'lgan taqdirda eng mudhish, hunuk, tuban hayot hodisalarini tasvirlash ham san'at asarlarining ijobiy estetik qiymatini tashkil etadi.

San'at go'zalligi uning haqqoniyigidan ajralmagan holda qaror topadi. Badiiy haqiqat siz san'atda go'zallik bo'lishi mumkin emas. haqiqat va go'zallik birligi san'at taraqqiyotining qonuniyatlaridan biridir. Mazkur qoidani nozik fahmlash, ifoda qilarg ekan, Shekspir o'zining sonetlarida biri: «Go'zallik qimmatli haqiqat bilan yakunlanib, yuz chandon go'zallik kasf etadi», - deb yozgan edi. Go'zallikni hayot haqiqatidan ajratib tashlashga har qanday urinish san'atga halokati ta'sir qilib, uning ahamiyatini pasaytiradi.

San'atdagi go'zallikni haqli ravishda shakl va mazmun birligi bilan bog'lab mushohada etadilar. Kamolotga, go'zallikka intilish ko'p jihatlardan eng muvofiq shaklini izlab topish bilan bog'liq bo'lib, bu shakl yaratilish narsaning mazmuniga mos kelishini taqozo etadi. Go'zallik qonunlari bo'yicha yaratish mutanosib shakl izlab topishni o'z ichiga oladi.

Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan hulosa yasab shuni aytish mumkinki, san'atdagi go'zallik, uning kamolot darajasi ko'p tomonli, murakkab tizim bo'lib, uning tarkibiy qismlari sifatida tasvir ob'ektning go'zalligi, estetik orzuning haqqoniyligi va ilg'orligi, voqelikni bilishning haqiqiy va chuqur mazmunder ekanligi, badiiy mahoratning yuksakligi namoyon bo'ladi. Mazkur

omillar orasida estetik orzu o'zining haqqoniyligi, demokratiqligi, insoniyligi bilan belgilovchi, sistema tashkil etuvchi ahamiyatga molikdir.

Ulug'vorlik-estetik va axloqiy mezonlar bilan bog'lanib, nihoya darajada yuqol va bevosita amal qidadigan estetik tushunchani tashkil etadi.

Ulug'vorlik ko'lamli go'zallik ko'lamdek cheksiz va benihoyat. Ulug'vorlik tabiatda, jamiyada, inson ishlarida, uning faoliyat mahsulotlarida jamlangandir. (Ulug'vor narsalarning, hodisalarining hammasiga hos bo'lgan umumiylik-ularning me'yoriy barkamolliqligi, goho behadliqligi cheksizligidir.

Ulug'vorlik kategoriyasi odamlar uchun alohida ahamiyatli hodisalar sirasiga kiradi. Bunday hodisalar mohiyatan shu qadar keng ko'lamli, ular ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida to'la o'zlashirilishi mumkin bo'lmaydi, shuning uchun odamlarni faol harakatga, o'zlaridagi ijodiy imkoniyatlarni ishga solishga doimo rag'batlantiradi.

Tabiatda ulug'vorlik baland tog'lar, qudrati sharsharalar, cheksiz okcanlar, moviy mavj urayotgan dengizlar, tubiz osmon va h. k. timsolida namoyon bo'ladi. Bu yerdagi umumiylik- ularidagi kengko'lam, ulkanlik, buyuklik, tuganmaslikdir. Tabiatdagi ulug'vorlik insonda zaiflik emas, balki tabiat bilan uyg'unlikka intilish hissiini uyg'otadi.

Ulug'vorlik hissi o'z-o'zidan estetik mazmunga ega bo'lmagan quvonch, hayratlanish, ehtirom, tan berish tuyg'uylarini o'z ichiga qamrab oladi. Bularga bu zida qo'rguv ham qo'shildi, lekin u insonni kamstimaydi. Balki to'siqlarni yengib o'tishga turki beradi.

Ulug'vorlik hissi umuminsoniy, umumiy belgilari bilan birga ijtimoiy shartlangan, aniq-tarixiy tabiatga ham molik bo'ladi. Ulug'vorlikka, ijtimoiy hayotga tarixiy taraqqiyotga alohida ta'sir o'tkazuvchi hodisalar va jarayonlar ham kirtilishi mumkin. Ijtimoiy hayotda ulug'vorlik bilan qahramonlik, madrik shu qadar qorishib ketadiki, ularni alohida-alohida mushohada etish ulug'vorlikning asosiy mazmunidan mahrum qilib qo'yish bilan barobar bo'lar edi qahramonlikda ulug'vorlikka hos estetik va axloqiy birlik ayniqsa to'la va bevosita namoyon

bo'lad. halq fidoiylari, elu-yurt jonkuyarlarining qiyofalari bir vaqtning o'zida ham ulug'vor, ham ustivor namoyon bo'ladi.

Bundan 30-40 yil oldin ulkan zavod, fabrikalar korxonalarning ko'piga bo'y cho'zgan trubalari tutunlari hayotdagi ulug'vorlik tarzida in'ikos etilardi. Insonga bo'yisundirilgan tabiat qiyofasi ijtimoiy ongimizga singdirilar edi. Inson-tabiat ustidan, shaxs-to'da ustidan musobaqada ilg'or uchuvchi, konchi, sut sog'uvchi, olim, ishchi-halq ustidan mana shularning hamma-hammasi yaqin kunlardagi bizning ulug'vorlik orzuimizni tashkil qiladi. Bularning hammasi boshliqlar o'zboshimchaligi, yoppasiga fidoiylilik, yalpi va yakka hokimiyatchilik davlatning shaxs usidan buyruq hukmi zaminida vujudga kelgan ijtimoiy tuzum-sistemasi uchun achchiq mevalaridir. Tabiat ustidan hukmronlik o'rni u bilan hamohang bo'lish, ommaviy qaror, yalpi rozilik o'rni ijtimoiy faol, tashabbuskor, ijodkor shaxsni shakllantirish bugungi kundagi ulug'vorlik orzusining asosiy mazmunini tashkil etadi. Ulug'vorlik o'zining har tomonlana ijodiy ifodasini san'atda topadi, uning barcha tur, xil va ko'rinishlar uchun ulug'vorlik mavzui asosiy tasvir ob'ektlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Qahramonlik dostonlari, lirik dostonlar, qahramonlik fojiasi, qahramonlik musiqa asarlari (simfoniya, oratoriya), me'morchilik va yodgorlik san'ati ko'rinishlari ulug'vorlikni badiiy kashf etish jarayonida vujudga keldiradi.

Ulug'vorlik me'morchilikda alohida ahamiyat kasb etadi. Mistr ehromlari, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi me'morchilik obidalari, yunonlarning Partenoni, rimliklarning Kolizeyi o'rta asr gotik bosh cherkovlari, rus cherkov me'morchiligi uchun eng yaxshi namunalari, Rossi, Rastrelli kabi me'morlar yaratgan go'zal binolar mustaqil O'zbekistondagi tarixiy obidalar, o'zlarining salobati, ulug'vorligi bilan kishini hayranda qoldiradi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, ulug'vorlikka faqat hajm o'lchovi bilan erishilmaydi. Agar ayrim obidalar (Bobil minorasi, Minorai Kalon, Mistr piramidalari va sh. k.) o'zlarining miqyoslari ko'lami bilan hayron qoldiralar, boshqalar o'zining alohida nafisligi, nozik ifodasi, hamohangligi, yuksak ruhangarligi, atrofmuhiti bilan uzviy qo'shilib ketganligi bilan alohida ahamiyat

kasb etgan. (Go'ri amir, Shohizinda, Ichon qal'a, Registon maydoni, Mir Arab madrasasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Minor, Bola hovuz machiti va b.) me'morchilik asarlari ulug'vorligi bilan insonni hayratlantiradi.

San'atda ulug'vorlik fojealilik bilan ko'pincha yonma-yon turadi va namoyon bo'ladi, sirasini aytganda, bu ikki estetik kategoriya o'rtasida o'ziga xos dialektik aloqadorlik mavjud bo'lib, unda umumiylik va farqli tomonlari ham bordir. Navoiy va Shekspir asarlari, shoshmaqom go'zal me'morchilik obidalari bir vaqtning ham ulug'vorlik, ham fojealilik ruhi bilan sug'orilgandir. Samarqandning Registon maydonidagi madrasalar, shubhasiz, ulug'vor bo'lishlari bilan birga hech qanday fojeali his qo'zg'atmaydilar. Shekspirning Makbet xonim qiyofasi fojeali, lekin u hech ham tomoshabinida ulug'vorlik tuyg'usi tug'dirmaydi. Muhim ahamiyatli g'oya yuksak ruhangar, mukammal shaklining zarurligini yuzaga keltirib, san'at asarining buyuklik darajasini belgilab beradi. Bu holat hayotiy haqiqatni qochishga emas, unga xizmat qilishga da'vat etadi.

Fojealilik muammosi har doim falsafiy va estetik tafakkur e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Fojealilik tabiat to'g'risida fikr-mulohaza bildirmagan biror bir mutafakkirni topish amri mahol bo'lsa kerak, chunki fojealilikda voqeyi hayotning eng muhim, chuqur ziddiyatlari va to'qnashuvlari hayot va o'lim, ozodlik va zarurat, aql va tuyg'u, qonun va burch, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar kurashi namoyon bo'ladi.

San'atdagi fojealilik haqida fikr yuritganimizda san'atdagi fojeali ohanglar, fojealilik san'ati va nihoyat fojealilik-san'at turi kabi muammolar alohida muahohada qilinishi lozimdir.

Deyarli barcha ulkan ijodkorlar yaratgan asarlarda fojeali ohanglar mavjudligini juda ko'p misollarda ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, M. Shaxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» va «Mirzo Ulug'bek» asarlarida fojeali ohanglar boshdan oxiriga qadar sezilib (eshitilib) turadi. Mazkur dramalar maxsus fojea asari sifatida yaratilmagan bo'lsa ham, aslida, fojeali ohanglar ularda ustivor darajada ifodalangandir. San'atda fojealilik to'qnashuvlari, vaziyatlarni eng to'la va chuqur badiiy in'ikos etish ehtiyojidan kelib chiqadi. Sofokl fojea asarlari

Shekspirmikidan, Shekspir asarlari Rasimikidan, Rasimiki Vishnevskiyikidan qanchalik farqlanmasin, ular o'rtasida umumiylik, bari-bir, mavjuddir.

Har qanday fojia zaminida alohida fojiali to'qnashuv yotadi va uning eng muhim tomoni bo'lib ko'lamlik, ijtimoiy ahamiyatlik xizmat qiladi. Hegel fojialilikni bekorga mohiyatli kuchlar to'qnashuvlarining natijasi sifatida ta'riflagan emasdi, chunki bu to'qnashuvlar kurashining qanday tugallanishi bilan insoniyat istiqboli, taqdiri bog'lanib ketgan bo'ladi. Bu hol fojiani san'atning falsafiy jihatidan eng ulug'vor turiga aylantiradiki, unda ijodkor insoniyatni butun tarixi davomida hayajonlantiradigan tub masalalarni o'z oldiga qo'yib, hal qilishga intiladi.

Fojia qahramoni ko'pincha ijobiy tusda tasvirlanadi, u o'z davrining ijobiy orzu-umidlari, u yoki bu qiralarini o'zida mujassamlashtirgan kuchli, yorqin, ulug'vor shaxsni namoyon etadi. Lekin fojia to'qimasida boshqa turdagi qahramonlar ham aks ettirilgan bo'lib, Shekspiring Makbet va Riyaard Sh. Brexting Kuraj-onaga o'xshash qahramonlari o'z taqdirilari bilan tomoshabinda o'z ta'ziddiyatli his-tuyg'ular qo'zg'aydi. Ular sodir qilayotgan mudhish kirdikorlari qat'iy norizilik, ayrim vaqtda hatto jirkanish va dahshat vujudga keltiradi. Shuning bilan birga ularga achinasan kishi, chunki qabih, jirkanch sharoit ta'siriga tushib, ular o'zlaridagi go'zal insoniy xislat-fazilatlardan ham begonalashganligini anglaysan.

Odaida fojia mazmunida qahramonning mavjud shart-sharoitlarni tubdan o'zgartirishga faol intilishi namoyish etiladi. Fojia qahramoni bu yerda fojiali dramatik harakatning asosiy sub'ekti sifatida amal qiladi. Shuning uchun fojia qahramonining faolligi, o'z orzu-irodasini, hatto o'zini qurbon qilib bo'lsa ham barqaror etishga intilishi uning mohiyatli belgisini tashkil etadi. Hozir irodasini o'rnatishga intilishida u tarixiy imkoniyatsizlik bilan to'qnashib, xuddi mana shu to'qnashuv, mazkur tarixiy sharoitlarda yechimsiz qolib, fojiani yuzaga keltiradi. Yuksak fojia qahramonining mashaqqatli azob-uqubatlari bilan bog'langan bo'lsada, ko'pincha asar uning halokati bilan tugallansada, bari-bir qayg'u va mayuslik emas, balki yashash va kurash istagi, bu kurashda o'quvchi va

tomoshabinda o'zining halok bo'lishini bilib turgan inson uchun g'urur tuyg'usi qo'zg'aladi. Inson ulug'vorligini tarannum etish hammadan ham ko'proq va yorqinroq san'atning fojia turida ifoda topgandir. Fojiaiylik san'atda rang-barang uslublarda talqin etilishi mumkin. Fojia uslubining umumiy belgilari qatoriga keng umumlashmalarga intilish, mazmun boyligi va teranligi yaxlitlik, hayajon va ehtirolarning yuksakligi kabilar kiradi.

Fojia tarixiy davrning buriilish paytlarida, eski ijtimoiy aloqalar va munosabalar bartod bo'lib, eski siyosiy qarashlar, estetik va axloqiy aqida-qoidalar mashaqqatli qayta baholanayotgan sharoitlarda ravnaq topadi. Fojieaning tarixiy shakli-qadimgi dunyo fojiasi (Esxil, Sofokl, Evripid) eski patriarxial turibotlar yemirilib, tarixda birinchi sinfij jamiyat o'rnatilishi jarayonida vujudga keldi. Unga xos bo'lgan «qismat o'zgarishi» tabiiy va ijtimoiy qonunlar haqidagi tasavvurlarni aks ettirdi.

Qadimgi dunyo odamlari tasavvurlarida insonning qudrati «qismat» oldindan belgilab qo'ygan balo-ofatlari bilan to'qnashuvi uni muqarrar tarzda halokatga olib keladi. Lekin qadimgi fojia asarlarida ifoda topgan fojiali in'likos etilish qismatning taqdir ustidan hukmonirigini anglatmaydi. Yunonlar insonning azob-uqubatlari uchun ma'suliyatni uning o'ziga yuklab, katta madlikka jur'at etdilar. Zero azob-uqubatlarning tub sabablari inson irodasi va imkoniyati chegarasidan tashqarida ekanligini yaxshi sezgan bo'lsalar kerak. qismat bilan taqdir insondan kuchli deb uqtirgan holda, yunon fojiaiy san'ati tomoshabini unga tan berishga emas, balki u bilan kurashishga chaqiradi.

Fojieaning ravnaqi Uyg'onish davrida boshlangan bo'lib, bu vaqtda abadiy va qulamaydigan ko'ringan feodal munosabalar zaminini yemirila boshlagan edi. Insonga, his-tuyg'uli voqealarga mensimay qarash o'rnatilgan insonni ulug'lash, uning cheksiz imkoniyatlarini kuyilash insonparvarlik falsafasi qaror topdi.

Uyg'onish davri fojiasi endi yangi tarixiy vaziyatni, qadimgiga nisbatan boshqa shaxs mavqicini ifodalaydi. Agar qadimgi fojieda shaxs hali o'zini jam'iyatdan ajratmagan va shuning uchun u yoki bu axloqiy g'oya namoyondasi sifatida amal qilgan bo'lsa, endi Uyg'onish davri fojiasida shaxsiy ehtirol va iroda

bosh ohang sifatida jaranglaydi. Tarki dunyo azobidan, o'rta asr tabaqaviy cheklanganligidan ozod bo'lgan inson o'z irodasini, o'zligini o'rnatishga unga hali ham qarshi turgan voqealik bilan to'qnashadi, oshqada odamlarning orzuva intilishlari bilan muqarrar kurashga kirishadi. Bu yerda qismat va taqdirga endi o'rin qolmaydi, fojia manbai-insomning o'zi, uning yer kurassidagi hayoti, o'z maqsadi sari intilayotgan odamlar to'qnashuvi, ular boshqalarga va o'zlariga nisbatan sodir qiladigan yovuzliklardir. Shunday ziddiyatli qarama-qarshiliklarga boy Uyg'onish davri fojiasi o'zining eng to'la va badiiy qudratli ifodasini Shekspir ijodida topdi.

Shekspirda fojialilik butun hayotni, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni qamrab oladi, lekin ularning barchasida inson shaxsi to'laqonli ravishda ifodalanaadi. Shekspir feodal tartibotlarni inkor etish bilan birga tug'ilib kelayotgan tuzumning g'ayritinsoniy tabiatini ham fahmlab olgan ko'rinadi. Unda fojialilik bir tomondan Uyg'onish davrining yorqin insonparvar orzulari, feodal axloq qoidalari bilan, ikkinchi tomondan yangi asr bilan to'qnashuv natijasida, boshqacha qilib aytganda, O'rta asr vahshiyiligi va burjua yirtqichligi qotishmasi to'qnashuvlari natijasida vujudga keladi.

Shekspir o'zining fojiaiy asarlarida kuchli, jasoratli, g'ururli, erkin inson timsoilini ko'rsatadi. Shekspir o'z qahramonlarining o'zligini saqlashga, inson ruhini sindirib halokatga sudrayotgan tuzum sharoitida ozodlikka intilishini ulkan kuchi bilan namoyon qiladi.

Shekspirning boshqa barcha fojiali qahramonlari orasida hamlet ajralib turadi. Boshqalari Brut bundan mustasno yaxlit tabiatli, o'z ishini haqiqi va hatti-harakatlarining qonuniy ekanligiga qat'iy ishonib, o'z mag'lubiyatlarini fojiali ruh bilan qabul qiladilar. hamlet bo'lsa o'zining halokatga mahkumligini bila turib, bari bir oxirigacha borish uchun hech narsadan qaytmaydi. «Hamlet» fojiasida esa qarama-qarshi kuchlar to'qnashuvi tashqi muhitdan qahramonning ichki dunyosiga o'tkazilgan. Bu yerda Shekspir sahnada bir necha asr keyin keng o'rin egallagan aqliy-ruhiy dramaga yo'l ochib boganligini ko'ramiz. «Hamlet»ning abadiy, mangu siri, uning so'zmas kuchi va ta'sirchanligi undagi

ma'naviy-ruhiy hamda falsafiy boylikning voqealarni yaxlit idrok qilish bilan qo'shilib ketganligidadir.

Hamlet-insonparvar mutafakkir va ayni vaqtda dadil hamda qo'rqmas jangchilamdir. To'g'ri, u fikr-mulohazalarga ko'p vaqt sarflaydi va sustkashlik qiladi. Lekin bu hol tabiatii yumsuhoqligidan emas, balki Klavdiyning o'ldirishi bilan o'sha vaqtda yechimini topilmaydigan «mayib asmi to'g'rilash» vazifasini bajarolmasligiga aqli yetganligidan vujudga keladi. Uning axloqiy g'alabasi-bu qo'rqmas inson tafakkurining g'alabasidir, garchand u qahramonning o'limi evaziga erishilgan bo'lsa ham, buyuk saboq va kelajak avlodlarga vasiyat sifatida idrok qilinadi.

Shekspir yaratgan badiiy qiyofalar faqat keng ko'lami va aniq-butungina bo'lmay, balki harakatchan va ta'sirchanhamdir. Hamlet ham bunday, bu yerda chunki zo'r berib abadiy savollarga javob izlayotgan tafakkur bevosita amal qilayotgan xulq-atvordan kam harakatchan va kam ta'sirchan bo'lishi mumkin emasdir.

Ch. Aymatovning «Kunda» romanini ham fojia asari deyshimiz mumkin, chunki uning asosiy badiiy ohangi, undagi ehtirosli to'qnashuvlar ruhi, ulkan hissiy ta'sir kuchi, qahramonlarining taqdiri jihatlaridan o'ta fojiali ruhdadir. Bu roman-fojicada davrimizda keng tomir yoygan ijtimoiy, axloqiy, ekologik muammolar chuqur qo'yilgan bo'lib, shu tufayli bu asar kutilayotgan fojicadan ogohlantiruvchi qudratli bong ovozi day jaranglaydi.

Gurjiston kinorejissori T. Abuladzening butun badiiy ijodi yuksak fojiaiylik ruhi bilan sug'orilgandir. Ayniqsa, uning kino uchligi-«Iljio», «Istaklar duraxti», «Tavba-tazarru» filmlarida tarixiy aniqlik va siyosiy keskinlik bilan vaqtda o'tilgan holda Abuladze o'ziga xos, ko'proq shartli-g'aroyib shakllar bilan hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik, halollik va sharmandalik, sodiqlik va vafosizlik kabi insoniyatning butun taraqqiyoti bosqichlarida boshni qotirib, ta'biy ishantirib kelayotgan abadiy tub hayot muammolarini fojiali tomonlari bilan yaxlit birlikda ifodalay olgan.

Fojea san'ati insoniyatning doimiy hamrohi, umr yo'ldoshi bo'lishi mumkin degan ilmiy taxminlar bir talay, anchagina, chunki u o'z orzularini ro'yobga chiqarish uchun intilishi, kurashi doimo ob'ektiv tarixiy zaruriyat bilan to'qnashadi, insoniyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichda uning muqarrar tarzda imkoniyatlari tarixiy cheklanganligi san'atda fojicali ohanglar to'g'rilashiga bimas-tugannas zamin vazifasini o'taydi. Lekin shuni ham ilova qilib qo'yish zarurki, chin fojica asari yaratish kamdan-kam ijodkorga nasib qiladigan nodir qobiliyat mahsulidir. U fojica ijodkoridan falsafiy chuqur, ko'lami keng tafakkurni, o'zidan «Asrning barcha holati»(Gegel) ni chig'rig'idan o'tkazishga qobil shaxs ehtiroslarining yuksakligi bilan chambarchas bog'lashni talab etadi, bu esa har qanday ijodkorning harn qo'lidn kelavermaydi.

Kulgililik. Insonning dunyo-voqea-hodisalariga o'ziga xos munosabatlaridan biri-dunyoga kulgili nigoh bilan qarashdir. Bunday qarashni mavjud voqelik va uning beo'xshov tomonlari to'ldiradi.

Barcha tadqiqotchilar bir ovozdan kulgililik kategoriyasining murakkabligi va uni tushunchalar sistemasini anglab, in'ikos etish juda qiyinligidan noliydilar va oghlanitradiar. Masala shundaki, kulgi qo'zg'aydigan hodisalarining be nihoyat ko'pligi, eng muhimi, kulgililik ko'lami hamda chegarasining o'ta harakatchan, qo'nimsiz, o'zgaruvchan bo'lishi natijasida nima, qachin, qacrd, qanday sharoitda kulgi qo'zg'aydiyu, nima, qachon, qacrd, qanday sharoitda kulgini to'xtatadi yoki umuman guligiga olib kelmaydi degan savolga bir mazmununda javob topib bo'lmaydi. Kulgililik ta'rifga, ilmiy tushunchasiga nisbatan ishlab chiqilgan nuqtai najarlar, fikr-mulohazalarining o'ta xilma-xilligi, rango-rangligi shundan kelib chiqqandir. Kulgililikka nisbatan mavjud bo'lgan qarashlarning xilma-xilligi, tabiiyki, nafaqat narsa, hodisa bilan bog'lanibgina qolmay, balki uning ijtimoiy aloqadorligi, go'zallik va kulgililik tushunchalarining u yoki bu talqini bilan bog'langanligidir.

Kulgililik tushunchasi talqinining har biri odardagidek o'zining aniq, oqil mag'ziga ega bo'ladi, kulgililikka haqiqatda ham xos bo'lgan ba'zi tomonlarini ochib beradi, lekin shu bilan birga bir tomonlamalik kasaliga uchrab,

kulgililikning qandaydir bir tomonini bo'rtirib, haddan tashqari oshirib yulboratda keyin uni kulgililikning mutloqoidasiga aylantirishadi.

Kulgililik boshqa estetik hodisalar sugari faqat ob'ektiv tomonga ega bo'lmay, sub'ektiv tomonlarni ham o'zida birlashtiradi. Kulgililikning sub'ektiv tomoni keng ma'nodagi hazil (yunon) tuyg'usidir. (Molier hazil tuyg'usini insonni hayvondan ajratib turadigan xususiyati deb atagan edi.) Kulgililikning sub'ektiv tomoni bo'lgan hazil tuyg'usi shaxsning tabiiy va erkin, bevosita idrok etish natijasida xilma-xil kulgili beo'xshovliklarni ko'rib, anglab, ularga kulgi bilan javob berish qobiliyati ifodasidir. Hazil tuyg'usi juda murakkab estetik tuyg'u bo'lib, unda shaxs o'zining butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi, uning his-tuyg'u va aql madaniyati, orzu-umidlari matni va tabiati namoyish etiladi. Bevosita kulgililik bilan bog'liq bo'lgan kulgi masalasiga shuni ayitishimiz kerakki, u biror bir hodisaning, birinchi navbada, insonning tashqi ko'rinishi bilan uning asl mohiyati o'rtasidagi nomuvofiqlik ziddiyati, boshqacha aytganda, amaldagi voqelik bilan yuksak estetik orzularga mos kelishi kerak bo'lgan voqelik o'rtasidagi muhim tafovutlar, beo'xshovliklar, kelishmovchiliklarni tabiiy anglash natijasida vujudga keladi.

Ba'zi-bir odamlar o'zining paskash, johil, loqayd, xudbin mohiyatini tashqi vqor, olifatlik, takabburlik bilan «bezab» ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bunday odamlarni uchratganda ham kulish, ham achinish mumkin. Kulishimiz manbai bo'lib bu odamlagi mohiyat bilan ko'rinish o'rtasidagi beo'xshovlik bo'lsa, achinishimiz sababi mazkur haqiqatni anglashimizdan, haqiqatni yolg'ondan ajratish qobiliyatimiz mavjudligini kelib chiqadi. Mazkur odamning asl mohiyatini anglash qobiliyatimiz bilan ma'naviy-insoniy jihatdan u odamdan yuqori turish o'yiga ham kelishimiz bizga yoqadi. Kulgi shu tariqa insonni ruhan ko'taradi, unga insoniy g'urur tuyg'usi bag'ishlaydi. qo'rquv bilan kulgi bir-biriga o'ta qarama-qarshi tushunchalar bo'lib, agar inson yaramas va hunuk hodisalar ustidan kulishga o'lganib olsa, u bu illatlardan qo'rqishni tark etadi va ular bilan kurashga bel bog'laydi.

Kulgi o'z tabiati jihatidan demokratik mazmunga ega bo'lib, barcha odamlarni bir-biriga qovushirib baravarlashtiradi, chunki kulishayotgan odamlar o'zaro tenglashadilar. Kulgi eskilik bilan kurashning omilkor vositasigina bo'lib qolmay, balki insonning kuch-qudrati va ozodligi timsoi hamdir. Kulgi beqiyos rango-ranglik, xilma-xil qirralarga ega bo'lib, mayin, rag'batlantiruvchi, hushetl hazil tuyg'usidan tortib, to ayovsiz achchiq istehzoga bo'lgan keng doirada amal qiladi.

Kulgilik o'zining barcha xilma-xil ko'rinishlari boyligi bilan san'atning me'morchilikdan boshqa deyarli hamma turlarida namoyon bo'ladi, lekin o'zining eng to'la bo'lgan estetik ifodasini komediyada topadi.

Komediya mavzuini hayotdagi va insondagi beoxshovliklar, nomutanosiblikdan oladi. Kulgilikning namoyon bo'lish shakllari xilma-xiligi ularning san'atda xilma-xil tarzda aks etishlarini keltirib chiqaradi. Komediya asarlari turlarining xilma-xiligi, rango-rangligi mana shundan kelib chiqadi.

Komediya bilan kulgi egizaklardak bir-biridan ajamaydigan tushunchalardir. Kulgi komediyada tasvirlanayotgan voqea-hodisalar mohiyatini ochib berishning hal qiluvchi vositasi, tasvirlanayotgan ob'ektga nisbatan estetik baholashning va muallif munosabati ifodasining asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi. Komediya san'atida kulgini asosiy estetik vosita qilib ishga solish uning ijtimoiy ahamiyatligini pasaytirmaydi, chunki kulgi dunyoning barkamol emasligini ta'kidlab qolmasdan, balki uni qayta qurib yangilashni ham ko'zda tutadi.

Kulging' komediyada o'ynaydigan maxsus roli ko'p jihatlaridan uning o'ziga xos ijtimoiy burch-vazifalarida ifoda topadi. Komediya, birinchi navbatda, badiiy tanqid va o'z-o'zini tanqid qilishning o'ziga xos shaklidir. Komediylarning asosan tanqidiy yo'nalganligini ko'pincha o'ta soddalashtirib, komediya yomon hulk, yomon odam, yomon hodisalarni to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tuzatishga, yaxshilashga olib keladi deb tushunadilar va tushuntiradilar.

Ob'ektiv kulgilik kulgi qurolli bevosita o'zlariga qarshi qaratilgan odamlarga, ular fahm-farosatiga yetib bormasligi haqida gapirganida Lessing haq fikrni aytgani shubhasizdir. Komediyaning bosh vazifasi utilitar-maishiy mohiyati

emas, balki estetik yo'nalishdadir, ya'ni komediya axloq-odobdan saboq berib qolmay, hayotdagi kulgulilikni ilg'ab olishdagi qobiliyatini o'stiradi, odamlarda hazil tuyg'usi kabi qimmatbaho fazilatni ham rivojlantiradi.

Komediya asarlarining buyuk ijodkorlari estetik baholarining aniqligi va to'g'riligi bilan ajralib turadilar. Ular hech mahal achchiq, savag'ich, istehzoli kulgini faqat mayin hazil va muruvvatli tabassumga loyiq hodisalarga nisbatan bahlamaganlar va aksincha, ayovsiz keskin qoralanishi lozim bo'lgan hodisalarni tasvirlayotganlarida mayin hazil va muruvvatli tabassumdan butunlay yuz o'ylanganlar.

Kulging' badiiy shakllari orasida mashara (satira) alohida o'ringa ega. Ummustetik ma'noda mashara voqelikni badiiy tasvirlash turi bo'lib, unda hayotning salbiy hodisalari ustidan kulish-bunday hodisalar asosida yuksak insonning orzulariga zid ekanligini bo'rtirib ko'rsatish maqsadi yotadi. Mashara san'at har xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Unga lirika ham, epos ham, drama ham yot emas. Shuning bilan birga ifoda kuchining o'ziga xos muqaddarlari va vositalari bilan farqlanadigan san'atning o'ziga xos alohida turini tashkil qiladi.

Mashara markazida doim hayotning salbiy voqea-hodisalari joylashgan bo'lib, butun fosh qilish kuchi ularga qarshi qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun komediya san'atiga xos tanqidiy yo'nalganlik masharada eng to'la va eng aniq ifoda topadi. Mashara asosan kulgi fosh qiladi, lekin u bu yerda qahr-g'azabdan ajralmagan holda namoyon bo'ladi.

Mashara mazmunining xususiyati uning mubolag'a (giperbola) va g'aroyibot (grotesk) kabi keskin bo'rttirish vositalaridan kelib chiqadi.

Bugungi kunda mashara kerak bo'lmay qoldi yoki u o'zining ayovsiz, muruvvat, o'kir ayblovi, fosh qiluvchi yo'nalishidan «mayin mashara», «yumshoq mashara», «muruvvatli mashara» yo'nalishiga o'tib amal qilaversin degan fikr-mulohazalar keng tarqalgandir. Lekin mashara o'tkirliigi va ayovsizligi ulog'itirib tashlansa, unda uning joni ham birga chiqib ketadi hamda uning hech kimga karrigi bo'lmay qoladi. Jamiyat rivojlanib borishi jarayonida mashara

kulgisining ob'ekti bilan birga uning sub'ekti ham o'zgarib boradi. hozirgi davrda umuminsoniy maqsad-manfaatlarning ustivorligi umuminsoniy qadriyatlar vositasida jahon xalqlari hayotidan tobora mustahkam o'rin egallab borayotgan ekan, insoniyatning mana shu bosh taraqqiyot yo'lini to'sadigan barcha chirik, eskirib qolgan, qotib qolgan narsalar, voqea-hodisalar, odamlarning o'tkir va hayotchan masxara ob'ekti bo'lib qolaveradi desak, bu sohada ijod qilayotgan yozuvchi, musavvir, dramaturg, shoirilarga-masxara yaratuvchilarga ham ehtiyoj katta bo'ladi.

Kulgili san'at turlari va xillari orasida hazil tuyg'usi (yumor) ham alohida o'ranga ega. Uning ishtirokisiz biror-bir kulgilik turi amal qila olmaydi, u eng buyuk qadriyat sifatini tashkil etib, unga moyillik ko'rsatgan odamlar, odarda, barcha ulug'vorlik, axloqlilik, olijanoblik his-tuyg'ularining naqadar buyuk va qadrii fazilatlar ekanligini ham chuqur anlaydilar. hayot ikir-chikirlari, kanchiliklarini tanqid qilayotgan ijodkor hazil tuyg'usining yuksak sifat darajasida namoyon bo'lishi hamda shaxs ma'naviy yuksakligining ko'rsatkichi deb insonning nuqsonlar, kulgili tomonlarini faqat boshqalardagina emas, balki o'zida ham topa bilish va ko'ra bilish qobiliyatini ko'rsatadi. hazil tuyg'usi o'zida tanqid bilan o'z-o'zini tanqidni uzviy bog'laydi. U voqelikka hissiy munosabatning alohida shakli sifatida masxarali komediya asarining tarkibiy qismi va ifoda vositasi burchini ham ado etishi mumkin.

Hazil tuyg'usi va voqelikka masxarali munosabat-bu kulgilikning har xil shakllaridir. Lekin hazil ham ijtimoiy-kulgili hayot tomonlarini masxara kulgisidan kam bo'lmagan darajada ochib berishga qodirdir. Faqat bunda hazil ob'ekti g'azablik qoralashdan ko'ra ko'proq achinish, yo'q qilib yuborishdan ko'ra ko'proq yordam ko'rsatish ob'ektiga aylanadi. Shekspir, Lope de Vega, Chehov kabi yozuvchilarning komediya asarlarida hazil tuyg'usi masxara kulgisidan ustun darajada ifodalangan, lekin shunga qaramay, ularning hazili o'tkir kучga ega.

Komediya inkor qilish, tanqid etish orqali ezgulik, yaxshilikni qaror toptirishda xizmat qiladi. Arastuning biz yuqorida kelingan komediya eng tuban

odamlarni o'z tasvir ob'ekti qilib oladi, degan fikri barcha zamonlar uchun ahamiyatlidir.

Shekspir komediyalarining markazida insonni ulug'laydigan, tabiiy va sog'lom tuyg'u bilan to'lgan sevgi turadi. Ularning ko'pchiligidagi kulgilik inson tabiatini buzadigan shartlilik, rasm-odatlardan ustidan sevgi g'alabasi mavzusi asosiga qilingandir. Mana shu munosabat bilan istiqbol yo'lida amal qilayotgan o'zbek komediya san'ati uchun Shekspir badiiy an'alarining ahamiyati beqiyosdir. haqli ravishda kulgining fosh etuvchi rolini ta'kidlar ekamiz, uning kam ahamiyati bo'lmagan boshqa qirralari tarbiyalovchi kulgi, ko'ngilni yumshatadigan va bo'shatadigan kulgi, achinish va mehr-shafqat ko'rsatish kulgisi, hayotbaxsh va do'stona kulgi ko'rinishlari mavjud ekanligini unutmasligimiz kerak. Kulgilikning barcha shakllari ular qanchalik erkin namoyon bo'lish imkoniyatlariga ega bo'lib borsalar, shunchalik ko'p ahamiyat kasb etadilar. Rivojlangan hazil tuyg'usi, hayotning kulgili tomonlarini nozik ilg'ab olish va talminlash qobiliyati rivoj bo'lgan sari shaxsning ma'naviy-ruhiy sog'lomligi hamda barkamolligi ko'rsatkichi bo'lib boraveradi.

O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:

1. Estetikaning fan sifatida shakllanish tarixi.
2. Estetikaning falsafiy mohiyatini aytib bering?
3. Dizayn san'atidan qanday farq qiladi?
4. Estetik ong tarkibiga nimalar kiradi?
5. Estetik faoliyat deganda nimani tushunasiz?
6. Inson estetik ehtiyojini qondirishning zamonaviy muammolari.
7. Estetika kategoriyalarining an'anaviy va zamonaviy tasnifi.
8. Go'zalilik va uning muqobillari: hunuklik, badbaxsharlik, beo'xshovlik, nomutanosiblik.
9. Ulug'vorlik kategoriyasining falsafiy mohiyati.
10. Ulug'vorlikning tubanlik, xudbinlik, sotqinlik bilan ziddiyati.
11. Fojicavaylik (tragediya) kategoriyasi.
12. Fojig'lash - fojicaviy asarning xususiyati sifatida.

10-Mavzu: Din madaniyat fenomeni

Reja

1. Dinshunoslik faniga kirish
2. "Dinshunoslik" fanining maqsad va vazifalari.
3. Dinning ta'rif va uning jamiyatdagi vazifalari.
4. O'zbekistonda din va davlat munosabatlari.

Tayanch tushunchalar: Din, jahon dinlari, milliy dinlar, e'tiqod, ishonmoq tuyg'usi, ibodat, kompensatorlik, regulatorlik, integratorlik, yakxudolik va ko'pxudolik, davlat, diniy tashkilot, vijdon erkinligi, konfessiya, YUNESKO, BMT.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng dinga yangicha qarash va munosabat bildirish imkoniyati tug'ildi. Natijada nisbatan yangi bo'lgan dinshunoslik fani vujudga keldi. Bu fan ilgari ateizmdan farqli o'laroq, dini tanqid qilish, uni jamiyaddan yo'qolish maqsadida emas, balki unga milliy ma'naviyatning bir bo'lak sifatida yondashib, uni xolisona o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy hayotdagi yangilanish jarayoni va tub o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi: sobiq sovet tizimining dinga ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi.

O'zbekiston rahbariyati mustaqillikning birinchi kunlaridanq dinning jamiyat hayotidagi muhim o'rniga muvofiq, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlarni qayta tiklash asosida aniq va prinsipial chora-tadbirlar ko'ra boshladi. Davlatning dinga yangicha munosabati "inson e'tiqodsiz yashay olmaydi" degan aniq ishonch asosida belgilandi. Bu tamoyil hozirgi kunga kelib "Alloh qalbmizda, yuragimizda" so'zlarida ifodasini topmoqda.

O'z navbatida, "dunyoviylik" tamoyilini to'g'ri anglash, jamiyat va din orasidagi munosabatlarda muvozanatni saqlash lozim bo'ladi. Zero, dinning jamiyatda o'ziga xos o'rni mavjud. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan aytilgan quyidagi so'zlarni keltirish muhimdir: "Dunyoviy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to'g'ri tushuntirishimiz lozim. Tarix va hayot tajribasi ahundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bi-birini to'ldirmas ekan, bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi. Shu ma'noda, biz muqaddas dinimiz arkonlari va qadriyatlarini doimo ulug'lab, shu bilan birga, dunyoviy hayotga ham qat'iy ishonch bilan intilib yashagan taqdirdagina o'z euzu maqsadlarimizga eta olamiz"¹.

Din kishilarni hamisha yaxshilikka, euzu ishlarga chorlab kelgan. Jumladan, ota-bobalarimizning muqaddas e'tiqodi bo'lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida boy ma'naviyati va merosi, o'zligini omon saqlab keldi.

O'zbek xalqining ilg'or madaniy va ma'naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud dinlarning tarixi, hayotiy tajribasi tadrifiy taraqqiyotini o'rganish vatan tarixini chuqurroq tushunib etish, uni sevisht va u bilan faxrlanish his-tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Din va Qonun o'zaro munosabatlarini bilish respublikada demokratik huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida so'z ketar ekan, uning asosida eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili yotishini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi".

Mazkur moddada muhim ahamiyatga ega qoidalar mustahkam qo'yilgan. Buningdan, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqligidan qat'i nazar, bir

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2015. - B. 96.

xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradilar. Ikkinchidan, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

Shu bilan birga, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, bu dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ta'kidlash zarur. Zero, biror dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o'z mavqega ega bo'ladi.

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din, birinchi o'rinda ma'naviy-axloqiy jihatni o'z ichiga oladi.

Davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalovchi yana bir tamoyil shundan iboratki, davlat dini xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Bundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu masalalar o'z echimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me'yoriy talablarga to'la javob beradi. Har qanday dinga e'tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo'yilishini ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi:

“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi”.

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o'z ifodasini topgan:

dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;

diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;

ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qarov topitirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan mulqot qilish yo'llarini izlash zarurati;

dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmashligini e'tirof etish.

O'zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi. Chunki, konstitutsiyaviy dunyoviy-ma'rifiy davlatda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonunga asosan diniy e'tiqodi va dunyoviylikdan qat'i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyiliga rioya qilinadi.

O'zbekistonning tashqi olam bilan har tomonlama – siyosiy, iqtisodiy, ilmiy aloqalari yanada mustahkamlanib borayotgan hozirgi kunda turli konfessiya vakillari bilan mulqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining ilg'or madaniy va ma'naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha muvjud bo'lib kelgan dinlarning tarixi, hayotiy tadrifiy taraqqiyotini o'rganish, talabalar Vatan tarixini chuqurroq tushunib etish, uni sevisish va u bilan tanlanish his-tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Dinshunoslik” fani talabalarida din, uning turli shakllari, ta'limotlari, yo'nalishlari, mazhablari haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan dunyoviylik va diniylik munosabatlari asosli tahlil qila oladigan to'g'ri dunyoviylikni shakllantiradi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonun, jinoyat, fuqarolik, oila kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturlamal bo'lib xizmat qiladi. Din va qonun o'zaro munosabatlarini to'g'ri anglash, respublikada demokratik huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mamlakatimizda talabalarga “Dunyo dinlari tarixi” fanini o'qitish muhim masalalardan biriga aylandi.

Dunyo xaritasida mavjud mamlakat borki, unda yashovchi xalqlarning o'z dini, urf-odatlari va an'analari mavjud. Ana shu qadriyatlar xalqlarning yurish-turishi, kundalik faoliyati va umuman hayot tarzini belgilashda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Dunyo xalqlari tarixini o'rganishda ularning diniy qarashlari, e'tiqod va diniy analiyolarini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. "Dinshunoslik" fani ana shu muhim omilni tadqiq etib, tarix bilan bog'liq ravishda tahliliy o'rganadi.

"Dinshunoslik" fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga buddaviylik, xristianlik, islom kabi jahon dinlari bilan bir qatorda urug'-qabila dinlari va alohida millatlarga xos milliy dinlar tarixini zamonaviy ilmiy konsepsiyalar asosida chuqurroq o'rgatish. Shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonda dinga nisbatan munosabatlarning tubdan o'zgarganligi, diniy qadriyatlarni tiklash, diniy bag'rikenlik madaniyatini shakllantirish yo'lida qilinayotgan muhim o'zgarishlar, yangiliklar haqida ma'lumotlarni berish ko'zda tutilgan.

Mustaqillik davrida milliy va diniy qadriyatlarning xalqqa qaytarilishi bilan birga jahonda mavjud xalqlarning dinlari haqida keng ma'lumot olish, ularning qadriyatlarini o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Natijada dinshunoslik fani izchillikda rivojlana boshladi. Bunda alloma ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy merosni o'rganish bilan birga shu kunga qadar chet ellarda amalga oshirilgan izlanish va tadqiqotlarning natijalaridan umumli foydalanish zarurati paydo bo'ldi.

"Dinshunoslik" fani dini tanqid qilish yoki ko'r-ko'rona maqtash maqsadida emas, balki dini tarixiylik, xolislik asosida turli xalqlar hayotida tugan o'rinni ilmiy jihatdan, ma'naviy hayotining bir bo'lagi sifatida yondoshib o'rganadi.

"Dinshunoslik" fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

dinning jamiyatga ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy ta'siri haqida bilimlar berish; ibtidoiy diniy tasavvurlar, milliy va jahon dinlari ta'limotlari haqida ma'lumot berish;

dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati taraqqiyotidagi turli tarixiy bosqichlarda tugan mavqei haqida tushuncha berish;

jamiyatni ma'naviy jihatdan kamol toptirishda diniy qadriyatlarining ahamiyatini yoritish;

dunyoviy davlat va dinning o'zaro munosabatlarini yoritib berish;

diniy aqidaparastlik, ekstremizm va fanatizm kabi salbiy illatlar mohiyatini yoritish va ularga qarshi g'oyaviy immunitetni shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasida dinga nisbatan munosabatlarning tubdan o'zgarganligi, xususan, islom dini qadriyatlarini tiklash yo'lida qilinayotgan ishlar haqida keng tasavvur hosil qilish.

"Dinshunoslik" fanining amaliy ahamiyati shunda ham ko'rinadiki, u talabalarda islom va boshqa dinlar qadriyatlariga hurmat bilan qarash, ularni qudratlash, boshqa dinlarga va ularning vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalaydi.

"Dinshunoslik" fani bo'yicha talabalarining bilimi, uquvi va ko'nikmasi uchun quyidagi muhim talab, vazifalar qo'yilgan:

birinchiidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zbek xalqining ma'naviy merosi, dini, jumladan, islom dini qadriyatlarini, milliy g'oya, milliy mafkura haqida bildirgan fikr va mulohazalar, ta'rif va tavsiyalarni mazkur fanni o'rganishda nazariy asos qilib olish;

ikkinchiidan, O'zbekiston Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun va boshqa qonuniy hujjatlarda din masalasi yuzasidan belgilangan inson huquqlari, turli diniy tashkilotlar huquqlari va majburiyatlarini bilish;

uchinchiidan, "Dinshunoslik" asosiy fanlar qatorida o'qitilishi, din, dindorlar va diniy tashkilotlarga nisbatan davlat tomonidan adolatli siyosat o'rnatilishi, fuqarolar uchun vijdon erkinligining konstitutsion kafolatlanishi mustaqillik ahvolfati ekanligini tushunib etish;

to'rtinchiidan, qonunga hurmat hissinini, faqat o'zining emas, balki boshqalarning ham diniy his-tuyg'ulari bilan hisoblashish lozimligini, o'z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga ta'ziy bilan o'tkazish, turli norasmiy diniy mazhab va guruhlariga jalb etish g'ayriqonuniy xatti-harakat ekanligini, jamoat joylarida diniy

masalalarda zo'ravonlik, mutaassiblikka, agressivlikka yo'l qo'yish mumkin emasligini chuqur tushunib etishi;

Beshinchidan, "Dinshunoslik" fanining boshqa gumanitar fanlar bilan birga rivojlanishini nazarda tutgan holda, o'zi qo'lga kiritgan soha yutuqlaridan ushbu fanni o'zlashtirishda foydalanish.

Din – e'tiqod va u har bir kishining shaxsiy ishi hisoblanadi. Diniiy nuqtai nazarga ko'ra, din – muayyan diniy e'tiqodlarga, ya'ni ilohga, uning tomonidan insonlarga xabar etkazuvchilarning g'ayrioddiy salohiyatiga ega ekaniga (payg'ambarlik), insonlar atrofida unga ko'rinnaydigan ammo undan ancha yuqori darajada turuvchi mavjudotlar borligiga (farishalar, jinlar) inson ideal hayot kechirishi uchun azaldan belgilangan qonuniyatlarni mavjudligiga (muqaddas kitoblar), inson hayoti muntazam nazorat ostida ekaniga, qilingan barcha yaxshilik va yomonlik uchun mukofot yoki jazo muqarrarligiga (oxirat, hisob-kitob qilinish), inson qismati avvaldan belgilanishiga (taqdir) va shu kabi qarashlarga ishonish, ularni aqida sifatida qabul qilishdan iborat.

Din – tabiat, jamiyat inson va uning ongi, yashashdan maqsadi handa taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitidan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odli hayot yo'lini ko'rsatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta'limotidir. U muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyatning ilk tarixidan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir.

Din ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir. Dunyoda dini, ishonchi bo'lmagan xalq yo'q. Xalq dinsiz, e'tiqodsiz biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi. Sotsiologik nuqtai nazardan qaraganda din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. U ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va

amalg oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa dinni jamiyatda bajaragan vazifalariga ko'ra o'rganish mumkin demakdir.

Dinning vazifalari uning alohida shaxs va jamiyatga ta'siri va tabiatidan kelib chiqadi. Dinning vazifasi yoshlarga shaxs, oila, jamiyat hayotiga kirib borishi, madaniyat va ma'naviyatni boyitishga qo'shgan hissasini ko'rsatib berishdir.

Dinning ijtimoiy vazifalari haqidagi ta'limotni *funksionizm* rivojlantiradi. Funksionizm jamiyatga ijtimoiy tizim sifatida qaraydi. Unda jamiyadagi har bir element muayyan funktsiyani bajaradi. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

Birinchidan, har bir din o'z e'tiqod qiluvchilari uchun to'ldiruvchilik, tasalli beruvchilik – *kompensatorik* vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil qilish hodisasini olaylik. Inson o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida hayotiy maqsadlariga erishishi ilojisiz bo'lib ko'ringanida, unda qandaydir ma'naviy-ruhiy ehtiyojga zaruriyat sezadi. Bu diniy ehtiyoj bo'lib, u ma'naviy-ruhiy ehtiyojini qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajaragan va bajarilmoqda.

Masalan, buddaviylik dini rohiblikni targ'ib qiladi, xristianlikda esa, har bir xristian Iso masihning qaytishiga umid qilib, sabr-bardosh bilan hayot kechiradi. Islom dinida har bir musulmon dunyoda erishmagan moddiy yoki ruhiy orzu-istaklariga oxirada erishishga ishongan holda yashaydilar.

Ikkinchidan, din o'z ta'limot tizimini vujudga keltirgach, o'ziga e'tiqod qiluvchilar jamoasini, shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qilgan va hozir ham shunday. Bu dinning birlashtiruvchilik – *integratorlik* vazifasi deb ataladi. Din doimo ijtimoiy, etnik, ijtimoiy va ma'naviy hayotda uzviylik, muntazamlikni ta'minlash maqsadida u xalqlarning ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlarga, adabiyoti va san'atiga bog'langan. Masalan, yahudiylilikda mazkur din vakillari bir mukura atrofida bir millat va yagona maslak egalari bo'lib, yagona xudo Yalvingning sevimli bandalari ekanligi uqdiriladi.

Xristianlikda diniy me'moriy, tasviriy, musiqa san'atidan foydalanib ikona chizuvchilar maktablari faoliyat olib boradi.

Uchinchidan, har bir din o'z qavmlari turmushini tartibga solib nazorat qiluvchilik – *regulyatorlik* vazifasini bajaradi. Dinlar o'z urf-odatlarini, marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan o'z vaqtida, qat'iy tartibda amal qilishini shart qilib qo'yadi. Masalan, islomda kuniga besh mahal namoz o'qilishi, har hafta juma namozini jome' masjidlarida ado etish va hokazolar.

To'rtinchidan, din aloqa bog'lashlik – *komunikativlik* vazifasini ham bajaradi, ya'ni har bir din o'z qavmlarining birligi, turti dindagi kishilarning o'zaro aloqalari, o'zaro huquq va burchlarining borligi, urf-odat va ibodatlarini jamoa bo'lib bajarilishi lozimligi nazarda tutiladi.

Beshinchidan, din qonunlashtiruvchilik – *legitimlovchilik* funksiyasini ham bajaradi. Dinning bu funksiyasi nazariy asosini amerikalik sosiolog T.Parsons ishlab chiqqan. Uning fikricha, "har qanday ijtimoiy tizim muayyan cheklolarsiz mavjud bo'la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo'lgan munosabatni belgilaydi".

Oltinchidan, din vazifalarining falsafiy, nazariy jihatlarini mavjud. U insonga yashashdan maqsad, hayot mazmunini, dorulifano va dorulbago dunyo masalalariga o'z munosabatlarini bildirib turishdan iboratdir.

Din insoniyatning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ijtimoiy hayotida doimo u bilan birga bo'ladi. Dinni o'rganish bu insoniyatni o'rganishdir. Din insoniyat bilan birga dunyoga kelgan.

Dinlar turli guruhlarga bo'linadi:

- Urug'-qabila dinlari – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrigar shomon qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular hozir Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan:

- Milliy dinlar – ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa elat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik, hinduylik, konfutsiylik, sintoizm kiradi;

- Jahon dinlari – dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat'i nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar. Unga buddaviylik, xristianlik va islom dini kiradi.

Dinlar ta'limotiga ko'ra, monoteistik – yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik – ko'pxudolik (hinduylik, konfutsiylik) dinlariga bo'linadi.

Din va davlat munosabatlari. Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy hayotdagi yangilanish jarayoni va tub o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi: sobiq sovet tizimining dinga ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi.

Din kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlab kelgan. Jumladan, ota-bobolarimizning muqaddas e'tiqodi bo'lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida boy ma'naviyati va merosi, o'zligini omon saqlab keldi.

O'zbekiston Respublikasi jahon harjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda turli konfessiya vakillari bilan mulqot qilishning yuksak madaniyatga erishish katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining ilg'or madaniy va ma'naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud dinlarning tarixi, hayotiy tajribasi tadqiqiy taraqqiyotini o'rganish vatan tarixini chuqurroq tushunib etish, uni sevis va u bilan faxrlanish his-tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Din va Qonun o'zaro munosabatlarini bilish respublikada demokratik huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, uning mosida eng avvalo dinning davlatdan ajratilishi tamoyili yotishini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: "Diniy

tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar.
*Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi*².

Mazkur moddada muhim ahamiyatga ega qoidalar mustahkam qo'yilgan. Birinchidan, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradilar. Bugungi kunda respublikamizda 15 ta noislomiy konfessiyaga mansub 186 ta tashkilot emin-erkin faoliyat olib borayotgani ham buning amaliy ifodasidir. Ikkinchidan, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir. Shu bilan birga, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, bu dinning jamiyadan ajratilganini anglatmasligini ta'kidlash zarur. Zero, biror dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababi din fuqarolik jamiyatida o'z mavqeiga ega bo'ladi.

Davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalovchi yana bir tamoyil shundan iboraki, davlat dini xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qilinadi.

Dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatida dindorlarning huquqiy maqomi va davlat tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda diniy konfessiyalar haqidagi qonunlarning hayotga tatbiq etilishdek ikki muhim jihat ham bor.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu masalalar o'z echimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me'yoriy talablarga to'la javob beradi. Har qanday dinga e'tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo'yilishini ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi:

*"Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmastlik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi"*³.

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o'z ifodasini topgan:

dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;

diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;

diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;

ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarini qator topirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan mulqot qilish yo'llarini izlash zarurati;

dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmastligini e'tirof etish.

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din, birinchi o'rinda ma'naviy-axloqiy jihatni o'z ichiga oladi. Hech qaysi din o'zida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlarining barchasini qamrab olishga da'vogarlik qilmaydi. Aks holda u din bo'lmay qoladi. Xuddi shu asosda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida diniy-siyosiy partiyalar tuzish taqiqlangan.

O'zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi. Chunki, konstitutsiyaviy dunyoviy-ma'rifiy davlatda vijdon erkinligi qonuni diniy e'tiqodi va dunyogarashdan qat'i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyiliga rioya qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning diniy va ma'naviy qadriyatlarining hozirgi demokratik jamiyat qadriyatlari bilan uyg'unlashishi respublikamizning kelajakda yanada ravnaq topishi, jahon hamjamiyatiga qo'shilişida muhim omillardan biri hisoblanadi.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2019. – B. 13.
³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2019. – B. 8.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

- “Dinshunoslik” fanining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
Dinga qanday ta'riflar berilgan?
Din jamiyatida qanday vazifa(funksiya)larni bajaradi?
Dinlar qanday omillar asosida tasnif qilinadi?
Dinlar qanday guruhlarga bo'linadi?
Komi insonni tarbiyalashda din omilining o'rni qanday?
“Diniy tashkilotlar” deganda nimalar nazarda tutiladi?
Turli konfessiyalar orasida nizo chiqmasligi uchun davlat qanday tadbirlarni qo'llaydi?

Mustaqil ish topshiriqlari

- “Mustaqillik va din” mavzusida referat tayyorlang.
Dunyo dinlarining farqli va o'xshash jihatlari haqida so'zlab bering.
“Dinshunoslik” fanining maqsad va vazifalari haqida so'zlab bering.
Turli olimlar tomonidan dinga berilgan ta'riflar haqida ko'rgazmali slyad tayyorlang (MS Power Point).
Vijdon erkinligining xalqaro hujjatlarda aks etishi haqida ma'lumot to'plang va kursdoshlaringizga aytib bering.
Bag'rikenlik tushunchasining turli talqinlari haqida referat tayyorlang.
“Diniy jamoa” va “diniy tashkilot” tushunchalari o'rtasidagi farqni ajratib bering.
“Konfessiyalararo hamjihatlik – barqarorlik garovi” mavzusida ko'rgazmali slyad tayyorlang (MS Power Point).

Adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2019.
Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilimas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008
Gunnar Skirbekk, Nils Gilyo. Falsafa tarixi. –T.: Sharq, 2002.
Islom ziyosi o'zbekim siymosida. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005.

- Men A. Istoriya religii. – M.: 1994.
Peter Anters. Religii sovremennosti. Istoriya i vera. –M.: Progress-Traditsiya, 2001.

- Radugin A.A. Vvedenie v religiovedenie: teoriya, istoriya i sovremennost religii. – M.: 1996.
Husnidinov Z. va boshqalar. Jaholatga qarshi ma'rifat – tinchlik va barqarorlik omili. –T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2003.
Husnidinov Z. O'zbekistonda diniy bag'rikenlik. T.: TIU, 2006.

II-mavzu. Islom ta'limoti asoslari

Reja

1. Kalom ilmi.
2. Moturidiylik va ash'ariylik.
3. Islomda imon masalasi.
4. Islomda yo'nalishlarning vujudga kelishi.
5. Fiqhiy mazhablarning paydo bo'lishi.
6. Imom Abu Hanifa va hanafiylik mazhabi.
7. Mazhabsizlik va uning oqibatlari.

Tayanch tushunchalar: Aqida, kalom, moturidiylik, ash'ariylik, imon, Alloh, farishta, payg'ambar, taqdir, qiyomat, jannat, do'za. Mazhab, oqim, firqa, hanafiylik, shofeylik, molikiylik, hanbaliylik, fiqh, fatvo, mujtahid, sunniylik.

1. Kalom ilmi. Islom ta'limoti bo'yicha barcha payg'ambarlar yagona Allohga imon keltirishga chaqirganlar va bu ularning eng asosiy vazifasi hisoblangan. Shu bilan birga ularning shariat turlicha bo'lgan.

Musulmonlar islom ta'limotini Muhammad payg'ambar (a.s.)dan o'rganganlar. Vaqt o'tishi bilan islom ta'limotini faqat shu dini yaxshi bilgan olimlar tushuntira boshladilar. Bu ta'limotni tushuntiruvchi fan paydo bo'ldi. Mazkur fan turli davrlarda o'ziga xos «al-fiqh al-akbar», «tavihd», «aqida», «kalom», «usul ad-din» kabi nomlar bilan ataldi. Uning nomlari turlicha bo'lsada, bir mavzuni, ya'ni aqidani o'rganishga qaratilgan.

«Al-Fiqh al-akbar» atamasini birinchi bo'lib imom Abu Hanifa ishlatgan va shu nom bilan risola yozgan. Chunonchi fiqh so'zi biror narsani o'ta yaxshi, har tomonlama tushunib, fahmlash ma'nosini bildiradi. Shuningdek, namoz, ro'za, haj, nikoh va boshqa amaliy hukmlarni o'rganuvchi ilimga ham fiqh deyiladi. Aqidaviy masalalarni o'rganuvchi ilmi esa, «Al-Fiqh al-akbar», ya'ni «katta fiqh», amaliy fiqh esa, kichik fiqh hisoblanadi.

Keyingi atama «usul ad-din» bo'lib, unda shariat va dindand olingan e'tiqodiy hukmlarni o'rganadi, ya'ni dindagi asl hukmlarni tadqiq etadi. Bir qator olimlar shu nom bilan kitoblar ta'rif etganlar.

«Tavihd» ham Allohning yagonaligini, uning sifatlarini o'rganishga e'tibor qaratgan. Bunda Allohni yagona deb bilib, uning sifatlarini qilishga ko'proq e'tibor qaratgan. Zero, inson uchun zarur aqidalarning eng avvali Allohning vahdoniyatiga, ya'ni yakkaligiga imon keltirish va uni o'rganish hisoblanadi.

Yana bir atama «kalom ilmi» deb yuritiladi. Islom manbalarida aqida ilmining eng mashhur nomlaridan biri ekani aytilgan. Ushbu atama aqidaga oid ishlarining mashhurlari hisoblanadi.

«Aqida» (ko'p. Aqidat) bu nom boshqalaridan keyinroq, X (hijriy IV) asrda paydo bo'lgan. «Aqida» bir narsani ikkinchisiga «mahkam bog'lash» ma'nosini bildiradi. Islom aqidasi musulmon insonni muayyan tushunchalar bilan mustahkam bog'lab turadigan e'tiqodlar yig'indisi. Ya'ni, biror narsaga e'tiqod qilish uchun uni hech qanday shubha qoldirmaydigan darajada juda yaxshi bilishdir. Ma'lum bir fikr insonning fikriga aylanib, his-tuyg'ularini yo'llaydigan va harakatlarini boshqaradigan holga etganda, aqidaga aylangan bo'ladi. Aqida ilimga asoslangani uchun aqida ilmi to'g'ri, sog'lom e'tiqodda bo'lishni ta'minlaydi.

Dindagi ayrim shar'iy hukmlar o'zgarishi mumkin. Ammo sof e'tiqod o'zgarmaydi, hukmi ham o'chmaydi. Chunonchi Allohning yagonaligi, laviyatlar, jannat va do'za imon keltirish kabi e'tiqodga oid qarashlar o'zgarmaydi.

«Kalom» so'zi arabcha bo'lib, lug'atda gap, suhbat, til, so'zlashuv, nutq, buyon ma'nolarini anglatadi. Istilohiy ma'nonda esa, musulmonning e'tiqodi, aqidasi, dunyog'arashini ko'rsatib beruvchi ta'limotga aytiladi. Boshqacha aytganda balog'atga etgan musulmon kishining e'tiqod qilishi, imon keltirishi, islom dinining zarurlari shaklida tasdiq qilishi, qalbiga mahkam bog'lab olib undan ajralishi mumkin bo'lmagan shar'iy e'tiqodiy hukmlardir.

Tarix jarayonida olimlar ushbu nomlarga oid kitoblar yozib qoldirganlar. Masalan, imom Abu Hanifa «al-Fiqh al-akbar», Abul Hasan Ash'ariy «al-Ibodat usul ad-diyona», Abul Muin Nasafiy «Tabisirat al-adilla fi usul ad-din», Moturidiy «Kitob at-Tavhid», Abu Hafis Nasafiy «Aqoid» nomli va boshqa olimlarning asarlarini keltirish mumkin.

Islom ta'limotiga ko'ra insonning ikki dunyodagi saodati aynan aqidasi va bog'liq. Agar musulmonning aqidasi pok bo'lsa, yo'li to'g'ri bo'ladi, qilgan barcha amallari qabul bo'ladi va bandalik bilan sodir etgan ba'zi gunohlari afv etiladi. Biroq kishi aqidasi sof bo'lmasa, buzuvchi bo'lsa, yo'li noto'g'ri bo'ladi, qilgan amallari behuda ketadi va oxirida jahannam aholidan bo'ladi deb hisoblanadi.

Aqida masalasi o'ta muhim bo'lganidan eng birinchi payg'amardan boshlab, oxirgi Muhammad payg'ambar (a.s.)gacha bu masalani Allohning o'zi ko'rsatib bergan. Shuning uchun aqidaviy qarashlarning asosi Qur'onda berilgan va hadislardagi ko'rsatmalar negizida ishlab chiqilib, tartibga solingan.

Sahobalar tiriklik paytidayoq aqidaviy qarama-qarshilik paydo bo'lgan. Islomda aqidaviy ixtiloflar to'rtinchi xalifa sahoba Alining qo'shimidagi asarlari ichidan ajrab chiqqan, aqiyda masalasida bir necha shubhali savollar chiqqan xorijiyalar toifasi bilan Ali va u kishining Abdullloh ibn Abbos rozilyallohu anhuga o'xshash yaqin safdoshlari orasida bo'lib o'tdi.

Sahobalar davri tugab tobeinlar vaqtida vaziyat yanada o'zgardi. Chunki bu davrga kelib din ilmlarini, ayniqsa aqidani biluvchi kishilar kamaydi va ular alohida shaxs sifatida ajralib chiqdilar. Bu davrda sof aqidaviy qarashlarga qarshi turli g'oyalarni ilgari surgan firqa va toifalarning tarqalishi kengayib ketgan edi. Ular o'zlarining buzuvchi, islomga oid bo'lmagan fikr va qarashlarini, e'tiqodlarini tarqatib, islomning aqidasi buzishga harakat qilganlar. Shuningdek, fath etilgan erlardagi xalqlarning eski qarashlari, falsafalari, dinlari haqidagi o'z tushuncha va tafakkurlari mavjud bo'lgan. Shuning sababidan ular islom ta'limotini tushunib olishlari qiyin kechgan. Qur'on oyatlari va hadislarini o'zlarining eski qarashlari asosida tushunishlari ham bo'lgan.

Bunga bir necha sabablar bor: fath ishlari sababli islom erlari kengaydi. Islom dushmanlari esa, islom nomidan turli g'oyalarni tarqatishga uringanlar; fath etilgan erlardagi joylik aholi o'zining eski dinlari aqidasi mos tarzda o'ylat va hadislarini tushunishi natijasida turli g'oyalar yuzaga keldi va boshqa sabablar orqali musulmonlar orasida noto'g'ri, islomga mos bo'lmagan qarashlar paydo bo'ldi.

Islom ta'limotini buzib talqin qilish natijasida ularga raddiya sifatida olimlar kalam, ya'ni aqida ilmi asos qo'ydilar. Bu musulmonlar uchun zarur sohaga aylandi. Har bir musulmon kishi buni bilishi shart bo'lgan majburiy ilmga aylandi. Chumonchi Sa'duddin Taftazoniy «Maqosid at-talibin» asarida: «Kalam ilmi diniy aqoid usullarini ishonchi dalillar asosida anglashni o'rgatadigan ilmdir. U bilan shar'iy, nazariy, aqidaviy masalalar hal qilinadi. Uning natijasi imonga komil ishonch bilan ziynat berish, foydasi esa bu dunyoda intizomli hayot kechirish va oxirada azob-ugubardan xalos bo'lishdir. Shunday ekan kalam ilmi eng sharafi ilmdir».

Abu Homid Hazzoliy o'zining «Ihyo ulum ad-din» nomli asarida: «...Chuqur bilimga ega bo'lmagan oddiy musulmonlarning diniy e'tiqodlarini turli bid'at va noto'g'ri g'oyalaridan qo'riqlash uchun kalam ilmini o'rganish vojibdir», degan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ayish mumkin, aqoid yoki kalam ilmining vazifasi: a) diniy e'tiqodlarni qat'iy dalillar bilan isbotlash va ular haqidagi shubha hamda gumonlarni rad qilish; b) insonni aqidada oddiy taqlidchi bo'lishdan har bir e'tiqodga hujjat keltira olish darajasiga ko'tarish; v) islomning sof e'tiqodlarini adashgan zalolat ahlining shubha va gumonlaridan himoya qilish.

2. Moturidiylik va ash'ariylik. Islom tarixini o'rganish jarayonida ko'plab olimlar kalam ilmi faoliyat olib borib o'zlarining aqidaga oid asarlar yozganlarini ko'rish mumkin. Ulardan hanafiy mazhabi olimlaridan Abu Hafis Nasafiy «Aqida an-Nasafiyya», Abul Muin Nasafiy «Tabisirat al-adilla», Abu Ja'far Tahoviy «Aqida at-Tahoviy»larni alohida sanab o'tish

o'rini. Bulardan boshqa olimlar ham, shuningdek, molkiy, shofey, hanbaliy mazhabi ulamolari ham bu borada qalam tebratib o'zlaridan muhim asarlar qoldirganlar. Avvalgi olimlar o'zlarining asarlarini mustaqil tarzda va muxtasar shaklda yozgan bo'lsalar, keyingilar o'zlaridan oldin o'tganlarning asarlariga sharh ta'rif etganlari va mustaqil asar yozgan bo'lsalar ham mufassal ekani bilan ajralib turganlar. Hozirgi kunda ham aqida ilimida asar yozayotgan mutaxassislar asarining masalalarga batafsil to'xtalib o'tayotganlarini ko'rish mumkin.

Ularning barchalari Qur'on oyatlari va hadislar asosida hamda sahobalarning uslubida aqida masalalarini bayon etib berganlar. Aqida borasida faoliyat olib borgan olimlarning orasida imom Abu Mansur Moturidiy va imom Abul Hasan Ash'ariylar alohida ajralib chiqqanlar. Bu olimlar Ahli sunna val jamoa aqidasi bo'yicha imom deb tan olindilar.

«Ahli sunna val jamoa» to'rt fiqhiy mazhabdan biriga amal qilib kelayotgan bo'lsalar, aqidaviy masalada ikkiga – moturidiylik va ash'ariylikka e'tiqod qiladilar. Bunda hanafiy mazhabi moturidiylikka, molkiy, shofey va hanbaliy mazhabi ash'ariylik ta'limotida deb hisoblanadi. Shu o'rinda bu ikki maktab vakillari haqida to'xtalib o'tish o'rini.

Moturidiylik aqidaviy maktab asoschisi buyuk kalom imomi va fakih Abu Mansur Moturidiydir. Uning hayoti haqida ma'lumotlar kam. To'liq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy Samarqandiy (853-944), asli Samarqandning Moturid qishlog'idan (hozirgi Jonboy tumnida joylashgan) bo'lib, uning taxallusi shu qishloqqa nisbatan olingan. Abu Mansur Moturidiy dastlabki ta'limni shu qishloqda olib, keyinchalik Movarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarqanda davom ettiradi.

Moturidiy Abu Bakr Ahmad Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad Iyo'diy, Imom A'zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yahyo Balxiy, Muhammad ibn Fadl kabilarni o'zining ustozlari deb bilgan.

Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, zamonasining ko'zga ko'ringan hanafiy mazhabi olimlaridan dars olib o'z bilimni oshiradi. Shu vaqt

davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan mulohazada bo'lgan va munozaralar qilib, shu sohaga oid asarlar yozib qoldirgan. Ulardan quyidagi «Kitabul Tavhid», «Kitabul maqomat», «Kitab rad avoiil adila lil Ka'biy», «Kitabul usul», «ar-Rad ala usulil Qaromita», «Kitab ta'vilot ahli sunna» va boshqalarni keltirish mumkin.

Abu Mansur Moturidiyning ko'p asarlari bizgacha etib kelmagan, etib kelganlari ham asosan xorijiy mamlakatlar kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanadi.

Moturidiy islom olamida juda nozik hisoblangan «Kitabul tavhid» asari bizning davrimizga etib kelgan. Olimning yana bir asari «Kitab ta'vilot ahli sunna» yoki boshqa bir nomi «Ta'vilot al-Qur'on» deb nomlanadi. Moturidiy bu asarida sunniy aqidaga zid qarashlarni rad qilishga harakat qiladi va Abu Hanifaning qarashlariga suyangan holda ish ko'radi. Moturidiyning bu birgina asari tarix jarayonida ko'p allomalar asarlariga asos solgan, ular ijodiga turtki bo'lgan.

Moturidiy ko'p shogirdlar etishtirdi, ular o'z ustozlarining ta'limotini davom ettirishganligi tufayli hanafiy mazhabida kalom ili bo'yicha moturidiy maktabi vujudga kelgan.

Moturidiy «Imom al-huda» (hidoyat yo'li imomi) va «Imom al-mutakallimin» (mutakallimlar imomi) kabi nomlar bilan ham mashhur bo'lgan.

Ash'ariy ta'limotining asoschisi Abul Hasan Ash'ariy (873-941) bo'lib, uning to'liq nomi Abul Hasan Ali ibn Ismoil ibn Ishoq ibn Solim ibn Abdulloh ibn Muso Abu Muso Ash'ariydir. Abul Hasan Ash'ariy boshlang'ich saboqlarni o'z otasidan olgan, keyinchalik o'z zamonasining tungi olimlaridan Abu Ishoq Marvaziy va Ibn Surayjdan fiqh ilmini, Zakariyo ibn Yahyo Sojijdan hadis ilmini o'rganadi.

Abul Hasan Ash'ariy taxminan 40 yoshlaridan keyin Bog'dodga ko'chib ketadi va umrining oxirigacha ushbu shaharda qoladi.

Olim yuzga yaqin asarlar yozgan bo'lib, ulardan ba'zilar quyidagilardir: «al-Fusul fi'y ar-radd 'ala al-mulhidin», «ar-Rad ala al-mujassama», «Iyzohul burhon fi'y ar-rad ala ahluz zayg' vat tug'yon», «an-Nags alal Jubo'y», «Maqolotul mulhidin», «Tafsiru Abul Hasan», «Imomatu Abu Bakr Siddiq».

Abul Hasan Ash'ariy ahli sunnat va jamoaning ash'ariya e'tiqodiy ta'limotini yaratayotgan vaqtda Samarqandda Abu Mansur Moturidiy ham moturidiya ta'limotiga asos solayotgan edi. Bu ikki imom bir vaqtda yashagan bo'lsalar ham bir-birlari bilan uchrashmagan, shunday bo'lsada, ularning aqidaviy qarashlari deyarli bir xil. Ayrim juz'iy masalalarda lafziy ixtiloflar bo'lsada, ularning asl maqsadi bir hisoblanadi. Boshqacha aytganda ikki ta'limot orasidagi ba'zi ixtiloflar lafziy bo'lib, mohiyatan bir-birini qo'llab-quvvatlab keladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ular o'zaro bir-birini adashganlikda yoki bid'atchilikda ayblamaydi. Ular o'zaro bir-birlarini «ahli sunna val jamoa» deb e'tirof etadilar.

Ash'ariy va moturidiylik orasidagi asosiy farq imon masalasidadir. Moturidiy ta'limotiga ko'ra imon til bilan iqror qilib, dil bilan tasdiqlashga aytiladi. Amal imonning tarkibiga kiritilmaydi. Ash'ariylikda esa, imonga amalni ham qo'shadilar. Shu sababdan moturidiylik tarqalgan hududlarda imon keltirgan kishi musulmon hisoblanadi, ammo amal qilmagani uchun gunohkor bo'ladi, deb yuritiladi.

O'rni kelganda aytib o'tish lozimki, manbalarida «moturidiyya mazhabi», «ash'ariyya mazhabi» degan atamalar uchrab qoladi. Bundan imom Moturidiy imom Abu Hanifaning ilmi kalomga doir ta'limotini rivojlantirgan. Imom Ash'ariy esa imom Shofiiyning e'tiqodiy qarashlarini takomillashtirgan deyish mumkin.

Mazkur ikki olimning ta'limotlari islom olamida keng tarqaldi va asrlar davomida musulmonlarni sof e'tiqodda bardavom bo'lishiga, oyat va hadislarining ma'nolarini to'g'ri anglab, hayotga tabiiq etib kelishlariga, turli e'tiqodi noto'g'ri oqimlar ta'siriga tushib qolmaslikka sababchi bo'ldi.

Abu Mansur Moturidiy va Abul Hasan Ash'ariylarning sof aqidani musulmonlarga etkazishdagi xizmatlari beqiyosdir, ularning aqidaviy hozirgacha musulmonlar tomonidan alohida e'tibor bilan amal qilib.

3. Islomda imon masalasi. Aqida mavzusi to'rt qismga bo'linadi:

Ilohiyot, nubuvvat, kavniyot va sam'iyyot.

Ilohiyot iloh va Unga oid masalalar haqida bahs yuritiladi. Nubuvvada valiy, payg'ambarlik va ularga tegishli masalalar haqida bahs yuritiladi. Kavniyotda esa, borliqdagi mavjudotlar – inson, farisha, jin va sababiyat qonunlari haqida bahs yuritiladi. Sam'iyyot eshitish bilangina sobit bo'ladigan nqidalar haqida bahs yuritiladi. Bular asosan g'ayb olamiga tegishli masalalar bo'lgani uchun bu turni «g'aybiyot» ham deyiladi.

Islom besh asosga qurilgan. Ular: imon, namoz, zakot, ro'za va haj. Bular islomning sharti – rukni hisoblanadi.

Imon so'zi ishonmoq, tasdiqlamoq ma'nolarini bildirib, istilohda, kalimai shahodatni aytish, ya'ni «La ilaha ilallohu Muhammadun Rasulullohu» («Allohdan boshqa iloh yo'q, Muhammad uning rasuli»)ni til bilan aytish va dil bilan tasdiqlashdir. Buni chin dildan aytgan kishini musulmon hisoblanadi.

Hadislarda imonning etti sharti bor ekani qayd etilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Allohning borligi va birligi, Qur'on va hadislarda bayon qilingan barcha ism va sifatlarga ishonish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytariqlaridan tiyilish.

Tarixda ulamolalar Allohning borligi haqida alohida to'xtalib, dalil keltirmaganlar. Zero u davrlarda Xudoning borligiga barcha ishongan (xudo yo'q degan tasavvur bo'lmagan). Ammo zamonamizga kelib Xudoning borligiga ishonmaydiganlar chiqqandan keyin olimlar bu mavzuni ham aqida kitoblariga kiritganlar va u aqidaning bosh mavzusiga aylangan. CHunonchi Allohning borligiga imon keltirmagan odamga aqida mavzusini muhunitirishning hojati yo'q.

Qur'onda «Yoki ular hech narsadan (ya'ni, Yaratuvchisiz) yaratib qolganmilar? Yoki ular o'zlarini yaratuvchilarni? Yoki osmonlar va Erni ham ular yaratganmi? Yo'q! Ular (baribir) imon keltirmaslar» (Tur. 35-36), deyilgan va Xudoning borligiga ishonmaydiganlarga dunyo o'zidan-o'zi yaratib qolishi mumkin emasligi aytilgan.

Aqida ilimida Allohning yagonaligi masalasi ham alohida ahamiyatga molik sifatida o'rganiladi. Bu «tavihid» deyiladi. Tavihid lug'atda biror narsaga birlik va yagonalikni nisbat berishdir. Istilohiy ma'noda Allohga shirk keltirishning turli ko'rinishlaridan voz kechish, Allohning zotida, sifatida, ishlarida, ismlarida, hukmlarida ham sherigi yo'q deb, e'tiqod qilishga aytiladi.

Allohning sherigi yo'qligi borasida Qur'on oyatlari va hadislarida ko'plab misollar mavjud. Jumladan, «Agar ikkisi (Er va osmon)da Allohdan o'zga ilohlar bo'lganida, har ikkisi buzilib ketgan bo'lar edi. Bas, Arsh egasi bo'lmish Alloh ular sifatlayotgan (shariklardan) pokdir» (Anbiyo, 22), «Alloh farzand tutgan emas va U bilan birga biror iloh ham bo'lgan emasdir. Aks holda, har bir iloh o'zi yaratgan narsa bilan (kibrga) ketib, bir-biridan ustun bo'lib olur edi (natijada Erni osmon buzilib ketgan bo'lar edi). Alloh ular vasti etayotgan narsadan pokdir» (Mu'minun, 91) oyatlarini keltirish mumkin. Bu oyatlarda Allohning sherigi bo'lganida ko'rinadigan nizom buzilib ketishi ko'rsatilmoqda. Alloh o'zi yaratgan narsalarni o'zi tadbirini qiladi.

Islom dinida Allohga ishongan kishi uning ismi va sifatlariga ham imon keltirish lozim. Qur'nda «Allohning chiroyli ismlari bordir. Uni o'sha (ism)lar bilan atangiz!» (A'rof, 180), «Uning go'zal ismlari bordir» (Hashr, 24) deyilgan. Bu ism va sifatlar orqali Alloh haqida bilimlarga ega bo'linadi. Barcha ulamolarning fikriga ko'ra Alloh ismlarini o'rganishdan maqsad Unga loyiq bo'lmagan sifatarni bermaslik. Shuningdek, «Allohning to'qson to'qqizta ismi bor» ekani haqidagi hadisni muhaddislar rivoyat qilganlar.

Olimlardan imom Abu Hanifa o'zining «al-Fiqh al-akbar» asarida Alloh haqida shunday degan: «U o'zi yaratgan narsalardan birotasiga o'xshamas. Unga ham biror narsa o'xshash emas. O'zining zotiy va fe'liy sifatlarini bilan

azaldan bor bo'lgan va abadiy bor bo'lar. Zotiy sifatlarini – hayot, qudrat, ilm, kalom, eshitish, ko'rish, iroda. Fe'liy sifatlarini – xalq etish, yasash va boshqa shu mazmunga dalolat qiluvchi sifatlar. U o'zining barcha ism va sifatlarini bilan birgalikda doim bo'lgan va abadiy bo'ljajak. Unga biror ism yoki sifat keyin qo'shilib qolgan emas».

Boshqa o'rinda: «Qur'onda O'zi zikr etganidek, Allohning qo'li, yuzi, nafsi (O'zi) bor deb bilamiz. Bular Uning sifatlaridan, lekin qanday, qanaga deyilmas. Hatto, qo'li-qudrati yoki ne'mati ham deb ta'vil etilmas. Aks holda uning bir sifatini yo'qqa chiqarilgan bo'lar. Bu esa qadariylar va mo'taziliylar so'zidir. Biz aytamizki, qo'li o'ziga xos, kayfiyatsiz sifattir. Shuningdek, Uning g'azabi va rizosi ham o'ziga xos kayfiyatsiz sifatlaridandir», deyilgan.

Islom ta'limotiga ko'ra, Allohning imsi va sifatlarini boshqa biror maxluqotga o'xshatish mumkin emas. Uning holati, kayfiyati, surati haqida bahs qilmaydi, ya'ni Alloh ko'radi, eshitadi, biroq biz insonlar va boshqa maxluqotlar kabi emas, balki u haqda bahs qilish bid'at hisoblanadi.

Allohning buyrug'ini bajarish va qaytarilardan qaytish ham imonning bir bo'lagi. Chunonchi islom ta'limotida Allohning buyruqlarini bajarish insonga oxirida jannatga tushishiga olib keladi. Aksincha, uning qaytargan narsalaridan qaytmasa do'xaxda azoblaydi deb bilinadi.

2. Musulmon odam farishtalarga ham ishonishi lozim. Farishtani arab tilida malak, ko'pligi malolika deyiladi. Ularga ishonmagan musulmon hisoblanmaydi. Qur'onda, «(Ularning) har biri Allohga, farishtalariga, kitoblarga va payg'ambarlariga birotasini ajratmasdan (hammasiga) imon keltirdi» (Baqara, 285) deyilganidan farishtalarga ishonish imonning asoslaridan hisoblanadi.

Farishtalar nurdan yaratilgan, nurning tezligi o'ta kuchli bo'lganidan ular farishtalar ko'zga ko'rilmaydi. Farishtalarning sonini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi, ular Allohning buyrug'idan chiqmay doimo uning uyatlarini bajaradigan xos bandalar hisoblanadi. Ular Allohning barcha

maxluqlaridagi elchilar deyish mumkin. Xudoning xuzuridan ishini olamga olib tushib, o'shaning tadbirini qiladilar. Ularning jinsi yo'q. Xohlagan qiyofaga kira oladilar. Oyada «**Biz unga ruhimiz (ya'ni Jabroil)ni yubordik. Bas, u (Maryamga) chin odam bo'lib ko'rindi**» (Maryam, 17).

Qur'on va sunnada farishtalar muayyan vazifalari borligi haqida ham ma'lumot berilgan. Masalan, tog'larga, yomg'irga, bulutga, quyoshga, oyga, ekinga va hatto ona qornidagi bachadonga vakil qilingan farishtalar sinfi bor. Shu bilan birga insonga vakil qilingan farishtalar odamning ishlarini yozib boradilar. Oxirat ishlariga ham vakil qilingan farishtalar mavjud: o'limga, qabrdagi savol-javobga, jamatga, do'zaxga va hokazo. Masalan, «**Birortalarigizga o'lim kelgan paytda, uni elchi (farisha)larimiz erinmay (o'z vaqtida) vatot ettirurlar**» (An'om, 61), «**Biz faqat farishtalarni do'zax egalari (qo'riqchilari) qildik va Biz faqat kufarga ketgan kimsalarni sinash uchun ularning sanog'ini (o'n to'qqizta) qildik.. Parvardigorimizning qo'shinlarini (farishtalarning adadi va sifatlarini) Uning o'ziga bilur**» (Muddassir, 31), «**Farishtalar esa (osmon) atrofida (Allohning amriga muntazir bo'lib) tururlar. Ularning ustida Rabbimiz Arshini u kunda sakkiz (farisha) ko'tarib turur**» (Hoqqa, 17).

Farishtalarning aniq ko'rinishlari haqida ma'lumotlar manbalarda berilmagan. Faqat ba'zi jihatlari aytilgan, jumladan, «...**farishtalarni ikki, uch, to'rt qanotli elchilar qiluvchi..**» (Fotir, 1)

Farishtalardan 4 tasi: Jabroil, Mikoiil, Isrofil va Azroil bosh hisoblanadi.

3. Ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh tarafidan payg'ambarlariga kitoblar tushurilganiga imon keltirish. Buni «**(Ularning) har biri Allohga, farishtalariga, kitoblarga va payg'ambarlariga birortasini ajratmasdan (hammasiga) imon keltirdi**» (Baqara, 285) oyatidan bilish mumkin.

Shu bilan birga bu kitoblarga umumiy imon keltiriladi. Ammo ularning adadi va ismlari haqida aniq ma'lumot yo'q. Muhammad payg'ambarga (a.s.) Qur'on nozil qilinganidek, boshqa payg'ambarlarga ham kitob tushurilgan. Ulardan manbalarda zikr qilib o'tilganlari quyidagilardir: Ibrohim payg'ambarga

«Sahifalar», bu haqda Qur'onda «**Ibrohim va Muso sahifalarida (ham) bordir**» (A'lo, 19) deyilgan. Bir hadisda «Abu Zar: Ey, Allohning Rasuli, Ibrohimning sahifalarida nima bo'lgan?» - deb savol berganda, Payg'ambar (a.s.): «**Barchasi zarbulmasal bo'lgan...**» dedilar. Bu hadisdan uning mavzusi qanday bo'lganini bilish mumkin. Olimlar uni ma'lum varaqlardan iborat ekani va kitob holiga etmaganiini aytganlar.

Keyingisi «Tavrot» bo'lib, u Muso payg'ambarga, «Zabur» Dovud payg'ambarga berilgan. Iso payg'ambarga esa «Injil» nozil qilingan. Islom ta'limotiga ko'ra Muhammad payg'ambarga (a.s.) «Qur'on» nozil qilingan. Shuningdek, biror payg'ambarga biror kitob nozil qilinsa, u o'zidan avvalgi shariatni o'zgartirgan yoki butunlay yangi qarashlarni olib kelgan deb hisoblangan.

4. Payg'ambarlarga imon keltirish. Islom dini ta'limotiga ko'ra Alloh insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambarlarni yuborgan va bu payg'ambarlarga imon keltirish vojib hisoblanadi. «...**Payg'ambarlariga birortasini ajratmasdan (hammasiga) imon keltirdi**» (Baqara, 285). Shuning uchun ularning barchasiga birdек ishonish shart. Ulardan birini inkor qilish barchasini inkor qilish bilan barobar.

Alloh Odam (a.s.)dan boshlab, Muhammad payg'ambar (a.s.)gacha bo'lgan oraligda payg'ambarlar yuborgan. Ularning soni, hadis asosida 124 000 nafar deyiladi. Barchasining ismi Qur'onda kelmagan, balki 25 nafar payg'ambarning nomi zikr qilingan.

Payg'ambarlar ikki qismga bo'linadi: nabiy va rasul.

Nabiy va rasul orasidagi farq: 1. Alloh kimga vahiy yuborib, o'sha kishini boshqalarga etkazishni buyursa, o'sha odam nabiy va rasuldir. Ammo xabarni boshqalarga etkazishni tayinlamasa, nabiy hisoblanadi, rasul emas; 2. Rasul yangi shariatni olib keladi. Nabiy esa, yangi shariat bilan kelmaydi. Balki, o'zi oldingi shariatga amal qiladi va boshqalarni shunga amal qilishga da'vat qiladi; 3. Rasul umumiy bo'lib, farishtalarga ham, insonlarga ham ishlatilgan. Qur'onda: «**Albatta, u (Qur'on) bir ulug' rasul**

(Jabroil Alloh huzuridan keltirgan vahiy) so'zidir» (Takvir, 19). Bu oyatda farishta Jabroil nazarda tutilgan. Umuman olganda payg'ambarlar ham oddiy ison bo'lib, ular boshqa insonlarni Allohning ko'rsatmasiga amal qilishga chaqirish uchun kelganlar. Ular orasida rasullar 313 nafarni tashkil etadi.

Alloh Payg'ambarlarni oddiy odamlardan tanlagan. Payg'ambarlar o'zlarida Allohning buyruq va qayariqlarini aks ettirib, boshqa odamlarga namuna bo'lganlar. Ular ovqat eb, suv ichganlar. Tirkchilik qilib bozorlarda odamlarga aralashib yurganlar.

Payg'ambarlarning oddiy kishilardan ajrab turadigan birgina sifatleri ma'niyat qilish, shahvatlarga berilish, muruvvatga zarar etkazadigan va insonlik qadiri ketkazadigan narsalardan saqlanganliklaridir. Ular mo''jiza ko'rsatib, payg'ambarliklarini tasdiqlaganlar. Payg'ambarlarning mo''jizalari turlicha bo'lgan. Iso payg'ambar kasal odamni davolagan, Muso payg'ambar dengizni ikkiga bo'lgan, Muhammad payg'ambar (a.s.) suv solingan meshga qo'llarini tiqqanlaridan keyin o'sha idishdagi suvdan juda ko'pchilik ichgani va boshqa mo''jizalarini misol qilib keltirish mumkin.

Payg'ambarlarning ko'rsatgani mo''jiza bo'lsa, avliyolarning ko'rsatgani karomat bo'ladi.

5. Oxirat kuniga ishonish ham imonning bir bo'lagi hisoblanadi. Islom ta'limoti bo'yicha bu dunyo sinov-imtihon maydoni hisoblanadi. Alloh bu dunyoni bir kun tugatadi va insonlar qilgan ishlariga javob beradi. Alloh qiyomatda barcha yaratgan narsalarini jonini oladi va qayta tiritiradi. Insonlar qilgan ishlariga javob beradi.

Yaxshi ishlarni qilgan bo'lsa mukofotini, yomon ishlar qilgan bo'lsa jazosini oladi va ularning qilgan barcha ishlari insonga ko'rsatiladi. Ularning qilgan ishlari tarozuda tortiladi.

6. Insonning boshiga tushadigan yaxshilik yoki yomonlik Alloh tarafidan bo'lishiga — taqdirga imon keltirish. Batafsil qilib aytganda, taqdir — insonga keladigan barcha yaxshilik va yomonlik, borliqdagi har bir hodisa va voqealar yoki oxirada bo'ladigan hamma ish Allohning taqdiri, ilmi, irodasi va belgilab

qo'ygani bo'yicha sodir bo'lishiga imon keltirish hisoblanadi. Xursandchilik va xafalik, hayot va o'lim, boylik va kambag'allik, kasallik va sog'lomlik va boshqa barchasi Allohdan deb bilishdir. Taqdir masalasini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi, hatto payg'ambarlar ham va farishtalar ham bu sirdan voqif emas.

Qadar masalasida chuqur ketib baks qilish xato deb bilinadi. Taqdirda baxti deb yozib qo'yilgan odam baxtlidir. Shuningdek, taqdirda baxtsiz yoki badbaxt deb yozib qo'yilgan inson baxtsizdir. Bir oyatda: «U o'zi qiladigan biror narsa haqida javobgar emas, balki ular (Allohning oldida bandalar) javobgardirlar» (Anbiyo, 23), deyiladi.

Shuningdek, Alloh qiyomatgacha nima bo'lishini ham biladi. Agar ularni bilmasa, Uning komil sifati nuqsonli bo'lib qoladi. Mazkur ilohiy ilm «qazoi-qadar» deb ataladi.

Qazo — Allohning hamma narsalarning kelajakda qandoy bo'lishini azaldan bilishi. Qadar esa, o'sha narsalarning Allohning azaliy ilmiiga muvofiq ravishda vujudga kelishiga aytiladi.

Bunda johil kishilar o'ylaganidek, Alloh tomonidan bandani majbur qilish yo'q. Balki, Alloh taolo tomonidan banda nima qilishini oldindan bilish bor. Chunki Allohning ilmi chegara bilmasdir.

Ko'pchilik odamlar qazo va qadarni Alloh tomonidan O'zi takdir qilib qo'ygan ishlarga bandani gahr bilan majbur qilish, deb hisoblaydilar. Ularning bu fikrlari noto'g'ridir. Qazo va qadarning ma'nosi, bandalarning kelajakda bo'ladigan ishlarini Alloh tomonidan muqaddam bilib turlishidir. Qazo va qadarni noto'g'ri tushunish oqibatida qadariy, jabariy va boshqa oqimlar kelib chiqqan.

7. O'lgandan keyin qayta tirlilishga ishonish ham imon shartlaridan biridir. Qiyomat kuni bo'lganda, barcha insonlar qayta tirlilib, mahshargohga yig'iladilar. U kunda yaxshi ishlarning mukofoti (jannat), yomon ishlarning jazosi (do'zax) beriladi. Barcha ishlar Xudoning huzurida ko'riladi. Banda

amallari hisob-kitob qilinadi. Har bir kishining qilgan ishlari kitobi – nomai a'moli o'qiladi. Yaxshi amallar va yomon ishlar hammasi o'lanadi.

Bu borada Qur'on oyatlari va hadislarda misollar ko'p. Masalan, «Ular: **«Holimizga voy! Kim bizlarni uxlayotgan joyimizdan uyg'otdi?»** – deganlarida, (ularga aytilur): **«Mana shu Rahmon va'da qilgan va payg'ambarlar so'zlagan rost narsa (qiyomat)dir»**» (Yasin, 52).

Qiyomat tik turish ma'nosini bildiradi. O'sha kunda hamma qabridan tik turib tirilishiga shu nom berilgan. Qiyomat – hisob kuni, oxirat kuni, mahshar kuni kabi bir qancha nomlar bilan ham yuritiladi. Qiyomat masalasi qachon bo'yicha masalasi qadimdan dolzarb masala bo'lib kelgan. Islom ta'limoti bo'yicha uning qachon bo'lishini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi. Hatto payg'ambar va farishtalar ham. Faqat uning alomatlari bildirilgan.

Islom ta'limotiga ko'ra qiyomatda insonlar savol-javobdan o'tadigan joy – mahsharga yig'iladilar. Mahsharda savol-javobdan keyin insonlarga do'zax ustidagi sitor nomi ko'prikdan o'tishlari aytiladi.

Qiyomardan o'tgan inson jannat (bog', bo'ston) yoki do'zaxdagi joyiga boradi. Alloh jannatni ham, do'zaxni ham yaratib qo'ygan. Ular inson etib boradigan so'ngi manzili hisoblanadi.

Diniy aqida bo'yicha, jannat imon keltirgan, taqvodor, yaxshi insonlar uchun tayyorlab qo'yilgan. Ular u erda rohat va farog'arda yashaydilar. Qiyinchilik, kasal, qarilik va o'lim yo'q. Istagan narsalari muhayyo bo'ladi. Bularning barchasi bu dunyoda qilib o'tgan amallari tufayli beriladi. U erdagi narsalar tugamaydi, insonlarga man qilib qo'yilmaydi. Jannatdagi eng oliy ne'mat, bu Allohning diydorini ko'rishlik hisoblanadi.

Do'zax esa, jannatning aksi kofir, munofiq va gunohkor – diniy talablarni bajarmaganlar uchun tayyorlab qo'yilgan va ularga turli azob-uqubat beriladigan jazolash joyi. U erda azob uchun olov, qaynab turgan buloq bo'ladi. Eydigan va ichadigan narsalari ham ularni azoblash uchun bo'ladi. Do'zax ham abadiy qoluvchi hisoblanadi. Ulardagi azoblar engillatimas va vaqinchalik bo'lmaydi. U bir nechta tabaga chuqurlikdan iborat, gunohlari darajasiga qarab jazolanadilar.

Jannatdagi rohatlar va do'zaxdagi uqubatlar ham jasad va ham ruh uchun bo'ladi. Qiyomat, jannat va do'zaxning vasfi haqida Qur'onning ko'p o'ylarida ma'lumotlar berilgan.

4. Islomda yo'nalishtarning vujudga kelishi. 632 yilda Payg'ambar vafotidan so'ng hokimiyat xalifalikka saylanganlar tomonidan boshqariladigan bo'ldi. Birinchi xalifa Abu Bakr bo'ldi. Ikkinchi bo'lib Umar ibn Xattob saylandi, so'ng Usmon ibn Affon va Ali ibn Abi Tolib bo'ldilar. Avvalgi ikki xalifa davrida xalifalikda ichki nizo va bo'linishlar bo'lmadi. Usmon xalifaligi davrining so'nggi yillarida ichki nizolar paydo bo'lib, xalifaga qarshi hujumlar kuchaydi. Oxir-oqibat bir to'da odamlar Usmonni uyiga bostirib kiradilar va xalifani o'ldiradilar. Xalifaning o'ldirilishi xalifalikda urushni keltirib chiqardi va Ali ibn Abi Tolib xalifaligi davrida bunday nizolar kuchaydi. Shom voliyasi Muoviya xalifaga qarshi chiqib tezroq xalifa Usmon qotillarini topib jazolash talabini qo'yadi. Xalifa bu paytda avval ichki nizolarni tugatish bilan ishini boshlagan bo'ladi. Bu ixtilof qur'oli to'qnashuvga olib keladi.

Bu to'qnashuv 657 yili Iroqning Siffin degan joyida bo'lib o'tgani uchun jang nomi Siffin deb atalgan. Shunda davlat tuzumi masalasida Payg'ambardan keyin xalifalik kimga o'tishi kerak degan masalada uch toifaga bo'linish yuz berdi.

Birinchi – xalifa Ali tarafdorlari bo'lgan, xalifalik faqat payg'ambar xonadonida meros sifatida o'tishi kerak deb hisoblovchi guruh. Natijada ulardan shialik oqimi kelib chiqdi.

Ikkinchi – xalifa Alining sobiq tarafdorlaridan tashkil topgan, uni Siffin jangidan keyin tashlab ketgan xorijiyalar (ajrab chiqqanlar) guruhi hisoblanadi.

Uchinchi – «ahli sunna val jamoa» guruhi.

Shahrisoniy esa Payg'ambar tiriklik vaqtidayoq sahobalar orasida tafvut boshlanganini aytadi.

Xorijiyar va shialar firqalaridan islomda bid'at, firqachilik va adashishlik boshlandi. Bunday firqalar asosiy ikki masalada paydo bo'ldi: imomat (davlatga rahbarlik) va aqidada.

Shuning uchun islomda firqalarga bo'linib ketish asosan diniy-siyosiy nuqtai nazardan kelib chiqqan deb hisoblanadi. Birinchi xorijiyarning paydo bo'lishi ham xalifa Ali siyosatiga qo'shilmaslikdan, keyingi shialik esa xalifalik Ali va uning avlodlariga meros bo'lib qolishi kerak deb hisoblovchilardan bo'ldi. Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish zarurki, islomda firqalarga bo'linish Muhammad payg'ambar (a.s.) hadislaridan javob topiladi. Bir necha hadislarini keltirib, shu asosida islom ummatining bo'linishini aytib o'tishgan.

Muhammad payg'ambar (a.s.) aytadilar: «YAhudiylar 71 firqaga bo'linadi, nasroniylar 72 firqaga bo'linadi, ummatim esa 73 firqaga bo'linadi. Ulardan bittasi najot topadi, qolgani do'zax ahlidir», deganlarida. Sahobalar: «Najot topadigan firqa qaysi», deb so'raganda. Payg'ambar: «Men bilan sahobalarim tutgan yo'ldagisi», deb javob beradilar» (Imom Termiziy rivoyati). Hadisda aytilgan najot topuchi firqa «ahli sunna val jamoa» hisoblanadi.

«Ahli sunna val jamoa» sunniylik deb ham nomlanadi. Buning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan jihatlari barcha sahobalarni yaxshi ko'rish, kishini katta gunoh qilgan bo'lsa ham musulmon deb hisoblash, u agar vafot etsa jamoza o'qish, odli va zolim podshohga qarshi chiqmaslik, Allohni sifatlarini inkor qilmaslik va hokazo.

Biroq ilk davrlarda musulmon olimlari tomonidan yakdillikga ega bo'lgan musulmonlarning aqidasi ishlab chiqilmagani bois, «to'g'ri e'tiqod qilish» va «bid'at» to'g'risidagi tasavvur shia va xorijiyarning paydo bo'lganidan keyin tizimga solindi.

Xorijiyar xalifa Alining qo'shimidan ajrab chiqqan va «ahli sunna val jamoa» e'tiqodiga to'g'ri kelmaydigan g'oyalarni ilgari surgan guruh. Bunda ular xalifa Alini kelishuvchilikda ayblab, undan ajralib ketganlar va xalifaga ham, Moviyaga ham qarshi urush ochganlar.

Ular o'zlarini haqiqiy musulmon deb hisoblagan va siyosiy hamda g'oyaviy raqiblariga nisbatan murossasiz bo'lgan. Xorijiyarning ta'limotiga ko'ra, xalifa jamoa tomonidan saylanadi va jamoaga bo'ysunadi; har qanday taqvodor musulmon (hatto gul yoki qora tanli bo'lsa ham) xalifa bo'lib saylanishi mumkin; agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa, vazifasidan bo'shatiladi va hatto qatl etiladi.

Xorijiyar gunohi kabira qilganlarni kofirlikda ayblaganlar va ularni o'ldirishgacha borib etganlar. Ba'zi sahobalarni ham kofir deyishgan. Bundan tashqari, «Zolim» podshohga qo'llida qur'ol bilan qarshi chiqishni diniy vazifa deyidilar.

Xorijiylik bilan bir vaqtda paydo bo'lgan yana bir oqim shialikdir. Shialik «shiatu Ali» (Ali guruh) nomidan bo'lib, aliparast oqim hisoblanadi. Bu yo'nalish boshda har qanday ixtilof va aqidaviy farqlardan xoli holda, faqat siyosiy harakat sifatida namoyon bo'lgan. Keyinroq diniy ixtiloflar, aqidaviy farqlar vujudga kelgan. Ularning fikricha hokimiyat xalifa Ali va uning avlodiga tegishli. Chunki imomat asosiy diniy ruknlardan hisoblanadi. Ularning ta'limotiga ko'ra, rahbar xalq tomonidan saylanmaydi, balki meros sifatida o'tadi.

Ularning fikri bo'yicha Payg'ambar (a.s.) Alini xalifa qilib tayinlaganlar. Xalifalardan Abu Bakr, Umar va Usmonlar bu huquqni Alidan zo'rlik bilan tortib olganlar. Shuningdek, Alining xalifaligi ilohiy ko'rsatma deb hisoblaydilar.

Shialar ham Qur'oni ilohiy kalom deb e'tirof etadi (ayrim o'ta mutaassib ruhdaqi oqimlari xalifalar davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan deb hisoblaydi). Ulamolari esa, Qur'onning mazmunini majoziy talqin qilish yo'li bilan o'z ta'limotlarini asoslaydilar. Shuningdek, hadislardan faqat xalifa Ali va uning avlodi tomonidan qilingan rivoyatlari tan oldilar va shunday rivoyat-hadislardan iborat mustaqil to'plamlar tuzgan.

Sunniylikda e'tirof etilgan diniy aqidalardan farq qilib, shialikda tavihid, adl, nubuvvat, imomat, qiyomatdan iborat 5 ta aqidaga e'tiqod qilinadi.

Bulardan 4 aqida – tavihd (Allohning yagonaligini e'tirof etish), adl (adolat, Allohning odilligi, ya'ni takdir aqidasi), nubuvvat (payg'ambarlik), qiyomat yoki ma'od (oxirat kunning kelishi va o'lganlarning tirilishi), asosan, sunniylik ta'limoti bilan mos tushadi. 5-aqida esa imomat (Ali va uning avlodlaridan iborat o'n ikki imom hokimiyatini) esa, sunniylikka zid ekani bilan farq qiladi.

SHialik ichida ixtiloflar yuz berishi natijasida ko'p firqalar vujudga kelgan. Bulardan zaydiyalar, ja'fariyalar va boshqalar. Imomiyalar va ismoiliyalar shialikdagi ikki yirik oqim hisoblanadi.

Mu'taziliyalar oqimi aqida masalasi bo'yicha ahli sunna val jamoa yo'nalishidan ajralib chiqqan. Ular Qur'onni diniy haqiqatning manbai deb e'tirof etadilar, uni so'zma-so'z emas, majoziy talqin qilishga harakat qiladilar, rivoyatlarga ko'r-ko'rona ishonishga qarshi chiqadilar. Shuningdek, gunohi kabira, qabr azobi, avliyolar karomati kabi masalalar bo'yicha o'ziga xos qarashga ega. Jumladan, gunohi kabira qilgan kishi mo'min ham kofir ham bo'lmaydi, balki ikkisi orasida bo'ladi, deganlar. Mu'taziliylarning yana bir aqidasi bu Qur'onning yaratilgan haqidir. Sunniyalar Qur'on Allohning kalomi desalar, mu'taziliyalar Qur'on Allohning yaratgan narsasi, deb hisoblaganlar.

Xalifa Ma'mun (813-833) mu'taziliyalar ta'limotini davlat dini sifatida qabul qildi. U barchani, ayniqsa, qozilar, olimlar, amaldorlarni e'tiqodini sinab ko'rdi. Natijada kim mu'taziliyalar aqidasi (xususan, Qur'onning yaratilganini) tan olmasa ishdan bo'shadi, hatto o'lim jazo chorasini qo'lladi. Xalifa Mutavakkil (847-861) davrida ushbu ta'limot ta'qib ostiga olindi.

Mu'taziliyalar aql-idrokni aqidaning asosi deb e'tirof etgan, tasavvufni inkor etishga uringan, o'zlarini tavihd va adolat (adl) tarafdorlari, deb bilganlar.

Keyinchalik 13-14-asrlarga kelib mu'taziliyalar yo'qolib ketgan.

Qadariya ham mu'taziliylarga o'xshab aqidaviy masalada adashgan hisoblanadi. Ularning asosiy da'volari Allohning xohshi, qazosi va qadarni inkor qiladilar va «Alloh bandalarining ishtidan o'jizdir», deydi. Sunniyalar esa, Alloh har bir narsani oldindan biladi, degan bo'lsa, qadariyalar buni inkor qiladilar. Ular odillik xudoning asosiy sifatlaridan biri degan fikr asosida gunohni xudo oldindan

belgilagan bo'lishi mumkin emas. Xudodan faqat adolatlilik ishini kutish mumkin, gunoh ishlar esa inson faoliyati bilan bog'liq, demak, inson iroda va faoliyat erkinligiga ega, shuning uchun u gunoh qiladi, degan xulosaga keldi.

Ularning ta'limotini keyinchalik mu'taziliyalar davom ettirdilar.

Jabariyalar esa, qadariyalar e'tiqodining aksini ishlab chiqdilar va islomda taqdir masalasida adashgan deb tan olingan firqalardan biridir. Ular ahli sunna val jamoada tan olingan takdir masalasini inkor qiladi. Jabariyalar inson taqdirini xudo mutlaq oldindan belgilab qo'ygan, insonda hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo'q, bular faqat xudoda mavjud, inson esa, ana shu faoliyatni o'zlashtirib olish imkoniyatiga ega, degan aqidalarni ilgari surgan. Alloh bandalarga gunoh ishlarni taqdir qilgan va inson gunoh amallarni qilishga majburlidir, deb insondagi juziy ixtiyorni rad etadilar. Alloh insonga toqati etmaydigan narsani yuklashi mumkin, deb Allohga majbur qiluvchilik sifatini beradilar. Iroda erkinligi tarafdori bo'lgan qadariylarga jabariyalar qarshi bo'lgan.

Mushabbihalar (o'xshatuvchilar) e'tiqodi bo'yicha Allohni inson suratiga o'xshatadilar va uning inson a'zolariga o'xshash jismolari bor deydi. Bu bilan «ahli sunna val jamoa» aqidasi qarshi chiqqan. Chunonchi sunniyalar Allohni hech narsaga o'xshamaydi va bunday o'xshatish xato hisoblanadi.

Umuman olganda islom tarixida vujudga kelgan adashgan firqalar o'zlarini ham bir nechta guruhlariga bo'linib ketganlar. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, hozirgi kunda paydo bo'layotgan turli adashgan oqimlar o'limshodlarning aqidasi olib yangicha ko'rinishda taqdim qilmog'ida. Jumladan, xorijiyalarning odam o'ldirishi, hozirda ISHID va boshqa janangari guruhlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarga o'xshaydi. Biron inson katta gunoh qilib qo'ysa, uni ko'firga chiqarish ham xorijiyalarning ishi hisoblangan.

5. Fiqhiy mazhablarning paydo bo'lishi. Islom dini tarqalgan hudud kengayib, turli millatlar va xalqlar shu dini qabul qilganlaridan va uni o'z

hayotlari tarziga aylantirdilar. Diniy masalalarda turli qarashlarni paydo bo'lishi va ularni hal qilish maqsadida musulmon olimlari katta rol o'ynadi.

Muhammad payg'ambar (a.s.) vafotlaridan keyin u kishining ishini xalifalar, sahobalar, so'ng tobeinlar davom ettirdilar. Payg'ambaridan keyin u kishining ishini sunna asosida davom ettirganlar «sunnilar» yoki «ahli sunna val jamoa» nomini oldi. Payg'ambar davrida biror masala yuzasidan savol paydo bo'lsa, odamlar dardol shu holatni payg'ambarga etkazib, o'zlariga aniq javob olganlar. Shuning uchun bu davrda ixtiloflar bo'lmagan. Sahobalar ko'pchilikni tashkil qilgan vaqtda ham ixtilofli masalalarni tez va oson hal qilganlar, ammo sahobalar davri tugab borishi natijasida musulmonlar orasida turli ixtiloflar ko'paydi.

Hijriy ikkinchi asrga kelib musulmonlar orasida shariatning turli masalalarni mustaqil echib bera oladigan olimlar paydo bo'la boshladi. Ular turli masalalarni hal qilishda Qur'on oyatlari va hadislarni sharh qilib, shu bilan birga sahobalarning qilgan ishlarni o'rganib, o'shalar asosida hukmlar chiqarib berdilar.

Olimlarning atrofida shogirdlari ko'payib, ularning qarashlarini yozib, ommalashtirdilar. Buning natijasida mazhablar paydo bo'ldi. Shu bilan birga ba'zi olimlarning qarashlari kengaymagani sababli ularning qarashlari mazhab darajasiga chiqa olmadi.

«Shariat» so'zi arab tilida ikki ma'noda qo'llaniladi: «suvga olib boradigan yo'l» va «to'g'ri yo'l». Masalan, «So'ngra (ey, Muhammad!), Biz sizni (diniy) ishdan iborat shariat uzra (barqaror) qildik...» (Josiya, 18), oyatida shariat so'zi, «to'g'ri yo'l» ma'nosida kelgan.

Islom huquqida ulamolilar nazdida, Qur'on va sunnada kelgan ilohiy ko'rsatmalar (hukmlar)ning majmuidir. Boshqacha qilib aytganda islom dinining amaliy qismi. Huquqshunoslar esa, islom qonunchilik majmuini nazarda tutdilar.

«Fiqh» esa, lug'atda «chuqur tushunish», «idrok etish», «bilish» ma'nolarini bildiradi. Istilohiy ma'nosi esa, «fiqh» – shariat hukmlarini o'rganish, shariat qoidalarini barcha qismlari bilan anglash hamda qaysi maqsadda ishlab chiqarilganini tushunish va o'zlashtirilgan ushbu ilmiy amalga tadbir etishdir. Fiqhning manbasi: Qur'on, sunnat, ijmo va qiyos.

Fiqh bilan chuqur shug'ullangan olimlar faqihlar (fiqh olimi, huquqshunos) deb nomlandi. Bular orasida eng ko'zga ko'ringan va fiqhiiy mazhabni hozirgacha etib kelgan mujtahid olimlar quyidagilardir: Imom Abu Hanifa No'mon ibn Sobit Kufiy, imom Molik ibn Anas Madiniy, imom Muhammad ibn Idris SHOfeiy va imom Ahmad ibn Hanbal Shayboniy.

Mazkur mazhablar oldingi mavzuda aytilganidek, aqida nuqtai nazardan bir xil, faqat fiqhiiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, bular bir-birini inkor qilmaydi, balki qo'llab-quvvatlaydi. Mazhablarning maqsadi diniy manbalardagi matnlarni keng xalq ommasiga oson tushuntirish bo'lgan va bu bilan oddiy xalq o'z masalalarini tezda xal qilganlar.

«Mazhab» arabcha so'z bo'lib, «yo'nalish», «yo'l», «diniy ta'limot» ma'nolarini bildiradi. Islom shariati va aqidasiy muayyan bir tizimga solingan holatdagi ko'rinishi mazhab deyiladi. Bundan ko'rinish turganidek, mazhablar ikki qism – fiqhiiy va aqidaviyga bo'linadi. Fiqhiiy mazhablar to'rtta: hanafiy, molikiiy, shofeiy va hanbaliy. Aqidaviy mazhablar: moturidiy va ash'ariyalaridir.

Molikiiy mazhabiga madinalik olim imom Molik ibn Anas Abu Abdulloh (713-795) asos solgan. U «Madina imomi» unvoniga sazovor bo'lgan. Imom Molik Madina olimlari qarashlari asosida o'z mazhabini yaratgan. Shuning uchun ushbu imom Madina faqihlaridan fiqhni o'rganib, ahli hadis qo'llaydigan uslubni qabul qilgan va ushbu qoida asosida o'z shogirdlarini tarbiyalagan.

Imom Molik Qur'on, sunna va ijmo'ga tayanib hukm chiqargan. Shu bilan birga madinalik olimlarning itifoqini ham hukm chiqarishda juda katta o'lboriga olgan. Chunki Muhammad (a.s.) shu shaharda yashagan va bu shahar aholisi payg'ambar va sahobalar ko'rsatmalari va qilgan ishlarini mukammal o'zlashtirganlarini e'tiborga olgan.

Olim «al-Muvatto» nomli hadis ilmiyga oid to'pam muallifi hisoblanadi va mazkur asar molikiiy mazhabining asosiy manbasi sifatida o'z ifodasini

topgan. Muhaddis buning uchun 40 yil umrini sarflagan. Bu asar ilk hadis to'plamlaridan biri bo'lib, bir necha ming hadisi o'z ichiga olgan.

Imom Molik ibn Anasning shogirdlari orasida tanikli muhaddis va hanafiy mazhabi faqih imom Muhammad Shayboniy (vaf. 805 y.), shof'iylik mazhabi asoschisi Muhammad ibn Idris Shofeiyy (vaf. 820 y.) bo'lgan.

Hozirgi vaqtda ham bu mazhab qoidalarining Marokash, Tunis, Jazoir va Liviya nikoh-ola va mulkka oid huquqiga sezilarli ta'siri bor.

Muhammad ibn Idris Shofeiyy (767-820) ham alohida mazhabga asos solgan.

Bu olim imom Molik va imom Abu Hanifaning katta shogirdi imom Muhammad dars olgan. Shu nuqtai nazardan ushbu mazhab huquq tizimi xanafiyar va molikiylarning diniy-hukumi ta'limotini asosida ishlab chiqilgan, deb aytilish mumkin. Shunday bo'lsada, ko'proq molikiylarga yaqin turadi. Boshqacha qilib aytganda, ahli hadis va ahli ra'yni qarashlarini birlashtirgan va o'ziga xos uslubni yaratdi. Olim ijmo bo'yicha ummat jimosiga e'tibor qaratgan bo'lsa, shu mazhabning keyingi ulamolari olimlar ijmosini ham qabul qilishga majbur bo'ldilar.

Shofeiyylik ham boshqa mazhablar kabi Qur'on, sunna ijmo va qiyosga tayanadi. Imom Shofeiyyning «al-Umm» va «ar-Risola» kitoblari ushbu mazhab usuliga asos bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, uchinchi-to'rtinchi hijriy asrlarda Markaziy Osiyoda Shofeiyy mazhabi Hanafiy mazhabi bilan raqobat qilgan. Uning yirik vakili toshkentlik buyuk olim Muhammad ibn

Ali ibn Ismoil Qaffol SHoshiy (904-976) edi. U kishi fiqh, hadis, lug'at va adabiyot bo'yicha o'z davrlarining mashhur olimlaridan bo'lgan. Usulul fiqh bo'yicha ularning asarlari mashhur. Toshkentda vafot etib, qabrlari Hastimom (Hazrati Imom) madrasasi yonida joylashgan.

Hanbaliy mazhabi asoschisi Ahmad ibn Hanbal (780-855) hisoblanadi. Olim yashagan Bag'dod shahrida ilmu fan rivoj topishi bilan birga turli e'tiqodiy qarashlar markazi ham bo'lgan.

Hanbaliy mazhabida Qur'on, sunnat, ijmo va sahobalarning gaplari asosiy o'rin egallaydi. Qat'iy zarurat sezilmagan holatlardan tashqari qiyosdan foydalanmaydi. Barcha hadislarni va rivoyatni (sahobalar so'zini) qiyosdan ustun qo'ygan.

Imom Ahmad xulafoi roshidin, sahobalar, tobeinlar, shuningdek, o'zidan oldingi uch mazhab fiqhini o'zlashtirgan. Chunonchi ilk marta fiqhni imom Abu Hanifaning shogirdi imom Abu Yusufdan o'rgangan. Shuningdek, «men hadis yozib olgan birinchi kishi Abu Yusuf edi», deganidan hadisi ham shu kishidan olgani bilinadi. Keyinchalik imom Shofeiyydan ham fiqhni o'rgangan. O'zi esa, imom Buxoriyga ustozlik qilgan.

Hadis ilmi bo'yicha «al-Musnad» asari juda mashhur hisoblanadi. Bu kitobda qiriq ming atrofiida hadis janlangan bo'lib, asar hanbaliy mazhabining asosiy qarashlarini ifoda etadi.

Yuqorida keltirilgan fiqhiiy mazhablar diniy firqalardan farq qiladi. Ular bir-birining fikriga qarshi chiqaydi va o'zlarini boshqasi bilan teng deb hisolaydilar. Mazhablar shariat masalalarida engilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishi bilan farq qiladi. Shuningdek, mazhablar o'zi tarqalgan mintaqalarning sharoitidan ham kelib chiqqan holda fatvolar berganlar. Jumladan, shofeiyy mazhabida tahoratdan so'ng yuzni artmaslik afzal hisoblanasa, hanafiy mazhabida yuzni artish afzaldir. Hanafiy mazhabi sovuq o'lkalarda ham tarqalganini e'tiborga olinasa, shofeiyy mazhabi asosan issiq o'lkalarda yoyilgan.

Mazhablar turlicha bo'lsada, ular asoschilari-mujtahidlarning barchasi bir-biriga ustoz-shogird tizimidadir. Ular bir-birlarining mazhabini tan oladilar. To'rtta mazhab ham hijriy ikkinchi asrning o'zida shakllanib ulgurgan. Ammo ushbu mazhablarning faqat bittasini ushlash lozim. Bir masalada bu mazhabni, boshqasida ikkinchisiga amal qilish mumkin hisolamaydi.

6. Imom Abu Hanifa va hanafiylik mazhabi. Hanafiylik mazhabi asoschisi Abu Hanifa Nu'mon ibn Sobit (699-767) bo'lib, «Imomi A'zam»,

ya'ni eng buyuk imom laqabi bilan mashhur bo'lgan. Mazkur mujtahid olim Kufa shahrida tug'ilib shu erda vafot etgan.

Bu zot sunniy mazhablar asoschilari orasida yoshi eng kattasi hisoblanadi. Rivoyatlarga ko'ra bobosi Sobitni hazrat Ali oldilariga olib kelib, uning haqqiga duo qilishlarini so'raydi. Hazrat Ali Sobitni o'zi va zurriyotiga barakat so'rab duo qilaдилar. Sobitning zurriyotidan imom Abu Hanifa mashhur bo'lib ketdi. Imomning otasi Kufada ipak va jun mato tijorati bilan shug'ullangan va imom Abu Hanifa ham keyinchalik shu ishni davom ettirgan.

Imom A'zam yoshligidan Qur'oni yodlaydi. Ma'lum vaqt savdo ishlari bilan shug'ullanib yurgan. Shu orada Kufa va uning atrofida e'tiqodiy bahs va munozaralarda faol ishtirok etib borgan. Bir kuni ko'chada imom Sha'biyning yonidan o'tib ketayotganida, oldiga chaqirib, qargga ketayotganini so'raydi. U bozorga ketayotganini, aytganda, men sendan uni emas, balki qaysi olimning darsiga borayapsan deb so'raydi. Imom A'zam hech birining, degan javobidan so'ng, imom Sha'biy shunday deydi: «Ilm va ulamolalar bilan ko'rishib turgin. Seni nihoyada zukko va ilmga tashnaligingni ko'ryapman». Olim odamning bu gapiga kirib, Abu Hanifa ilm yo'lini tanlaydi.

Abu Hanifa Umaviylar va Abbosiylarning siyosiy kurashlari, hokimiyat bir suloladan boshqasiga o'tganda davrda yashagan bo'lsa ham qo'lga quru olib ikki tomonning siyosatiga aralashmadi, balki o'z ilmini oshirish va tarqatishga harakat qildi. Bu davrda aqidaviy oqimlar orasida ham kurashlar ancha qizigan. Olim bu kurashlarni kuzatib borgan tabiiy. Ibn Bazzozning rivoyatiga ko'ra imom Abu Hanifa o'g'li Hammudga shunday degan: «Bizlar munozara qilgan vaqtda subhadoshimizning haq va to'g'ri yo'lgan chiqib ketishidan qo'rqar edik, lekin sizlar munozara vaqtida raqibingizni haq yo'ldan chiqishini istaysizlar. Har kim o'z subhadoshini haq yo'ldan og'dirmogchi bo'lsa, uni kufri tomonga yo'llaydi, lekin uning o'zi subhadoshidan oldinroq kufri yo'liga o'tgan bo'ladi».

Manbalarda imom Abu Hanifaning sahobalarni ko'rgani aytiladi, shuning uchun u tobeinlardan hisoblanadi. U Hammud ibn Abu Sulaymon, Ibrohim Naxaiy, Sha'biy kabi va boshqa olimlardan sahobalar Ali va Abdulloh ibn

Mas'ud, Abdulloh ibn Abboslarning fiqhini o'zlashtirdi. Ayniqsa, Hammud uning eng asosiy ustoz hisoblangan. Unga 22 yoshida shogird tushib, u kishidan o'n sakkiz yil davomida fiqh ilmini o'rganadi. Bu haqda o'zi quyidagilarni aytgan: «Men ilm va fiqhning konida edim. Uning ahli ila majlis qurdim. Ularning faqihlaridan birini lozim tutdim». Uzoq yillar dars olishi va ustoz vafotidan so'ng uning o'rni dars berishni boshlagan. Ustoz o'rniga dars berishi natijasida, Hammud qoldirgan maktab keyinchalik mazhabga aylandi.

Shuningdek, ko'p yurtlarga safar qilgan va o'sha erlik olimlar bilan ham ilmiy bahs va munozaralarga kirgan.

Abu Hanifa fiqor va salobat egasi bo'lgan. Ko'p fikr yuritib, kam so'zlar edi. Taqvoli, parhezkor, zohid, bekorchi va foydasiz so'zlarni gapirmas, gapirganda qisqa va lo'nda so'zlardi. Biron kishi masala so'rab kelsa, xozirjavoblik bilan ishni xal qilardi.

Imom Abu Hanifa Qur'on, summat, sahobalarning so'zlari, qiyos, istehson, jimo, urf kabi fiqhii manba va uslublariga ko'ra hukm chiqargan.

Fiqhda shunday maqomga etganki, har bir oyat va hadisdan kerakli fiqhii xulosalar chiqara olgan. Abu Hanifa hadisini, sahobalar so'zini, puxta o'zlashtirgan. Hadislarning sahii va zaifini ajratib, ayniqsa, hadislardan chiqariladigan hukmlarning to'g'ri bo'lishiga katta e'tibor qaratgan. Rivoyatlarning birida ustoz Sha'biy bir masalada murojaat qiladi. Abu Hanifa unga javob beradi. Shunda ustoz buni (javobni va unga hujjati) querdan olding deb so'raganda, Abu Hanifa o'zingiz rivoyat qilgan hadisdan oldim deb hadisini aytadi. Javobdan so'ng Sha'biy: «Sizlar tabii sizlar, ey, faqihlar jamoasi, biz (muhaddislar) dorishunosmiz», deydi.

Abu Hanifa fiqhda ham yuqori martabalariga erishgan. Quyida imom Abu Hanifaning juda ko'p hadis bilishini isbotlovchi ba'zi omillarni keltirish mumkin. Ulardan: 1. Ko'plab olimlar qatori Imom Abu Hanifaga muxolif bo'lganlar ham ittifoqan uning mujtahidligini tan oladilar, ya'ni uning mujtahid olim ekanida ixtilof yo'q. Mujtahid bo'lishning shartlaridan biri

ahkomga oid hadislarini yaxshi bilishlikdir; 2. Manbalarda aytilishicha, Abu Hanifa sakson uch mingdan ortiq masalaga javob bergan. Hadislarni yaxshi bilmaydigan kishi bunday ko'p masalaga javob berishi mumkin emas; 3. Abu Hanifa hadis rivoyatiga ko'p to'xtalmagan. Buning sabablaridan birini o'sha davr olimlari hadislarini yaxshi bilganlaridir. Shuning uchun ular ilm majlislarida hadislardan chiqadigan masalalarga javob topishni, ya'ni istinbot bilan shug'ullanishni asosiy maqsad qilib olganlar. Hadisning fiqhini, uni tushunishni, nosix va mansuxini, om va xosini, mutlaq va muqayyadini bilishga intilganlar, uning sahiligiga emas; 4. Abu Hanifa davrida nafaqat hadis ilmini, balki barcha ilmlarni yozib borish odat tusiga kirmagan, huddi Rasullulloh (s.a.v.) va sahobiyalar davridagi kabi. Shunday bo'lsada, Imom Abu Hanifa nazdida hadislarini rivoyat qilish mas'uliyati ish ekanini quyidagi Imom Abu Yusuf rivoyatidan ham bilish mumkin. Unda, Imom Abu Hanifa: «Kishi hadisni eshitgan vaqtidagidek, (ya'ni qanday eshitgan bo'lsa o'shanday) aytilishi lozim», degan; 5. Abu Hanifa to'rt mingdan ortiq ustozdan dars olgan. Chunki u Basraga 10 marta, Makka va Madinaga esa o'nlab marta borgan. U joylardagi ko'pgina olimlarning suhbatida bo'lgan. Demak bahs va munozara vaqtida ko'plab hadislar eshitgani tabiiy.

Abu Hanifa qiyos va istehsonni (chiqarilgan xulosalardan musulmonlar uchun foydaliroq tomonini olish tamoyili) ko'p qo'llagan. Hatto zaif hadisni qiyosdan oldin qo'ygan. Bu borada imom Abu Hanifa shunday degan: «Rasullulloh (s.a.v.)dan kelgan har narsa bosh ushiga, sahobalardan kelganini esa orasidan yaxshirog'ini tanlab olamiz, ammo tobeiyalardan kelgan bo'lsa, biz ham ulardek kishilarmiz». Bu bilan o'z mazhabining usulini ko'rsatgan.

Imom Abu Hanifaning eng mashhur shogirdlaridan Abu Y'Usuf YA'qub ibn Ibrohim Ansoriy va Muhammad ibn Hasan SHayboniydir. Abu Hanifaning bu ikki shogirdi ustozining ishini davom ettirib, boshqa olimlarga ustozlik qildilar.

Hanafiylik mazhabi asoschisi Abu Hanifa alohida muayyan mavzuga oid kitob yozmagan. Balki u rivoyat qilgan hadislarini, ayrgan fatvolarini keyinchalik olimlar kitob holatiga keltinganlar. Jumladan, «al-Fiqh al-akbar», «al-Olim va-l-muttaallim», «al-Vasiyya» va «al-Musnad» va boshqalar.

Olim dunyo ishlari va mansabga qiziqmagan. Xalifa unga bosh qozilik (qozi al-quzot) mansabiga taklif qilganda rad etgan.

Shunday bo'lsada, eng katta shogirdi imom Abu Y'Usuf «Qozi al-quzzot» lavozimida faoliyat yuritib, hanafiylik mazhabining yanada keng yoyilishiga xizmat qilgan. Imom Muhammad esa, hanafiy mazhabining nazariy asoslarini ishlab chiqib, o'z asarlarida ularni keltirib o'tgan.

Ushbu mazhab sunniy musulmonlar orasida eng keng tarqalgani hisoblanadi, ya'ni 47% sunniy musulmon shu mazhabga amal qiladi. Tarixda uning juda ko'p davrlardagi asosiy mazhab sifatida e'tirof etilishi jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida qo'llanishi, milliy urf-odatlariga bag'rikengligi, turli mintaqalardagi shart-sharoitlarga mos kelishi hamda boshqa omillar sababi uning ko'p musulmon xalqlari tomonidan qabul qilinishiga sabab bo'lgan. Uning keng miqyosda tarqalganiga sabablardan biri barcha mintaqalarda yashayotgan musulmonlarga chiqarilgan hukmlari oson amal qilishiga imkon bergan. O'zbekiston hududida hanafiylik mazhabi keng tarqalgan va shu mintaqada aholisi mazkur mazhabga amal qilib kelmogda.

7. Mazhabsizlik va uning oqibatlari. Bugungi kunda turli guruhlar tarafidan mazhablarni inkor qilish holatlari uchrab turibdi. Ular mazhabsizlik g'oyasini ilgari surib, asosiy maqsadlari asrlar davomida amal qilinib kelinayotgan fiqhiy mazhablarni inkor qilish hisoblanadi.

Mazhabsizlik g'oyasi deyarli 12 asrdan ortiq vaqt mobaynida yashagan minglab ulamolarning butun umrlarini sarflab olgan ilmlari va qoldirgan me'roslarini, yozgan asarlarini bekorga chiqaradi. Shu bilan birga asrlar davomida amal qilinib kelinayotgan an'analar noto'g'ri, ularga amal qilgan musulmonlar esa adashgan ekan degan xulosaga olib keladi. Bundan tashqari musulmonlar birligini xavf ostiga oladi. Zero Muhammad payg'ambar (a.s.) hadislarida: «*Alloh unmatini zolotlata jamlamaydi*», «*Musulmonlar yaxshi deb bilgan narsa Allohning huzurida ham yaxshidir*» (hadislarni Hokim

Naysapuriy rivoyat qilgan), deyilgan. Mazhablar ham musulmonlarning birligi.

Olimlar butun umrini shariat ilmiaga bag'ishlab, undagi o'la nozik masalalarni o'rganish uchun o'nlab yil umrlarini o'tkazganlar. Qur'on va hadislarda uchraydigan va barcha insonlar tushunishi qiyin bo'lgan joylarni fahmlash va tushunishga oson shaklga keltirib so'ngi xulosalarni berganlar.

Mazhabsizlik g'oyasini soxta salafiyar ilgari surmoqda. Ularning fikricha, fiqhiiy mazhablar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarini to'g'ri tushunish usuli sifatida tan olinmaydi, balki shariat ahkamlarini to'g'ridan-to'g'ri amalga tadbiiq etish lozim deb hisolanadi. Boshqacha qilib aytganda, mazhabsizlarning da'vosi bo'yicha har bir kishi, o'zi Qur'ondan yoki hadisdan hukm olishi mumkin. CHunki mujtahidlarning xulosasi boshqalar uchun asos bo'la olmaydi, har bir odam o'zi fatvo berishi mumkin. Ularning g'oyasiga amal qilinadigan bo'lsa, barcha Qur'on va hadisdan hukm olishga o'tsa, jamiyatdagi boshqa sohalarda izdan chiqib ketadi. CHunonchi tibbiyot, arxitektura va hokazo soha egalari ham o'zlari mustaqil tarzda Qur'on yoki hadislarini o'rganib o'z masalalarini xal etishlari lozim bo'lib qolar edi.

Mazhabsizlarning aytayotgan da'volaridan yana biri faqat sahiih hadisga amal qilish lozim, chunki mujtahidlar har xil fatvo chiqarganlar, shuning uchun bu bo'linish hisoblanadi deyilar. Aslida mazhablardagi bir masalaga turlicha qarash mujtahidning o'sha masalani qanday tushunishiga bog'liq. Arab tili boy til bo'lgani sababli, bir olim Qur'ondagi so'zning bir ma'nosini qabul qilgan bo'lsa, ikkinchi mujtahid boshqa ma'nosini olgan. Hukm ham shunga yarasha bo'lgan. Hadislardan hukm olish ham shunga yarasha bo'lgan. Bir mujtahid bir hadisni olgan va unga qarshi bo'lgan hadisni esa, hukmi o'chgan deb bilan, boshqa mujtahid esa, o'sha hadisni hukmi o'chmagan deb qabul qilgan. Bularidan tashqari payg'ambar tomonidan sahobalarga ham o'z o'miga qarab turlicha masalalar berilgan. Sahobalar esa, turi joylarga tarqalib, borgan joylarida o'zlari bilgan ilm bilan boshqalarni tanishtirganlar. Shu va boshqa sabablar bilan mazhablar orasida bir masalaga turlicha fatvolar berish kelib chiqqan. Shunday bo'lsada mazhablar

bir birlarining hukmlarini xato deb hisoblamaydilar va o'sha boshqa hukmi hurmat qilaдилar.

Soxta salafiyar tarafidan ilgari surilayotgan mazhabsizlik g'oyasi, mujtahidga emas, balki Payg'ambarga ergashish dozim deb hisoblaydilar. CHunki salafi-solihlar payg'ambarga ergashgan, ular davrida mazhablar bo'lmagan, degan dav'ni amalga oshirdilar.

Shu o'rinda fatvo va muftiiy haqida to'xtalib o'tish o'rinni. Fatvo deb lug'atda «mushkul ishga javob qidirish», «savolga javob berish», «shariat masalalari yuzasidan fatvo chiqarmoq», «maslahat bermoq», «muftiiyning xulosasi» degan ma'nolarni bildiradi. Istilohda esa, «dalilga asoslanib, shari'iy hukmi so'rovchiga bayon qilib berish»ga fatvo deyiladi. Hanfiy mazhabi olimlaridan Taqiiy Usmuniy fatvoni «Diniy masalalarga javob berishdir», degan.

«Muftiiy» deb shariat hukmlari borasida fatvo beradigan odamga aytiladi. Faqih Qarofiiy shunday degan: «Muftiiylar Alloh taoloning tarjimonlaridir. CHunki ular nass (Qur'on va hadis)ga tayangan holda hukm chiqaradilar». Imom SHotibiiy esa: «Muftiiylar ummat uchun Rasululloh (alayhis-salom) maqomlarida bo'ladilar. Bunga dalil qilib: «*Olimlar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir. Payg'ambarlar dinor yoki dirham emas, balki ilmi meros qilib qoldirganlar*» (imom Termiziiy rivoyati), hadisini keltiradilar» deb sharhlagan.

Hanafiiy olimi Taqiiy Usmuniy shunday deydi: «Mohir ustozlarning huzurida fiqhni o'rganmagan kimsaning fatvo berishi mumkin emas. Ustozlar huzurida fiqhni o'rganagan kishining har birga fatvo berishi mumkin bo'lmaganidek, o'zi (mutaqil ravishda) fiqhiiy kitoblarni mutolaa qilgan kimsaga ham fatvo berishi mumkin emas. Hatto u ahkom usullari, qoidalari va illatlari bilan tanishib chiqib, malaka hosil qilgan bo'lsa ham, mo'tabar kitoblarni boshqalardan ajratib olsa ham mumkin emas». YUqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, barcha odamlarga, hatto u diniy kitoblarni o'qib tushunsa ham diniy masalalarda fatvo berish mumkin emas.

Odamlar shariat bilimlarini bilish darajasiga ko'ra: xos va ommaga bo'linadi. Xos kishilar muayyan soha bilan shug'ullanib, uni mukammal o'rganagan mutaxassislar hisolanadi. Omma esa, o'zlarining kasblari bilan mashg'ul bo'lib, kerakli vaqtda mutaxassisga murojaat qilib, o'z masalasini xal qilgan. Shariy hukmlar masalasida ham xos kishilar – mujtahid-faqihlar shug'ullanib, ommaga uning masalarini etkazib, tushuntirganlar. Omma esa unga amal qilgan. Shariy nuqtai nazardan odamlar: mujtahid va muqallidga bo'linadi.

Mujtahid deb manbalarida, ijihod qilish (muayyan iliy salohiyatga ega faqih olimning shariatning muassal dalillaridan shariy hukmlarni chiqarib olish, ya'ni istinbot qilish janayoni) faoliyati bilan shug'ullanadigan kishiga aytilgan. Mujtahid olimlar shariatning mustaqil manbasi emas. Balki mujtahid shariat qonunlarini sharhlovchisi va uning manbalarni tushuntiruvchisi deb tan olimadi.

Omma esa, ijihod qila olmaydigan, boshqacha qilib aytganda, mustaqil tarzda shariat manbalarini tushunmaydi va ulardan qanday hukm olinishini bilmaydigan kishi. Ular mujtahidga taqlid qiladi va u muqallid-taqlid qiluvchi deyiladi. Taqlid qiluvchi mujtahidning hukmiga amal qiladi. Musulmonlarning asosiy qismi shu guruh - taqlid qiluvchilar guruhidan iborat.

Shu kungacha yashagan musulmon olimlarining faoliyati natijasida mazhablar jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan. Mazhabsizlik va shunga o'xshash fikrlar faqat islom dushmanlari musulmonlar orasida tarqatishga harakat qilmogda. Tarixda bunday holat kuzatilmaganini musulmon olimlari ta'kidlamogda.

Olimlardan Shoh Valiulloh Dehlaviy to'rt mazhabdan biriga taqlid qilish haqida: «Bilginki, ushbu to'rt mazhabning birini ushlashda (taqlid qilishda) ummat uchun katta foyda va afzalilik bor. Ulardan yuz o'g'irishda katta fasod bor», degan.

Aslini olganda esa, musulmonlar Payg'ambar (a.s.)ga ergashadi, mujtahidlarga taqlid qiladi xolos. Ulamlarning tugan yo'llari haqida mashhur muhaddis Zahabiy: «Biz, to'rt imom (Abu Hanifa, Molik, Shofeiyy, Ahmad), ikki Sufyon (Sufyon Savriy va Sufyon ibn Uyayna), Avzo'iy, Dovud Zohiriy, Ishoq ibn Rohuvayh va boshqa imomlar haq yo'lda bo'lganlar, deb ishonishimiz lozim. Ular

o'zlari haqda aytilayotgan ayb (gap)lardan pok bo'lib, u gaplarga e'tibor qaratilmaydi. Boshqa mujtahid muayyan bir mazhabga ergashishi shart... Ikki haram imomi (Juvayniy) ta'kidlaganidek, sahoba va tobeinlarga ergashib bo'lmaydi, chunki ularning mazhabi yozilmagan va shakllantirilmagan. Qozilik masalalari va fatvo berishda to'rt mazhabdan boshqasiga taqlid qilinmaydi», degan. Boshqa bir olim Tojuddin Subkiy shunday yozadi: «Ushbu to'rt mazhab (hanafiy, molikiy, shofeiyy, hanbaliy), Alloh rahmati ila, e'tiqodda bir bo'lgan. Ularning izdoshlaridan ayrimlari mo'taziliylar va mujassimaga qo'shib ketganlariga qaramasdan, ularning mutlaq ko'pchiligi haqiqatga rioya qilganlar...». «Ahl sunna val-jamoa» olimlari to'rt mazhabdan biriga taqlid qilish shart ekani borasida ixtilofga bormaganlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, islomdagi fiqhiy mazhablar musulmonlarning biriligini saqlashga va omma xalqning diniy ishlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarini oldini olishga xizmat qilgan. Biroq mazhablarni inkor qilish g'oyalari musulmonlar oldiga turli shubhalarni solib sof islom g'oyalarini inkor qilib jamiyatda ixtilofli vaziyatni keltirib chiqarishga harakat qilmogda.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Kalom, aqida, tawhid ilmlari nimani o'rganadi?
2. Moturidiylik va ash'ariylik yo'nalishlari qanday paydo bo'lgan?
3. Imom nima ma'noni bildiradi?
4. Islom ta'limotida nechta narsaga imon keltirish shart hisoblanadi?
5. Islomda ilk bo'linish qaysi yil bo'lib o'tgan?
6. Fiqhiy mazhablarning paydo bo'lishiga qanday omillar bo'ldi?
7. Imom Abu Hanifa kim va u qanday mazhabga asos soldi?
8. Mazhabsizlik da'vo qilayotgan g'oyalarning qanday salbiy oqibatlar bor?

Mustaqil ish mavzulari

1. Imom Moturidiy va uning qarashlari.

2. Kalom ilmi adabiyoti.
3. Qur'onda oxirat haqidagi oyatlar tahlili.
4. Hadislarda ilm olishga bo'lgan targ'ibot.
5. Islom tarixida ixtiloflar va ularning xal etilishi.
6. Fiqhiy mazhablar tarixi.
7. Hanafiy mazhabi manbalari.
8. Salafiylik va uning tarixi.

Adabiyotlar

1. Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 160 b.
2. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqidatut-tahoviya shartining talxisi. – Toshkent: 2015. – 448 b.
3. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jaev H., Rahimjonov D., va boshq. Dinshunoslik. – Toshkent: Mehnat, 2004. – 296 b.
4. Ogilov S. Kalom ilmi. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 160 b.
5. Ochilidiev O., Rahimjonov D., Muhammedov N. Va boshq. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 320 b.
6. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To'ldirilgan nashr. Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.

12-mavzu. Diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyot, qarshi kurash strategiyasi

Reja

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati.
2. Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.
3. Islom niqobidagi ekstremizmining g'oyaviy ildizlari.
4. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari.

Tayanch tushunchalar: Ekstremizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm, mutaassiblik, aqidaparastlik, terror, terrorizm, xalqaro terrorizm, firqalar, xorijiyalar, soxta salafiyalar.

Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati. Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalada, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va tarqiqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi.

Ekstremizm (lotincha – «aqi bo'var qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalariga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, diniy ekstremizmga olib keladi.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddaviylik, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi

kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini ta'qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizming o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlari a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Fundamentalizm – (lotincha – «asos») tushunchasining ma'nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko'rinishini anglatadi.

Diniy fundamentalizm – «ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan fikrni ilgari surish ta'limotini anglatadi. Istihodda aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladi.

«Fundamentalizm» atamasi aslida xristian dini bilan bog'liqdir. Fundamentalizm iborasi birinchi bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantlikdagi ortodoksial oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mulqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlash, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919 yili Frladelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshladi. Bunda «fundamentalizm» atamasi – Qur'on va hadislarni so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhda yotgan yo'nalishga nisbatan ishlatildi. Buning natijasida jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarni «fundamentalistlar» deb atash ham odat tusiga kirib. Shunday ekan, ekstremizm yoki fundamentalizmi faqat muayyan din bilan bog'lash mutlaqo asossiz. Xususan, islom dini, u bilan bog'liq turmush tarzi va qadriyatlar majmui hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go'yo din va musulmon jamoasi ravnaqi yo'lida amalga

oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas. Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go'yoki, keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko'rsatish, aslida esa jamiyada tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag' yig'ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongini egallash, jamiyada beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlaydi.

Hozirgi davrda ko'plab ekstremistik uyushmalar va mutaassib harakatlari turli dinlar, shu jumladan, islom, xristianlik, yahudiylilik dinlari ta'limotlaridan foydalanmoqdalar.

Aqidaparasitlik (arab. – «aqida») – «ishonch», «biron narsani ikkinchisiga bog'lash») muayyan sharoitda, biron-bir g'oyaga qat'iy ishonib, uni mulqalashitirish asosida shakllangan goida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llash yoki shunga urinishni anglatadi. U muayyan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy kengaytirishga urinishda yorqin namoyon bo'ladi.

Mutaassiblik (arab. – «g'uluv ketish», «chuqur ketish») o'z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonib, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabadda bo'lishni anglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy mutaassiblik g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatari jihatini diniy siyosiy lashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dindan odamlar orasiga nifoq solish, qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g'arazli manfaatlarni ro'yobga chiqarishda foydalanishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Shu o'rin qayd etish joizki, ko'p manbalarda

«aqidaparastlik» soʻzi hozirgi voqealardan kelib chiqib «mutaassiblik» soʻzi bilan almashirilgan holda istefoda etilmoqda.

Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari. Terrorizm (lotincha – «qoʻrqitish», «vahimaga solish») – aholining keng qatlamlarida vahima va qoʻrquv uygʻotish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoyi faoliyatdir.

Terror – ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zoʻravonlikdan hamda zoʻravonlik qilish bilan tahdid solishdan muntaзам foydalanishdir. Shunday qilib, «terror» dushmani jismaniy zoʻravonlik yoʻli bilan qoʻrqitish, hatto uni jismanan yoʻq qilishni anglatadi. «Terrorizm» esa terror amaliyotidir. Bu ikki tushunchani shu tarzda chegaralash maqbul boʻlsa, u holda terroridan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa boʻlmay, bugungi kungacha asrlar qoʻynidan eib kelgan, deb hisoblash mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida «terrorizm»ga quyidagicha taʼrif berilgan: «Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur etkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qoʻrqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismaniy va yuridik shaxsni biron bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiiyilishga majbur qilish uchun zoʻrlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulka xavf tugʻdiruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud boʻlishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishini taʼminlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga koʻmaklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablagʻ-vositalar va resurslar berish yoki yigʻishga, boshqa xizmatlar koʻrsatishga qaratilgan faoliyat».

Yuqorida keltirilgan taʼriflarda terrorizmining nihoyada muhim bir xususiyati – uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalariga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-

sado, shov-shuvga erishishga qaratilgan taʼkidlangan. XX asrning 60-yillaridan boshlab, terrorizmining mojarolarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatidagi salohiyati, butun-butun mintaqalar yoʻnalishi turlicha boʻlgan terrorchi tashkilotlar va guruhlar faoliyat koʻrsatgan joylarga aylanib qoldi. Buning natijasida, terrorchilik harakatining koʻlamiga emas, balki metodlari ham oʻzgardi. Uning eng dahshatli koʻrinishlaridan biri – oʻzini avvaldan oʻlinga tayyorlagan terrorchi-kamikadzealar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni keltirish mumkin.

Musulmon mamlakatlarida terrorchi uyushmalar ommaviy boʻla olmagan uchun aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uygʻotish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar. Demak, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmini tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb eib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

«Xalqaro terrorizm» tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qoʻrquvchilik faoliyatini ifodalaydi. U ogʻir jinoyatlardan boʻlib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Xalqaro terrorizm fenomeni, ayniqsa, XX asr boshlarida avj ola boshladi, yaʼni xalqaro terrorizmgaga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikni yoʻlga qoʻyilishi oʻtgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Masalan, 1934 yilda Madridda boʻlib oʻtgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bagʻishlangan konferensiyada terrorizmining «Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillashtirish yoʻq qilish maqsadida biror bir vositani qoʻllash» degan maʼnodagi taʼrif qabul qilinishiga erishilgan. 1937 yilda 20dan ortiq davlat terrorizmining oldini olish va bunday harakatlarni uchin jazolash haqidagi Konvensiyani imzoladi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini taʼkidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arboba qarshi uyushirilgan terror amaliyoti koʻproq uchragan boʻlsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va poezdlarda portlashlarni sodir etish orqali koʻplab tasodifiy kishilarning qutbon

bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmog'da. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo'lganlardan ko'ra, uning guvohlariga qaratilgan.

Xalqaro terrorchilik harakatlarning asosiy belgilari:

xalqaro huquq himoyasidagi ob'ekt yoki sub'ektlarga qarshi qaratilgani;

davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;

a'zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma

shaxslar bo'lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;

ekstremistik guruhlar tarkibida qo'poruvchilik harakatlari bo'yicha xorijlik

yo'riqlarning qatnashishi;

ekstremistik guruh a'zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan

maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko'rishi;

tayyorgarlik ko'rish va qo'poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog' savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo'lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko'rilishiga olib keladi.

Islom niqobidagi ekstremizmining g'oyaviy ildizlari. Islom niqobi ostida paydo bo'lgan ekstremistik harakatlarning tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning ildizlari uzoq o'tmishga, hatto islom tarixining birinchi asriga borib taqalishini ko'rish mumkin. Uning ilk vakillaridan biri sifatida 657 yili xalifa Ali (r.a.) askarlaridan ajralib chiqqan, o'zlarini haqiqiy musulmon, saffariga qo'shilmaganlarni «dindan qaytgan» deb e'lon qilib, ularga qarshi munosabat kurash olib borgan «xorijiyalar» (arabcha-ajralib chiqqanlar, isyonchilar) diniy-siyosiy oqimi faoliyati fikrimizning isboti bo'la oladi.

Xorijiylik yo'nalishi va ta'limoti. Xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) (644-656) davriga kelib islom jamoasi ichida fitnalarning paydo bo'ldi. Usmon (r.a.)ga uyushtirilgan suiqasd (656 y.) ham ana shu siyosiy kurashlarning natijasi edi. Xalifa o'ldirilgach, uning o'rniiga Ali ibn Abu Tolib (r.a.) (656-661) saylandi.

657 yil (37 hijriy)da SHomning (Suriya) shimoli-sharqida joylashgan Siffin mavzesida xalifa Ali (r.a.) qo'shini bilan u erdagi hokimni Muoviya (r.a.) qo'shini o'rtasida «Jamal voqeasi»dan bir oy o'tib, to'qnashuv sodir bo'lgan. Ushbu to'qnashuv 656 yil uchinchi xalifa Usmonning (r.a.) o'ldirilishi munosabati bilan Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.) tarafdorlari o'rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar sabab bo'ldi. Marhum xalifaning yaqin qarindoshi bo'lgan Muoviya (r.a.) xalifalik taxtini egallagan Ali (r.a.)dan aybdor jinoyatchilarni jazolashni talab qilib, shundan so'ngina Ali (r.a.)ga bay'at qilishni ma'lum qildi. Jang to'g'ri kun davom etdi. Ali (r.a.)ning qo'li baland kelib turganda, Muoviya (r.a.) tarafdorlari hiyla ishlatdilar. Ular Amr ibn Oss (r.a.) ko'rsatmasi bilan katta nayzalar uchiga yangi ko'chirilgan Mushaf varaqlarini ilib, Qur'on bilan hukm chiqarishni talab qildilar. Muoviya (r.a.)ning janjalni sulh orqali hal qilish haqidagi taklifini Ali (r.a.) qabul qilgach, jang to'xtatildi. Ali va Muoviya (r.a.)lar o'rtasida hijriy 37 yil safar oyining 15 kuni (mil. 657 yil 8 sentyabr)da sulh tuzildi. Mazkur «Siffin» jangi musulmonlar uchun juda katta yo'qotish bo'ldi. Unda hamma bo'lib to'qson ming musulmon halok bo'ldi. Aynan «Jamal» va «Siffin» janglari musulmonlar o'rtasida dastlabki bo'linishlar va turli firqalar kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Ahli sunna va-l-jamoa e'tiqodiga ko'ra, sahobiyalar orasida yuz bergan bu vaziyatlarda ular ayblanmay, ularning bari haqni izlagan mujtahidlar hisoblanadilar. Umumiy qoidaga asoslanib, ulardan qaysi birlari to'g'ri ijthod qilgan bo'lsalar, ikki ajr, xato ijthod qilgan tarafga esa bir ajr beriladi.

Xalifa Ali (r.a.) bilan Muoviya (r.a.) o'rtasidagi tuzilgan bitimdan Kufa yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo'shinning bir qismi norozi bo'ldi. Ular «hukm chiqarish faqat Allohning iznidadir», degan shior bilan qo'shinni tak etib, Kufa yaqinidagi Harura qishlog'iga ketdilar. Bu firqaning Kufadagi «xyyy» (bo'yusmaslik) voqeasi ularning «xavoriy» (qarshi chiquvchilar) nomini olishlariga sabab bo'ldi. Bu voqea Harura qishlog'ida yuz berganligi bois avvaliga ularni «haruriylar» deb ham ataganlar. Ular o'zlarini «Shurot» (Jonlarini Alloh yo'lida tikkan kishilar) deb nomlaganlar. Yana ularning «Muhakkima» («hukm Allohning iznida» deguvchilar) degan nomlari ham bo'lgan.

Xorijiyar o'zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosbiyini amir etib saylab, Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.)ni yo'q qilish payiga tushdilar. Xalifa Ali (r.a.)ni 661 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Mujlam o'ldirgach, xorijiyar ikki firqaga bo'linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xorijiyarlarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xorijiyar kuchayib, Kimon, Fors, Yamoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi shahar va o'lkalarni egaladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749-1258) qo'lga o'tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o'z kuchini yo'qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so'ngina xorijiyar inqirozga yuz tutdi.

Demak, islomda dastlab paydo bo'lgan firqa «xorijiyar»dir. «Xorijiyar» o'z talqinlaridagi «sof» islom qoidalariga qat'iy rioya qilish tarafdori edi. Aynan ular o'z qarashlari va faoliyatiga qo'shilmaganlarni imonsizga chiqarish, ularga qarshi «jihod» olib borish haqidagi g'oyalarni ishlab chiqib, terror uslubini qo'llash orqali hukmdorlarni jismanan yo'q qilish amaliyotini boshlab bergan edi. Bunday g'oyalar kelib chiqishiga ko'ra hokimiyat uchun kurashning zo'ravonlikka asoslangan usullaridan bo'lib, minglab kishilarning halok bo'lishiga olib kelgan. O'z davrida ular bilan bahs munozara qilish, ularning fikrlariga raddiya berish, to'g'ri yo'l ko'rsatish maqsadida Abdulloh ibn Abbos (r.a.) ularning huzuriga jo'natilgan edi. Abdulloh ibn Abbos asosan ularning «Allohnin hukmi» borasidagi xato qarashlariga raddiya bergan. Natijada jami olti minglik xorijiyarlardan ikki ming nafari zalolat aqidalaridan qaytarilgan.

VII asrning ikkinchi yarmida xorijiyar orasida rahbarlarining ismi bilan ataladigan bir necha firqalar paydo bo'ldi. Ana shunday mutaassib firqalar orasida eng murossasiz va shafqatsiz jamoa nomini olgan Nofir ibn Azraq (v.685y.) boshchiligidagi «Azraqiyar» oqimi alohida o'rin egallaydi. Azraqiyar gunohi kabira (katta gunoh) qilgan barcha musulmonlarni «kofir» deb, ularning ta'limotiga qo'shilmagan kishilarga qarshi jihod e'lon qilish, hatto, qariya, ayol va bolalarning qonini to'kishni halol, deb bilganlar.

IX asr oxirida Janubiy Iroqda yuzaga kelgan qarnatiylar namoz, ro'za, zakot, huj kabi amallar farz qilinmagani, Qur'on oyalarida masjid qurish yoki u erda yig'ilish haqidagi hukmlar yo'q, degan da'vo bilan masjidlarga borishni man qilish darajasigacha borgan edi. Harakat o'z nomini uning asoschisi Hamdon ibn al-Ash'asning laqabi Qarnat so'zidan olgan bo'lib, uning ma'nosi manbalarida turlicha «kalta oyog» yoki «qizil ko'z» kabi ma'nolarda ifodalangan. Islomdagi mavjud qoida va tartiblarning mohiyatini buzib talqin qilish oqibatida ular hatto, hujga keluvchilar Ka'bage sig'inib, Allohga shirk keltirishmoqda, degan da'volar ostida 930 yilda Makkaga hujum qilib, uni talon-taroj qilib, hojilarning bir qismini qul qilishgan, bir qismini esa o'ldirishgan. Ka'bani vayron qilib, qora toshni ikkiga bo'lib, Bahraynga olib ketishgan, faqat 20 yildan keyin katta to'lov evaziga u Makkaga qaytarib berilgan. Qarnatiylar islom tarixida o'chmas dog' qoldirgan jinoyatlarni sodir etgan.

XI asr oxirida Eronda yuzaga kelib, maxfiy ravishda ish ko'rgan «hashshoshiylar» (arabcha – hashish (nasha) chekuvchilar, g'iyohvandlar) terrorchiilik oqimi esa hokimiyatni egallash maqsadida ularga xayrixoh bo'lmagan hukmdorlarga suiqasd uyushirish amaliyotini oldinga surgan edi. Uzoq vaqt hashshoshiylar ko'plab hukmdorlarga tahdid solib turgan, hatto, ayrim Evropa мамlakatlari rahbarlari o'z xavfsizliklarini ta'minlash uchun ularga to'lov to'lashga majbur bo'lgan. Shu bilan birga, «hashshoshiylar» zamonaviy terrorchilar tomonidan ham keng qo'llanilayotgan, oddiy kishilar va yoshlarga g'iyohvand moddalarni iste'mol qildirib, o'lsa shubhasiz jannatga tushishiga ishonilgan.

Diniy mutaassiblikka asoslangan ixtiloflar oqibatida cheksiz nizolar, kelishmovchiliklar, hatto qonli urushlar kelib chiqib, katta talofatlarga va jamiyatning inqiroz tomon yuz tutishiga sabab bo'lgan. Buzg'unchiilik va zo'ravonlikka asoslangan, e'tiqodiy birlikka tahdid solgan bunday oqimlar faoliyati o'z davri ulamolari tomonidan qat'iy qoralanib, sultonlar tomonidan ta'qib qilinganini alohida ta'kidlash lozim.

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Din nioqibidagi ekstremizm va u bilan bog'liq terrorizm dunyoning 15 dan ortiq mamlakatlarga alohida tahdid solmoqda. Er kurrasining turli qitalarida joylashgan bunday mamlakatlarni shartli tarzda bir necha guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga mansub SHimoliy Afrikada joylashgan ayrim arab mamlakatlari, jumladan, eng katta arab davlati bo'lgan Mistr Arab Respublikasi uchun diniy ekstremizm bilan bog'liq terrorchilik harakatlari haqiqiy muammoga aylandi. 1970-1980 yillarda bunday jarayon Tunisni ham qamrab oldi. Mazkur mintaqada joylashgan yana bir arab davlati – Jazoidagi diniy-ekstremistik tashkilotlarning qo'poruvchilik faoliyati tufayli o'n minglab begunoh insonlar halok bo'lgan bo'lsa, radikal oqimlar Sudanda ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning mutlaqo izdan chiqishiga, Darfur mintaqasining dunyoning eng fojiali nuqtalaridan biriga aylanishiga sabab bo'ldi.

Ikkinchi guruhga Osiyo qit'asida joylashgan yana bir necha arab davlatlarini kiritish mumkin. Turli-tuman siyosiy, iqtisodiy va diniy-mafkuraviy sabablarga ko'ra, Falastin hududlari, Suriya, Iroq Respublikasi diniy ekstremizm bilan bog'liq terrorchilik harakatlardan katta talafot ko'rmoqda. Ayniqsa, Suriya davlatining iqtisodiyotiga 5 yillik urush 255 milliard AQSH dollari miqdorida zarar keltirdi. Mamlakatning o'nlab shaharlaridagi 2 milliondan ziyod bino va inshootlar poydevorigacha yo'q qilingan, neft-gaz qazib chiqaruvchi quvullarning ko'p qismini «ISHID» jangarlari qo'lida qolmoqda. Shu sababli, 85% suriyaliklar qashshoq holatga tushib qolgan. BMT ma'lumotlariga ko'ra, Suriyani tiklash uchun yiliga 100 milliard AQSH dollari lozim bo'ladi. Shundan keyingina 9 yil ichida davlat 2010 yilgi darajaga chiqishi mumkin. Suriyaning sobiq Bosh vaziri va hozirda BMTning iqtisodiy va ijtimoiy Komissiyasi ijroiyy kotibining o'rinbosari bo'lgan Abdulloh al-Dardoriy aytishicha, 2010 yili Suriyaning yalpi ichki mahsuloti 62 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan. Ammo, fuqarolar urushidan so'ng yalpi ichki mahsuloti 27 milliard AQSH dollariga tushib ketgan. Faqatgina ishlab chiqarish maydonlarining o'zi 90% vayron qilingan. Turar-joy

binolarining yarmi esa buzib tashlangan. Diniy-ekstremistik faoliyatning uchinchi o'chog'i Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida joylashgan deysish mumkin. Ushbu xalarning olovli nafasi, ayniqsa, Pokiston, Indoneziya, Malayziya hamda Hindiston va Filippinning ayrim hududlarida o'zining halokati oqibatlarini namoyon etmoqda. Boshqacha aytganda, qadim-qadimlardan buddaviylik, hinduviylik, islom va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar tinch-totuv yashab kelgan ulkan hududda ham ekstremizmining qo'poruvchilik salohiyati o'zini ko'rsalmoqda.

Islom mafkura sifatida musulmonlarni birlashtiruvchi kuchli omil bo'lib kelgan. Asrlar davomida turli ijtimoiy tabaqalar va millatlarni qamrab olishi natijasida, bugungi kunda islom o'z rivojlanishida katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Islom dini doirasida yuzaga kelgan turli qarama-qarshiliklar oqibatida jangari millatchilik va diniy ekstremizmga asoslangan siyosiy kuchlar va ittifoqlar paydo bo'lmogda. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash olib borishda kompleks va tizimli, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy chora-tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Albatta, bunday chora-tadbirlarni qo'llash katta vaqt, tegishli reja va yirik mablag'lar talab qiladi.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashda xalqaro birdamlik va kelishuvlar ham katta ahamiyatga ega. Xususan, o'z hududida diniy ekstremistlar va terrorchilar faoliyatiga yo'l ochib bermaslik, ularga yordam ko'rsatmaslik va siyosiy boshpana bermaslik hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Arab – musulmon davlatlari ichida Mistr Arab Respublikasi birinchi bo'lib terrorizm muammosiga 1940-yillarda, «Musulmon birodarlar»ning o'z faoliyatida ishtirok etish usullaridan radikal terrorchilikka – davlat, politsiya va armiyaning ko'zga ko'ringan arboblarni jismonan yo'q qilish yo'lga o'tishi natijasida duch keldi. Ushbu davlatning diniy mutaassiblikka qarshi kurashdagi bir necha o'n yillik tajribasi radikal diniy guruhlariga xayrixohlik bilan qarash, ularni pinhona rag'batlantirish ekstremistik harakatlarning yanada faollashuviga, yangilarning paydo bo'lishiga imkon yaratishini ko'rsatadi.

Musulmon mamlakatlarning diniy ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi umuman olganda, har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlaridan qat'i nazar, bilvosita va bevosita qarshilik ko'rsatish usullarini o'z ichiga oladi. Bilvosita choralariga rasmiy diniy tashkilotlar bilan hamkorlik, zo'ravonlikka qarshi kurashda diniy arbob va muassasalarning ahamiyatini oshirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradigan dasturlarni kiritish mumkin.

Bevosita qarshilik ko'rsatish o'z ichiga huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan ko'riladigan choralarini, aksilterrorchilik qonunlarini qabul qilish, ulardan keng foydalanish kabi tadbirlarni oladi. Shu o'rinda, masalan, Misr qonunchiligi diniy asosda partiyalar tashkil etishni taqiqlashini ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, davlat noqonuniy ravishda qurol saqlaganlar, zo'ravonlikni targ'ib etuvchilar, radikal guruhlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchilarga nisbatan qattiq ma'muriy-jinoiy choralarni qo'llashini ham qayd etish lozim.

1990-yillarda zo'rlik va terror harakatlarning kuchayishi esa Misr hukumatini «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonun kabi, bir qator yangi huquqiy hujjatlarni qabul qilishga majbur qildi. Bunday maxsus Qonunning qabul qilinishi xavfsizlik idoralarga ko'proq e'timol berish va ular olib borayotgan faoliyatining samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq edi.

Musulmon mamlakatlari diniy ekstremizm va zo'ravonlik muammolarini ilmiy va keng qamrovda echish bo'yicha amaliy ishlarni tashkil etmoqda. Jumladan, ilmiy-tekshirish institutlari va strategik markazlarda bu muammoning ilmiy-tizimli tahliliga katta e'tibor berilmoqda. Bu jaryonda har bir mamlakatda muayyan o'ziga xosliklar kuzatilishi, tabiiy, albatta. Masalan, Indoneziyada ekstremizmga qarshi olib borilayotgan kurashda ekstremistlarning yirik vakillari, jumladan, qamoqda bo'lgan Abu Bakar Bashir tomonidan tashkil etilgan «Islam maktablari»ni yopish choralari ko'rilayotgani bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, 2002 yilda Bali orolida sodir etilgan va 200 dan ortiq kishining umrini xazon qilgan portlashlarning tashkilotchilaridan biri Imom Samudra

tomonidan yozilgan va jangarilik g'oyalariiga boy bo'lgan kitoblarni bosish va tarqatish man etilganini ham qayd etish zarur.

Bunday harakatlar hozirda hukumat va ulamolarning diniy ekstremizmga qarshi birgalikda olib borayotgan ishlarining bir qismi sifatida qaralmoqda. Umuman olganda, Indoneziyada «Politsiya ishtirokida kuchga va musulmon ulamolarning faol ishtirokida mafkuraga tayanib ish olib borish – ekstremizmga qarshi kurashning ikki fronti» sifatida e'lon qilinganini ta'kidlash lozim. Radikal qarashlarga qarshi kurash bo'yicha etakchi musulmon ulamolari ishtirokida guruh shakllantirilgani ham bu yo'lda amaliy ishlarga o'tilganining isboti bo'la oladi.

Diniy ekstremizm va terrorizm muammosi bilan duch kelayotgan musulmon mamlakatlari ushbu masalani turli xalqaro forumlarda ko'tarish bilan dunyo jamoatchiligi diqqatini uni hal etishga qaratib kelmogda. Shuningdek, radikal kayfiyadagi mutaassiblar yashayotgan davlatlar bilan xavfsizlik sohasida hamkorlik qilish va jinoyatchilarni almashish bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlarni imzolashga ham alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, arab davlatlari o'rtasida xavfsizlik sohasidagi siyosatni tartibga solish va terrorizm muammosini arab davlatlari Ichki ishlar vazirlari majlislarining dolzarb mavzusiga aylantirish yo'lidagi harakalar ham shu yo'nalishdagi ishlarning uzviy qismi hisoblanadi.

Dinni qurol qilib olgan bunday ekstremistik harakatlar bugun umuman kishilik jamiyati hayotiga jiddiy tahdid solmoqda. Zamonaviy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda o'zaro hamkorlik va sobitlikni talab etadi. SHakllanib, keng tarmoq olgan terrorizmga qarshi kurashmagan davlatlar zaiflashib, o'z xalqi va mamlakati osoyistaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi.

Mavzu bo'yicha savollar

Ekstremizm, aqidaparasitlik va mutaassiblik tushunchalarining mazmuni nima?

Terrorizmining mohiyati va uning xalqaro miqyos kasb etishining sabablari nimada?

Diniy mutaassiblikning ilk paydo bo'lishi qaysi davrga borib taqaladi?

Musulmon dunyosining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasining ahamiyati jihatlari kelting.

Adabiyotlar

Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari / A.Hasanov va b. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.

Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To'ldirilgan nashr. Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.

Ildan boshqa najot yo'q / A.Abdullaev, N.Hakimova, SH.Jo'raev, J.Karimov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti», 2015. – 156 b.

Shermuhamedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. – 224 b.

13-mavzu. Yangi diniy harakatlar va sektalar

Reja:

1. Dunyoning konfessional manzarasi
2. Xristianlik doirasida yuzaga kelgan noan'anaviy oqimlar
3. Islom dini doirasida yuzadagi diniy harakat va oqimlar
4. Hinduiylik zaminida yuzaga kelgan oqimlar.

Tayanch tushunchalar: *Din, Konfessiya, Sekta, Diniy tashkilot, Missionerlik, Xarizmatika, Xristianlik, Islom, Buddaviylik, Hinduiylik, Xitoy dinlari, O'zbekistondagi diniy konfessiyalar, Diniy tashkilot, Mormonlar, Krishnani anglash jamiyati, legovo shohidlari, Bahoiylik, Boboiylik, Noan'anaviy dini oqim, Ahmadiya*

1. Dunyoning konfessional manzarasi. "Konfessiya" so'zi (lotincha – "confessio") o'zbek tiliga aynan tarjima qilinganda "e'tiqod qilish", degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, diniy konfessiya deganda muayyan diniy ta'limot doirasida shakllangan va o'ziga xos xususiyatlarga ega e'tiqod va ushbu e'tiqodga ergashuvchilar jamoasi tushuniladi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo'lsa-da, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi.

Shuni inobatga olgan holda, mutaxassislar hozirgi kunda dunyoda taxminan 1000 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud, deb hisoblaydi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, islom dinida bunday holat kuzatilmaydi. Hech qaysi mamlakatda hanafiy mazhabi alohida, boshqa mazhablar alohida konfessiya sifatida ro'yxatdan o'tmaydi. Masalan, O'zbekistonda ham bir necha shia jamoalari bo'lishiga qaramay, ular o'zlarini alohida diniy konfessiya hisoblamaydilar.

Din jamiyat hayotining tarkibiy qismi sifatida kishilarning ijtimoiylashuviga, ularning turmush tarzini tashkil etish va tartibga solishga xizmat qiluvchi me'yoriy

omillardan biri bo'lib kelgan. Dinning bunday roli uning tarixan shakllangan o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Chunki, din, birinchidan, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan; ikkinchidan, odamlarning bahanjihat yashashiga ko'maklashgan; uchinchidan, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida kuch bag'ishlagan; to'rtinchidan, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolish hamda avlodlar-avlodga etkazishga yordam bergan va shu yo'l bilan madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Bugungi kunda dinga bo'lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashuv jarayonlarining o'ziga xos in'ikosi deyish mumkin. Zero, globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda. Bu jarayonlar o'z navbatida inson ma'naviyatining uzviy qismi bo'lgan dinning mohiyatini tushunish, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rini anglashga bo'lgan e'tiborning kuchayishini keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, dinga bo'lgan qiziqishning kuchayishi bugungi kunda kishilik jamiyati oldida turgan muammolar, insonning ularni hal qilish yo'llari haqidagi o'y-izlanishlari, dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlagan holda bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topishga intilishi bilan bog'liq ekanini ham alohida qayd etish lozim.

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddav'iylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo'lgan. Bu shunday jarayonlar kelajakda davom etishi mumkinligini taxmin qilish insonni beradi.

Yangi diniy harakatlar deganda odatda XX asrning 70 yillarida Evropa va AQSHda tarqalgan noan'anaviy diniy guruhlar va oqimlar nazarda tutiladi. Tadqiqotchilar bunga an'anaviy dinlardagi inqiroz davri sabab bo'lganligini ta'kidlaydilar. YADH liderlari jamiyat kayfiyatidagi o'zgarishlarni, bu "o'kinchi dunyo"ning nuqsonlarini fosh qilib, o'zlarini "xaloskor", yuksak axloqli

"haqiqatgoy" sifatida ko'rsadilar. YADH to'riga ko'proq yoshlar ilmidlar. YADH qat'iy ta'limotga ega bo'lmagan tashkilot bo'lib, uning faoliyati lider roli bilan belgilangan.

Liderlar an'anaviy diniy qadriyatlarga qarshi tashviqot ishlarini olib borganlar. Diniy hayot maxsus ishlab chiqilgan tartib qoida va nizomlar orqali amalga oshirilgan. YADHlarning ba'zilar dunyoning turti burchaklarida o'z bo'limlariga ega bo'lgan, biznes bilan shug'ullanuvchi yirik xalqaro korporatsiyalarga aylandi. YADHlar mediatsiya amaliyotini keng qo'llaydilar, tashkiliy jihatdan piramida shaklida boshqariladi. YADHlarning aksariyati noqonuniy faoliyat yurituvchi, kriminal tashkilotlardir. (Aum Sinrikyo (Tokio metrosi 10/5000 zab.), Quyosh ehromi (Fransiya va Kanada) va b.). Diniy ta'limotlarni buzib talqin qiluvchi harakatlarga:

protestantlarning "ikklamech" birlashmalari – logov shohidlari, Oxirgi kun avliyolari Iso Masih cherkovi (mormonlar), Masih serkovi (Boston harakati);

soxta xristian harakatlari – Mun birlashtirish cherkovi, Vissarion oxirgi Ahdi cherkovi, Oq birondarlar;

sayentalogik kultlar – Xristian ilmi, Ron Xabbard sayentologiya markazi, Kloneyd, Oq ekologlar harakati;

neo- va kvaziorientalistik maktablalar va kultlar – "Tirik axloq" (Agni yoga), Krishnani anglash jamiyati, Transsendental meditatsiya, Aum-Simrekyo, Saxadja-yoga va b.);

Yangi majburiy tashkilot va kultlar – "Runvira" ukrain milliy e'tiqodi cherkovi, Rossiya jarangli kedrlari, Omsk "qadimgi diniy e'tiqodiga qaytish kult" va boshqalar kiradi.

Sekta so'zi, eng umumiy ma'noda, muayyan diniy, siyosiy yoki falsafiy qarashlarga ergashuvchilar guruhini anglatadi. Diniy sekta deganda ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlar tushuniladi. Bugungi kunda har ikkala yo'nalishga mansub

bo'lgan ko'plab sektalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mutaxassislar ularning sonini taxminan 5000 atrofida, deb baholaydilar.

Zamonaviy voqelik diniy-ekstremistik xarakterdagi sektalarning inson ongi va qalbi uchun kurash yo'lidagi faoliyatining jonlanishi kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, ma'lumotlarga ko'ra, bizga qo'shni bo'lgan davlatlarda "Bogorodichiy sentr", "Serkov ob'edineniya", "Serkov Isusa", "Serkov Novogo Zaveta", "Beloe bratstvo", "Bojestvennyy orden Perogo Angela" kabi o'nlab diniy sektalar noqonuniy ravishda faoliyat olib bormoqda. "Satanizm" deb ataladigan sekta ham keng tarqalgan. Aytim ma'lumotlarga ko'ra, o'ta xavfli bo'lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, Er yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor.

Ular aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiraning yaqinligi bilan qo'rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo'lganlar ichida ish olib borish yo'li bilan o'z tarafdorlarini ko'paytirishga harakat qilmoqdalar. Bunday sektalarga asos solgan "avlyo"lar o'z izdoshlarini aldash yo'li bilan ularning mol-mulkiga egalik qilishga urinmoqdalar.

Yashirin faoliyat olib borishi, sekta ichida bo'layotgan voqealarning ko'pchilikka ma'lum bo'lib qolmasligining qattiq nazorat qilinishi, ular faoliyatidan jamoatchilikning bexabar qolishini keltirib chiqarmoqda.

Ugandadagi "Oxirat kuni" sektasi boshliqlarining faoliyati bunga misol bo'ladi. Oxiratni 1999 yilning 31 dekabriga "belgilagan" ushbu sekta rahbarlari o'z tarafdorlarini mol-mulkini sotish, tushgan mablag'ni ularga berishga va shu yo'l bilan gunohlardan forig' bo'lishga chaqirgan. Qiyomatning 2001 yil 1 yanvarga "ko'chirilishi" sekta rahbarlariga nisbatan shubha uyg'onishiga olib kelgan. Shundan so'ng rahbarlar Kanungu qishlog'ida 500 dan ortiq o'z tarafdorlarini aldash bir joyga to'plab, ustlaridan yopib binoga o'ti qo'yib yuborishgan. Ommaviy axborot vositalari xabarlariga ko'ra, tezkor tadbirlarni o'tkazgan politsiya yana to'rt joyda ommaviy qabrlarni topgan. Umuman bu sektaning qurbonlari 1000 ortiq bo'lgani qayd qilingan.

Jahon xristianlarini birlashtirish yo'lidagi Mugaddas Ruh assotsiatsiyasi (Assotsiatsiya Svyatogo Duxa za ob'edinenie mirovogo xristianstva (ASD-OMX)) bo'lib, Mun San Men birlashtirish cherkovi, Birlashtirish harakati, munchilar (munistsy) kabi nomlar bilan ham ataladi.

Tarixi: BCH asoschisi Sun Myung Men 1920 yilda Shimoliy Koreyada mahalliy presviterian cherkoviga e'tiqod qiluvchi dehqon oilasida tug'ilgan. Maktabda o'qish davrida u pyatidesyatniklar yig'inlarida qatnashardi. 1936 yili Pasxa bayramida unga "vahiy" keladi: Iso Masih unga ko'ranib, uni taxminan 2000 yil avval boshlagan missiyasini yakunlash uchun "tanlangan"ini aytdi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu voqea sodir bo'lganda osmondan: "Sen insonlarni halokatsidan qutqarasan, sen Masihning ikkinchi bor zoxir bo'lishisan!". Shu voqea sabab u o'z ismining birinchi bo'lagi - Sun (ajdatho)ni -San (nur taratuvchi (svetyauivsyu)ga o'zgartirdi va bu bilan u o'zini "Ilohiy" kelib chiqishini bildirdi. Shu yo'l bilan yangi "payg'ambar" - Mun San Men vujudga keldi.

Munchilarning ta'kidlashlaricha, bo'lg'usi payg'ambar Yaponiyada elektrik kasbini egallagan, ammo u o'z iste'dodi bilan muhandis diplomini olishi ham mumkin edi. Biroq u "Ilohiy yo'l"ni tanlashni afzal bilgan.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin Mun 1948 yilda ma'naviy buzuvchiligi, "jamot tartibini buzganligi" uchun 100 kunga, keyinroq esa ikki xotinga ega bo'lganligi uchun 5 yilga qamalgan. 1950 yil kuzda u Janubiy Koreyaga o'tadi va 1954 yilda o'z tashkilotiga asos soladi.

1957 yilda uning muallifligida Mugaddas kitoblarga "Bibliya"ga qo'shimcha ravishda "Ilohiy prinsiplar" ("Bojestvennye Printsipy") nomli kitobini chop etadi.

1955 yilda Mun 10 dan ortiq ayollarning nomusiga tajovuz qilishda ayblanib sudga tortilgan.

Ayblarni yumshatish, janjallarga barham berish uchun o'sha ayollardan biri Seulda "Rixva" universiteti talabasi 18 yoshlik Xak Xok Djaga 1960 yilda uylandi ("svadba agensev").

To'y sovg'asi sifatida "payg'ambar" o'z rafiqasiga "olamni yaratuvchi ona" ("mat mirozdaniya") unvon-titulini beradi va "Ilohiy prinsiplar"ni sovg'a qiladi.

1976 yildan boshlab BCH bir necha bor moliyaviy masalalar bo'yicha janjalli voqealarga sabab bo'lgan. 80-y. Boshlarida dunyo bo'ylab BCHning 150 dan ortiq korporatsiyalari bo'lib, ularga turli sohalariga oid korxonalar qarashli bo'lgan. Korxona xodmlari past maosh olib, yuqori daroma olishga rozi bo'lishgan. Emishki, daromadlar BCHni yuksaltirishga ishlatilgan.

AQSH sudi Murni 625000 \$lik Nyu Yorkdagi uyini soliq deklaratsiyalarda qayd etmagan, soliqlardan qochganlikda ayblagan. 1982 yil iyulida uni 18 oy qamoq jazosi va 25 000 doll. shtrafga solgan. Advokatlar say-harakatlari tufayli Mun 1 yildan so'ng ozod etilgan. (Munning pullari BCH tashkiloti hisobiga tegishi bo'lgani uchun soliqlardan ozod deyishgan).

1992 yilda Mun o'zini yangi insoniyatning "Haqiqiy Ota"si deb e'lon qilgan. 1993 yilda "Yangi Ahd davri" tugab, "Ahdning yakuniy davri" ("era Zaversheniya Zaveta") boshlanganini bildirgan.

Munchilar to'liq va yakuniy haqiqatga "Haqiqiy Ota" orqali erishiladi. Mun va uning xotini yaqinda "Iso Masih"ga rafiq topishgan va Iso Masih ularga ko'rinib minnaldorchilik bildirgan. Munchilarning ommaviy nikoh tantanalarini "Unashitirish" marosimini munchilarning ammiyotiida markaziy o'rinda tutadi.

U 2 qismidan iborat: "muqaddas vino" marosimi va "muqaddas nikoh".

Ushbu marosimlar vino orqali unashitirayotganlar odamzotning "birinchi gunohi"dan poklanib, yangi "haqiqiy" hayotni boshlashlarini anglatadi. Nikoh marosimidan avval "unashitirish" bo'lib o'tadi. Bo'lg'usi kelin-kuyovlar o'z juftlarini topishni Mun va uning tajribali mintaqaviy liderlariga to'lig'icha ishonadilar. Ayrimlar o'z juftini nikoh tantanasidan bir necha kun avvalgina taniydilar.

"Muqaddas vino" yoki "Nasabni o'zgartirish" marosimi orqali munchilar Mun va uning oilasi bilan qarindoshlik rishalarini bog'laydilar. Mun ta'rificha: "Bu marosimlar shayton dunyosidan saqllovchi va "Haqiqiy ota-onalar"ga yaqinlashish bo'yicha o'ziga xos "emlash" vositasidir. Vinoda 21 bitta unsur (element) va "Ota va Ona"ning qoni jamlangan bo'lib, uni iste'mol qilgan inson o'z ajdodlaridan voz kechadi.

Boshqa bir ma'lumotlarga qaraganda, ushbu ichimlik tarkibiga Mun va xotinining boshqa narsalari ham solinadi.

Aym sinrikyo (sanskritcha "olam") haqiqati ta'limoti; ingliz tilida «Supreme truth», ya'ni "oliy haqiqat" deb tarjima qilingan (2000 yildan boshlab Alef nomi bilan faoliyat yuritmoqda (somniy tillar alifbosidagi 1 harfi bo'yicha)) — yangi diniy, sinkretik, terroristik, ekstremistik, totalitar, destruktiv sekta bo'lib, vadriyana buddizmi asosida Yaponiyada vujudga kelgan.

Sektaga yaponiyalik Syoko Asaxara 1987 yili asos solgan, u 1995 yilda Tokio metrosidagi zaharli gazlar portlatishni uyushtirgandan so'ng mashhur bo'lib ketgan.

Hozirda sekta terroristik tashkilotlar ro'yxatiga kiritilgan. Evropa Ittifoqi, Kanada, Moldaviya, Rossiya, AQSH va boshqa davlatlarda faoliyati ta'qiqlangan. Aum sinrikyodan Rossiyada 24000, Yaponiyada 6600 kishi jabrlangan. 1990 yillarda Aum Sinrikyoning Nyu York, Bonn, SHri Lankada markazlari faoliyat yuritgan. 1986 yilda uning tashkilotiga diniy tus berildi va u «ALM Sinsen-no-kay» («Ma'naviy rivojlangan va notabiiy kuch quvvatiga ega kishilar jamiyati) deb ataldi.

Shu yili Asaxara Ximolayda «butunlay azoblardan qutilib, Nurlanishga erishdi», tashkiloti 1987 yilining iyulidan Aum sinrikyo degan nom oldi va butun mamlakat bo'ylab bo'linmalariga ega bo'ldi.

1989 yil avgustidan sekta diniy tashkilot sifatida tanildi. U Yaponiyaning oliy tabaqadagi universitetining talabalarini o'ziga jalb qilib, ikkinchi nom - « elita vakillari dini» oldi.

1995 yil 20 martda «Aum sinrikyo»ning 10 ta a'zosi tomonidan terroristik akt sodir etilgan. Ular Tokio metrosida zarim zaharli gazi yordamida gazli portlatish sodir etishgan.

Natijada 12 kishi vafot etgan (13; 18; 27), o'nlab kishilar zaharlangan, 1000 kishining ko'rish qobiliyati pasaygan. YAralangnalarida tananing ayrim a'zolarida paralich, so'zlash qobiliyatining yo'qolishi, tayanch harakat

a'zolarining shikastlanishi, ko'r bo'lib qolish holatlari ham uchragan. Ushbu aknga Asaxara o'zi buyruq bergan (rad etsada).

Ullarning fikricha, Oxirzamon kelishi va YAxshilik va Yomonlik o'rtasidagi oxirgi urush kutilmogda va urushda barcha "gunohkorlar" qirib tashlanadi. Politsiyachilar tomonidan sekta markazlari tekshirilganda kimyoviy va biologik qurollarning komponentlari (sibir yarasi (sibirskaya azva) va Ebola virusi) topilgan. Bundan tashqari Zairdan keltirilgan Mi 17 harbiy vertolyoti bo'lgan. Kimyoviy zax ira zarin tayyorlash orqali 4 million kishini o'ldirishga etadigan bo'lgan.

Oq birodarlik tashkiloti (OBT) eng janjalkash sektarlardan biri bo'lib, Nyu Eyi harakati bilan o'zaro bog'liq. Uning g'oyalarida ham Balig' erasi (Iso Masih davri) yakunlanib, Vodokey erasi, ya'ni er yuzida Ilohiy boshqaruv davri boshlanishini da'vo qiladilar.

Asoschisi va yaqin yillarga qadar rahbari Yuriy Krivonogov tex.f.n.m Kievning nevrologiya va psixiatriya institutida ishlagan, ko'plab yangi g'oyalar muallifi, inson shaxsiyatiga ta'sir o'tkazish masalalariga qiziqqan (KGB bilan aloqa bo'lgan)

O'z qiziqishlari o'laroq biroz muddat Krishnani anglash jamiyatiga a'zo bo'ladi va turli uslublarni o'rganadi. U "Atma" nomli "Qalb instituti"ni ochadi va "Znaniye" nashriyoti orqali ko'plab risolalar chop etadi. Krivonogov ko'p shaharlarda ma'ruzalar o'qib yuradi va Dnepropetrovskda bo'lg'usi xotini Mariya Svigunni uchratadi va to'y arafasi uni erdagi "Xudo" deb e'lon qiladi.

Krivonogov o'zini turli avliyolar nomi bilan atab chiqqan (Ioann Predtech, Payg'ambarlar Yoqub, Nuh, Ioann Krestiteli, Tutanxamon, knyaz Vladimir, v.h) va oxiri Yuoann Svami ismida to'xtagan. Mariya ham dastlab Xudoning onasi, keyin Ota Xudo, O'g'il Xudo, Muqaddas Ruhga aylangan, nihoyat Mariya Devi Xristos nomini olgan. Mariya o'zini erkak jinsiga nisbatan ishlatiladigan "on" so'zi bilan murojaat qilgan. U er yuzida uch yarim yil yashab 144 ming eng e'tiqodli kishilarni "haqiqiy e'tiqodlilar"ni jamlashi kerak bo'lgan.

Bu kishilar yusmalanning yangi xalqi bo'lishi kerak edi. (YUSMALOS bu "Yuoann Svami Mariya Logos" abriviatursi, shuningdek Jus malos "yovuzlik qonuni" ma'nosi bor). Yusmalos "olamni qutqarish" missiyasi 1990 yil 1 iyuldan 1993 yil 24 noyabrga qilib belgilangandi.

Erdan oxirgi bo'lib bu er xotin ketishi, ularni chomixlashlari lozim bo'lgan. Jasadlar uch kun ko'chada turib, uchinchi kuni qayta tirishlari va osmonga ko'tarilishlari kerak edi. O'sha kuni Oxir zamon bo'lib, er yuzi vayron bo'lishi, insoniyat halokalgaga uchrashi, keyin esa yusmalos xalqi erda yangi hayotni boshlashi, ular jannatda qolgan do'zaxda bo'lishi ta'kidlangan.

Belgilangan sanada Kievda bir necha ming tarafdorlar yig'iladilar. Albatta, Oxir zamon bo'lmadi. Kievdagi muqaddas Sofiya ibodatxonasi oldida to'polon uyushtirildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinlashib ketishi, ochlik, fuqarolar urushlari, ommaviy epidemiyalar, spidning tarqalishi yuqoridagi kabi sektarlarning keng yoyilishiga olib kelmogda.

Umuman olganda, bunday sektarlarning barchasi insonning oqiziligi, ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishga bo'lgan intilishi, kishilar hayotda duch keladigan qiyinchiliklardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida shaxsiy boylik ortirish niyatida foydalanadilar.

Mavjud diniy ta'limotlar, ulardagi muayyan qoidalarni davr talabiga moslashtirish, boshqacha aytganda, modernizatsiya qilish jarayoni ham davom etmogda. Masalan, xristianlar amalga oshirgan inkvizitsiya va salb yurishlari xato bo'lganini tan olib, Rim Papasi hatto, rasman kechirim ham so'radi. 1992 yilda Papa Ioann Pavel II o'z paytida Erning Quyosh atrofiga aylanishi haqidagi qarashlarni yoqlagani uchun cherkov tribunali tomonidan tavra qildirilib, o'z qarashlaridan voz kechishga majbur qilingan Galileo Galileining haq bo'lganini tan olib, barchadan uzr so'ragani ham bunga misol bo'la oladi.

Shuningdek, mavjud dinlarning tarqalish hududida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganini ta'kidlash zarur. Masalan, o'lgan asrda asosan xristianlar yashab kelgan Evropada bugungi kunda 20-25 million atrofida musulmonlar istiqomat

qilmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniyada - 3 million, Germaniyada - 5 million, Fransiya - 6-7 million islomga e'tiqod qiluvchi fuqarolar yashamoqda. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, hozirda aynan islom e'tiqodchilari soni eng tez ko'payib borayotgan din hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, islomning yillik o'sish sur'ati 6,4 foizni tashkil etib, 1989 yildan 2011 yilgacha daromusumon aholi soni Shimoliy Amerikada - 25, Afrikada - 2,15, Osiyoda - 12,57, Evropada - 142,35, Avstraliya va Okeaniya - 257,01 foizga ko'paygan. Faqat Lotin Amerikasida islomga e'tiqod qiluvchilar ulushi 4,73 foizga kamaygan.

Bunday o'zgarishlar, bir tomondan, globallashuv keltirib chiqarayotgan odamlar migratsiyasi natijasida, ikkinchi tomondan, kishilarning buddaviylik, ko'pgina hollarda va asosan islomni ongli tarzda qabul qilishi bilan bog'liq.

Shuningdek, aholisi an'anaviy ravishda buddaviylik va islomga e'tiqod qilib kelgan o'lkalarda xristianlikni yoyishga intilish kuzatilmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra xristianlikning o'sish ko'rsatkichi yiliga 1,46 foizni tashkil qiladi. Mazkur jarayon ayrim xristian tashkilotlari va yo'nalishlarining faol missiонерlik harakati natijasida sodir bo'lmoqda.

Qayd etilgan mulohazalar bugungi kunda ham dunyoning diniy manzarasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganidan dalolat beradi. Diniy konfessiyalar manzarasi rang-barangligini O'zbekistonda rasman ro'yxatdan o'tib faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Xristianlikka mansub bo'lsa-da, yurtimizdagi 11 ta yo'nalishning har biri o'zini alohida diniy konfessiya, deb hisoblashi fikrimizning isboti bo'la oladi.

No'an'anaviy diniy tashkilot yoki oqim deganda bir mintaq, hudud aholisi uchun begona bo'lgan, muayyan tarixiy sharoit yoki ijtimoiy vaziyat sababli o'sha erga kirib kelgan yoki kirishga harakat qiladigan dinlar tushuniladi.

XIX asr o'rtalari XX asr boshlariga kelib Evropa, Amerika va Osiyo qit'alarida "payg'ambarlik" va "armageddonizm" epidemiyalari avj oldi. AQSHda 1840 yillarda "millerizm" nomi ostida paydo bo'lgan harakat tez orada boshqa

hududlarga ham tarqaldi. Natijada, aksariyat yirik dinlar doirasida yangi, "islohotchi" oqimlar yuzaga keldi.

Ulardan, xristianlik doirasida "Iegovo shohidlari" va "Mormonlar"ni, islom dini doirasida "Bahoiylar", "Ahmadiylar" va "Qora musulmonlar"ni, hinduylilik doirasida "Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"ni sanash mumkin.

Iegovo shohidlari (yoki Yahve guvohlari) yo'nalishiga 1873 yilda Charlz Teyz Rassel (1852-1916) tomonidan asos solingan. Yo'nalishning diniy ta'limoti uning eti tomlik "Muqaddas Yozuvni o'rganish" kitobiga asoslanadi.

CH.Rassel vafotidan keyin tashkil olganbarlik qilgan Iosif (Djozet) Franklin Ruzerford iegovochilikka "armageddon" (ya'ni, go'yoki, oxirzamonda Iso boshchiligidagi iegovochilar va Shayton boshchiligidagi jinlar qo'shini o'rtasida bo'lib o'tadigan jang) tushunchasini kiritdi. Shuningdek, u har yili iegovochilarning xalqaro konferensiyalarini o'tkazishni, 50 ga yaqin kitob muallifi sifatida targ'ibot ishlarida radio va grammo-plastinkalardan foydalanishni yo'lga qo'ydi.

"Iegovo shohidlari" Uchlik haqidagi aqidani rad etishadi, lekin boshqa yo'nalishlar kabi uning barcha ko'rinishlarini izohlashadi. Ular xudoning o'z shaxsiy ismi bor, bu ism "Iegovo"dir va u barcha narsalarning asosi va yaratuvchisi, deb hisoblaydilar.

Iegovochilar Iso Xudoning O'g'li bo'lgan deb e'tiqod qilsa-da, uning Xudo bo'lganini inkor qilishadi. Ularning ta'limotiga ko'ra, Iso Iegovo tomonidan yaratilgan yagona insondir, qolgan barcha insonlar Masih orqali yaratilgan. Muqaddas Ruh - Xudoning ko'rinnas kuchi bo'lib, u dunyo yaratilishida qatnashgan. Iso Golgofta tog'ida xochga emas, balki ustunga mixlangan deb hisoblaganlari sababli bu ramz ishlatilmaydi.

Iegovo butun insoniyat tarixida 144 ming kishini tanlab olgan, ular o'lgandan so'ng to'g'ridan-to'g'ri tirladi va osmon podshohligiga o'tib ketishadi. Hozirgi kunda o'sha tanlangan 144 ming kishi, ya'ni "kichik poda"dan (imoni mustahkam va din yo'lida ko'p xizmat qilgan) 11 mingtasi tirik, deb e'tiqod qilinadi. Qolgan

imomlar, ya'ni Iegovo shohidlari qo'shilgan "qo'yilar"ga (oddiy dindorlar) Er yuzida abadiy jannatda yashashlari va'da qilinadi.

"Iegovo shohidlari" faqatgina Iso Masih o'limini eslash kechalari bilan bog'liq bayramni nishonlaydilar. Shu kuni jamoa a'zolari qarindosh va tanishlarini uylariga taklif qilishadi. Dasturxonda Isoning tana va qonining ifodasi deb bilimadigan xamirturishsiz non va qizil, quruq vino bo'lishi shart.

"Iegovo shohidlari" diniy tashkiloti qat'iy makzashgan xarakterga ega. Uning diniy-na'muriy markazi - Boshqaruv korporatsiyasi hisoblanadi. U 15 kishidan iborat bo'lib, Bruklinda (AQSH, Nyu-York) joylashgan. Boshqaruv korporatsiyasining 90 dan ortiq filiallari dunyoning turli mamlakatlarida targ'ibot ishlari olib boradi. Xristianlikning ko'zga ko'ringan vakillari iegovochilarning xristianlik bilan hech qanday umumiyligi yo'q, degan fikrdalar.

Markaziy Osiyoda "Iegovo shohidlari" diniy tashkilotining birinchi jamiyatlari 1950 yillarda paydo bo'lgan va norasmiy ravishda faoliyat ko'rsatib kelgan. Bugungi kunda respublikamizda "Iegovo shohidlari"ning 1 ta tashkiloti rasman ro'yxatga olingan.

"Iegovo shohidlari" missiонерlikka katta e'tibor beradi. Jamoa paydo bo'lgan davrdan boshlab, asosan uy-ma-uy yurish va adabiyotlar tarqatish bilan o'z izdoshlarini ko'paytirishga harakat qiladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda iegovochi missiонерlarning soni 700 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Jamoa rahbariyati tomonidan missiонерlarni tayyorlash ishlari katta ahamiyat beriladi. AQSHning Nyu-York shahrida, jamoaning bosh ofisi bilan bir joyda "Galaad" nomli missiонерlar tayyorlash markazi mavjud. Ushbu markazda tashkil etilgan besh oylik kurslarda butun dunyodan kelgan missiонерlar tahsil olishadi.

Missiонерlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va adabiyotlarni nashr etish uchun "Qo'riqchi minora", "Bibliya" va "Risolalar jamiyati" tuzilgan. Ushbu jamiyat korporatsiya deb atalib, bosh qarorgohi tashkilot asosiy binosi bilan bir joyda, AQSHning Bruklin shahrida joylashgan. Korporatsiyani etti direktordan iborat boshqaruv kengashi boshqaradi va ular korporatsiya prezidentini saylaydilar.

Hozirgi kunda "Iegovo shohidlari" 230 dan ortiq mamlakatda faoliyat olib boradi va dunyo bo'yicha 111 ta mintaqaviy vakolatxonalarga ega.

Iegovochilar missiонерlikni o'ziga xos tarzda va tizimli tashkil etganlar. Mutaxassislar fikricha, "Iegovo shohidlari" o'z tarafdorlarini shakllantirishda jalb etishning 80 dan ortiq usulidan foydalanadilar. Jumladan, ular o'z da'vatlarining ovoz ohanglarida tinchlantirish va mehr tuyg'ulari bo'lishiga alohida e'tibor beradilar. Iegovochilar missiонерlikni:

o'z qarashlariga zararcha bo'lsa ham qiziqish bildirgan odamlarni qidirib topish va so'ng ularni ta'limotni qabul qilishga tayyorlash;

da'vat qilinayotgan odamning ongiga "Bibliya" kurslari va uning matnini o'rganish orqali diniy ta'limotni singdirish;

prozelitlarni suv bilan cho'qintirish; ularni missiонерlik faoliyatiga tayyorlash kabi to'rt bosqichda amalga oshiradilar.

Iegovochilikning o'ziga xos jihataridan yana biri shuki, unda har bir a'zo missiонерlik faoliyatida qatnashishi shart. Jumladan, jamoa rahbariyati tomonidan har bir a'zo oyiga 10 soatdan 150 soatgacha missiонерlik faoliyatiga sarflashlari talab qilinadi. Jamoa a'zolari qancha ko'p vaqlarini missiонерlikka sarlaganlariga qarab tashkilot ierarxiyasida ko'tarilib boradi. So'nggi paytlarda iegovochilar maktab o'quvchilari va yoshlar orasida targ'ibot ishlari olib borishga intilish kuchli namoyon bo'layotganini ta'kidlash zarur. Ana shunday maqsadli faoliyat natijasida iegovochilar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda iegovochilar soni dunyo bo'yicha qariyb 7 millionni tashkil etadi. Ularning bosh tashkiloti tomonidan adabiyotlar nashr etish, cherkovlar faoliyatini ta'minlashga ketadigan sarf-xarajatlardan tashqari missiонерlarning kundalik xarajatlari yiliga 100 million AQSH dollariga yaqin mablag' sarflanadi.

Mormonlar. Mazkur oqimga 1830 yili Nyu-York (AQSH) shahrida Jozef Smit (1805-1844) ismli shaxs tomonidan asos solingan.

Smit 1823 yilda Vermont shahridagi Sheron o'rmonida kambag'al va bechora tarafdorlarga Moroni nomi bir farishtaning o'ziga vahiy olib kelganini da'vo qiladi. Unga ko'ra Moroni, Smitga Nyu-Yorkdagi Kumora tepaligiga ko'milgan, qadimgi Misr tilida yozilgan olin lavhalar va ularni tarjima qilish uchun Urim va Thummim toshlarini keltirib bergan.

Jozef Smit mahtnlarni o'qigani va farishta yordamida tarjima qilganini e'lon qiladi va uni nashr etiradi. Shunday qilib, 1830 yilda "Mormon kitobi" bosib chiqarilgan. Kitobdagi buyruqqa binoan yangi bir cherkov qurilgan. Bu cherkov, "Iso Mashining oxirgi kun azizlari cherkovi" deb nomlangan. Uning tarafdorlari esa shundan so'ng "Mormonlar" deyila boshlangan.

Mormonlar e'tiqodiga ko'ra, amerikaliklar isroil qabilalaridan kelib chiqqan va qizil oq tanlilardan tashkil topgan. Iso tirilganidan keyin oq tanlilar orasida faoliyat olib borgan, lekin uning cherkovi qizil tanlilar tomonidan vayron qilingan. Oxirgi oqtanilar XV asrda yashagan Mormon bilan uning o'g'li Morondir. Lavhlarni ana o'shalar ko'migan va ularni Smit topib olgan.

Smit 1831 yilda yangi Quddusning Kirtlandda (Ogayo shatati, AQSH) qurilishiga doir vahiy olganini aytdi. Tarafdorlar sonini oshirish maqsadida mormonlar faol ravishda missionerlik bilan shug'ullanganlar.

Siquvga olingan Mormonlar, Kirtlandni tashlab Missuri'ga, u erda ham ayni holga duch kelgach esa Illinoisga ko'chishga majbur bo'lishadi. 1840 yilda botqoqzor o'rmonida Navu shaharini qurib o'z markazlarini shu erda tashkil etadilar.

Omadi kechgan bir-ikki yildan keyin Smit "Mormon kitobi"da aks etgan bo'lishiga qaramasdan, yangi bir "vahiy"ga asoslanib, ko'pxotinlikni targ'ib qilgan va o'zi bu ishni boshlab bergan. Uning bu fikriga jiddiy qarshiliklar bo'lgan, natijada Smit ukasi va tarafdorlari bilan qamoqxonaga tashlangan. Qisqa bir muddatdan keyin ular mahbuslar tomonidan o'ldirilgan.

Smitdan keyin mormonlarga Brjiman Yang boshchilik qildi. U o'limi ortidan 178 ta xotin va 49 ta bolani qoldirib ketdi. Mormonlar Yutada "Buyuk tuz ko'li" qirg'og'ida, "Tuz ko'li shahri" hozirgi Solt Leyk Siti shaharini qurganlar. Ular bu

erda juda ham kuchayib ketganlar va ulkan mormon ibodatxonasini barpo etishgan.

"Iso Mashining oxirgi kun azizlari" sifatida o'zlariga baho beruvchi mormonlarning e'tiqod asoslari J.Smit tomonidan tartibga solingan. Cherkov boshlig'i "rais" deb nomlanadi.

Mormonlar Ota-Xudo, Iso Masih va Muqaddas Ruh bilan bog'liq e'tiqodni tan oladilar. Ularga ko'ra, Injil Xudoning so'zidir, uni, xato qilmaslik sharti bilan tarjima qilish mumkin. Mormon kitobi ham Xudoning so'zidir. Iso Mashining qayta tirilish joyi Amerika qit'asidir. Yangi Quddus Amerikada quriladi; shaxsan Isoning o'zi uni boshqaradi, dunyo yangilanadi va xuddi jannatdek ko'rinish oladi. Iso ming yillik saltanat quradi va unga imon keltirganlar, yordamchi bo'lgan (mormon) lar najot topadilar.

Ular cho'qintirishda suvga bo'kirish usulini qabul qilganlar. Ulug'likda oldinga siljishni va hatto, ilohiylikka yuksalishni e'tirof qiladilar. E'tiqod asoslari orasida joy olgan ko'p xotimga uylanish 1895 yilda V.Vudraft tomonidan bekor qilingan. Pritchamennie ya'ni "Poklanish" marosimi, sigaret va aroq harom bo'lgani sababli faqatgina non va suv bilan amalga oshiriladi.

Mormonlar missionerlik faoliyatini olib boradilar va ushbu faoliyat butun dunyoga tarqalganligini ham aytib o'tish joiz. Mormonlar nazdida har bir a'zo ikki yil missionerlik qilishi kerak. Missionerlik faoliyati bugungi kunda 4000 dan ortiq ayol va erkak mormon tomonidan olib borilmoqda. Ularning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi va ular o'z hayotlarini missionerlik uchun bag'ishlagan.

Bugungi kunda mormonlar dunyoning 160 mamlakatida faoliyat olib borib, taxminan 30 ming cherkov va 12 million izdoshlariga ega. Rasmiy xristianlik mormonlarni "adashgan oqim" sifatida e'tirof etadi.

Bahoiylik – XIX asrda Eronda bobiylar yo'nalishi zaminida vujudga kelgan diniy yo'nalish. Sherozlik Sayid Ali Muhammad (1819-1850) 1844 yilda Bob (arabcha "eshik"), ya'ni yangi davrga "eshik" nomini olib, yaqin orada "Xudo elchisi"ning namoyon bo'lishi, kishilarga yangi davrning asosiy qonunlari va nizomlarini in'om etishini targ'ib qila boshlagan.

Bobning yirik izdoshlaridan biri Mirza Husayn Ali Nuriy (1817-1892) 1863 yilda Bob boshorat etib ketgan xudoning elchisi uning o'zi ekanini e'lon qiladi va Bahoulloh, ya'ni "Allohning jilosi" nomini oladi. Ushbu yo'nalishning nomi ham Bahoullohning nomidan olingan.

Bahoullohning "Kitobi Aqdas" ("Eng muqaddas kitob") va "Kitobi Iqon" ("Mustahkam ishonch kitobi") asarlari bahoiylik ta'limotining asoslarini tashkil etadi. Yo'nalish asoschisi o'ziga islom dini e'tiqodiga ko'ra, olamlarning Yaratuvchisi bo'lgan "Allohning jilosi" nomini qabul qilgan bo'lsa-da, bahoiylar aqidasi ko'ra, bahoiylik mustaqil din, u biror bir dindand ajralib chiqqan sekta ham, mazhab ham emas, deb hisoblanadi.

Bahoiylik Hindiston, Uganda, Keniya, Eron, Misr, AQSH, Kanada kabi qator mamlakatlarda tarqalgan. Hozirgi vaqtda dunyoda bahoiylarning 9 ta ibodat uyi, 200 ga yaqin milliy hamda bir qancha mahalliy diniy majlislari mavjud. Bahoiylarning umumiy miqdori taxminan 6 million kishini tashkil etadi.

Bahoiylik ta'limotiga ko'ra: barcha dinlar bir ildizdan paydo bo'lgan va payg'ambarlar birodardir hisoblanadi;

Ibrohim, Muso, Iso va Muhammad payg'ambarlardan tashqari Budda, Zardusht, Krishna, Bob va Bahoulloh ham payg'ambar hisoblanadi. Bahoiylikda ular eng buyuk 9 ta payg'ambar sifatida e'tirof etiladi;

xudo har ming yilda Er yuziga yangi payg'ambar tushiradi; jannat va do'zax, oxirat, shayton va farishtalar inkor qilinadi;

hozirgi barcha dinlar bir-birini inkor qiladi, shuning uchun ham, ularni birlashtirish va insonlar orasidagi turli farqlarni yo'qotish lozim. Bahoiylar da'vosiga ko'ra, bunday birlashtiruvchilik vazifasini bahoiylik bajarishi lozim.

Vatan, millat degan tushunchalar ma'nisiz hisoblanadi. Zero, ularning fikricha, Er yuzining hamma joyi Vatan hisoblanadi.

Bahoiylikda ruhoniylar yo'q. Mahalliy jamoalarni yilda bir marotaba 21 aprel kuni yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadigan 9 kishidan iborat Mahalliy diniy majlis boshqaradi. Bahoiylar yirik jamoasi mavjud bo'lgan har bir davlarda Milliy

diniy majlis saylanadi. O'z navbatida Milliy diniy majlis vakillari 9 kishidan iborat bo'lgan Umumjahon Adolat Uyi a'zolarini saylaydilar. Har besh yilda saylanadigan Umumjahon Adolat Uyi umumjahon bahoiylar jamiyatining faoliyatini boshqarib boradi.

Bahoiylikda har biri 19 kunlik 19 oydan iborat bo'lgan diniy taqvim qabul qilingan. Har 19 kunda jamoaning barcha a'zolari ibodat qilish, jamoa bilan bog'liq ishlarni muhokama qilish, o'zaro birodarlilik aloqalarini mustahkamlash uchun yig'iladilar.

Kuniga uch marta Isroilning Akka shahriga qarab ibodat qilinadi. Umumiy ibodat duo o'qish, meditatsiya hamda bahoiylikning asosiy kitoblari va jahon dinlari muqaddas kitoblaridan matnlar o'qish orqali amalga oshiriladi. Har yili 2 martdan 20 martgacha bahoiylar kun chiqardan kun botgunga qadar ovqat va suvdan o'zlarini tiyib, ro'za tutadilar.

Bahoiylarning muqaddas ibodatxonasi Akka shahrida joylashgan. Xayfa shahri muqaddas shahar hisoblanib, dunyo bahoiylarining ziyoratgohi hisoblanadi. Bu erda Bob ibodatxonasi, 1957 yilda bahoiylikning rahbarlik organi sifatida tashkil etilgan Umumjahon Adolat Uyining qarorgohi joylashgan.

Ahmadiya (Qodiyoniya). Mazkur oqim XIX asrning oxirlarida Mirzo G'ulom Ahmad Qodiyoniy tomonidan tuzilgan. Dastlab u asoschisining nomi bilan - "Mirzoziya", keyinchalik esa vujudga kelgan joyga nisbatan - "Qodiyoniya" deb nomlangan. Mirzo G'ulomning 1900 yil 4 noyabrda bayonotiga binoan oxir-oqibat "Ahmadiya" nomini olgan.

Mirzo G'ulom Ahmad 1840 yilda hozirgi Pokiston hududidagi Panjob viloyatining Gurdaspur mintaqasidagi Qodiyon qishlog'ida tug'ilgan. Otasining xohishiga binoan 1864 yilda Sialkot shahriga borgan va o'sha erda bir muddat ishlagan. Shu paytda, u kundalik ishidan tashqari islom ilmlari hamda boshqa dinlar haqida va o'zi bilan yaqindan munosabatda bo'lgan missionerlardan xristianlik haqida ko'pgina ma'lumotlar olgan, hinduiylar bilan munozaralarga kirishgan.

1876 yilda G'ulom Ahmad Allohning huzuriga chiqqani va vahiy ola boshlaganini da'vo qilib chiqadi. 1880 yilda u o'z ta'limoti asoslariga bag'ishlangan "Barohini Ahmadiya" (Ahmad dalilari) nomli kitobining ilk ikki jildini nashrdan chiqarishga erishadi. Unda u islomni boshqa dinlardan himoya qilgan. Shu tufayli musulmonlar kitobdagi "ilohiy ilhomlar", karomatlar, o'z-o'zini maqtashlarga, dastlab, uncha e'tibor bermaganlar. Uchinchi va to'rtinchi jildlarda esa G'ulom Ahmad o'ziga vahiy tushayotgani va payg'ambar ekanini da'vo qilgan. Shuningdek, ingliz hukumatini maqtab, hozirgi payg'a kelib "jihod" tushunchasining o'rinsiz, hukmsiz holga kelib qolganini aytdi. Boshlanishda 50 jild bo'lishi rejalashtirilgan "Barohini Ahmadiya"ning 5 jildigina nashr qilingan.

1885 yili Mirzo G'ulom Ahmad o'zini o'zi yashab turgan davr (hijriy XIV asr) "mujaiddi" ekanini, 1888 yilga kelib esa insonlardan "bay'at" olib, alohida "jamoat" tashkil qilish haqida buyruq olganini e'lon qiladi. 1891 yilda u Iso ibn Maryanning tabiiy yo'l bilan o'lganini aytib va shundan kelib chiqib o'zini musulmonlar kutayotgan "Masih" va "Mahdiy" deb da'vo qilgan. 1904 yilning noyabr oyidan boshlab esa ochiqdan-ochiqo'zini musulmonlar uchun "mahdiy", xristianlar uchun "masih" va hindular uchun "krishna" deb e'lon qilgan.

Ahmadiylarga ko'ra barcha dinlar qandaydir xaloskorni kutadilar, uning kelishiga umid bilan yashaydilar. Agar kutilayotgan qutqaruvchi, bir odamda mujassam bo'lsa, dinlararo kelishmovchilik bartaraf etilib, birdamlik, hamjihatlikka erishilgan bo'lardi.

Mirzo G'ulom Ahmad 1908 yil 26 mayda Lahorda vafot etgan. Qabri Qodiyonga olib ketilgan va tarafdorlari uchun ziyoratgohga aylangan.

Mirzo G'ulom Ahmadning o'limidan keyin shogirdlari uning fikrlarini yig'ishda davom etdilar va natijada "Sinkretik Qodiyoniya-Ahmadiya harakati" yuzaga kelgan. Keyinchalik oqim "Qodiyon ahmadiylari" va "Lahor ahmadiylari" nomli ikki jamoaga bo'linib ketdi.

Dastlab, payg'ambarlikning Muhammad (s.a.v) bilan tugagani va qiyomatgacha undan boshqa payg'ambar kelmasligini tan olishini ta'kidlagan Mirzo G'ulom, 1901 yildagi "Juma xutbasi"da uning izdosini bo'lgan Mavlaviy

Abdulkarim Mirzo G'ulom Ahmadga nisbatan "nabiy" va "rasul" sifatlarining ishlatish mumkin deb e'lon qilgan.

Avvalroq, "Muhaddas" (xiob qilini, gaplashilgan) deb nomlangan Mirzo G'ulom keyinchalik muhaddaslikni bir ma'noda juz'iy nabiylik sifatida baholagan; payg'ambarlikning butunlay tugaganini, lekin juz'iy nabiylikning qolganligini ochiq va oshkora aytdi.

Xalqaro Krishnani anglash jamiyati Shri la Bxaktivedanta Svami Prabhupada nomi bilan tanilgan asli hindistonlik Abxay Charan De (1896-1977) tomonidan tashkil etilgan. U 1947 yilda "Veda" falsafasi bilimdoni sifatida "Bxaktivedanta" (sanskrit. "sodiqlik", "fidokorona xizmat") unvoniga sazovor bo'ldi. Sanskrit tilidan ingliz tiliga ko'pgina "Veda" matnlari, jumladan, "Bxagavadgita" ("Xudo qo'shiqlari")ni shaharlar bilan tarjima qildi. 1959 yilda 63 yoshida dunyodan voz kechishga ahv qiladi va Svami ("Aql va hissiyotlar egasi") unvoniga erishadi.

1965 yilda A.C.H.Bxaktivedanta Svami AQSHga ko'chib o'tdi va "Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"ga asos soldi. Bu davrda SHarq mistik ta'limotiga nisbatan katta qiziqish Krishnani anglash falsafasini targ'ib qilish uchun qulay shart-sharoit yaratdi va harakat tez rivoj topdi. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida ularning 150 dan ortiq ibodatxonalari mavjud.

Krishnachilik (vayshnavizm) odam qiyofasidagi xudo Krishna (Vishnu)ga e'tiqod qilishga asoslangan hinduizmlarning ikki asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Krishnachilikning muqaddas yozuvlariga "Bxagavatgita"dan tashqari boshqa "Veda" matnlari ham kiradi.

Krishnachilik yakka-xudolikka, ya'ni yagona va mutloq xudo — Krishnani tan olishga asoslanadi. U abadiy, yaratilmagan va cheksiz shakllarga kirish qobiliyatiga ega. Krishnachilik ta'limotiga ko'ra, olam ruhiy va moddiy dunyoga bo'linadi. Insonning ruhi tanasiga nisbatan birlamchidir. Krishnachilar ruhni rivojlantirib ichki komillikka erishish va shu yo'l bilan xudoga qo'shilishni oliy maqsad, deb biladilar.

Har bir inson o'zida Krishnani anglash qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Buning uchun bir qancha harakat shakllarini o'z ichiga olgan va xudoga muhabbatni rivojlantirish hamda uni butunlay ruhiy anglashga sho'ng'ishga qaratilgan bxakta-yoga mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Ayni paytda, inson o'zini moddiy ehtiyojlardan xoli qilishi, go'sht, baliq, tuxum, mast qiluvchi narsalarning barchasi, jumladan, spirti ichimliklar, tamaki, qahva, choy iste'mol qilish, nikohsiz jinsiy hayot kechirish va qimor o'yinlardan voz kechishi zarur, deb hisoblanadi.

Krishnachilikda meditatsiya deb ataluvchi, ibodatxonada o'tkaziladigan diniy marosimlar har kuni soatlab bajariladi. U maxsus harakatlar, Sankirana – birgalikda xudo Krishnani "Xare Krishna, Xare Krishna, Krishna Xare, Xare, Xare Rama, Xare Rama, Rama, Rama, Xare, Xare" degan, maxamantra ("ozod bo'lishning buyuk qo'shig'i")ni kuylash bilan sharaflash amaliyotini qamrab oladi. Bularning hammasi, ularning ta'biricha, aqlni tozalash, fikrni tashqi dunyodan xalos etish, butun diqqat-e'tiborni xudoga nisbatan muhabbatga yo'naltirish uchun bajariladi.

"Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"da o'z ergashuvchilarining mulklarini jamiyat hisobiga xayr-ehson qilishlari hamda ibodatxonada ruhoniylik vazifasiga o'tishlari rag'batlantiriladi. Bu ta'limotni qabul qilgan har bir kishiga yangi - sanskritcha nom beriladi. Jamoa a'zolari sari, dxoti va boshqa hind milliy liboslarini kiyadilar.

Krishnachilar tomonidan missiонерlik faoliyati o'tgan asrning 70-yillarida boshlangan. Ular tomonidan amalga oshiriladigan targ'ibotchilik harakatining o'ziga xos xususiyatlari qatorida ko'chalarda ibodat kiyimlarida yurib qo'shiqlar ayitish va adabiyotlarini tarqatish, "Hayot uchun ozuqa" deb nomlanadigan, bepul oziq-ovqat tarqatish aksiyatlari o'tkazilishini ko'rsatish mumkin. Bunday harakatlarning asosiy ob'ektlari sifatida odatda talabalar, maktab o'quvchilari, qariyalar va mehrimonlik uylarida istiqomat qiluvchilar tanlab olinadi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

- "Konfessiya" atamasining mohiyati nimada?
- "Sekta" so'zining mohiyati nimada?
- Noan'anaviy diniy tashkilotlarning qanday xususiyatlariga mavjud?
- Yangi diniy harakatlarning yuzaga kelishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
- Isgovo shohidari qanday tashkilot?
- Mormonlarning boshqa xristian yo'nalishlaridan asosiy farqi nimada?
- Bahoiylarning qiblati qaysi shahar hisoblanadi?
- Krishnani anglash jamiyatiga qachon va kim tomondan asos solingan?

Mustaqil ish topshiriqlari

- "Konfessiya" va "din" o'rtasidagi farqni ochib bering.
- Dinlarning geografik tarqalishi haqida xaritalarni toping.
- Dinlar izdoshlarining o'sib borishi tendensiyalari tahlil haqida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).
- Noan'anaviy dinlar yuzaga kelgan tarixiy va ijtimoiy-siyosiy omillarni atroflicha o'rganing va gapirib bering.
- G'arbda yangi sektalarning paydo bo'lishi sabablarini tahlil qiling.
- Islom dini doirasida yuzaga kelgan oqimlarga an'anaviy ulamolarning fikri haqida ilmiy ish tayyorlang.

Adabiyotlar

- Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
- Najmiddinov J. Missiонерlik: kecha va bugun. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
- Ochilidiev A., Najmiddinov J. Missiонерlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.

Mironov A., Babinov YU. Osnovy religiovedeniya: Rabo chaya kniga prepodavatelya i studenta. Ucheb. posobie. - M.: NOU, 1998.

Puchkov P., Kazmina O.E. Religii sovremennogo mira. Ucheb. posobie. - Moskva: 1997.

Bag'rikenglik - barqarorlik va taraqqiyot omili / Mas'ul muharrir - A.Achilidiev. - T., 2007.

Yovqochev Sh. Islom va siyosat. - T., 2011.

Sirojiddinov Sh. Bag'rikenglik – dinlarning ma'rifiy asosi. - T., 2010.

14-mavzu. Kibermakon va zamonaviy diniy jarayonlar

Reja

1. Kibermakon tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.
2. Axborot urushi va uning mazmuni
3. Din nuqobidagi mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lish shakllari.
4. Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masalalari.

Tayanch tushunchalar: *Kibermakon, kibermakon va din, ijtimoiy tarmoqlar tahdidlari, axborot asri tahlilchalari, internet tarmog'idagi axborot urushi, global tarmoqdagi g'oyaviy xurujlar oldini olish, barkamol avlodni mafkuraviy xurujlardan himoya qilish.*

1. «Kibermakon» tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi vogelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashtirib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «*Sojienie Xrom*» («*Burning Chrome*») nomli hikoyasida yozadi.

Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan «*Neuromancer*» («*Asabli manzaralar tasvirllovchisi*», «*Nervo-sochinite*l») nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo'llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Bu erda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida sub'ektiv psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog'i orqali biri-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterining grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'rnatilish qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi «superkorporatsiya»

texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Junladan, bugungi kunda kibernetorochilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» asarida quyidagicha ta'kidlangan: «Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlamoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgummagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilinirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'riga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur».

«Kibernetikon»da din niqobidagi «kibernetikon»lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to'ntarishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Junladan, bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan ISHID guruhining internet kibernetikonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o'tish mumkin. Ularda ISHID go'yo Islom yo'lida «qunbon» bo'layotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan.

Terrorchilarning targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. «Odnoklassniki», «Facebook», «Instagram», «Twitter», «VKontakte» ijtimoiy tarmoqlarida buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shuningdek, Islom dinini noto'g'ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo'lga kiritish hisoblanadi.

2. Axborot urushi va uning mazmuni. Insonlararo o'zaro munosabatlardagi xar qanday ziddiyat — bu, axborotlar ziddiyatidir. Axborot har qanday qaror qabul

qilish uchun eng muhim unsur bo'lib, u natqat, to'qnashuv paytida optimal xatti-harakatlarni amalga oshirish, balki, maqsadga yo'nalgan faoliyatni boshqarish imkonini beradi. Tizim mavjudligi va barbod bo'lishini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi.

Qadim davrlardan buyon axborotni o'zaro urush va nizolar jarayonida hujum uyushtirish yoki himoyalash resursi sifatida talqin etishga urinishlar bo'lib keladi. Biroq hozirga kelib ilmiy doirada «axborot urushi» kategoriya sifatida rasmiy lashti. bunday urushlarning mohiyatini anglashga doir metodologik yoidashi'lar, nazariyalar shakllandi. «Bunday sharoitda, — deb yozadi N.A.Kosin, — axborot dunyo sahmidagi tarixiy raqobat kechadigan sohaga aylanib, «axborot urushi» deb nomlanayotgan faol kurash shakli paydo bo'lmokda».

Bugungi kunda axborot urushlari haqida ko'p yozilmokda. Bu tushunchaning paydo bo'lish tarixi, ilk marotaba ko'llanilishi haqida turli, ba'zida bir-biriga zid fikr-mulohazalar mavjud. Ulariga alohida ravishda to'xtalmagan holda, bu boradagi ayrim nuqtai nazarlarga e'tiborni qaratish joiz. Manbalarda ta'kidlanishicha, «axborot urushi» atamasi ilk bor 1976 yil «Boeing» kompaniyasi uchun tayyorlangan «Qurol tizimi va axboro urushi» deb nomlangan hisobotda Tomas Rona tomonidan ishlatilgan. Hujjatda mutaxassis axborot infratuzilmasi AQSH iqtisodiyotining muhim komponentiga aylanib borayotgan axborot sohasi ham urush, ham tinchlik holatlarida nozik, zaif tarmoq bo'lib qolayotganini ta'kidlagan.

T.Rona tomonidan ilgari surilgan ushbu g'oya harbiylar ommaviy axborot vositalari xodimlarida katta qiziqish uyg'otdi, bu borada ilmiy tahlillar, intervyular, chiqishlar avj oldi. 1980 yillarga kelib esa jamoatchilikda axborotning maqsad hamda qurol, vosita sifatida namoyon bo'lishi haqida yagona xulosa shakllandi.

«Sovuq urush»ning nihoyasi va AQSH oldida yangi vazifalar paydo bo'lishi bilan «axborot urushi» atamasi mudofaa vazirligi hujjatlarga kiritildi. 1991 yil «Sahrodagi bo'ron» operatsiyasi mobaynida axborot texnologiyalari ilk marotaba harbiy harakatlarning vositasi sifatida ishlatildi.

1996 yil Pentagon eksperti Robert Banker AQSH mudofaa kuchlarining XXI asr uchun yangi harbiy doktrinasiga bag'ishlangan ma'ruza qiladi. Unda mutaxassis harbiy harakatlar teatrini an'anaviy harbiy makon hamda kibermakondan iborat ikki muhim asoslarda tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Boshqacha aytganda, R. Banker raqib harbiy kuchlarini bostirish, neytrallashtirishga qaratilgan an'anaviy harbiy kontsepsiyalarning tabiiy to'ldiruvchisi sifatida xizmat qilishi zarur bo'lgan «kibermanyovr» doktrinasini taklif etadi. Shu tariqa, quruqlik, dengiz, havo yo'llaridan tashqari harbiy harakatlar tizimiga «infonakon» – axborot makoni ham qo'shildi. Bunday yangi shakl va mazmundagi urushlarda raqib tomonining axborot infratuzilmasi va ruhiyati asosiy ob'ekt (nishon) bo'ladi.

1998 yil oktyabrda AQSH mudofaa vazirligi «Axborot operatsiyalarining birlashgan doktrinasini» amalga oshirishga kirishdi. Aslida, ushbu doktrina avval «Axborot urushining birlashgan doktrinasini» deb nomlangan edi. Keyinchalik uning nomi o'zgartirildi. Bunga sabab esa, «axborot operatsiyalari» va «axborot urushi» tushunchalarining o'zaro munosabatiga oydinlik kiritish edi. Shu tariqa axborot operatsiyasi – o'z axborot tizimlarini himoya qilish jarayonida raqib tomonining axborotini to'plash, qayta ishlash, uzatish va saqlash borasidagi ishlarini murakkablashtirish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakat; axborot urushi esa, qarama-qarshi tomonning siyosiy va xarbiy boshqaruv tizimi hamda rahbariyatiga qaratilgan kompleks ta'sirlar, axborot operatsiyalari majmui, deb ta'riflandi. Bunday ta'sirlar orqali tinchlik va urush holatlarida raqib tomon rahbariyatini informatsion ta'sir o'tkazayotgan tomonga maqbul qarorlar qabul qilishiga erishish maqsadi ko'zlanadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha axborot urushi milliy harbiy strategiyani ta'minlashda axborot borasida ustunlikka erishish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni ifoda etadi. Bunda raqib tomon axborot tizimlariga ta'sir o'tkazish bilan bir vaqtda o'z axborot infratuzilmasi mustahkamlab boriladi.

Axborot sohasidagi ustunlik muayyan holat haqida axborotni uzluksiz to'plash, qayta ishlash va tarqatish qobiliyatini anglatadi. Bunday qobiliyat, o'ziga

xoslik esa, raqib tomonga xuddi shunday xatti-harakatlarni amalga oshirishda to'sqinliklar qilish, qarshiliklar ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, axborot sohasidagi ustunlik harbiy holat haqida real tasavvurga, raqib xatti-harakatlarining aniq va interfaol manzarasiga ega bo'lish imkonini beradi.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunga kelib, axborot sohasi ko'plab davlatlar siyosatining ystuvop yo'nalishiga aylangan. Bu borada davlatlar tomonidan axborot agressiyasidan himoya tizimi, ommaviy madaniyat ekspansiyaga qarshi chora-tadbirlar bilan bog'liq keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmog'da. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ham axborot resurslaridan foydalanish, axborot almashinuvi va umuman, axborotlashtrishga doir qonun xujjatlari majmui shakllantirildi. Jumladan, «Axborotlashtrish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida "Axborotlashtrish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtrishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan" – degan qoida o'z aksini topgan.

Hozirda mazkur yo'nalishdagi konunchilik amaliyoti boshqa davlatlar siyosatida ham keng o'rin egallagan. Zero, axborot xurujlari avj olib, O'zbekiston Respublikasi Birlinchi Prezidenti Islom Karimov ta'bir bilan aytganda, «mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega» bo'lgan bugungi kunda axborot sohasi bilan bog'liq jarayonlarga alohida e'tiborni qaratish – inson, jamiyat va davlat ma'naviy-madaniy xavfsizligi va barqarorligining muhim shartidir.

3. Din niqobidagi mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lish shakllari. Yoshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarning bosh ob'ektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali etarli tajribaga ega bo'lmagan, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmog'da.

Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo'lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, bircaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. «Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharaflar ishg'a qo'l urgan bo'lasan, kerak bo'lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!», – degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e'tibor berilayotganini jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. «Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytasang, men senga keyingi avlodning tabiat qanday bo'lishini aytib beraman», – deb yozgan edi siyosiy arboblardan biri. Shu nuqtai nazardan qaraganda, diniy ekstremistik oqimlar ham jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni ko'zlab ish yuritmog'da deysish mumkin.

Ayniqsa, g'oyalar kurashi avj olgan bugungi kunimizda yoshlar ma'naviyatiga tajovvuz solayotgan tahdidlar qatorida, diniy niqob qilib, diniy qadriyatlarimizni oyogosti qilishga urinayotgan ekstremistik va missionerlik harakatlarning faoliyati jiddiy tashvish uyg'otmoqda. Shuning bilan birga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga urinish ba'zan mudhish holatlarning yuz berishiga olib kelmog'da.

Davlatimiz kelajagi hisoblangan yosh avlod tarbiyasiga yurtimizda doimo alohida e'tibor bilan qaratilgan. Mamlakatimizda sog'lom va ma'naviy boy, intellektual rivojlangan, axloqan etuk, jismonan baquvvat avlodni tarbiyalash hamda voyaga etkazish maqsadida 2000 yilni «Sog'lom avlod yili», 2001 yilni «Onalar va bolalar yili», 2008 yilni «Yoshlar yili», 2010 yilni «Barkamol avlod yili», 2014 yilni «Sog'lom bola yili» va 2016 yilni «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilangani ham buning yana bir yorqin hayotiy-amaliy ifodasi bo'ldi. Bu borada yurtimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «... farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib

yashashni uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekamiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi».

Zero, jismoniy tarbiya bolani jismonan baquvvat, kuchli, sog'lom etib tarbiyalasa, ma'naviy tarbiya orqali unda yuksak axloq, ezigulik, insonparvarlik, shijoat, rahmdillik va mehnatsevarlik sifatleri shakllanadi. Ma'naviy tarbiya farzandning o'zligini saqlashga, uning botinini olamini ma'rifiy boyitishga xizmat qiladi. Buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy aytganidek, «Inson tabiatining eng oliy zoti, kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi. Insonga katta sharaflar ko'rsatilgan – unga aql-zakovat va kuch berilgan. Shu sababdan, insonning ma'naviy olami uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma'rifatlil bo'lmog'i darkor». Demak, farzand tarbiyasi avvalo, uning ma'naviy poydevori qanchalik mustahkamligi bilan belgilanadi. Dartaqiqat, go'zal xulq ila tarbiyalangan bola hayotda aql-idrok bilan ish tutadi, imon-e'tiqodida sobit turadi, erkin va mustaqil fikrlaydi, har xil aldovlarga uchinmaydi hamda g'arazli tashviqotlarga berilmaydi.

Ayni paytda, bir haqiqatni alohida qayd etish lozim. Ota-bobolarimiz dini bo'limish islom har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan, og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, bir so'z bilan aytganda, xalqimiz uchun ham imon, ham axloq, ham ma'rifat bo'lib kelgan. Hozirda ham bu ma'rifat odamlarga ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat bag'ishlab, o'zaro mehr-oqibatlik tuyg'ularining kamol topishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash natijalar bir davlat yoki mintaqada, balki jahon hamjamiyati uchun eng dolzarb masalaga aylandi. Shu jumladan, bizning yurtimizda ham begunoh kishilarning qoni to'kilishi, obod joylar vayron bo'lishi, aholi o'rtasida vahima, parokandalik kelib chiqishining oldini olish maqsadida bu kabi ishlarni amalga oshirmog'chi bo'lganlarga qarshi qat'iy kurash olib borilmoqda.

Hozirgi kunga kelib mintaqada, xususan, O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohaning rivojlanishi diniy mutaassiblik xavfning oldini olishda muhim omil

bo'lib qolmoqda. Ammo g'arazi kuchlar ham o'z maqsadlariga erishish yo'lidagi yangi-yangi uslublarni, hiyla-nayranglarni o'ylab topishlari ham tabiiy. Bu kabi salbiy holatlarning paydo bo'lishi va rivoj topishiga yo'l qo'ymaslik esa doimiy xushyorlikni talab etadi.

Ming afsuski, diniy savodi past bo'lgan ayrim kishilar o'zlarini islom dinining jonkuyarlari qilib ko'rsatuvchi, aslida esa, hokimiyatni egallashni maqsad qilib qo'yg'an turli oqim vakillarining quruq va dalarga aldanib qolmoqdalar, hatto, o'zlarini qurbon qilishgacha etib bormoqdalar. Jahlilik ham mutaassib oqimlarning g'arazi niyatlarini amalga oshirishiga zamin yaratadigan omillardan biriga aйлandi. Mamlakatimiz hududiga yashirin tarzda olib kiritilayotgan ekstremistik ruhdaagi adabiyotlar, internet tarmoqlarida tarqatilayotgan materiallardan ta'sirlanayotgan va to'g'ri yo'ldan adashayotganlarning borligi ham buni tasdiqlaydi. O'zini portlatish orqali begunoh kishilarning halok bo'lishiga, qanchadan-qancha bolalarning etimga aylanishiga sabab bo'ladigan jafokorlik ham jaholatning o'ziga xos ko'rinishidir. Darhaqiqat hozirgi kunga kelib diniy ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o'ylangan strategiyaning bir qismidir. Bunday kuchlar yoshlarimiz ongi va qalbini zabt etish maqsadida har qanday qabih yo'llardan foydalanishga urinmoqda.

Yuqoridagi mulohaza va dalillar, diniy ekstremizm va mutaassiblikning asl qiyofasini ochib berib, mazkur harakatlarning nafaqat dunyoviy qonun-qoidalar, balki islom dini asoslariga ham zid ekanini ko'rsatadi. Shunday ekan, bunday oqimlarga qarshi murosasiz kurash, terrorchilik harakatlari amalga oshirayotgan mutaassib kuchlarning islom diniga mulago yot, begona ekanini har tomonlama asoslash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda farzandlarimiz dunyoning eng o'k'ir, faol, uddaburon, Vatandarparvar yoshlariga aylanishi, ularni fidoiylik, vatandarparvarlik, tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o'rgatish ko'p jihatdan ota-onalarga ham bog'liq. Bu borada, albatta, ota-onaga yordam berishda butun jamoatchilik – mahalla faollari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi,

profilaktika noziri, Xotin-qizlar qo'mitasi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati kabi tashkilotlarning joylardagi mas'ullari birgalikda faol ishlashlari kerak.

Respublikamizda qaror topgan tolerantlik muhitini afkor ommaga ob'ektiv ko'rsatib berish, e'tiqod ekinligi sohasida O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatni keng targ'ib qilish, diniy-ekstremistik oqimlar tomonidan targ'ib qilinayotgan vayronkor g'oyalarga qarshi islom manbalariga asoslangan ilmiy raddiyalar berish, diniy mutaassiblik tamoyillarining jamiyatga tahdidi, uning zamindagi g'arazi geosiyosiy maqsadlar, ularni amalga oshirayotgan buz'unchi kuchlarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan ishlarni yaratish yoki ularni aholi orasida targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, har bir insonning o'z ishini sidqidildan amalga oshirishi, loqaydlik, beparvolikning oldini olishi, yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga hushyorlik bilan qarab, Vatan tinchligi yo'lidagi sergak va ogoh bo'lib yashashi, yoshlarimizning ongu qalbini jaholatdan, yot va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ajdodlarimizga armon bo'lib qolgan, biz erishgan mustaqillik va tinchlik-osoyishtalikni ko'z qorachig'idak asrab-ayaylashning muhim omili hisoblanadi. Buni hech qachon unutmasligimiz, tinchlik uchun doimo o'zimizning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etib yashashimiz lozim.

4. Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masalalari. Internet fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolyusiyasining hosilasi hisoblanadi. Hozirgi kunda hayotimizni internetisiz tasavvur qilish juda mushkul. Ayniqsa, yoshlar hayotida global tarmoqning o'rni tobora oshib bormoqda. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o'zaro mulog'otini handa axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar ayнан 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanar ekan.

Yurtimizda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. So'nggi o'n yilda global tarmoqdan foydalanuvchilar o'n barobarga oshgan. Tarmoq orqali axborot izlash, qabul qilish, uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar sonining

to'g'ri borishini ta'minlamog'da. Mamlakatimizda 2007 yilda internetdan foydalanuvchilar soni (mobil internet foydalanuvchilari bilan qo'shib hisoblaganda) bir millionni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yil yakunida bu ko'rsatkich o'n ikki milliondan oshdi.

Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji yoshlarga g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'lamining keskin darajada o'sishiga olib keladi.

Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani kabi, internet tarmog'i ham shunday xususiyatlarga ega ekanini unutmashlik zarur. Albatta, global tarmoq – ulkan resurs. Biroq, bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham juda jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma'lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog'ida ma'naviy-axloqiy tubanlikni targ'ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etgan.

Ushbu fakt va raqamlar internet sanoati rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kishilarning axborotlarga nisbatan juda ehtiyokkorlik, ogohlik va ziyoralik bilan munosabatda bo'lishlarini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kishilarimizda, ayniqsa, yoshlarimizda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Aynan shu tarqiqiyot vositasidan ustamona foydalanib, qablarni zabt etishda diniy omilning roli yuqori. Shuning uchun ham turli diniy-ekstremistik va terrorchi uyushmalar o'z g'oyalarini targ'ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo'llanmoqda.

Bunda diniy-ekstremistik oqimlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet orqali turli tillarda targ'ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoalar tuzish asosiy vazifaga aylangan. Masalan, bugungi kunda bir necha yirik terrorchi tashkilotlar o'z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan 17-35 yosh oraliqida bo'lgan kishilarni yollanmoqda. Bunda psixologik ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a'zolarining sahifalari, qo'yilayotgan

rasmlar, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat mavzularini puxta o'rganadi va shu asosda «mishonga» olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning Facebook, Odnoklassniki, VKontakte, Telegram, Twitter, WhatsApp kabi keng auditoriyaga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali (yozma xabar, matn, fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolk) jo'natiladi va o'zaro aloqa yo'lga qo'yiladi.

Yoshlar orasida mutaassiblikka yo'l qo'yilgan bunday forumlarning tobora ommalashuvi hamda ularda turli ko'rinishdagi buz'unchi «fatvo»larning berib borilishi muammaning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Chunki dunyo aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar katta kuch hisoblanadi. Ularning endi shakllanib kelayotgan ongiga nimani singdirilsa, o'sha toshga o'yilgan naqshdek muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarni tuzog'iga ilintirishga harakat qiladi. Ulardagi ishonuvchanlik, kuch-g'ayrat, qiziqqonlik ularning maqsadini amalga oshirishda qo'l keladi.

Ming afsuski, bunday manfur kuchlar asosan ilim va ma'rifatdan yiroq, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmagan kishilarni, asosan yoshlarni jalb etishga intilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali «jihod», «takfir», «shahidlik», «hijrat» tushunchalarini noto'g'ri talqin etgan holda o'z Vatnlarini tark etishga urinmoqda. Shuningdek, ayrim kimsalar tomonidan maqsadli ravishda islom mohiyatiga zid bo'lgan turli xil asossiz axborotlar, manbasi aniq bo'lmagan diniy tushdagi xabarlar yoki kishilarni vahimaga soluvchi foto va videolavhalar keng targ'ib etilmoqda. Bunda ba'zi yoshlarning axborot vositalari orqali targatlayotgan milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabarlar, aniq manbasi ko'rsatilmagan, asossiz axborot va ma'lumotlarga ishonib qolishayotgani, mulohaza qilmadan ko'r-ko'rona qabul qilayotgani undan ham keskin oqibatlarini keltirib chiqarmoqda.

Bugun axborot iste'mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o'zida uni iste'mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur. Ana shu maqsadda

2011 yildan boshlab, Toshkent islom universiteti bakalavriat va magistraturaning barcha yo'nalishlarida «Axborot iste'moli madaniyati» nomli maxsus kursning o'qitilishi joriy etildi.

Axborot iste'moli madaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlarini, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o'zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitish ekan, hech bo'lmaganda «Bu axborotni kim uzatayapti?», «Nima uchun uzatayapti?» va «Qanday maqsadda uzatayapti?» degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

Shundaygina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste'moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarga nisbatan o'ziga xos qalqon rolini o'taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodda bu jihatlarda darajada shakllangan va qaror topgan bo'lishi lozimki, ular virtual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot iste'moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

«Kimki axborotga ega bo'lsa, u, dunyoga egalik qiladi», degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e'tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dartaqiqat, islom dini ko'rsatmalarida ham naql qilingan biror xabarga ishonishdan avval uni tekshirib, aniqlab olish talab etiladi. Jumladan, Qur'oni karimda shunday deyiladi: Ey, mo'minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar kelinsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat etkazib

qo'yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo'lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko'ringiz! (*Thujurot, 6*).

Bu haqida Qur'oni karimning yana bir oyatida insonlar uchun muhim ko'rsatma kelgan bo'lib, unda ham turli vositalar orqali olinayotgan xabar va ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishdan qaytariladi: (Ey, inson!) O'zing (aniq) bilmagan narsaga ergashma! Chunki quloq, ko'z, tilning har biri to'g'risida (har bir inson) mas'ul bo'lur (javob berur) (*Ibro, 36*). Demak, inson ko'rgan, eshitgan har bir ma'lumotiga ishonishi, unga ergashishi oqibatida Alloh oldida ham so'raladi.

Payg'ambar Muhammad (alayhis-salom)dan rivojat qilingan bir nechta hadislarda ham shunday deyiladi: «*Xabarni tekshirish Allohdan, (unda) shoshqaloqlik qilish shaytondandir*», deganlar. Shuningdek, *Abu Hurayra (r.a.)dan rivojat qilingan boshqa bir hadisda esa, Rasullulloh (alayhis-salom): «Kishining yolg'onchi ekanligiga uning eshitgan har bir narsasini gapiraverishi kifoya qiladi» deganlar.*

Demak, har bir olingan ma'lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o'sha ma'lumotga qarab ish tutish islom mohiyatiga ko'ra, shayton yo'l'iga kirish hamda yolg'onchi bo'lib qolish bilan barobar bo'ladi. Chunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g'arazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qo'yiladi.

Shunday ekan, dunyoning turli mintaqada va hududlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to'qnashuvlarga teran qarash hissinii oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so'z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo'lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim.

Mavzu bo'yicha savollar

Kibermakon tushunchasining mazmun-mohiyati haqida ma'lumot bering.

Din niqobi ostidagi mafkuraviy tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo'lmogda?

Nima uchun internet olamidagi buzg'unchilar asosan yoshlarni o'z to'rlariga ilintirmogda?

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda qaysi jihatlarga alohida e'tibor qaratish kerak?

Adabiyotlar

Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G'afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.

Qo'shaev U. Axborot iste'moli madaniyati. – Toshkent: «Extremum-Press» nashriyoti, 2013. – 44 b.

Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya. Mas'ul muharrir A.Hasanov. – Toshkent: Movarounnahr, 2016. – 672 b.

Shermuhamedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. – 224 b.

15-mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurashish – jamiyat taraqqiyotining asosi

Reja:

1. Korrupsiya tushunchasi
2. Korrupsiyaga jinoyatning tarkibiy tuzilishi va belgilari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tizimi va vakolatlari.
4. Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti.

Tayanch so'zlar: Korrupsiya, korrupsiyaviy jinoyatlar, huquqbuzarlik, fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, Xalq qabulxonalari.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, korrupsiya jamiyatni emiradigan, shaxsni axloqiy jihatda inqirozga uchratadigan, har qanday davlat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladigan ijtimoiy illatdir. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev korrupsiyani mohiyati va unga qarshi kurashish zarurligi haqida quyidagi fikrni bejiz aytmagan edi: – Jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan yana bir illat – bu korrupsiya balosidir. Bunday xatarga qarshi kurashish maqsadida yaqinda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi, Senatga yuborilgan – «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunni tezroq amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ko'rishimiz lozim. Bularning barchasi, o'z navbatida, inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga, xalqimizning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi⁴.

Korrupsiya – shaxsni mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat turidir. Korrupsiyaviy faoliyat xuyona iqtisodiyotning asosiy zarari va emiruvchi turlardan biri hisoblanadi. Aksariyat

⁴ Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining jaroyi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tanashli marosimdagi ma'ruza // Milliy taraqqiyot yo'llarini qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston NMU, 2017. – B.110.

hollarda korupsiya deganda davlat mansabdori tomonidan o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab boylik o'ttirish maqsadida fuqarolardan pora olishi, qonunga xilof ravishda boylik o'ttirishi tushuniladi. Lekin, umuman olganda, davlat mansabdori emas, balki, korxona yoki firmalarning menejerlari ham korupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Bunda ko'pincha poralar pul bilan emas, balki boshqa shakllarda olinadi; korupsiyaga doir jinoyatlarning tashabbuskorlari ba'zan tadbirkorlar bo'lishi ham mumkin.

Biz o'tgan yillar davomida tadbirkorlik yo'lidagi ortiqcha cheklovlarini bartaraf qilish, ularning faoliyatiga davlat idoralarining noqonuniy aralashuvini qat'iy cheklash borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdik. Jumladan, korupsiyaga yo'l ochib berayotgan er ajratish amaliyoti tubdan isloh qilindi. Bu jarayon endilikda er ajratish elektron tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

2020 yil 1 yanvardan boshlab hokimlarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlarni olib qo'yish bo'yicha vakolati xalq deputatlari Kengashlariga berilishi belgilangan edi. Bu o'zgarish ham muk daxsizligini ta'minlash yo'lidagi jiddiy qadamlardan biridir⁵.

Korupsiyaga qarshi kurashish yo'llaridan biri bu davlat xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, ularning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun qulay muhit yaratish va korupsiyani keltirib chiqaradigan holatlarni kamaytirishdan iborat.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini libtallashirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan **2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshita ustuvor yo'nalishi bo'yicha**

Harakatlar strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlandi.

Strategiyaning 2.4. bandi bevosita jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Ushbu bandga asosan:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

korupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni bilan 2019-2020 yillarda korupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va Korupsiyaga qarshi kurashish buyicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Korupsiyaga qarshi kurashish agentligini faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 29.06.2020 PQ-4761-sonli qarori asosida (PQ- 4761, 29.06.2020) yangi tashkil etilgan —Korupsiyaga qarshi kurash agentligining asosiy vazifalari, faoliyat yo'nalishlari hamda xuquqlari belgilab olindi. Ular quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasida byudjet mablag'larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi davlat xaridlari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlarini bajarilishi bilan bog'liq materiallar talab qilish, olish va o'rganish;

Jismoniy va yuridik shaxslarning korupsiya masalalari bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish;

⁵ SH.M. Mirziyoyev - Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan ta'kidli marosimdagil ma'ruzasi

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy surishtiruvlar o'tkazish;

Ijro hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlarida ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda jirosini to'hatlash yoki bekor qilish to'g'risida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish kabi bir qator xuquqlar berilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan - Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunida korrupsiya tushunchaga quyidagicha ta'rif berildi:

—**Korrupsiyal** deganda - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish tushuniladi;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish tushuniladi⁶.

Shuningdek, qonunda **manfaatar** to'qnashuvi tushunchasiga ham izoh berilgan bo'lib - u shaxsiy (bevosila yoki bilvosila) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat anglatadi.

Etimologik jihatdan olganda —korrupsiyal atamasi —buzish, pora evaziga og'dirish degan ma'noni anglatadigan lotincha —corruptio so'zidan kelib chiqdi. Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta'kidlashicha, —korrupsiya - mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan

shaxsiy boylik o'rtirish uchun foydalanishda ifodalانuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoyi faoliyattir.

—Yuridik atamalar qomusiy lug'atida korrupsiya tushunchasiga – davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo'lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishil, deb ta'rif berilgan.

BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ma'lumotida shunday deyiladi: —Korrupsiya - bu shaxsiy naf ko'rish maqsadlarida davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir. Korrupsiya tushunchasiga berilgan shu kabi ta'rif Jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning roliga bag'ishlangan hisobotida ham berilgan: korrupsiya - bu —shaxsiy naf ko'rish yo'lida davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir.

BMTning korrupsiyaga qarshi kurash borasida quyidagi hujjatlarni qabul qildi:

- 1) —Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan);
- 2) Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar (BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyusiyasi bilan 1989 yil 24 mayda qabul qilingan);
- 3) Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 12 dekabrda qabul qilingan);
- 4) BMTning Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 16 dekabrda tasdiqlangan);

⁶ O'zbekiston Respublikasining —Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonuni. 4 yanvar 2017 y. // <http://parliament.gov.uz/laws/adopted/253/19165/>.

5) Terrorizmi moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiya (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1999 yil 9 dekabrda qabul qilingan);

6) BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan);

7) BMT Forumining ofshorlar bo'yicha Kommunitikasi (Kayman orollari, 2000 yil 30-31 mart);

8) BMT Bosh kotibining korrupsiyaga oid ma'ruzasi (Vena, 2001 yil 8-17 may);

9) Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar to'plami (2001 yil iyun);

10) Korrupsiyaga qarshi kurash choralari. Pulni tozalashga qarshi kurash choralari. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviga javoblar to'g'risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat Rejasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2002 yil 15 aprelda qabul qilingan)

11) BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan).

Shuningdek, Evropa Kengashi va Evropa Ittifoqi korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi ko'plab huquqiy normalar va xalqaro hujjatlar qabul qildi.

Evropa Kengashining korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 27 yanvar); 2) Evropa Kengashining korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 9 sentyabr); 3) Evropa Kengashining jinoiy faoliyadan olingan daromadlarni tozalash, aniqlash, olib qo'yish va musodara qilish to'g'risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1990 yil 8 noyabr); 4) Korrupsiyaga qarshi kurashning yig'ima prinsipi (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1997 yil 6 noyabr); 5) Davlat xizmatchilari uchun Model xulq-atvor kodeksi (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000 yil 11 may); 6) Siyosiy partiyalarni va saylov kampaniyasini moliyalashtirishda korrupsiyaga

qarshi yagona qoidalar (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2003 yil 8 aprel); 7) Moliyaviy tizimdan pulni tozalash maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi EII Direktivasi (1991 yil 10 iyun); 8) Pulni tozalashga qarshi Parij deklaratsiyasi (Evropa Ittifoqining pulni tozalashga qarshi parlamentar konferensiyasining Yakuniy deklaratsiyasi 2002 yil 8 fevral)

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) doirasida korrupsiyaga qarshi kurashga doir quyidagi huquqiy normalar qabul qilindi:

1) Jinoyatchilikka qarshi kurashda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga ishtirokchi davlatlarning hamkorligi to'g'risidagi Kelishuvi (Moskva, 1998 yil 25 noyabr);

2) —Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risidagi Namunaviy qonuni (MDH Parlamentlararo assambleyasining XXII plenar yig'ilishida qabul qilingan 2003 yil 15 noyabr);

3) —Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Namunaviy qonuni (MDH Parlamentlararo assambleyasining XIII plenar yig'ilishida qabul qilingan 1999 yil 3 aprel);

4) —G'ayriqonuniy yo'ldan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshilik qilish to'g'risidagi Namunaviy qonuni (MDH Parlamentlararo assambleyasining XII plenar yig'ilishida qabul qilingan 1998 yil 8 dekabr);

5) —Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi tavsiyaviy qonunchilik akti (MDH Parlamentlararo assambleyasining qarori bilan qabul qilingan 1996 yil 2 noyabr).

6) Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmi moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Evrosiyo guruhi to'g'risidagi Bitim (Moskva, 2011 yil 16 iyun).

Barcha xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashga doir huquqiy normalari BMTning —**BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi** tomonidan muvofiqlashtiriladi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu - shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya

qilgan: O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan – BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risidagi Qonuni 2008 yil 24 iyunda qabul qilindi va 2008 yil 27 iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma'qullandi va 2008 yil 28 avgustidan e'tiboran kuchga kirdi.

O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo'shildi. Jumladan, Qonunning 1-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korruptsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab-chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa ishtirokchi - davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilanganligi keltirildi. Bu qoida Konvensiyaning 6-moddasi 3-bandidagi har bir ishtirokchi Davlat BMTning Bosh kotibiga korruptsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqa ishtirokchi davlatlarga yordam berishi mumkin bo'lgan organ yoki organlarning nomi va manzili haqida xabar qiladi, degan talablarga to'la javob beradi.

Ushbu qonun mazmuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konvensiyaning —Nogonuniy tarzda boylik o'tirtirishlari jinoyat sifatida baholagan 20-moddasi va —Yuridik shaxslarning javobgarligini nazarda tutilgan 26-moddalariga qo'shilmag'an.

Yuqoridani qonunning 3-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konvensiya 44-moddasi 6-bandining —al kichik bandiga muvofiq, ushbu Konvensiyadan korruptsiya jinoyatlari sodir etgan shaxslarni tutib topshirish masalalarida ushbu Konvensiyaning boshqa ishtirokchi-davlatlari bilan o'zarolik asosida hamkorlik qilish uchun huquqiy asos sifatida foydalanishligini bildirgan.

Uzoq yillar tajribasidan kelib chiqib korruptsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin:

1) sub'ektlarning maqomiga ko'ra:

a) hokimiyat organlaridagi korruptsiya;

b) xususiy sektordagi korruptsiya;
v) siyosatdagi korruptsiya yoki siyosiy korruptsiya;

2) darajasiga ko'ra:

a) quyi darajadagi korruptsiya;
b) yuqori darajadagi korruptsiya;
v) vertikal korruptsiya;

3) jirimoy xavfli darajasiga ko'ra:

a) korruptsiya-qilinish;
b) korruptsiya-jinoyat.

Korruptsiyaning ko'rsatilgan turlarini quyida muftassaroq ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korruptsiya hozirgi vaqtda jahonning deyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan O'zbekistonda ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagi korruptsiya jinoyatlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni o'zlari qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim bo'lgan kishilar sodir etadi. Aksariyat mamlakatlarda bu jinoyatlar keng tarqalganligi, davlat apparati xodimlari korruptsiya tuzog'iga ilinganligi mazkur mamlakatlarning qonunchilarini poraxo'rlik, mansab mavqeini suiiste'mol qilish va boshqa xavfli mansabdorlik jinoyatlariga qarshi qat'iy choralar ko'rishga va, aksincha, mansabdorlarning uncha xavfli bo'lmagan va ko'proq darajada tarqalgan jinoyatlariga jiddiy e'tibor bermaslik (masalan, uncha qimmat turmaydigan sovg'a olish jinoyat hisoblanmaydi) holatlari uchrab turibdi.

Ayrim tadqiqotchilar siyosiy korruptsiyani alohida tadqiq etib, uni korruptsiyaviy jinoyatlarining alohida turi sifatida ajratib ko'rsatadi. Ular asosan korruptsiyaning uchta asosiy shaklini keltiradi:

1) siyosiy: mansabdor shaxs yuzaga kelgan qarindosh-urug'chilik munosabatlari tufayli qonunga zid harakat qiladi;

2) jinoyat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, mansabdor shaxslarni sotib olishga asoslangan. Ular esa mukofo't puli olish evaziga g'ayoriqonuniy xizmatlar ko'rsatadi;

3) taraflardan biri o'ziga eng qulay tartib vujudga keltirish uchun jinoyatga mansabdor shaxslarning tegishli toifalarini izchillik bilan jalb etishni nazarda tutadi. Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan mustahkam bog'langan bo'lib, mansabdor shaxslarga nisbatan sotib olish, provakatsiya qilish va tahdid solishni anglatadi⁷.

Siyosiy korrupsiya shaklining ko'p uchraydigan ko'rinishi – bu pora olish va pora berish hisoblanadi. Bu holat saylovlarda nomzodlar o'z huquqini qing'ir yo'llar bilan amalga oshirish maqsadida siyosat sub'ektlarini pora evaziga og'dirib olishga urinadi. Faoliyat ko'rsatish darajalariga binoan korrupsiya quyidagidagi, yuqori darajadagi va vertikal jihatlar bilan bir-biridan farqlanadi.

Quyidagi darajadagi korrupsiya hokimiyat va boshqaruv organlarining o'rtasida va quyidagilarida keng tarqaladi, mansabdorlar va fuqarolarning munozarasi o'zaro aloqalari bilan bog'liqdir (masalan, ro'yxatdan o'tkazish, jarimalardan qutulish, litsenziyalar va turli ruxsatnomalar olish va sh.k.).

Yuqori darajadagi korrupsiya yuqori hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliy martabali mansabdorlarni o'ziga qamrab oladi va juda katta boyliklar evaziga o'z foydavisiga qarorlar qabul qilish bilan bog'liqdir (qonunlarni ilgari surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o'zgartirish va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsiyaviy bitimdan manfaatdor bo'lgan ikkala tomon ayni bir davlat hokimiyati organida ishlashi mumkin. Masalan, quyidagi turuvchi davlat organining mansabdori o'zidan yuqorida turuvchi boshliqqa o'zining korrupsiyaviy harakatlari haqida homiylik qilishi yoki qo'shimcha mablag'lar, resurslar, vakolatlar ajratishi uchun pora beradi.

Korrupsiyaning pora olish va xizmat mavqeini suiste'mol qilish kabi odardagi shakllardan tashqari, yana uning quyidagi amalda namoyon bo'lishi shakllarini bir-biridan farqlash mumkin:

- mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish uchun bevosita ishtirok etishi; davlat pul

mablag'larini o'zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

- o'z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish; shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

- mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi; shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish maqsadida axborotni manipulyatsiya qilish (buzib ko'rsatish, bemaslik, berish muddatlarini cho'zish va sh.k.) uchun xizmat mavqeidan foydalanish;

- tor guruhaviy manfaatlarida normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish; ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish.

AQSHda korrupsiyaning —kikbeKing degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til birlashtirish ishtirokchilari muayyan narxlarida bitim tuzishga og'zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarida imzolaydi. Tafvutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya'ni yashirin tarzda pora beriladi. Pora olishning bu kabi shakli so'nggi yillarda O'zbekistonda ham uchrab turibdi.

Korrupsiya jinoyati nafaqat xufyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan ochiq tarzda ham sodir etilishi mumkin. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo'lmaydi, chunki g'ayriqonuniy kelishuvdan har ikkala tomon ham naf ko'radi. Hattoki, jabrlanuvchilar pora so'ragan mansabdorlar ustidan ham kandan-kam holda shikoyat qiladi. Chunki, odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayonini samara berishiga unchalik ishommaydi. Bu holatga doir milliy va xorijiy tajriba bilan bog'liq bo'lgan muayyan ob'ektiv va sub'ektiv sabablar mavjuddir. Korrupsiya harakatlari odarda davlat faoliyatining mutaxassis bo'lmagan kishilar tushunishi ancha qiyin bo'lgan o'ziga xos turlarida namoyon bo'ladi. Shuning

⁷ Ismoilov B.I. —Korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslari» maxsus kursi bo'yicha ma'ruza matn. T.:2013.-B.8-9.

uchun ham korupsiya o'ta moslashuvchan jinoyatdir. U vaziyatga qarab tinimsiz o'zgarib turadi va takomillashib boradi. Shu bois bu hodisa haqida to'liq, mukammal yoki hech bo'lmasa qandaydir uzun-yulug' ma'lumotlar olish ham qiyin masalalardan biri hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning strategik maqsadini amalga oshirishda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish, korupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish muhim ustuvor va dolzarb vazifalar sifatida qarab kelindi.

Mustaqillik davrida Birinchi Prezident I.A. Karimov tashabbusi bilan tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning huquqiy asoslari shakllantirildi, korupsiyaga qarshi kurashish tizimi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining — **“Korupsiyaga qarshi konvensiyasi”**ga (2003 yil 31 oktyabr, Nyu-York) 2008 yili, shuningdek, 2010 yili Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan korupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul harakat rejasiga (2003 yil 10 sentyabr, Istanbul) qo'shilishi korupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

Korupsiya va uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabablar va omillarning oldini olish maqsadida iqtisodiyotni erkinlashtirish, mehnat jamoalarida ishchanlik va oshkoralik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar tashkil etish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish hamda davlat organlari tomonidan litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odo-atloq qoidalarini tasdiqlashga oid qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Lekin, mamlakatimizda 2017 yilga qadar korupsiyaga qarshi kurashni muvofiqlashtiradigan, bu kurashni qonuniyligi va shaffofligini ta'minlaydigan maxsus qonun qabul qilingmagan edi. Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi O'zbekiston Respublikasining -Korupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Qonuni qabul qilindi va u 2017 yil 4 yanvardan boshlab

kuchga kirdi. Mazkur Qonundan ko'zlangan asosiy maqsad korupsiyaga qarsha kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'ldi.

—Korupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Qonunning 3-moddasida korupsiyaga doir asosiy tushunchalarga doir quyidagi ta'riflar ifodalandi:

korupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korupsiyaga oid huquqbuzarlik — korupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlari to'qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Shuningdek, Qonunda korupsiyaga qarshi kurashning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining o'zaro hamkorligi; korupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarliligi bo'yicha choralar ustuvorligi kabi bilar mustahkamlab qo'yilgan.

Qonunda korupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab qo'yildi:

- aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korupsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korupsiyadan ogohlantirish bo'yicha choralarini amalga oshirish;

- korrupsion huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ular oqibatlari, sabablari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tadbiq etish*.

Shu bilan birga, Qonunda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyadan oghlantirish bo'yicha qator choralar belgilandi. Jumladan, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlash, parlament va jamoatchilik nazorati, mansabdor shaxslar faoliyati sifatini baholash hamda ishga qabul qilish va mansab pillapoyalaridan ko'tarishda ochiqlik va xolislik tamoyili asosida tanlovlar asosidagi saralashlarga amal qilish mexanizmlarini joriy etish belgilandi. Davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomi aniqlanib, ularni ijtimoiy himoya qilish, moddiy ta'minotini oshirish va mehnat faoliyatini har tomonlama rag'batlantirish choralarini ko'rishga shart-sharoitlar yaratildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va tadbirkorlik sohaslarida korrupsiyani yuz bermasligi yoki undan voqif etish qator choralar qatoridan ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, turli ro'yxatga olish, ruxsat berish va litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish va ularni rasmiylashtirish tezkorligini oshirish, davlat organlarining nazorat-tekshiruv vakolatlarini optimallashtirish hamda ular bilan tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning uzoqdan masofaviy tarzda bog'lana olish shakllarini joriy etish belgilandi.

Shuning uchun ham davlat organi xodimi biror bir shaxs tomonidan uni korrupsion huquqbuzarlikni sodir etishga da'vat qilish holati, shuningdek, boshqa xizmatchilar tomonidan shu kabi holatlarning amalga oshirilishi bo'yicha unga oshkor bo'lgan ma'lumotlarni o'z rahbari yoki huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat etish huquqlari belgilab qo'yildi. Mazkur majburiyatlarning amalda bajarilmasligi qonunchilikka muvofiq tegishli ravishda jazolanishi qoidasi o'rnatildi. Korrupsion jinoyat to'g'risida axborot bergan shaxs davlat himoyasi ostiga olinadigan bo'ldi. Shuningdek, mazkur qoida yolg'on ma'lumotlarni taqdim etuvchi fuqarolarga nisbatan amal qilmasligiga e'tibor qaratildi.

Qonunning alohida moddalari bilan har qanday fuqaro turli tashkilotlar va davlat organlari faoliyati, o'ziga yoki boshqa shaxslar guruhiga taalluqli qabul qilinayotgan me'yoriy aktlar to'g'risida ma'lumot olish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi. Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlar tomonidan OAVga korrupsiya bilan bog'liq hodisalar, dalillar, voqealar va jarayonlar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishi uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Mazkur chora-tadbirlarning yangi va yanada samarali tizimini yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan —Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni to'liq qonuniy tartibga solishga, davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatta korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga toqat qilmaslik muhitini yaratishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari va bu boradagi davlat siyosatining muhim yo'nalishlari mustahkamlab qo'yildi. Qonun fuqarolar huquq va erkinliklari himoya qilishni ta'minlashning qo'shimcha huquqiy kafolatlarini yaratdi, shuningdek u xususiy mulk huquqiga g'ayriqonuniy tajovuzlar qilishdan, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklashlardan himoya qila boshladi.

Qonunning 7-moddasiga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari sirasiga quyidagilar kiritildi: Bosh prokuratura; Davlat xavfsizlik xizmati; Ichki ishlar vazirligi; Adliya vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoyi daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlarga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

* O'zbekiston Respublikasining —Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-sen, 2-modd.

Shu bilan birga, qonunda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralaro komissiyasini tashkil etish ham nazarda tutildi. Idoralaro komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishi nazarda tutildi. Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralaro komissiyalar tashkil etilishi belgilandi. Unga muvofiq tarzda idoralaro komissiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

– korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni tashkil etish;

– korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ko'rish;

– korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;

– hududiy idoralaro komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat⁹.

Qonunning 16-moddasiga asosan davlat organlari va boshqa tashkilotlar korruptsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyada korruptsiyaga nisbatan munosabatni munosabotni shakllantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rib borishlari lozim.

Shuningdek, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar o'z mansabdor shaxslarining va xodimlarining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, jumladan, huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ham amalga oshirib borishlari nazarda tutildi.

⁹ O'zbekiston Respublikasining —Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 2-modd.

Qonunda ta'lim muassasalarida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiyani olib borishga ham alohida urg'u berildi. Davlat ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari belgilab qo'yildi.

Mazkur qonunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida uchrashi mumkin bo'lgan korruptsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish uchun zarur barcha tartib-tamoyillar hamda ularning huquqiy asoslari mustahkamlab qo'yildi. Bu esa mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashni takomillashtirishga oid islohotlarning yangi davri boshlanganligini va bu jarayonda korruptsiyaga qarshi kurashish davlatning ustuvor vazifasi ekanligi e'tirof etildi.

Mazkur Qonunni qabul qilinishi nafaqat davlat organlarining korruptsiyaga qarshi kurash olib borishining huquqiy asoslarini yaratdi, balki mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga ham shart-sharoitlar yaratdi: birinchidan, korruptsiyaga qarshi kurashning shaffoqligi o'rnatildi; ikkinchidan, korruptsiyaga qarshi kurash uchun fuqarolik jamiyati institutlariga ham vakolatlar va huquqlar berildi; uchinchidan, qonunga binoan fuqarolar huquqiy madaniyatini oshirish ularni korruptsiyani fosh etishda faol ishtirok etishini ta'minlaydi; to'rtinchidan, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy va iqtisodiy tayanchi – mulkdorlar ijtimoiy qatlami korruptsiyaviy tajovuzlardan himoyalaniishi natijasi o'laroq mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga ko'proq ta'sir etadi; beshinchidan, jamiyada ma'naviyat va axloq me'yorlariga i'toat etish va amal qilish kuchayadi.

Korruptsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti. Dunyoda XXI asr boshlariga kelib ham korruptsiyaga barham berish masalalari had etilgani yo'q. BMT ma'lumotlariga ko'ra dunyoda berilgan pora hajmi keyingi uch yil ichida yiliga o'rtacha 1 trl. AQSH dollarini tashkil etmoqda. Rossiya Federatsiyasi adliya vazirligi hisobiga ko'ra korruptsiya

Rossiyani 20 foiz yalpi ichki mahsulotdan maxrum qilib, u yiliga 16 trln. rublni tashkil etmoqda. Rivojlangan davlatlarda ham korruptsiyani kamaytirishda hal etilmagan muammolar mavjud. O'zbekistonda ham mustaqillik davrida korruptsiyaga berilgan mansabdorlar xatti-harakatiga to'liq barham berishning huquqiy va tashkiliy jihatlari o'z takomiliga etkazilmadi.

Prezident SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan —2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatda korruptsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etish bo'yicha vazifalar qo'yildi. Uning 2-yo'nalishi qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish vazifalarini o'z ichiga olib, uning 4-bandida jinoiyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish vazifalari qo'yildi. Xususan unda korruptsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korruptsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish tizimini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 24 iyulda qabul qilingan —Qonunchilik jirosini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tarkibida Qonunchilik jiroi ustidan nazorat bosh boshqarmasi tashkil etilishi prokuratura organlarining korruptsiyaga qarshi kurash va nazorat faoliyati kuchayishining muhim omiliga aylandi. 2014-2017 yillarda qonunlar jiroi bo'yicha o'tkazilgan 17 mingga ortiq tekshiruv yakunlariga ko'ra prokuratura organlari tomonidan 115228 ta prokuror nazorati hujjati qo'llanildi, 87094 nafar fuqaroning buzilgan huquqlari tiklandi. Davlat organlarining qonun hujjatlariga zid bo'lgan 19578 ta hujjati ustidan arz qilindi. Natijada keyinchalik ushbu hujjatlar bekor qilindi yoki qonun hujjatlariga muvofiq holga keltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 mayda qabul qilingan —Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'llidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonning qoidalarini so'zsiz ijro etishgaprokuratura

organlari tomonidan alohida e'tibor qaratildi. Mazkur farmon, unga muvofiq qabul qilingan —O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik sub'ektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'llidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni so'nggi yillarda mazkur sohada qabul qilingan eng muhim normativ hujjatlar bo'lib qolmoqda. Ushbu qonun hujjatlari tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, biznes olib borishni tashkil etish, nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qilish bilan bog'liq mazkur sub'ektlar faoliyatining deyarli barcha jihatlari taalluqlidir.

Ushbu qonun hujjatlarining qoidalarini amalga oshirish maqsadida prokuratura organlari tomonidan tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining so'zsiz ijro etilishi ustidan nazoratni kuchaytirishga, tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini buzganlik uchun nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi va vakolati davlat organlari mansabdor shaxslari javobgarligining muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan kompleks, tizimli chora-tadbirlar ko'rilmoqda hamda ro'yobga chiqarilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 mayda qabul qilingan farmonini ijro etish maqsadida Bosh prokuratura huzurida fuqarolarning, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining murojaatlarini kechayu kunduz qabul qiladigan elektron tizim yaratildi va samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Murojaatlarni ko'rib chiqish tezligini ta'minlash maqsadida ushbu tizimga 34 ta idora, prokuratura organlarining viloyat va tuman bo'limlari ulandi. Har bir murojaatning o'z vaqtida ko'rib chiqilishi on-layn rejimda nazorat qilinmoqda.

Bosh prokuraturaning murojaatlarni kechayu kunduz qabul qiluvchi markazi tashkil etilganidan buyon (2015 yil 1 iyul) markaz telefonlariga 19 mingga ziyod murojaat kelib tushdi. Ular bo'yicha prokuror tomonidan tegishli chora-tadbirlar

ko'rildi. Hisobot davrida prokuratura organlari tomonidan deyarli 16 ming nafar tadbirkorlik sub'ekting qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish yuzasidan ularga amaliy yordam ko'rsatildi. Tadbirkorlarni himoya qilishga qaratilgan nazorat tadbirlari natijasida ularning foydasiga 13 milliard so'm undirish to'g'risida sudlarga 764 ta ariza kiritildi, 6220 nafar tadbirkorning huquqlari tiklandi. Muhokama chog'ida qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning mehnat, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, ta'lim sohasidagi huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha prokuratura organlari faoliyatining samaradorligini yanada oshirishga doir taklif hamda tavsiyalar bildirildi¹⁰.

2016 yilning so'nggi choragidan boshlab mamlakatda korrupsiyaga barham berish sohasida katta ishlar amalga oshirildi. 2017 yil 2 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **—Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi** PQ-2752-sonli qarori mamlakatda korrupsiyaga baham berish va unga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etdi. Qarorga asosan —Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalarining samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida —2017-2018 yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlandi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiya asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

-aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

-korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

-korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

-korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

-korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

-korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish¹¹.

Prezident SH.M.Mirziyoyev tomonidan 2016 yilning oxiridan boshlab davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashining tizimli faoliyatini yo'lga qo'yilishi, uning tashabbusi bilan —Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonun qabul qilinishi, prokuratura va sud-huquq tizimini isloh etilishi, Prezident va Xalq qabul xonalarga kelib tushayotgan murojatlarni tahlil etib borish qoidalarini o'rnatilishi, mansabdorlar xizmatini oxirgi natijalariga qarab baholanishi qoidalarini o'rnatilishi kabi chora-tadbirlar o'z natijasini bera boshladi. YUqori davlat organlari bilan chatishib ketgan bir necha uyushgan jinoiy ishlar fosh etildi.

2017 yilning birinchi yarmida 1566 ta mansabdor shaxsga nisbatan 1130 ta jinoiy ish qo'zg'atilib, ulardan 954 tasi (84,4 foizi) sudga oshirilgan. Lekin, bu davrda 2016 yilning birinchi yarmiga nisbatan sudga oshirilgan jinoiy ishlar 22

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 4-yalpi majlisi 2015.5 dekabr. №235 (6418).

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 2 fevralda qabul qilingan PQ-2752-sonli qarori/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini ta'minlash, 2017 y., 37-son, 982-modd.

foizga kamaydi. Korruptsiyaviy faoliyat tufayli keltirilgan zararining 77 foizi undirildi. 374 ta guruhlar tomonidan sodir etilgan korruptsiyaviy jinoyatlar ochib tashlandi, 1330 ta korruptsiyaviy jinoyatlar aniqlandi¹².

Mamlakatda har paysshanba kuni —Huquqbuzartliklarni oldini olish kunil deb e'lon qilinib, bu kunlari mehnat jamoalari va yashash joylarida huquqni himoya qilish organlari vakillari aholini ro'y berayotgan jinoyatlardan ogoh etib borish, aholini huquqiy madaniyatini oshirish tadbirlarini o'tkazish an'angaga aylandi. Shuningdek, paysshanba kunlari ichki ishlar tayanch punktlarida —ochiq eshiklar kunil o'tkazish, fuqarolarni qabul qilish ishlari olib bori qoidasi o'rnatildi.

2018 yil 19 fevralda O'zbekiston ichki ishlar vazirining bergan ma'lumotlariga binoan 2017 yilda 1426 ta korruptsiyaviy jinoyatlar fosh etilib, undan 171 tasi poraxo'rlik, 109 tasi tovlamachilik, 517 tasi firibgarlik, 125 tasi noqonuniy valyuta aylanmasini amalga oshirish, 19 tasi soxta pullarni ishlab chiqish, 190 tasi davlat mulkini o'g'irlash va unga kamomad keltirish kabi jinoyat turlarini tashkil etdi. 2017 yilda jinoiy harakat qilganlari uchun 230 ta ichki ishlar organlari xodimlari usidan jinoiy ish qo'zg'atildi, 8000 ta xodim intizomiy javobgarlikka tortildi. Lekin, 2017 yilda 73.692 ta jinoiy ishlar fosh etilib, bu 2016 yilga nisbatan 15,7 foizga kamaygani ham qayd etildi¹³.

Shuningdek, prokuratura, davlat milliy xavfsizligi, soliq idoralari kabi mamlakatdagi barcha davlat organlari faoliyati tahlil etilganida 2017 yilga kelib korruptsiyaviy jinoyatlarning ancha kamayganligi sezildi. Bu haqda Prezident SH.Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida alohida e'tibor qaratilib, mamlakatda korruptsiyaning 2016 yilga nisbatan 33%ga kamayganligini ko'rsatib o'tidi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tomonidan davlat dasturi ijrosi tahlili aytim vazirlik va idoralar tomonidan belgilangan tadbirlar ijrosiga etarli mas'uliyat bilan yondashilmay, unda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga

oshirishda faol ishtirok etilmaganligi, shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashish masalasiga doir o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar ishlab chiqilmaganligi, bu soxada tizimli ravishda uquv mashg'ulotlari tashkil etilmaganligi qayd etildi. Komissiya korruptsiyaga oid huquqbuzartliklarning oldini olish, aniqlash, chek qo'yish, shuningdek korruptsiya holatlarini keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish borasidagi chora-tadbirlarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan samarali va o'z vaqtida amalga oshirishiga qaratilgan aniq vazifalarni ko'rsatib o'tidi¹⁴.

Xulosa qilib aytganda, o'tgan salkam ikki yil ichida O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashning zamonaviy huquqiy asoslari ishlab chiqildi, ular amaliyotda qo'llana boshlandi. Muhimi, aholining Prezident va Xalq qabulxonalari vositasida yuz berayotgan korruptsiyaviy jinoyatlarni davlat hokimiyati organlariga to'g'ridan-to'g'ri etkazish imkoniyati yaratildi. Korruptsiyaga barham berish uchun maxsus davlat hokimiyati organlari tuzilmalari shakllandi, ularning xalq oldidagi mas'ulligi oshirildi. Qisqa davr ichida korruptsiyaviy jinoyatlar ancha kamaydi. Mamlakatda korruptsiyaga qarshi kurashning fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan shakllari va tarbiotlari shakllantirildi, bu sohada muhim vazifa sifatida aholi huquqiy madaniyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Mavzuini takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining mazmuni-mohiyati.
2. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish
3. jamiyada korruptsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish.
4. "Korruptsiyani qabul qilish" indeksi

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

¹² V Uzbekistane korruptsiya poshla na spad/<https://regnum.ru/news/2360143.html>.
¹³ Тавак МБД: Узбекистана прокшатил налице средн миллиониров вымотателней и व्यक्तोनков. 19.02.2018. <http://interfax.az/view/726256>.

¹⁴ Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komissiya yig'ilishi bo'lib o'tidi. 30.12.2017// <http://www.Prokuratura.uz/uz/page/news/sahdhasghdsagd7673826378687/>.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2019.
2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O'zbekiston. 2017.
5. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. A.Fitrating "Oila asari"da Oila qo'rish tartiblari va Farzand tarbiyasi, "Raxbari najot" risolasining "Baxtsiz odamlarning ikki toifasiga" oid qarashlari bo'yicha esse tayyorlash, videorolik tanlovini o'tkazish
2. Abu Nasr Forobiy va G'azzoliyning falsafa ilmiiga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish (Farobiyning Siyosat falsafasi va G'azzoliyning Kimei saodat asarlari asosida); Evropa mutafakkirlari Platon, Besiy, R.Dekart, D.YUmingning falsafaga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish va fikrlarga izox berish, sharq va g'arb mutafakkirlari qarashlaridagi farq va o'zaro aloqalarni asoslash (T sxemasi metodi asosida)
3. Avlomiyning Madaniyat to'liqlunlari makolasi va E.Tofflarning uchinchi to'liqin asarini qiyosiy tahlil etish
4. Aristotel , Forobiy va Kantning ontologiyasida kategoriyalar taasnifini qiyosiy tahlil etish va farqlarni aniqlash, esse tayyorlash, krossvord tayyorlash
5. Axborotlashgan jamiyat va uning istiqbollari mavzusida esse tayyorlash (Toynbi, Toffler, Ma'suda, Xantington asarlarining kiesiy tahlili asosida)
6. Global jarayonlar dialektikasi mavzusida taxlily ma'ruza tayyorlash va uning takdimotini o'tkazish
7. Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchalarining o'zaro aloqasi va farqi.
8. Davlat va huquq tizimida din omili mavzusida xozirgi zamon g'arb va sharq mamlakatlaridagi din omili bo'yicha esse tayyorlash
9. Dialektika rivojlanish xaqidagi ta'limot.

10. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya xudojo'ylik tushunchalarining ma'nosi va ularning o'zaro aloqasi.

11. Diniy tashkilotlar faoliyati mavzusida esse tayyorlash.

12. Diniy fanatizmning asoslari va manbalari.

13. Diniy e'tiqod va ratsionallik.

14. Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar.

15. Dune xalqlari miflari xaqida ma'ruza mahni va krossvord tayyorlash

16. J.Rumi va M.Shelemning inson tabiatiga oid qarashlarini tahlili etish

17. J.Rumiyning "Quyoshda xam dog' bor" deganda nimani nazarda tutadi (Ichindagi ichindadir asari asosida axloq tarbiyasiga oid esse tayyorlash)

18. J.Rumiyning "ovchi va lochin" rivoyatining mohiyati va uning tarbiyaviy axamiyatini tahlili etish (Ichindagi ichindadir asari asosida)

19. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari.

20. Insoniyat tarixida tarbiya va ta'limning rivojlanish bosqichlari.

21. Islom nuri ma'rifat dini mavzusida (esse tayyorlash)

22. Islom dini, uning asosiy oqimlari va yo'nalishlari.

23. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik adolat va tolerantlik.

24. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlarda talqini, erkak va aching maqomi.

25. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari.

26. Korrupsiya tushunchasi va uning okibatlari mavzusida viktorina o'tkazish, video rolliklar tanlovi tashkil etish (talabalarning viktorinasini o'tkazish)

27. Korrupsiya tushunchasining ma'nosi va shakllanish tarixi.

28. Korrupsiyaning shakllari. Korrupsiyaning turlari.

29. Koevolyutsiya va invayromentalizm: muammo va echim mavzusida esse tayyorlash (O'zbekistonga qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar xaqida ma'lumotlarni aniqlash) O'zbekiston tabiiat mavzusida krossvord tayyorlash,

30. Quron sura va oyatlari ma'nosini hozirgi davr voqeligiga bog'lab esse tayyorlash (Klaster yoki T sxemasi usulidan foydalaniladi, sura yoziladi va enida uning xozirgi davrda amaliyidagi ifodasi, masalan kuronning 96 uki surasining

dune va O'zbekistonda ta'lim sohasida amlg a oshirilactgan islohotlar misolida ochib beriladi)

31. Qo'shimcha vazifa. Al Forobiy "Fozil odamlar shaxri" Nizomulmulk "Siyosatnoma", Fitrat "Muxtasar islom tarixi", G'azzoliy "Kime'i saodat", Rumi J. Masnaviy 40 rivoyatga sharh, E.Fromm "Dusha cheloveka", S.Xantington "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi", E.To'ffler "Uchinchi to'liqin" asarlarining tahlili

32. M. Bexbudiyning "Padarkush exud tarbiyasizi bolaning takdiri" dramasi ni saxnalashirish va namoyish etish

33. M.Bexbudiyning "Y'Oshlarga murojaat" va "muxtaram yoshlarga murojaat" makolalarini taxlil etish va esse tayyorlash

34. Milliy madaniyatlarining diniy madaniyat shakllanishidagi roli.

35. Ona yurtim tabiiat mavzusida videoroliklar tanlovini tashkil etish

36. Parmenid va Melesning borliq xaqidagi qarashlaridagi farqlar va umumiylikni aniqlash (Melesning borliq xaqida nomli asari asosida esse

Falsafa fanidan kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi lozim bo'ladi.

XULOSA

Biz "Falsafa" fanidan o'quv qo'llanma mavzularini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar bilan chuqur tanishib chiqdik. Ushbu o'quv qo'llanma mashg'ulot matnining qisqacha mazmuni o'z diqqat-e'tiborlaringizni siz o'rganagan mavzularning ilmiy jihatigagina emas, balki ko'proq masalalarning tushunarli bo'lishi, sodda va ravon tilda bayon etilishiga diqqatni qaratdik.

O'quv qo'llanma mashg'ulot matnlarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy strategik tub o'zgarishlar, islohotlar va ma'naviy sohadagi yangilanish jarayonlari o'z ifodasini topgan. Ularda istiqbol yillarida ayniqsa, 2017-2021 yillar orasida odamlar ongi va tafakkurida ro'y berayotgan o'zgarishlar, jumladan falsafiy dunyog'arashning yangilanish jarayonlarini aks ettirishga harakat qilindi. Ana shu jihatdan olganda mualliflar an'anaviy mavzularni hozirgi zamon talablari nuqtayi nazaridan tavsiflash, o'quv qo'llamaga kiritilgan yangi mavzularni esa hozirgi vaqt talablari asosida yoritishga e'tibor berdilar.

Ushbu o'quv qo'llanmaning «Kirish» qismida falsafiy fanlarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan uslubiy jarayonlar to'g'risida fikr yuritilgan va uni turticha o'zlashtirish mumkinligini ko'rsatishga harakat qilidik.

Siz falsafiy fanlar to'g'risida qanday fikrga keldingiz? Bu fanlarni o'qitilishi jarayonida nimalarni o'rgandingsiz? Ular kelajakda sizga qanday yordam berishi, asqotishi mumkin? Biz ana shunday savollar bilan ushbu qo'llanmani tugallamoqdamiz. Agar sizning bu savollarga javoblaringiz ijobiy bo'lsa muallif o'z vazifasini bajargan bo'lib hisoblanadi. Ushbu o'quv qo'llanma to'g'risidagi oxirgi xulosani siz chiqarasiz, uning ushida ishlash va o'quv qo'llanmasi darajasiga yetkazish uchun mualliflar o'z bilimlari va imkoniyatlari darajasida harakat qildi.

GLOSSARIY

Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukm - ikki va undan ortiq sodda hukmlarni «yo», «yoki» mantiqiy bog'lovchilari orqali hosil bo'lgan murakkab hukmdir. Formulasi: a V v. **Borliq** – yuqori darajadagi umumiy abstraksiya bo'lib, mavjudlik belgisiga ega bo'lgan barcha narsalarni, ya'ni moddiy jismlar, jarayonlar, hodisalar, ular o'rtasidagi munosabat, hususiyat, aloqadorliklar va hatto inson fantaziyasini ham o'z ichiga qamrab oluvchi o'ta keng tushunchadir.

Ayiruvchi qat'iy xulosa - asoslaridan biri ayiruvchi, qolgan asoslari va xulosasi qat'iy hukmdan iborat bo'lgan xulosalashga ayiruvchi qat'iy xulosa chiqaruvchi deb aytiladi.

Ayniyat qonuni – har qanday fikrning muhokama jarayonida mazmunan muayyanligi, barqarorligi va aniqqligini saqlab qolishni talab qiladi.

Aniq tushuncha – obyektiv borliqdagi moddiy holatda mavjud bo'lgan narsa va hodisalarni real aks etishdir.

Alohidalik(yakkalik) – muayyan xossa hamda xususiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha kiib aytganda, har qanday hodisa va narsaning ichki sifat muayyanligi, individualligidir.

An'analar – jamiyat hayoti turli sohalarining moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi, ajdodlar hayoti belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi

Asoslar – xulosalash uchun keltirilgan hukmlar

Atributiv hukm – belgining narsaga tegishlilik xolatini tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi fikr. Formulasi: «S – Pdir» va

«S – P emas».

Auditoriya – dalillash jarayonida baxslashuvchi tomonlar ta'sir doirasining asosiy ob'ekti sifatida ishtirok etuvchi o'z qarash va e'tiqodlariga ega bo'lgan jamoa sub'ekti

Axloq ijtimoiy – ong shakllaridan biri, insonning yurish-turish qoidalarini va xulq-atvori me'yorlari.

Axloqiy baho - ijtimoiy hayotdagi turli xodisalarni ma'qullash yoki qoralash, ularning axloqiy talablariga, konkret ijtimoiy jamoaning axloqiy ruhiga mos kelishi yoki kelmasligini belgilash tushuniladi.

Axloqiy mas'uliyat - bu irodadan foydalana bilish mahoratidir. Axloqiy mas'uliyat o'zida burch talablari va ichki maylarni jamlab, faqatgina xatti-harakat va uning oqibatlariga emas, balki uning motivlariga ham ta'dbiq etiladi.

Axloqiy ong - axloqiy talablarni, normalarni qoidalarini, adolat haqidagi tasavvurlarni shakllantiradigan qarashlar, g'oyalar, fikrlar, nazariyalardir.

Bevosita isbot – tezis chiniligi xulosalash qoidalariga ko'ra asoslardan to'g'ridan to'g'ri keltirib chiqarilishidir.

Bilvosita isbot – bu tezisning chiniligini antitezisning yolg'onligini isbotlash orqali keltirib chiqarishdir.

Bilim – ma'lumotlanganlikka asoslangan malaka, uquv va mahoratga ega qobiliyat

Bilish – ijtimoiy-tarixiy amaliyot davomida bilimlarni egallash va rivojlantirish jarayoni

Birlashtiruvchi (kon'yunktiv) hukm - bir necha soddahukmlarni «va» «ham» «hamda» mantiqiy bog'lovchilari orqali hosil bo'lgan murakkab hukmdir. Formulasi: $a \wedge v$.

Vatan – kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamalakati.

Versiya(tusmol) – sud-tergov amaliyotida qo'llaniladigan jinoyatchilikning ayrim xususiyatlari va umuman jinoyatchilikning mohiyati va kelib chiqishini izohlovchi faraz shaklidir

Genetik ta'rifilash (yunoncha «genesis» so'zidan kelib chiqib, «manba» degan ma'noni anglatadi) – buyumlarning paydo bo'lishi va kelib chiqishini ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Global muammolar - bu shunday muammolarki, ular butun insoniyatning manfaatlariga daxl qiladi, uning kelajagiga xavf soladi hamda ular butun xalqaro hamjamiyatning ishtiroki bilangina hal etilishi mumkin.

Dalillar – tezisni asoslash uchun keltirilgan chin hukmlar

Dalillash nazariyasi – muayyan fikrning chiniligini isbotlashda qo'llaniluvchi mantiqiy, lingvistik, ritorik va emosional-psixologik kabi ta'sirlarning eng samarali usul va vositalari haqidagi kompleks ta'limotdir

Demonstrativ xulosa – natija mantiqiy qonun darajasida namoyon bo'luvchi kelma-ketlikka ko'ra asoslardan kelib chiqishni ta'minlaydi.

Demonstratsiya – tezis va asoslar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish

Deontik modallik (me'yoriy) – bu inson xatti-harakatlarining umuminsoniy, axloqiy yoki huquqiy kabi muayyan bir me'yoriy tizim doirasida muvofiqlashtiruvchi qoidalarda ifodalangan hukmlardir

Dialektika(ta'rif) - bu dunyoni tassavur qilishda qo'llaniladigan tafakkurning o'ziga xos shunday uslubiki, unda barcha hodisalar o'zaro bog'liq bo'lgan xolda turli xil aloqalarda, qarana-qarshi kuchlar va yo'nalishlarning bir-birini taqozo qiluvchi munosabatlarida namoyon bo'ladi deb izohlanadi.

Dimiy dunyoqarash – bu g'ayritabiyy kuchlarning real mavjudligiga ishonishga asoslangan, voqelikni xayoliy obrazlarda, tasavvurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi olamning fantastik manzarasini

yaratuvchi ilmiy bo'lmagan qarashlardan iborat dunyog'arashning o'ziga xos shaklidir.

Dixotomik bo'lish – buyumlarni ma'lum belgiga ko'ra ikki guruhga, ya'ni belgi mavjud bo'lgan narsalar (ular, odatda, bo'lish asosini tashkil qiladi) va bu belgiga ega bo'lmagan narsalarga ajratadi.

Dogmatizm – (grekchadan qo'tib qolganlik ma'nosini anglatadi) metafizik tafakkur ko'rinishlaridan biri bo'lib, o'zgarimas tushunchalar, formulalar asosida o'rganilayotgan ob'ektni joyi vaqtiga tegishli bo'lgan aniq sharoitlarini xisobga olmagan xolda biron-bir tomonini mulohazasizlik, shuningdek, narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni inkor etishdir.

Dualizm – (lotin tilida dua, ya'ni ikki degan ma'noni ifodalaydi) – olamning asosida ikkita asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ru va o'ya, ya'ni ideya yotadi deb ayituvchi arash.

Dunyog'arash – insonning olamni bir-butun yoki turli tuman xolda ko'rishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, tushunishi hamda unda o'z o'rnini va mavqegini, munosabatini belgilovchi qarashlar, baholar, tamoyillar majmuasidan iborat murakkab tizimdir.

Dunyog'arashning kundalik darajasi – bu kundalik hayotiy tajribalar asosida jamiyatda, odamlarda oddiy, o'z-o'zichaivojlanuvchi (stixiyali) mohiyatga ega bo'lgan qarashlar, tushunchalar, g'oyalar yig'indisidir.

Etariqlcha asos qonuni – har qanday fikr yoki mulohaza agar u etariqlcha asoslangan bo'lsa yoki har bir fikr o'z isbotiga ega bo'lgandagina chin bo'lishini ifodalaydi.

Jamiyat – kishilarning tarixan vujudga kelgan hayot faoliyati shakllarining majmuasi, moddiy olamning bir qismidir

Jamiyatning ideal modeli – real jamiyatning ichki zarur, takrorlanuvchi muhim bog'lanish va munosabatlarini aks ettirilishidir.

Juz'iy inkor hukmi «O» – miqdor jihatidan juz'iy, sifat jihatidan inkor shaklida bo'lgan fikr (**Ba'zi S - P emas**).

Juz'iy tasdiq hukmi «I» – miqdor jihatidan juz'iy bo'lgan, sifat jihatidan tasdiqlangan fikr (**Ba'zi S - P dir**).

Zamon – materiyaning mavjudlik shakli bo'lib, moddiy dunyodagi jarayonlarning uzluksizligi va ular xolati o'zgarishlarining ketma-ket davomiyligini ifodalab beruvchi falsafiy kategoriyadir.

Zaruriyat – narsa va hodisa va jarayonlarning taraqqiyoti bilan aniqlanadigan, ichki muhim bog'lanishlar orqali qonuniy kelib chiqadigan va shuning uchun yuz berishi muqarrar bo'lgan hodisa bo'lsa, **tasodir** esa – mohiyatdan, mazkur jarayonning qonuniy rivojlanishidan kelib chiqmaydigan hodisadir.

Idealizm – olamning asosida m yoki o'yalar (ideyalar) yotadi, dunyo voeligi va rivojida ideyalarni ustivor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

Ijodiy tushuncha – narsa va hodisalarga xos sifatlarining mavjudligini ifodalaydi.

Ijodiyot - insoniyatning tabiiy resurslarini ongli ravishda o'zlashtirishi, shuningdek inson qobiliyatining rivojlanishi natijasida yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratish jarayonidir.

Ijtimoiy bashorat – bu bilimlarimiz, hayotiy tajribalarimiz asosida va fan yutuqlariga suyangen holda jamiyat rivojlanishining kelajak istiqbolini sifat va miqdor jihatidan aniqlashdir.

Ilmiy induksiya – bu muayyan tur yoki sinfga kiruvchi predmetlarning bir qismini zaruriy belgi va aloqasini ilmiy asoslangan uslublar orqali o'rganib bu belgi va aloqa butun turga yoki sinfga aloqadorligi haqidagi ishonchli xulosa chiqarish demakdir.

Imkoniyat – hali amalga oshmagan, lekin yuzaga chiqishi mumkin bo'lib, voqelikka aylana oladigan hodisa bo'lsa, **voqelik** – mavjud dunyo, mavjud narsalardir.

Inkorni inkor qonuni – rivojlanishning taraqqiyparvarligini, ya'ni olg'a qarab taraqqiy qilishdan iborat ekanligini, yangining eskiga munosabatini ochib beradi.

Individ – inson zotiga oid alohida olingan vakidir.

Individuallik – o'zining qobiliyati, o'ziga xos tabiati bilan ajralib turuvchi alohida insondir.

In'ikos – o'zaro ta'sir etuvchi ob'ektlar tuzilmasida o'zaro ta'sir natijalarining takrorlanishidir.

Inson – er yuzida mavjud tirik organizmlarning eng yuqori darajasi bo'lib, o'zida biosotsial butunlikni mujassamlashtiruvchi ijtimoiy tarixiy faoliyat va madaniyat sub'ektidir.

Iroda erkinligi – shaxsning, umuman, o'z xatti-harakatlari, faoliyati, xulqini tanlashda ob'ektiv mavjud bo'lgan axloqiy talablarni bilishi va ulardan oqilona foydalanishidir, bu shaxsning o'z fikrlari, xislari, mayllari ustida nazorat qilish qobiliyatidir.

Isbotlash – ma'lum bir hukmning chinligini unga aloqador bo'lgan, chinligi isbotlangan boshqa hukmlar orqali asoslashning mantiqiyulidir.

Kategoriya – ob'ektiv reallikdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim tomonlari, xususiyatlari va munosabatlari aks ettiruvchi ilmiy tushunchadir.

Konkret haqiqat – narsalar haqidagi inson bilimlarining aniq joy va vaqt sharoitlarini har tomonlama hisobga olgan holda o'sha narsa va hodisalarga, ularning belgi va xususiyatlariga aynan mos kelishidir.

Mavjudlik hukum – narsalarning mavjudligi (bor yoki yo'q-ligi)ni tasdiq yoki inkor etuvchi fikr. Formulasi: «S – Pdir» va

«S – R emas».

Mavhum tushuncha – narsa va hodisalarning sifatlari yoki ular o'rtasidagi munosabatlarning muayyan belgisini mazkur predmetning o'zidan ajratilib, mustaqil holda aks etishidir.

Mavhumlashtirish – bu ob'ektiv reallikdagi predmet, hodisalarning ikkinchi darajali, muhim bo'lmagan alohida xususiyatlaridan uzoqlashib, mavhumlashtirish yordamida ularning eng muhim va asosiy umumiy tomonlarini aniqlashdir.

Mazmun – muayyan narsa va hodisalarni tavsiflovchi ichki elementlar va o'zgarishlarning majmui bo'lsa, **shakl** – esa mazmunning ifodalanish usuli tashkil etuvchisidir.

Makon – borliqning asosiy mavjudlik shakllaridan biri bo'lib, u ob'ektlarning o'zaro joylashish tartibi, ko'lam, hajmi, o'lchamlari, ob'ektni tashkil etuvchi nuqталarning o'zaro joylashish vaziyati kabi xususiyatlarini ifodalovchi falsafiy tushunchadir.

Materializm – olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotishini e'tirof etadigan, moddiylikni ustivor deb biladigan ta'limot.

Materiya – ob'ektiv reallikni ifodalovchi falsafiy kategoriya bo'lib, bu ob'ektiv reallikni inson o'z sezgilari bilan idrok qiladi va u bizning sezgilarimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir, bizning sezgilarimiz undan nusxa, surat oladi, uni aks ettiradi.

Ma'naviyat – inson ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat va razillikni, yaxshilik va yomonlikni, go'zallik va xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyati, aql zakovatini o'z oldiga yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish va ularni amalga oshirish uchun harakat qilish, inilish salohiyati.

Metafizika – dialektikaga qarshi bo'lgan tafakkurning shunday uslubiki, unda rivojlanishning manbai ichki ziddiyatlardan emas, balki alohida, tugallangan va o'zaro bog'liq bo'lmagan jisn, hodisa va jarayonlarning oddiy o'rin almashuvidan iboratdir deb izohlanadi.

Metod – (yun. metodos - bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish va bilishning yo'l-yo'riklari, usullari demakdir.

Metodologiya – (metod va ...logos soʻzlaridan) – tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimini hamda bunday tizim haqidagi taʼlimot.

Mitologik dunyogʻarash – ijtimoiy taraqqiyotning boshlangʻich bosqichiga xos boʻlgan insonning olam haqidagi tasavvurlarini obrazlarda, naql, rivoyat va afsonalar orqali ifodalashidir.

Miqdor oʻzgarishlarining sifat oʻzgarishlariga oʻtish qonuni – rivojlanish faqat oddiy miqdoriy oʻzgarishlardangina iborat boʻlmastan, balki miqdor oʻzgarishlarning tub sifat oʻzgarishlariga sakrash orqali oʻtib turishdan iborat ekanligini ochib beradi

Modallik – hukm subʼekti va predikati oʻrtasidagi aloqadorlikning namoyon boʻlishida ifodalangan fikrning real voqeilikda asoslanganlik darajasi, yaʼni uning haqiqatligi, ehtimolliligi va majburiyligi haqida berilgan qoʻshimcha axborotdir.

Monizm – (yunon - manos, yaʼni yakka maʼnosini anglatadi) - olamning asosi yakkeyu-yagona sababga, bitta asosga ega deb beradigan falsafiy taʼlimotdir.

Mohiyat – hodisaning ichida yashiringan moddiy olamning turti –tuman hodisalarida yuz beradigan chuqur, nisbiy barqaror aloqalarni ifodalaydigan voqeilikning ichki tomonidir.

Muammo – tafakkurning muayyan bir shakli boʻlib, ilmiy fakt, gʻoya, nazariya va qonunlarning ziddiyatidan kelib chiqadigan, noaniq va toʻliq boʻlmagan bilimlardan aniq va toʻliq bilimlarga oʻtish ushbu sifatida empirik va nazariy bilimlar rivojining mantiqiy davomiyligini ifodalaydi.

Munosabat hukmi – narsalar oʻrtasidagi makon-zamon, sabab-oqibat va muayyan ketma-ketliklarga oid munosabatlarni tasdiq yoki inkor tarzda ifodalovchi fikr. Formulasi: «**ARb**».

Mantiqiy analiz – bu tadqiq etiluvchi obyektni tarkibiy qismlarga ajratib oʻrganishdir.

Mutlaq haqiqat – bu borliqdagi narsa va hodisalar haqidagihar tomonlama toʻliq, aniq, mukammal, kelgusida tuzatilmaydigan, toʻldirilmaydigan bilimlardir.

Nazariy dunyogʻarash – bu dunyogʻarashning insoniyat tajribasida erishilgan bilimlarning muayyan tartibiylik va tizimiylik asosida shakllangan yuqori darajasidir.

Nazariya – mantiqiy tafakkurning muammo va gipotezadan keyingi, ularning hal etilish va baholash mezonini boʻlib, umumlashgan, ishonchi bilimlar majmuasidan iborat boʻlgan, oʻz tushuncha hamda qoida va qonunlaridan tashkil topgan bir butun tizimdir.

Natija – asoslar asosida chiqarilgan yangi hukm

Nisbati tushuncha – buyumlarning oʻzga buyumlar bilan muayyan aloqadorlikda mavjud ekanligini ifodalaydi.

Nisbatsiz tushuncha – buyumlarning mustaqil mavjudligini ifoda etadi.

Nisbiy haqiqat – bizning borliqdagi narsa va hodisalar toʻgʻrisidagi taxminan toʻgʻri, lekin toʻliq boʻlmagan, bilish jarayonida tuzatilib, toʻldirilib borilishi lozim boʻlgan bilimlarimizdir

Nodemonstrativ xulosa – xulosalash qoidasi asoslardan ehtimoliy natijaning kelib chiqishini taʼminlaydi.

Nominal taʼrifda – tushunchani ifodalagan soʻz, nom va terminning maʼnosi bayon etiladi

Nozidlik qonuni – aynan bir narsa yoki hodisa haqida aytilgan ikki zid fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda chin boʻlishi mumkin emas, hech boʻlmaganda, ulardan biri albatta yol gʻonligini ifodalaydi.

Nol tushunchalar – insoniyat tajribasida uchramagan, fanda qayd etilmagan narsa va hodisalarni ifodalovchi hajmsiz tushunchalardir.

Obʼektiv haqiqat – inson va insoniyatga bogʻliq boʻlmagan obʼektiv borliqning kishilar ongida toʻgʻri inʼikos etishidir

Oddiy kategorik (qatʼiy) sillogizm – (yunoncha, hisoblamoq, sanamoq, degani) – bu vositali deduktiv xulosa chiqarishning muhim turlardan biri

bo'lib, ikki yoki undan ko'p oddiy qat'iy hukmlar (asoslar)dan xulosa chiqarilishga aytiladi.

Ong – insonning ruhiy faolligining oliy darajasi va reallikni hissiy va fikriy obrazlar shaklida aks ettirishning oliy shaklidir.

Ommabop (oddiy sanash) induksiya – muayyan tur yoki sinfga kiruvchi narsa va hodisalarda ayrim belgining takrorlanishi va ularni oddiy sanab o'tish natijasida xulosalashga aytiladi

Opponent – dalillash jarayonida proponent fikri bilan kelishmaydigan va unga qarshi bo'lgan yondashuvni ifodalovchi ishtirokchi

Paradoks – yunoncha «*paradoxos*» – qarshi fikr ma'nosida – «g'ayritabiiy fikrlash» ma'nosini anglatadi. Paradoks – bu hal qilib bo'lmaydigan zid fikrdan tashkil topgan mulohaza bo'lib, unda ma'lum bir holatning chinligi ham, yolg'onligi ham isbotlanishi mumkin. Qadimdan «*Yolg'onchi*» yoki «*Axilles va toshbaqa*» deb nomlangan yoki shunga o'xshash juda ko'p paradokslar ma'lum.

Paralogizm – grekcha «*paralogismos*» so'zi – «*noto'g'ri mulohaza*» degan ma'noni anglatib, – tafakkurning nomukammalligi va bilimning etarli darajada emasligi natijasida masalaning mohiyatini to'la tushunib etmasdan turib xatolikka yo'l qo'yishdir.

Polisillogizm – bu bir-biri bilan o'zaro bog'langan, ikki yoki undan ortiq oddiy qat'iy sillogizmlardan tuzilgan xulosa demakdir.

Proponent – dalillash jarayonida muayyan fikrni ilgari suruvchi va himoya qiluvchi ishtirokchi

Plyuralizm – (lotin tilida *plyural*, ya'ni ko'pchilik degan ma'noni ifodalaydi) - olarning asosida ko'p narsa va g'oya (ideya)lar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limdir.

Raddiya – berilgan tezisning asoslanganligi yoki yolg'onligini aniqlash orqali isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amaldir

Real jamiyat – turli xil tasodifiy, o'tkinchi, muhim va muhim bo'lmagan hodisalarning majmuasini o'z ichiga oluvchi real tarixiy jarayonning barcha ko'rinishidir.

Real ta'rif – tushunchada ifodalangan predmetning mohiyati va uning muhim belgilarining ochib berish demakdir.

Sabab – bu o'ziga muvofiq keladigan biror natija keltirib chiqaruvchidir. Sabab ta'sirida kelib chiqadigan natija esa – **oqibat**dir.

Savol – bilim yoki asos axborot etarli bo'lmaganda, javob tarzida qo'shimcha shaklidagi yangi axborot olishning mantiqiy shakli

Salbiy tushuncha – narsa va hodisalarga muayyan sifatlarining mansub emasligi ni ifodalaydi.

San'atda idrok etish – adabiyot, teatr, kino, tasviriy san'at asarining tomoshabin yoki o'quvchi ongida aks etishi.

Semiotika – Tilning belgi tizimi nazariyasini o'rganuvchi fan.

Sinergetika – olarning o'z-o'zini tashkil etish, makon va zamonda narsa, hodisa va jarayonlarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ta'limot.

Sintez – bu analiz yordamida butunning bo'laklarga ajratilgan qismlari, elementlarini yana fikran to'plab, yaxlit holda o'rganishdir.

Sistema – narsa va hodisalarning bog'lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrifiy rivojlanishini ifodalaydi.

Sort – bu murakkab sillogizmining polisillogizmlardan tashkil topgan turi bo'lib, unda sodda sillogizmining xulosasi bo'lgan asoslar tushirib qoldiriladi.

Sof shartli xulosa - ikki asos va xulosani shartli hukmlardan tashkil topgan vositali xulosalashga sof shartli xulosa chiqarish deyiladi

Softistika - (grekchadan, ustamonlik bilan baxslashuv degan ma'noni anglatadi) metafizik tafakkurning bir ko'rinishi bo'lib, unda ma'lum maqsadga bo'yindirilgan haqiqat sirtidan qaraganda go'yoki shakli

to'g'ri, lekin haqiqatda babs ob'ektni ifodala olmaydigan soxta dalillar asosida isbotlanadi.

Struktura – narsa hodisalar bog'lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir.

Substansiya (lotin. Substantia – mohiyat, asosda yotuvchi narsa) muayyan narsalar, voqealar, hodisalar va jarayonlar hilma-hilligining ichki birligida namoyon bo'luvchi mohiyat.

Substrat (lotin. Substratum – asos, to'shama, taglik) narsa va hodisalarning umumiy moddiy asosi; nisbatan oddiy va sifat jihatdan elementar bo'lgan moddiy yoki g'oyaviy tuzilmalar majmuasi(suv, olov vah.k.).

Tabiiy (milliy) tili – kishilarning tarixan birligi asosida paydo bo'ladigan jonli so'zlashuvlarda, keyinchalik grafik yozuvlarda ifodalanadi.

Tafakkur – narsa - hodisalar va ular o'rtasidagi umumiy, muhim bog'lanishlarni, mavnullashtirilgan holda tushuncha, hukm va xulosalarda aks ettirilib tilda namoyon bo'luvchi bilishning yuqori bosqichidir.

Tafakkur shakli – fikr elementlarining bog'lanish usuli yoki ularning tuzilishi denkadir

Tafakkur qonuni – fikr va muhokamalar o'rtasidagi ichki, zaruriy, muhim, barqaror va takrorlanuvchi aloqalardir

Taqsimlangan atama – o'zining to'liq hajmda olinganligi va boshqa atamaning hajmiga to'liq mos bo'lishi yoki uni to'latilgicha inkor qilishda ifodalanadi.

Taqsimlanmagan atama – o'zining to'liqsiz hajmda olinganligi va boshqa atamaning hajmiga qisman mos bo'lishi yoki uni qisman inkor qilishda ifodalanadi.

Taqqoslash – tushuncha shakllanishining muayyan narsaning boshqalar bilan o'xshashligi yoki farqini aniqlashga qaratilgan mantiqiy usuli.

Taqqoslanadigan (qiyoslanadigan) munosabatlar – o'zaro muhim va umumiy belgilarga ega bo'lgan tushunchalarning orasida sodir bo'ladi.

Taqqoslanmaydigan (qiyoslanmaydigan) munosabatlar – o'zaro umumiy jihatlari bo'lmagan buyumlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Teng ma'noli (ayniyat) munosabatlar – hajmlari bir-biriga to'la teng keladigan tushunchalar ayniyat munosabatidagi teng ma'noli tushunchalardir.

Tobellik (bo'ysunish) munosabati – bir tushunchaning hajmi boshqa tushunchaning hajmini o'z ichiga olsa, bunday tushunchalar o'rtasida bo'ysunish munosabati mavjud bo'ladi.

To'liq induksiya – birorta belgining muayyan sinfga kiruvchi bir predmetga xosligini aniqlash asosida, uning mazkur sinfning barcha predmetlari uchun umumiy belgi ekanligi haqida xulosa chiqarish demakdir.

To'liqsiz induksiya – muayyan sinfga mansub ayrim narsa yoki hodisaning belgilari asosida mazkur sinfga kiruvchi boshqa barcha narsa yoki hodisalarga shu belgining xosligi haqida xulosa chiqarish demakdir.

To'plama tushuncha – bir to'plam, bir guruh predmetlarning bir butun yaxlit holatda aks etishidir.

Til – kishilar o'rtasida aloqa vositasi sifatida axborotni(bilimlarni) qabul qilish, saqlash, to'plash va o'zgalarga etkazib berish vazifasini bajaruvchi belgisi axborot tizimidir.

Tushuncha – narsa va hodisalarning umumiy, muhim, o'ziga xos belgilarini insonning ongida yaxlit aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Tushunchani bo'lish – muayyan bo'lish asosiga ko'ra bo'linuvchi tushunchaning hajmini nisbatan kichik hajmi boshqa tushunchalarga ajratishga aytiladi

Tushunchaning mazmuni deb narsa va hodisalarning tushunchada aks etgan muhim belgilarining yig'indisiga aytiladi.

Tushunchani ta'riflash. Tushunchaning mazmunini, muhim belgilarini ochishga qaratilgan jarayon ta'riflash yoki definitsiya deb ataladi.

Tushunchani tasniflash – bu predmetlarni bir-biriga o'xshashligi va farqiga qarab, ma'lum guruhlariga, turarlarga, sinflarga bo'lishdir.

Tushunchani umumlashtirish – usuli yordamida bir tushuncha hajmini tashkil etuvchi buyumlarga xos bo'lgan ayrim belgilarni birma-bir olib tashlash yo'li bilan boshlang'ich tushunchaning hajmi kengaytiriladi.

Tushunchaning hajmi deb uning mohiyatini tashkil etuvchi predmetlarning yig'indisiga aytiladi.

Tushunchani chegaralash – usuli yordamida tushunchaning hajmi toraytiriladi.

Hukm – narsa va hodisalar, ularning turli belgilari, xususiyat va munosabat-lari haqida tasdiq yoki inkor ma'nosida ifodalangan tafakkur shaklidir.

Umumiylik – olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo'layotgan narsa hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarning mustaraklashgan holda namoyon bo'lishidir.

Umumiy tushuncha – bir yoki bir necha guruh narsa va hodisalarning muhim, umumiy tomonlarini aks ettiruvchi tushunchalardir.

Umumiy inkor hukmi «E» – miqdor jihatidan umumiy, sifat jihatidan inkor shaklida bo'lgan fikr (**Hech bir S - R emas**).

Umumlashtirish – narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgi yoki xususiyatlarining bog'lanishlarini fikrda muayyan tushunchaga birlashtirish jarayoni va uning natijasidir.

Umumiy tasdiq hukmi «A» – miqdor jihatidan umumiy bo'lgan, sifat jihatidan tasdiqlangan fikr (**Hamma S - P dir**).

Uchinchisi istisno qonuni – nozidlik qonunining davomi bo'lib, fikrning to'liq mazmunini qamrab oluvchi ikki zid hukmdan biri chin, ikkinchisi yolg'on, uchinchisiga o'rin yo'q ekanligini ifodalaydi.

Falsafa – qadimgi yunon tilidan olingan «*Filio*» - sevmok va «*sofos*» - donishmandlik so'zlarining birlikvidan iborat bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi - «donishmandlikni sevish» demakdir.

Falsafa fani predmeti – tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Falsafiy dunyog qarash – dunyoni, aqliy jihatidan mantiqiy, izchil, umumlashtirib turuvchi nazariy qarashlar tizimidir.

Falsafaning dunyog qarash vazifasi – dunyoni bir butun holda, unda insonning dunyoga munosabati haqidagi barcha bilimlarni nazariy jihatdan umumlashtirib, o'zlashtirish asosida bir butun dunyo, borliq materiya, tabiat, jamiyat, inson, inson ongi va tafakkuri, insonda dunyoni bilishi to'g'risidagi eng umumiy qarashlarni shakllantirish bilan bog'liqdir.

Falsafaning metodologik vazifasi – dunyodagi narsa va xodisalarning mohiyatini, eng umumiy tomonlarini, bog'lanish va aloqadorligini in'kos ettirishi bilan borliqning turli tomonlarini o'rganuvchi alohida fanlar uchun umuminiy umumlashmalarini qonunlar, qoidalar, tamoyillar tarzida shakllantirib berish bilan bog'liqdir.

Falsafaning gnoseologik vazifasi – inson bilishi, uning rivojlanish tendensiyalari va eng umumiy qonunlarini ochib berish bilan bog'liqdir.

Falsafaning ijtimoiy vazifasi – jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribasini hozirgi kundagi imkoniyatlari, zaruriyatlarini bilish asosida uning istiqbolini aniqlash bilan bog'liqdir

Falsafaning aksiologik vazifasi – inson hayotining mohiyatini uning yashashining asosiy mazmunini. insonning turmushdagi qad-qimmatini, jamiyatda tugan o'rni. uning axloqiy gumanistik prinsiplar va g'oyalarni baholash asosida tushuntirishdan iboratdir.

Falsafaning evristik funksiyasi – («evrika») grekcha so'z bo'lib, kashf etish, degan ma'noni anglatadi) gnoseologik vazifasi bilan bog'liq bo'lib,

tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining umumiy yangi qonuniyatlarini kashf etishni xarakterlaydi.

Falsafaning tarbiyaviy vazifasi – kishida yuksak axloqiy meʼyorlar – vatandorlik, mehnatsevarlik, gʻoyaviylik, eʼtiqod, ijtimoiy-siyosiy faollik va masʼuliyatni his etish tuygʻularini tarbiyalash bilan bogʻliqdir.

Falsafaning praktsiologik funksiyasi – nazariyaning amaliyotga joriy etish uslub va vositalarini aniqlab berishdan iboratdir.

Faraz (gipoteza) – tabiat, jamiyat va insonning tafakkurida yuz beradigan narsa va hodisalarning umumiy aloqadorlik sabablari va qonuniyatlari haqidagi ilmiy asoslangan taxminiy, ehtimoliy bilimlarning rivojlanish shaklidir.

Fikrning mazmuni – bu unda aks etgan narsalar, ularning xususiyatlari va munosabatlardir.

Formal mantiq – inson tafakkurining shakllari, qonunlari, usullari va qoidalarini oʻrganuvchi fandir.

Xulosalash – bu bir yoki bir nechta chin hukmlardan muayyan qoidalar asosida yangi hukmlarni keltirib chiqaruvchi tafakkur shaklidir. **Xulq** – kishining ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy xatti-harakatlarning yigʻindisi, sistemasidir.

Xususiylik – alohidalik va umumiylik oʻrtasidagi bogʻlanish, aloqadorlik va munosabat.

Oʻzaro tobelik munosabati – oʻzaro tobelik munosabatida ikki yoki undan ortiq tushunchalar bir tushunchaning hajmiga kiradi.

Qadriyat – jamiyatning taraqqiyoti davomida doimo insonlarning muayyan maqsad va manfaatlariga xizmat qilib borgan va kelajakda ham ijtimoiy ahamiyati tobora oshib boradigan moddiy hamda maʼnaviy boyliklarni aks etuvchi falsafiy kategoriyadir.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi onuni qivojlanishning ichki manbai qarama-qarshiliklar va ziddiyatlardan iborat ekanligini ochib beradi.

Qarama-qarshi munosabatdagi tushunchalar – bir-biriga hajmi jihatidan teskari va qarama-qarshidir.

Qisman mos kelish (kesishganlik) munosabati – qisman mos kelish munosabatida tushunchalar mazmuni jihatidan har xil boʻlsa-da, ularning hajmlari bir-biriga qisman mos keladi.

Qonun – muayyan shart-sharoitda narsa va hodisalar rivojining xususiyati va yoʻnalishini belgilaydigan, maʼlum bir qatʼiy natijani taqozo etadigan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy, barqaror munosabatlardir.

Qonuniyat – qonunning tasodifiy sharoitlar gamrovida muayyan hodisa jarayonlarda ifodalanishidir.

Harakat – materiyaning yashash usuli boʻlib, obʼektlarning oʻzaro ichki va tashqi munosabatlari, aloqadorliklari natijasida yuzaga kelgan barcha oʻzgarishlardir.

Hodisa – mohiyatning u yoki bu xolatda uchratilishini ifodalovchi obʼyektiv voqealarning oʻzgaruvchan, harakat xususiyatlariga, belgilariga boy boʻlgan tomonidir.

Haqiqat – bu boriqdagi narsa va hodisalar haqidagi inson bilimlarining oʻsha narsa va hodisalarga, ularning belgi va xususiyatlariga aynan mos kelishidir.

Hukm tarkibi: – «S» (Subjektum – mantiqiy ega) – fikrda ifodalanagan predmet. «P» (Predikatum – mantiqiy kesim) – predmetga xos xususiyat. « – » (mantiqiy bogʻlovchi) – predmet va xususiyat oʻrtasidagi munosabatning ifodalanishi.

Chegaralangan tushuncha – tushunchalarning narsa va hodisalarni hisoblash imkoniyatini vujudga keltiruvchi xislatga ega boʻlishidir.

Chegaralanmagan tushuncha – narsa va hodisalarning son-sanogʻsiz holatini sanash mumkin boʻlmaganligini ifodalaydi.

Shartli-ayiruvchi xulosa chiqarish - asoslarning biri shartli, boshqasi ayiruvchi hukmlardan iborat bo'lgan xulosalashga shartli-ayiruvchi xulosalash deyiladi.

Shartli-qat'iy (kategorik) xulosa chiqarish - asoslardan biri shartli, ikkinchisi va xulosa qat'iy hukmlardan iborat bo'lgan xulosalashga shartli-qat'iy xulosa chiqarish deyiladi.

Shartli (implekativ) hukm - ikki soddada hukmning «Agar ... u holda» mantiqiy bog'lovchisi orqali birikishidan hosil bo'lgan murakkab hukmdir.
Formulasi: $a \rightarrow v$.

Shaxs - o'zida ijtimoiy ahamiyatli sifatlarni shakllantirgan konkret-tarixiy butunlikka ega bo'lgan insondir

Ekvivalentlik xukmlari «agar va faqat agar ... unda» - mantiqiy bog'lovchisi yordamida ikki oddiy xukmning o'zaro bog'lanishidan xosil bo'ladi.
Formulasi: $a \equiv v$

Element - sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bog'lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlari ta'minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir.

Entimema(qisqartirilgan qat'iy sillogizm) - bu sillogizmdagi asoslardan biri yoki xulosaning tushirib qoldirilishi demakdir.

Epistemik modallik(bilishga oid) - bu hukmda ifodalangan bilimlarning asoslanganlik darajasi haqida qo'shimcha ma'lumotni berishdir

Epixevrema - murakkab qisqartirilgan sillogizm bo'lib, uning har ikki asos hukmlari qisqartirilgan oddiy sillogizm (entimema)lardan iborat bo'ladi.

E'tiqod - insonning xatti-harakati, ma'naviy va ahloqiy sifatlari belgilab beradigan qarashlar va tasavvurlar yig'indisidir.

Estetika - bu nafosat olami, san'at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg'u, sezish-idrok qilish vositalari orqali o'rganadigan va o'rgatadigan fan.

Estetik ong - ma'naviy-ruhijy voqea hodisalar majmui bo'lib, ular ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik his, estetik did, estetik fikr, estetik orzu, estetik qarash, estetik nazariya tizimini anglatadi.

Yakka tushuncha - ayrim, alohida predmet, hodisa va jarayonlarning umumiy va muhim tomonlarini aks ettiradi.

O'QUV QO'LLANMANI TAYYORLASHDA FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Davtonov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nigmatova M, Nusanov B, Sultonova A. Falsafa. -Toshkent: TMU, 2019
2. Jonathon A.C. Brown. hadith. -England, 2000
3. Samuel Guttenpion. Philosophy selected texts with a method for beginners.
4. Gilaziev Z.Z. Uglublennoe izuchenie istorii i kultury islama. -Kazan: Izd-vo DUM RT. 2009.
5. Jalilov B. Dinshunoslik. -Toshkent: 2019.
6. Zinoviev A. Logika. Moskva, MGU, 2006.
7. Izzetova E., Po'latova D. Filofofiya. -T.: Sharqshunoslik, 2012. 340-b
8. Pod redaksiyey. Prjilenskogo V.I. Filofofiya dlya bakalavrov. Rostov-na Donu: Feniks, 2007
9. Chupakov A.N. Filofofiya. uchebnyk. 2-izdanie.-Moskva: INFRA-M, 2018
10. SHermuhamedova N.A. Falsafa -Toshkent: Noshir, 2012.
11. Shermuhamedova N.A. Falsafa. 2-nashr. Toshkent: Noshir, 2020. 667 bet
12. Shermuhamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni/Inson falsafasi. Toshkent: Noshir, 2016 314-499 betlar.
13. Falsafa Q. Nazarov tahriri ostida. -T., 2006.
14. Основы философии / Под ред. проф. М. Ахмедовой. -Т., 2004.
15. Саифназаров И. Курс лекций по философии. -Т., 2004.
16. Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi o'quv qo'llanma 2005.
17. G'arb falsafasi. Q. Nazarov tahriri ostida. -T., 2005.
18. Nazarov Q. Aksiologiya-qadriyatlar falsafasi. -T., Universitet 2004.
19. Nazarov Q. Bilish falsafasi. -T., Universitet 2005.
20. To'ychiyev B. T. Huquq falsafasi. -T., 2005.

21. Филсафа: Дарслик / Д.А. Юсубов, Х.Б. Саитходжаев, А.А. Мавлянов. -Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012.
22. Бочаров В.А., Маркин В. И. Основы логики. М.,2002.
23. Брошинкин В.Н. Логика. М.,2001.
24. Гетманова А.Д. учебник по логики. М., 2000.
25. Ивин А.А. Логика: учебник для гуманитарных факультетов. М.,2002.
26. Кириллов В.И., Старченко А. А. Логика: Учебник для юридических вузов - М., 2008.
27. Мавлюанов А.А. Мантия: О'quv qo'llanma. - Т.: Japon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2013. - 144 b.
28. Тўраев Б.О. Логика: масалалар ва машқлар. -Т., 2009.
29. Хайруллаев М., Накбердиев М. Мантик. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
30. Шарипов М., Файзихўжаева Д. Мантик. Ўқув кўлланима, -Т., 2004.
31. Shet A. Axiologshunoslik (Mavruza matni). - Т., ОЎМТВ, 2000.
32. Shet A. Axiologshunoslik (Mavruza matni). - Т.: Янги аср авлоди, 2005.
33. Умаров. Е.У.и. Етика. -Т.: Шо'ирон. 2005.
34. Калдыров А, Садыков Р. Этика – эстетика. ТГЮИ, 2008.
35. Умаров Е. Estetika (Nafosatshunoslik): O'lyu o'quv uyt. Talabalarl uchun o'quv qo'll. - Т.: O'zbekiston, 1995.- 246 b.
36. Умаров Э., Каримов. Эстетика асослари. -Т.: Ўзгитон. 2010.
37. Эстетика.: Учеб. пособие. //Под ред. А.А. Рахугина. -М.: Центр, 2002.
38. Назаров . Эстетика (Дид. нафосат илими). Ўқув кўлланима. -Т.: Адолат. 2005.
39. O'zbekiston Xalqaro munosabalarini mustahkamlashda millatlararo totuvlik g'oyasi. O'quv qo'llanma 2007.

Qo'shimcha adabiyotlar

40. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni tand va oljanoob xalqimiz bilan birlga quramiz. -Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.

41. Jaspers. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press. 1965. P – 77. (P – 19)
42. K. S.Guttenplan. J.Hornsbu. C. Janaway. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. R – 341.
43. A.Fitrat. Tanlangan asarlar –T.: Ma'naviyat, 2010 -301
44. Abu Xomid G'azzoliy Kimey saodat/ikki dunyo saodatiga eltuvchi bilim. - Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2019
45. Aristotel Socheniya. V-4-t. -Moskva: Mysl, 1976
46. Ilin I.V. Ursul A.D. Obrazovanie, obo'stvo, priroda. -Moskva: izd-vo MGU, 2016
47. Katmin A.S., Novikova E.S. Kulturologiya. Kiev, Xarkov-Minsk. 2003
48. Qutubonova I. Falsafiy antropologiya va etnologiya uy'g'unligining o'ziga xos xususiyatlari. Fals.fan. doktori. Diss. –Toshkent: O'ZMU, 2019
49. Losev A.F. Vyite-imya-Kosmos. -Moskva: Mysl, 1993
50. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. Toshkent: O'zbekiston, 2018
51. Platon Sochineniya v 4t. -Moskva: Mysl, 1996
52. Rudugin A.A. Estetika. Moskva: Izd-vo Sentr, 2003
53. Rumiy J. Etti majlis. -Toshkent: Yangi asr avlodi., 2019
54. Rumiy J. Masnaviy. 40 rivoyatga shax. -Toshkent: Navruz, 2019
55. Sayid Muxammad Xotamiy. Islom tafakuri tarixi. -Toshkent: Minhoj, 2003
56. Saifnazarov I., Saifnazarova F. Yoshlar va oila-Vatan tayanchi. -Toshkent: "Ta'lim nashriyoti" MCJN, 2018. -132 b.
57. Temur tuzuklari. Kitobni nashrga tayyorlovchi. Jumaboy Raximov. Toshkent: SHodlik nashrieti. 2018
58. O'zbekiston falsafasi tarixi. Alikulov X. mas'ul muharrir, mualliflar jamoasi. Toshkent: Noshir, 2013
59. Xudoyberganov R. O'lim va barxaelikning falsafiy metodologik taxlili. Toshkent: O'zbekiston, 2017
60. Sharipov M. Maniq. -Toshkent: 2003
61. Shetmukhamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. –T.: Noshir, 2013
62. Shetmukhamedova N.A. Gnoseologiya - bilish nazariyasi. -Toshkent: "Noshir", 2011.
63. Shetmukhamedova N.A. Inson falsafasi. -Toshkent, Noshir, 2016
64. Yassaviy Xoja Ahmad Devoni xikmat. -Toshkent: Navro'z, 2018
65. Аристотель Сочинения в 4-томах. –М., 1975. ч1.
66. Mo'tinov I.M. O'zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. –T.: Fan, 1999.
67. Vo'ronov Q.B. Tasavvuf. –T., 2002.
68. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. Q. Nazarov tahrirni ostida. –T., Sharq, 2004.
69. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R., Qobilmurodova G., Yangi va eng yangi davlat g'airiyatlar falsafasi (XIX-XX asrlar). –T.: Sharq, 2002.
70. Саидов А. Философско-правовое наследие И.Канта и современная юриспруденция. –Т.: Шарк, 2008.
71. Uvalov U. Imom Moturidiy metodologiyasi. –T.: Ma'naviyat, 2000.
72. Uvalov U. Buyuk muftadislari. –T., 1998.
73. Falsafa ensiklopedik lug'at. Nazarov tahrirni ostida. –T., Sharq, 2011.
74. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. –T.: Akademiya, 2000.
75. Juraev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. –T., Sharq, 2011.
76. Шпенглер О. Закат Европы. Ростов на-Дону. 1998.
77. Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация. Под ред. Файзуллаева О. –Т.: Шарк. 2000.
78. Новейший философский энциклопедический словарь. –М., 2001.
79. Ochilidzev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. –T.: O'zbekiston, 2004.
80. Madaeva Sh. Milliy mintalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
81. Musaev F. Demokratik davlat qurilishining falsafiy huquqiy asoslari. –T.: O'zbekiston, 2007.

82. Siseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola. Tarjimon Ur'fon Otajon. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.

83. Haqiqat manzaralari. S. Jo'raeva tarjimai. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.

84. Otamurodov S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi. 2008.

85. Yunusov A. Huquq ma'naviyati. – T.: Adolat, 2008.

86. Mamashokirob S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik havfisizlik masalalari. – T.: Fan, 2009.

87. Qahhorov Sh. Global ma'naviyat – globallashuvning g'oyaviy asosi. – T.: Tafakkur, 2009.

Elektron ta'lim resurslari:

88. www.ziyounet.uz

89. www.philosophy.ru.

90. <http://www.falsafa.de.uz>.

91. <http://www.lib.ru/FILOSOF>

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu: Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyadagi roli.....	5
2-mavzu: Borliq falsafasi va uning mavjudlik shakllari.....	62
3-mavzu: Jamiyat falsafasi va inson borlig'i.....	74
4-mavzu: Rivojlanish nazariyasi, falsafaning qonun va kategoriyalari. Olaming universal aloqalari va rivojlanish.....	115
5-mavzu: Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari.....	138
6-mavzu: Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi.....	147
7-mavzu: Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida. Mulohaza. Xulosa chiqarish.....	161
8-mavzu: "Etika" fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni. Etika fanining asosiy kategoriyalari.....	206
9-mavzu: Estetikaning predmeti, maqsadi, vazifalari va uning asosiy kategoriyalari. Estetikaning zamonaviy muammolari.....	238
10-mavzu: Din madaniyat fenomeni.....	268
11-mavzu: Islom ta'limoti asoslari.....	282
12-mavzu: Diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyot, qarshi kurash strategiyasi.....	315
13-mavzu: Yangi diniy harakatlar va sektalar.....	329
14-mavzu: Kibermakon va zamonaviy diniy jarayonlar.....	351
15-mavzu: Korruptsiyaga qarshi kurashish – jamiyat taraqqiyotining asosi.....	365
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular ro'yxati.....	389
Xulosa.....	392
Glossariy.....	393
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	412

- 13964/57 -



QANDOV BAHODIR MIRZAYEVICH

FALSAFA

o'quv qo'llanma

Muharrir: H. To'xtirov

Texnik muharrir: T. Tursunov

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «Yangi chirchiq book» nashriyotiga 2022 yil 19 dekabrda berilgan 054070-sonli litsenziyasi
Nashriyot manzili: Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Madaniyat MFY.

Ofset qog'oz. Bichimi 60x84. 1/16

Times garniturasida ofset usuli. Shartli bosma tabog'i - 42

Buyurtma № 955240. Adadi 100 nusxada

«Yangi chirchiq book» MChJ bosmaxonasida chop etildi.